

O'ZBEKISTONDA

2023
20- Aprel

FANLARARO INNOVATSIYALAR

VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI

ISSN: 2181-3302

5.963

2023 Impact Factor

Exact

Natural

Medical

Technical

Economics

Philological

Pedagogical

Social sciences
and humanities





“O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR” JURNALI



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma'rifat markazi ©

MATERIALLARI TO‘PLAMI

20-APREL, 2023-YIL

18-SON

O‘ZBEKISTON

2023





Ushbu to'plamda "O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali" ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o'rin olgan.

Mazkur jurnalda zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta'limni rivojlantirishda yo'nalishlar bo'yicha kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktab o'qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul muharrir:

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

Mas'ul kotib:

Hakimov Iqboljon
Farg'ona Politexnika instituti

Texnik xodim:

Sultonov Sardorbek No'monjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sabirova Gulnoza Sadikovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov Ixtiyor Muzropovich

Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari
nomzodi, Dotsent*

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Otaqulov Fozil Sobirovich

Geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Baltayeva Ikbal Tadjibayevna

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*

Sayfullayeva Ra'noxon Raupovna

O'zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Popova Tatyana Igorevna

SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya. Doctor filologicheskix nauk, professor.

Berdaliev Abduvali



Tojikiston. Xo`jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Manzuraxon Ernazarova

Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Uluqov Nosirlon Muxammadalievich

Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljahon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov

Farg`ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Jo`rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No`monovich

Farg`ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G`anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.

O`rinboyev No`monjon O`rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O`zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg`ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg`ona davlat universiteti.

G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg`ona davlat universiteti.

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Muxitdinova Muniraxon

Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna

Urganch davlat universiteti, Geodeziya, kartografiya, geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodu, dotsent

Djumaniyazova Yulduzoy Abdusharipovna

Urganch davlat universiteti, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va IPKT bo`limi boshlig`i, qishloq ho`jaligi fanlari nomzodi, agrokimyo fanlari dotsenti

Ismayilova Intizar

Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrası, qishloq ho`jaligi fanlari nomzodi, dotsent



| MUNDARIJA: | | |
|------------|--|----|
| 1. | Suvpo'latov Ozodjon Alijon o'g'li <i>KORXONALARDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH</i> | 21 |
| 2. | Usmanova Munira Fayzullayevna Sirojiddinova Xiromon Nuriddinovna <i>PERINATAL PATOLOGIYANI KELIB CHIQISHIDA</i> <i>HOMILA ICHI INFEKTSIYASINING O'RNII</i> | 26 |
| 3. | Ахмедова Дилбар Юсуфжановна <i>ВЗАИМОСВЯЗЬ ВНУТРИУТРОБНЫХ</i> <i>ИНФЕКЦИЙ С АКУШЕРСКИМ АНАМНЕЗОМ МАТЕРИ</i> | 30 |
| 4. | Сирожиддинова Хиромон Нуриддиновна Абдухалик-Заде Гулнора Ахтамовна Алланазаров Алишер Боймурадович <i>НОВЫЙ ПОДХОД К ЛЕЧЕНИЮ РЕСПИРАТОРНЫХ ИНФЕКЦИЙ У</i> <i>ЧАСТО БОЛЕЮЩИХ ДЕТЕЙ</i> | 35 |
| 5. | Насириддинова Малика Мейлиевна <i>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ РЕСУРСОВ ИНТЕРНЕТА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ</i> <i>ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ</i> | 40 |
| 6. | Сирожиддинова Хиромон Нуриддиновна Абдухалик-Заде Гулнора Ахтамовна Гайбуллаев Жалон Шавкатович <i>ЗАЩИТНАЯ ФУНКЦИЯ ЭРИТРОЦИТОВ У ЧАСТО БОЛЕЮЩИХ ДЕТЕЙ НА</i> <i>ФОНЕ ДИСБАКТЕРИОЗА</i> | 43 |
| 7. | Abdiganieva Roza Majit qizi, Jetker Seytjanov <i>THE PECULIARITIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN AMERICAN ENGLISH</i> | 48 |
| 8. | Akbarov Dostonbek Axmadali o'g'li, Xamdamirov Sodik Tolibjonovich <i>ATMOSFERA KORROZIYASI SHAROITIDA ISHLAYDIGAN QISMLAR VA METALL</i> <i>KONSTRUKTSIYALAR UCHUN ISHLATILADIGAN PO'LATLAR</i> | 52 |
| 9. | Makhfuza Makhmadjonovna Khalilova <i>PREREQUISITES FOR THE EFFECTIVENESS OF PEDAGOGICAL SUPPORT FOR THE</i> <i>FORMATION OF HEALTH-SAVING COMPETENCE OF A STUDENT VOCALIST</i> | 59 |
| 10. | Axrorova R.U, Moxinur Najmiddin qizi <i>TILSHUNOSLIKDA SHAXS NOMINATSIYASI MUAMMO SIFATIDA</i> | 67 |
| 11. | Эронов Самарбек Қурбонназарович <i>“ИШОНЧ” КАТЕГОРИЯСИ ВА УНИНГ ТАЛҚИНИ</i> | 69 |
| 12. | Karimov Baxriddin Isoqovich <i>QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARNI YETISHTIRISHDA YANGI ZAMONAVIY</i> <i>TEXNIKALARDAN FOYDALANISH</i> | 73 |
| 13. | Khakimjanov Omon Pulatdjanovich <i>PROPAGATION OF PAULOWNIA FELT(PAULOWNIATOMENTOSA)</i> <i>USINGBIOTECHNOLOGICAL METHODS</i> | 78 |
| 14. | Qarshiboyev Jahongir Hazratqulovich, Shodiyeva Dilrabo Abdurahmonov Ilhom <i>MIRZACHO'LDA TARQALGAN BURCHOQDOSHLAR</i> | 81 |



| | | |
|-----|--|-----|
| 15. | Mo'minova Feruza Farmonovna <i>ALISHER NAVOIY HAQIDAGI ASARLARDA HUSAYN BOYQARO OBRAZINING YORITILISHI (OYBEKNING " NAVOY" ROMANI, ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY" ROMANLARI MISOLIDA)</i> | 86 |
| 16. | D.A. Xudoyberdiyeva <i>TABIY YODGORLIK- SHARSHARALAR, KO'L VA BULOQLARDAN OQILONA FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING AYRIM MASALALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)</i> | 92 |
| 17. | Yaxshiboyev Mahmud Abdumutal o`g`li. O`taganova Xoliniso Ne`mat qizi. <i>SPORT JAMOALARIDAGI O`ZARO MUNOSABATNI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH</i> | 96 |
| 18. | Алимов Шахриддин Мухамматович, Ахмадов Улугбек Азамат угли <i>ПОВЫШЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ БОРТОВ ПРИ ВЕДЕНИИ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ В МЕСТОРОЖДЕНИЕ «ЁШЛИК-1»</i> | 100 |
| 19. | Mengatova Xurshida Toshmuxamatovna. Namozova Rushana To'lqinjonovna <i>BUYUK AJDODLARIMIZNING MEROSI- MA'NAVİYATIMIZ O'CHOG'IDIR</i> | 104 |
| 20. | Убайдуллаев Саидакбар Сайдалиевич <i>ПОРЯДОК ПРИМЕНЕНИЯ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ВОЕННОЙ СФЕРЕ</i> | 109 |
| 21. | Марғуба Раджапова <i>ИСЛОМ ДИНИНИНГ БАҒРИКЕНГЛИК ТАМОЙИЛЛАРИ</i> | 112 |
| 22. | Abdullayeva Uljalg'as Tulegen qizi <i>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLANILISHI</i> | 116 |
| 23. | Галимова Лилия Газисовна, Ким Светлана Генадьевна <i>«СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ К ПРАВИЛЬНЫМ ДЕЙСТВИЯМ ВО ВРЕМЯ ЗЕМЛЕТРЯСЕНИЙ С ПРИМЕНЕНИЕМ НОВЕЙШИХ ТЕХНОЛОГИЙ»</i> | 123 |
| 24. | Otajonova Inobat Ro'zimovna <i>BIOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI</i> | 128 |
| 25. | Durdona G'ulomjonova, Nargiz Artikova <i>BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI</i> | 132 |
| 26. | Asrarov Sh.A <i>TERMODINAMIKADA ENTROPIYA TUSHUNCHASINING AHAMIYATI</i> | 139 |
| 27. | Ibrokhimov Sayyodbek, Mominova Ismugul, Yaxshiboyev Ahrorbek <i>METHODS OF TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL EDUCATION</i> | 143 |
| 28. | Ergashev Mahmud Axbaraliyevich , Sulxonov Diyorbek Axror o'g'li O'ralboyeva Dildora Farxod qizi <i>YOSHLIK 1 KONI SHAROITIDA PORTLATISH ISHLARINI SAMARALI OLIB BOORISH UCHUN PORTLOVCHI MODDANING MAQBUL TURINI TANLASH</i> | 147 |
| 29. | Ishmetov Bahrom Yangibayevich, Atajanov Sarvarbek Anvarbekovich <i>KAFEDRA TALABALARI TOMONIDAN BAJARILGAN KURS ISHLARINI HISOBGA</i> | 150 |



| | | |
|-----|--|-----|
| | <i>OLISHNING AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH</i> | |
| 30. | Mirzayeva Umidahon Murodjon qizi, M.Z.Nosirov <i>LAZERLARDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH</i> | 156 |
| 31. | Файзуллаева Гульмира Баходир кизи <i>ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПЛОД ВО ВРЕМЯ БЕРЕМЕННОСТИ. ЗАБОЛЕВАНИЯ ЖЕНСКИХ ПОЛОВЫХ ОРГАНОВ</i> | 158 |
| 32. | M.D. Boltayeva, Yo'ldasheva Dilnavoz Xatamjon qizi <i>ANANAVIY TALIM METODI ASOSIDA VA "ESHITDIM, KO'RDIM, BAJARDIM" TAMOYILI ASOSIDA TAJRIBA SINOV ISHLARIDA TALABALARNI O'ZLASHTIRISH DARAJASINI MATEMATIK STATISTIK TAHLILI</i> | 168 |
| 33. | Мелибоев Ойбек Абдусамад ўғли, Н.М. Арипов <i>ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ СКОРОСТИ РАЗМОТКИ КОКОНОВ НА ГЛАВНЫЕ ФАКТОРЫ ПРОИЗВОДСТВА ШЕЛКА-СЫРЦА</i> | 184 |
| 34. | Shertoyeva Manzuraхon O'rmonaliyevna <i>МАКТАБГАЧА BO'LGAN YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ O'STIRISHNI O'RNI VA AXAMIYATI</i> | 188 |
| 35. | O'razaliyev Shirinboy Bo'ron o'g'li <i>POLISILINDIRIK SOHA</i> | 193 |
| 36. | O'razaliyev shirinboy bo'ron o'g'li <i>H_φ FAZOSI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI</i> | 196 |
| 37. | Shukurov Ikrom Abdurashitovich <i>NAVBATLI YALPI XIZMAT KO'RSATISH TIZIMI MODELLARI</i> | 200 |
| 38. | Санжар Авазов <i>МИГРАНТЛАР ОИЛАСИДАГИ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИ</i> | 203 |
| 39. | Berdiyev Doston Abduvoitovich, <i>STEAM TA'LIMINI TATBIQ ETISH ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI</i> | 208 |
| 40. | Халимова Мохигул Рустамовна <i>СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК</i> | 215 |
| 41. | Yakubov Muzaffar Kamildjanovich <i>THE IMAGE OF AMIR TIMUR IN ENGLISH DRAMA</i> | 221 |
| 42. | Ashurova Muxlisa Xudaynazarovna, Boypovlatova Oyjamol Abdulla qizi Muxammadiyeva Gulchiroy Raxmonovna, Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich <i>O'G'ITLARNING TURLARI - XUSUSIYATLARI , TUPROQ STRUKTURASIGA VA O'SIMLIK HOSILIGA TA'SIRI</i> | 225 |
| 43. | Pirimqulova Muxabbat Xayitovna, Xolmatova Marjona Yunus qizi Abduvahobova Mohinurxon Avazbek qizi Mamarajabov Samandarbek Faxriddinovich <i>KARTOSHKANING TARQALISH HUDUDLARI</i> | 230 |
| 44. | Джалилова Гулнора Хамзаевна <i>ЛЕКСИКА КАК ФАКТОР, СПОСОБСТВУЮЩИЙ ФОРМИРОВАНИЮ ИМИДЖА ПЕЧАТНОГО ИЗДАНИЯ</i> | 234 |
| 45. | Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna | 239 |



| | | |
|-----|---|-----|
| | <i>O`SIMLIKLAR DUNYOSINI HIMOYA QILISH VA BIOXILMA-XILLIKNI SAQLASH</i> | |
| 46. | Sobirova Nigora Qodirjon qizi <i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISH</i> | 244 |
| 47. | Отақулов Ниёзбек Анвар ўғли <i>ОДАМ САВДОСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ЖИНОИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ</i> | 249 |
| 48. | Lutfinisa Dexkanova <i>ARABCHA KO'PLIK SHAKLLARINING O'ZBEK TILIDA QO'LLANILISHI</i> | 256 |
| 49. | Qodirova Makhliyo Abdusattor qizi, Xalimjonova Shaxnoza Ma'murjonovna. <i>OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI - XORIJIY TILLARNI O'QITISH MABA SIFATIDA</i> | 260 |
| 50. | Нафиса Аббасова <i>О ЕДИНСТВЕННОСТИ ОДНОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ЛАПЛАСА</i> | 265 |
| 51. | Davlatov Diyor Dilshodovich, Ziyodullayev Asilbek Absalomovich <i>BINOLARNI LOYIHALASHDA KONSTRUKSIYAGA QOYILADIGAN TALABLAR VA ULARNING YECHIMLARI</i> | 268 |
| 52. | Soatova Maqsuda <i>ZAMBURUG'LAR VA ULARGA YONDOSH MIROORGANIZMLAR</i> | 273 |
| 53. | Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna <i>TUPROQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i> | 278 |
| 54. | B.U.Normo'minov <i>BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI</i> | 282 |
| 55. | З.Йигиталиева <i>МОДУСНИНГ ГРАММАТИК САТҲДА ИФОДАЛАНИШИ</i> | 287 |
| 56. | Tursunqulov Jahongir Furqat o'g'li <i>O'ZBEKISTONDA MINIMAL ISTE'MOL XARAJATLARI QIYMATINI HISOBLASH TARTIBI</i> | 292 |
| 57. | Mirzakarimov Jasurbek Madaminjon o'gli <i>EKSKAVATOR CHOMICH TISHINI KIMYOVIY TARKIBI, MEXANIK XUSUSIYATLARI VA CHOMICH TISHLARINI QUYISH TEXNOLOGIYASI</i> | 300 |
| 58. | Buriyeva Shaxnoza, Xo'janova Nasiba <i>FITRAT IJODIDA RAMZIY ORAZLAR</i> | 305 |
| 59. | Anarbaev Muhammad Pardaboy o'g'li <i>SITRUSCHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</i> | 309 |
| 60. | Ibragimov Azimbek <i>TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI</i> | 311 |
| 61. | Gulmatova Lobar Aziz qizi <i>MAKTAB O'QUVCHILARINING TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA INTEGRATIV YONDASHISH SAMARALILIGINI EKSPERIMENTAL O'TGANISH</i> | 317 |
| 62. | M.Z.Djalaldinova <i>MURIEL SPARKNING "BANG BANG YOU ARE DEAD" АСАРИ БОШ</i> | 325 |



| | | |
|-----|---|-----|
| | <i>ҚАХРАМОНИНИНГ ЗИДДИЯТЛИ ТАҚДИРИ</i> | |
| 63. | B.M.Jo`Rayev, I.X.Siddiqov <i>4DP-130 RUSUMLI ARRALI JIN PD TA'MINLAGICHINI AVTOMATLASHTIRISH ORQALI UNUMDORLIKNI OSHIRISH</i> | 329 |
| 64. | Gafurova Nodira ravshanovna <i>TARBIYAVIY JARAYONDA TOLERANTLIKNING O'RNI</i> | 336 |
| 65. | Qahhaorov Siddiq Qahhorovich, Orziyev Xurshidjon Aminboy o'g'li <i>QUYOSH MEVA QURITGICHLARIDA ISSIQLIK JARAYONI</i> | 341 |
| 66. | Tadjidinov Muxriddin <i>MIYA MAGNETIK TASVIRLARINI MASHINA O'RGANISHI ALGORITMLARI BILAN QAYTA ISHLAGAN XOLDA INSULT XOLATINI ANIQLASH USULLARINING XOSSALARI</i> | 350 |
| 67. | Qobilov Mirziyo Eshnozar o'g'li, Mamayusupova Nilufar Jo'ra qizi <i>O'ZBEK TILINING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI (NUTQ RAVONLIGIGA PUTUR YETKAZUVCHI ASOSIY OMILLAR)</i> | 353 |
| 68. | Бимуратов Даулетмурат Мурат улы <i>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ GRID ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ВИЗУАЛИЗАЦИИ ГЕО ИНФОРМАЦИОННЫХ ДАННЫХ</i> | 358 |
| 69. | Xusanova Nargiza Farxod qizi <i>AMIR TEMUR BUYUK DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA</i> | 362 |
| 70. | Omonova Dinora Dilshodjon qizi <i>UMUMLASHGAN HILFER MA'NOSIDAGI HOSILA VA RIMAN-LIUVILL MA'NOSIDAGI INTEGRALNI O'Z ICHIGA OLUVCHI ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASI</i> | 371 |
| 71. | Bozorova Madinaxon Murodjon qizi <i>IKKINCHI TARTIBLI INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN TO'G'RI VA TESKARI MASALALAR</i> | 377 |
| 72. | Ахмедов Сохибжон Акбарович Турсунов Бекзод Бурхон огли <i>ОЦЕНКИ РАЗНОСТНЫХ ПСЕВДОМОМЕНТНОВ В ЗОНАХ БОЛЬШИХ УКЛОНЕНИЙ</i> | 383 |
| 73. | Йўлдошев Рустам Элмуродович <i>БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МАГИСТРЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ БЎЙИЧА ДИНАМИК МОДЕЛНИ САМАРАЛИ ТАДБИҚ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ</i> | 390 |
| 74. | Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda <i>HARBIY- VATANPARVARLIK TARBIYASINING TAMOYILLARI, SHAKL VA USLUBLARI</i> | 395 |
| 75. | Karabayeva Soxiba <i>ABDULLA QODIRIYNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI</i> | 400 |
| 76. | Karabayeva Soxiba <i>ABDULLA QODIRIYNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI QO'LLASH MAHORATI</i> | 405 |
| 77. | Rahmatullayeva Parizod Tohirjon qizi, O'ktamaliyeva Go'zalxon Anvarjon qizi <i>ANTIBIOTIKLARNING ORGANIZMGA SALBIY TA'SIRI</i> | 409 |



| | | |
|-----|---|-----|
| 78. | Normatov Rixsimurod Quchqor o'g'li, Xamzayev Sobir Amirovich <i>DIFFICULTIES IN TRANSLATING THE TITLES OF WORKS ARE BAD-NON - FICTION (BASED ON THE MATERIAL OF THE RUSSIAN, ENGLISH AND GREEK)</i> | 412 |
| 79. | Ravshanov Bexruz Xasanovich, Mirzayev Olim Saidovich <i>JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QITUVCHI VA TALABA FAOLIYATIGA YANGILIKLAR KIRITISH VA UNI AMALGA OSHIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANILISH</i> | 417 |
| 80. | Yusupov Baxtiyor Boboxonovich, Sobirova Laylo Xudayberganovna <i>O'SMIR YOSHDAGI FUTBOLCHILARNI TEXNIK JIHATDAN TAYYORLASHDA XARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI</i> | 424 |
| 81. | Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Mamirova Madinabonu Bexzod qizi <i>MIGRATSIYA SABABLARI VA UNI TASHKIL QILISH USULLARI.</i> | 432 |
| 82. | Dushabayev Abdulla Musayevich <i>"THE IMPORTANCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MANAGING THE QUALITY OF EDUCATION IN PUBLIC SCHOOLS"</i> | 438 |
| 83. | Xaydarova Anora <i>AYOLLARNING IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTDAGI ROLI</i> | 444 |
| 84. | Saidov Sarvar Faxriddin o'g'li <i>JINOYAT PROTSESSIDA TERGOVGA TEGISHLILIKNING AHAMIYATI VA O'RNI</i> | 449 |
| 85. | Марасулова Иззат Мухаматсултановна <i>ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЗАРГАРЛИК САНЪАТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ</i> | 456 |
| 86. | O'tkir Isoxanov Inoyatovich , Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li Turdibekov Salohiddin Qodirovich <i>YUK VA YENGIL AVTOMOBILLAR O'RTASIDA KO'RINMAS XUDUDDA YO'L TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISH CHORALARI</i> | 460 |
| 87. | O'tkir Isoxanov Inoyatovich, Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li Turdibekov Salohiddin Qodirovich <i>AVTOMOBIL YO'L EKSPERTIZASI BO'YICHA YA'NI YO'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH</i> | 464 |
| 88. | Qurbonov Sanjar <i>BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i> | 469 |
| 89. | Ummatov Muhsinjon Xasanboy o'g'li <i>XALQARO ARBITRAJDA MAXFIYLIK VA OSHKORALIK O'RTASIDAGI QARAMA QARSHILIKLAR</i> | 474 |
| 90. | Abruyev Shaxbos Isroil o'g'li , Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li Tursunov Nodir Hamrayevich <i>TARTIBGA SOLINGAN VA TARTIBGA SOLINMAGAN TEMIR YO'L KESISHMALARI TAHLILI</i> | 483 |
| 91. | Ro'ziyeva Maxliyo Qayumovna <i>KO'P YILLIK TAYYORGARLIK TIZIMIDA SUZUVCHILARNI SARALASH VA YO'NALTIRISH</i> | 487 |
| 92. | Мамадалиев Адхамжон Тухтамирзаевич <i>ОКСИДЛИ МИНЕРАЛЛАРНИНГ ТАБИАТДА УЧРАШИ ВА ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ</i> | 492 |



| | УЧУН АҲАМИЯТИ | |
|------|---|-----|
| 93. | Ахунов Даниер Бахтиерович <i>РЕСПУБЛИКАМИЗ ХУДУДИДА ЖОЙЛАШГАН БАЗАЛЪТЛАРНИ КИМЁВИЙ ВА МИНЕРАЛОГИК ТАРКИБЛАРИНИ ЎРГАНИШ</i> | 501 |
| 94. | Xasanov M, Mardieva N <i>THE ASPECTS AND COMPONENTS OF INTONATION</i> | 510 |
| 95. | Ismailova Shaxnoza Uktamovna <i>INFLYATSION JARAYONLARNI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI</i> | 517 |
| 96. | Eshmatov Sanjar Azimkulovich, Tog'ayeva Dildora Akramovna <i>CHAKANA SAVDODA TOVOR AYLANMASINI OSHIRISH</i> | 525 |
| 97. | Raximov S. D, Pirimqulov R. O <i>PROBLEMS OF APPLYING MODERN DIGITIZATION PROCESSES IN ALGORITHM IN MODERN EDUCATION</i> | 531 |
| 98. | Ro'zmetova Muslima <i>KREATIV YONDASHUV-BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA</i> | 534 |
| 99. | Normurodova Nafisa Baxadirovna <i>IMPLEMENTING INTERNET RESOURCES IN TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE</i> | 538 |
| 100. | Fayziyeva Dilnoza Abduraximovna <i>TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB QUVVATLASH ZAMONAVIY MEKANIZMLARINI YARATISHNING NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR BILAN TARTIBGA SOLINGANLIGI</i> | 541 |
| 101. | Nasimova Muattar Khasanovna, Toshmukhammedova Gulnoza <i>LECTURERS' METHODS IN TEACHING SPEAKING</i> | 546 |
| 102. | Maratova Nilufar Laziz qizi <i>BOSHQARUVGA DOIR QARASHLAR: ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" DOSTONI MISOLIDA</i> | 551 |
| 103. | Turg'unova E'zoza Ilg'or qizi <i>IT SOHASINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI</i> | 557 |
| 104. | Абдусаратова Фирюза Хамидовна <i>РАДИОНУТҚНИНГ АФЗАЛЛИГИ ВА КАМЧИЛИКЛАРИ</i> | 565 |
| 105. | Saule Erkinovna Imamberdiyeva <i>DAVLAT TILIDA ISH YURUTISH HAR BIR DAVLAT XIZMATCHISINING BURCHIDIR</i> | 568 |
| 106. | Dadajanova Dilfuza Mirzahmatovna <i>DIZARTRIYANI BARTARAF ETISH METODLARI</i> | 573 |
| 107. | Anarkulova Liliya Esanbayevna <i>BOLALAR MIYYA FALAJIDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USLUBLARI</i> | 578 |
| 108. | Djalilova Shoir <i>ABDULLA QODIRIY IJODIDA LEKSIK SEMANTIK MUNOSABATLAR</i> | 581 |
| 109. | Nurmatova Gulnoza Arabjonovna, Qurbonova Sayyora Maxamadaliyevna <i>POLISEMIYANING TURLI SATH BIRLIKLARIDA NAMOYON BO'LISHI</i> | 586 |
| 110. | Атамуратов Шамсиддин Илашевич | 590 |



| | | |
|------|---|-----|
| | Махсумов Музаффар Джахангирович АЧЧИҚ ШУВОҚ ЎСИМЛИГИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ҲАМДА ТИББИЁТДА ШИФОБАХШ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ОЛИБ БОРИЛГАН ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАРГА ҚИСҚА ШАРҲ | |
| 111. | Xudoyberdiyeva Xusnora Numonjon qizi BO'RTMA NEMATODALAR KELITIRIB CHIQRADIGAN KASALLIKLAR (FILOMETROIDOZ, RAFIDOSKARIDOZ, DIOKTOFIMOZ) NING KELIB CHIQISH SABABLARI VA OLDINI OLISH UCHUN YECHIM | 596 |
| 112. | Turdaliyeva Maftunaxon Saydolim qizi ALGEBRAVIK TENGLAMALARNI ECHISHDA GIPERGEOMETRIK QATORLARNI QO'LLANILISHI | 598 |
| 113. | Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li SOVET HOKIMIYATINING XX ASRNING 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI | 604 |
| 114. | Давронова Азиза Амриллоевна ТЮРКИЗМЫ В РОМАНЕ ГУЗЕЛИ ЯХИНОЙ «ЗУЛЕЙХА ОТКРЫВАЕТ ГЛАЗА» | 610 |
| 115. | Ш.Холдоров А.Джурраев А.Мавлянов ТАВСИЯ ЭТИЛГАН ТОЛА ТОЗАЛАГИЧНИНГ АРРАЛИ ЦИЛИНДРИ ВА ЭЛЕКТР ЮРИТГИЧНИНГ ХАРАКАТ ҚОНУНИНИ ТАЖРИБАДА АНИҚЛАШ | 616 |
| 116. | Nortoijiyev Asadbek Shodiyorovich XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ARBITRAJ BITIMINING AHAMIYATI | 623 |
| 117. | Saparbaeva B.J O'G'ITLAR ISHLAB CHIQRISHDA QORAQALPOQ AGRO RUDALARINING AHAMIYATI | 629 |
| 118. | Salimova Marjona Salomovna PSIXOLOGIYA VA OILAVIY QADRIYATLAR TIZIMI | 634 |
| 119. | A.O.Mamanazarov O.A.Abdubannopova O'ZGARMAS KOEFFITSIYENTLI INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMALAR SISTEMASINI YECHISHNING DALAMBER USULI | 637 |
| 120. | Байкулов Азим Кенжаевич Убайдуллаева Гулчехра Бахриддиновна Хайитова Барно Амировна ЭНДОТЕЛИАЛЬНАЯ ДИСФУНКЦИЯ СОСУДОВ С ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ ГИПЕРЛИПОПРОТЕИНЕМИЕЙ | 642 |
| 121. | Ғуламова Зилола Саттаровна Маърипова Меҳринисо Арзиқулова Сабина СУҒОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАРНИНГ МОРФОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ | 649 |
| 122. | Olimjonov Abdulloh Nodirbek o'g'li XALQARO ARBITRAJDA SHAFFOFLIK | 654 |



| | | |
|------|--|-----|
| 123. | М.И. Абдуллаев Б.Т. Таджибаев Н.Н. Ахмедгалиева <i>ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЯ МИКОЗА СТОП У БОЛЬНЫХ, ПЕРЕБОЛЕВШИХ COVID-19</i> | 659 |
| 124. | M.I.ABDULLAEV B.T.TAJIBAEV, N.N. AKHMEDGALIEVA <i>FEATURES OF THE COURSE OF FOOT MYCOSIS IN PATIENTS WITH COVID-19</i> | 660 |
| 125. | N.A.Imomova <i>JAMIYATIMIZDA SHAKILLANGAN "ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI"NING IJTIMOIIY-IQTISODIY MAZMUNI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI</i> | 665 |
| 126. | Safoyev Hasan Aminovich Mamurov Baxrom Baxshulloyevich <i>JISMONIY TARBIYA VA SPORTNING IJTIMOIIY – TARBIYAVIY AHAMIYATLARI</i> | 673 |
| 127. | Xayitov Jumaqul Negmatovich <i>JISMONIY MASHQLAR TA'SIRIDA INSON TANASIDA YUZ BERADIGAN FIZIOLOGIK VA KIMYOVIY O'ZGARISHLAR</i> | 678 |
| 128. | Safoyev Hasan Aminovich Mamurov Baxrom Baxshulloyevich <i>O'ZBEKISTONNING IQLIM SHAROITIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG'ULOTLARINING XUSUSIYATLARI.</i> | 683 |
| 129. | Vohidova Durdona Abduqaxxorovna <i>MATERIALLAR KORROZIYASI VA KORROZIYAGA QARSHI QOPLAMALAR TAXLILI</i> | 688 |
| 130. | M.Xallokova Botirova Ruhsora <i>NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH.</i> | 693 |
| 131. | Холдорова Гулбаҳор Михлибоевна Қудратов Жонибек Асомиддин ўғли <i>ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИДА ФАНЛАРАРО АЛОҚАЛАРНИ УЙЎНЛАШТИРИШ</i> | 696 |
| 132. | Коптилеуова Венера Бахитовиа Бисенбаева Рамиза Куанишбай қизи Яббарбергенова Айтбийке Абдуллаевна <i>КАТТАЛАР ТАЪЛИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ.</i> | 700 |
| 133. | Jumanazarova Rayhona <i>NODIRA AFOQOVA SHE'RIYATIDA BADIY KO'CHIMLARNING O'RNI</i> | 703 |
| 134. | Muxammadjanov Suhrobbek Sul-tonboy o'g'li <i>XALQARO SAVDO PALATASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI</i> | 707 |
| 135. | Rayimov Akbarali Ahmadjon o'g'li <i>O'ZBEKISTON XALQARO TIJORAT ARBITRAJIGA QANCHALIK TAYYOR?</i> | 712 |
| 136. | Tursunova Saodatxon Baxtiyor qizi Saitqulova Iroda Baxtiyor qizi <i>ILMIY TERMINLARNI TARJIMA QILISH SOHASI, USULLARI VA MUAMMOLARI</i> | 717 |



| | | |
|------|---|-----|
| 137. | Ismoilov Mavludbek Muqimjon o'g'li <i>XALQARO ARBITRAJLARDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNING DAXLSIZLIGI MASALALARINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI</i> | 722 |
| 138. | Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi Pakirdinova Sharofat Abdulmutallibjonovna <i>INGLIZ DIPLOMATIK YOZISHMALARIDA QISQARTMALARDAN FOYDALANISHNING TUTGAN O'RNI</i> | 730 |
| 139. | Қучқорова Махсуда Махкамовна <i>ТАЪЛИМНИНГ ДИДАКТИК ФАОЛИЯТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧА БЕРИШ</i> | 734 |
| 140. | Қучқорова Махсуда Махкамовна <i>ШАХАРСОЗЛИҚДА РЕЛЬЕФ, СУВ ОБЪЕКТЛАРИ ВА ЛАНДШАФТ ҚУРИЛМАЛАРИ.</i> | 742 |
| 141. | Собиров Мухторжон Махаммаджанович Тохиржонова Нозима Тохиржон қизи <i>ТЕРМОКОНЦЕНТРАТНИ КИСЛОТАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ЧИҚИНДИСИДАН СУЮҚ КАЛЬЦИЙ ХЛОРАТ ОЛИШ</i> | 750 |
| 142. | Собиров Мухторжон Махаммаджанович Тохиржонова Нозима Тохиржон қизи <i>ТЕРМОКОНЦЕНТРАТ, ХЛОРИД КИСЛОТА ВА АЗОТЛИ КОМПОНЕНТЛАР АСОСИДА ОЛИНГАН NP-ЎҒИТЛАРНИНГ ФИЗИК-МЕХАНИК ХОССАЛАРИ</i> | 759 |
| 143. | Тураев З Бахриддинов Н <i>РАНГЛИ МЕТАЛЛУРГИЯ ИККИЛАМЧИ МАҲСУЛОТЛАРИДАН МИКРОЭЛЕМЕНТ ТАРКИБЛИ СУПЕРФОСФАТ ОЛИШ</i> | 768 |
| 144. | Мамадалиев Шухрат Машраббоевич <i>МЕХАНИЗАЦИЯЛАШТИРИЛГАН ДАЛА ИШЛАРИНИ БАЖАРИШ ЖАРАЁНИДА ХАВФСИЗЛИК ТЕХНИКАСИ ТАЛАБЛАРИ</i> | 775 |
| 145. | Рахманов Шарифжон Валижонович <i>ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ КОМПОЗИЦИОННЫХ СВЯЗУЮЩИХ НА ОСНОВЕ МОЧЕВИНОФОРМАЛЬДЕГИДНОЙ И ПОЛИАКРИЛОНИТРИЛА И МЕЛАМИНА</i> | 783 |
| 146. | Marguba.Nomozova Nilufar Shabonova <i>THE BENEFITS OF DEFFERENT CHATS LANGUAGE PRACTICE</i> | 781 |
| 147. | Nabiyev Iskandar Farxodjon o'g'li, Ma'rufjonov Maqsudjon Mansurjon o'g'li Mirzamboyev Tursunali Rustamjon o'g'li <i>GOOGLE FORM JAVOBLARIDAN SERTIFIKAT YARATISH</i> | 799 |
| 148. | Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna <i>XOZARASP ERKIN IQTISODIY ZONASINI TASHKIL QILINISHI INVESTITSION MUHITNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YECHIMI SIFATIDA.</i> | 804 |
| 149. | Ўрмонов Давронбек Абдукаримович <i>ЖАХОНДА ЗАМОНАВИХ ПРОФАЙЛИНГ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ.</i> | 808 |



| | | |
|------|--|-----|
| 150. | Қайрат Анарбаевич Мамбеталиев <i>ВОҚЕАБАНД ШЕЪРЛАРДА ЗАМОН ТАЛҚИНИ</i> | 814 |
| 151. | Дустмуродов Элдор Эшбобоевич <i>ИССЛЕДОВАНИЕ ГЛЮОННО-ЯДЕРНОГО PDF С ТЯЖЕЛЫМ КВАРКОМ НА LHC</i> | 820 |
| 152. | Raximova T Adilova Shirin Ro'zimova Shoxista Sobirov B <i>ARBOLIT BETONLARNING DEFORMATSION XOSSALARI</i> | 825 |
| 153. | Esankulov Abdullo Eshpo'latovich <i>IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYASIDA TARMOQLAR TARKIBIY O'ZGARISHINING AHAMIYATI</i> | 828 |
| 154. | Урунбаева Д.А Нажмутдинова Д.К <i>РОЛЬ ВИТАМИНА Д В ТЕЧЕНИИ АУТОИММУННОГО ТИРЕОИДИТА</i> | 832 |
| 155. | Урунбаева Д.А Нажмутдинова Д.К <i>РОЛЬ ВИТАМИНА Д В ТЕЧЕНИИ АУТОИММУННОГО ТИРЕОИДИТА</i> | 835 |
| 156. | Рузибаев Мансурбек Сабирович Розибаева Юлдузхон Сабуровна Сабирова Нафиса Мансурбек кизи <i>ВООРУЖЕНИЕ ВОЙСКА АМИРА ТЕМУРА И СПОСОБЫ ЕГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ</i> | 837 |
| 157. | Tukhtanazarov Ilkhom Ibragimcanovich <i>ТАЛАБАЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ИЖТИМОИЙ ИНСТИТУТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ</i> | 841 |
| 158. | Nilufar Abdumutalib qizi Kurbanova <i>JAHON TASVIRIY SAN'ATIGA OID PLASTIK ANATOMIYA MANBAALARI TAHLILI.</i> | 844 |
| 159. | Анварова Ирода Анваровна Сувонова Дилрабо Жамшид қизи <i>МИСНИНГ АСОСИЙ ХОМАШЁ МАНБАЛАРИ, УНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШ СОҲАЛАРИ</i> | 847 |
| 160. | Анварова Ирода Анваровна Одинамаматова Фароғат Эркин қизи <i>ХАРАКТЕРИСТИКА АДСОРБЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ И ОБЛАСТИ ИХ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРИМЕНЕНИЯ.</i> | 852 |
| 161. | Anvarova Iroda Anvarovna <i>NEFT-GAZ MAHSULOTLARNI YIG'ISH, SAQLASH VA TASHISH JIHOZLARI UCHUN AGRESSIV MUHITGA CHIDAMLI POLIFUNKSIONAL ORGANOMINERAL QOPLAMALAR XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI"</i> | 856 |
| 162. | Turdiyev Zohidjon Nasirovich Muxiddinova D.Z <i>ZAMONAVIY TADQIQOTLARDA METAFORA VA UNUNG "MING BIR KECHA" (ARAB XALQ ERTAKLARI)DA BERILISHI</i> | 862 |



| | | |
|------|---|-----|
| 163. | Aytimbetova Ulbiyke <i>IMPROVING LISTENING SKILL OF STUDENTS OF HIGH EDUCATION THROUGH INTERNET TECHNOLOGY</i> | 867 |
| 164. | Rahmonov Ixtiyor Xusanovich Xalmanov Ural Rasulovich <i>PEDAGOGIKANING ASOSIY FUNKSIYASI VA ILMIY TADQIQOT METODLARDAN FOYDALANISH.</i> | 872 |
| 165. | Мамиров Уктам Фарходович Холикулова Муслима Примберди кизи <i>СИНТЕЗ АДАПТИВНОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕМПЕРАТУРНЫМ РЕЖИМОМ КОТЛОАГРЕГАТА НА ОСНОВЕ НЕЙРОСЕТЕВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ</i> | 877 |
| 166. | Буриев Шукурулло Абдуганиев Фирдавс Абдурайимов Абдулазиз <i>ИССЛЕДОВАНИЯ УСТАЛОСТНОГО ОСЛАБЛЕНИЯ ПРОЧНОСТИ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ МНОГОКРАТНЫХ НАГРУЗКАХ В РЕЖИМЕ СЖАТИЯ И РАСТЯЖЕНИЯ</i> | 884 |
| 167. | Ғаффоров Рифат <i>ЁШЛАР МИЛЛИЙ МАЪНАВИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА АХБОРОТ ХУРУЖ ВА ТАҲДИДЛАРИ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА</i> | 888 |
| 168. | Boyoqobilova Zilola Normurodovna <i>EFFECTIVE INNOVATIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.</i> | 892 |
| 169. | Ismoilov Sherzodbek Dilshodovich <i>TALABALARNING FAMILISTIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI.</i> | 897 |
| 170. | Jumaboyeva Nilufar Zoirovna <i>PECULARITIES OF ORGANIZING EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES IN TEACHING EFL</i> | 903 |
| 171. | Radjabova Madina Shavkatovna Ikromov Nurmuhammad Ilhomjon o'g'li Hafizov Shukurullo Fayzullo o'g'li Mirzanazarov Mehridil Shamsiddin o'g'li <i>KIBERXAVFSIZLIK SIYOSATI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOTLAR</i> | 905 |
| 172. | Султанов А Солиев Б <i>АКУСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ОСОБО ЛЕГКИХ БЕТОНОВ</i> | 913 |
| 173. | Toshpo'latov Abrorjon Mirhokimovich <i>CHAQIRILUVCHILARNI JISMONAN CHIDAMLILIK RUHIDA TARBIYALASH USLUBIYOTI</i> | 916 |
| 174. | Matchanov Toxirjon Matchanovich Allamuratov Timur Komekbaevich <i>IQTISODIYOT RIVOJLANISHI JARAYONIDA BANK-MOLIYA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH VA ULARNING AVZALLIKLARI HAMDA HAVFSIZLIK JARAYONI</i> | 925 |



| | | |
|------|--|------|
| 175. | Абдухаким Неъматов <i>ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЗБЕКИСТАНА В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИКИ</i> | 934 |
| 176. | Komilov Azomjon Mavlonov Shuhratbek Akmaljon o'g'li Qo'chqorov Azizbek Sherzod o'g'li Shaydullayev Jamshid Abdumalik ogli Shiraliyev Zafar Ulug'bek o'g'li <i>YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH</i> | 940 |
| 177. | Якубов Мақсадхан Султаниязович Жамалова Гулчехра Бабакуловна <i>ДАВЛАТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ УСУЛЛАРИ</i> | 943 |
| 178. | Babadjanova Sh.A Qurbanova G.Ch <i>DIFFUZ TOKSIK BUQOQ KLINIK-LABORATOR DIAGNOSTIKASI</i> | 958 |
| 179. | Asrayev Umar Mo'minovich <i>MOLIYA SOXASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI</i> | 964 |
| 180. | Etmatova Navbahor Baxtiyorovna <i>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATIGA SALBIY VA IJOBIY TA'SIR TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI O'RGANISH.</i> | 974 |
| 181. | Dilnoza Babaraximova <i>TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> | 979 |
| 182. | Shodiyev Furkat Davranovich <i>"CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI" FANIDAN TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA (KONCHILIK SOHASIDA)</i> | 986 |
| 183. | Хамракулов Ўткиржон Махмудович <i>ҲАРБИЙ ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА ҲОЗИРГИ КУНДАГИ МАВҚЕИ</i> | 992 |
| 184. | Ziyodullayev Doston Tojiddin o'g'li <i>GERMANIYA VA O'ZBEKISTON O'RTASIDA ELCHILIK HAMDA SAVDO-SOTIQ ALOQALARI(1991-2021)</i> | 995 |
| 185. | Suyunov Ochil Jumaboevich <i>OLIY O'QUV YURTLARIDA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI</i> | 999 |
| 186. | Sharipov Allabergan Komilovich Qosimova Zohida Davron qizi <i>YOSH DZYU-DOCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.</i> | 1005 |
| 187. | Mexribonova Sitora Azamat qizi <i>O'ZBEK ADABIY TILINING NAQADAR BOYLIGINI O'Z ASARLARIDA YAQQOL TASVIRLAY OLGAN BUYUK ADIB — ABDULLA QODIRIY!</i> | 1014 |



| | | |
|------|---|-------------|
| 188. | Мамасолиев Рустамжон Адхамжонович <i>МУАЛЛИМ КОНЦЕПТИНИНГ АХАМИЯТИ ВА</i> <i>ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИКЖИХАТЛАРИ</i> | 1017 |
| 189. | Р.А. Абдулмўминова А.М.Рустамов <i>БАҲОР-ЁЗ МАВСУМИ УЧУН УРУФГА КИРАДИГАН СУМКАЛАР</i> | 1021 |
| 190. | Qo'chqorov Sobirjon Ahadjonovich Abdumuatalov Muxriddin Mamazulun o'g'li No'monov Ilhomjon Boxodirjon o'g'li <i>HARBIY- VATANPARVARLIK TARBIYASINING TAMOYILLARI VA SHAKL,</i> <i>USLUBLARINI O'RGANISHDAGI METODIK QARASHLAR</i> | 1026 |
| 191. | Umida Makhmudova Ural kizi Fotima Makhmudova Maksud kizi <i>THE IMPACT OF SOCIAL MEDIA ON LANGUAGE</i> | 1031 |
| 192. | Abdullayeva Umidaxon G'ulomiddinovna <i>MILLIY URF-ODATLARNI OMMALASHTIRISH ORQALI EKOLOGIK TA'LIM-</i> <i>TARBIYANI RIVOJLANTIRISH.</i> | 1040 |
| 193. | Ahmadiyeva Munisaxon Abduqodirovna <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MILLIY QADRYATLARNI O'QUVCHILAR ONGIGA</i> <i>SINGDIRISH.</i> | 1043 |
| 194. | Shakhida Rakhmatullaevna Makhkamova <i>MUSIC AND COMPUTER TECHNOLOGIES AND INTERACTIVE NETWORK</i> <i>TECHNOLOGIES FOR TEACHING MUSIC</i> | 1046 |
| 195. | Б.Т.Абдуллаев, Убайдуллаев Азаматжон Анваржон ўғли Олимжонов Дилшоджон Комилжон ўғли Худойназаров Давлатжон Рахматжон ўғли <i>ЁШЛАРДА ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИКНИШАКЛЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА</i> <i>ТАЪЛИММУАССАСАЛАРИ ҲАМКОРЛИГИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ</i> | 1052 |
| 196. | Мустаев Руслан Дамирович Сулаймонов Абрам Нуриддин ўғли Собиржонов Муҳаммад Содиқ Солижон ўғли Насриддинов Оғабек Собир ўғли <i>ЁШЛАРДА ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ЎРНИ</i> | 1056 |
| 197. | Тукҳтаназаров Илкҳом Ибрагимсанович Раҳмонбердиев Музаффар Равшанбек ўғли Жамолиддинов Охунжон Хомиджон ўғли Каримов Аброржон Алижон ўғли <i>ЁШ АВЛОДГА ВАТАНПАРЛИК ТУШУНЧАЛАРИНИ СИНГДИРИШ.</i> | 1060 |
| 198. | Қўчқоров Собиржон Аҳаджонович Абдурахмонов Аброржон Азимжон ўғли Қаюмов Юнусали Йигитали ўғли Шамшидинов Лазизбек Хусниддин ўғли <i>“ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ” КОНСЕПСИЯСИ ВА</i> <i>УНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ</i> | 1064 |
| 199. | Rustamov Shavkat Shuxratovich | 1068 |



| | | |
|------|---|------|
| | Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li <i>MENTAL ARIFMETIKA ORQALI O'SMIRLAR INTELEKTINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOiy PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI</i> | |
| 200. | Quliyev Yorqin Karimovich <i>TARIXIY RIVOJLANISHNING TURLI BOSQICHLARIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH MUAMMOLARI</i> | 1072 |
| 201. | Maxmudov Muxriddin Abdulla ugli Bekova Vazira G'opirjon qizi <i>TURK TILIDAGI GAPLARNI INTELLEKTUAL TAHLIL QILISH USULI</i> | 1080 |
| 202. | Mirzasoliyev Jaxongir Mirzasoipovich <i>HARBIY OILALARDA NIZOLARNI NOMOYON BO'LISHINING IJTIMOiy – PSIXOLOGIK OMILLARI</i> | 1085 |
| 203. | Hayotxon Mansurbek qizi Sotimova <i>OILA LEKSEMASI ASSOTSIATIV MAYDONINING YADRO VA CHEGARA QISM BIRLIKLARI NISBATI.</i> | 1090 |
| 204. | Bahodirov G'iyosbek Murodjon o'g'li Maxmudov Xayrullo Xasanjon o'g'li N.Karimxodjayev <i>AVTOMOBILLAR VA ULARDAN CHIQAIDIGAN CHIQINDILARNING ATROF-MUHITGA VA INSONLARGA SALBIY OQIBATLARI.</i> | 1095 |
| 205. | Kobilova Surayyoxon A'zamjonovna <i>«BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYANING O'RNI»</i> | 1099 |



KORXONALARDA INNOVATSION JARAYONLARNI BOSHQARISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834033>


Suvpo'latov Ozodjon Alijon o'g'li

Magistr, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabasi

Bugungi kunda respublikamizda tadbirkorlik faoliyati erkinliklari va qulay muhitining yaratilganligi, ochiq raqobat sharoiti va yuqori iqtisodiy manfaatdorlikka erishish imkoniyatlari tadbirkorlarning o'z faoliyatini tashkil etish, kengaytirish va o'zgartirishlarida innovatsiya loyihalarini joriy etishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirmoqda. Bu esa mamlakatimizda innovatsiyaning mazmun-mohiyatini kengroq o'rganish, innovatsiya faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishga bo'lgan munosabatlarning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Shunday ekan, innovatsiyaning o'zi nima, degan savolga to'liq javob topish unga bo'lgan munosabatni to'g'ri belgilash va tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, bir sifatdan ikkinchi bir sifatga o'tish resurslarni (energiya, vaqt, moliya, mablag'lar va boshqalar) talab etadi. Yangilikni hayotga tadbqiq etish xali o'z navbatida resurslarni talab etadi. Bularning orasida eng muhim investitsiya (mablag') va vaqtdir. Innovatsiya faoliyatining asosiy tashkil etuvchisi bo'lib investitsiya (mablag') va yangilikning kiritilishi hisoblanadi. Yangilik bozorining shakllanishiga olib keladi. Investitsiya kapitali bozori, yangilikni joriy etishni sof raqobat bozori shakllanadi.

Bu uch omil innovatsiya faoliyatining asosini tashkil etadi.




1-rasm. Innovatsiya jarayonning sohalar bo'yicha klassifikatsiyasi
(Дорофеев В.Д., Шмелева А.Н. «ИННОВАЦИОННЫЙ МЕНЕДЖМЕНТ» 2009г)

Innovatsiya keng ma'noda yangiliklardan rentabellik (foydalilik) darajasini oshirish uchun yangi texnologiyasini qo'llash, yangi mahsulot ishlab chiqish yoki



xizmat ko'rsatish, tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlarni ishlab chiqish, tijorat, boshqarish va boshqa sohalarda qo'llanishni tushuniladi.

Innovatsion jarayon deganda umumiy holda ixtironi, yangi texnologiyani, yangi mahsulotlar yoki xizmatni, ishlab chiqarish, moliya, ma'muriy xarakterga ega intellektual faoliyat turini tijoratlash jarayoni tushiniladi. Innovatsiya jarayonining tavsifnoma va asosiy bosqichlari 3-rasmda berilgan.



| Bozor bosqichi (ishlab chiqarishga joriy etish) | | | |
|--|--|---|--|
| Bozorga joriy etish | Ishlab chiqarishni kengaytirish | Mahsulotni bozorda o'rin egallashi | Tashqi bozorlarga integratsiya |
| Dastlabki ishlab chiqarish sinovlari, seriya ishlab chiqarishni boshlanishi, mahsulotni sertifikatlash | Reklama, iste'molchilarni o'rganish va shakllantirish, servis xizmati, xodimlarni o'qitish | Sotuvning muvozanatlashuvi, bozorni mahsulot bilan ta'minlash | Tashqi bozorga chiqish, eksportni kengaytirish |
| Mahsulotlar, texnologiyalar | Mahsulotlar, texnologiyalar | Mahsulotlar, texnologiyalar | Mahsulotlar, texnologiyalar |

3-rasm. Innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari (S.Solliyeva. Innovatsion menejment 2012 y)

Dastlabki bosqichda fundamental tadqiqotlar olib boriladi. Tadqiqotlar akademiya institutlari, oliy o'quv yurtlari, ixtisos tarmoq institutlari, laboratoriyalarida olib boriladi. Moliyalashtirish asosan qaytib bermaslik sharti bilan amalga oshiriladi.

2- bosqichda amaliy xarakterga ega bo'lgan ilmiy ishlar olib boriladi. Bu barcha ilmiy tadqiqot institutlarida olib boriladi va davlat tomonidan ya'ni byudjetidan (davlat ilmiy dasturi yoki konkurs asosida) hamda buyurtmachi tomonidan amalga



oshiriladi. Ma'lumki, asosiy tadqiqotlar natijalari, hamma vaqt ham oldindan ma'lum bo'lavermaydi, shuning uchun bu yo'sindagi xavf-xatar darajasi ancha yuqori bo'lib, ba'zida salbiy natija olishi mumkin yoki boshi berk ko'chaga kirib ham qolish mumkin. Ayniqsa, mana shu bosqichda qo'yilgan kapital mablag'ning yo'qotish xavf-xatari ehtimoli paydo bo'ladi va investitsiya va innovatsiya o'sishi xavf-xatarli hisoblanadi. Shuning uchun xavfli investitsiya deb ataladi. Xavfli investitsiya bilan shug'ullanuvchi tijorat tashkilotlari venchur investitsiyasi deb ataladi.

3- bosqichda tajriba konstruktorlik ishlari va eksperimental ishlab chiqarish olib boriladi. Ular ixtisoslashgan laboratoriyalarda, konstruktorlik byurolarida (KB), ishlab chiqarish tajriba uchastkalarida, yirik sanoat korxonalaridagi ilmiy-tadqiqot bo'limlarida olib boriladi.

Moliyalashtirish aynan ikkinchi bosqichdagi kabi davlat va tashkilot shaxsiy mablag'lari hisobiga olib boriladi.

4- bosqichda-tijoratlashuv jarayoni davom etadi, ya'ni ishlab chiqarish, mahsulot bilan bozorga chiqish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy hayotiy bosqichlari bo'yicha ish jarayoni davom etadi.

Maqsaddan kelib chiqqan holda bitiruv malakaviy ishida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- innovatsiya va innovatsion jarayon tushunchalari, ularni boshqarish asoslarini bayon etish;
- korxonalarda innovatsion faoliyatni davlat tomonidan boshqarilishi va tartibga solinishining nazariy jihatlarini asoslash;
- innovatsion texnologiya va loyihalarni real amaliyotga joriy etish yo'nalishlarini atroflicha yoritish;
- korxonalar faoliyatiga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribalari tahlilini o'rganish;
- mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash natijalari tahlilini amalga oshirish;

Ko'pgina korxonalar innovatsion faoliyatni hamda modernizatsiyani amalga oshirishda davlat ko'magiga muhtoj bo'lib, ular quyidagi shaklda bo'lishi mumkin:

- korxonalarni modernizatsiyalash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha uslubiy materiallar bilan ta'minlash;
- korxonalarni moliyaviy qo'llash, (byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlarni hisobdan chiqarish yoki muddatini kechiktirish, foydaning modernizatsiyaga yo'naltirilgan qismi bo'yicha soliqlarni kamaytirish va b.);
- davlat investitsiyalarini taqsim qilishda va mahsulot yetkazib berish bo'yicha davlat buyurtmalarini joylashtirishda modernizatsiya qilinayotgan korxonalariga ustunlik berish;
- korxonalar rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil qilish va b.



Bozor munosabatlari takomillashib va xalqaro iqtisodiy aloqalar integratsiyasi chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda ishlab chiqarish jarayonida foydalanilayotgan asosiy vositalarni doimiy ravishda modernizatsiyalab borish zarur bo'ladi. Past samarali va zarar bilan ishlovchi korxonalarni tugatish, ularni qayta tarkibiy tuzish asosida tarmoq va sohalarni moliyaviy sog'lomlashtirish davlat siyosatining muhim natijasidir.

XULOSA

Mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun, eng avvalo, quyidagi shartlarning mavjud bo'lishi va ta'minlanishi maqsadga muvofiqdir: davlat innovatsiya siyosati, investitsiya salohiyati, innovatsiya sohasi, innovatsiya infratuzilmasi, innovatsiya dasturi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uzoq va samarali faoliyat olib borishda yangi innovatsion texnika va texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb iqtisodiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish sohasida innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari balki, xizmat ko'rsatish sohasida ham bunday imkoniyatlar kengayib, ommalashib bormoqda.

Innovatsiya - so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "yangilikni joriy etish" degan ma'noni anglatadi. Yangilik deganda yangi tartib, yangi odat, yangi usul, ixtirolik, yangi voqelikni tushunish, yangilikni ishlab chiqarishga joriy etishni tushuniladi.

Innovatsion yangiliklar asosida korxonalarnda quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- eskirgan asosiy vositalarni bosqichma-bosqich yangilash, ma'n'an eskirgan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish (likvidatsiya qilish);
- ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish;
- innovatsion texnologiyalar asosida tejamkor, chiqitsiz, ekologik toza, jahon andozalaridagi sifatga javob beruvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- sifatni boshqarish tizimi asosida ishlab chiqarish texnologiyasini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «Adolat», 2017y.
2. «Bozor islohatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 14.06.2005.
3. S.Soliyeva. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. "Iqtisod-moliya" nashriyoti.T.: 2012 y, 197 bet.
4. 4. Ткачук Л.Т. под. ред. М.И.Шадова. Менеджмент. Ростов-на Дону. Феникс. 2012 г, 318 с.
5. 5. Raximova D.N. va boshq. Zamonaviy menejment: nazariya va amaliyot. O'quv qo'llanma – T.:G'.G'ulom 2009 y, 217 b.
6. 6. Qosimova D.Menejment nazariyasi: O'quv qo'llanma– T.: "Tafakkur-bo'stoni",



2011 y, 343 b.

7. Internet saytlari:

46. <http://www.stat.uz> (Davlat Statistika Qo'mitasi)
47. <http://www.lex.uz> (O'zbekiston Qonunchiligi)
48. <http://www.ziyonet.uz> (Ta'lim portali)
49. <http://www.google.co.uz> (Ma'lumotlar qidiruv portali)
50. <http://www.wikipedia.ru> (Erkin ensiklopediya)



PERINATAL PATOLOGIYANI KELIB CHIQISHIDA HOMILA ICHI INFEKTSIYASINING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834053>

Usmanova Munira Fayzullayevna

SamDTU 1-pediatriya va neonatologiya kafedrasi assistenti

Sirojiddinova Xiromon Nuriddinovna

SamDTU 1-pediatriya va neonatologiya kafedrasi assistenti t.f.n. PhD

Mavzu dolzarbligi: hozirgi vaqtda ko'pchilik jahon mamlakatlari mutaxassislarining asosiy masalalaridan biri bu ona salomatligini oshirish hamda soglom bola dunyoga kelishini ta'minlashga qaratilgan. Garchan hozirgi zamonda, qo'zg'atuvchilarni o'rganishni, ularni aniqlashni juda ko'p ilmiy amaliy tekshirish usullari bo'lsada, perinatologiya, neonatologiya va pediatriya sohalarida homila ichi infeksiyalanishi hamda homila ichi infeksiyasi hamon dolzarb muammo bo'lib qolmoqda [4,6].

Homila ichi infeksiyasi bu tug'ma infeksiya bo'lib hisoblanadi. Hozirgi vaqtda homila ichi infeksiyalariga qizilcha, xlamidioz, mikoplazmoz, toksoplazmoz, oddiy herpes virusi hamda sitomegalovirusli infeksiyalar misol bo'la oladi. Ma'lumotlarga ko'ra, RFda har yili tug'ma qizilcha bilan 400 ta holat borligi kuzatilmoqda [5]. RFda tug'ma tsitomegalovirusli infeksiyaning uchrash soni ma'lum emas, AQShda esa tsitomegalovirusli infeksiya barcha tug'ilgan bolalarning 1% ni, oddiy herpes virusi bilan zararlanganlar 1000 tug'ilgan chaqaloqdan 1sida, parvovirusli infeksiya bilan 400 ta tug'ilgan chaqaloqdan 1sida uchraydi [8,9].

Ma'lumki, homila ichi infeksiyalari o'zining og'ir kechishi hamda xavfli oqibatlariga olib kelishi bilan ajralib turadi. O'lim tug'ma toksoplazmozda 12% ni, oddiy herpes virusi bilan zararlanishda 90% ni, enterovirusli infeksiyalarda 80% ni, tug'ma qizilcha bilan 100% ni tashkil qiladi. Homila ichi infeksiyasi har doim ma'lum klinik simptomlar bilan namoyon bo'ladi [2,3].

Shunday shartli-patogen qo'zg'atuvchilar borki ular onadan homilaga, so'ng chaqaloq organizmiga o'tadi va uzoq vaqt mobaynida ko'payadi. Ular perinatal va neonatal davrda turli xil patologik holatlarga olib keladi, bu esa oqibatda tez-tez kasallanib turuvi bolalar guruhini kelib chiqishiga sabab bo'ladi [1,7].

Tekshiruv maqsadi. Chaqaloqlarda, onaning somatik salomatligi bilan bog'liq, perinatal patologiyani kelib chiqish sababini hamda shartli-patogen mikroorganizmlarni etiologik ahamiyatini o'rganish.

Material (manba) va tekshiruv usullari. Perinatal patologiyani hamda homila ichi infeksiyalanishi sababini aniqlash uchun, Samarqand shahar viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazining chaqaloqlar patologiyasi bo'limiga yotqizilgan 140 ta chaqaloq tekshiruvdan o'tkazildi.



Perinatal patologiyada mikroblarning kelib chiqish sababini aniqlash maqsadida, bakteriologik tekshiruvlar uchun chaqaloqlardan qon, tomoqdan shilliq, yiring hamda axlat olindi. Shuningdek statistiko-anamnestik va qisman bakteriologik tekshiruvlar chaqaloqlar onalari orasida ham o'tkazilgan. Statistika ishlov natijalari Student kriteriyasi bo'yicha hisoblangan ($p < 0,05$).

Tekshiruv natijalari va ularning tahlili. Olingan natijalarga ko'ra, chaqaloqlar patologiya bo'limiga yotqizilgan 140 ta tekshirilgan chaqaloqdan 106 (75,7%) tasi bir haftagacha hayot kuniga ega bo'lgan. Qolgan chaqaloqlar esa kech neonatal davr bilan yotqizilgan.

Turli xil patologiyaga ega bo'lgan, erta neonatal davr bilan yotqizilgan chaqaloqlar ante - va intranatal infeksiyalanishga ega ekanligini ko'rsatadi. Chaqaloqlar kasalliklarining nozologik shakllarini tahliliga qaraganda, ularda diareya, sepsis, neonatal pnevmoniya va boshqa yiringli-yallig'lanish kasalliklari borligi aniqlangan.

Ko'rinib turibdiki, diareya yuqori ko'rsatkichlar bilan boshqa patologiyalardan ustun kelgan. Ikkinchi o'rinni sepsis egallagan va 140 ta chaqaloqdan 29 (20,7%) tasida aniqlangan. Umumiy hisobda sepsis bilan birga yiringli-yallig'lanish kasalliklari 67 (47,8%) ta chaqaloqda aniqlangan. Ma'lumki, yuqorida sanab o'tilgan kasalliklardan sepsis, neonatal pnevmoniya va diareya perinatal patologiyada chaqaloqlar orasida etakchi ba'zida, asosiy o'lim sababchisi bo'lib qolgan. Shuning uchun ham klinik simptomlarni aniqlash va mikroblarning etiologiyasini o'rganish perinatal patologiyada yuqori amaliy izlanishga sabab bo'la oladi.

Tekshiruv natijalari shuni ko'rsatadiki, axlat tarkibida grammusbat mikroorganizmlar etakchi o'rinni egallagan. Sepsis va yiringli-yallig'lanish kasalliklarida grammanfiy tayoqchalar hamda streptokokklar o'z o'rnini stafilokokklarga bergan. O'ylashimizcha, yiringli-yallig'lanish kasalliklarining etiologiyasida bunday jarayonlar turli xil faktorlar ta'sirida ro'y bergan, muhimi esa stafilokokklarning yillar mobaynida ko'pchilik antibiotiklarga rezistent bo'lib qolganidir.

Antibiotiklarga sezgirlikni va patogen xususiyatlarni aniqlash uchun har bir probadan 1-2 shtamm patologik material stafilokokklar ajratildi. Jami 150 ta shtamm ajratildi va o'rganildi. Ularning barchasi gemolitik, tillorang pigmentli hamda 150 ta shtammdan 96 (64%) tasi plazmani koagulyasiya qilish xususiyatiga ega edi.

Stafilokokklar shtammlarining antibiotiklarga sezgirligi amikasin, amoksiklav, sefazolin va siprofloksosinga nisbatan juda chidamli ekanligi aniqlandi. 150 ta shtammdan amikasinga nisbatan 20 (13,3%) ta, amoksiklavga - 10 (6,6%) ta, sefazolonga - 17 (11,3%) ta va siprofloksosinga - 33 (22%) ta shtamm yuqori sezgirligi belgilandi. Qolgan shtammlar o'rtacha va past sezgirlikda edi. Stafilokokklar shtammlari gentamisinga (60 - 40%), sefotaksimga (45 - 30,1%) va seftriaksionga (61 - 40,6 %) yuqori sezgirlikka ega ekanligi isbotlandi. Shunday qilib, stafilokokklarga



nisbatan eng samarali antibiotiklar gentamisin, sefotaksim, seftriakson bo'lib hisoblanadi.

Биринчи навбатда ишонч муносабатини сўз сифатида, инсон бошидан кечирадиган қандайдир ҳолат номи сифатида кўриб чиқишни, яъни маданий тажриба маконида “ишонч” сифатида номланадиган муносабатларнинг мантиқий-грамматик тадқиқот сифатида тушуниш мумкин.

Бунда ишонч ва ишончли муносабатларни излаш ва тақдимот қилишга йўналтирилган тадқиқотчилик тартиботини ишонч муносабатлари тадқиқотининг якуний босқичи деб фараз қилишимиз мумкин.

Ишонч муносабатларининг мантиқий-грамматик ва топологик тадқиқотлари муаммо сифатидаги ушбу тадқиқот доирасида кўриб чиқадиган бўлсак, мантиқий-грамматик ва топологик тадқиқотлар ўтказилганидан сўнг бунда ишончли муносабатларнинг шубҳадан холи асосларини излашга муурожаат қилиш мумкин бўлади.

Тадқиқот предметининг бундай белгиланиши, муаллиф ишонч муносабатларини таҳлил қилиш учун матнларнинг анча кенг доирасини жалб қилиш имкониятига эга эканлигини англатади. Бунда қадимги замондан бошлаб постмодернга қадар бўлган турли илмий ва фалсафий матнлар учрайди, булар ишонч муносабатларининг феноменал чегараларини яратишга имкон беради. Юқорида айтиб ўтилганидек, мазкур ишда ишонч муносабатлари ҳам муаммо, ҳам ўз мавжудлигининг шаксиз асосларига эга бўлган ҳодиса сифатида кўриб чиқиш мумкин. Муаммо сифатида ишонч муносабатларини таҳлил қилиш ушбу ишни инсон ҳаётининг ижтимоий соҳасини тасвирловчи турли матнларни жалб қилишга имкон беради.

От сифатидаги ишонч муаммоси мамлакатимиздаги тилшунослик ва маданиятшуносликда тадқиқотларнинг турли йўналишларида келтирилган. Ишонч муносабатини от сифатида кўриб чиқишга имкон берувчи турли луғатлардан фойдаланилган¹. Мазкур луғат тадқиқотлари рус тилида “ишонч” сўзи қайси маъно гуруҳига киришини белгилашга, ва, демак, ишонч муносабатларининг навбатдаги топологик ва феноменал тадқиқ қилиш тартиботлари чегарасини белгилашга имкон беради, таҳлил учун В.И. Далнинг “Словарь живого великорусского языка” асаридан ҳам фойдаланилган².

Буни тадқиқ қилиш ишонч асосларининг лингвистик мазмунини яратишга имкон беради.

Шунингдек, ишончнинг от сифатидаги таърифи берилибгина қолмасдан, унинг ишониш ва эътиқоддан фарқловчи жиҳатлари келтирилган Брокгауз ва Эфроннинг “Энциклопедический словарь” китобидаги мақоладан парча ҳам келтирилган³. Бундан ташқари, ишончни от сифатида кўриб чиққан ҳолда А. Шопенгауэрнинг “Афоризмы житейской мудрости”, С. Московичининг “Машина,

¹ «Словарь паронимов русского языка» [86] 1984 году, словарь «Лексические минимумы современного русского языка» [68] 1985 году С. И. Ожегов “словарь значений русского языка” [92] Москва 1989 йил

² В.И. Дал “Словарь живого великорусского языка” [40,41] 1861 году

³ Брокгауз ва Эфрон “Энциклопедический словарь” [54] в 1890—1907 годах.



творящая богов” асарларидан ишончли муносабатларнинг маъно чегараларини белгиловчи ўзига хос таърифлар мавжуд бўлган парчаларни келтиради⁴.

Бундан ташқари, мақоллар ва маталлар луғатига ҳам эътибор берсак, унинг маъносини белгилашга ёрдам берадиган оддий онг амалиётидан ҳам фойдаланишни кўрамиз. Бошқа томондан бизни шунчаки “ишонч” оти эмас балки унинг “эътиқод” отидан фарқи қизиқтиради. “Ишонч” отининг “эътиқод” оти ўртасидаги фарқ чегараларини белгилаш учун матнларнинг каттагина доирасидан фойдаланамиз. Бу энг аввало “ишонч” “эътиқод” сўзларининг этимологик тадқиқотидир. “Этимологический словарь русского языка” ҳақиқатан ҳам “эътиқод” сўзларининг этимологик яқинлигини таъкидлайди. Галикрелидзе ва В.В. Ивановлар томонидан тузилган “Индоевропейский язык и индоевропейцы”⁵ луғати “ишонч” сўзининг ҳинд-европача таърифини билишга ёрдам беради. Ю.С. Степановнинг “Константы. Словарь русской культуры”⁶ китобида келтирилган “ишонч”, “эътиқод” сўзларининг этимологик асослари тадқиқотини алоҳида таъкидлаш зарур. Шунингдек тилшунос Э.Бенвенистнинг қарашларини ҳам кўриб чиқсак ҳамда “ишонч” сўзи “ишониш” маъноси асосида юзага келиши борасида хулоса қилиш мумкин. “Ишонч”, “эътиқод” сўзларининг этимологик маъноси негизлари “Словарь русского языка XI-XVII вв.” китоби бўйича ҳам асослаб берилган. Бу тадқиқотлар “ишонч”, “эътиқод” отларининг яқинлигини ҳамда фарқланиш чегараларини шакллантиради.

Бундан ташқари “ишонч” ва “эътиқод” отларининг маъноларини белгилаш учун зарур бўлган тилшунослик тадқиқотларидан ташқари, славянча “ишониш”ни таҳлил қилган ҳолда ҳудди Э.Бенвист сингари “ишонч” дан олдин “эътиқод” пайдо бўлишини, “ишонч” тушунчаси “ишониш” тушунчасидан вужудга келишини таъкидлаган Н.С.Трубецкойнинг маданиятшунослик тадқиқотларига ҳам мурожаат қилган. Шунингдек, Н.С.Трубецкой⁷ сингари “ишонч” ва “эътиқод” тушунчаларининг мутаносиблигини таъкидлаган Д. Лурман⁸ ва Ф. Кардини⁹нинг маданиятшунослик тадқиқотларини ҳам таҳлилдан ўтказган.

Юқорида санаб ўтилган этимологик ва маданиятшунослик мулоҳазалари “ишонч” ва “эътиқод” тушунчаларининг умумийлигини кўрсатмоқда. Бироқ “ишонч” ва “эътиқод” тушунчаларининг фарқланиши муаммоси мавжуд. “Ишонч” ва “эътиқод” тушунчаларининг фарқланиш чегараси православ ақоидлари асосида шакллантирилган. Буни черков тарихчиси Г. Флоровский, православ илоҳиятшунос Иоанн Дамаскин, рус диний файласуфи Н. Лосский, византиялик илоҳиятшунос Дионисий Ареопагит ишларида кузатамиз.

⁴ А. Шопенгауэр “Афоризмы житейской мудрости” [135] 1809 году, С. Московичин “Машина, творящая богов” [87] 1988 году

⁵ В.В. Иванов словарь “Индоевропейский язык и индоевропейцы” [28] 1984 года

⁶ Ю.С. Степанов “Константы. Словарь русской культуры” [112] 1831 года

⁷ Н.С.Трубецкой маданиятшунослик тадқиқотлари [115]

⁸ Д. Лурман Маданиятшунослик тадқиқотлари [150]

⁹ Ф. Кардини Маданиятшунослик тадқиқотлари [57]



Шундай қилиб, “ишонч” ва “эътиқод” ҳодисаларининг мазмуни муаммоси мамлакатимиздаги ва хориждаги бир қатор муаллифларнинг мустақил тадқиқот объекти бўлганлиги ҳамда анча батафсил ўрганилганлигини таъкидлаш жоиз.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, “ишонч” ҳодисаси фақат унинг мазмун нуқтаи назаридан эмас, балки унинг мавжудлиги нуқтаи назаридан ҳам қизиқтиради, шунинг учун ишонч муносабатларининг мавжудлигини баҳолашга имкон берадиган фалсафий мулоҳазани таҳлилдан ўтказиш ҳам муҳим бўлган. Бундан олдин амалга оширилган тилшунослик мулоҳазаси “ишонч” ҳодисаси маъноси маконининг чегараларини аниқлашга имкон берди. Бу хулосалар муаллифга “ишонч” ва “афсона” тушунчасини таққослашга имкон берди, чунки ушбу тушунчалар бир хил тимсолларга эга. Шу асосда муаллиф афсона ишонч муносабатларининг расмий таркибий қисми бўлган макон эканлиги борасидаги фаразни илгари суради. Ишончнинг шакли сифатидаги афсона тўғрисидаги фаразни исботлаш ҳамда ишонч муносабатларининг топологик мақомини тасвирлаш учун муаллиф афсонанинг фалсафий ва маданиятшунослик маъноларига мурожаат қилади.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. «Словарь паронимов русского языка» [86] 1984 году, словарь «Лексические минимумы современного русского языка» [68] 1985 году С. И. Ожегов «словарь значений русского языка» [92] Москва 1989 году
2. В.И. Дал «Словарь живого великорусского языка» [40,41] 1861 году
3. Брокгауз ва Эфрон «Энциклопедический словарь» [54] в 1890—1907 годах.
4. А. Шопенгауэр «Афоризмы житейской мудрости» [135] 1809 году, С. Московичин «Машина, творящая богов» [87] 1988 году
5. В.В. Иванов словарь «Индоевропейский язык и индоевропейцы» [28] 1984 года
6. Ю.С. Степанов «Константы. Словарь русской культуры» [112] 1831 года



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARNI YETISHTIRISHDA YANGI ZAMONAVIY TEXNIKALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834186>

Karimov Baxriddin Isoqovich

*Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va mexanizatsiya kafedrası
assistenti*

Annotatsiya: *Innovatsiyalar qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda har qachongidan ham muhimroqdir. Umuman olganda, qishloq xo'jaligida ta'minot xarajatlarining ko'tarilishi, ishchi kuchining yetishmasligi, shaffoflik va barqarorlik uchun iste'molchilarning afzalliklarining o'zgarishi kabi katta muammolar shakllanmoqda. Yuqoridagi muammolarni hal qilish maqsadida bir qancha kompaniyalar ish olib bormoqda va ularning soni tobora ortib bormoqda. So'nggi 10 yil ichida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yaratilayotgan texnologiyalarga investitsiyalar soni ulkan o'sishni ko'rsatmoqda - oxirgi 5 yil ichida 6,7 milliard AQSH dollari, o'tgan yilning o'zida 1,9 milliard AQSH dollari sarmoya o'tqizildi. Asosiy texnologiya yangiliklari yopiq vertikal dehqonchilik, avtomatlashtirish, robototexnika, chorvachilik texnologiyasi va zamonaviy issiqxonalar, qishloq xo'jaligi va sun'iy intellekt va blokcheyn kabi sohalarga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *Vertikal dehqonchilik, AQSH, texnologiya, avtomatlashtirish.*

Vertikal dehqonchilikda ekinlar hosildorligini oshirishi, cheklangan yer maydonlaridan unumli foydalanish va hatto ta'minot zanjirida bosib o'tgan masofani qisqartirish orqali dehqonchilikning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirishi mumkin. Vertikal dehqonchilik mahsulotlarni yopiq muhitda yetishtirish amaliyoti deb ta'riflanadi. Vertikal ravishda o'rnatilgan texnologiyalardan foydalangan holda, an'anaviy dehqonchilik usullariga nisbatan o'simliklarni yetishtirish uchun zarur bo'lgan maydonni sezilarli darajada kamaytiradi. Vertikal fermer xo'jaliklari noyobdir, chunki ba'zi o'simliklar o'sishi uchun tuproqni talab qilmaydi. Ularning aksariyati gidroponikdir, bu yerda sabzavotlar ozuqa moddasi zich idishda o'stiriladi yoki aeroponik, o'simlik ildizlari muntazam ravishda suv va ozuqa moddalari bilan tabiiy quyosh nuri o'rniga sun'iy o'sadigan chiroqlar ishlatiladi.

Vertikal xo'jaliklarda an'anaviy xo'jaliklarga nisbatan 70% gacha kamroq suv sarflanadi. Shaharlarda aholining barqaror o'sishidan ish haqi pasayishi bilan hosilni maksimal darajada oshirishga qadar vertikal dehqonchilikning afzalliklari ko'zga tashlanadi. Vertikal dehqonchilik yorug'lik, namlik va suv kabi o'zgaruvchilarni yil davomida aniq o'lchash uchun boshqarishi va ishonch bilan oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirishdir. Kamaytirilgan suv va energiyadan foydalanish energiya tejashni



optimallashtiradi - vertikal fermer xo'jaliklari an'anaviy fermer xo'jaliklariga qaraganda 70 foizgacha kam suv sarflaydilar. O'rim-yig'im, ekish va moddiy ta'minotni boshqarish uchun robotlardan foydalangan holda, qishloq xo'jaligi mavjud bo'lgan ishchi kuchi yetishmayotgan fermer xo'jaliklari oldida turgan muammolarni hal qilishdi.

Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirish

Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirish, ko'pincha "aqli dehqonchilik" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, bu fermer xo'jaliklarini samaradorligini oshiradigan ekin va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish siklini avtomatlashtiradigan texnologiyadir. Dronlar, avtomatlashgan traktorlar, robotli kombaynlar, avtomatik sug'orish va ekish texnikalarini yaratish bo'yicha robototexnika bo'yicha ish olib borayotgan kompaniyalar soni ko'paymoqda. Ushbu texnologiyalar juda yangi bo'lsa-da, an'anaviy qishloq xo'jaligi kompaniyalari tobora ko'payib bormoqda, bu jarayonlarda fermer xo'jaliklari avtomatlashtirishni o'zlashtirmoqda.

Robototexnika va dronlardan tortib, kompyuter dasturiy ta'minotiga qadar bo'lgan texnologiyalarning yangi yutuqlari zamonaviy qishloq xo'jaligini butunlay o'zgartirib yubordi. Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirish texnologiyasining asosiy maqsadi, oddiy ishlarni bajarishdir. Fermer xo'jaliklari tomonidan ko'pincha qo'llaniladigan ba'zi bir asosiy texnologiyalarga quyidagilar kiradi: o'rim-yig'im, avtomatlashgan traktorlar, ekish va begona o'tlardan tozalash vositalari. Fermer xo'jaliklarini avtomatlashtirilgan texnologiyalar sonining ko'paytirish, mavjud bo'lgan ishchi kuchi yetishmayotgan fermer xo'jaliklari oldida turgan muammolarni hal qilish orqali asosiy muammolarni hal qiladi. An'anaviy dehqonchilik jarayonlarini avtomatlashtirishning afzalliklari, ishchi kuchi yetishmasligi va dehqonchilikning ekologik toza maxsulot yetishtirish orqali juda katta ahamiyatga ega.

Chorvachilik texnologiyasi

An'anaviy chorvachilik sanoati, bu eng muhim deb hisoblansa-da, umuman e'tibordan chetda qolgan va kam xizmat ko'rsatadigan sohadir. Chorvachilik juda zarur bo'lgan qayta tiklanadigan, tabiiy resurslar bilan ta'minlaydigan sohadir. Chorvachilikni boshqarish an'anaviy ravishda, agrofimalarning biznesini yuritish sifatida tanilgan. Chorvachilik bo'yicha menejerlar aniq moliyaviy hisobotlarni yuritishi, ishchilar ustidan nazorat olib borishi va hayvonlarni parvarish qilish va boqishini ta'minlashi shart. Biroq, so'nggi tendentsiya texnologiyasi chorvachilikni boshqarish sohasida inqilobni isbotladi. So'nggi 8-10 yil ichida sodir bo'lgan yangi o'zgarishlar ulkan o'zgarishlarga olib keldi, bu chorvachilikni kuzatish va boshqarishni ancha osonlashtirdi. Ushbu texnologiya oziqlanish texnologiyalari, genetika, raqamli texnologiyalar va boshqalar ko'rinishida bo'ladi.

Chorvachilik texnologiyasi chorva mollarining mahsuldorligini, rivojlanishini va boshqarilishini yaxshilaydi. "Raqamlashtirilgan sigir" tushunchasi tobora ko'payib borayotgan sigirlar sog'lig'ini kuzatish va mahsuldorligini oshirish uchun datchiklar bilan jihozlanganligidir. Ayrim datchiklarni qoramolga qo'yish kunlik faoliyatni va u



bilan bog'liq muammolarni kuzatishi, shu bilan birga butun mollar haqida ma'lumotlarga asoslangan tushunchaga ega bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarning barchasi tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilish tez va oson qarashlari mumkin bo'lgan mazmunli va amaliy tushunchalarga aylanmoqda.

Hayvonlarning genomikasini butun gen ko'rinishini va ularning bir-biri bilan o'zaro ta'siri, o'sishi va rivojlanishiga qanday ta'sir qilishini o'rganish deb ta'riflash mumkin. Genomika chorvachilikda ishlab chiqaruvchilarga genetik xavfni tushunishga va chorva mollarining kelajakdagi rentabelligini aniqlashga yordam beradi. Hayvonlarni seleksiyasi va naslchilik bilan strategik jihatdan, qoramol genomikasi ishlab chiqaruvchilarga chorva mollarining rentabelligi va mahsuldorligini optimallashtirishga imkon beradi.

Sensor va ma'lumotlar texnologiyalari hozirgi chorvachilik uchun juda katta foyda keltiradi. U kasal hayvonlarni aniqlash va takomillashtirish imkoniyatlarini aql bilan yondashib, chorva mollarining mahsuldorligi va farovonligini oshiradi. Kompyuter har qanday ma'lumotlarga ega bo'lishimizga imkon beradi, ular mazmunli va amaliy tushunchalarni umumlashtiriladi. Ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish hayvonlarning mahsuldorligini oshiradigan, samarali va o'z vaqtida bilishga olib keladi.

Zamonaviy issiqxonalar

So'nggi o'n yilliklarda issiqxona sanoati asosan tadqiqot va estetik maqsadlarda foydalaniladigan kichik hajmdagi ob'ektlar (ya'ni botanika bog'lari) dan asoslangan an'anaviy oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri raqobatlashadigan sezilarli darajada yirik ob'ektlarga aylanmoqda. Butun dunyo bo'ylab issiqxonalar bozori har yili qariyb 350 milliard AQSh dollari miqdorida sabzavot ishlab-chiqaradi, ulardan AQSh bir foizga ham yetmaydi.

Hozirgi kunda, asosan, o'sib borayotgan texnologiyalarni amalga oshirish ulkan yangilanishlar tufayli, ilgari bo'lmagan kabi gullab-yashnamoqda. Bugungi kunda issiqxonalar tobora keng miqyosda, kapital ta'minlangan holatda paydo bo'lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti keskin o'sib borishi, so'nggi yillarda u ham aniq tendentsiyalarni boshdan kechirmoqda. Zamonaviy issiqxonalar tobora o'sib borayotgan muhitda mukammal darajada moslashtirish uchun LED yoritgichlar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan foydalangan holda rivojlanmoqda. Issiqxonalar quradigan kompaniyalar sezilarli darajada kengaymoqda va o'sib borayotgan shahar markazlari yaqinida, mahalliy oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab tobora ortib borayotgani foydalanish uchun ishlatishadi. Ushbu yutuqlarni amalga oshirish uchun issiqxona sanoati ham tobora ko'proq kapitalga aylanib bormoqda, hozirgi bozor sharoitida raqobatlashish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yaratish uchun venchur moliyalashtirish va boshqa manbalardan foydalanilmoqda.

Qishloq xo'jaligi

Qishloq xo'jaligi hozirda evolyutsiyani boshdan kechirmoqda - texnologiya har bir fermaning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Yangi qishloq xo'jaligi kompaniyalari



namlik darajasi, zararkunandalarga qarshi kurashish, tuproq sharoitlari va mikroiklim kabi har qanday o'zgaruvchanlikni nazorat qilish orqali fermerlarga hosilni maksimal darajada oshirishga imkon beradigan texnologiyalarni ishlab chiqmoqdalar. Ekinlarni ekish va yetishtirish uchun samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi kompaniyalari rivojlanish uchun katta imkoniyat topmoqdilar. Misol uchun Grand View Research, Inc. kompaniyasining so'nggi hisobotida 2025-yilga qadar qishloq xo'jaligi bozori 43,4 milliard dollarga yetishini taxmin qilinmoqda. Yangi fermerlar tezroq va moslashuvchan startaplarga jalb qilinmoqda, bu esa hosilni muntazam ravishda oshirib borish imkonini beradi.

Blockchain

Blockchain-ning egalik yozuvlarini kuzatib borish qobiliyati va buzilish qarshiligini oziq-ovqat xavfsizlikni ta'minlash, ta'minot zanjirining samarasizligi va oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligini aniqlash kabi dolzarb masalalarni hal qilish uchun ishlatish mumkin. Blockchain-ning noyob markazlashtirilmagan tuzilishi shaffoflik bilan premium mahsulotlar bozorini yaratish uchun tasdiqlangan amaliyotlarni ta'minlaydi.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha munozaralar markazida mahsulotlarining izlanilishi, ayniqsa blockchain dasturlarida yangi yutuqlardan bo'ldi. Tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlar tufayli umuman inson hayotiga ta'sir qiladigan xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun juda zarurdir. Oziq-ovqat mahsuloti orqali yuqadigan kasalliklar aholi salomatligiga tahdid soladigan bo'lsa, tahlil qilish uchun birinchi qadam ifloslanish manbasini aniqlashdir va noaniqlikka olib kelmasligi kerak.

Blockchain hozirgi oziq-ovqat tizimidagi xavfsizlikni qaytarib olish, ta'minot zanjirining samarasizligi va mahsulotlarining kuzatilishi kabi dolzarb masalalarni hal qilish uchun ishlatiladi. Oziq-ovqat ta'minoti zanjiri uchun ekotizimidagi aloqa doirasi izlanuvchanlikni talab qiladigan vazifaga aylandi, chunki ba'zi bir foydalanuvchilar hanuzgacha qog'ozdagi ma'lumotlarni kuzatib borishmoqda. Blockchain tuzilishi oziq-ovqat qiymati zanjiri bo'ylab har bir jarayonni belgilab beradigan tizimni yaratish uchun ma'lumotlar nuqtalarini yaratish va xavfsiz tarzda bo'lishini ta'minlaydi. Mahsulotni aniqlaydigan yorliqli ulkan ma'lumotlar punktlari zudlik bilan hech qanday o'zgarishsiz yozib olishi mumkin. Natijada, fermadan stolga oziq-ovqat mahsuloti yozuvlari real vaqtda kuzatilishi mumkin.

Blokcheynni oziq-ovqatda ishlatish holatlari xavfsizligini ta'minlashda, tarmoqdagi o'rnatish va bozor narxlarini muvozanatlash orqali joriy narxga xizmat qo'shadi. Sotib olish va sotishning an'anaviy narx mexanizmi butun qiymat zanjiri tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga emas, balki jalb qilingan ishtirokchilarning qarorlariga asoslanadi. Ma'lumotlarga kirish huquqi talab va taklifning yaxlit ko'rinishini yaratadi. Savdo uchun blockchain dasturi an'anaviy tovar savdosi ham inqilob qilishi mumkin. Blockchain tasdiqlangan operatsiyalarni oziq-ovqat



mahsulotlarini yetkazib berish zanjiridagi har bir ishtirokchi bilan ishonchli tarzda bo'lishiga imkon beradi va ulkan shaffoflik bozorini yaratadi.

Sun'iy intellekt

Raqamli qishloq xo'jaligi va unga tegishli texnologiyalarning o'sishi ko'plab yangi ma'lumotlar imkoniyatlarini ochmoqda. Masofaviy datchiklar, sun'iy yo'ldoshlar va dronlar butun maydon bo'ylab kuniga 24 soat ma'lumot to'plashi mumkin. Ular o'simliklarning tuproq holati, harorati, namligi va boshqalarni kuzatadi. Ushbu sensorlar yaratishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar miqdori juda katta va raqamlarning ahamiyati ushbu ma'lumotlarning ko'chkisi ostida yashiringan. Ushbu g'oya, fermerlarga vaziyatni ko'z bilan ko'rishdan ko'ra ko'proq ma'lumot bera oladigan ilg'or texnologiyalar (masalan, masofadan turib zondlash) orqali yerdagi vaziyatni yaxshiroq tushunishga imkon berish.

Masofaviy datchiklar algoritmlarga dala muhitini statistik ma'lumotlar sifatida tushuntirishga imkon beradi va ular fermerlar uchun foydali hisoblanadi. Algoritmlar ma'lumotlarni qayta ishlaydi, olingan ma'lumotlarni o'rganadi. Fermerlar ushbu sun'iy intellektidan foydalanib, dalada yaxshi qarorlar qabul qilish orqali mo'l hosil olish maqsadiga erishadilar. Oziq-ovqat mahsulotlarini tezlashtiruvchi dasturlar yiliga ikki marotaba korporativ biznesni rivojlantirish, tarmoq aloqalari va tadbirlari, jahon miqyosidagi investitsiya salohiyati orqali startaplarimizni kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR:

1. «Davlat ehtiyojlari uchun xarid etiladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hisob-kitobni amalga oshiruvchi Jamg'arma to'g'risida»gi Nizom, No612- 1, 2000-yil 25-fevral

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2004-yil 6-yanvarda 1295-son bilan ro'yxatga olingan «Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla yetishtirish xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risida» Nizom. -T.: «O'zbekiston», 2004

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 30-oktabrdagi 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi». - T.: «O'zbekiston», 2002

4. Karimov L.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. -T.: «O'zbekiston»,1997

5. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodi. -T. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004 6. Altiyev A.S. Yerning qiymati baholanishidagi iqtisodiy asoslar «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi», 2001. №4-5

7. Ergashev RX Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik -T. «Extremum

8. Murtazavey O., Ismoilov A.Q. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti T- Pardayey M.Q. Abdukarimov LT., Isroilov B.I. Iqtisodiy Mehnat, 2004



UDC 581.14.6:634.738

**PROPAGATION OF PAULOWNIA FELT (PAULOWNIA TOMENTOSA)
USING BIOTECHNOLOGICAL METHODS**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834196>**Khakimjanov Omon Pulatdjanovich***Independent candidate for a PhD degree Tashkent State Agrarian Universiti,
agricultural technologist-ecologist*

Abstract. *As a result of the experiments, the peculiarities of germination of Paulownia felt seeds under sterile and non-sterile conditions and germination of explants on Murasige-Skug (MS) and Andersen nutrient media were revealed.*

Keywords: *paulownia, sterilization, seeds, shoots, in vitro, seed germination, explants.*

Introduction. One of the urgent problems of today's rapidly developing world is the use of natural wood, environmentally friendly materials. Now many countries in the world are looking for a way to improve environmental conditions and find new sources of energy. One solution to this global problem is the cultivation of a unique tree, which is already known throughout the world as Paulownia. In many countries such as China, Japan, Bulgaria, etc. for landscaping urban areas and the territory of industrial enterprises began to widely use seedlings of fast-growing Paulownia trees, which is a new innovation that allows you to get a tall deciduous tree (6-meter trees maximum for 3 years), providing improvement of ecological conditions in cities and industrial enterprises.

And in Uzbekistan a special role is given to Paulownia. In the republic Paulownia is planted around factories, industrial enterprises, squares, boulevards, along highways, etc. On the initiative of President of the Republic of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev the state project "Yashil makon" was launched where till 2030 yearly 200 million tree saplings will be planted in the territory of the republic. And this project has been elevated to the rank of state policy.

Paulownia felted is characterized by high economic and biological potential, and is of interest as an ornamental and valuable tree species.

Until recently, the main method of obtaining planting material was vegetative propagation, which allows to preserve the genotype of the mother plant and reduce the duration of the juvenile period. Cell and tissue culture methods are a vegetative method of plant propagation *in vivo*. Thanks to clonal micropropagation it is possible to obtain a population of genetically equalized trees, which will allow to accurately predict the dynamics of plantation development



Material and methodology of the study. The purpose of this work was to carry out a comparative analysis of plant yield from sterile and non-sterile seeds and sterile shoots of *Paulownia felicata*.

Studies were carried out in the laboratory of "De Nova Agro" LLC at Tashent State University.

Externally identical sterile and non-sterile *Paulownia* felt seeds were used as an object of research. In all experiments, 11 complete seeds in triplicate were used in each experiment variant. Non-sterile seeds were germinated in Petri dishes on wet filter paper according to the conventional method. Fungicide solutions and a 7.5% calcium hypochlorite solution sterilizing agent were used to introduce sterile seeds into the *in vitro* culture. After sterilization and washing, seeds were germinated in jars and explants were planted on Murasige-Skug (MS) and Andersen nutrient media with 6-benzylaminopurine (BAP).

Also, the object of the study were nonwoody, apical stem fragments 15 mm long with 1-2 buds in an amount of 20 pieces. Sterilization was performed by the above method. The washed explants were placed in jars on MS medium with addition of BAP.

The shoots obtained by sterile germination were divided into explants and then placed again on the same nutrient medium. Jars with seeds and shoots were placed on racks of the light unit of the culture room of biotechnology laboratory at temperature +25°C, day/night photoperiod of 16/8 h, illumination of 4000 lux, and relative humidity of 70%.

The number of germinated seeds and explants was counted every 10 days for four months.

Results. Seed germination is a complex process that depends on many conditions: temperature, characteristics of the substrate, physiological characteristics of the seeds themselves. The processes occurring at the beginning of development, which determine the preparation and transition to the generative period, play an important role in plant productivity.

Seed sterilization is an effective and environmentally friendly measure to protect plants from infection. Obtaining aseptic seedlings for *in vitro* experiments is quite challenging due to the possibility of high bacterial and fungal contamination of the material.

For each plant, the optimal sterilization regime is determined experimentally. Despite the fact that the surface of *Paulownia* felt seeds is pubescent with short hairs, which can make its release from infection difficult, we managed to provide sufficient disinfection of the material, thus increasing the number of germinated sterile seeds compared with non-sterile ones. The laboratory germination rate refers to the number (in %) of normally germinated seeds within a certain period of time (mostly 7-10 days) to the total number of seeds in the sample.

On the 10th day, the germination rate among sterile seeds was 76 %, among non-sterile seeds - 33 %. The use of sterile seeds at the stage of plant introduction into *in*



in vitro culture allows to obtain a large number of explants and thereby increase the probability of success of further stages of microclonal multiplication.

It should be noted that non-sterile seeds began to germinate on the second day from the beginning of the experiment, and the sterile ones - on the sixth day. It is likely that such a delay in seedling development may be related to the negative effect of sterilizing agents on the seed germ.

Explants cultured on nutrient agarized Anderson medium were characterized by slow growth and low proliferation activity.

Further micropropagation of the main and additional shoots *in vitro* provided multiplication ratios in the first cycle on MS medium up to 1:8, on Andersen medium up to 1:4.

The yield of viable explants after sterilization of shoots with buds was 50%, reproduction rate was 1:3.

Conclusions. As a result of the experiments, the peculiarities of germination of Pavlovnia felt seeds in sterile and non-sterile conditions were revealed.

When using sterilizing agents to introduce seeds as primary explants in *in vitro* culture, the effect of disinfectants on the seed germ should be considered. Sterilization significantly reduces the seed germination rate and seedling development, but at the same time contributes to the elimination of pathogens from the seed surface.

MS medium with the addition of BAP is optimal for culturing explants.

LITERATURE:

1. Dushkin S. A. A. Effect of chemical and biological preparations on seed germination and survival of *Triticumaestivum* L. / S. A. Dushkin [etc.] // Bulletin of OrelSAU. -2012. - № 6 (39). - C. 30-33.
2. Ignatenko A. V. Biocalometric analysis of the effect of biocidal substances on the seeds of plants / A. V. Ignatenko // Tr. BSTU. Series IV. Chemistry, Technology of Organic Substances and Biotechnology. Issue XVIII. - 2010. - № 4. - C. 314-317.
3. Kudryashov O. A. Physiological and biochemical features of brassinosteroids action on processes of microclonal reproduction of *Vaccinium corymbosum* L.: Ph. D. in Biology : 03.01.05. / O. A. Kudryashova. - Minsk, 2015. - 175 л.
4. Kuznetsova E. N. N. Peculiarities of seed germination of rare plant *Asteramellus* L. in *in-vitro* culture / E. N. Kuznetsova, O. G. Baranova // Vestn. Udmurtian University. - 2017. - № 3. - C. 409-411.
5. Shurganov O. Development of an effective regeneration system of *Paulownia Shang Tong* (*P. fortunei* x *P. tomentosa*) / B. V. Shurganov [et al. PFUR. Ser. agronomy and animal husbandry. - 2015. - № 3. - C. 47-55.



MIRZACHO'LDA TARQALGAN BURCHOQDOSHLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834201>

Qarshiboyev Jahongir Hazratqulovich

Guliston davlat universiteti Ilmiy rahbar: b.f.n. dotsent.

Abdurahmonov Ilhom

Shodiyeva Dilrabo

Magistrant

Annotatsiya: *Dunyo aholisining soni yildan yilga ortib bormoqda. Binobarin, biologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biri insonlarning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan nazariy va amaliy muammolarni hal etishdan iborat. Oqsil-kishilik hayotidagi asosiy rol o'ynovchi hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan moddadir. Hayvon oqsili qimmat bo'lgani uchun aholini arzon va sifatli o'simlik oqsili mahsulotlari bilan taminlashdek dolzarb muamo turibdi, bu borada eng yaxshi yechim bu burchoqdoshlar oilasi vakillarini ko'proq o'rganib tadqiq etish zarur. Ushbu maqola Mirzacho'l hududida tarqalgan burchoqdoshlar karpologiyasi va ular haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mirzacho'l, burchoqdoshlar oilasi, oqsil, botanika, o'simlik, uglevod, dukkak, .*

Tarkibida oqsil va uglevod miqdori yuqori bo'lgan bug'doy, makkajo'xori, lavlagi, soya va boshqa ekinlarni ekishga mamlakatimizda katta ahamiyat berilmoqda. Dukkakli o'simliklar yoki barcha o'simliklar ichida o'zining tarkibida yuqori miqdorda oqsil va moy saqlovchi soya o'simligi alohida o'ringa egadir. O'simlik oqsillari ichida birgina soya oqsili o'zining ximiyaviy tarkibi jixatida hayvon oqsiliga o'xshaydi. Hozirgi kunda yer sharidagi rivojlangan mamlakatlarda chorva mollari ozuqasida asosiy rolni dukkaklilar oilasiga mansub soya doni mahsulotlari egallaydi. Soya donining tarkibida 40-45 foiz oqsil va 22-25 foiz moy bo'lib, soya oqsilida inson va hayvon organizmi uchun zarur bo'lgan jami aminokislotalar mavjud. Yer shari dehqonchiligi qolaversa O'zbekistonda tarkibida oqsil miqdori yuqori bo'lgan osimliklarni ekish ularning maydonlarini kengaytirish va hosildorlikni oshirish bu kunning eng muhim masalalaridan biri bo'lib qoladi. Ayniqsa Respublikamizda g'o'za – g'alla amashlab ekish sharoitida tuproq unumdorligini saqlash, dehqon fermerlar uchun qo'shimcha mahsulot va daromad olishni ta' minlash maqsadida soya bilan boshqa dukkakli o'simliklardan takroriy ekin sifatida foydalanish shu kunning dolzarb muamosidan hisoblanadi. [1]

Burchoqdoshlar (Fabaceae-Бобовые) — magnoliyatoifa o'simliklar bo'limi, magnoliyasimonlar ajdodi, ra'nokabilar qabilasiga mansub oila[5]. Ko'proq bir yillik yoki ko'p yillik o'tlar, yarimbuta, buta yoki daraxtlardan iborat. Oila vakillarining ildizi-



o'q ildiz tizimli. Ildizida tugunak bakteriyalar hamkorlikda hayot kechiradi. Ular shu o'simliklar ildizida yashab, havodagi erkin azotni o'zlashtiradi. Tugunak bakteriyalar tuproqni azotli birikmalarga boyitib, tuproq hosildorligini oshiradi. Poyalari tik o'suvchi, ilashuvchi, o'raluvchi yoki yotib o'suvchi bo'ladi. Ko'pchiligida barglar murakkab yoki oddiy, yonbargchali yoki yonbargchasiz bo'lib, o'ziga xos tuzilishga ega, uchbargchali, toq yoki juft patsimon, ikki karra patsimon murakkab barglar uchraydi, ketma-ket joylashgan. Ba'zi o'simliklar yonbargchalaridan yoki toq patsimon murakkab barglarning uchidagi toq bargchasidan tikan hosil bo'ladi. Yaxshi rivojlanmay nobud bo'lgan toq bargcha o'rnida tikan hosil qilishi mumkin. Gullari qiyshiq, ikki jinsli, shingil, bosh(kallak)cha xilidagi to'pgulga joylashgan. Gulkosachasi yarmigacha qo'shilgan 5 ta gulkosachabargdan tashkil topgan. Gultoqi kallak shaklida bo'lib, 5 ta gultojibargdan hosil bo'lgan. Ikki yon tomonda tagida joylashgan 2 ta qo'shilgan gultojibarg - "qayiqcha", ikki yonida joylashgani - "qanotcha" ("eshkakcha"), ular ustida yirikrog'i - "yelkancha" ("bayroqcha") deyiladi. Changchilari 10 ta, ulardan 9 tasining iplari bir-biri bilan qo'shib ketgan, o'ninchisi esa erkin, urug'ochisi 1 ta. Ko'pincha xashorotlar yordamida chaglanadi. Mevasi dukkak, 1 ta mevabargdan iborat. Quruq yoki sersuv, bir yoki ko'purug'li bo'lib, yuqoridan ikki pallaga bo'lib ochiladi. [2]

Yantoq Ozbekistonda 2 ta turi o'sadi, soxta yantoq (Alhagi pseudalhagi Fisch) va qirg'iz yantog'i (Alhagi kirghisorum schrenk)

Bo'yi 40-110 sm. Bargi mayda qo'ltig'ida tikoni bor, poyada ketma-ket joylashgan. Guli mayda qizil yoki pushti may-sentyabrda gullaydi, avgust-oktyabrda urug' beradi. Mevasi dukkak meva cho'ziq 1-1,5 smli ko'p urug'li. [3]

Shirinmiya (Glycyrrhiza glabra)

Qizilmiya - dukkakdoshlarga mansub ko'p yillik ildizpoyali begona o't. Poyasi sershox dag'al, bo'yi 40-150 sm, tik o'sadi. Barglari toq patsimon, uzunligi 8-20 sm. Gullari binafsha rang, zigomorf, ikki jinsli, shoda to'pguli aprel-iyunda gullaydi va mevalaydi, mevasi 3-7 urug'li dukkak, urug' qattiq qobiqli 30-35°C da ko'karadi.

Ildizi va ildizpoyalarida glitserizin kislotaning 3-24%, glukoza-8%, saxaroza-11%, krahmal-34%. Suvda ekstraksiyaga uchraydigan moddalarning miqdori 43% ga yetadi

Qashqarbeda

Qashqarbeda - ikki yillik begona o't. O'zbekistonda sariq qashqarbeda va oq qashqarbeda turlari uchraydi. Poyasi tik o'sadi, sershox, bo'yi 50 - 150 sm. Barglari uchbargchali, ketma - ket joylashgan. Gullari sariq, shingil to'pgulda joylashgan. Mevasi 1 - 2 urug'li dukkak. Ikkinchi yili iyun - avgustda gullaydi va iyul - sentabrda mevalaydi.

Oqquray Oqquray (Psoralea L.) - Dukkakdoshlar oilasiga mansub o'tlar turkumi, ko'p yillik o'simlik. O'zbekistonda (P. drupacea Bge.) dukkakli Oqquray turi uchraydi. Ildizi yo'g'on va uzun. Poyasi tarvaqaylab shoxlangan, uzunligi 130 sm gacha. Barglari oddiy, yaxlit, yumaloq yoki uch bo'lakli, cheti arrasimon, bandili, ketma - ket joylashgan. Guli mayda to'pguli shingilsimon, gultoqi binafsha rang. Gulkosalari



qo'ng'iroqsimon, 5 tishli. Mevasi bir urug'li dukkak. Iyun – sentabr oylarida gullab urug'laydi.

Madaniy holda o'suvch burchoqdoshlar vakillari

Oq akatsiya (*Rbinia pseudoacacia* L.)

Dukkakdoshlar oilasiga mansub daraxt turi. Bo'yi 20 – 30 m. Bargi uzun bandli, uzunligi 10 – 25 sm, patsimon murakkab; har bir bargi 5 – 12 juft yaproqchali. Gullari oq, hidli, shirali, to'pguli shingilsimon. Dukkagi tuksiz uzunligi 5 – 7 sm. Aprelning oxiri – mayning boshida gullaydi, oktyabrda meva tugadi.

Soya (*Glycine hispida* L.)

Dehqonchilikda madaniy turi - *G. hispida* Max keng tarkalgan. Bo'yining balandligi naviga qarab 60-125 santimetr gacha yetadi. Ildiz sistemasi juda yaxshi rivojlangan. Ildizi-o'q ildiz, mayda va uzun yon ildizlari juda ko'p. 2 metr chuqurlikkacha kirib boradi. Yon shoxlari soni 2-9 ta va undan ham ko'proq bo'lishi mumkin. Birinchi shoxlari sinib qoladi, ko'pincha poyaning shakli piramidasimon, yoyiq, tarqoq bo'ladi. Barglari murakkab uchtalik, ba'zan beshtalik ham bo'lishi mumkin. Bargning uzunligi 5-16 santimetr, eni 3-10 santimetr bo'lishi mumkin. Poyaning panasidagi barglar mayda va siqiy, bir o'simlikda 15-20 dan 170 tagacha bo'ladi. Gullari shingil deyiladi. Asosan barg qo'ltig'ida joylashadi. Juda mayda rangi binafsha, pushti rangda. Dukkaklari ikki qobiqdan iborat bo'lib, 1-2-3 dona urug' joylashadi, ba'zan 4-5 taliklari uchraydi. Quruq havoda yorilib ketadi. Rangi qora, qo'ng'ir, to'q qizil, sariq va och-yashil tusda. Dukkaklar pisha boshlaganda o'simlik poyasi sariq, qo'ng'ir yoki malla tusga kiradi. [4]

Loviya (*Phaseolus*)

Loviya dukkaklilar oilasiga mansub bir yillik va ko'p yillik o'simlik. Hindiston, Braziliya, Xitoyda kattamaydonlarda yetishtiriladi. O'zbekistonda qadimdan oddiy loviya ekiladi. Ildizida tugunaklari rivojlanadi, o'q ildizli tuproqqa 1 – 1,5 m chuqurlikkacha kirib boradi. Poyasi o'tsimon, shoxlanadi, ayrim turlari chirmashib o'sadi 3 – 4 metrgacha yetadi. Bargi murakkab 3 bargchali, toq patsimon. Guli ikki jinsli, barg qo'ltig'ida bittadan yoki shingil to'pgulda joylashgan. Mevasi dukkak rangi och pushti yoki to'q jigarrang. Dukkagida 6 – 12 ta urug' bo'ladi. Urug'I buyraksimon, rangi oq, sariq, pushti va boshqa rangda. Doni tarkibida 20-31% oqsil, 0,7-3,6% moy, alkil kislota mavjud. [4]

Mosh (*Phaseolus aureus*)

Mosh – dukkakdoshlar oilasiga mansub 1 yillik ekin, loviya turlaridan biri. Hindiston, xitoy, eron kenja turlariga bo'linadi. O'q ildizi tuproqqa 1,5 metrgacha kirib boradi, azot to'playdigan tugunaklar hosil qiladi. Sershox poyasi 20 – 100 sm yoyilib, tik yoki chirmashgan holda o'sadi, barglari keng, yirik. Guli ikki jinsli, kapalaksimon, barg qo'ltig'ida 3 – 12 ta bo'lib joylashadi, rangi sariq yoki sarg'ish – yashil. Mevasi dukkak, ingichka, silindrsimon, uzunligi 6 – 18 sm, ichida 6 – 15 ta urug' bo'ladi. Urug'I sariq, yashil, qora 1000 donasi 40 – 80 gr chiqadi. [4]

Gledichia, tikon daraxti (*Gleditsia*)



Gledichia – dukkardoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi. Bargi qo'sh patsimon murakkab. Gullari bir jinsli, aktinomor, mayda, ko'kish, barg qo'ltig'idan chiqqan boshhoqsimon to'pgulda joylashgan. Dukagi yirik, uzun, jigarrang. Shimoliy va Janubiy Amerikada, Janubiy Osiyoda va Afrikada tropiklarida 12 turi malum. Shimoliy Amerikadan kelib chiqqan tikanli Gledichiya (*G. tricanthos*) O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrimda ekiladi. Tez o'sadi, bo'yi 40 m gacha bo'ladi. May – iyunda gullaydi. [4]

No'xat (Cicer)

No'xat – dukkardoshlar oilasiga kiruvchi bir yillik o'tsimon o'simlik turkumi, dukkakli don ekini. Juda qadimdan bir yillik madaniy turi (*C. arietinum*). Madaniy no'xatning ildizi o'q ildizli (100 – 150 sm). Poyasi o'tsimon, tik o'sadi, dag'al, qovurg'ali, sershox, tukli, balandligi 30 – 70 sm. Bargi murakkab, toq patsimon. Guli ikki jinsli, kapalaksimon mayda. Rangi oq, sariq, sarg'ish – yashil va ko'k. Mevasi – dukkak 1 – 2 ta bazan 3 ta don bo'ladi. Donining rangi oq, pushti, to'q sariq. [4]

Yeryong'oq Xitoy yong'og'I (*Arachis hupogaea* L)

Yeryong'oq – dukkardoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik, moyli ekin, 10 dan ortiq turi bor. Ildizi o'q ildizli tuproqqa 2 m gacha kirib boradi, azot to'plovchi tugunaklar hosil qiladi. Poyasi o'tsimon balandligi 50– 60 sm, shoxlangan, tik, yon shoxlari yer bag'irlab o'sadi. Bargi murakkab, juft patsimon, yoki teskari tuxumsimon shaklda. Har bir barg qo'ltig'ida shingil to'pguli joylashgan. Gullari ikki jinsli, kapalaksimon, rangi sariq, zarg'aldoq. Yer tagidagi gullari gullari (kleystogamli gular) ochilmaydi, o'zidan changlanadi. Yer ustidagi gullari esa chetdan changlanadi. Guli changlangandan so'ng tugunchasi avval tik, so'ng pastga qarab o'sadi, 8 – 10 sm chuqurlikda tuproqqa kirib boradi va meva tugadi. Dukkagida 1 – 6 tagacha urug' bo'ladi.[3]

Burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning ildiz tukchalariga tuproqdagi Rhizobium turkumiga mansub bakteriyalar kirib, ildizda tunganlar hosil qiladi. Bakteriyalar bakteroid to'qimalarni hujayralarning sitoplazmasida yashaydi. Tuganak tashqi tomonidan periderma bilan o'ralgan, ichki tom onida o'tkazuvchi naylar boylami bo'lib, ildizning o'tkazuvchi tizim bilan bog'liq bo'ladi. To'g'onoqlarning uchki qismida apikal meristemasi saqlanib to'g'anoqning uzunasiga o'sishiga yordam beradi. Ildizning hujayralari bilan bakteriyalar orasida biokimyoviy bog'lanishlar mavjud bo'lib. molekulyar azotdan foydalanilgan holda organik moddalarni sintez qiladi. Shunday qilib. dukkakli o'simliklar bilan bakteriyalar simbioz holda hayot kechiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qarshiboyev h.q. Sirdaryo viloyatida dala ekinlarini yetishtirishning ilg'or texnologiyalari. – guliston, 2004. – 4 b.
2. [https://fayllar.org/burchoqdoshlar oilasi haqida umumiy tushuncha.](https://fayllar.org/burchoqdoshlar-oilasi-haqida-umumiy-tushuncha)
3. Холматов ҳ.х доривор ўсимликлар
4. O'simlikshunoslik (r.oripov n.xalilov)



5. O'p.pratov, m. M. Nabiyev "o'zbekiston yuksak o'simliklarining zamonayiy tizimi"



ALISHER NAVOIY HAQIDAGI ASARLARDA HUSAYN BOYQARO OBRAZINING YORITILISHI

(OYBEKNING "NAVOY" ROMANI, ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY"
ROMANLARI MISOLIDA)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834207>

Mo'minova Feruza Farmonovna

BuxDU Adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti mutaxassisligi

II bosqich magistranti

f.f.muminova@buxdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoi haqidagi asarlarda uning do'sti va Xuroson saltanatining hukmdori Sulton Husayn Boyqaro siymosining yoritilishi haqida fikr yuritiladi, bu obrazning tasvirida tarixiy haqiqat va ijodkor fantaziasining uyg'unligiga alohida e'tibor berilgan.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, roman, Hirot, Husayn Boyqaro, saltanat, ilm-fan, san'at, madrasa, xalq, tarix, "Xamsa", do'st, Astrobod, vazir, muhrdor, g'azal, karimut-tarafayn, temuriyzoda.*

Sulton Husayn Boyqaro shoh va shoir, Navoiy bilan zamondosh, hammaktab, umri oxirigacha hayotlari birga kechdi. Alisher Navoiyning homiysi, uning daho sifatida yuzaga chiqishiga yordam bergan. Alisher Navoiy esa Sulton Husayn Boyqaro saltanatini mustahkamlashda ko'maklashdi.

Husayn Boyqaro faqat mohir sarkarda va yirik davlat arbobigina emas, balki iste'dodli adib ham edi. U "ham forsiy demakka qodir va ham turkiy aytmoqqa mohir erdi, ammo turkiy devon tadviniga mayl qildilar va dilpazir abyot va Benazir g'azaliyot tartib berdilar". (Alisher Navoiy) U o'sha vaqtdan o'zbek fani, madaniyati, ayniqsa, adabiyotining rivojiga katta hissa qo'shgan. Hukmdor sifatida esa o'z davrida turkiy tilda asarlar yaratilishiga sharoit va imkon yaratib bergan, bu ishlarni amaliy jihatdan rag'batlantirgan edi.

Sulton Husayn Boyqaroni Zahiriddin Muhammad Bobur o'z "Boburnoma" sida shunday ta'riflaydi: "Sulton Husayn Mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur... Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husan Mirzo Mironshoh Mirzoning ham nabirasi bo'lur edi. Sulton Husayn Mirzo karimut-tarafayn (ikki tomonlama ulug') edi.

Shujo va mardona kishi edi. Temurbek naslidin hech kim ma'lum emaskim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo'lgay, Ta'bi nazmi bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi "Husayniy" edi.."



Alisher Navoi haqidagi asarlarda, albatta, Sulton Husayn Boyqaro timsoli, albatta, uchraydi. Faqat uning timsoliga munosabat turli davrlarda turlicha bo'lgan. Alisher Navoi haqida eng ko'p asar yozgan adib, shubhasiz, Oybekdir. U "Guli va Navoiy" dostonida Sulton Husaynning yigitlik davrini shunday tasvirlaydi:

"O'rta bo'yli, yelkalari keng,
Bilak kuchi sher kuchiga teng.
Sovut kiyib qurganda maydon,
Ot ustida, titratar jahon".¹⁰

Su dostonida Oybek Navoiy va Boyqaro suhbatini nafaqat shoh va vazir muloqoti, balki ikki turkigo'y shoirning munozarasi sifatida ham beradi. Navoiy do'sti-shoir Husayn Boyqaroning g'azalini maqtaydi. Oybek ta'riflaganidek:

Ikki shoir – podshoh-u vazir,
Ikkovi ham birdek sevar she'r¹¹

Mirkarim Osimning "Zulmat ichra nur" qissasida Sulton Husayn Boyqaro Samarqanddan Hirotga qaytgan Alisher Navoiyga "kichkina vazifa" (muhrdorlik) berib, saroy ahli bilan tanishishni maslahat beradi. Adibning fikricha, Sulton Husayn Boyqaro maishatparast, erta-yu kech sharob ichadigan, xalqni o'ylamaydigan bir hukmdor. U Alisher Navoiyning faqat "ichkilik ichmang", degani uchun saroydan uzoqlashtirmoqchi. Majididdinning talabi bilan Alisher Navoiyni Astrobodga hokim qilib yuboradi. Balxda isyon ko'targan Darveshali taslim bo'lgach, uni avval afv etib, so'ngra zindonga soladi va aynan Alisher Navoiyni Balxda hokim qilib qo'yadi. Buncha qora bo'yoq nima uchun? Sulton Husayn Boyqaro shu darajada subutsiz odam bo'lganmi? Asar yozilgan davr mafkurasiga ko'ra, Sulton Husayn shoh bo'lgani uchun, u salbiy obraz hisoblangan. Shunga ko'ra yozuvchi Alisher Navoiyning vazir sifatidagi faoliyatiga emas, uning Sulton Husayn va uning vazirlari bilan bahs-u munozaralariga, ularga bo'lgan adovatiga ko'proq o'rin bergan. Ayniqsa, asar xotimasida Alisher Navoiyning vafotidan so'ng, uning ma'rakalarini o'tkazgan Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyning hovlisini va bog'ini o'g'li Muzaffar Mirzoga berish fikri ham mantiqqa ziddir.

"Yangi "Xamsa"ning muallifi Barot Boyqobilov Alisher Navoiy haqida o'zining to'rt dostonida n iborat "Navoiynoma'sini yaratdi." Sokin Xuroson" dostonida Sulton Husayn Boyqaroning murakkab, qarama-qarshiliklarga boy siymosiga duch kelamiz. Hukmronligining dastlabki yillarida u xalqparvar, adolatli shoh sifatida ko'rinishga intiladi. Do'sti Alisherni avval muhrdor, keyinchalik vazir lavozimiga ko'taradi. Navoiy davlat ishlaridan chetlashmoqchi bo'lganda unga vaziri kabir, muqarrabi shohiy unvonlarini beradi. O'z saltanatini Navoiyning ko'magi, aqli, obro'si bilan mustahkamlamoqchi bo'ladi. Ammo Majididdin, Nizomulmulk, Xo'ja O'smat kabilarning domiga tushib qolgan Sulton Husayn Boyqaroning timsolida endi qora bo'yoqlar

¹⁰ Oybek. Mukammal asarlar to'plami, 4-jild, "Fan", T., 1976, 70-bet

¹¹ O'sha manba



quyuqlashadi,xalq va mamlakat manfaati emas,o'z maishati, kayf-u safosi birinchi o'ringa chiqadi.Navoiy dushmanlarining ig'vo-yu tuhmatlariga ishonadi,o'z do'stiga ishonmay qo'yadi.Nazarimizda Sulton Husayn Boyqaro bilan bog'liq barcha mojarolarni tasvirlashda muallif uning haramida bo'lib o'tgan voqealarga ko'proq va batafsil to'xtagani shoh va mamlakat hukmdori sifatidagi faoliyatiga soya solgan. Dostondagi eng go'zal lavhalardan biri,shubhasiz,"Xamsa"ning taqdirlanishi marosimidir.Shu lavhada biz ,haqiqatan ham,do'sti va Xurosonning buyuk shoiri Alisher Navoiyni ulug'lagan,mehnatini qadrlagan mard va tanti hukmdor,sodiq do'st Sulton Husayn Boyqaroni ko'ramiz. Ammo yovuzlik hamisha ezgulikdan ustun bo'lishga intiladi. Do'stining yutug'idan shodlangan Sulton Husayn Boyqaro makkora Xadichabegim,olchoq Majididin qo'ygan tuzoqdan chiqib ketolmaydi, ularning talabi bilan Navoiyni Hirotdan uzoqlashtiradi:Astrobodga hokim qilib yuboradi.Barot Boyqobilov Sulton Husayn Boyqaroni murakkab obraz sifatida tasvirlaydi.

"Navoiy va rassom Abulxayr" turkumida Alisher Navoiy haqida o'zgacha ruhdagi asar yozgan Omon Muxtor Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy munosabatlarini tahlil qilar ekan, shunday xulosaga keladi:ularning oralariga tushib turadigan sovuqchilikning asosiy sababi xalqqa bo'lgan munosabat edi.Alisher Navoiy xalqparvar, Husayn Boyqaro esa shu xalqning ezilishiga sabab bo'lgan hukmdor edi."Ishq ahli"da Navoiyning va Husayn Boyqaroning vafoti butun tafsilotlari bilan keltirilgan.Shunday rivoyat keltirilgan: Husayn Boyqaro yog'ayotgan qorga qarab Alisher Navoiyning "Qish" she'rini eslaydi va kiyinib,ikki mulozimi bilan Navoiy yotgan maqbaraga borib,qabr boshida Qur'on o'qiydi.Qabr boshida bir gulgun qabo kiygan qizning burqa ostidan unga o'kinch va adovat bilan boqayotganini sezadi. Husayn Boyqaro uni Guli deb oylaydi:"Bu qiz Alisherdan ancha oldin o'lgan edi-ku.Yo'q,bular o'lmaydi,Alisher o'lmaydi.Guli ham... Haqiqatan ham Alisher Navoiy mangu barhayot.

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Ali "Navoiy va Boyqaro" tarixiy dramasida Alisher Navoiy va Sulton Husayn Boyqaroning buyuk do'stligini ko'rsatishni asosiy mavzu qilib tanladi.Muallif asarning bosh g'oyasidan kelib chiqib, Sulton Husayn Boyqaroni,barcha kamchiliklariga qaramay,ma'rifatli,mushohadasi keng shoh sifatida ko'rsatadi.U Alisher Navoiyning buyuk "Xamsa"sini munosib taqdirlaydi,"Xazoyinul-maoniy"ni tuzishga,"Mezonul-avzon' otlig' aruz kitobini yozishga undaydi.Saltanat ishlarida Nizomulmulk,Qozikalon,Xadichabegim kabilarning ta'siri ostida Alisher Navoiy maslahatlariga teskari ish qiladi, Badiuzzamon bilan urushadi,Mo'min Mirzoni qatl ettirish haqidagi farmonga mastlik chog'ida qo'l qo'yadi.Lekin Alisher Navoiy uvol ketgan Mo'min Mirzoga qanchalik achinmasin,do'sti Sulton Husayn Boyqaroga ham oson emasligini tushunadi,uni ayblamaydi:

"**Navoiy.**(ingrab) O, Xondamir,nozik joydan tutdingiz...Qandoq yuz o'giray? Shoh G'oziy bilan bir umrlik do'stmiz,umrimning butun boyligi Sulton Husayn Boyqaro bilan do'stligimdir.Umrim poyoniga yetib turganda nogahoniy bir sabab deb, qandoq qilib bir umrlik toat-ibodatimdan ayrilay,bu dunyoligimni sovuray? Bu adolatdan ermas.Shoh G'oziy bu gunohni bilib emas,bilmasdan,g'aflatda qilib qo'ydi.Hozir



do'stinga juda ham og'ir, unga malomat toshini otish emas, balki dardini yengillatadigan malham so'zlarni aytmagim, yupantirmagim joiz! Uning mendan o'zga do'sti yoqdir. Hammasi Xudoning irodasi!"¹²

Oybekning "Navoiy" romanida Sulton Husayn Boyqaro — Amir Temurning munosib avlodi. U qilich tutishni ham, mamlakatni idora qilishni ham, hatto g'azal yozishni ham yaxshi biladi. Lekin u, romanda aytilganidek, „qilichdan ko'ra mayga, jang maydonlaridan ko'ra chaman bog'larda tuzilgan sho'x bazmlarga moyil". Sharq podsholariga xos bo'lgan ana shu xislat bilan xalqning „sharafli, sof, go'zal" yashashi haqidagi Navoiyning orzu-istaklari o'rtasida tubsiz bir jarlik bor. Navoiy Husayn Boyqaroni bolalik kezlaridan boshlab yaxshi bilgani uchun unga ishonadi; uni eng odil, aql-zakovatli, davlatpanoh va xalqparvar temuriy podsholar dan biri, deb biladi. Yana shuni ham yaxshi biladiki, Husayn Boyqaroning atrofida uning zaif tomonlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanadigan, uni chalg'itadigan, hatto o'zi bilan podsho o'rtasidagi iliq munosabatlarga soya tashlaydigan kimsalar oz emas. Afsuski, Sulton Husayn podsho bo'lsa-da, Allohning „xom sut ichgan" bandalaridan biri bo'lgani uchun ba'zan xushomadgo'ylar-u ig'vogarlarning zo'r mahorat bilan to'qigan to'ridan chiqa olmaydi. Xazinani to'ldirish muammosi unga xalq dard-u tashvishlaridan ko'ra muhimroq bo'lib tuyuladi. Oybek o'z davrining farzandi sifatida o'sha davr mafkurasi taqozosi bilan asarda ziddiyatni kuchaytirish ga harakat qilgan. Sulton Husayn Boyqaro obrazida qora bo'yoqning ko'pligi shuning natijasidir.

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanida biz Sulton Husayn Boyqaroni o'zgacha talqinda ko'ramiz. Adabiyotshunos Nusratulla Jumaxo'ja aytganidek:

"Romanda Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari batamom yangicha tasvirlangan. Ilgarigi asarlarda Navoiy va Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro o'rtasida sun'iy xusumat va ziddiyatlar o'ylab topilib, sinfiylik nuqtai nazaridan ular salkam dushmandek tasvirlangan bo'lsa, yangi romanda bolalikdan o'rtoq, do'st, ijod va davlatchilikda qo'shqanot, hamdast-u hamkor, pir-u murid, umrbod hamnafas siymolar yanglig' badiiy aks ettirilgan".¹³

Navoiyshunoslikda Zahiriddin Muhammad Bobur ma'lumotlariga asosanib, Abusaid Mirzo Alisher Navoiyni Samarqandga surgun ("ixroj") qilgan degan fikr mavjud. Isajon Sulton esa, Navoiy Mashhaddan o'zi istab, Samarqandga ketgan, degan fikrni ilgari suradi. Pahlavon Muhammad Alisherga otasi va tog'alari singari Abusaid Mirzo qo'shinida xizmat qilishni taklif etganda, Alisher bu ish qiyomatlik do'stim Husayn Boyqaroga nisbatan xiyonat bo'ladi, yaxshisi Samarqandga ketaman, deydi. Alisher Navoiyning Hirotga qaytishi ramazon oyiga to'g'ri keldi. Oq gilamlar yozib, o'z do'stini kutib olgan Sulton Husayn Boyqaro Navoiyga Mir unvonini berdi, iftorda uning sha'niga yaxshi gaplarni aytib, beklar-u amaldorlar bilan tanishtirdi. Shu o'rinda Isajon

¹² Muhammad Ali. Navoiy va Boyqaro. "Jahon adabiyoti" jurnali, 11-son, 80-bet.

¹³ Nusratulla Jumaxo'ja. "Navoiy siymosining yangi badiiy talqini". AzonUZ.portali.



Sultonning Sulton Husayn Boyqaro haqidagi fikri boshqa navoiyshunoslardan farq qilishini eslatib o'tamiz.

Isajon Sulton tasvirlagan Sulton Husayn Boyqaro jasur, mard, temuriyzoda, o'z do'stini va do'stlikni qadrlovchi inson, xunrezliklari va xatolaridan qattiq iztirob chekuvchi shaxs. Alisher Navoiyning so'z gavharini o'z o'rnida ishlata olagan zargar, ajoyib notiq va uddaburon diplomatligini yaxshi bilgan Sulton Husayn Boyqaro Astrobod hokimligiga shoirning xohishiga qarshi tayinlaydi. Chunki Alisher Navoiyni yubormasa, Sheroz hukmdori Yoqubbek bilan urush qilishi, uning o'zboshimcha bek-u navkarlari egallagan Astrobod chegara yerlari uchun behuda qon to'kilishi mumkin edi. Isajon Sultonning mahorati shundaki, u yaratgan Alisher Navoiy Astrobod hokimligini surgun deb tushunmaydi, balki Sulton Husayn Boyqaroning navbatdagi topshirig'i va uni sharaf bilan bjasrinish kerak degan fikrda bo'ladi. Hatto Yoqubbek maktubda Alisher Navoiyning o'ziga murojaat qilganida, uning xatosini tuzatib, saltanat egasi Sulton Husayn Boyqaro ekanligini, avval uning nomini, so'ngra o'zining nomini yozish kerakligini uqtiradi: "Men xoksorning nomi Sulton Husayn nomidan avval zikr qilinishi sira maqbul emas va faqirni uyat va xijolatga qo'ygaydir. Siz tilga olgan va shohona diqqatingizni qaratgan u ishlar, albatta, Sulton Husayn Mirzoning say'i-harakatlari ila ro'yobga chiqmishdir. Faqir ul ishlarda bir ijrochi, xolos. Shu sabab xosiyatli maktubingizda faqirni e'zozlaganingiz ko'ngilga xush, biroq maysa unmog'ining sababi quyosh va yer-suv bo'lgani kabi, bunday ehtiromlarda sultonning ism avval kelgaydir va faqirning nomi eng ostda bo'lgaydir".¹⁴ Abdulla Ansoriy maqbarasida jorubkashlik qilib yurgan Navoiyni Sulton Husayn Boyqaroning hijriy 905-yil zulqada oyining 15-sanasida chiqargan farmoni benihoya xursand qildi. Shoh "farishtalar sifatlariga va avliyolik belgilariga ega bo'lgan tabiatlari muborak jismlari bilan zohiriy va botiniy birlikka ega bo'lgan, har doim abadiylikka monand suhbatlari va jannatni bezaguvchi uchrashuvlariga katta ehtiyoj paydo qilgan xayrli ishlar asoschisi, ezgu ishlarning boshlovchisi, xoqon hukumatining madadkori, Hazrati Sultonning yaqin kishisi, qudratli saltanat ustuni, haq, haqiqat va din ishlarini tartibga soluvchi oliy nasabli, hidoyat nishonli oliyjanob Nizomiddin Amir Alisher (Alloh taalo undan yog'iladigan barakalarni doimiy qilsin)"ning haj safariga borishi uchun ruxsat bergan va bu ishga mas'ullarga qattiq topshiriq bergan edi.

Oybekning "Navoiy" romanida Sulton Husayn Boyqaro maishatparast, ichkilikka ruju' qo'ygan, qaysi amaldor Alisher Navoiyni yomonlasa, unga ishonadigan, Xadichabegimning makr-u hiylalari oldida ojiz bir, mardlik va shijoatdan mahrum bir hukmdor sifatida tasvirlangan. Uning saltanatida hamma chog'ir ichadi, hatto Navoiy ham. "Alisher Navoiy" romanida biz Husayn Boyqaroni boshqa qiyofada ko'ramiz. Xuroson saltanatini salkam qirq yil idora qilgan temuriyzoda, do'stiga sadoqatli, dushmanga beshavqat, uzoqni ko'zlab ish ko'radigan tadbirkor bir hukmdorni ko'ramiz. Chog'ir majlisini faqat bir marta, unda ham Nizomulmuluk hiylasi

¹⁴ Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Toshkent, 2021, 302-bet



tufayli Mo'min Mirzo qatliga oid farmonga qo'l qo'yish paytida tasvirlanganini ko'ramiz. Sulton haramining tasviri ham musulmonchilik qonun-qoidalari asosida berilgan bo'lib, "Haram" bobida Sulton Husaynning Xadichabegimva uning ikki o'g'li bilan uchrashuvi yoritilgan.

Isajon Sulton yaratgan Sulton Husayn Boyqaro timsolida biz, haqiqatan hambuyuk Alisher Navoiyning bir umrlik do'stini va Xuroson davlatini salkam qirq yil boshqargan bir hukmdorni, kamchilig-u gunohlardan xoli bo'lmagan Allohning bir bandasini ko'ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oybek "Navoiy". Poman. "Sharq" nashriyoti, Toshkent, 2012-yil
2. Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Roman. Toshkent, 2021-yil.
3. Nusratulla Jumaxo'ja. "Navoiy siymosining yangi badiiy talqini". AzonUZ. portali.
4. Muhammad Ali. Navoiy va Boyqaro. "Jahon adabiyoti" jurnali, 11-son,



**TABIIY YODGORLIKLAR- SHARSHARALAR, KO'L VA BULOQLARDAN OQILONA
FOYDALANISH VA MUHOFAZA QILISHNING AYRIM MASALALARI
(SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840009>

D.A. Xudoyberdiyeva

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

dxudoyberdiyeva39@gmail.com

Annotasiya : *O'zbekistondagi tabiiy yodgorliklar, ulardan rekreatsion va turistik maqsadlarda foydalanish, ularni saqlab qolish, masalalari ko'rib chiqilmoqda. Surxondaryo viloyatidagi tabiat yodgorliklarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Tabiiy yodgorliklardan rekreatsiya, turizmga optimal foydalanish va muhofazasini ta'minlash bo'yicha ayrim tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *tabiat yodgorligi, qo'riqxonalar, omonxonalar, sangardak, homkon ko'li, buloqlar, g'orlar, tabiiy meroslar.*

Xalqimiz azaldan suvni e'zozlab, uning har tomchisini tilloga tenglaydi. Asrlar osha o'z mazmunini yoqotmay kelayotgan "Suv-bebaho boylik", "Suv zar, suvchi zargar" kabi maqollar ham obi-hayotning qanchalik qadrlil ne'mat ekanligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda iqlimning o'zgarishi, qishloq xo'jaligida suvlardan nooqilona foydalanish, suvlarning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi oqibatida suv etishmovchiligi yuzaga kelmoqda. O'zbekistonda suvlardan oqilona foydalanish, avlodlarimizga meros qoladigan noyob tabiat yodgorliklari-sharsharalar, ko'l va buloqlarni muhofaza qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati o'z sharsharalari, ko'l va buloqlari bilan mashhurdir. Boysun tog'lari bag'rida Omonxonalar bulog'i joylashgan. Uzoq yillik tarixga ega Omonxonalar quyuq archazorlar bilan qoplangan. Ushbu manzil geografik muhiti, go'zal manzarasi, bahavoligi bilan inson ruhiyatiga o'zgacha ta'sir etadi. Omonxonalar buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan.

Mutaxassislarining fikricha, bunday vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa, jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega. Ayniqsa, tananing ichki organlarini yuvishda qo'llaniladigan zamonaviy gemodez suyuqligi bilan solishtirilsa, foydali va zararsizligiga ko'ra Omonxonalar buloq suvi bir necha marta undan ustun turadi. Boysunliklar orasida Omonxonalar tarixi haqida turli rivoyatlar yuradi. Aytishlaricha, Sohibqiron Amir Temurning lashkari shu vodiya kelganda holdan toyib qoladi. Buning ustiga askarlar birin-ketin kasallikka chalinadi. So'ngra

ular Omonxona suvidan ichib, ana shu g'or salqinida tin olib, ya'na asl holiga kelgan. Rivoyatdan shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu manzil qadimdan elu xalqning sihat-salamatligini ta'minlashga xizmat qilgan[Surhondaryo.,34] Bu yerda Omonxona g'ori ham mavjud bo'lib, uning balandligi 3,5 metr, umumiy maydoni esa 60 kvadrat metrni tashkil qiladi. Bu ma'danli shifobaxsh suvli buloqni muhofaza qilish va undan oqilona foidalanish muhim ahamiyatga egadir.



1-rasm. Omonxona bulog'i.

Sariosiyo tumanida Sangardak deb ataluvchi qishloq bor. Bu yerdagi eng diqqatga sazovor obida, shubhasiz, qoyalardagi buloqdan hosil bo'lgan Sangardak sharsharasi bo'lib, Termiz shahridan 205 km masofada joylashgan.



2-rasm. Sangardak sharsharasi.

Dengiz sathidan 2000 mert balandlikdan otilib chiquvchi sharshara tabiatning noyob mo'jizasi. Sharshara suvi 150 metrdan ortiq balandlikdan, atrofdagi qoyalarga urilib oqadi. Sangardak sharsharasi ayniqsa, bahor, yoz va kuz mavsumlarida chiroyli ko'rinadi. Atrof hududlarda anjir, na'matak, uzum kabi bir qancha daraxt va butalar



o'sadi. Bu hududda tabiat yovvoyi holda saqlangan bo'lib, inson tomonidan zarar yetkazilmagan. Ma'lumotlarga qaraganda, Sangardak sharsharasini hosil qiluvchi buloqlarning manbai qoyalar ichidagi ko'lda joylashgan. Bu sharshara "Sharsharamozor" nomi bilan ham mashhur bo'lib, har yili mavsum boshlandi deguncha ziyoratchilar bilan gavjum bo'ladi. Uning atrofida kishini hayratga soladigan darajada serjilo kamalak hosil qiladi. Uning suvi sovuq bo'lsa-da, salomatlikka ziyon qilmaydi, aksincha, vujudni tetiklashtiradi. Sharsharaning tovushi asabni tinchlantiradi va yurakka quvvat beradi.

Termiz-Denov turistik yo'nalishda Ho'jaipok sihatgohi-ham tabobat, ham ziyorat maskani hisoblanadi. Ho'jaipok nomi bilan Abdurahmon ibn And hazratlariga berilgan nisbatdir[Surhondaryo.,54] Ushbu g'or Kenagi njg' etaklarida joylashgan. G'orning uzunligi mutahasislar tomonidan to'liq o'rganilmagan. G'orning yuza qismidan qaynab chiqadigan shifobaxsh buloq suvi 45 metr dan, kichik er osti daryo suvidan oqib keladi. Gordan sekundiga 200 kbnh suv oqib chiqadi. Suv tarkibida natriy, kaliy, kalsiy, gidrokarbonat natriy, kremniy kislotasi, azot, temir, alyuminiy va boshqa mikroelementlardan iboratdir. G'or ichida tabiiy hammomlar ham mavjuddir. G'ordan keladigan suvning shifobahshligini odamlar qadimdan bilganlar va foydalanganlar.

Surxondaryo viloyatining g'arbida, nisbatan uncha katta bo'lmagan, eni 800metrga teng Kanbeshbuloq ko'li Xamkon tabiiy chegara hududida joilashgan bo'lib, noyob ko'l hisoblanadi. Ko'l meteoritni erga tushishi oqibatida hosil bo'lgan kraterda yuzaga kelgan deb hisoblanadi. Uning ko'lab alomatlari qulab tushgan meteorit izini eslatadi va xaqiqiy tabiatning kosmogomik yodgorligi hisoblanadi. Ko'l yaqinidagi tuproq vadaryo qumi tarkibida meteoritlarning erga zarbasi natijasida yuqori harorat ta'sirida paydo bo'ladigan ko'plab tektitlar topilgan.

Vohada joylashgan tabiat yodgorliklari - sharshara, ko'l va buloqlarni muhofaza etish davlatning va keng jamoatchilikning dolzarb vazifasi hisoblanadi[Сурхондарёвилояти., 36].

Xalqimizning hayotini yaxshilashni asosiy yo'llaridan biri uni toza ichimlik suviga bo'lgan talabini to'liq qondirishdir. Buning uchun suvni ko'paytirish va uni toza saqlash choralariga yanada ko'proq e'tibor qaratilishi kerak. Ma'lumki, suvning manbai bo'lgan qor tog'larga kam tushmoqda, muzliklar maydoni borgan sari qisqarib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri o'tgan asrning birinchi yarmilarida tog'lardagi o'rmon-daraxtlarning, ayniqsa, archazorlarning qirqilib yuborilganligi, tog'larning yalong'och bo'lib qolganligidir. Viloyat tog'laridagi o'rmonlarning 50 foizidan ko'prog'i kesib yuborilgan. Buning oqibatida suv kamayib, ko'p buloqlar qurib ketdi. Bahor oylarida tushgan nam ham tez bug'lanadi, shamol va yog'ingarchilik ta'sirida yer eroziyaga uchraydi. Shu kabi muammolarni davlat miqyosida hal etish va suv manbalarimizni ehtiyotkorlik bilan muhofaza etish, kelgusi avlodlarimiz uchun saqlab qolish bizning burchimizdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Surhondaryo. Jannatmakon o'lkaga marxamat. Uzbekistan.travel
2. Suv xo'jaligi hisobot beradi.T.; Baktria press.-2020.-110 bet.
3. Surxondaryo viloyatining turistik yo'nalishiga kiritilgan tarixiy - me'moriy arxeologik va ekologik ob'ektlari haqida ma'lumot. 2021.,-75 bet



SPORT JAMOALARIDAGI O'ZARO MUNOSABATNI PSIXOLOGIK TAHLIL QILISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840053>

Nizomiy nomidagi TDPU.Jismoniy tarbiya va sport yo`nalishi talabasi

Yaxshiboyev Mahmud Abdumutal o`g`li

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti.Pedagogika va psixologiya
yo`nalishi talabasi*

O`taganova Xoliniso Ne`mat qizi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlarning mazmuni, sharoiti va ta'sirini o'rganish hamda natijalarini tahlil qilish jamoadagi psixologik muhitni yaxshi yo'lga qo'yishda, sportchilar ma'naviy-ruhiy sifatlarini kamol toptirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa jamoa uchun katta muvaffaqiyatlar keltiradi.Shu tarzda ularda musobaqada ishtirok etish davriga qadar o'ziga xos alohida xarakter sifatlari tarkib topadi. Sportchida kekkayish, o'zini raqibidan ustun qo'yish, maqtanchoqlik kabi salbiy harakatlarning oldini olish; ularda sport etikasiga rioya qilish, maqsadga intiluvchanlik, irodani chiniqtirish, bardoshlilik kabi sifatlarni rivojlantirish; jiplashgan, mustahkam birlashgan jamoadagi har bir sportchining o'z fikriga ega bo'lishi barobarida boshqalarning fikriga e'tiborli bo'lish kabi umuminsoniy hamda shaxsiy irodaviy sifatlarni yanada takomillashtirish sport jamoalari va jamoalarida yanada samaraliroq amalga oshiriladi.*

Kalit so`zlar: *Lider, «Sotsiometriya»,«Hamkorlik»,rasmiy va norasmiy o`lchov.*

Lider — inglizcha so'z bo'lib, sport musobaqalarida oldinda boruvchi sportchi; yetakchi, peshqadam degan ma'nolarni bildiradi. Liderlik (bu o'rinda) yetakchilik, peshqadamlik demakdir.

Sport jamoalarida sportchilarni mashg'ulot va musobaqalarga jismoniy va ruhiy jihatdan tayyorlashda o'zaro ijobiy munosabatlarni rivojlantirish g'alabani bosh omilidir. Ijobiy muhit yaratilgan jamoalar sportchilari jamoa g'alabasi uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar qilishga tayyor bo'lishadi. Biroq sport amaliyotidan ma'lumki, ba'zi «tadbirkor qitmir» murabbiylar g'irromlik yo'li bilan bo'lsa-da, g'alaba qilishga, hattoki, sport jamoasi rahbarlari yoki musobaqa hakam larini «bir yo'lini qilib, ko'nglini ovlash» darajasigacha yetib boradilar. Bunday oson, mehnatsiz yo'l bilan g'alaba qilishga odatlanib qolgan jamoalar sportni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi g'irromlardir. Har bir sport turi yoshlardan halollikni, to'g'rilikni, adolatni talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. G'irromlik, firibgarlik yo'li bilan g'alaba qilgan sport jamoalari, bunday noxush holatlarga yo'l qo'ygan murabbiylar, hakamlar el-yurt ishonchidan mahrum bo'ladilar.



Sport jamoalaridagi o'zaro munosabatlarni o'rganishda «Sotsiometriya» va K.Tomasning «Hamkorlik» uslublaridan foydalanish yaxshi natijalar berishi ilmiy isbotlangan. Sport sohasida ishlayotgan har bir amaliyotchi, psixolog, o'qituvchi va murabbiylar uchun sotsiometriya uslubidan foydalanish ilmiy -tadqiqotlarda, sport mashqlari va musobaqalar jarayonida, jamoani boshqarishda, sportchilarni mustahkam bir jamoaga aylantirishda, guruhlardagi sportchilarning ijtimoiy-psixologik holatini o'rganishda juda qo'l keladi. Sotsiometriya o'ziga xos mezon, o'lchov bo'lib, u, asosan, savollardan iboratdir. Mazkur uslubning asosiy vazifasi jamoa a'zolari o'zaro munosabatlarining xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Bunda ikki xil rasmiy va norasmiy o'lchov tavsiya etiladi. Rasmiy o'lchov yordamida jamoa sportchilari o'zaro munosabatlarining xususiyatlari, sport faoliyatiga aloqasi bolgan sportchilar o'zaro munosabatlarining ta'siri aniqlanadi; guruh va jamoalarning maqsad va vazifalari belgilanadi, ularning qanday bajarilishi to'g'risida ko'rsatmalar olinadi. Masalan, «Siz kimlar bilan bir guruhda o'qishni xohlaysiz?», «Siz bir sport to'garagida kimlar bilan mashq qilishni xohlar edingiz?», «Siz jamoangizdan kimlarni kapitan yoki guruh sardori etib saylagan bo'lar edingiz?» kabi savollar yordamida jamoadagi va jamoadagi o'zaro munosabatlarni o'rganish mumkin. Sotsiometriya uslubining norasmiy mezonidan (o'lchovidan) foydalanib, jamoada shaxslararo munosabatlar ularga hech qanday majburiyat yuklatilmagani holda o'rganiladi. Jamoada sportchilarning o'zaro ma'naviy-ruhiy yaqinligi, bir-biriga aniq hissiy munosabatda bo'lishi va bir-biriga ta'sir ko'rsatishi kabi holatlar tahlil etiladi. Bu jarayonda quyidagi savollardan foydalanish tavsiya etiladi: «Siz bo'sh vaqtingizni kimlar bilan o'tkazishni xohlar edingiz?», «Siz tug'ilgan kuningizni nishonlashda kimlarni mehmondorchilikka taklif qilgan bo'lar edingiz?», «Siz kimlar bilan do'stlashishni istaysiz?», «Agar zarur bo'lsa, siz siringizni guruh a'zolaridan kimlarga aytar edingiz?», «Siz mashqlarda yoki musobaqada kimni sheriklikka tanlar edingiz?». Albatta, sportchi, birinchidan, o'z juftini yoki sherigini sport mahoratini hisobga olib tanlaydi. Ikkinchidan, sinalayotgan sportchi o'ziga nisbatan yoki o'zi ijobiy munosabatda bo'lgan sportchini hissiyotlari ta'siri natijasida tanlashi mumkin. Kichik guruh va jamoadagi ijtimoiy-ruhiy holatni aniqlashda tajribada sinalayotgan shaxslar eng kamida ikkita yoki undan ortiq bo'ladi. Ularning rasmiy va norasmiy savollarga bergan javoblarining sifat ko'rsatkichlari taqqoslanib, tahlil qilinadi. Shundan keyingina aniq xulosalarga kelinadi. Tajriba uchun eng yuqori me'yor bolalar va o'smirlar uchun 2—3 ta, talabalar uchun 2-4 ta, katta yoshdagilar uchun 5—7 ta ko'rsatkichdan oshmasligi lozim. Masalan, tanlovda tanlanadiganlar soni cheklangan bo'ladi. Faqat bir kishini ham ko'rsatish mumkin, biroq tanlanganlar soni ikki-uchtadan oshmasligi kerak. Guruhlarning soni esa cheklanmasligi mumkin.

«Kooperatsiya», ya'ni «Hamkorlik» sport jamoalarida birgalikda hamjihat bo'lib ishni tashkil qilish shaklidir. Sportchining boshqa bir sportchiga qiziqish bilan qarashi, uning faoliyatiga diqqat bilan e'tibor berishi, nizolarga qo'shilishi, o'zining xatti-harakatlari va yurish-turishi bilan boshqalarni o'ziga jalb qilishi, o'z so'zida turib olish



bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlarni, ruhiy holatlarni aniqlab, tahlil qilib, jamoadagi o'zaro munosabatlarni «Hamkorlik» asosida hamjihatlik bilan tashkil etib, sportchidagi salbiy qusurlarni, nuqsonlarni yo'qotish K.Tomas testlarining tub mohiyatini tashkil etadi. K.Tomas «Hamkorlik» jamoadagi nizolarni quyidagi holatlarga ajratib o'rganadi va nizolarni bartaraf etadi deb hisoblaydi:

1. Raqobat — sport mashqlari, asosan, musobaqalarda boshqalarga zarar yetkazmasdan o'z maqsadiga erishish.

2. Moslashish - raqobatchilikdan cheklanish, boshqalar maqsadini o'z maqsadidan ustun qo'yish, jonini qurbon qilib bo'lsa-da, g'alabaga erishish.

3. Murosaga kelish - qiyin sharoitlarda ham bir-biriga yon bosish.

4. O'zini chetga olish — jamoa sportchilari bilan hamjihat bo'lmay, jamoa manfaatlariga qiziqmay, yuqori ko'rsatkichlarga erisha olmay, g'alabaga noumid bo'lib, jamoadan o'zini chetga olib yurish.

5. Hamkorlikda ishlash — har qanday vaziyatlarda ham bir-biriga zid bo'lgan ikkala tomon sportchilari bilan murosaga kelish. K.Tomasning fikricha, to'qnashuvdan o'zini chetga olish har ikkala tomonga ham mag'lubiyat keltiradi. Raqobat, moslashish yoki murosaga kelish holatlarida bir ishtirokchi yutadi, ikkinchisi esa yutqazadi yoxud ikkalasi ham yutqazadi. Faqat hamkorlikkina ikkala tomonga ham g'alaba keltirishi mumkin. Musobaqa jarayonida sport faoliyati samaradorligining sifat ko'rsatkichlari ko'p jihatdan murabbiy bilan sportchilarning o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'ladi.

Sportchilarning o'zaro munosabatida yuz beradigan to'qnashuv holati insonning boshqa faoliyat turlarida kechadigan ziddiyatlardan o'zining ijtimoiy -psixologik xususiyatlari bilan farq qiladi. Sportchilardagi bu xususiyatlar kamdan kam holatlardagina ochiqchasiga yuzaga chiqadi. Agar nizolar to'g'ri aniqlansa va oshkora xolislik bilan bartaraf etilsa, salbiy his-tuyg'ular pasayadi, jamoa a'zolari o'rtasida mustahkam birlik vujudga keladi. Natijada o'yinchilar o'rtasida ko'tarinki kayfiyat, g'alabaga bo'lgan intiluvchanlik va ishonch oshadi. Jamoa a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlarning oldini olish va uni bartaraf qilish sport amaliyotida quyidagi ijtimoiy-psixologik omillarga ham bog'liq: 1) To'qnashuvda ishtirok etayotgan sportchining shaxsiga; 2) qarshilik ko'rsatuvchi tomonning tutgan o'rni (sportchining ziddiyatdagi «Men» yoki «Biz», ya'ni shaxs, guruh, jamoa ekanligiga; 3) ziddiyatlarning paydo bo'lishida atrof-muhitning ta'siriga; 4) ziddiyatlarni hal etishda psixotexnologiyaning o'rniga kabilar. Jamoa sportchilarining o'zaro munosabatlarida paydo bo'ladigan ziddiyatlarning oldini olishda sportchilar bilan tashkil etiladigan trening xizmatini quyidagi besh bosqichga ajratdik: 1-bosqich. Ziddiyatlarning murakkabligi va qiyinligiga e'tiborni qaratish. Bunda ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganish uchun har bir sportchini psixologik bilimlar bilan qurollantirish, shaxs sifatida sportchining kuchli va zaif tomonlarini hisobga olabilish lozim. 2-bosqich. Ziddiyat to'siqlarini bartaraf etish. Bu bosqichda sportchining ziddiyat to'siqlarini yengishi, uning shaxsiy xususiyatlariga, sportdagi tajribasiga, xarakteriga, fe'l-atvoriga, temperamenti (mijozi)ga bog'liqligini nazardan qochirmaslik kerak. 3-bosaich.



Ziddiyatlarda paydo bo'ladigan hayajon -vahima (sportchining ziddiyatlarda qattiq ruhiy zarbani va vahimani yengib o'tishga bo'lgan qobiliyati yoki qobiliyatsizligi)ni hisobga olish. 4-bosqich. Sportda uchraydigan haqiqiy ziddiyatlar (sport faoliyati jarayonlarida sport mutaxassislari va sport musobaqalarining xarakteriga qarab ziddiyatlar)ni yengishga odatlantirish. 5-bosqich. Ziddiyatlarning keskin o'zgarishi, ya'ni sportchi faoliyatida keskin o'zgarishlar yuz bergan vaziyatlarda ham uni ziddiyatlarni yengish holatiga tayyorlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006, 106-bet.
2. Aripov M., Begalov B., Begimqulov I., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. - T.: Noshir, 2009, 368-bet.
3. Belorusova V.V., Resheten I.N. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 1983, 191-193-betlar.
4. Bobur Z.M. Boburnoma. -T .: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960, 432-bet.
5. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. — T.: Yangi asr avlodi, 2009.
6. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. — T.: Fan va texnologiya, 2008, 388-bet.
7. Ibn Sino. Tib qonunlari. I kitob. -T .: Meditsina, 135-bet.



ПОВЫШЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ БОРТОВ ПРИ ВЕДЕНИИ БУРОВЗРЫВНЫХ РАБОТ В МЕСТОРОЖДЕНИЕ «ЁШЛИК-1»

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840081>

Алимов Шахриддин Мухамматович

*Старший преподаватель кафедры «Горное дело» Алмалыкского филиала
ТашГТУ имени Ислама Каримова*

Ахмадов Улугбек Азамат угли

*Ассистент кафедры «Горное дело» Алмалыкского филиала
ТашГТУ имени Ислама Каримова*

Разработка месторождения «Ёшлик I» началась в 2017 году, и при проектировании его дальнейшего развития учитывалось использование существующих объектов транспортного хозяйства и инженерных коммуникаций месторождения «Кальмакыр». В период 2020-2024 гг, участок «Ёшлик-I» вскрывается системой внешних и внутренних выработок для организации движения автомобильного и конвейерного транспорта. В Западной части участок вскрывается капитальной траншеей внешнего заложения для организации перевозки руды конвейерным транспортом на вновь строящуюся МОФ-3. В южной части вскрытие осуществляется двумя траншеями внешнего заложения, предназначенных для вывозки вскрышных пород на внешние отвалы конвейерным транспортом. Также в западной и южной частях карьер вскрывается двумя временными автомобильными траншеями внешнего заложения для вывозки на отвалы окисленных, забалансовых руд и лёссов. В центральной части участка «Ёшлик-I» вскрывается системой постоянных и временных скользящих съездов, расположенных в траншеях и полутраншеях, для организации движения автотранспорта. При эксплуатации карьера схема вскрытия с использованием автомобильного спирального съезда обеспечивает эффективную работу большегрузных автосамосвалов.

Повышение устойчивости уступов может быть достигнуто путем применения: а) диагональных схем короткозамедленного взрывания (КЗВ); б) наклонных зарядов для отбойки пород; в) контурного взрывания.

Применение диагональных схем короткозамедленного взрывания (рис. 1) сокращает ширину зоны остаточных деформаций в верхней части уступа в 1,5-2 раза по сравнению с порядным взрыванием.




Рис. 1. Диагональные схемы короткозамедленного взрывания: 0-8-номер ступеней замедления

При подходе горных работ к предельному контура уступа на расстояние ближе 30-40 м независимо от выбранного способа заоткоски должно применяться не более чем двухрядное расположение зарядов с диагональной схемой КЗВ.

Применение диагональных схем короткозамедленного взрывания и наклонных скважин не требует специальных дополнительных затрат. Эти методы также весьма эффективны в повышении качества отбойки и дробления пород и могут быть рекомендованы как постоянные методы ведения буровзрывных работ.

Контурное взрывание (рис.2) применяется при постановке уступа в конечное положение с минимальным вредным влиянием взрыва на состояние откосов. Этот эффект достигается путем уменьшения величины заряда в последнем ряду скважин. По проектному контуру откоса с интервалом 0,8 - 2 м пробуривается ряд наклонных скважин, желательного уменьшенного диаметра и ориентированных соответственно проектному углу откоса. Скважины заряжаются ослабленными зарядами ВВ. Между стенкой скважины и зарядов должен быть воздушный зазор. Заряды для контурного взрывания изготавливаются в виде гирлянды из патронов ВВ на детонирующем шнуре. Нижняя часть заряда увеличивается на 1 м.

В таблица 1 приведены ориентировочные параметры контурных зарядов в породах различной крепости по шкале профессор М. М. Протождяконова и при различном расстоянии между скважинами контурного ряда.




Рис 2. Схема контурного взрывания.

Таблица 1.

| Коэффициент крепости породы | Удельный расход ВВ* при отбойке, кг/м ³ | Масса заряда 1 п. м скважины (кг) в зависимости от расстояния между контурными скважинами | | |
|-----------------------------|--|---|-------|-----|
| | | 1 м | 1,5 м | 2 м |
| 16-20 | 0,8-1 | 1,5 | 2,2 | 3,0 |
| 10-12 | 0,5-0,6 | 1,0 | 1,5 | 2,0 |
| 6-8 | 0,3-0,4 | 0,8 | 1,2 | 1,5 |

*Удельный расход ВВ при технологическом взрывании является косвенной характеристикой прочности пород

Заоткоска уступов в конечном положении по трещинам и другим структурным ослаблениям, падающим в сторону выработанного пространства карьера, необходима при углах падения 40° и больше. Заоткоска производится взрыванием либо наклонных скважин под углом падения трещин, либо вертикальных скважин разной высоты. Отбойка породы у конечного контура карьера должна осуществляться скважинами, не имеющими перебура

БИБЛИОГРАФИЧЕСКИЙ СПИСОК:

1. исоматов ю.п., хасанов о.а. "о трещиноватости массивов горных пород и ее значении при проведении буровзрывных работ на месторождении «ёшлик-и» алмалыкского рудного района». горный вестник узбекистана-навои., 2019 - №3-с 48-50.
2. открытые горные работы. справочник - москва, «горное бюро», 1994.
3. shamaev m.k., tashkulov a.a., melnikova t.e., kurbanbaev d.m. production of drilling and explosion works at the "yoshlik i" mine quarry with the use of non-electric initiation system and emulsion explosives. international journal of advanced research in science, engineering and technology vol. 7, issue 5, may 2020. стр.13550-13554
4. шамаев м.к., алимов ш.м. central asian journal of theoretical and applied sciences. обеспечение устойчивости бортов при ведении



буровзрывных работ. volume: 02 issue: 04 | april 2021 ISSN: 2660-5317

5. шамаев м.к., алимов ш.м. central asian journal of theoretical and applied sciences. увеличение мощности разработки месторождения «ешлик-1» и доработки действующего месторождения «кальмакыр». volume: 02 issue: 05 | may 2021 issn: 2660-5317.

6. у.а.ахмадов, т.е.мельникова, у.т.тоштемиров. eurasian journal of academic research innovative academy research support center. анализ микроклиматических условий карьера кальмакыр. volume: 1 issn: 2181-2020

7. toshtemirov u.t., axmadov u.a. кон металлургия космплекси объектларида кадастр ишларини олиб боришнинг геодезик ва маркшейдерлик муаммолари республика илмий-техник анжумани тўплами. yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishning ba'zi bir jihatlari. 15 декабр 2018 йил тошкент ш. с33-35

8. и.р.рахматуллаев, с.и.эркабоева, у.а.ахмадов, д.м. курбанбаев. uzbek scholar journal. виды, свойства и отрасли применение известняков. volume-11, dec., 2022

9. м.к.шамаев, у.т.тоштемиров, и.р.рахматуллаев, у.а.ахмадов. arxitektura, mehandislik va zamonaviy texnologiyalar jurnali. известняк в природе, технология производства и некоторые их свойства при использовании. issn:2181-3469 jild:01 nashr:04 2022 yil

10. davron z. et al. shaxta suvlaridan foydalanishda energyga samaradorligini oshirish usuli //prospects of development of science and education. – 2023. – т. 1. – №. 6. – с. 11-14.

11. zuxritdinov d. x. yer ostida ishlaydigan kon ishchilarining harakat xavfsizligini ta'minlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – т. 2. – №. 17. – с. 549-552.



BUYUK AJDODLARIMIZNING MEROSI- MA'NAVIYATIMIZ O'CHOG'IDIR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840102>

TMTI "Avtomatlashtirish va boshqarish"
kafedrasi o'qituvchisi: **Mengatova Xurshida Toshmuxamatovna**
xurshidamengatova@gmail.com +99890519 00 72

*Termiz muhandislik-texnologiya
instituti talabasi:*

rushananamozova524@gmail.com

, +998(33)459-04-29

Namozova Rushana To'lqinjonovna

Annototsiya: *Ushbu maqola orqali ota boblarimizning bizlarga va bizdan keying bo'lgan avlodlarga qoladigan xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyotlari, me'morlari va boshqa shu kabilar haqida yoritilgan.*

Tayanch so'zlar: *Milliy ensiklopediya, yubiley, pozitsion, algoritm, geografiya, astronomiya, arifmetik, matematik, algebraik, algorizm, asturlob, taqvim, sivilizatsiya.*

Adabiy-madaniy meros - o'tmish moddiy-madaniy boyliklari hisoblanadi. Ajdodlarimizdan bizlarga va bizdan keying bo'lgan avlodlarga qoladigan xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyotlari, san'ati, me'morlari va boshqa shu kabilar adabiy-madaniy merosga kiradi. Adabiy-madaniy meros uni yaratgan xalq tarixi bilan izchil va mustahkam bog'liq bo'ladi. Shu xalqning qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma'naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o'z ichiga oladi. O'zbek xalqining boy adabiy-madaniy merosi yozma tarix boshlangandan keyin axomaniylar (mil.avv.558-330), salavkiylar(mil.avv.312-64), O'rxun-Yenisey tosh bitiklari, turkey(uyg'ur) qo'lyozma yodgorliklari, Turk xoqonligi(552-745), Arab xalifaligi(632-1258) va keying davrlarda, xususan Amir Temur va temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, uch xonlik, Rossiya istilosi, sho'rolar tuzumi davrlarida va nihoyat, mustaqillik yillarida bunyod etilgan og'zaki, yozma va moddiy yodnomalar hamda yodgorliklardan tashkil topgan. Adabiy-madaniy merosni saqlash va o'rganish ham tarixiy, ham ma'rifiy qiymatga ega. Bular o'zbek xalqining milliy iftixori hisoblanadi. Sho'rolar tuzumi davrida, xususan qatag'on yillarida adabiy-madaniy merosga nisbatan butunlay noto'g'ri, mafkuraviy munosabatda bo'lindi. O'tmishda yashab ijod etgan bir qancha shoirlar ijodini o'rganish man etilgan. Bundan tashqari arab yozuvida yozilgan qo'lyozmalar ham yo'q qilingan.

Adabiy-madaniy merosning zukko bilindonlarini ham quvg'in ostiga olgan. Shu davrda Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa adiblar, shoirlar, olimlar va ziyolilarni ham qatl etishgan. O'nlab masjid va madlasalarni ham buzib tshlashgan.



Xalq marosimlari va bayramlarini o'tkazish ham taqiqlangan. Bu borada turg'unlik yillari qatag'on davrining o'ziga xos davomi bo'ldi. Shu davr mobaynida 12 jildli O'zbekiston milliy ensiklopediyasini nashr etishga kirishilganligi adabiy-madaniy merosni ilmiy o'rganish yo'lidagi muhim tadbiri bo'ldi. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy singari islom dinini targ'ib qilish yo'lidagi xizmatlari bilan dunyoga tanilgan buyuk vatandoshlarimiz dafn etilgan joylari obodonlashtirilib, ziyoratgohlarga aylantirildi. Ularning hayoti va ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan kitoblar chop etildi. Amir Temur bobomizning hayoti va faoliyati, temuriylar davri madaniyatiga oid kitobar nashr etildi. O'rta asrning noyob madaniy yodgorligi "Usmon Quroni" o'z egalariga- O'zbekiston Diniy boshqarmasiga qaytarildi. "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yil yubileyi o'tkazildi. Xalq me'morligining noyob namunalari bo'lgan bir qator me'moriy yodgorliklar ta'mirlandi. Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Huvaydo, Behbudiy va boshqalar ijodi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda. Qur'on va Hadis ham birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilib ommalashtirildi. Qatag'on qilingan shoir va adiblarning asarlari ko'plab nusxalarda chop etildi. Unutilishga mahkum etilgan qator hunarmandchilik sohalari qayta tiklandi va xalq bayramlari tantanali nishonlanib kelmoqda.

Azaldan vodiy gavhari hisoblanmish Qo'qon ham o'zining boy madaniyati va tarixi bilan bugungi kunda nafaqat yurtdoshlarimiz, balki yurtimizga tashrif buyuruvchi xorijlik mehmonlar ham o'ziga rom etayotgani ma'lum. Qo'qon xalqining ehmondo'stligi, hunarmandlarining qo'l mehnatlari bilan yaratgan ijodiy ishlari, ayniqsa, tarixiy va madaniy yodgorlik sifatida asrlar davomida saqlanib kelinayotgan inshootlar Qo'qonni butun olam uzra tillarda doston bo'lishiga asos bo'lmoqda. Shu o'rinda sohibqiron Amir Temur bobomizning: "Biz kim Mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim millatning eng qadimi va eng ulug'i, Turkning bosh bo'g'inimiz. Agar bizning qudratimizga shubha qilsang, biz qurgan imoratga boq",- deb aytib o'tganlar. Qo'qonda 1890-yillar atrofida bunyod etilgan masjidga "Shayxon" nomi berilgan. Bu masjiqning qurilishi haqida aniq ma'lumotlar qoldirilmagan. Biroq sobiqittifoq davrida namozgohdan turli maqsadlarda foydalanilgan. Oqibatda uning binolari anchayin o'z ko'rinishini yo'qotgan. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari taraqqiyot kafolatlari" asarida: "Din odamlarga ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam berib kelgan", - deb yozib qoldirgan edilar. Dunyoning har yerida vayronkorlik avj olgan bir davrda bizning tlimiz-u qalbimizda shukronalik hissi jo'shib, ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishga intilishimiz zarur,- deya ta'kidlagan Ismoilxon domla. Yana bir eng buyuk merosimizdan biri Al-Xorazmiy. Al-Xorazmiy bobomizning to'liq ismlari Abu Ja'far Muhammad ibn Musa al-Xorazmiydir. Al-Xorazmiy 783-yilda Xiva shahrida tavallud topadi. Al-Xorazmiy- xorazmlik matematik, astronom, geograf, fan tarixidagi



ilk qomusiy olimlardan biri hisoblanadi. Zahiriddin va Firavs qo'lida tehsil olgan va birga ishlagan. Xorazmiy dunyo faniga g'oyat kata hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi hisoblanadi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro'pada tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimining "al-Xorazmiy" nomi esa "algoritim" shaklida fanda abadiy o'rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning "Zij" asari Ovro'pada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos slogan, "o'z davrining eng buyuk matematigi va agr barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri" J.Sarton bo'lgan bunday siymoning hayoti haqidama'lumotlar deyarli uncha saqlanib qolmagan. Xorazmiy dastlabki ma'lumoy va turli sohadagi bilimlarni o'z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko'pgina ustozlaridan olgan. Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana al-Majusiy va al-Qutrubbuliy degan nomlar ham qo'shib aytiladi. Bularning birinchisi olim Xorazmiyning asl mahalliy aholisidan, ya'ni otashparastlat (arabcha- "majus"- otashparast degani) oilasidan, balki otashparastlik dinining kohinlari oilasidan kelib chiqqanligining, shu bilan birga olimning o'zi yoki otasi majusiy bo'lib, ular islomni keyin qabul qilganligi aniqlangan. Xorazmda majusiylar islomdan keyin ham uzoq muddat o'z diniy urf-odatlarini saqlab kelgan. Bu haqida Beruniy o'zining "Osori boqiya" asarida guvohlik bergan. Keltirilgan ismlarining ikkinchisi, Xorazmiy mo'ysafidlik yillarini bag'dod yaqinida Dajla bo'yidagi al-Qutrubbul dahasida o'tkazganligini anglatadi. Odatda arablar biror kishining harakterli xususiyatlari, hunarlari, sevimli odatlari yoki yashash joylariga qarab, unga bir necha xil ism "nisbalar" beraganlar. Xorazmiyning al-Qutrubbuliy ismi ham shu tariqa paydo bo'lgan.

Xorazmiy juda qadimgi madaniyatga ega bo'lib, uning qishloq xo'jaligi sug'orma dehqonchilikka asoslanar, bu o'z navbatida, astronomiya va xronologiyani rivojlangan hisoblash usullarining mavjud bo'lishini taqozo etar edi. Haqiqatdan ham, qadimgi Xorazmda astronomiya juda rivojlangan, xorazmliklar osmon "sirlar"ni arablarga qaraganda ancha yaxshi bilganlar. Arxeologik qazishmalar Xorazmda qadimda islomdan bir necha asr avval ham rasaxonalar bo'lganligi va u yerda muttasil astronomic kuzatishlar oolib borilganligidan guvohlik beradi. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan asarlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u yunon, hind va eron astronomiyasi va matematikasini yaxshi bilgan.

Ma'lumki, al-Ma'mun 809-yildan Marvda dastlabki xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so'ng 813-yildan boshlab xalifa bo'ladi va 819-yili Bag'dodga ko'chadi. Al-Ma'mun Marvda bo'lganida Xorazmiyning, movarounnahrlik va xurosonlik boshqa olimlarni o'z saroyiga jalb qilgan.



Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar jod etgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg'oni, Habash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvar rudy, Forobdan Abul Abbas al-Javhriy va boshqa olimlar bore di.

Bag'dodda al-Ma'mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz "Bayt ul-hikma" faoliyatini har tomonlama takomillashtirilib, unga yirik davlat muassasasi tusini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirdi. Vizantiya, Hindistondan ko'plab kitoblar keltirilib, "Bayt ul-hikma" ning faoliyat doirasi bir muncha kengaytirildi. Uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birincisi 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida 831-yilda barpo etilgan. Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarining faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular "Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob" algebraic asar, "Hind hisobi haqida kitob" yoki "Qo'shish va ayirish haqidagi kitob" arifmetik asar., "Kitob sur'at ul-arz" geografiyaga oid asar. "Zij", "Asturlob bilan ishlash haqida kitob", "Asturlob yasash haqidagi kitob", "Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida", "Kitob ar-ruhoma", "Kitob ar-ta'rix", "Yahudiylarning taqvimi va bayramlarni aniqlash haqidagi risola". Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida, ikkita silotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilmagan.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani hal hanuz noma'lum. Biroq unda olim algebraic risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraic risoladan keyin yozganini bilishimiz mumkin. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tilga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembriyuniversiteti kutubxonasiga saqlanadi. Risola "Diksit Algorizmi", ya'ni "Al-Xorazmiy aytdi" iorasi bilan boshlanadi. Bundan keyin Xorazmiy To'qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanaqa sonni ham qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo'llanmasida hind raqamlari ko'pincha yozilmay, ularning o'rne bo'sh qoldirilgan. Yoki ahyon-ahyonda 1,2,3,5, sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko'pincha esa hind raqamlari o'sha davrda Ovro'pada keng tarqalgan rim raqamlari bilan almashtirilgan. Yevropa ilm-fanida "Algoritm" deya nom olgan aniq va tushunarli qoidalar orqali ilmiy va ta'limiy asarlarning yangi usulini ishlab chiqqan va ularni yo'lga qo'ygan. Lotin tilida "Algoritm" talaffuzi uning ismi - al-Xorazmiyga tenglashadi. Mazkur- algoritm tushunchasi butun zamonaviy raqamli axborot va kompyuter texnologiyalari tushunchasi asosini tashkil qiladi. Aynan ushbu usul orqali Muhammad al-Xorazmiy asarlarining bayoni keng ommaga tarqalgan. Muhammad al-Xorazmiyning matematika va umuman, silivizatsiya rivojidadagi hissasi e'tirof etilgan. "Algoritm" ga muhrlangan uning ismi va asarlaridan biridagi "Algoritm" atamasi Sharq olimlari orasida u yagonaligini isbotidir. Olimning daholigiga va noyob qobiliyatiga amerikalik tarixchi J.Sarton tomonidan shunday baho berilgan: "Musu al-Xorazmiy -



zamonasining eng buyuk matematigi, barcha sharoitlarni hisobga olgan holda, har qaysi zamonning eng buyuk olimlaridan biri!" deb aytib o'tganlar.

Xorazmiyning "Zij" 37 bob, 116 jadvaldan iborat bo'lgan. Xorazmiy "Zij" I xalifalikdagi dastlabki astronomic asarlardan edi. Xorazmiy 850-yilda vafot etadi. 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983-yili "Zij" asarining qayta nashri va o'zbekcha tarjimai chop etiladi. Xulosa qilib aytganda buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi, bizga va bizdan keyingi avlodlarga qoldirgan meroslari biz uchun buyuk ibrat maktabi va eng buyuk yodgorliklar bo'lib qoladi. Biz kelajak yoshlar ajdodlarimizga munosib insonlar bo'lib voyaga yetishishimiz kerak. Ajdodlarimizning tarixiy va madaniy yodgorliklarini asrab-avaylashimiz kerak. Ajdodlarimiz hayotidan ibrat olgan holda biz ham shular kabi buyuk mutafakkir va olimlar bo'lib yetishishimiz kerak. Shu bilan birga biz kelajak yoshlar ajdodlarimiz kabi o'zimizdan sezilarli darajada o'chmas iz qoldirishimiz kerak. Bu maqolamning qisqacha mazmuni ajdodlarimizni buyuk meroslari bilan yaqindan tanishib chiqish va o'rganishdir. Bu maqolaning umumiy mazmun mohiyati ham shulardan iboratdir. Men buyuk ajdodlarimizning meroslari, tarixiy yodgorliklari, ular qurdirgan madrasa va masjidlari, ilmiy ijodlari va shu kabi meroslaridan farlanamn. Biz yoshlar shunday buyuk ajdodlarimiz borligidan faxrlanishimiz kerak!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov A. "Al-Xorazmiy- buyuk matematik" (1983);
2. Salye M.A. "Ulug' o'zbek olimi Muhammad al-Xorazmiy" (1955);
3. Abdurahmon Umarov "Tarixiy va madaniy yodgorliklar muhofazasi";
D.Bobojonov, M.abdurasulov "Abadiyat farzandlari" (2009).
4. http://old.muslim.uz>kitob/pdf/001/ajdodlar_merosi..pdf
5. fayllar.org>ajdodlar-merosi-bebaho-xazina.html
- 6.



ПОРЯДОК ПРИМЕНЕНИЯ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ВОЕННОЙ СФЕРЕ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7840140>

Убайдуллаев Саидакбар Сайдалиевич

*Студент Ферганского государственного университета, факультет
военного образования*

Аннотация: *В данной статье проанализированы задачи и структура психодиагностической науки, имеющей особое значение в историческом становлении и развитии военной психологии как отрасли современной науки, а также основные направления и перспективы психодиагностики как самостоятельной науки в военной сфере на основе ряда психологических источников, не вошедших в научный обиход.*

Ключевые слова: *боевой коллектив, психика, морально-психологическая подготовка, укрепление психики человека, научные психологические знания, военная психология, Психология личности военнослужащего, психология групповых и межличностных отношений в армии, психология военной деятельности в мирное время, психология воинской дисциплины, психология боя и войны.*

В мире государствами проводятся систематические реформы по совершенствованию интеллектуальной, моральной, профессиональной и физической подготовки военнослужащих. Высшая цель государств – обеспечить мирное и процветающее существование своего народа. Считается важным, чтобы у каждой страны была сильная армия на международной арене. Психодиагностика является одним из направлений психологической науки и включает в себя следующие этапы:

1. Изучение направления реципиента к психологу. Поскольку обращение к диагнозу происходит на простом, жизнеспособном разговорном языке, важно преобразовать его в научное психологическое видение, то есть обозначить психологическую проблему на основе сделанного практического требования. Глубокое понимание проблемы как стороннего наблюдателя.

2. Сбор первичной информации по поступившему запросу на решение задачи: о членах семьи, об успешном выполнении деятельности (учебной или трудовой); об отношениях с близкими людьми; медицинское заключение; сбор анамнеза.

3. Выдвижение гипотезы на основе собранной информации и выбор диагностических методов ее проверки.

4. Проведение диагностического обследования, обработка и анализ его результатов.



5. На основании полученных диагностических данных сделать основные выводы.

6. Определить виды психологической помощи, воздействия, то есть выработать практические рекомендации, определить основную направленность консультативной работы.

Подготовка условий проведения испытаний место проведения исследования должно быть свободным от различных внешних шумов, при этом отвечать санитарно-гигиеническим нормам. Должна быть обеспечена рабочая ситуация без принуждения. Техническое обеспечение исследования должно соответствовать решаемым вопросам. Необходимо, чтобы проверяемые были отобраны одинаково по качеству. - исследователь влияет на ход исследования, на проведение всех его этапов; - Перед началом инструктажа или исследования составляется подготовительный этап. он должен быть конкретным, кратким и однозначным; - результаты исследования должны быть зафиксированы в протоколах, которые должны быть одновременно и полными, и целенаправленными; - информация, полученная в результате исследования, должна быть качественно и количественно проанализирована-синтезирована, то есть обработана. Важнейшей задачей для психодиагностика является постановка правильного психологического диагноза, а также определение психокоррекционной работы. Виды психологической помощи очень разнообразны: психотерапия (ее цель-психологическое здоровье человека), индивидуальное консультирование, а также коррекция - групповая работа по развитию, применяемая для помощи индивидам в различных психологических трудностях. L.S.В практике психологических исследований по Выготскому выделяют 3 этапа постановки психологического диагноза: симптоматический диагноз еще называют эмпирическим диагнозом. При этом постановка диагноза ограничивается выделением определенных признаков или признаков и на его основе делаются практические выводы. L.S.Выготский утверждает, что такой диагноз не считается научным, поскольку обнаружение признаков не приводит автоматически к постановке прямого диагноза. Второй этап развития психологического диагноза-это этиологическая диагностика, при которой учитываются не только определенные особенности личности и наличие признаков, но и причинно-следственные связи. Высшая стадия - типологическая. При этом определяется Оми и значимость полученной информации в структуре личности. Например, 1 .Симптоматический диагноз: "синдром дефицита внимания и гиперактивности". 2. Этиологический диагноз: "генетические и социально-психологические факторы (в пренатальном, послеродовом развитии - преждевременные роды ребенка; влияние токсикозов и инфекций; воздействие токсических, ядовитых веществ; нарушения МНТ; гипоксия и аноксия, т. е. избыточный вес или кашель; эмоциональные осложнения между родителями; материальные обстоятельства; тяжесть



психических расстройств; психические расстройства". синдром дефицита внимания и гиперактивности, вызванный воздействием". Опираясь на вышеизложенные соображения, можно сказать, что при организации психодиагностической работы психолог должен руководствоваться рядом требований:

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish konikmasi professional talimning ajralmas qismlaridan biri bolib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz." deb takidlab o'tdi. Yaqinda u mahalliy ta'lim tizimi va printsiplari haqida gapirdi va nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yaxshi bilimlardan biri deb qaralishi to'g'risida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta'limga etibor berish, davlantning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir [Filandiya talim tizimidagi qiziqarli malumotlar]. Shuni ham takidlab o'tishim kerakki, muvaffaqiyatga erishishda yordam berish uchun maktabgacha tarbiya mutaxassislaridan erta bolalik ta'limi jarayonida eng sevimli o'qitish strategiyalari bilan o'rtoqlashishini sorab qolamiz. Maktabgacha yoshdagi sinf uchun o'qitish strategiyalarining ushbu ro'yxati o'qituvchi sifatida taraqqiy etish va o'rganish uchun juda yaxshi o'tish imkoniyatlarini beradi.



Bog'chada yodlagan o'qituvchilar qo'llanmasiga yoki odatiy darslarga qaytish oson bo'lishi mumkin. Biroq, ba'zi bolalar uchun bu muammolar tug'diradi. Gretzingerning aytishicha, bolalar an'anaviy bo'lmagan uy sharoitidagi bolalarga nisbatan sezgir bo'lishlari kerak. O'quvchilarga o'z oilalari rasmlarini chizishlarini so'rashdan oldin ikki marta o'ylab ko'rish - asrab olingan bola yoki ota-onadan ajralgan farzand qanday his qilishi mumkinligi va boshqa bolalar qanday munosabatda bo'lishlari haqida o'ylab ko'rish kerak. Inklyuziv faoliyat bilan shug'ullanish biroz ko'proq vaqt talab qilishi mumkin, ayniqsa yil boshida siz barcha o'quvchilaringizni tanimasligingiz mumkin, ammo bolada xijolat hissini aks etishi tartibsizlikni saqlaganingizda bilinadi. Bunda tarbiyachi o'z yaratuvchanligini davom ettirishi kerak.

Maktabgacha ta'lim - yoshlarimiz ta'limi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. To'g'ri maktabgacha tarbiya dasturi bizning bolalarimizga noyob aqlga mos keladigan tarzda o'sishi va o'rganishiga yordam berishi kerak. Ammo bolalar kattalarnikidan farqli ravishda kelajakni, ertani oylab organishmaydi. Ingliz tilidagi dars «shu yerda va aynan hozir» manosida otkazilishi, bolishi kerak. Bolalar chet tilni hikoyalarni tushunish yoki oyinlarda galaba qozonish orqali osonroq organadilar. Agarda xohlasalar, ozlari ishtirokidagi oyinlar orqali organgan malumotlarini mustahkamlab oladilar. Bir tomondan, til bilan ifodalangan kontent bolalar hayoti, kundaligi bilan bogliq bolishi kerak, boshqa tomondan, bolalarni muloqotga chorlaydigan faoliyat yoki vazifalar qiziqarli va muhim bolishi kerak. O'quvchilar dars davomida ozlarini darsning bir qismi sifatida tushunishadi va dars jarayonida xuddi asar qahramonidek ozlarini tutishadi, harakat qilishadi. Boshlangich sinflarda, odatda, chet tillarni organish hayotiy situatsiya va oyinlarga asoslangan harakat usullaridan foydalangan tarzda organilganda juda samarali hamda muvaffaqiyatli boladi. Agar oyinli-syujetli situatsiyalar orqali chet tili orgatilsa, barcha bolalar bajonu-dil ishtirok etishadi, sababi ular shu tarzda osha situatsiyaning bir bolagi ekanligini his etishadi. O'quvchilar chet tili bilan, birinchi navbatda, oz sinf xonalarida birga "yashaydilar". Shuning uchun sinfda muloqot imkoni bolsa, osha chet tilida bolishi kerak. Bolalar nafaqat yoriqnomalarni tushunish bilan cheklanib qolmasdan, balki chet tili orqali oz ehtiyojlarini ifodalashlari ham mumkin. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilida gaplashadigan shaxs(ona ili ingliz tili bolgan)lar bilan muloqot qilishi, sinfga taklif etish ham foydali hisoblanadi. Konstruktiv yondashuvga kora, bolalar imkon qadar koproq tilda ozlari sozlar mazmunini, qoidalarni bilib olishlari kerak. Bu shuningdek, ularning asosiy fikrlash qobiliyatini rivojlanishiga yordam beradi. Barcha o'quvchilar singari, bolalar ham turli xil talim uslublariga ega. Bolalar uchun moljallangan talim barcha talim uslublarini hisobga oladi. Taktik va kinestetik organish turlari o'quvchidan alohida etibor talab qiladi. Boshlangich maktablarda o'quvchilarning iqtidorlari, malakalari, bilimlari va qiziqishlari kengroq boladi. Chet tilini organish, shuningdek, organuvchining yaxshi tushuna olish qobiliyatiga bogliqdir. Chet tilini orgatish mobaynida har bir bolani harakati uchun ragbatlantirib borish talab etiladi. Ularda akustik, kinestetik, ritmik va vizual farqlashni rivojlantirish kerak. Bolalar tez



organishadi, lekin tezda unutishadi. Shuning uchun, nutqni bir necha bor takrorlab, shu mavzuga doir oyin yoki tarqatmalar orqali bolalarning esida qolishiga yordamlashish mumkin. Kurslar spiral bolib, muntazam takrorlashlar ajralmas qismdir. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli orgatish keng qamrovli usullarni talab qiladi. Muloqotga kirishishning miqdori va sifati tilni tezroq organishning asosiy sabablari hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilarning etibori asosan tilning mazmuniga, ahamiyatiga qaratilishi kerak. O'quvchilar etiborini birinchi navbatda tilning kontent mazmuniga qaratishi kerak. Xorijiy tillarni muvaffaqiyatli orgatish yana orgatuvchidan ozida mavjud imkoniyatlardan qay darajada mohirona foydalanishiga ham bogliqdir. O'quvchilarga shunday vazifalar berish kerakki, toki ular organgan bilimlarini dars jarayonida amaga oshirish, qollashga majbur bolishsin. Ozaro muloqot qilish imkoniyatlari til konikmalarining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy munosabat, ayniqsa o'quvchilar tilning manosini amalda qollay olishsa, bu ularga tildan samarali foydalanishga imkon yaratadi. O'qituvchi tomonidan ushbu jarayon uchun mano va muzokaralar otkazish imkoniyati muvaffaqiyatli o'qitishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Chet tili talimi, birinchi navbatda, chet tilidagi kundalik uchraydigan, real bilim va konikmalrni organishga chorlashi kerak, lekin aniq bilimlarni ham rivojlanishiga beparvo qaramaslik kerak. Agar biz chet tili talimida qollaniladigan metodik-didaktik qarashlarga toxtaladigan bolsak, quyidagilarni takidlab otishimiz talab etiladi: Dars jarayoni bu nafaqat kommunikativ, balki kelajakda organgan bilimlarni qollay olish imkoniyatini beradigan kompetensiyalarni qamrab olishi zarur. Bolalarning kopchiligi chet tillarni organishga qishiqishadi. Ularning qishiqishlari, albatta, dars jarayonini tashkil etilishi va bolalarning bu dars jarayonida malum muvaffaqiyatga erisha olishi bilan bogliqdir. Bu qiziqish yillar davomida birdek saqlanib qolishiga ishonish - bu notogri, shu sababdan, pedagoglar bu haqida qaygurishlari, yani organuvchilar darsda quvonchga tolib, muvaffaqiyatlarga erishib qatnashishlarini taminlashi zarur. Organilayotgan mavzular ham, shu bilan birga savol-topshiriqlar ham organuvchilar uchun ahamiyatli, qiziqarli va aktual bolsagina, dasrning mazmuni hamda maqsadi organuvchilarga tushunarli va esda qolarli boladi. Chet tili organuvchilari chet tili talimida ozga bir til, madaniyat bilan toqnash keladilar. Shu sababdan, mashgulotlarda aynan osha chet tilga xos bolgan ishonchli materiallardan, osha madaniyatni yetkazib bera oladigan matn va dabiyoatlardan foydalanish tavsiya etiladi.

XULOSA

Shuni xulosa qilib aytib o'tish kerakki, farzandlarimiz yetuk kadr bolib yetishlarida avvalambor, maktabgacha talimning orni ahamiyatlidir. Biz ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy talim tizimi bilan taminlashimiz talab etiladi. Maktabgacha talim jamiyatdagi har bir inson ildizlarining rivojlanishi, yani ularning kelajakda ona yurtiga munosib farzand, kuchli shaxs bolib voyaga yetishlarida ham katta ahamiyatga ega. Biz farzandlarimiz talimiga koproq etibor berishimiz, zamonaviy shart-sharoitlar yaratishimiz, yangi-yangi usullar orqali ularning organishlariga



komaklashishimiz zarur. Chet tillarini organish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ular malakali kadr bolib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bolib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalarimizga yoshligidan talim berib borishimiz, oqishga qiziqtirishimiz, jamiyatimizdagi har bir bolani nazardan chetda qoldirmasligimiz, organishga qiynalgan bolalar bilan ham alohida shugullanishimiz, turli xil qiziqarli oyinlar bilan etiborlarini tortishimiz, chet tillarini orgatish davomida muntazam ragbatlantirib borishimiz ularni kelgusidagi talimlari uchun dastlabki qadam boladi, desak adashmagan bolamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жуманова, Ф. У., Артикова, Н. Ш. (2022). PISA ва TIMSS қиёсий халқаро тадқиқотлар. Yangi o'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari, 1(1), 452-454.
2. Usmanova, K. A., Artikova, N. S., Xasanov, R. N., & Qarshiboeva, O. (2022). Oziq-ovqat sanoatida anjirni o'rni. Science and Education, 3(5), 188-190.
3. Artikova, N. Sh., Jumanova, F. U. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish (PIRLS) misolida. Образование и наука XXI веке, 1(19), 455-460.
4. Jumanova, F. U., Artikova, N. Sh. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish (PIRLS) misolida. Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий амалий тадқиқотлари, 10(29), 106-109.
5. Артикова, Н. Ш. (2021). Ўқувчиларда ўқиш ва матнни тушуниш саводхонлигини ривожлантириш. Актуальные вызовы современной науки, 1(55), 63-67.
6. Jumanova, F. U., Artikova, N. Sh. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirishning ilmiy asoslari. Образование и наука в XXI веке, 3(20), 389-396.
7. Sultanova, D. A., & Artikova, N. S. (2021). Ta'lim tarbiya jarayoniga psixologik muhit ta'siri. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 418-423.
8. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). PIRLS tadqiqotlariga tayyorlashda "organayzer" metodidan foydalanish imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1471-1475.
9. Jumanova, F. U., & Artikova, N. S. (2021). Shaxs kamoloti va faoliyat (muloqot), ularni boshqarish ma'rifiy pedagogic muammo sifatida. Academic research in educational sciences, 2(4), 81-88.
10. Артикова, Н. Ш., Болтаева, Т. Р. (2020). Бошланғич ва юқори синфлар адабий таълими узвийлиги билан боғлиқ муаммолар ҳамда уларнинг ечими.



Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur. Malaka oshirish tizimida integratsiya va innovatsion tafakkur, 1(1), 368-370.

11. Артикова, Н. Ш. (2019). Бошланғич синф ўқувчиларини халқаро тадқиқотларда ўқиш саводхонлигини баҳолаш бўйча PIRLS дастурига. Таълимдаги инновациялар ва ислохотлар контекстида замонавий кластер тизими, 2(1), 53-55.

12. Abdiyeva, G .B., Qarshiboyeva, X. K. (2022). Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ixtirochilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish. Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture, 2(1), 91-94.

13. Karimovna, Q. X. (2022). Ixtirochilik masalalarini yechishga o'rgatish bosqichlari. Academic research in educational sciences, 3(12), 183-188.

14. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. Konferensiya, 1(1), 286-289.

15. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. Konferensiya, 1(1), 379-382.

16. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. Telematique, 7686-7694.

17. Musurmonova, M., Quzmanova, G., & Allayarova, S. (2022). Matnli masalalarni arifmetik usulda yechishning ba'zi tatbiqlari. Academic research in educational sciences, 3(4), 223-229.

18. Eshqulova, G., Musurmonova, M., & Axmedova, D. B. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darslarida nutqiy ko 'nikmalarni rivojlantiruvchi o 'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(1A), 72-75.

19. Soatova, N. R., Nurmatov, S. U., Musurmonova, M. U., & Muhammadiyeva, S. B. (2022). Dazmol so'zining etimologiyasi va kelib chiqish tarixi. Экономика и социум, (11-2 (102)), 212-214.

20. Musurmonov, R., Burkhonov, A., & Musurmonova, M. (2021). Innovative activity-a factor of educational efficiency. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 8(3), 1238-1241.

21. Musurmonova, M., & Zamidova, K. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida massa, sig'im va vaqt o'lchov birliklari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. Academic research in educational sciences, 2(10), 281-289.

22. Musurmonova, M. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga uzunlik va yuza o'lchov birliklarini o'rgatish usullari. Экономика и социум, (8 (87)), 302-311.

23. Musurmonova, M. (2021). To'plam tushunchasi. to'plamlar ustida amallar bajarish. Экономика и социум, (8 (87)), 292-301.

24. Musurmonova, M. (2021). Methods of teaching length and surface units for primary school students. Экономика и социум, (8), 302-311.



25. Musurmonov, R., Musurmonova, M., & Zamidova, K. (2021). Geometriya fani va uning rivojlanish davrlari tarixi haqida. Экономика и социум, (4-2 (83)), 911-915.

26. Musurmonov, R., & Musurmonova, M. (2021). Globallashuv sharoitida maktab darslarining intizomiy omillari. Academic research in educational sciences, 2(5), 1268-1274.



TERMODINAMIKADA ENTROPIYA TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843529>

Asrarov Sh.A

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarkand filiali dotsenti

Annatsiya: *Ushbu maqolada fizika kursi termodinamika bulimining nazariy asoslarini texnikada kullanilishi va termodinamik jarayonlarni tahlil qilishda entropiya tushunchasining ahamiyatiga oid masalalar ko'rib chikilgan.*

Kalit so'zlar: *termodinamik jarayonlar, termodinamika qonunlari, entropiya, issiqlik, energiya, tartibsizlik, Karno sikli.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены вопросы о значении понятия энтропии для определения законов термодинамики и их применения в техники.*

Ключевые слова: *термодинамические процессы, законы термодинамики, энтропия, теплота, энергия, беспорядок, цикл Карно.*

Annatation: *This article discusses questions about the meaning of the concept of entropy for determining the laws of thermodynamics and their application in technology.*

Key Words: *thermodynamic processes, laws of thermodynamics, entropy, heat, energy, disorder, Carnot cycle.*

Texnikaning fizik asoslarini o'rganish talabalarda jamiyat ilmiy-texnikaviy taraqqiyotida fizika fanining roli haqidagi tushunchalarning shakllanishida katta ahamiyatga ega [1]. Olamda kyechedigan qaytar va qaytmas jarayonlar, moddalarning bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tishi va bunda ro'y beradigan o'zgarishlarning fizikaviy mazmuni ochib berilishi texnika va texnologiyalarning rivojiga katta hissa qo'shdi. Jumladan, biz kundalik hayotimizda ko'p ishlatadigan issiqlik mashinalari va sovutish qurilmalarining ishlash printsipi termodinamika qonunlariga asoslangan. Termodinamik jarayonlarni tahlil qilish va matematik ifodalashda entropiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Entropiya – ilm- fandagi eng qiyin va chalkash tushunchalardan biri bo'lib qolmoqda [2]. Buni tushuntirishda olimlar 3 xil guruhga bo'linadilar:

1. Entropiya – bu xaos, ya'ni tartibsizlik o'lchovi bo'lib, olamdagi barcha narsalar shunga intiladi.

2. Entropiya – bu energiya isrofining o'lchami yoki noaniqlik o'lchami bo'lib hisoblanadi.

3. Entropiya ? Bu guruhdagilarda entropiya haqida aniq tushuncha mavjud emas.

Lekin biz kundalik hayotimizda har kuni entropiya bilan to'qnashamiz, masalan, bir chashka issik choy qorning ustiga qo'yilganda choyning sovushi va qorning erishi, suvning bug'lanishi yoki kondensatsiyasini kuzatishimiz mumkin yoki telefonda axborot almashishimiz mumkin. Entropiya tushunchasi fizika, ximiya va matematika



fanlaridagi ko'plab xodisalarning mohiyatini tushuntirib qolmasdan, biz yashayotgan jamiyatdagi bunyodkorlik va tartibsizlik jarayonlarining mohiyatini ochib berishda ham ahamiyatlidir.

Entropiya tushunchasi birinchi marta Klauzius [2] tomonidan termodinamikada issiqlik, ish va energiyaning o'zaro bog'liqligini o'rganish jarayonida qo'llanilgan. Temperatura, bosim yoki hajm kabi fizik kattaliklarni ko'rish, sezish va o'lchash mumkin, lekin entropiya hakida bunday deya olmaymiz. Entropiya bu fizik kattaliklar orasidagi boglanishlarni matematik formulalar yordamida ifodalovchi kattalikdir. Masalan, ma'lum bir ichki energiya, temperatura va hajmga ega bo'lgan muz bo'lagini stakandagi suvga solsak, muz eriy boshlaydi va natijada suvning temperaturasi pasaya boshlaydi. Endi shu muz bo'lagini idishga solib, plitkada qizdira boshlasak, plitka ish bajaradi, idishga issiqlik miqdori uzatiladi va idishdagi muzning temperaturasi ortib, eriydi va suvga aylana boshlaydi. Qizdirish-ni davom ettirsak, suv bug'lana boshlaydi va bug' ish bajarishi mumkin. Olimlar ushbu jarayonlardagi issiqlik va ish orasidagi bog'lanishga e'tibor qaratishdi va kam energiya sarflab ko'proq ish bajaradigan issiqlik mashinalarini yaratish ustida ish olib bordilar. Natijada bug' mashinalari yaratildi va fizika fanining katta bo'limi hisoblangan termodinamika rivojlana boshladi. Termodinamika ikkita printsipga asoslanadi:

1. Issiqlik va ishning ekvivalentligi

2. Tizim bir holatining ikkinchi bir holatiga o'tishining ekvivalentligi

Rudolf Klauzius tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, fizik printsiplarning tajribada tasdiqlanishi va olingan natijalarni matematik tilda ifodalab berishi termodinamika va entropiyaning rivojlanishida asos bo'lib xizmat qildi.

1950 yilda Klauzius va boshqa olimlar «Issiqlik ishga va ish issiqlikka aylanishi mumkin» degan xulosaga keldilar. Natijada termodinamikaning birinchi qonuni yaratildi:

«Yopiq tizimning energiyasi o'zgarmaydi yoki ichki energiyaning o'zgarishi olingan issiqlik miqdoridan bajarilgan ishning ayirmasiga teng»

$$\Delta U = Q - W \quad (1).$$

Bunga termodinamikada energiyaning saqlanish qonuni ham deyiladi.

Lekin, bu hali issiqlik tizimlarining ishlash printsiplarini tushunish uchun yetarli emas edi. Biz molekulyar fizikadan bilamizki ideal gaz ma'lum hajmga, bosimga va temperaturaga ega bo'lishi mumkin va bu termodinamik parametrlarning o'zgarishi gaz holatining o'zgarishiga olib keladi. Shu o'rinda Karno siklini qarab chiqaylik. Dastlab, isitgichdan Q_1 issiqlik miqdori berish orqali, ya'ni o'zgarmas T_1 temperatura sharoitida gazning hajmi ortadi, ya'ni gaz izotermik kengayadi. Isitgichni o'chirish natijasida gaz kengayadi va soviydi, ya'ni gaz tashqaridan issiqlik olmagan holda ichki energiyasining kamayishi hisobidan adiabatik ravishda kengayadi va temperaturasi pasayadi. Navbatdagi jarayonda, ya'ni tizim sovutgichga ulanganda gaz o'zgarmas T_2 temperaturada izotermik siqiladi, natijada gazning hajmi kamayadi va tashqi muhitga Q_2 issiqlik miqdori chiqariladi. Tsikl oxirida sovutgich o'chiriladi, adiabatik siqilish



natijasida gazning temperaturasi boshlang'ich qiymatigacha ortadi. Oqibatda gaz o'zining dastlabki holatini tiklaydi. Bunday jarayonga qaytar jarayon deyiladi. Karno ushbu yopiq tizimga keltirilgan issiqlik miqdori bilan tizimdan chiqarilgan issiqlik miqdorlarining yig'indisi nolga teng deb hisoblaydi:

$$Q_1 + Q_2 = 0 \quad (2).$$

Klauziusga bu formulirovka yokmaydi va u keyinchalik termodinamikaning ikkinchi qonuni deb ataladigan quyidagi ta'rifni ilgari suradi:

Temperaturasi past bo'lgan jismdan temperaturasi yuqori bo'lgan jismga issiqlik beruvchi yagona jarayondan iborat aylanma jarayon bo'lishi mumkin emas [3].

Bu ta'rifdan "Issiqlik sovuqroq jismdan issiqroq jismga o'z-o'zidan o'tishi mumkin, lekin issiqlik sovuqroq jismdan issiqroq jismga o'tishi kompensatsiyasiz holda yuz berishi mumkin emas" – degan xulosaga kelish mumkin.

Klauzius Karnoning qaytar tsiklini tahlil qilib, bu tsiklda ikkita aylanish yuz beradi, deb hisobladi:

-issiqlikning ishga aylanishi

- yuqoriroq temperaturaga mos keluvchi issiqlikning pastroq temperaturaga mos keluvchi issiqlikka aylanishi.

Bundan tashqari Klauzius past temperaturadagi issiqlik miqdorining yutilishi yuqoriroq temperaturadagi issiqlik miqdoriga ekvivalent bo'lishi haqidagi printsipni ilgari surdi va uni quyidagicha ifodaladi:

(3). Bu ekvivalentlik xususiyatidan foydalanib, barcha holatlarga mos keluvchi ushbu qiymatlarning yig'indisi nolga teng, degan xulosaga kelish mumkin:

(4). Qaytar jarayonlarga mos keluvchi holatlarni ko'plab mayda holatchalarning yig'indisi sifatida va har bir holachaning aniq bir temperaturasiga mos keluvchi issiqlikni «keltirilgan issiqlik» deb qaralsa, matematik tilda

(5) yoki

(6) Klauzius holatlar issiqlik miqdorlarining summasi ($\sum Q_i = 0$, Karno ta'rif) ni o'rniga (5) ifodani, ya'ni issiqlik miqdorining temperaturaga nisbatlari summasini

qo'lladi. (6) ifodada keltirilgan yopiq integral ostidagi nisbatni entropiyaning o'zgarishi deb atadi va quyidagicha ifodaladi:

(7) Klauzius bu kontsepsiyani barchaga tushunarli bo'lishi uchun grekcha «entropiya» - «aylanish» so'zidan foydalandi. Entropiyaning fizik ma'nosi shuki biror tizim ustida ish bajarish jarayonida tizim holatining o'zgarishi bilan bir qatorda ma'lum bir issiqlikning aylanishi ham yuz beradi va bu esa ish bajarish jarayonida energiyaning isrofiga olib keladi. Bundan yopiq tizimlar uchun «Entropiya – energiya isrofining ulchamidir» degan xulosaga kelish mumkin. Demak, yopiq tizimda boradigan jarayonlarning yo'nalishini entropiyaning o'zgarishi belgilaydi. Entropiya holat funksiyasi bo'lib, uning o'zgarishi faqat tizimning boshlang'ich va oxirgi holatiga bogliq, jarayonning tabiatiga bogliq emas. Uning o'zgarishi qaytar va qaytmas jarayonlarda bir xil bo'ladi. Qaytmas jarayonlarni hisoblashda qaytar jarayon tenglamasidan foydalanish kerak.



Ilmiy izlanishlarining natijalariga ko'ra Klauzius termodinamikaning ikkinchi qonunini yana bir ta'rifini berdi:

Yopiq tizimning entropiyasi faqat oshib borishi yoki o'zgarmay qolishi mumkin.

Entropiyaning differentsiali:

Qaytar tizimlar uchun : $dS = 0$

Qaytmas tizimlar uchun:

Klauzius butun olamni yopiq tizim sifatida qarab, unda kechadigan qaytar va qaytmas jarayonlarni quyidagi ikkita qonuniyatni ilgari surdi:

1.Olam energiyasi qzgarmsdan qoladi

2.Olam entropiyasi o'uzining maksimum qiymatiga intiladi.

Xulosa qilib, termodinamikada entropiyaning o'rni haqida quyidagilarni aytish mumkin:

- entropiyani 1850 yillarda Klauzius asoslab berdi;
- entropiya - ish bajarish jarayonida energiya isrofining o'lchamidir;
- yopiq tizimning entropiyasi kamayishi mumkin emas;
- olamning entropiyasi maksimumga intiladi.

Hozirgi kungacha olam entropiyasining oshib borishi «issiqlik ulimi»ga olib kelmaydimi degan savol o'z yechimini topgani yo'q.

Entropiyaning ortib borish tendentsiyasini termodinamika qonunlari ham maksimal entropiya holatini mavjudligi bilan tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR:

1.И.В.Илин. Изучение прикладной физики в средней школе с применением средств ИКТ. «Методика и опыт применения цифровых ресурсов. 2010. с.146.

2. <http://www.youtube.com/@VitalMath>. Энтропия – почему разрушать легче, чем создавать?

3. Q.P.Abduraxmanov, V.S.Xamidov, N.A.Axmedova.Fizika-T.:2018.b.457.



METHODS OF TEACHING ENGLISH IN PRESCHOOL EDUCATION

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843550>

Andijon state institute of foreign languages student of group 332

Ibrokhimov Sayyodbek

Andijan state medical institute student of group 484

Mominova Ismugul

Academic supervisor: Yaxshiboyev Ahrorbek

Annotation. *Our people believe that knowing the language is knowing the hand. In fact, English is now the most commonly spoken language on the planet. As a result, a comprehensive and systematic effort is underway in our country today to educate and teach this language. The fact that youngsters learn English from the start of their education will enable them to master multiple other languages swiftly and flawlessly in the future. As a result, the author outlines the methods and importance of teaching English in preschool education in this article.*

Keywords: *preschool, children, educator, English, Curriculum, methodology, fun games, etc.*

Foreign language abilities are becoming increasingly important in professional education today. This does not rule out the possibility of early childhood education. Teaching foreign languages to children and teenagers has become increasingly important. Learning a foreign language has become a need rather than a means of self-improvement in recent years. Foreign language study is now required not only in schools and universities, but also in a growing number of preschools. The demand for a foreign language in society, on the one hand, as well as the understanding by parents that language is not only a factor in the upbringing of modern man, but also the basis of his social and material well-being in society - on the other hand. Making this moment foreign language learning especially popular and relevant.

If knowing a foreign language was only required in certain sectors 20 years ago, it is today expected to master at least one foreign language. The age of the pupil is the most significant challenge in teaching a foreign language. It is well known that youngsters learn more easily. Until recently, teaching methods were geared toward school-aged children; now, parents are now attempting to begin learning a foreign language as soon as possible. The following are the major goals of teaching a foreign language to preschoolers:

1. Formation of basic communication skills in a foreign language in children;
2. the ability to use a foreign language to achieve their goals, to express their thoughts and feelings in the context of life communication;
3. create a positive attitude to further learning of foreign languages;



4. To arouse interest in the life and culture of other countries.

Preschool age is an excellent time to begin learning a foreign language since children of this age are sensitive to language phenomena and are interested in comprehending their speech experiences, or the "secrets" of language. The compact size of the language material is easily remembered and reproduced properly. These beneficial characteristics begin to fade with aging. Another reason why young people prefer to learn a foreign language is that it is more challenging. The less vocabulary a child has in the local language, the less speech demands he has: a tiny child's communication regions are smaller than adults', yet he still has to address difficult communication problems, which is not the case. This means that when he learns a foreign language, he does not perceive a significant difference between the possibilities in his mother tongue and those in the foreign language, and his sense of accomplishment is greater than that of older children. Teaching children is a demanding task that necessitates an entirely different methodological approach than teaching adults or schoolchildren. It is not necessary for an adult to be able to teach others a foreign language. When faced with methodologically ineffective instruction, children may develop a long-term dislike for a foreign language and lose confidence in their abilities. Working with preschoolers should only be done by experienced specialists.

The capacity of the organizer to grasp a foreign language is also important while organizing it. While learning a foreign language, every child should be encouraged to perform. They must learn to differentiate between acoustic, tactile, rhythmic, and visual stimuli. Kids are fast to organize, but also quick to forget. As a result, repeating the speech numerous times can assist youngsters remember it throughout the course of a month or through subject handouts. The classes are spiraled, and regular rehearsals are required. Teaching foreign languages effectively involves a diverse set of techniques. The major reasons for learning a language quickly are the quantity and quality of communication. During the class, students' attention should be drawn to the language's content and significance. Students should focus primarily on the content of the language. In preschool, in teaching English, children gradually develop the basics of communicative competence, which includes the following aspects in the early stages of learning English:

- the ability to repeat phonetically correctly English words behind the teacher, mother tongue or speaker, i.e. the gradual formation of auditory attention, phonetic hearing and correct pronunciation;
- mastering, combining and activating English vocabulary;
- mastering a certain amount of simple grammatical structures, composing a coherent statement.

The ability of the instructor also plays a role in successful foreign language learning. Students should be given assignments that allow them to apply what they've learned in class. Language growth requires the development of communication skills.



Students can use the language effectively through social contact, especially if they can put the meaning of the language into practice. The ability of the instructor to have meaning and negotiate for this process is one of the most important prerequisites for successful teaching. Foreign language instruction should prioritize the organization of everyday information, real knowledge, and abilities in a foreign language, but it should not overlook the acquisition of specific knowledge. If we focus on the methodological and didactic approaches used in foreign language teaching, we need to emphasize the following: The teaching process should include not only communicative, but also competencies that will allow you to apply the knowledge learned in the future.

The majority of children want to learn a foreign language. Of course, they are interested in the organization of the learning process as well as the children's ability to succeed in the learning process. It is naive to think that this interest would persist for years, thus educators must ensure that the organizers are satisfied and engaged in the course. Only if both the topics being arranged and the questions are essential, engaging, and relevant to the organizers will the content and aim of the lesson be understood and remembered. In foreign language education, foreign language organizers clash with another language, culture. As a result, it is advised to employ dependable foreign language materials, such as texts and literature that can express the same culture. Computer technology, multimedia, audio, and other information and communication tools are among the most popular ways to teach a foreign language. Individualizing education and developing motivation for preschool children's speaking activities is aided by the use of audio, video stories, fairy tales, and cognitive materials in direct educational activities. The use of ICT in the direct teaching of a foreign language develops two types of motivation: self-motivation, which is manifested by the preschool child's ability to understand the language he is learning, and motivation, which is manifested by the fact that the proposed material is interesting in itself. It brings satisfaction and builds confidence in one's own strength and strives for further improvement.

A teacher must provide clarity and an example when explaining anything. That is why English is a preschooler's game. Only by using this method can you get great outcomes and instill in the child a positive attitude toward the foreign language. Rather than studying as many lexical units as possible, forms of learning should be able to create an interest in the topic, enhance the child's communication abilities, and allow them to express themselves. It is vital to attain specific aspects of material mastery, circumstance, and meaningful use of them in the kid's competence, which will allow the child to offer a minimal amount of money to continue the development of linguistic units.

Finally, the importance of pre-school education in our children's growth cannot be overstated. We must offer them with current technology and an educational system that is up to date. Preschool education is also critical for the development of every person's roots in society, i.e., for them to grow up to be a child worthy of the



motherland and a strong person in the future. We need to pay greater attention to our children's education, establish modern environments, and assist their bodies in new ways. Foreign language organization is also crucial for children to open the door to new chances in the future, to grow into skilled professionals, and to develop as individuals who will serve society as a whole. That is why we teach our children from an early age, make them interested in reading, do not ignore every child in our society, deal with children with disabilities, attract their attention with various fun games, regularly encourage them to learn foreign languages. We will not be mistaken in saying that it will be a step.

REFERENCES:

- ❖ Kanton Aargou. Fremdsprachen Lernen und Lehren. Englisch an der Primarschule. Leipzig-2017. S. 238—239.
1. Eine neue Aufgaben - und Leistungsbewertungskultur, U. Gibitz in: Neue Wege im Fremdsprachenunterricht am Beispiel des Rahmenplans für den Englischunterricht in der Orientierungsstufe, L. I. S. A. Schwerin 2001.
 2. David A. J, Eggen, P Kauchak. Methods for Teaching: Promoting student learning [M] 2002.
 3. Liu wang. ertong xinglixue kaocha[J]. 2017-18.
 4. Feng Wang, Applying Technology to Inquiry-Based Learning in Early Childhood Education [J]. Early Childhood Education.
 5. Astafieva M.D. Holidays for kids learning English. - M .: Mosaic synthesis, 2009.
 6. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Theory and practice of teaching foreign languages. primary school: methodical manual.-M .: Airis-press, 2004.
 7. Guseva L.P. We play, we teach, we learn - we want to know English. - Rostov n / a: Phoenix, 2009 y.



YOSHLIK 1 KONI SHAROITIDA PORTLATISH ISHLARINI SAMARALI OLIB BOORISH UCHUN PORTLOVCHI MODDANING MAQBUL TURINI TANLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843571>

Ergashev Mahmud Axbaraliyevich

TDTU Olmaliq filiali assistenti

Sulxonov Diyorbek Axror o'g'li

TDTU Olmaliq filiali talabasi

O'ralboyeva Dildora Farxod qizi

TDTU Olmaliq filiali talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yoshlik 1 konida portlatish ishlarida qo'llanilayotgan portlovchi modda turi, portlatish ishlari ketma-ketligi, portlatish ishlarining rejimi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari maqolaning yangilik qismida Yoshlik 1 koni sharoitida portlatish ishlarini amalga oshirish uchun yangi maqbul portlovchi modda turi ko'rib o'tilgan va qisqacha ilmiy asoslangan.*

Kalit so'zlar: *M.M.Protodyakonov shkalasi, oson portlovchi jinlar, o'rtacha portlovchi jinlar, qiyin portlovchi jinlar, KPM – IA portlatish mashinkasi, ISKRA portlatish tizimi, emulsion portlovchi moddalar, igdanit, almanit.*

Yoshlik 1 konida tog' jinlarining o'rtacha mustahkamligi M.M.Protodyakonov shkalasi bo'yicha 10-15 ni tashkil etadi. Bu esa o'z-o'zidan tog' jinlarini qazib olishga tayyorlashda burg'ilash-portlatish ishlarini talab etadi. Yoshlik 1 konida portlatish ishlari haftada 2 marta seshanba va payshanba kunlari soat 14:00 dan 16:00 ga qadar portlovchi materiallar zavodi tomonidan amalga oshiriladi. Haftaning qolgan kunlarida esa skvajinalarni zaryadlash ishlari amalga oshiriladi. Portlatish ishlarida maydalanadigan puch tog' jinlarining maksimal o'lchami 1,5 metrgacha, rudalarning maksimal o'lchami esa 1 metrgacha hamda nogabarit jins bo'laklari chiqishi 1,5-2 % gacha bo'lishiga yo'l qo'yiladi.

Yoshlik 1 konida tog' jinlari darzдорligi darajasi bo'yicha 3 ta kategoriyaga ajratilgan:

- I-kategoriya – oson portlovchi jinlar;
- II-kategoriya - o'rtacha portlovchi jinlar;
- III-kategoriya – qiyin portlovchi jinlar.

Portlatish ishlari uchun KPM – IA turidagi portlatish mashinalari, radiostansiyalar, elektroserena mavjud. Skvajina zaryadlarini portlatish usuli – noelektrik portlatish usuli. Skvajinadagi asosiy zaryad massasini portlatish uchun kapsuldetonator bilan almonit birlashtirilib jangovor patron sifatida ishlatiladi. Qisqa sekinlashtirilgan portlatish ishlari 2 xil usul bilan amalga oshiriladi:

- 1-ISKRA initsiyalovchi noelektrik portlatish tizimi;



2- Elektrodetonatorlardan foydalanib qisqa sekinlashtirilgan portlatish.

Hozirgi kunda Yoshlik 1 karyeri uchun alohida qo'llaniladigan portlovchi modda turi mavjud emas. Konning geologik tuzilishi Qalmoqir konining geologik tuzilishi bilan o'xshash bo'lganligi bois Yoshlik 1 konida ham Qalmoqir konidagi portlatish ishlarida qo'llanilayotgan portlovchi moddalar qo'llanilmoqda.

Karyerda skvajinalar burg'ilashda dolotasi diametri 244,5 mm bo'lgan sharoshkali burg'ilash dastgohi - SBSH-250 MNA 32 qo'llanilmoqda. Burg'ilangan skvajinalar portlovchi modda zaryadlari bilan zaryadlanib portlatiladi. Bunda tog' jinslarining o'rtacha suvdorlik darajasi 66 % ni, +700 dan pastki gorizontlarda esa 80 % gacha yetadi. Bu esa o'z navbatida portlatish ishlari uchun suvga ustivor bo'lgan - emulsiyon portlovchi moddalarni qo'llashni talab etadi. Yoshlik 1 karyerida portlatish ishlari uchun asosan Emulgit 30, 50, 60 ANFO turidagi portlovchi moddalar qo'llanilmoqda. Jangovor patronlarni tayyorlash uchun esa Almanit patronli portlovchi moddasi ishlatilmoqda. Quruq skvajinalarni zaryadlash uchun suvga ustivor bo'lmagan emulsiyon portlovchi moddalar, suvli skvajinalarni zaryadlash uchun esa suvga chidamli bo'lgan emulsiyon portlovchi moddalar qo'llaniladi. Bunda skvajinadagi zaryad zichligi suvchanlik darajasiga qarab 1,16-1,33 g/m³ oralig'ida, skvajinadagi portlovchi sig'imi o'zgaradi. Quruq skvajinalarda emulsiyon portlovchi moddalarning sig'imi 63-68 kg, suvli skvajinalarda esa 67-78 kg. Bunda yer osti suvlarining sathi 0,5 metrgacha bo'lganda EVV-30 bilan, 0,5 metrdan yuqori bo'lganda esa EVV-60 emulsiyon portlovchi moddasi bilan zaryadlanadi.

Yoshlik 1 konida portlatish ishlarida yangi portlovchi modda turini qo'llash

Yoshlik 1 konida portlatish ishlarini olib borish uchun portlovchi modda turini tanlashda asosan skvajinaning suvdorlik darajasi va portlovchi modda turining mahalliy turda bo'lishi e'tiborga olinadi. Bu bilan portlovchi modda turini tanlashdagi iqtisodiy-texnik ko'rsatgichlar samarali bo'lishi ta'minlanadi. Skvajinalarning suvdorlik darajasiga qarab, agar skvajinadagi suv sathi 1 metrdan ortiq bo'lsa Emulgit 60 portlovchi moddasini, suv sathi 0.5-1 metr oralig'ida bo'lganda Emulgit 50 portlovchi moddasini, portlatilayotgan skvajina quruq bo'lsa yoki skvajinadagi suv sathi 0.5 metrgacha bo'lsa ANFO turidagi portlovchi moddani tanlash orqali nogabarit jins bo'laklarining chiqishini kamaytirish va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatgichlari me'yori ta'minlanadi. Ushbu turdagi portlovchi moddalarni mahalliy sharoitda ishlab chiqarish imkoni mavjudligi iqtisodiy samaradorlik ko'rsatgichlarini yanada yuqori darajada bo'lishini ta'minlaydi.

ANFO turidagi portlovchi modda tarkibida asosiy komponent ammiakli selitra - NH₄NO₃ bo'lib, yoqilg'i uchun uglevodorod sifatida - dizel yoqilg'isi, kerosindan va boshqa qo'shimcha komponentlardan iborat. ANFO tipidagi portlovchi moddalar patronlanmagan holatda ishlab chiqariladi. ANFO turidagi portlovchi moddalarni qo'llashda asosiy afzalliklar:

- portlovchi modda tarkibiy tuzilishining oddiyligi;
- skvajinani oson zaryadlash imkoni mavjudligi;



- skvajinani butunlay qoplashi;
- portlash energiyasining maksimal miqdorda chiqishi;
- yalpi portlatish ishlarida yuqori unumdorlik.
- ANFO turidagi portlovchi moddalarni qo'llanganda asosiy kamchiliklar:
- portlovchi moddadan noto'g'ri foydalanish oqibatida portlash vaqtida gazsimon portlash mahsulotlarining hosil bo'lishi darajasi ortib ketishi;
- sulfidli reaktiv tog' jinslarini portlatish uchun ishlatib bo'lmasligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. типовой проект производства буровзрывных работ на карьере «ёшлик-і». пояснительная записка (шифр 31-580-г-129 пз) г.алмалык 2020 г.
2. [https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31228699/#:~:text=ammonium%20nitrate%20fuel%20oil%20\(anfo,liquid%20hydrocarbons%20\(fuel%20oil\)\)](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31228699/#:~:text=ammonium%20nitrate%20fuel%20oil%20(anfo,liquid%20hydrocarbons%20(fuel%20oil)))
3. алимов ш. м., эргашев м. а., ўралбоева д. ф. методы регулирования степени дробления горных пород //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 13. – с. 625-627.
4. ergashev m. a., o'ralboyeva d. f. yoshlik 1 konida skvajina zaryadi konstruksiyasining maqbul turini tanlash va asoslash //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – т. 2. – №. 13. – с. 668-670.
5. maxmudjanovich x. t. et al. foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishdan bo'shagan maydonlarni rekultivatsiyasi qilish //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – т. 2. – №. 15. – с. 738-741.
6. axbaraliyevich e. m. foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olishdan bo'shagan maydonlarni rekultivatsiyasi qilish jarayonining bosqichlari //ijodkor o'qituvchi. – 2023. – т. 3. – №. 26. – с. 226-228.
7. хайитов о. г., худайназаров т. м., эргашев м. а. производственные участки филиала «разрез ангренский» //finland international scientific journal of education, social science & humanities. – 2023. – т. 11. – №. 3. – с. 119-127.



KAFEDRA TALABALARI TOMONIDAN BAJARILGAN KURS ISHLARINI HISOBGA OLISHNING AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843587>

Ishmetov Bahrom Yangibayevich

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Urganch filiali stajyor o'qituvchisi*

Atajanov Sarvarbek Anvarbekovich

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
Urganch filiali talabasi*

Annotation: *The purpose of developing an information system for calculating course work completed by department students is to simplify the uploading, editing, grading, and storage of course work-related information for the students. Through this system, instructors and administrators can monitor the students' progress, understand how they should approach their course work, and have the ability to evaluate their practical exercises. This information system automates the process of uploading and grading students' course work, making it easier for instructors and administrators. Additionally, students can compare their course work with that of their peers, which helps them improve their skills and abilities. Furthermore, this system allows instructors, administrators, and students to gather information related to course work, add additional information, and display it in various formats. As a result, the analysis of course work and the teaching process become more straightforward and efficient.*

Keywords: *Department students, Course work, Calculation Information system,, Development, Database, Features, Login system, Authentication, Accounting, Search*

Аннотация: *Целью разработки информационной системы учета курсовой работы студентов кафедры является упрощение загрузки, редактирования, выставления оценок и хранения информации о курсовой работе для студентов. С помощью этой системы преподаватели и администраторы могут следить за успеваемостью студентов, понимать, как им следует подходить к своей курсовой работе, и иметь возможность оценивать свои практические упражнения. Эта информационная система автоматизирует процесс загрузки и оценивания курсовой работы студентов, упрощая работу преподавателей и администраторов. Кроме того, студенты могут сравнивать свою курсовую работу с работой своих сверстников, что помогает им улучшить свои навыки и способности. Кроме того, эта система позволяет преподавателям, администраторам и студентам собирать информацию, связанную с курсовой работой, добавлять дополнительную информацию и отображать ее в*



различных форматах. В результате анализ курсовой работы и учебный процесс становятся более простыми и эффективными.

Ключевые слова: Студенты кафедры, Курсовая работа, Расчетно-информационная система, Разработка, База данных, Возможности, Система входа, Аутентификация, Учет, Поиск

KIRISH

Kafedra talabalari uchun kurs ishlari o'qitish jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning baholash va yuklash jarayonlari o'qituvchilar uchun katta mehnat ko'rsatish bilan bog'liqdir. Bu sababli, axborot tizimi yaratish maqsadida o'qituvchilar va administratorlar talabalarning o'qish jarayonini nazorat qilish, ularning kurs ishlariga qanday yondashish kerakligini tushunish va ularning amaliy mashg'ulotlarini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Axborot tizimi yaratish jarayonida maqsad - o'qituvchilar va talabalar o'rtasida ta'lim jarayonini yengillashtirish va osonlashtirishdir. Bu tizim orqali talabalar o'z kurs ishlarini yuklash va baholash jarayonlarini avtomatlashtirishadi va bu jarayonlarni o'qituvchilar va administratorlar uchun osonlashtiradi. Shuningdek, bu tizim orqali talabalar o'z kurs ishlarini boshqa talabalar bilan ham baholashlari mumkin bo'ladi va bu ularning ko'nikma va qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, axborot tizimi orqali o'qituvchilar va administratorlar talabalar bilan aloqa o'rnatish, ularning o'zaro fikrlashishlari va talabalar o'rtasida ko'rsatishni oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keyinroq biz, sizga axborot tizimi yaratishni boshlash uchun qanday qadamga o'tishingiz kerakligi haqida ham ma'lumot beramiz.

Saqlash va izlash: Axborot tizimiga yuklangan kurs ishlarini saqlash va izlash funksiyasi yaratish kerak. Bu funktsiya, talabalar tomonidan yuklangan kurs ishlarini jadvalda saqlab turish, ularni avtomatik ravishda tartiblash, ularni qidirish va filtr qilish imkoniyatlarini beradi.

O'qish, yozish va tahrir qilish: Axborot tizimi o'qish, yozish va tahrir qilishga imkon berishi kerak. Bu funktsiya talabalar uchun ma'lumotlar bazasida yozish va ularni tahrir qilish imkonini ta'minlaydi.

To'plamlash va ma'lumotlar bazasini yaratish: Axborot tizimi ma'lumotlar bazasini yaratish va uni boshqarishni o'rganish kerak. Bu ma'lumotlar bazasi kurs ishlarini yuklash, ularni saqlash va izlash, ularni baholash va qidirish uchun kerakli ma'lumotlarni saqlab turish uchun foydalaniladi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish: Axborot tizimi ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bu funktsiya kurs ishlarining baholash natijalarini, talabalar tomonidan qo'shilgan ma'lumotlarni va ularning ko'rsatilgan usullar haqida qo'shimcha ma'lumotlarni tahlil qilish imkonini ta'minlaydi.

Baholash: Axborot tizimi kurs ishlarining avtomatik baholashini ta'minlaydi. Bu funktsiya kurs ishlarining baholash jarayonini saqlaydi va kurs ishlarining baholash natijalarini ma'lumotlar bazasiga yozadi.



Kafedra talabalari tomonidan bajarilgan kurs ishlarini hisobga olishning axborot tizimini ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlarni olish uchun quyidagi usullar qo'llanilishi mumkin:

- Talabalarning o'zgartirish yoki to'ldirish mumkin bo'lgan Google Forms-survey-lar yordamida ma'lumotlarni to'plash;
- Talabalar tomonidan tayyorlangan loyihalarni elektron pochta yoki shaxsiy platformalar orqali jo'natish yordamida loyihalarni to'plash;
- Talabalar tomonidan yaratilgan video darslarni olish va saqlash;
- Internetda mavjud axborot manbalari orqali talabalarning yozish va tahlil qilish uchun ma'lumotlarni to'plash;
- Tizim uchun kerakli dasturlar va qurilmalar, masalan, Microsoft Excel, Google Sheets, Python dasturlash tili va R-statistikasi kabi dasturlar yordamida ma'lumotlarni tahrirlash va tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish.
- Ma'lumotlarni tahrirlash uchun Microsoft Word, Google Docs kabi dasturlar, tahlil qilish uchun Microsoft Excel, Google Sheets, SPSS, Python, R-statistikasi kabi dasturlar va kerakli boshqa qurilmalar qo'llanilishi mumkin.
- Kafedra talabalari tomonidan bajarilgan kurs ishlarini hisobga olishning axborot tizimini ishlab chiqish uchun qo'llaniladigan dasturlar, qurilmalar va kutubxonalarga quyidagilar kiradi:
 - Python dasturi: Python katta ma'lumotlar tahlili va axborot omborini boshqarish uchun juda ham mos keladi. Python yorqin, ko'p xil qurilmalarga va kutubxonalariga ega va oson yozilishi bilan mashhurdir.
 - SQL server: Ma'lumotlar bazasini yaratish va boshqarish uchun SQL server dasturi juda ham ishonchli. SQL server orqali ma'lumotlar bazasi tuziladi va o'z ichiga olingan ma'lumotlar bilan ishlashni osonlashtiradi.
 - PHP: PHP saytlarni yaratish uchun keng tarqalgan dasturlardan biridir. PHP, server tomonidan ishlatiladi va ma'lumotlarni ko'chirish, saqlash va boshqarish imkoniyatlariga ega.
 - HTML/CSS: Sayt tuzish uchun eshik va tarqatma HTML va CSS tilidan foydalaniladi. Bu dasturlar sayt interfeysini ishlab chiqishda ham yordam beradi.
 - JavaScript: JavaScript sayt interaktivligini oshirishda ishlatiladi. Bu dastur saytga ishlov berish uchun loyihalarni yaratishda ham ishlatiladi.
 - Git: Git tizimi loyihalarni nazorat qilish va jamoa ishlarida birlashishni osonlashtiruvchi bir dastur hisoblanadi. Loyihalarni yaratish, tahrir qilish va nazorat qilish uchun Git kutubxonasi foydalaniladi.
 - Jupyter Notebook: Bu dastur ma'lumotlarni yashirin tarzda tahrir qilishni osonlashtiradi. Jupyter Notebook orqali ma'lumotlar tahlili, ko'rsatish va natijalarni vizualizatsiya qilish oson.
 - Pandas: Pandas dasturi ma'lumotlar tahlilini osonlashtirish uchun yaratilgan kutubxona hisoblanadi. Bu dastur yordamida ma'lumotlar ko'proq tahlil qilinadi va moslashtiriladi.



•Numpy: Numpy kutubxonasida ma'lumotlar tahlil qilishda ko'p o'rnatilgan amallar yuklatilgan. Bu dastur orqali arifmetik amallar, statistik tahlillar va boshqa ko'plab amallar bajariladi.

```
import sqlite3
# Ma'lumotlar bazasiga ulanamiz
conn = sqlite3.connect('kurslar.db')
cur = conn.cursor()
$$\exists r > 0, \forall n \text{ uchun } \|f_n\|_{H_\varphi} \leq r \Rightarrow \frac{\omega(f_n, \delta)}{\varphi(\delta)} \leq r, \forall n, \delta \Rightarrow \omega(f_n, \delta) \leq r\varphi(\delta).$$

$$[\omega(f - g, \delta) \geq |\omega(f, \delta) - \omega(g, \delta)|, \quad \omega(f + g, \delta) \geq |\omega(f, \delta) + \omega(g, \delta)|]$$

$$\omega(f, \delta) = \omega(f - g + g, \delta) \leq \omega(f - g, \delta) + \omega(g, \delta) \Rightarrow$$

$$\omega(f, \delta) - \omega(g, \delta) \leq \omega(f - g, \delta)$$

$$\omega(g, \delta) - \omega(f, \delta) \leq \omega(g - f, \delta) \quad \text{xuddi shunday}$$

$$|\omega(f, \delta) - \omega(g, \delta)| \leq \omega(f - g, \delta)$$

Agar $f_n \rightrightarrows f_0$ bo'lsa $\omega(f, \delta) \rightrightarrows \omega(f_0, \delta)$ bo'ladi. $f_n \rightrightarrows f_0$ bo'lsin, $\forall \delta$

$$\omega(f_0, \delta) \leq r\varphi(\delta) \Rightarrow f_0 \in H_\varphi$$

Endi $\|f_n - f_0\|_{H_\varphi} \rightarrow_{n \rightarrow \infty} 0$ ekanligini ko'rsatamiz. $\|f_n - f_0\|_{C_T} \rightarrow_{n \rightarrow \infty} 0$ bo'lganligi

uchun $\lim_{n \rightarrow \infty} \sup \frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)} = 0$ ekanligini ko'rsatish yetarli (2) dan $\forall \varepsilon > 0, \exists N, m, n >$

$$N \sup_{\delta} \frac{\omega(f_m - f_n, \delta)}{\varphi(\delta)} < \varepsilon \Rightarrow \sup_{\delta} \omega(f_m - f_n, \delta) < \varepsilon \varphi(\delta) \Rightarrow \text{Bundan}$$

$n > N$ ni belgilab $m \rightarrow \infty$ $\omega(f_m - f_n, \delta) < \varepsilon \varphi(\delta)$ da limitga o'tamiz:

$$\omega(f_0 - f_n, \delta) \leq \varepsilon \varphi(\delta) \Rightarrow \frac{\omega(f_0 - f_n, \delta)}{\varphi(\delta)} \leq \varepsilon \Rightarrow \sup_{\delta} \frac{\omega(f_0 - f_n, \delta)}{\varphi(\delta)} \leq \varepsilon \quad (5)$$

(4) bilan (5) dan H_φ ning to'liqligi kelib chiqadi.

7-lemma. Agar $\|U_n - U_0\|_{C_T} \rightarrow 0$ bo'lsa, $\|\omega(U_n, \delta) - \omega(U_0, \delta)\|_{C_T} \rightarrow 0$ bo'ladi.

5-teorema. H_φ fazo to'liq fazo.

Isbot. $\{f_n\}$ – fundamental ketma-ketlik $\{f_n\} \in H_\varphi$ bo'lsin. $\{f_n\} - C_T$ da fundamental. C_T – to'liq fazo bo'lganligi uchun $\exists f_0, f_0 \in C_T$, ya'ni

$$\|f_n - f_0\|_{C_T} \rightarrow 0 \quad (6)$$

$\{f_n\}$ ketma-ketlik H_φ da fundamental bo'lganligi uchun u chegaralangan bo'ladi, ya'ni $\forall n$ uchun $\|f_n\|_{H_\varphi} \leq r, 0 < r < +\infty$

$$\|f_n\|_{H_\varphi} = \|f_n\|_{C_T} + \sup_{\delta} \frac{\omega(f_n, \delta)}{\varphi(\delta)} \leq r$$

bo'lgani uchun $\omega(f_n, \delta) \leq r\varphi(\delta)$ (1) va 1-lemmaga asosan

$$\omega(f_n, \delta) \leq r\varphi(\delta) \Rightarrow f_0 \in H_\varphi$$

Endi $\|f_n - f_0\|_{H_\varphi} \rightarrow 0$ bo'lishini ko'rsatamiz

$$\|f_n - f_0\|_{H_\varphi} = \|f_n - f_0\|_{C_T} + \sup_{\delta} \frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)}$$



(1) ga asosan $\|f_n - f_0\|_{C_T} \rightarrow 0$ va $\sup_{\delta} \frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)} \rightarrow 0$ ko'rsatish yetarli $\{f_n\} \in H_{\varphi}$ da fundamental bo'lganligi uchun $\exists N$ nomer topiladiki $m, n > N$ uchun $\|f_n - f_m\|_{\varphi} < \varepsilon$ bo'ladi. Bundan $\sup \frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)} < \varepsilon$, $\frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)} < \varepsilon$,
 $\omega(f_n - f_0, \delta) < \varepsilon \varphi(\delta)$ bo'ladi $\Rightarrow \sup \frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)} \leq \varepsilon \Rightarrow \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{\omega(f_n - f_0, \delta)}{\varphi(\delta)} \rightarrow 0$

Demak, H_{φ} fazo to'liq fazo ekan.

Agar $f \in H_{\varphi}$ bo'lsa, $\forall m > 0$ uchun $mf \in H_{\varphi}$ bo'ladi va $H_{\varphi} = H_{m\varphi}$ bo'ladi. Endi $\forall H_{\varphi_1}$ va H_{φ_2} sinflar qaysi vaqtda bir-biridan farq qiladi.

6-ta'rif. $B_1 \subseteq B_2$ to'la uzluksiz deyiladi: B_1 dagi har bir chegaralangan ketma-ketlik B_2 da kompakt bo'lsa va B_1 da yaqinlashuvchiligidan B_2 da yaqinlashuvchiligi kelib chiqsa.

Teorema (Riss). Har bir B fazo chekli o'lchovli bo'lishi uchun uning chegaralangan qismi kompakt bo'lishi zarur va yetarli.

Xulosa.

Ushbu maqola H_{φ} fazosi va uning xarakteristikasini o'rganishga bag'ishlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. В. А. Какичев. «Граничные свойства интеграла типа Коши многих переменных». Уч. зап. Шахт. пед. ин-та. 2, вып. 6, 1959-г, 25-90 с.
2. Ф. Д. Гахов. «Краевые задачи». Москва. Наука. 1977-г.
3. Н. И. Мусхелишвили. «Сингулярные интегральные уравнения». Москва. Наука. 1968-г.
4. Б. А. Фукс. «Теория аналитических функций многих комплексных переменных». М. Л. 1948-г.
5. А. G'oziyev. «Analitik funksiyaning chegaraviy masalalari va singulyar integral tenglamalar». Samarqand-2018.



NAVBATLI YALPI XIZMAT KO'RSATISH TIZIMI MODELLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843821>

Shukurov Ikrom Abdurashitovich

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Oliy matematika kafedrası
assistent-o'qituvchisi*

telefon: 97-001-51-75, e-mail: ikrom.shukurov@mail.ru

Annotatsiya: *Iqtisodiyoti barqaror o'sayotgan jamiyatlarda xizmat ko'rsatish sohasining ham inson kapitaliga katta ta'siri mavjud. Maqolada xizmat ko'rsatish sohasi navbatli yalpi xizmat ko'rsatish masalasi ko'rib chiqilgan, bu masalada navbatli yalpi xizmat ko'rsatish sohasining tizimli modellari haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Talab, talablar oqimini tushish, xizmat ko'rsatish tezligi, yalpi xizmat ko'rsatish tizimi: navbatsiz, navbatli, aralash tipdagi, xizmat ko'rsatish bilan band bo'lishlik va ishlamasdan bekor turib qolishlik ulushlari (ehtimollari) modellari, navbatning uzunligi, doimiylik nashri.*

Navbat hosil bo'ladigan tizim navbatli yalpi xizmat ko'rsatish tizimi deyiladi. Talab tushgan paytda tizimni barcha kanallari xizmat ko'rsatish bilan band bo'lsa, u holda navbatda turadi. Ammo n – kanalli navbatli yalpi xizmat ko'rsatish tizimida tushayotgan talablar tezligi λ – ga, xizmat ko'rsatish tezligi μ - ga teng bo'lsa, u holda navbatsiz yalpi xizmat ko'rsatish tizimidan farqli ravishda ushbu tizimda quyidagi $\alpha < n$ yoki $\lambda < n\mu$ doimiylik shartini bajarilishi shartdir. Aks holda navbatni uzunligi juda oshib ketishi mumkin va bunday tizimdan foydalanish samarali bo'lmaydi. Shuning uchun kanallarning xizmat ko'rsatish tezliklarining yig'indisi $n\mu$ tushayotgan talablar oqimining tezligi λ - dan doimo katta bo'lishlik shartdir. Ushbu shart-muammo navbatsiz tizimdan farqli ravishda navbatli tizim uchun shuning uchun o'rinliki, chunki hamma tushayotgan talablar albatta xizmat olishi kerak.

O'z navbatida Puassoncha talablar oqimi va xizmat ko'rsatishni eksponensial qonuniyatli n -kanalli navbatli YaXKT ni ish sifatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat:

- barcha n -ta kanalni ishlamasdan bo'sh turib qolishlik vaqti ulushi, ehtimoli:

$$P_0 = \left[1 + \frac{\alpha}{1!} + \frac{\alpha^2}{2!} + \dots + \frac{\alpha^n}{n!} + \frac{\alpha^{n+1}}{(n-\alpha)n!} \right]^{-1} \quad (1)$$

- n - ta kanaldan faqat K - ta kanalni xizmat ko'rsatish bilan band bo'lishlik vaqtining ulushi, ehtimoli:

$$P_k = \frac{\alpha^k}{k!} \cdot P_0; \quad (K = 0, 1, 2, \dots, n - 1) \quad (2)$$

- barcha n -ta kanalni xizmat ko'rsatish bilan band bo'lishlik vaqti, ulushi, ehtimoli:



$$P_n = \frac{\alpha^n}{n!} \cdot P_0 + \frac{\alpha^{n+1}}{(n-\alpha)n!} \cdot P_0 \quad (3)$$

bu yerda $\frac{\alpha^n}{n!} \cdot P_0$ - tizimda navbatning yo'qligi va kanalning to'la yuklanganligi holatini ifodalaydi.

$\frac{\alpha^{n+1}}{(n-\alpha)n!}$ - esa tizimda navbatni mavjudligini ifodalaydi.

- n - kanalli yalpi xizmat ko'rsatish tizimda navbatning o'rtacha uzunligi:

$$L_n = \frac{\alpha^{n+1} P_0}{(n-\alpha)^2 (n-1)!} \quad (4)$$

- tizimda xizmat ko'rsatish bilan band bo'lgan kanallarni o'rtacha soni:

$$\bar{n} = \alpha \quad (5)$$

O'z navbatida barcha n-ta kanallarni ishlamasdan bo'sh turib qolishligi holati, n - ta kanaldan faqat K-ta kanalni ish bilan band bo'lishlik holati, barcha n-ta kanalni hammasini xizmat ko'rsatish bilan band bo'lishlik holatlari hodisalarining to'la guruhini tashkil qilganligi uchun, hodisalar guruhining ro'y berishlik ehtimollarini yig'indisi doimo birga teng bo'lishi, ya'ni:

$$P_0 + P_1 + \dots + P_k + \dots + P_n \quad (6)$$

Shartning bajarilishi shartdir.

Amaliyotda kanallar soni n=1 bo'lganda (1)-(6) formulalar quyidagicha tarzda soddalashadi:

$$P_0 = 1 - \alpha$$

(1¹)

$$P_1 = \bar{n} - \alpha$$

(2¹)

$$L_1 = \frac{\alpha^2}{1-\alpha}$$

(4¹)

$$P_0 + P_1 = 1$$

(6¹)

hamda (1¹)-(6¹) formulalar o'rinli bo'ladi, agarda $\lambda < n\mu$ doimiylik sharti bajarilsa.

Agar kanallar soni n=2 bo'lsa, u holda (1)-(6) formulalar quyidagicha aniqlanadi:

$$P_0 = \frac{2-\alpha}{2+\alpha}$$

(1²)

$$P_1 = \frac{\alpha}{n!} \cdot P_0 - \frac{\alpha(2-\alpha)}{2+\alpha}$$

(2²)

$$P_2 = \frac{\alpha^2}{2+\alpha}$$

(3²)



$$P_0 = P_1 + P_2 = 1$$

(6²)

$$L_2 = \frac{\alpha}{4 - \alpha^2}$$

(4²)

hamda (1²)-(4²) formulalar o'rinli bo'ladi, agarda $\lambda < \eta\mu$ shart bajarilsa.

O'z navbatida, navbatni uzunligi L ni hisoblash bilan bir qatorda navbatda o'rtacha kutish vaqtini quyidagi formula bilab topiladi:

$$W = LT \tag{7}$$

Buning ma'nosi shundan iboratki xizmat olish uchun navbatda turuvchi talablar o'rtacha L-ta talabni xizmat olishini kutishi kerak. Chunki navbatli tizimda talablar yo'qotilmasligi sababli xizmat ko'rsatilgan talablar tezligi, tushayotgan talablar tezligiga teng bo'ladi. Shuning uchun xizmat ko'rsatilgan talablar orasidagi o'rtacha vaqt - o'rtacha interval, tushayotgan talablar orasidagi o'rtacha interval T - ga teng.

Navbatni o'rtacha uzunligi L va o'rtacha kutish vaqti - $W = LT$ lar xizmat ko'rsatuvchi kanallar soni, xizmat ko'rsatish tezligi va talablarni tushish tezliklari hamda xizmat ko'rsatishning tegishli taqsimoti qonunlari va talablar orasidagi intervaldan bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. G.Nasriddinov, Ekonometrika, oq'uv qo'llanma, Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2008-yil.

2. И.А.Шукуров, Оценка спроса продуктов питания по тенденции временных рядов. «Ўзбекистонда фанлараро инновациялар ва илмий тадқиқотлар» журналі, 2022 йил 19-октябр, 12-сон материаллар тўплами, 417-б.

**МИГРАНТЛАР ОИЛАСИДАГИ БОЛАЛАР ТАРБИЯСИ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843833>

Санжар Авазов

ҚарДУ ижтимоий

фанлар кафедраси ўқитувчиси.

Резюме: Ушбу мақолада ташқи меҳнат миграциясининг ижтимоий оқибатлари, айниқса миграция туфайли ота-оналар ғамхўрлиги, тарбиясидан четда ўсаётган ёшлар руҳиятида шаклланаётган салбий тенденциялар таҳлил этилган.

Резюме: В данной статье анализируется внешняя трудовая миграция, являющаяся одной из актуальных проблем современности, и ее негативное влияние на моральный дух молодежи, а также вытекающие из этого социальные проблемы.

Resume: This article analyzes the external labor migration, which is one of the urgent problems of the present era, and its negative effects on the morale of young people, as well as the resulting social problems.

Таянч сўзлар: ўсмирлик даври, кризис даври, тақлидчилик, ҳаётий мақсадлар, ижтимоий мансублик, ташқи меҳнат миграцияси, хотин-қизлар меҳнат миграцияси, дистант оилалар.

Ключевые слова: подростковый возраст, кризисный период, подражание, жизненные цели, социальная принадлежность, внешняя трудовая миграция, женская трудовая миграция, отдаленные семьи.

Key words: adolescence, crisis period, imitation, life goals, social affiliation, external labor migration, female labor migration, distant families.

Ҳозирги пайтда бутун дунёда миграция жараёнлари, айниқса ташқи меҳнат миграциясининг йўналишлари ва шакллари ўзгариб бормоқда. Ташқи меҳнат миграцияси дунёнинг турли мамлакатларида турлича кечсада уларнинг ўхшаш, умумий жиҳатлари мавжуд. Бу умумийлик барча мигрантларда кузатиладиган психологик, ижтимоий-иқтисодий, оилавий, болалар тарбияси каби жиҳатларда ўз ифодасини топади. Негаки, бутун дунёда бўлгани каби ўзбекистонлик меҳнат мигрантларининг ҳам кўпчилиги оилали, фарзандлари бор. Меҳнат миграцияси туфайли эса оилалар тақдири мураккаблашиб, уларнинг аъзолари бир-биридан узокда яшашмоқда. Бу ҳолатдан айниқса болалар кўпроқ жабр кўришяпти. Энг ачинарлиси, болалар ривожига ижтимоий-психологик мувозанат бузилиши улар шахсининг камолотига салбий таъсир кўрсатмоқда.

Болалик, айниқса ўсмирлик даври шахсининг шаклланишида муҳим босқич ҳисобланади. Айнан ўсмир ёшида ўзини англаш, ўз қадриятлари, фикр-



мулоҳазалари, установкалари ҳамда ҳаётий мақсадларини белгилаш содир бўлади. Шунинг натижасида қондошликни, қардошликни ҳис қилиш, ижтимоий мансублик туйғуси шаклланади.

Шу ўринда ўсмирлик даври ва унинг физиологик, психологик жиҳатларига эътиборни қаратсак. Илмий асосланган ва тан олинган илмий хулосаларга кўра, ўсмирлик даври 10-11, 14-15 ёшни ташкил этади. Кўпчилик ёшларда ўсмирлик ёшига ўтиш асосан 5-синфдан бошланади. “Энди у бола эмас-у, ҳали катта ҳам эмас ” – бу формула ўсмирлик даври характерини билдиради. Бу ёшда ўсмир ривожиди кескин ўзгаришлар рўй бера бошлайди. Ушбу ўзгаришлар физиологик ҳамда психологик ўзгаришлардир. Мазкур даврда ўсмир бахтли болалик билан хайрлашган, лекин катталар ҳаётида ҳали ўз ўрнини топа олмаган ҳолатда бўлади. Ўсмирлик даври “ўтиш даври”, “кризис давр” каби номларни олган психологик кўринишлари билан характерланади. Ўсмирлик даврида кўпинча сўзга кирмаслик, ўжарлик, тажанглик, ўз камчиликларини тан олмаслик, уришқоқлик каби хусусиятлар хос бўлади. Ўсмирлар ниҳоятда тақлидчан бўлиб, уларда ҳали аниқ бир фикр, дунёқараш шаклланмаган бўлади. Улар ташқи таъсирларга ва ҳиссиётларга жуда берилувчан бўладилар. Демак, кўриниб турибдики, инсон шахсининг шаклланишида, келгусида унинг яхши ёки ёмон одам бўлишида ўсмирлик даври жуда катта аҳамият касб этади.

Бу мураккаб босқичда ўсмирлар учун айниқса ота-онанинг ўрни, таъсири катта бўлади. Айнан шундай бўлиши керак. “Айниқса 12-14 ёшли болаларда “Мен” шакллана бошлайди. Бола 12 ёшгача ота-онаси ва устози айтганини қилади. Ундан кейин таъсир қилиб бўлмаётган қолади. У ўзи учун авторитет қидиради. Миясига роҳат берувчи фаолият қидиради. Шундай манбалар яқинида юришга ҳаракат қилади”¹⁵. Психологларнинг хулосаларига кўра, агар ота-она боласи учун кунига атиги 8 дақиқа вақт ажратса, улар орасида тажовузкорлик даражаси 45 фоизга камаяр экан.

Ҳеч кимга сир эмас, иқтисодий етишмовчилик, ишсизлик ва бошқа сабабларга кўра бугун жуда кўпчилик ташқи меҳнат мигрантларига айланишган. Мигрантлар армиясининг сафи жуда кенг, таркиби ҳам жуда хилма-хил. Бугун узоқ-яқин юртларда нафақат эркеклар, балки жуда кўплаб аёллар ҳам ишлашмоқда ва, афсуски, уларнинг салмоғи тобора ортиб бормоқда. Тўғри, меҳнат мигрантлари ўзларининг бирламчи мақсадларига эришяпти дейиш мумкин. Ишлаб топган пуллари эвазига анча-мунча иқтисодий, маиший муаммоларини ҳал қилишга эришмоқда. Аммо ҳар қанча муҳим бўлсада инсон ҳаёти фақат иқтисодий, моддий эҳтиёжларини қондиришдангина иборат эмас. Унинг турмушининг ижтимоий, маънавий, психологик томонлари ҳам бор. Қолаверса ҳар бир халқнинг миллий, ахлоқий қадриятлари унинг турмуш тарзини, ўзига хослигини таъминлаб туради. Ана шу таянчлардан маҳрум бўлиш эса бир қатор муаммоларни келтириб чиқариши тайин. Минг афсуски, ташқи

¹⁵ Қаерда хато қилдик? Профессор Зарифбой Ибодуллаев билан суҳбат. Интернет материаллари асосида.



меҳнат миграцияси туфайли кўпгина оилалар ана шундай муаммолар гирдобига тушиб қолмоқда. Негаки кўпгина болалар ўсмирлик чоғида ё ота, ё она, ёки ҳар иккаласининг меҳридан, тарбиясидан, назоратидан четда ўсишяпти. Маълумки, чет элга отланган ота ёки она кўп ҳолатларда фарзандларини бобобувиси, қариндошлари, қўшнилари қарамоғига қолдириб кетади. Илмий кузатишларга кўра, оила боши узоқ йилларга чет элга ишлаш учун кетган оиладаги болалар ва ота-она ўртасида ўзига хос муносабатлар шаклланади. Бу эса ўсмир шахсининг шаклланиши жараёнига ўзига хос таъсир кўрсатади.

“Меҳнат миграцияси – фуқароларнинг ўзини-ўзи банд қилиш эркинлигини таъминлаши билан бирга, қатор муаммо ва қийинчиликларнинг юзага келишига ҳам сабаб бўлади. Айниқса ўз яшаш ҳудудида иш топа олмай ёки ҳаёт тарзи эҳтиёжларини тўлиқ қоплашга имкон берувчи барқарор даромад манбаига эга бўлмаган инсонлар узоқ чет элларга ишлаш учун кетади. Бу оилавий тизимдаги - уни ташкил этувчи турли муносабатларда қуйидаги йўқотишларга сабаб бўлиши мумкин:

- оилавий муносабатлар тизимидаги бузилишлар: ката авлод ва кичик авлод ўртасидаги жонли мулоқотнинг узилиши, эр-хотин муносабатида функционал бузилишлар; ишончсизлик, ажралишлар, ҳиёнат;

- ота-она ва фарзанд муносабатларидаги муаммолар. Бу эса ўз навбатида боланинг шахси, ҳиссий-иродавий соҳаси, шахслараро муносабатлари хусусиятлари, ота-она обрўси ва шу каби бошқа муносабатлардаги муаммолар юзага келишига сабаб бўлади;

- ота-она ёки улардан бирининг назоратсиз қолган болаларда шахс тузилмасида турли ўзгаришлар содир бўлади: ўзининг мансублиги соҳасини англаши, яқинларига нисбатан ҳиссий боғланишнинг шаклланишидаги бузилишлар, ота-она функцияларининг оиладаги тўнғич фарзандга ўтиши билан болаларнинг кун тартиби ва мажбуриятидаги ўзгаришлар, таълимий қизиқишларининг сўниши ва ҳ.к”¹⁶.

Ушбу масалада чуқур тадқиқотлар олиб борган россиялик мутахассис А.Л.Цинцарнинг фикрича, ҳозирги замонда оиланинг янги тури – “вақтинча ажралган” ёки “дистант оилалар” тури пайдо бўлмоқда. Бундай оилалар сўнгги йилларда кўп учраб, улар оиланинг муқобил шаклига ҳам айланиб бормоқда¹⁷. Дистант оилалар муаммолари Ф.А.Мустаева, В.С.Торохтий, Д.И. Пенишкевич¹⁸

¹⁶ Д.А.Маджидова, Д.Ф.Хусанова, А.А.Базаров, Б.А.Ақбаров, Ш.Яхяева, Н.М.Сайдалиева.

Меҳнат мигрантлари оилаларида шахслараро муносабатларнинг педагогик-психологик омиллари. – Т.: «Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi», 2021. 8-9 бетлар .

¹⁷ Цинцарь А.Л. Психолого-педагогические условия формирования самосознания подростков из дистантных семей. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата психологических наук, Нижний Новгород, 2015 г.

¹⁸ Торохтий В.С. Актуальные проблемы современной социальной педагогики: (избранные статьи) /В. С. Торохтий; Департамент образования г. Москвы, Московский гор. психолого-пед. ун-т, Фак.социальной педагогики. - Москва: МГППУ, 2011. - 203 с.; Пенишкевич Д. И. Становления та розвиток професійної освіти



каби тадқиқотчи олимларнинг ишларида ҳам ўз аксини топган. Мазкур тадқиқотчилар касбий фаолияти сабабли турмуши алоҳида бўлган эр-хотинлардан иборат оилалар ўрганилган бўлсада, бироқ бундай оилалардаги ижтимоий-психологик, ахлоқий муҳит ва ундаги муаммолар етарлича ёритилмаган. Ўзбекистонда эса мигрант оилаларнинг ижтимоий, психологик муаммоларини тадқиқ қилишга қаратилган изланишлар жуда кам. Чунончи, ташқи меҳнат миграцияси долзарб муаммога айланган, жуда кўплаб юртдошларимиз меҳнат мигрантига айланганлиги туфайли кўпчилик болалар ота ҳамда она назоратидан холи улғаяётган юртимизда ушбу муаммо жиддий тадқиқ этилиши мақсадга мувофиқдир. Зеро, ушбу долзарб масалани атрофлича илмий таҳлил қилиш орқали унинг ижтимоий оқибатларини аниқлаш ва ҳал қилиш йўллари тақлиф қилиш мумкин.

А.Л.Цинцар дистант оила деганда ота-оналардан бири оиланинг шароитини яхшилаш мақсадида узоқ даврга бошқа шаҳар, мамлакатларга кетиб ишлаётган оилаларни тушунади. Дистант оиладаги ота-онанинг фарзандлари билан мулоқоти доимий бўлмай, асосан масофавий, яъни алоқа воситалари билангина мулоқот қилиш имкониятига эга бўлиб, бу ўсмирнинг шахс сифатида ривожланишидаги изчилликка салбий таъсир кўрсатади. Бундай оилаларда фарзанд ва ота-она ўртасидаги муносабатларда эмоционал яқинликнинг бузилиши кузатилади. Унинг фикрича, дистант оилалардаги ўсмирларда ўзига ишонч, мулоқот қобилияти нисбатан паст даражада ривожланган. Шунга қарамай дистант оилаларда ўсмирлар нисбатан мустақил бўлиб вояга етишар, ўзини бошқариш кўникмаси юқорида даражада ривожланар ва ўзини тушуниш нисбатан яхшироқ шаклланар экан.

Умуман олганда, оталари, айниқса оналари узоқ муддат чет элларда меҳнат қилаётган болалар психологиясида, маънавий оламида емирилишлар кузатилмоқда. Гарчи фарзандлар моддий орзу-ҳаваси учун чет элларда пул ишлашга отланган оналар кўпинча катта маънавий йўқотишга дуч келаяпти. Талай вақт уларнинг меҳридан бегона ўсган фарзандлар кейинчалик уларни танимай қолаяпти.

Ушбу муаммонинг ижтимоий залвори нечоғлик катталиги, уни ҳал қилиш мамлакат, миллат даражасидаги муҳим масала эканлиги президентимиз томонидан ҳам эътироф этилди. Ушбу масаланинг жамиятимиз учун нечоғлик оғриқли эканлигига тўхталар экан президентимиз: “Ҳали кўп-кўп фуқароларимиз, сизларнинг кўшнилариингиз, кўпларингнинг турмуш ўртоқларинг четда юрибди. Менинг энг катта мақсадим – қанчалик оғир бўлмасин, уларни секин-секин ўзимизнинг бағримизга, ўзимизнинг маҳалламизга, ўзимизнинг кўчамизга, ўзимизнинг уйимизга қайтариб олиб



келишимиз керак. Оғир, лекин барибир шу марраларни қўйишимиз керак”¹⁹, дея бу борадаги давлат сиёсатининг аниқ мақсадини баён қилди. Давлатимиз раҳбари бу муаммоларни янги иш ўринлари ва муносиб меҳнат шароитларини яратиш орқали ҳал этиш кераклигига эътиборни қаратди.

¹⁹ <https://xs.uz/uzkr/post/mening-eng-katta-maqsadim-qanchalik-ogir-bolmasin-ularni-qajtarib-olib-kelishprezident-migratsiya-masalasiga-tokhtaldi>



STEAM TA'LIMINI TATBIQ ETISH ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISH METODIKASI MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7843850>

Berdiyev Doston Abduvoitovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

"Tasviriy san'at va amaliy bezak"

yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimizda jahon tajribasini o'rgangan holda dolzarb bo'layotgan STEAM innovatsion ta'limini tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasiga yanada singdirish masalalari ko'rib chiqilgan. Sifatli ta'limni tashkil etishdek kun mavzusi bo'layotgan jarayonlarda, ta'lim tizimiga yangi g'oyalarni kiritish, tasviriy san'atni o'qitishda yuqori pedagogik texnologiyalarni singdirish va shu orqali STEAM interaktiv ta'lim bilan boyitilishi bilan rivojlanishning yangi sharoitida muammolarni samarali hal qilinishi, kelajakda davlatimiz taqdirini hal qiladigan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi juda muhim ekanligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *metodologiya, dizayn, interaktiv, innovatsiya, integratsiya, interfaol metodlar, robototexnika, kasbiy faoliyat, ustoz-shogird, virtuatexnologik ma'ruza, STREAM, STEM, noverbal muloqot.*

Zamonaviy ta'limda o'z oldiga maqsad qo'yish va uning yechimini topish kabi vaziyatlarda zamonaviy yoshlarga mustaqil qarorlar qabul qila olish ko'nikmalariga ega bo'lish talablari qo'yilmoqda. Shuning uchun ta'lim tizimida har bir yoshdagi tarbiyalanuvchilar, o'quvchilar va talabalarning shaxsiy faolligini tarbiyalash va ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, darsdan tashqari faoliyatini mazmunli tashkillashtirish muhim vazifa bo'lib turibdi. Ta'limni modernizatsiyalash yo'nalishining zamonaviy bosqichida ro'y berayotgan innovatsion jarayon bilan hamohang ravishda o'sib kelayotgan avloddagi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan har xil ta'lim g'oyalari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda pedagogik nazariya va amaliyotda qo'llash, uning samaradorligini oshirishni talab qiladi. Bugungi kunda ta'limga e'tibor davlatimiz oldiga qo'ygan eng asosiy maqsadlardan biris hisoblanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni buni tasdiqlaydi. Bunda **Quyidagilar:**

a) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi va unda quyidagilar nazarda tutiladi: - oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;



- oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; - xalqaro

tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

- oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

- oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

b) O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019 yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi.

- Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda

- O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim kengashini tashkil etish to'g'risidagi taklifga rozilik berildi.

Bundan ko'rinadiki, davlat qanchalik to'g'ri va aniq maqsadlarga qaratilgan ta'lim tizimini yo'lga qo'ysa uning dunyo hamjamiyatida yanada nufuzi oshadi. Hozirgi paytda dunyoda eng mashhur bo'lib kelayotgan STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanib kelmoqda. STEAM ta'limi yo'nalishi va o'quv-amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, beshta fanni yagona ta'lim tizimi tarkibida integratsiyalashuviga asoslangan. Bu orqali oliy o'quv yurtidan tortib umumta'lim maktablari «STEAM» ta'limini tasviriy san'at yo'nalishiga tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish mumkin.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish uchun STEAM ta'limini tatbiq etishning asosiy maqsad va rivojlanish yo'nalishlari S –science- tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, T – technology-texnologiya, E –engineering- muhandislik grafikasi, A – art-san'at, M – math-matematika yo'nalishlarini o'z ichiga qamrab oladi. Professor-o'qituvchilar rahbarligi va nazoratida tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, texnologiya, muhandislik grafikasi, matematika va tasviriy san'at yo'nalishi talabalari bilan birgalikda "Aqlli uylar", kompyuterda harakatlanuvchi robotlarning eskizini bajarish, uni materialda yasash va badiiy ishlov berish kabi



ishlarni amalga oshirishni maqsad qilib olgan. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: *"Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'lga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"*²⁰ degan fikrlari bunga asos bo'la oladi.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori: Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamentlari, O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil qilindi. Hududlarda "Loyihalar fabrikasi" ish boshladi. Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.

Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — "Prezident maktablari", "Temurbeklar maktabi", "Ijod maktablari" bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda.²¹ Yoshlarni qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2023-yil mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb e'lon qilindi.

Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish uchun STEAM ta'limini tatbiq etishdagi ko'zga tashlanadigan **muammolar** quyidagilardan iborat:

- steam tizimini ta'lim jarayonlarida rivojlantirishdagi aniq maqsadning yo'qligi;
- shu maqsadning mexanizmi ishlab chiqilmaganligi;
- tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi adabiyotlarida steam bilan bog'liq o'quv dasturlarining yo'qligi;

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2017-12-23

²¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarori



- universitetdagi yangi innovatsiya va texnologiyalar yaratishga qiziqadigan iqtidorli talabalarni ratsionalizatorlik hamda ixtirochilikka yo`naltiradigan tizimning yo`qligi;

Yechim

- iqtidorli talabalarni kashf etish, ularni qamrab olish uchun turli xil loyihalar, innovatsion yarmarkalar, tanlovlar, ratsionalizatorlar va ixtirochilarning mahorat darslarini tashkil etish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini yo`lga qo`yish, ularga sharoit yaratib berish va rag`batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, universitetda san`at bilan boyigan texnopark tashkil etish;

- tasviriy san`at yo`nalishidagi talabalarni fanlar integratsiyasi bilan amal qiladigan amaliyotning joriy etilishi.

Iqtidorli yoshlarni aniqlash usuli: (qiziqishlari, jamoa bilan birgalikda ishlashi, bugungi va ertangi rejalari, orzu-istaklari va maqsadi)

Tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik grafikasi, san`at hamda matemateka yo`nalishlarida tahsil oladigan, innovatsiyaga qiziqadigan talabalarni aniqlash;

Har sohada kreativ fikrlaydigan va keng dunyoqarashga ega bo`lgan talabalarni aniqlash;

Ko`zlangan natija

- talabalarda kreativ fikrlash boyiydi, yaratuvchanlik hamda ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishi bilan bir qatorda tajriba va malaka oshiriladi;

- yoshlar tomonidan yaratilgan yoki taqdim etilgan suniy intellekt, robotatexnika, 3D modellashtirish, geologiya, matemateka, fizika, kimyo sanoati, qishloq xo`jaligi, talim, sog`liqni saqlash umuman olganda jamiyatga foydasi tegadigan g`oya, tashabbus, amaliy va innovatsion ishlanmalarni keng ommaga ko`rsatiladi;

- aynan steam orqali yoshlarda: ijodkorlik, ishonch, muammoni hal qilish, sabr, diqqatni jamlash, noverbal muloqot, hamkorlik, fidokorlik kabi ko`nikmalarga ega bo`ladi;

- ilm va san`at ahlini birlashtirish asnosida ulkan yangiliklar yaratish mumkinligini anglash imkoniyati paydo bo`ladi;

- qo`shimcha yo`nalishlarga jalb etish hisobiga ta`lim tizimida bitiruvchilarning kasbiy raqobatbardoshligiga erishish;

- zamonaviy talablar asosida tasviriy san`atni o`qitish metodikasi mazmuniga yangi innovatsiyalarni tatbiq etish, mutaxassislarning professional imkoniyatlarini kengaytirish;

- tasviriy san`atni o`qitish metodikasini takomillashtirish, uning boshqa fanlar bilan integratsiyasini mustahkamlash;

- tasviriy san`at o`qitish metodikasi mashg`ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma`ruza (muammoli ma`ruza, ma`ruza-seminar, virtualtexnologik ma`ruza, vizual ma`ruza, ma`ruza-konferensiya, axborotli ma`ruza, ma`ruza bahs-



munozara, sharhlovchi ma'ruza, online ma'ruza) trening, videotrening, internet konferensiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi;

- o'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

- tasviriy va amaliy san'at hamda pedagogika sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida qo'shimcha yo'nalishlar orqali talabalarning kasbiy faoliyati ko'lami kengaytiriladi.

Umumiy xulosalar va tafsiyalar

STEAM - yondashuvi "texnik" va eskirgan tushunchalarni yo'q qiladigan "gumanitar" tafakkur. STEAMning asl maqsadi ta'limga qaratilgan bo'lib, ilm-fan sohasida interaktiv tizimni rivojlantirishdir. Investitsiyalar ta'limda kompyuterlar bilan cheklanib qolmay, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturining infratuzilmasi o'z ichiga oladi. STEAM ta'lim konsepsiyasi yangi emas, ta'lim muassasalari ushbu texnologiyaga o'z yondashuvlarini o'zgartiradi. Texnologiyaga asoslangan o'quv reja, o'rganish ko'nikmalariga e'tibor qaratadi, tafakkurini rivojlantirish, tez o'zgaruvchan dunyo va kelajakdagi ish jarayonlariga tayyorlash. Eski STEAM ta'lim modeli talabalarni texnologiya bilan ishlashga tayyorlagan. Endi u hayotimiz va ishimizning ajralmas qismga aylandi. "Agar biz bugun bolalarga kechagidek ta'lim bersak, demak ularning ertangi kunini o'g'irlaymiz" - degan edi amerikalik faylasuf va pedagog Jon Dyun. Axborotlashtirishning zamonaviy sur'ati, keng tarqalgan raqamlashtirilgan ta'lim va tizimlari ta'limga yondashuvlarni o'zgartiradi. Quyidagi STEAMlar mavjud (STEM, STEAM, STREAM, STEM) mamlakatlar tajribasini tahlil qilganda, STEAM dasturlaridan foydalanishda shunday degan xulosaga kelindi: ushbu ta'lim bilim jihatidan juda qiziqarli va foydalidir, kelajakdagi ko'nikmalarni rivojlantirishda (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik) ahamiyati katta.

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonini, xususan, tasviriy san'at o'quv jarayonini modernizatsiyalash, tasviriy san'atni o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish, rassom-pedagog bo'ladigan mutaxassislar tayorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o'z sohasiga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bunda badiiy ta'lim bosqichlarining o'zaro mazmunan bog'liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash; oliy ta'limda tasviriy san'at o'quv jarayonini tashkil etishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o'quv uslubiy majmualar sifatini ta'minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o'qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo'yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta'limning axborot resurs va zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minotini yanada rivojlantirish; tasviriy san'at



yo`nalishlarida ilg`or xorijiy tajribalarni o`rganish, oliy ta`lim muassasalarida rassom-pedagoglarning faoliyat yo`nalishlari tarkibini belgilaydi. Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki oliy ta`lim tizimini xususan, tasviriy san`at o`qitish metodikasini modernizatsiyalash o`quv jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-289-son qarori;
2. Султанов Х.Э., Бердиев Д.А. Санъат дўстликни мустаҳкамловчи омил // "Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар" халқаро илмий амалий анжуман илмий ишлар тўплами. / II том. Чирчиқ 2019. 443-444 б.
3. Султанов Х.Э., Бойназарова Н.Х., Бердиев Д.А., Мирсоатова Л.Ў., Маматкаримова М.Т. Кластер ҳамкорлигида ижодий фаолиятни ташкил этишнинг ўқувчилар маънавий-ахлоқий тарбиясидаги аҳамияти // "Yangi O'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari / may 1-qism CHIRCHIQ – 2022. 613-620 б.
4. Doston Abduvoitovich Berdiyev Maktablarda tasviriy san`at fanini o`qitishda kelajak ta`limi steam interaktiv ta`limini rivojlantirish // "Science and Education" Scientific Journal/ ISSN 2181-0842 February 2022/ Volume 3 Issue 2 Pages: 687-690
5. Бердиев Достон Абдувоитович, Султанов Хайтбой Эралиевич Тасвирий санъатда кластер ёндашуви сифатида стеам таълимини татбиқ этиш // научный журнал Интернаука/ часть 7. Москва, 2022 № 15(238) - ст 13-14
6. Бердиев Достон Абдувоитович Кластер ҳамкорлигида ташкил этилган тасвирий санъат тўғаракларнинг таълим-тарбия соҳасидаги аҳамияти // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 19–24 p.
7. Султанов Хайтбой Эралиевич, Алимова Нодира Шавкат қизи Zamonaviy ta'limda tasviriy san'atni o'qitish muammolari // INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific online conference (23rd March, 2023) – Canada, Ottawa : "CESS", 2023. Part 13–18 p.
8. Имоматова У. М. Композицияда эскиз бажариш орқали бадиий тасаввурни ошириш // International scientific research conference. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 13-17.



9. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). TASVIRIY SAN'ATNING FANLARARO ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI. *PEDAGOGS Jurnal*, 31(1), 142-148. Retrieved from <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3669>

10. Мирсоатова Лайло Ўткир қизи Тасвирий санъатни ўқитишда кластер ҳамкорлигини йўлга қўйишнинг аҳамияти (Муסיқа ва санъат мактаблари мисолида)// BELARUS, International scientific-online conference, Part 12, March 19th, p:24-27

11. Abduvoitovich B. D. TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 4. – С. 54-58.

**СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7845882>

Халимова Мохигул Рустамовна

*Кокандский государственный педагогический институт
metida@list.ru. Коканд, Узбекистан*

Аннотация: Современный этап развития общества ставит перед системой образования целый ряд новых проблем, обусловленных политическими, социально-экономическими, мировоззренческими и другими факторами, среди которых следует выделить необходимость повышения качества и доступности образования. Увеличение академической мобильности, интеграции в мировое научно-образовательное пространство, создание оптимальных в экономическом плане образовательных систем, повышение уровня педагогической корпоративности и усиление связей между разными уровнями образования.

Ключевые слова: Инновационная деятельность, телекоммуникация, презентация, видеофильм, интерактивный урок, анимация, мультимедиа

Современный этап развития общества ставит перед системой образования целый ряд новых проблем, обусловленных политическими, социально-экономическими, мировоззренческими и другими факторами, среди которых следует выделить необходимость повышения качества и доступности образования. Одним из эффективных путей решения этих проблем является информатизация образования. Совершенствование технических средств коммуникаций привело к значительному прогрессу в информационном обмене. Появление новых информационных технологий, связанных с развитием компьютерных средств и сетей телекоммуникаций, дало возможность создать качественно новую информационно-образовательную среду как основу для развития и совершенствования системы образования.

Инновационная деятельность в образовании как социально значимой практике, направленной на нравственное самосовершенствование человека, важна тем, что способна обеспечивать преобразование всех существующих типов практик в обществе.

Образование – это основа формирования любого цивилизованного общества. Беря своё начало от истоков его формирования, образование, обучение развивалось и совершенствовалось вслед за развитием общественного строя. Поэтому содержание образования должно всё время обновляться, следуя в ногу с наукой и практикой, методы и технологии образовательного процесса должны постоянно совершенствоваться, находя поддержку в практической



деятельности человека, удовлетворяя потребностям государства и социальному спросу.

Термин «Иновация» (нововведение) трактуется как антоним прилагательному «Традиционный», что предполагает выход за пределы типичных, наиболее часто встречающихся совокупностей способов, методов, приемов обучения.

Задачей технологии как науки является выявление совокупности закономерностей с целью определения и использования на практике наиболее эффективных, последовательных образовательных действий, требующих меньших затрат времени.

Иновационные технологии завоевывают сегодня всё большее признание и используются при преподавании различных учебных дисциплин.

В педагогике могут быть использованы следующие иновационные технологии как:

- технологии дифференциации и индивидуализации;
- проектные технологии, предполагающие, организацию урока в форме самостоятельного проектирования учебного материала, который в дальнейшем структурируется и моделируется в определенной форме: графической, знаковой или символической;
- технологии проблемного обучения;
- интерактивные технологии;
- информационные технологии:
 - мультимедиа – уроки, которые проводятся на основе компьютерных обучающих программ;
 - уроки на основе электронных учебников;
 - презентации.

Урок с применением информационно-коммуникационные технологии – это качественно новый тип урока. Учитывая специфику преподавания предмета биологии, возрастные и психологические особенности учащихся, на уроке должно быть много наглядности. Как правило, все таблицы и плакаты с иллюстративным материалом к урокам давно физически и морально устарели, поэтому наличие компьютерных программ, которые могут заменить целый шкаф учебных таблиц, это очень большое подспорье для учителя при подготовке и проведении современных интересных, нестандартных уроков.

Благодаря учебным презентациям, видеофильмам, интерактивным рисункам, анимация усвоение материала происходит быстро, непринужденно, с интересом.

Актуальность применения информационных и коммуникационных технологий (ИКТ):

- качественно новый тип урока (динамика, информативность);
- быстрота получения нужной информации;



- большой спектр наглядных пособий;
- интерес к предмету, качественная проверка знаний учащихся с помощью и тренажеров;
- ускорение учебного процесса благодаря более тесному взаимодействию между учителем и учащимися, желание учащихся отвечать.

В настоящее время появляется все больше и больше новых цифровых образовательных ресурсов. Их применение позволяет сэкономить время подготовки к уроку, выбрать тот материал, который в полной мере позволит понять новый материал, разнообразить проверку и закрепление материала. ИКТ успешно используются на всех этапах урока. Одним из средств достижения высокого результата являются инновационные технологии, т.е. это принципиально новые способы, методы взаимодействия преподавателей и учащихся, обеспечивающие эффективное достижение результата педагогической деятельности.

Инновации (англ. Инноватион - нововведение) - внедрение новых форм, способов и умений в сфере обучения, образования и науки. В принципе, любое социально-экономическое нововведение, пока оно еще не получило массового, т.е. серийного распространения, можно считать инновациями.

Для реализации познавательной и творческой активности школьника в учебном процессе используются современные образовательные технологии, дающие возможность повышать качество образования, более эффективно использовать учебное время и снижать долю репродуктивной деятельности учащихся за счет снижения времени, отведенного на выполнение домашнего задания. Основными образовательными технологиями, которые можно положить в основу изучения биологии, являются:

Технология проблемного обучения – это создание в учебной деятельности проблемных ситуаций и организация активной самостоятельной деятельности учащихся по их разрешению, в результате чего происходит творческое овладение знаниями, умениями, навыками, развиваются мыслительные способности.

Информационно-коммуникационные технологии – это изменение и неограниченное обогащение содержания образования, использование интегрированных курсов, доступ в интернет, интерактивные методы обучения, дистанционное взаимодействие. Технология разноуровневого обучения – даёт учителю возможность помогать слабому, уделять внимание сильному. При данной технологии реализуется желание сильных учащихся быстрее и глубже продвигаться в образовании. Сильные учащиеся утверждают в своих способностях, слабые получают возможность испытывать учебный успех и самореализовываться в рамках своих возможностей, повышается уровень мотивации ученья.



Технология проектных методов обучения. Работа по данной методике дает возможность развивать индивидуальные творческие способности учащихся, более осознанно подходить к профессиональному и социальному самоопределению.

Технология исследовательских методов в обучении дает возможность учащимся самостоятельно пополнять свои знания, глубоко вникать в изучаемую проблему и предполагать пути ее решения, что важно при формировании мировоззрения. Это важно для определения индивидуальной траектории развития каждого школьника.

Лекционно-семинарская система используется в основном в старшей школе, т.к. это помогает учащимся подготовиться к сдаче экзаменов и обучению в ВУЗах. Она дает возможность сконцентрировать материал в блоки и преподнести его как единое целое, а контроль проводить по предварительной подготовке учащихся. Однако данной технологией нельзя злоупотреблять, так как может сделать образовательный процесс малоэффективным: скучным для учащихся, что понижает мотивацию к обучению. Кроме того, большие объемы информации не успевают осмысливаться, а потому плохо запоминаются учащимися. Однако в качестве периодического применения данная технология допустима в современной школе, особенно в сочетании с семинарами на проблемную тематику, когда ученики могут актуализировать и применить полученные знания и умения.

Технология использования в обучении игровых методов. Это могут быть ролевые, деловые и другие виды обучающих игр. Эта технология обеспечивает расширение кругозора, развитие познавательной деятельности, формирование определенных умений и навыков, необходимых в практической деятельности, развитие учебных умений и навыков.

Технология дистанционного обучения - становится всё более и более актуальной в современных школах. Эта технология уравнивает шансы на получение полноценного образования для детей со слабым здоровьем или тех учащихся, которые по различным причинам не могут посещать уроки. Элементы данной технологии можно использовать и для дистанционного общения учителя с учениками при выполнении домашнего задания (индивидуально-консультативная дистанционная методика), при работе над проектом, а также для полноценного обучения при временной нетрудоспособности учеников.

Специфика использования технологий в следующем:

На первом этапе учитель проводит информационный ввод, тем самым отвечает на вопрос «что изучаем и зачем изучаем?»;

организационный ввод, где учитель дает учебную установку, то есть отвечает на вопрос «как?»;

предлагается алгоритм поведения;



учитель обращает внимание на варьирование учебного материала (показывая источники информации для обязательного изучения и ознакомления по выбору);

предлагает учебные и тестовые задания на различных этапах урока; учащиеся имеют возможность оценить свои знания на промежуточном и итоговом контроле.

Инновационная деятельность дает учителю возможность:

профессионального роста;

эмоциональную удовлетворенность;

возможность саморазвития;

организации дифференцированного обучения;

прогнозирование результатов обучения;

ранней диагностики и коррекции учебных результатов.

Ученику дается выбор:

уровня, объема, содержания предметного знания (не ниже стандартного);

информационного источника для усвоения выбранного объема знаний;

способа обучения в соответствии с индивидуальными личностными характеристиками (тип мышления, особенностями памяти);

темпа продвижения по теме, соответствующего личностным характеристикам;

формы, вида и времени контроля и самоконтроля;

партнера для диалогового общения;

В процессе вырабатываются навыки:

самостоятельной деятельности;

коммуникативной деятельности.

По мнению педагогов достоинства инновационных технологий заключаются в следующем.

дают возможность учащимся приобретать прочные и осознанные знания;

развивают самостоятельность в учебной деятельности;

увеличивают время проговаривания учебного материала на уроке;

создают положительный эмоциональный настрой, нет боязни неправильных ответов, чувство уверенности преобладает;

повышается коммуникативная культура;

растет мотивация к дальнейшему образованию;

повышается самооценка ученика;

ЛИТЕРАТУРА:

1. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - С. 3 - 5.



2. Суртаева Н.Н. Педагогические технологии в реализации гуманистической концепции образования // Химия в школе. - 1997. - № 7. - С. 17.

O'simliklarni himoya qilish qishloq xo'jaligi entomologiyasi, fitopatologiya, botanika, mikologiya, bakteriologiya, virusologiya, ekologiya, biosenologiya, kimyo, biokimyo, hayvonlar va o'simliklar fiziologiyasi, fizika, biofizika, genetika, selektsiya, toksikologiya va boshqalar fanlar ma'lumotlariga asoslanadi. O'simliklarning zararkunanda va kasalliklari, begona o'tlar ekinlarga, xususan, hosilga katta zarar yetkazadi. Shu sababli qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda, ularni saqlab qolishda O'simliklarni himoya qilish muhim rol o'ynaydi. Zararkunanda va kasalliklarning o'simliklarga yetkazadigan zarari qadimdan ma'lum. 18-asr boshlarida o'simlik kasalliklarini tasniflashga frantsuz botaniki J.Turnefor urinib ko'rdi. 18-asrning 2-yarmida ko'pchilik kasalliklarning yuqumliligi tajribalar asosida isbotlandi (Rossiyada A.T.Bolotov, Frantsiyada A.Tillet, Italiyada F.Fontana, Daniyada Ya.Fabrisius va boshqalar). 18-asrning 2-yarmida nemis olimi A. de bari, rus olimi M.S.Voronin va boshqalar tomonidan fitopatogen zamburug'larning yangi turlari, ularning morfologiyasi, rivojlanish xususiyatlari aniqlanadi. 19-asrning 2-yarmida o'simlik zararkunandalari hamda kasalliklarining bir qancha mamlakatlar iqtisodiyotiga yetkazgan zarari ularni o'rganish va ularga qarshi qurash tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etdi. 19-asr oxiri — 20-asr boshlarida fitopatogen zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar, nematodalarning minglab turlari kashf qilindi. Asosiy zararkunandalarning turlari biologiyasi va fiziologiyasi o'rganildi; zararli organizmlarga qarshi kurash choralari takomillashtirildi. Turkistonda O'simliklarni himoya qilish bo'yicha dastlabki ilmiy asoslangan usullar 1898 yilda Chigirtkaga qarshi kurash qo'mitasining taklifiga ko'ra ishlab chiqilgan. 1911 yilda Toshkentda Turkiston entomologiya stansiyasi tashkil etildi, g'o'za, qand lavlagi zararkunandalarini o'rganish va ularga qarshi kurash choralari qo'llanildi. 1925 yilda Turkiston entomologiya stansiyasi O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish stansiyasiga aylantirildi va shu bilan bir vaqtda Shirabudin (Buxoro viloyati) va Xiva qishloq xo'jalik tajriba stansiyalarida O'simliklarni himoya qilish bo'limlari ochildi. 1929 yilda Bosh paxta komiteti O'zbekiston O'simliklarni himoya qilish stansiyasining bir necha bo'limlarini birlashtirib, g'o'za zararkunandalarini o'rganish uchun maxsus stansiya barpo etdi; keyinchalik bu stansiya Butunittifoq paxtachilik ilmiy tekshirish instituti (soyuznixi)ning O'simliklarni himoya qilish Markaziy stansiyasiga aylantirildi. 1957 yilda Soyuznixi Markaziy stansiyasi asosida hozirgi O'zbekiston o'simliklarni himoya qilish instituti tashkil qilindi.



ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Furqatovich B. S. OSIMLIKLARNING KOPAYISHI OSIMLIKLARNING JINSIY KOPAYISH EVALIYUSIYASI //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 245-246.
2. Akbarovna A. D. et al. MOYLI OSIMLIKLARNING TUZILISHI, KIMYOVIY TARKIBI VA TABOBATDAGI AHAMIYATI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 240-250.
3. Djumadullayevna I. N. O'SIMLIKLAR HUYAYRASINI TUZILISHINI O'RGANISHDA TUZILISHINI AMALIY MASHG'ULOTLAR O'TKAZISH //Scientific Impulse. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 721-728.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846303>

Sobirova Nigora Qodirjon qizi

Namangan davlat universiteti

Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o'qitish metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirish masalalari, nutqdagi kamchiliklar, ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan o'qituvchi, mutaxassislarning hamkorlikda ish yuritishlari, o'quvchining nutqida uchraydigan kamchiliklarni oldini olish va rivojlantirish borasida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *nutq, og'zaki va yozma nutq, nutq kamchiligi, nutq tovushlari talaffuzi, so'z boyligi, ifodali nutq*

РАЗВИТИЕ РЕЧИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы развития речи, также, говорится о недостатках которые часто встречаются в речи школьников, сотрудничество педагогов общеобразовательных учреждений по исправлению этих недостатков. Рассмотрены вопросы и предложения по коррекции недостатков в речи учащегося.*

Ключевые слова: *речь, устная и письменная речь, дефект речи, речевые недостатки, речево-звуковые произношения, словарный запас, выразительная речь.*

SPEECH DEVELOPMENT IN PRIMARY SCHOOL CHILDREN

Annotation: *The article discusses the issues of speech development, also talks about the shortcomings that are often found in the speech of schoolchildren, cooperation of teachers of educational institutions to correct these shortcomings. The questions and suggestions for correcting deficiencies in the student's speech are considered.*

Key words: *speech, oral and written speech, speech defect, speech defects, speech-sound pronunciation, vocabulary, expressive speech.*

Zamonaviy o'qituvchining oldida barkamol, faol, ijodiy fikrlay oladigan shaxs kamol toptirishdek vazifa turibdi. Shuning uchun ham o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olish va ularni to'g'rilash uchun o'qituvchi va logoped o'rtasidagi doimiy munosabat zarur. Logopedning vazifasi nutq nuqsonlarini bartaraf etish va bolaning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishdir.



O'z navbatida, o'qituvchi o'quv jarayonida o'quvchining nutqini rivojlantirishni doimiy amalga oshirib boradi. logopediya ishi jarayonida o'zlashtirilgan nutq qobiliyatlariga tayaniladi. Logoped va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar butun bir qator komponentlardan iborat bo'lib, ulardan biri ta'lim sifatini nazorat qilishdir. Monitoring - pedagogik faoliyatning har qanday obykti yoki hodisalarini uzoq vaqt davomida kuzatish. Pedagogik monitoring - o'quvchilarning fan bo'yicha bilimlarini muhim elementlar bo'yicha tahlil qilish, kuzatishlar, o'quv jarayoni holatini baholash va natijalarni solishtirish. Bolalar quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiriladi:

- nutqning sensorli darajasini o'rganish;
- tilni tahlil qilish ko'nikmalarini o'rganish;
- nutqning grammatik tuzilishini o'rganish;
- lug'at va so'z yaratish ko'nikmalarini o'rganish;
- muvofiq nutqni o'rganish;
- yozish va o'qish qobiliyatlarini o'rganish.

Quyida siz bilan bir qator metodlarni amalda qo'llab, natijalarni ko'rib chiqamiz. Biz syujetli hikoyani qayta hikoya qilish matnli bayonot shaklini tanladik. "Ixtirolar sarguzashti" kitobidan berilgan matnni idrok etish va taqdim etilgan matnni takrorlash jarayonining mazmuni tahlil qilindi. Taklif qilingan ma'lumotni tushunish, bolaning qayta aytib berishni dasturlashi, mavjud leksik ma'nodan to'g'ri foydalanish qobiliyati, nutq faolligi kuzatildi. Tushunish nutq jarayonining eng muhim jihati sifatida qaraldi, chunki bu qobiliyat aloqani amalga oshirishni ta'minlaydi. Maqsad kichik yoshdagi o'quvchilar nutqining ushbu jihatlarni har birining shakllanish darajasini aniqlash edi. Bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun nutqni rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichlari sifatida nutqning o'ziga xos jihatlarni ajratib ko'rsatish imkoniyatini ham nazarda tutish lozim. Qayta hikoya qilish boshlang'ich sinflarda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishni nazorat qilishning yetakchi shakllaridan biridir. Shuni nazarda tutgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarga syujetli matn taqdim etildi. Matn bir qator mavzularga bo'lingan, uning ketma-ketligi hikoyaning voqealar rivojini tashkil etgan va ularsiz matn umuman o'z ma'nosini yo'qotadi.

Matn o'qilib, tahlil etildi va turli qismlarga bo'lib talqin etildi. Turli savol va javoblar amalga oshirilib, mavzu mustahkamlandi. Qayta hikoya usulida matn xotirada mustahkamlandi. Bolalarga matnni iloji boricha batafsil aytib berish kerakligi haqida ko'rsatma berildi. Agar bola qayta aytib berishda qiynalsa, unga birinchi ibora o'qildi yoki kerak bo'lsa, butun matn takrorlandi. Shular orqali bilimlar shakllantirildi. Bundan tashqari, agar kerak bo'lsa, qayta hikoya qilish paytida unga maslahatlar berildi yoki hikoya syujetini rivojlantirishni davom ettirishga yordam beradigan savollar berildi. Qabul qilingan qayta hikoya qiluvchi matnlar uchun asl matnni tahlil qilish natijasiga asoslanib sxemalar tuzildi. Ushbu metoddan normal nutq rivojlanishiga ega bo'lgan bolalar nutqini o'rganish uchun foydalanildi.

Nutqni rivojlantirish uchun quyidagi o'yinlardan foydalandik:



1. "Ertaklar qutisi". Qutida rangli doiralar mavjud. O'qituvchi qopqoqni ochadi va bolalar: "Bir, ikki, uch! Qani, ertak, chiq! Ular navbatma-navbat aylanalarni chiqaradilar va ular jonli obrazlarga aylanadi. Ranglarni turli obraz shaklida ifodalab, ertaklar tuzadilar.

2. "Meni tani" o'yini. Bu o'yin turida o'qituvchi bir nechta o'quvchilarga mavzuga taalluqli turli xil rasmlar beradi. Ular rasmda tasvirlangan predmetlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishlari va uning tavsifini berishlari kerak: rangi, materiali, shakli, qismlari, nima uchun, nima yeyishi, qayerda yashashi va hokazolar. Qolgan o'quvchilar nima muhokama qilinganini taxmin qiladilar, to'g'rilaydilar, aytilganlarni to'ldiradilar.

3. "Bo'ladi – bo'lmaydi" o'yini. Bu o'yin turida bolalar turli jummalarni o'ylab topadilar: Yozda qor yog'di; Poyezd soat 12 da uchadi; Bo'ri daraxtga chiqdi. Sinf bir ovozdan aytadi: bo'ladi yoki bo'lmaydi.

4. "Nima yaxshi va nima yomon?" o'yini. Sinf ikki jamoaga bo'linadi. O'qituvchi tanlangan elementni ko'rsatadi. Bolalarning bir guruhi uning fazilatlarini, ikkinchisi esa kamchiliklarni izlaydi. Bunday musobaqa bolalar uchun juda qiziqarli.

5. "Biror narsa yozing" o'yini. Bu o'yin turida turli buyumlar: shar, tayoq, shokolad qutisi, bo'sh qalam quti va hokazolar uchun 10 ta yana qanday maqsadda foydalanish mumkinligini o'ylab toping topshirig'i berilib, fikrlar tinglanadi.

6. "Ma'noni saqlab, shaklni o'zgartiring" o'yini. O'zbek tilidagi har qanday iborani boshqacha aytish mumkinligi barchamizga ayon. Bu o'yin turida ham o'quvchilar berilgan ma'lum gap va ifodalarni ma'nosini saqlab, shaklini o'zgartirib aytishlari kerak bo'ladi. Masalan, Sharros yomg'ir yog'yapti. Tabiat hodisasi bo'lgan yomg'ir kuchli yog'ib yotibdi.

7. "Poyezdni yig'ing" o'yini. Duskada rasmlar bor. Ularda turli xil narsalar bor: qoshiq, changyutgich, vaza, plastinka, sug'orish mashinasi va boshqalar. Rasmlar "vagonlar" bo'lib, ular birin-ketin joylashtirilishi kerak, shunda bir-birining yonida turgan "vagonlar" o'rtasida qandaydir bog'liqlik ko'rsatilishi kerak. Sinf poyezdni "yig'adi": ular qoshiq orqasiga idish-tovoq, likopchani va plastinka orqasiga vaza qo'yishadi, chunki ular chinnidan qilingan. Sug'orish mashinasi keyinga o'tadi, chunki suv vaza ichiga va sug'orish mashinasiga quyiladi. Sug'orish mashinasining orqasida changyutgich bor, chunki ular mashinalar bo'lib, chang va kirni tozalashga xizmat qiladi.

8. "Estafeta – hikoya" o'yini. Ikki jamoa orasida estafeta poygasi: kim ma'lum vaqt davomida jamoaviy hikoyani muvaffaqiyatli yoza olsa, shu g'olib bo'ladi. O'yinning har bir ishtirokchisi allaqachon yozilgan gapga faqat 1-2 ta jumla qo'shish huquqiga ega. Hikoyaning mavzusi o'qituvchi, yoki o'quvchilar tomonidan belgilanadi.

9. "Men boshlayman, siz esa davom eting ..." o'yini. Duskaga ikki misra she'r yozilgan. Bolalar mustaqil ravishda ma'lum vaqt davomida boshlangan ijodiy ishni davom ettirishlari kerak bo'ladi.



10. "Bir so'z ayt" – bunda o'qituvchi biror ibora va ifodani aytadi va bola uni tugatadi. Masalan: xo'roz qichqiradi, chumchuq esa ... (sayraydi). Boyqush uchadi, quyon esa ... (sakrab, yuguradi). Sigirda buzoq bor, otda esa ... (toychoq) bor.

Mashqning maqsadiga qarab nutqni qizdirishning bir necha turlari ajratiladi:

1) savol-javob, 2) o'yin dialogi, 3) xayoliy vaziyat. Biz har bir turning tavsifini beramiz.

Ma'lumki, ko'plab olti yoshli bolalar savollarga qanday javob berishni bilishmaydi. Bu, mening fikrimcha, bolaning ularni shakllantirishga qodir emasligi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, maktabda o'qitish savollarni o'quvchi emas, balki o'qituvchi tomonidan shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutqiy muloqotni shakllantirish metodlarimizdan birinchi turi "So'rang - men javob beraman" deb nomlangan. Albatta, bolalar dastlab mavzu bo'yicha savollar berishlari qiyin. Shuning uchun, o'qitishning birinchi bosqichlarida o'qituvchi topshiriqni juda umumlashtirilgan shaklda taqdim etmasligi kerak.

Vazifani aniqlashtirish, uni bolalar tajribasiga yaqinlashtirish kerak. Masalan: - Maktabdan kelganingizda buvingiz sizdan nimani so'raydi - deb o'qituvchi so'raydi. Bolalarning javoblari: Bugun maktabda nima qiziqarli bo'ldi? Qanday qiziqarli narsalarni bilib olding? Bugun o'qituvching sendan uyga vazifalarni so'radimi? O'zingni qanday his qilding?

Yoshga bog'liq o'yinga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, ushbu turdagi mashqlarni o'yin shaklida bajarish mumkin. Masalan, o'qituvchi stolga turli xil narsalarning rasmlarini qo'yadi. Chaqirilgan o'quvchi bitta rasm tanlaydi. Qolgan o'quvchilar rasmda nima ko'rsatilganligini taxmin qilishga harakat qilishadi. Duskada turgan o'quvchi aniq "ha" yoki "yo'q" deb javob berishi mumkin bo'lgan savollarni berishadi. Ushbu o'yin savolni aniq shakllantirishni o'rgatadi.

O'quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so'z zahirasini o'z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining faoliyat jarayonining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqi) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi bolaning nutqini rivojlantiruvchi va har jihatdan mukammal egallashiga yordam beradigan metod va ish turlarini qo'llay olsa, u holda sezilarli natijaga erishadi. O'qituvchi o'z nutqining bolalarga qanday ta'sir etayotganini kuzatishi, tushunarli va qiziqarli bo'lganini hisobga olishi kerak. Agar bolalar darsga e'tiborsiz o'tirsalar, demak, o'qituvchi nutqining ta'sir kuchi kam.

O'qituvchining mahorti shundaki, u o'zining yoqimli nutqi bilan bir butun jamoaga ta'lim-tarbiya beribgina qolmay, balki ularni yuksaklikka intilishga chorlashi kerak. Yuqorida keltirilgan ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish



bilan birga bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlash, nutq o'stirishga yo'naltirilgan har bir mashg'ulotni qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ravon nutqni egallash; adabiy til normalarini o'zlashtirish; jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish; o'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish kabi qator aspektlari mavjud ekan.

Shuningdek, nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratilar ekan:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismoilov O.A, Nazarov Sh.Q. Ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalar, Toshkent-2012
2. Matchonov S., G'ulomova X. Nutq madaniyati. T. 2000. ¹: 6.
3. Mavlonova R., Raxmonqulova R.X.. "Boshlang'ich ta'limda innovatsiya" metodik qo'llanma TDPU 2007
4. Mingboyev U.X. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Ped. fan. falsafa doktori (PhD) – Toshkent: 2019.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009.
6. Qodirova F.R., Qodirova R.M. –Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi .T., –Istiqlol, 2006.



ОДАМ САВДОСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИНГ ЖИНОЙИ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846831>

Отакулов Ниёзбек Анвар ўғли

*Ўзбекистон Республикаси ИИБ Академияси,
Тезкор-қидирув фаолияти кафедраси ўқитувчиси*

Аннотация: *Мазкур илмий мақолада одам савдосига қарши курашувчи давлат органларининг тизими, вазифалари ва улар фаолиятининг ҳуқуқий асослари шунингдек, ушбу соҳада халқаро ташкилотлар билан амалга ошириладаган ҳамкорликдаги чора-тадбирларга оид масалалар ва унинг натижасида таклифлар бериб ўтилган.*

Калит сўзлар: *одам савдоси, одам савдоси билан шуғулланувчи шахс, одам савдосига қарши курашиш, одам савдоси жиноятларининг жабрланувчиси, одамларни олиш-сотиш, одам савдосига қарши курашиш бўйича давлат органлари.*

УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТОРГОВЛЕЙ ЛЮДЬМИ

Отакулов Ниёзбек Анвар ўғли

*преподаватель кафедры Оперативно-розыскного права
Академии Министерство внутренних дел Республики Узбекистан.*

Аннотация. *В данной научной статье были приведены система, задачи и правовые основы деятельности государственных органов по борьбе с торговлей людьми, а также вопросы, связанные с мерами сотрудничества, реализуемыми с международными организациями в этой сфере и предложениями по его результатам.*

Ключевые слова: *торговля людьми, лицо, занимающееся торговлей людьми, противодействие торговле людьми, жертва преступлений, связанных с торговлей людьми, купля-продажа людей, государственные органы по противодействию торговле людьми.*

Atakulov Niyazbek Anvar ugli

*lecturer at the department of operative-investigative law
of the Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan.*



CRIMINAL-LEGAL ASPECTS OF CRIMES RELATED TO HUMAN TRAFFICKING

Abstract. *In this scientific article, the system, tasks and legal bases of the state bodies fighting against human trafficking, as well as issues related to cooperation measures implemented with international organizations in this field, and suggestions as a result of it were given.*

Key words: *human trafficking, person engaged in human trafficking, combating human trafficking, victim of human trafficking crimes, buying and selling people, state authorities for combating human trafficking*

Ўзбекистон Республикасида инсон ҳуқуқларини таъминлаш мақсадида давлат бошқаруви ва суд-ҳуқуқ тизимини либераллаштириш ҳамда жамият ҳаётини янада демократлаштиришга йўналтирилган ислоҳотлар изчиллик билан амалга оширилмоқда. Мазкур ислоҳотларни муваффақиятли амалга оширилиши кўп ҳолларда жамиятнинг ҳавфсизлик ва барқарорлик шартларига боғлиқ. Жамиятни модернизация қилиш жараёнида турли салбий ҳодисалар пайдо бўлиши ва ривожланишига салбий таъсир кўрсатиши табиий ҳол ҳисобланади. Айнан шундай салбий иллатлардан бири бу одамлар савдосидир.

Одам савдоси билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш ва унга қарши курашишда одам савдоси, одам савдоси билан шуғулланувчи шахс, одам савдосига қарши курашишга доир фаолиятни бевосита амалга оширувчи давлат органлари ва бошқа асосий тушунчалар тўғрисида маълумотга эга бўлишимиз лозим.

Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 17 августдаги “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддасида “одам савдоси – куч билан таҳдид қилиш ёки куч ишлатиш ёхуд мажбурлашнинг бошқа шакллари билан фойдаланиш, ўғирлаш, фирибгарлик, алдаш, ҳокимиятни суистеъмол қилиш ёки вазиятнинг қалтислигидан фойдаланиш орқали ёхуд бошқа шахсни назорат қилувчи шахснинг розилигини олиш учун тўловлар ёки манфаатдор этиш эвазига оғдириб олиш йўли билан одамлардан фойдаланиш мақсадида уларни ёллаш, ташиш, топшириш, яшириш ёки қабул қилиш. Одамлардан фойдаланиш бошқа шахсларнинг фоҳишалигидан фойдаланишни ёки улардан шахвоний фойдаланишнинг ўзга шакллари, мажбурий меҳнатни ёки хизматларни, қулликни ёхуд қулликка ўхшаш одатларни, эрксизлик ҳолатини ёхуд инсон аъзоларини, тўқималарини ва (ёки) хужайраларини ажратиб олиш” тушунчаси келтирилган[1].

Одам савдоси – одамни олиш-сотиш, ёхуд одамни ундан фойдаланиш мақсадида ёллаш, ташиш, топшириш, яшириш ёки қабул қилиш тушунчасини англатади[2].



Одам савдосига қарши курашиш – одам савдосининг олдини олиш, уни аниқлаш, унга чек қўйиш, унинг оқибатларини минималлаштириш, одам савдосидан жабрланганларга ёрдам кўрсатиш бўйича фаолият ҳисобланади.

Одам савдосига қарши курашишга доир фаолиятни бевосита амалга оширувчи давлат органлари қуйидагилардан иборат:

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги;

Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси;

Ўзбекистон Республикаси Давлат хавфсизлик хизмати;

Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги;

Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги, Ўзбекистон Республикасининг хориждаги дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари;

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги.

Шунингдек, одам савдосига қарши курашишга доир фаолиятни қонунчиликка мувофиқ бошқа давлат органлари ҳам амалга ошириши мумкин.

Одам савдосининг юртимиз тараққиёти ва жамият учун хавфлилиги нафақат унинг ҳозирги кунда дунё мамлакатлари, балки давлатимизда яшаётган фуқароларнинг ҳаёти, соғлиғи ва эркинлигига таҳдид солаётгани ҳамда бунинг натижасида юзага келувчи салбий оқибатлар билан ҳам изоҳланади.

Одам савдоси ўғирлаш, зўрлик ишлатиш ёки зўрлик ишлатиш билан қўрқитиш, мажбурлашнинг турли усулларида, шунингдек хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда, жабрланувчини Ўзбекистон Республикаси давлат чегарасидан олиб ўтиб, чет элда қонунга хилоф равишда ушлаб туриш, қалбаки ҳужжатлардан фойдаланган ҳолда, жабрланувчининг шахсини тасдиқловчи ҳужжатларини олиб қўйиш, яшириш ёки йўқ қилиб юбориш ҳаракатларини ўз ичига олади[3].

Одам савдоси жиноятларини содир этиш элементлари – ёллаш, олиб ўтиш, сотиш ва эксплуатация қилишдан иборат.

Ёллашга хос бўлган белгилар катта маош тўланадиган ишга ёлғон ваъдалар, йўл харажатлари учун барча хизматларга тўловлар, ишончига кириб алдаш, шахснинг ижтимоий заиф ҳолатидан фойдаланиш ва бошқалар.

Жабрланувчиларни олиб ўтиш йўллари давлат чегараларидан ташқарига ёки давлатнинг ичида бир жойдан иккинчи жойга олиб ўтиш, қонуний ёки ноқонуний йўللاردан фойдаланиш, давлат чегараларидан қалбаки ёки ҳақиқий ҳужжатлар билан олиб ўтиш ва бошқалар.

Сотиш ёки сотиб олиш жараёни пул тўлаш ёки имтиёз ва фойда кўриш мақсадида, бир шахс устидан бошқа шахс ўрнатган назоратга эга бўлишдан иборат.

Эксплуатация ҳолатлари меҳнат қилишга ёки хизмат кўрсатишга мажбурлаш, қарамликка олиб келувчи қарздорлик, ҳужжатларни ўзлаштириш



орқали ҳуқуқларини чеклаш ва поймол қилиш, эркин ҳаракатланишни чеклаш, жисмоний ва руҳий зўрлик ишлатиш, тобелик ҳолати, жабрланувчининг яқинларига нисбатан товламачилик ва турли таҳдидлар қилиш ва бошқалар.

Эксплуатация кўринишларига ишлаб чиқариш, фабрика ва корхоналарда мажбурий меҳнат, қишлоқ хўжалигида меҳнат, уй-рўзғор ишлари, шахвоний хизматлар, мажбурий тиламчилик, мажбурий донорлик, мажбурий никоҳ, сунъий оналик, мажбурий бола туғиш ва бошқалар киради.

Одам савдоси билан боғлиқ жиноятларнинг жабрланувчиси деганда жиноят объектининг факультатив белгисидир. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси 135-моддаси диспозициясининг мазмунига кўра, жинси (аёл, эркак) ва фуқаролиги (Ўзбекистон Республикаси фуқароси, чет эл фуқароси, фуқаролиги бўлмаган шахс)дан қатъи назар, одам савдосидан маънавий, жисмоний ёки мулкӣ зарар кўрган ҳар қандай инсон ушбу жиноятнинг жабрланувчиси ҳисобланади.

Одамни олиш-сотиш деганда, иккита тараф (сотувчи ва харидор) ўртасида тузилган жинойӣ келишувга кўра, сотувчи жабрланувчини харидорнинг эғалигига бериши, харидор эса жабрланувчини қабул қилиши ва унинг учун келишилган миқдордаги ҳақни тўлаши тушунилади[4].

Одамни эксплуатация қилиш мақсадида ёллаш деганда, инсонни эксплуатация қилиш мақсадида уни муайян ишни бажариш ёки хизматни кўрсатиш ёки (ноқонуний) фаолият тури билан шуғулланиш ёхуд (фаолияти қонун билан тақиқланган) ташкилот таркибига жалб этишга қаратилган хатти-ҳаракатлар (қидириш, танлаш, таклиф қилиш, қизиқтириш, розилигини олиш, тўплаш, жўнаб кетишга тайёрлаш, ҳужжатларини тўғирлаш ва эксплуатация жойига юбориш) тушунилади.

Одамни эксплуатация қилиш мақсадида ташиш деганда, эксплуатация қилиш мақсадида жабрланувчини бир ҳудуд (яшаш жойи ёки бошқа жой)дан бошқа бир ҳудуд (олиш-сотиш битими тузиладиган ёки бошқа шахсга топшириладиган ёхуд эксплуатация қилинадиган жой)га ҳар қандай транспорт воситасидан фойдаланиб, ер усти, ер ости, ҳаво ва сув йўллари орқали, ошкора ёки хуфиёна равишда, сотувчи ёки харидор ёхуд учинчи шахс томонидан етказиб берилиши ёки уни транспортда ташиб ўтилишини ташкил қилиниши тушунилади.

Одамни эксплуатация қилиш мақсадида топшириш деганда, эксплуатация қилиш мақсадида жабрланувчини бошқа шахсга ҳақ эвазига ёки бепул, бугунлай ёки муайян муддатга жисмоний тарзда беришнинг сотишдан ташқари исталган шакли тушунилади.

Одамни эксплуатация қилиш мақсадида қабул қилиш деганда, эксплуатация қилиш мақсадида жабрланувчини ҳақ эвазига ёки бепул, бутунлай ёки муайян муддатга айбдорнинг тасарруфига олинишининг сотиб олишдан ташқари исталган шакли тушунилади. Одамни қабул қилиш



жабрланувчини топширишга жавобан амалга ошириладиган ҳаракатларни назарда тутати. Бунда битимнинг биринчи иштирокчиси (топширувчи)да жабрланувчига эгалик қилиш ва уни эксплуатация қилиш имконияти яқунланади, жабрланувчига эгалик қилиш ва уни эксплуатация қилиш имконияти битимнинг иккинчи иштирокчи (қабул қилувчи)да пайдо бўлади.

Одамни эксплуатация қилиш мақсадида яшириш деганда, эксплуатация қилишга мўлжалланган ёки эксплуатация қилинаётган жабрланувчини бекитиш учун турар жой, бино ёки бошқа жойни тақдим этиш ёки уни иродасига қарши жисмонан бекитиб сақлаш ёхуд уни топишни қийинлаштирадиган бошқа ҳаракатларни содир этиш тушунилади.

Одам савдосига қарши самарали курашишни таъминлаш, одам савдоси билан шуғулланувчи шахсларнинг жиноий фаолиятини аниқлаш ва унга чек қўйиш, одам савдосидан жабрланганларни идентификация қилиш ҳамда мазкур йўналишдаги бошқа маълумотларнинг марказлаштирилган ҳисоби Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги томонидан ягона марказлаштирилган ахборот базасини шакллантириш ва юритиш орқали амалга оширилади[5].

Шунингдек, одам савдосига қарши курашиш юзасидан амалга ошириладиган чора-тадбирларни таҳлил қилиш, баҳолаш, мониторинг қилиш ва самарадорлигини ошириш, ушбу соҳадаги жиноятларни аниқлаш, тафтиш қилиш, олдини олиш ва уларга чек қўйиш амалиётини ўрганиш.

Ушбу жараённинг яна бир жиҳати шундаки, сўнгги йилларда шахсларнинг ижтимоий тармоқлар орқали мулоқот жараёнининг янада кенгайишини ҳам одам савдоси билан боғлиқ жиноятларнинг юзага келиш омилларидан бири сифатида кўриш мумкин. Бу борада тадқиқотчи А.А. Таштемиров: “ҳар қандай ҳолатда ижтимоий тармоқ орқали кечадиган маълумот алмашинув жараёнида шахсий, молиявий ёки ёлғон (тасдиқланмаган манбага эга) ахборотларни алмашинуви бўйича ўз-ўзини ҳимоялаш кўникмасини шакллантириш” зарурати мавжудлигини таъкидлайди[6].

Одам савдосига қарши курашиш соҳасида турли халқаро ташкилотлар билан самарали халқаро ҳамкорлик ва баҳамжиҳат ҳаракатни ташкил этиш, мазкур соҳада турли ахборотларни йиғиш, таҳлил қилиш ҳам асосий вазибалардан ҳисобланади.

Албатта, жиноятчиликка қарши курашиш фаолияти ҳар бир давлатда унинг салоҳияти, имконияти, мазкур вазибани амалга оширишнинг давлат томонидан қонунчиликда белгилаб қўйган ҳимоя тизими ва бошқа шу каби кўплаб омиллар асосида фарқланиши кузатилади. Шу сабабли ҳар бир давлат тажрибасини ўрганиш, ўзига хос жиҳатларини таҳлил этиш ва миллий тизимга тадбиқ этиш ушбу соҳада, яъни жиноятчиликка қарши курашишда ижобий характерга эга бўлган жиҳат ҳисобланади. Ушбу хулосани тадқиқотчи, А.А. Таштемировнинг: “... ҳуқуқбузарликларининг олдини олишда амалга ошириладиган чора-тадбирларнинг самарали бўлишини таъминлаш, олдини олиш чораларини



такомиллаштиришда илғор хориж тажрибасини ўрганиш, жиноятчиликка қарши курашда самарали тизимни яратишда улардан унумли фойдаланиш ва бу изланишларнинг узлуксиз ва давомийлигини таъминлаш бугунги жиноят оламида содир этилаётган қонунга зид хатти-ҳаракатларнинг ўз вақтида олди олинишини, бартараф этилишини таъминловчи асосий воситалардан бири ҳисобланади”, - деган фикрларида ҳам кўриш мумкин[7].

Олиб борилган изланиш натижаларига таянган ҳолда мамлакатимизда одам савдоси билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш, бундай ҳодисаларнинг оқибатларини бартараф этиш, хусусан, аҳоли ўртасида одам савдоси жабрланувчиларини камайтиришга қаратилган қуйидаги таклифлар ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

- ҳуқуқий маданиятни шакллантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш. Хусусан, таълим ва тарбиянинг ҳуқуқий таркибий қисмининг кенгайтиши. Ўз ҳуқуқ ва эркинликларини билиш ёш авлоднинг бошқаларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларига, шу жумладан уларнинг ҳаёти, соғлиғи ва кадр-қимматига ҳурмат туйғусини ривожлантиришга ёрдам беради;

- аҳолининг ижтимоий ва моддий хавфсизлиги даражасини ошириш, ёш мутахассисларни иш билан таъминлашда ёрдам бериш, улар учун уй-жой дастурларини қўллаб-қувватлаш;

- одам савдосига қарши курашиш субъектлари томонидан профилактик чора-тадбирлар режасини ишлаб чиқиш, хорижий тажрибани ўрганган ҳолда такомиллаштириб бориш;

- мавжуд норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар базасини халқаро тажрибани ўрганган ҳолда такомиллаштириб бориш лозим.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Одам савдосига қарши курашиш тўғрисида”ги 2020 йил 17 август ўрқ-633-сон қонуни // электрон манба: <http://www.lex.uz>. (мурожаат вақти:б 30.03.2023).

2. Одам савдосига қарши курашда ички ишлар органлари соҳавий хизматларининг фаолияти / Маъсул муҳаррир О.Камолов, А.Хамдамов, М.Холхўжаев ва бошқ.; Маъсул муҳаррир ю.ф.д И.Й.Фазилов. Ўқув-қўлланма: - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. - 39-б. Б.5.

3. Tashtemirov A.A. Noqonuniy migratsiya va odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash taktika va metodikasi: O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2022. - 105 b.

4. Одам савдосига қарши курашишнинг ҳуқуқий чоралари: Ўқув-амалий қўлланма / Маъсул муҳаррир Ш.Т.Икрамов. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. - 80-б. Б.7.



5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Одам савдоси соҳасидаги жиноятлар тўғрисидаги маълумотларнинг ягона ахборот базасини юритиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 2021 йил 22 ноябрь 780-сон қарори // электрон манба: [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz). (мурожаат вақти:б 30.03.2023).

6. Таштемиров, А.А. (2023). Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари. *Models and methods for increasing the efficiency of innovative research*, 2(21), 24-31.

7. Таштемиров А.А. Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинланадиган жазо тизимининг ўзига хослиги //EurasianJournalofLaw, FinanceandAppliedSciences. – 2022. –Т. 2. –No. 10 Special Issue. –С. 42-48.



ARABCHA KO'PLIK SHAKLLARINING O'ZBEK TILIDA QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7846917>

Lutfinisa Dexkanova

*Guliston davlat universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası
katta o'qituvchi
dexkanova65@umail.uz*

Annotatsiya. *Mazkur maqola o'zbek tilshunosligi terminlarida arabcha ko'plik shaklidagi so'zlarning qo'llanilishi, termin o'rtasidagi aloqadorlik masalalari, tilshunoslik terminlarining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarga bag'ishlanadi.*

Kalit so'zlar: *ulamo, a'mol, a'fol, maloika, Mashoyix, fuqaro, avliyo, sahoba, rusum, inshoot, aqvom, arbob, hudud, asbob, arvoh.*

Ma'lumki, o'zbek tili leksik boyligini shu tilning o'ziga xos leksik qatlami bilan birga o'zlashgan qatlam ham tashkil qiladi. Xalqlar o'rtasida turli sohalardagi o'zaro aloqalar u yoki bu xalqning tillariga ta'sir ko'rsatgan. Bir tilga xos bo'lgan fonetik, leksik va boshqa elementlar ikkinchi tilga o'tib, o'zlashib ketgan. O'zbek xalqi xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqada bo'lganligi, boshqa tillardan o'zbek tiliga ham ko'plab so'zlarning o'zlashuviga olib keldi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tili lug'at sostavida o'zlashgan leksik qatlamni vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Buni arab tili misolida ko'rib chiqamiz.

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida arab tiliga xos bo'lgan ko'plik qolipdagi so'zlari keng iste'moldadir. Masalan, *olim – ulamo, rab – arbob, sabab – asbob, asl – usl, asar – asor, faqir – fuqaro, amal – a'mol, xulq – axloq, had – hudud* va h.k. Masalan, "*Ulamoning fasodi ta'm bila va fuqaroning fasodi riyo birla*" ("Nasoyim ul-muhabbat" 85-bet).

"Bu toifaning a'mol va a'fol va muomilot va riyozotdin va ba'zini zikr qilmoq" ("Nasoyim ul-muhabbat" 85-bet).

Eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'plik qolipdagi arabiy so'zlar ko'plik ma'nosini anglatgani holda keng qo'llanadi.

Malak – maloika, she'r – ash'or, hayvon – hayvonot, sohib – sahoba, ruh – arvoh va h.k. "*Nabotot va hayvonot kalomining samoi va maoniysiga vuquf topmoq*" ("Nasoyim ul-muhabbat" 85-bet).

"... Mashoyix diydorlaridin bahramand va suhbatlaridan anjumand ermish" ("Nasoyim ul-muhabbat" 85-bet).

"Ajdodlari arab bo'lgan shayx Muborak ham ham Bianadagi xalq harakatida ishtirok etgan" ("Humoyun va Akbar" 275-bet).



Chinorning dastlabki ellik – oltmish yildagi o'sish bir avlod umriga qiyos etgulikdir (“Humoyun va Akbar” 286-bet).

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zlashgan arabiy so'zlarning birlik va ko'plik shakli yonma-yon kelib, juft so'zlarni hosil qiladi va ular ma'no kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *davr – davron, sir – asror, haq – huquq, shart – sharoit, hol – ahvol, rasm – rusum* va h.k.

O'zbek adabiy tiliga o'zlashgan arabiy so'zlarning ko'plik shakli birlikdagi shakliga nisbatan iste'molda ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *siloh – aslaha, valad – avlod, vali – avliyo, nabi – anbiyo, uzv – a'zo* va h.k. Bu so'zlarning ko'plik shakli o'zbek tilida mustaqil ma'no beruvchi birlikdagi so'z sifatida keng qo'llanadi.

“Avliyolikning boshlanishi payg'ambarlikning oxiridir” (“Nasoyim ul- muhabbat” 309-bet).

“Chun anbiyoning ashrafi erdi, qavm- aqvomning ashaddiy...” (“Nasoyim ul- muhabbat” 183-bet).

2. Arab tilida bir so'z ikki yoki undan ortiq ko'plik shakliga ega. O'zbek adabiy tiliga ulardan bir shakliga o'zlashgan bo'lib, u birlikdagi ma'nosiga ma'nodosh bo'lgan so'zni ifodalaydi.

Arab tilida *ayn* so'zi o'zbek tiliga “*ko'z*” deb tarjima qilinadi. Uning ko'plik shakllari “*uyun*”, “*a'yun*”, “*ayon*”. Bularidan “*uyun*”, “*a'yun*” “*ko'zlar*” deb tarjima qilinadi. “*ayon*” ko'plik shakli esa o'zbek tiliga o'zlashgan bo'lib, u “*ko'zga ko'ringan shaxslar*” degan ma'noni anglatadi. Masalan, “*A'yonlar Akbarga ta'zim qildilar*” (“Humoyun va Akbar” 298-bet).

3. Arab tilida ko'plikdan ko'plik yasash usuli ham mavjud bo'lib, bunday “*o'ta*” ko'plik qolipidagi so'zlar ham o'zbek tilida qo'llanadi.

“*dor*” – “*uy*”, “*turar joy*” so'zining ko'pligi “*dur*” bo'lib, undan “*diyor*” ko'plik shakli yasaladi. O'zbek adabiy tilida “*diyor*” so'zi keng qo'llanilib, u endi faqat “*uy*”, “*turar joy*” degan ma'nolarni anglatib qolmay, balki keng ma'nodagi “*yashash joyi*”, “*yurt*”, “*mamlakat*” degan ma'nolarni ham bildiradi.

Arab tilida ko'plikdagi otlarga “*ot*” qo'shimchasi qo'shilib ham “*o'ta*” ko'plik yasaladi. Masalan, “*ajibatun*” – so'zidan “*ajoibu*” – ko'plik – “*ajoibot*” – o'ta ko'plik yasalgan. “*Ajoib*” va “*ajoibot*” so'zlari o'zbek tilida keng qo'llanadi.

4. Arabiy so'zlarning o'zlashgan ko'plik shakllari hozirgi o'zbek adabiy tilida “g'alati mashhur” iborasi bilan ham qo'llanadi. Bu holbuki ichki ma'no jihatidan bog'liqlik bo'lsa-da, so'zlar o'zining asosiy bosh ma'nosidan uzoqroq ma'noni anglatib keladi.

Masalan, “*insho*” so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi:

- a) muassasa, qurilish;
- b) ijodiy asar, sochma asar, yozuv xat.

O'zbek adabiy tilida insho so'zi faqat “*sochma asar*”, “*asar*”, “*yo'zuv xat*” ma'nosini ifodalab keladi. Bu so'zning arab tilidagi ko'plik shakli “*inshoot*” bo'lib, bu so'z o'zbek adabiy tilida faqat “*qurilish*”, “*bino*”, “*imorat*” kabi ma'nolardagina qo'llanadi.



Yoki arabiy “xotira” soʻzi “gʻoya”, “tushuncha”, “esda saqlash” kabi maʼnolarni anglatga, uning koʻplik shakli xavotir oʻzbek adabiy tilida oʻzining bosh maʼnosidan uzoqroq boʻlgan “tahlika”, “qoʻrquv” maʼnolarida ishlatiladi.

Shuningdek, “munshaot” “qurilish”, “muassasa” maʼnolarini bildiruvchi arabiy soʻzning koʻpligi munshaot hozirgi oʻzbek tilida “mayda nasriy asarlar”, “xatlari toʻplami” maʼnosida qoʻllanadi.

5. Arab tilidagi koʻplik qoʻshimchasi “ot” feʼlning funksional formalarni hisoblangan harakat nomi (masdar), va sifatdoshlarga qoʻshilib koʻplik shaklini hosil qiladi. Bunday soʻzlarning ham birlik, ham koʻplik shakllari oʻzbek tilida oʻzlashgan boʻlib, keng isteʼmoldadir. Lekin bu soʻzlarning har ikkala shakli ham mustaqil maʼno anglatuvchi soʻz boʻlib, boshqa-boshqa grammatik vazifalarni bajaradi. Masalan,

a) “harakat nomi” – masdarga “ot” qoʻshilgan.

isloh-islohot (4-bob masdari)

hisob-hisobot (3-bob masdari)

b) sifatdoshlarga “ot” qoʻshimchasi qoʻshilib koʻplik shakllari yasaladi.

Masalan, *mavjud – mavjudot, mahsul – mahsulot.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arabiy soʻzlarning koʻplik shakllari ham eski oʻzbek tili va hozirgi oʻzbek adabiy tilida keng qoʻllangan va ular oʻrniga qarab alohida-alohida grammatik funksiyalarni bajarib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. “Nasoim-ul muhabbat”. – Toshkent, 2002.
2. Axrorov Alisher Akbarovich. (2022). The problem of the role of proverbs in the event of a speech act. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 15, 49–53. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/2816>
3. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLGʻON SOʻZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. *ILMIY AXBOROTNOMA*, 57.
4. Doniyorovich, O. R. A. (2022). TOGʻAY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION*, 1(4), 38-42.
5. Ermatov Ikhtiyar. (2022). HYPERO-HYPONYMIC RELATIONS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF MORPHEMES AND WORD FORMATION LEVELS OF UZBEKI. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 133-136. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/1737>
6. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1980. – B. 120, 251.
7. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi, 1-jild. – Toshkent: 1997.
8. Khamrokulovna, T. Z. (2021, August). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).



9. Muxidillayev, F. (2022). LINGVOPOETIKANING O'RGANILISHIGA DOIR QARASHLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(7), 315-320.
10. Pardayeva, I., & Mahmudboyeva, F. (2022). ZARGARLIK TERMINLARINING SINTAKTIK USUL BILAN YASALISHI. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 562-564.
11. Pirmuqol Qodirov. *Humoyun va Akbar*. – Toshkent: Sharq, 2006.
12. Sharipov, F. G. (2021). Attitude to the plural affix in Uzbek language. *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(1), 50-64.
13. Yodgorov, H., & Zulayho, T. (2022). JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY. *Journal of Northeastern University*, 25(04).



OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI - XORIJIY TILLARNI O'QITISH MABAI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847023>

Qodirova Makhliyo Abdusattor qizi

2nd year master's degree student

Xalimjonova Shaxnoza Ma'murjonovna.

*2nd year master's degree student Uzbekistan Journalism And Mass Communications
University*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chet tillarini o'rgatishda OAV ning ahamiyati va uning til o'rgatishdagi ta'siri, o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishdagi tilning 4 ta muhim kompetensiyalarini, ya'ni o'qish, yozish, tinglab-tushunish, hamda og'zaki nutqni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari, televideniya, kitoblar va ijtimoiy tarmoqlarning muhim rol o'ynashi haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga, ushbu maqola kichik miqyosdagi tadqiqotga asoslanganligi sababli, turli xil ommaviy axborot vositalarini tahlili va ular chet tilini o'qitishda qanday ta'sir qilishini yoki undan samarali foydalanish mumkinligini o'rganadi. .*

Kalit so'zlar: *OAV, ijtimoiy tarmoqlar, til kompetensiyalari, multimedia vositalari, media saytlari, profil, media kontent, Instagram, You Tube, Telegram kanallari.*

MEDIA - AS A SOURCE OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotation: *This article discusses the importance of media, television, books, and social media in teaching foreign languages, as well as 4 important language competencies in study of foreign languages such as reading, writing, listening and speaking skills. Since this paper is based on a small scale study, it explores various media analysis and how they influence or can be used effectively in teaching any foreign language.*

Keywords: *MEDIA, social networks, language competencies, multimedia tools, media sites, personal blogs, media contents, Instagram, YouTube, Telegram channels.*

Ommaviy axborot vositalarining ta'siri keng tarqalgan va ishontiruvchidir. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarining ta'siri juda katta. Ular shunchalik muhim bo'lib qoldiki, biz ularsiz yashay olmaymiz. Har bir kishiga u yoki bu tarzda OAV ta'sir qiladi. Masalan, har kuni ertalab biz radio musiqasi bilan uyg'onishimiz, dush qabul qilish yoki kiyinish paytida uni tinglashimiz mumkin. Kimdir pochta yoki yangiliklarni tekshirish uchun qo'l telefoniga yoki noutbukgiga qarashi, o'qishga yoki ishga ketayotganida gazetani olib, sarlavhalarini ko'rishi, o'qishda kutubxonaga borib, tadqiqot loyihasi uchun ko'plab kitob va jurnallardan manbalar olishi, uyda esa bir



muddat televizor ko'rishi mumkin va hokazolar. Bu tajribalarning har biri bizni vosita yoki aloqa kanali bilan bog'laydi. Radio, kitoblar, gazetalar, jurnallar, televidenie, on-line media, yangi media - bularning barchasi ommaviy axborot vositalari deb ataladi, ular bir vaqtning o'zida butun dunyoda ko'plab odamlarga etib boradi. Kelgusi yillarda ommaviy axborot vositaari yanada keng tarqaladi. Ularni va ularning ta'sirini tushunish, oqilona foydalanish uchun juda muhimdir. Talabalar va o'quvchilarga ushbu ma'lumotni tushunish, kelajak avlodlarga etkazish va ta'lim maqsadlarida foydalanishga harakat qilish o'qituvchilar sifatida bizning vazifamizdir.

Ommaviy axborot vositalari o'quvchi talabalarga gazetalar, jurnallar, radio, televidenie, filmlar, kitoblar, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va hokazolardan foydalanish va o'qish, yozish, gapirish va tinglash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi vazifalar orqali ko'plab til amaliyotlarini beradi. Ular, shuningdek, talabalarga sinfdan tashqarida o'qishni davom ettirishga ishonch qobiliyatini berib, keng qamrovli o'qishni rag'batlantiradigan ko'plab mashg'ulotlarni taqdim etadi, birinchi navbatda ular motivatsiyani oshiradi va dunyoqarashni kengaytiradi.

O'qituvchilar va psixologlar ommaviy axborot vositalarining ta'limga ta'siri haqida bahslashsa-da, hozirda ommaviy axborot vositalari har qanday ta'lim kontekstining ajralmas tarkibiy qismi ekanligiga shubha yo'q. Xususan, kompyuter va internet axborot vositalari o'zining ulkan qayta ishlash quvvati va multimedia imkoniyatlariga ega bo'lib, bugungi o'quv muhitida o'quv jarayonlari va natijalariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Borgan sari yuqori darajada interaktiv va moslashuvchan bo'lishi uchun ishlab chiqilgan bunday ommaviy axborot vositalari aks ettiruvchi, samarali va kommunikativ faoliyatni ta'minlaydi va chet tillarini o'rganish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Ushbu maqola kichik miqyosdagi tadqiqotga asoslanganligi sababli, turli xil ommaviy axborot vositalarini ko'rib chiqadi va ular chet tilini o'qitishda qanday ta'sir qilishini yoki undan samarali foydalanish mumkinligini o'rganadi.

2019-yil yanvar oyi holatiga ko'ra, 2,27 milliard faol foydalanuvchisi bo'lgan Facebook dunyodagi birinchi ijtimoiy tarmoq sifatida, YouTube 1,9 milliard foydalanuvchisi bilan ikkinchi o'rinda va WhatsApp 1,5 milliard foydalanuvchisi bilan uchinchi o'rinda turadi. (Statistika, 2019). Ajablanarlisi shundaki, mashhur Avstriyalik olim, tadqiqotchi Unmil Karadkar (2015) va (Bakar va boshq., 2018) tomonidan olib borilgan qiziqarli tadqiqot natijalari ijtimoiy media saytlarida foydalanuvchilar sonining ko'pi talabalar ekanligi bilan hayratda qoldi. Pew Research Center (Karadkar, 2015) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu o'quvchilarning 70-78 foizi Facebook, YouTube, WhatsApp, Twitter va Instagramda vaqt o'tkazishadi. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarning virtual olamida talabalar hamjamiyatining yuqori ishtirokidan dalolat beradi. Bu ham bo'lsa erkinlik bilan bog'liq. (Chandran va boshq., 2019; Yunus va boshq., 2016).

Talabalar ijtimoiy tarmoqlarda o'zlari yoqtirgan narsalarni, masalan, o'zlarining sevimli kontentlarini yuklash va kuzatish, do'stlar doirasini kengaytirish va eng



muhimi, shaxsiy profillarni yaratish va erkin fuqarolar sifatida o'z shaxsiyatini qo'llab-quvvatlaydilar. (Bal & Bicen, 2017; Reinhardt, 2019; Szeto, 2016;). Aslida, ijtimoiy media ularga bir necha soniya ichida barcha imkoniyatlarni amalga oshirishga imkon beradi (Crick, 2019; Suana va boshqalar, 2019).

Ingliz tili, ayniqsa, eng ko'p so'zlashadigan tillardan biri bo'lib, ijtimoiy tarmoqlarda talaba foydalanuvchilar ingliz tilini o'rganishda faol ishtirok etishadi. Ular o'z fikrlari va g'oyalarini ijtimoiy tarmoqlar vositasida haqiqiy harakatlarga (Reynhardt, 2019; Wang & Chen, 2019) olib kelishadi.

Quyida "Ingliz tilini o'rganishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish" mavzusida tadqiqotchi Tubagus Zam Zam Al Arifning 2019-yilda Indoneziyaning Jambi universitetida olib borgan tadqiqoti natijalarini ko'ramiz :

Ushbu tadqiqot Jambi universitetining "Ingliz tilini o'rganish dasturi(EFL)" talabalari tomonidan ingliz tilini o'rganishda ijtimoiy mediadan foydalanishni o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotchi ma'lumotlarni yig'ishda so'rov va yarim tuzilgan suhbatdan foydalangan. Anketaga javob berish uchun oltmish yetti nafar talaba ishtirok etdi va anketaga javob bergan ishtirokchilar orasidan tasodifiy tanlab olingan o'n nafar ishtirokchi intervyu berdi. Anketadagi miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish uchun asosiy statistik tahlildan foydalanildi va intervyu ma'lumotlari tematik kodlash bilan birlashtirilgan fenomenologik holatlar tahlili yordamida tahlil qilindi.

Ijtimoiy tarmoqlardan ingliz tilini o'rganish maqsadida foydalanish chastotasini yuqoridagi 1-rasmda ko'rish mumkin. Ko'pchilik respondentlar (95,8%) Instagram'dan ingliz tilini o'rganish maqsadida foydalanishlarini da'vo qilishgan. Keyingi o'rinda respondentlarning 88,5 foizi Youtube'dan, 86,3 foizi esa Facebook'dan ingliz tilini o'rganish uchun foydalanishini aytdi. Boshqa tomondan, ishtirokchilarning ozchiligi ingliz tilini o'rganish uchun elektron pochta va telegramdan foydalanadi (mos ravishda 45,6% va 23,7%).

Ingliz tilini o'rganishda Instagram, Youtube va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan bog'liq ko'plab qiziqarli hodisalar mavjud. Talabalarning aksariyati Facebook va Youtube-dan ko'ra Instagram-dan foydalanadi. Ko'rinib turibiki, Telegramdan ELL maqsadlarida foydalanadigan talabalar ham bor.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalar bir qator ijtimoiy tarmoqlar, xususan Instagram va Facebookdan foydalanadilar. Shunday qilib, talabalar ingliz tilini o'rganish maqsadlaridan ko'ra umumiy maqsadlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga ko'proq vaqt sarflaydilar. Biroq, ular ingliz tilini o'rganishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga ijobiy munosabatda bo'lishdi. Talabalar ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganishda muhim rol o'ynashini bilishadi. Bundan tashqari, ular ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni targ'ib qiladilar va talabalarni ingliz tilini yaxshilash uchun o'z do'stlarini ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga undaydilar. Bundan tashqari, Jambi universitetining ingliz tilini o'rganish dasturida talabalari tomonidan ingliz tilini o'rganishda ko'proq foydalaniladigan ijtimoiy media bu-



Instagram tarmog'i bo'lib, ular odatda uyda ingliz tilini o'rganish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar.

Xulosa:

Ushbu tadqiqot natijalari va muhokamasiga asoslanib, talabalar ingliz tilini o'rganish uchun ko'pincha Instagram, Youtube va Fcaebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar, degan xulosaga kelish mumkin. Ingliz tilini o'rganishda talabalar tomonidan eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy tarmoq Instagram hisoblanadi. Universitet talabalari Jambi universitetida ingliz tilini o'rganishda uyda bo'sh vaqtlari bo'lganda yoki o'qituvchi darsda foydalanishga ruxsat berganida, ayniqsa, guruh muhokamasi uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadilar.

Ijtimoiy media talabalarga ingliz tilini yanada xilma-xil bo'lgan ijtimoiy media mazmunidan yaxshilashga yordam beradi va bu talabalarni ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan holda ingliz tilini o'rganishga undaydi.

Texnologiya bilan hech qachon ta'limni almashtirilmaydi, balki ta'lim amaliyotiga yordam beradi, o'qitish samaradorligini oshiradi va talabalarning o'rganish tajribasini oshiradi.

Biz tekshirgan va maqolada muhokama qilgan ijtimoiy media vositalari talabalar orasida mavjud resurslardir. Ta'limni yanada qulayroq qilish uchun biz ushbu manbadan foydalanishimiz kerak.

Talabalar o'zlari bilgan vositalardan foydalanishda qulay his qilishadi. Ijtimoiy media vositalari ochiq resursdir, ya'ni ular tsenzurasiz jamoatchilik uchun ochiqdir. Bu o'quv muhiti o'quvchilarning bilim olishining eng yaxshi manfaatlari uchun himoyalanganligiga qilish o'qituvchilarning mas'uliyatidir.

REFERENCES :

Al-Ali, S. (2010). Embracing the selfie craze: exploring the possible use of instagram as a language mlearning tool. *Issues and Trends in Educational Technology*, 2(2), 34–53.

Al Arif, T. Z. Z. (2019). Indonesian University Students' Perception and Expectation towards ICT Use in Learning English as a Foreign Language. *Indonesian Journal of English Language Teaching and Applied Linguistics*, 4(1), 133–145.

Annamalai, N. (2017). Exploring Students Use of Facebook in Formal Learning Contexts. *Indonesian Journal of EFL and Linguistics*, 2(2), 91–106.

Ayuningtyas, P. (2018). Whatsapp: Learning on the go. *Metathesis: Journal of English Language, Literature, and Teaching*, 2(2), 159–170. <https://doi.org/10.31002/metathesis.v2i2.629>

Balbay, S., & Kilis, S. (2017). Students' perceptions of the use of a youtube channel specifically designed for an academic speaking skills course. *Eurasian Journal of Applied Linguistics*, 3(2), 235–251.



Lizamuddin, A., Asib, A., & Ngadiso, N. (2019). Indonesian English Learners' Perception of The Implementation of Mobile Assisted Language Learning in English Class. *Metathesis: Journal of English Language, Literature, and Teaching*, 3(1), 70–77. <https://doi.org/10.31002/metathesis.v3i1.1252>

Monica, & Anamaria, P. (2014). The Impact of Social Media on Vocabulary Learning Case Study-Facebook. *Annals of the University of Oradea, Economic Science Series*, 23(2).

Murray, D. E. (2005). Technologies for second language literacy. *Annual Review of Applied Linguistics*, 25(1), 188–201

Chou, C. M. (2014). Social media characteristics, customer relationship and brand equity. *The Journal of Applied Business and Economics*, 16(1), 128–145.



О ЕДИНСТВЕННОСТИ ОДНОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ЛАПЛАСА

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847187>

Нафиса Аббасова

Магистрант 2 курса Ферганского государственного университета

Рассмотрим уравнение Лапласа

$$\Delta u \equiv u_{xx} + u_{yy} = 0 \quad (1)$$

в прямоугольнике $\Omega = \{(x, y) \in R^2 : 0 \leq x \leq a, 0 \leq y \leq b\}$, здесь $u = u(x, y)$ - неизвестная функция $a, b = const$.

Задача. Найти функцию

$$u(x, y) \in C(\bar{\Omega}) \cap C^1(\bar{\Omega} \cap \{x = 0\}) \cap C^2(\Omega),$$

удовлетворяющую уравнению (1) в области Ω и краевым условиям

$$u(x, 0) = \tau(x) \quad (2)$$

$$u(x, b) = \varphi(x) \quad (3)$$

$$u_x(0, y) = 0 \quad (4)$$

и нелокальному условию

$$u(0, y) = u(a, y) \quad (5)$$

где $\tau(x), \varphi(x)$ - заданные непрерывные функции.

Условие (5) является нелокальным интегральным условием связывающие значения искомой функции на границах $x = 0, x = a$.

Теорема. Если существует решение задачи (1)–(5), то оно единственно.

Доказательство. Пусть $u(x, y)$ — решение задачи (1)–(5). Известно [1], что системы функций

$$\left\{ \cos \frac{2\pi nx}{a} \right\}_{n=1}^{\infty}, 1, \left\{ x \sin \frac{2\pi nx}{a} \right\}_{n=1}^{\infty} \quad (6)$$

$$\left\{ 4(a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} \right\}_{n=1}^{\infty}, 2(a-x), \left\{ 4 \sin \frac{2\pi nx}{a} \right\}_{n=1}^{\infty} \quad (7)$$

являются биортонормированными системами, полны и образуют базис Рисса в пространстве $L_2[0, 1]$. Рассмотрим функции

$$u_n(y) = 4 \int_0^a u(x, y) (a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} dx, \quad n = 1, 2, \dots, \quad (8)$$



$$u_0(y) = 2 \int_0^a u(x, y)(a-x) dx, \quad (9)$$

$$v_n(y) = 4 \int_0^a u(x, y) \sin \frac{2\pi nx}{a} dx, \quad n = 1, 2, \dots \quad (10)$$

Дифференцируя дважды $v_n(y)$ под знаком интеграла и учитывая уравнение (1), получим

$$v_n''(y) = -4 \int_0^a u_{xx}''(x, y) \sin \frac{2\pi nx}{a} dx$$

Интегрируя по частям, с учетом условий (2) – (5), заключаем, что $v_n(y)$ удовлетворяет дифференциальному уравнению

$$v_n''(y) - \left(\frac{2\pi n}{a}\right)^2 v_n(y) = 0 \quad (11)$$

и начальным условиям

$$v_n(0) = 4 \int_0^a \tau(x) \sin \frac{2\pi nx}{a} dx = \tau_n, \quad (12)$$

$$v_n'(0) = 4 \int_0^a \nu(x) \sin \frac{2\pi nx}{a} dx = \nu_n. \quad (13)$$

Решение задачи (11)–(13) существует, единственно и имеет вид

$$v_n(y) = \tau_n \operatorname{ch} \frac{2\pi ny}{a} + \frac{a\nu_n}{2\pi n} \operatorname{sh} \frac{2\pi ny}{a}. \quad (14)$$

Найдем теперь $u_0(y)$. Дифференцируя (9) дважды по y и учитывая уравнение (1), имеем

$$u_0''(y) = 2 \int_0^a u_{yy}''(x, y)(a-x) dx = -2 \int_0^a u_{xx}''(x, y)(a-x) dx$$

Интегрируя по частям и на основании условий (4)–(6) получим, что $u_0(y)$ является решением задачи Коши

$$u_0''(y) = 0, \quad (15)$$

$$u_0(y) = 2 \int_0^a \tau(x)(a-x) dx = \tau_0, \quad u_0'(y) = 2 \int_0^a \nu(x)(a-x) dx = \nu_0. \quad (16)$$

Единственное решение задачи (15) и (16) определяется равенством

$$u_0(y) = \nu_0 y + \tau_0. \quad (17)$$

Далее, с учетом (4)–(6) найдем явный вид для функции $u_n(y)$. Для этого дважды дифференцируя равенство (8) и учитывая уравнение (1), получим



$$u_n''(y) = 4 \int_0^a u_{yy}''(x, y)(a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} dx = -4 \int_0^a u_{xx}''(x, y)(a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} dx.$$

Интегрируя по частям два раза первое слагаемое, для функции $u_n(y)$ получаем неоднородное уравнение

$$u_n''(y) - \left(\frac{2\pi n}{a}\right)^2 u_n(y) = -\frac{4\pi n}{a} v_n(y) \quad (18)$$

с начальными условиями

$$u_n(0) = 4 \int_0^a \tau(x)(a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} dx = \tau_{1n}, \quad (19)$$

$$u_n'(0) = 4 \int_0^a \nu(x)(a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} dx = \nu_{1n}. \quad (20)$$

Единственное решение задачи (18)–(20) представляется в виде

$$u_n(y) = \left(\tau_n - \frac{2\pi n}{a} \nu_n y\right) \operatorname{ch} \frac{2\pi n}{a} y + \left(\left(\frac{2\pi n}{a} + \frac{a}{2\pi n}\right) \nu_n + \tau_n y\right) \operatorname{sh} \frac{2\pi n}{a} y. \quad (21)$$

Из формул (14), (17), (21) следует единственность решения задачи (1)–(5): если $\tau(x) \equiv 0$, $\nu(x) \equiv 0$ на $[0, a]$, то $u_n(y) \equiv 0$, $u_0(y) \equiv 0$, $\nu_0(y) \equiv 0$ для $n = 1, 2, \dots$ на $[0, b]$. Тогда из (8)–(10) имеем

$$4 \int_0^a u(x, y)(a-x) \cos \frac{2\pi nx}{a} dx = 0, \quad 2 \int_0^a u(x, y)(a-x) dx = 0$$

$$4 \int_0^a u(x, y) \sin \frac{2\pi nx}{a} dx = 0, \quad n = 1, 2, \dots$$

В силу полноты системы (7) в пространстве $L_2[0, a]$ функция $u(x, y) \equiv 0$ в Ω .

1. Моисеев Е.И. О решении спектральным методом одной нелокальной краевой задачи // Дифференциальные уравнения. – 1999. – Т. 35. – №8. – С. 1094–1100.



BINOLARNI LOYIHALASHDA KONSTRUKSIYAGA QOYILADIGAN TALABLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847220>

Davlatov Diyor Dilshodovich

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti
Arxitektura(turlari bo'yicha) 1-kurs talabasi*

Ziyodullayev Asilbek Absalomovich

*Termiz muhandislik va texnologiya instituti
Bino va inshootlar qurilishi yo'malishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Binoni ko'tarib turuvchi konstruksiyalar, ya'ni poydevorlar, devorlar, alohida tayanchlar, qavatlararo yopmalar fazoda bir-biri bilan bog'lanib, bino negizini tashkil qiladi. Binolarni qurishning o'zining talablari borligini barchamiz bilamiz. Bino zil-zilaga badoshli, chidamli, iqtisodiy jihatdan qulay va mustahkam bo'lishi kerak. Maqolaning asosiy mazmuni binoga shu kabi qo'yiladigan talablar haqida umumiy ma'lumot berish.*

Kalit so'z: *Bino, inshoot, konstruksiya, beton, zilzila*

Bino negizi — ko'tarib turuvchi elementlarining fazoda qanday joylashtirilganiga qarab, binolarni quyidagi konstruktiv turlarga ajratish mumkin:

— karkassiz binolar o'zaro bog'langan tashqi devorlar va qavatlararo yopmalardan iborat. Binoning tashqi va ichki devorlari orayopmalar hamda tom og'irligini qabul qiladi. Turar-joylar, maktablar va boshqa jamoat binolari qurilishida ana shu konstruktiv tur keng tarqalgan:

— karkasli binolarda ustunlar sistemasi gorizontol to'sinlar bilan birgalikda bino skeletini tashkil qiladi. Binoning karkasi binoga ta'sir qiladigan barcha kuch va og'irliklarni qabul qiladi. Karkasli bino konstruksiyalari vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qilib, ko'tarib turuvchi va himoyalovchi guruhlariga bo'linadi. Bu holda tashqi devorlar faqat himoyalovchi funksiyani bajarib ular o'z-o'zini ko'taruvchi yoki ilib qo'yilgan bo'lishi mumkin;

— agar ichki bo'ylama yoki ko'ndalang devorlar o'rniga ustunlar sistemasini o'rnashtirib, ularga tayangan gorizontol to'sinlarga qavatlararo yopmalar joylashtirilgan bo'lsa, bunday binolar yarim karkasli bino deb ataladi. Bu turdagi binolarda ichki karkas bilan birgalikda tashqi devorlar ham orayopma va tom dan tushadigan yukni qabul qiladi. Karkaslar ishlash xarakteriga ko'ra **ramali, bog'lanishli** va **ramali-bog'lanishli** bo'ladi. Ramali karkasda ustun va to'sin o'zaro birkir tugunli bog'lanib, vertikal va gorizontol ta'sir etuvchi hamma yuklarni o'ziga qabul qiluvchi ko'ndalang va bo'ylama rama hosil qiladi.



Bog'lanishli karkaslarda ustun va to'sin orasidagi tugunlar biki bo'lmaganligi uchun gorizonta ta'sir etuvchi kuchlarni qabul qiluvchi qo'shimcha bog'lanishlar o'rnatish talab etiladi. Bunday bog'lanishlar vazifasini ko'pincha diafragmani tashkil qiluvchi hamda gorizonta kuchni biki vertikal diafragmaga uzatuvchi qavatlararo yopmalar bajaradi.

Keyingi paytlarda qurilish amaliyotida kombinatsion, ya'ni ramalibog'lanishli karkaslar ko'proq uchramoqda. Bunda bir yo'nalishda bog'lanishlar o'rnatilsa, ikkinchi yo'nalishda ramalar o'rnatiladi. Shuni aytish kerakki, yirik panelli jamoat va turar-joy binolari qurilishda karkasli binolar qo'llash ko'proq foydalidir. Bulardan tashqari, turar-joy binolari qurilishida zavodlar tayyorlangan yirik hajmiy bliklar keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Umuman olganda, bino va inshootlar konstruksiyalari sifatida karkas konstruksiyalar bilan bir qatorda panel, yirik panel, monolit, temir-beton, hamda kombinatsiyalashtirilgan konstruksiyalar qo'llaniladi.

Fuqaro va sanoat binolarining qurilish konstruksiyalari ashyolari turlicha bo'lib, ular loyihalashda turli mezon va talablarga asoslanib tanlanadi. Binolar konstruksiyalarining asosiy ko'rsatkichlariga ularning og'irligi, o'tga chidamliligi, iqtisodiy ko'rsatkichi, ishonchliligi va uzoqqa chidamliligi, shuningdek, mustahkamligi, bikrligi, ustivorligi, zilzilabardoshligi kabi hususiyatlari kiradi. Quyida konstruksiya ko'rsatkichlarining eng asosiylariga qisqacha ta'rif berilgan.

Og'irlik. Barcha shart-sharoitlarda og'irligi eng kam bo'lgan konstruksiyalar afzalroqdir. Bu transport sarflarinigina kamaytirib qolmasdan, balki ayni konstruksiyaga tushadigan va undan pastda turadigan konstruksiyalarga tushadigan yukni kamaytirishga olib keladi.

O'tga chidamlilik. Temir-beton, beton va g'isht-tosh konstruksiyalar eng chidamlilaridir. Yog'och konstruksiyalar ham yetarli darajada chidamli, biroq ular yonuvchandir. Metall konstruksiyalar o'tga chidamsiz.

Uzoqqa chidamlilik. Temir-beton, beton va g'isht-tosh konstruksiyalar noagressiv muhitlarda eng chidamli konstruksiya hisoblanadi. Tegishlicha qarab turilganida metall konstruksiyalar ham uzoqqa chidashi mumkin. Yog'och konstruksiyalarning chidamliligi eng kamdir. Ular namlanishdan va chirishdan saqlashni talab qiladi.

Foydalanish sarflari. Temir-beton, beton va g'isht-tosh, aluminiy, plastmassa konstruksiyalariga ekspluatatsiya jarayonida mablag' sarf qilinmaydi. Yog'och konstruksiyalarda chirishga qarshi kurashish uchun, buzilganida tuzatish uchun, po'lat konstruksiyalar zanglamasligi uchun sarf-xarajat talab qilinadi.

Yig'ma temir-beton. Ularning asosiy afzalliklariga yuqori darajada industrialligi va arzon mahalliy ashyolardan keng foydalanish imkoniyatlari borligi kiradi. Bunday konstruksiyalar: 1) Turar-joy jamoat binolarida (yirik panelli va



hajmiy-blokli ko'p qavatli turar-joy binolarida, yopma elementlari, orayopma elementlari, zina, poydevor elementlari o'rnida):

2) Sanoat binolarida (oralig'i 18 m gacha bo'lgan stropila to'sinlari, oralig'i 18 va 24 m bo'lgan fermalar, oralig'i 18 m gacha bo'lgan bo'lgan kranosti to'sinlari, yopma plitalar, balandligi 18 m gacha bo'lgan ustunlar, ustunlar to'ri 6x6, 6x9, 6x12 m bo'gan ko'p qavatli binolarning sinchlari, qobiqlar, poydevor to'sinlar, poydevorlar, ustun-qoziqlar va boshqalar);

3) Qishloq xo'jaligi qurilishidalarida (ustunlar, ramalar, to'sinlar, plitalar, arkalar, devor panellari, novlar, uzun tirgaklar va boshqalar):

4) Muhandislik inshootlarida (avtomobi yo'llari va temiryo'l ko'priklari, o'tkazish yo'llari, transport galleriyalari, quvurlar, tirgak devorlar, buyumlar, bunkerlar, elevatorlar, elektr uzatish liniyalarining tayanchlari) keng ko'lamda qo'llaniladi.

Qurilish konstruksiyalari me'morchilik konstruksiyalaridan (bino qismlaridan) shu bilan farq qiladiki, bularning kesimlari hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. Ular o'zlariga qo'yilgan talablarga, mahalliy qurilish sharoitlariga, iqtisodiy va boshqa mulohazalarga ko'ra turli xil materiallardan tayyorlanadi. Qurilish konstruksiyalarining asosiy turi temir-beton konstruksiyalar bo'lib, ular hozirgi kapital qurilishning asosini tashkil etadi. Metall, ayniqsa, metall konstruksiyalar ham keng miqyosida ishlatilmoqda. Aluminiy qotishmalaridan, yog'och va plastmassadan tayyorlangan qurilish konstruksiyalari ham qo'llanadi. Juda ko'p obyektlar, ayniqsa, binolarning ko'pginasi g'isht-tosh va armotosh konstruksiyalaridan ko'tariladi.

Foydalanish va texnik talablar shundan iboratki, qurilish konstruksiyalari bino va inshootlardan foydalanish qulay, yetarlicha mustahkam, ustivor, chidamli, bikir, yorilish-bardoshlilik, bino va inshootlarning uzoqqa chidamliligi bilan xarakterlanadi. Asosiy talablardan biri ularning tejamlilikidir.

Qurilish konstruksiyalariga qo'yiladigan texnik talablar. Bino va inshootlar konstruksiyalariga bir necha texnik talablar qo'yilib, ularning ijrosi tegishli qurilish me'yoelari va qoidalari hujjati — QMQ da alohida keltirilgan. Asosiy texnik talablardan bo'lgan mustahkamlik, bikrlilik, ustivorlik, zilzilabardoshlik va chidamlilik talablari eng dolzarb shartlar bo'lib, konstruksion sifatni ta'minlaydi.

Mustahkamlik sharti. Aksariyat konstruksiyaning ko'tarish qobiliyatini ta'minlovchi talab bo'lib, konstruksiyani I chegaraviy holati hisoblanadi va uni mustahkamlik sharti deb yuritiladi. Bu talab konstruksiyaning har birini (poydevor, devor, ustun, to'siq va hokazo) ko'tarish qobiliyatini ifodalovchi shart bo'lib, konstruksiyaga ta'sir qilayotgan kuchga nisbatan ko'tarish qobiliyatini belgilaydi va u konstruksiyalarni material turlariga, o'lchamlariga, fizik va mexanik xarakteristikalariga bog'liqdir.



Bikrlik sharti konstruksiyani II chegaraviy holati hisoblanib, uning deformatsiya holatini aniqlashga va deformatsiya chegarasini tekshirishga qaratilgan. Bu shartda tashqi kuch ta'sirida hosil bo'ladigan burilish, salqilik va boshqa deformatsiyalar, ruxsat etilgan deformatsiyalardan ko'p bo'lmasligi talab qilinadi.

Ustivorlik sharti. Ustivorlik sharti deb, konstruksiyalarni siqilish jarayonida muvozanatni saqlab qolishga doir chegaraviy talablarga bo'ysunishiga aytiladi. Bu shartda konstruksiyaga ta'sir etuvchi bo'ylama kuch kritik kuch F dan kam bo'lishi ta'minlanadi.

Zilzilabardoshlik sharti. O'zbekiston Respublikasi sharoitida inshoot va binolar konstruksiyalari zilzilabardosh bo'lishi lozim. Bu shart ma'lum zilzilabardoshlik nazariyasi va amaliyoti asosida ta'minlanadi. Bu ko'rsatkich binoning turiga, qaysi maydonda joylashganiga va, albatta, tashqi va ichki muhitga bog'liq. Zilzilabardoshlik sharti bino va inshoot konstruksiyalarini yer tebranishida o'zining vazifasini to'liq bajara olishini va hayot xavfsizligini ta'minlaydi.

Chidamlilik va umrboqiylik talabi. Bino konstruksiyalari chidamli bo'lishlari lozim, buning uchun konstruksiyalar ehtimollik nazariyasi asosida aniq muhitga nisbatan hisoblanadi, shu bilan birga uning umrboqiyligi aniqlanadi. Bu talab mas'uliyati yuqori va qimmatbaho binolar konstruksiyalariga tegishlidir.

Iqtisodiy talab. Bino va inshootlar konstruksiyalari yuqoridagi shartlar asosida mustahkam, bikr, ustivor, zilzilabardosh bo'lishlari bilan bir qatorda iqtisodiy talablarni ham qondirishlari lozim.

Xulosa. Binolar loyilanish jarayonida uni qanday geografik maydonda joylashganligi, u qurilishi rejalashtirilgan joyning iqlimi seysmik yoki noseysmik zonada joylashganligi hisobga olinishi kerak. Bino inshootlar qurilganda uning odamlar uchun qulayligi va mustahkamligini ha inobatga olish zarur. Talabga javob bermaydigan yoki kalta hisob kitoblar asosida qurilgan binolar ko'plam insonlarning cho'ntagiga yoki bo'lmasa umriga zomin bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.M.Vaxitov, Sh.R.Mirzaev Me'morchilik 1,2,3, qismlar. Toshkent,"Tafakkur",2010
2. Dilshodovich D. D. et al. INSHOOTLARNING ALOHIDA GEOFIZIK VA ZILZILAVIY HUDUDLARDAGI QURILISHLARI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 132-135.
3. Dilshodovich D. D. BETON KONSTRUKSIYALAR VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI TASHQI OMILLAR //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 12-14.



4. Dilshodovich D. D. BINONING ASOSIY KONSTRUKTIV ELEMENTI DEVOR VA UNING TURLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 1469-1470.

5. Dilshodovich D. D., Abdulla o'g'li Q. F. QURILISHDA YOG'OCH KONSTRUKSIYADAN FOYDALANISH //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 90-92.



ZAMBURUG'LAR VA ULARGA YONDOSH MIROORGANIZMLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847232>

Soatova Maqsuda

Toshkent davlat tibbiyot akademiyasi

Termiz filiali talabasi

Mazkur maqola fanda qo'ziqorinlar va ularga yondosh turuvchi mikroorganizmlar tasnifiga bag'ishlangan bo'lib, unda qo'ziqorinlar va o'simliklar morfologiyasiga taalluqli o'xshash va farqli xususiyatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Mikologiya, zamburug'lar, palinologiya, o'simliklar va zamburug'lar o'rtasidagi ayrim o'xshashlik va farqlar.*

Mikologiya – zamburug'larni, shu jumladan, ularning genetik va biokimyoviy xususiyatlarini, taksonomiyasini va odamlarga qo'llanilishini, shu jumladan, tinder, an'anaviy tibbiyot, oziq-ovqat va enteogenlar manbaisifatida, shuningdek, ularning xavflarini o'rganadigan biologiya bo'limi. Ularning inson organizmiga ta'siri toksiklik yoki infeksiya sifatida namoyon bo'ladi.

Mikologiya atamasi an'anaviy ravishda 1836 yilda M.J.Berkliga tegishli[1]. Garchi mikologiya tarixan botanikaning bir tarmog'i hisoblangan bo'lsa-da, 1969-yilda zamburug'larning hayvonlar bilan yaqin evolyutsion aloqadorligi kashf etilishi[1] tadqiqotning mustaqil soha sifatida qayta tasniflanishiga olib keldi.[2] Kashshof mikologlar orasida Elias Magnus Fries, Christian Hendrik Persoon, Anton de Bari, Elizabet Eaton Morse va Lyuis Devid fon Shvaynits bor edi. Bu sohaga "Piter quyon ertagi" muallifi Beatriks Potter ham katta hissa qo'shgan. Pier Andrea Sakkardo nomukammal zamburug'larni spora rangi va shakli bo'yicha tasniflash tizimini ishlab chiqdi, bu DNK tahlili bilan tasniflashdan oldin ishlatiladigan asosiy tizimga aylandi. U qo'ziqorinlar uchun ishlatilgan barcha nomlarning to'liq ro'yxati bo'lgan "Sylloge" bilan mashhur. "Sylloge" hozirga qadar zamburug'lar botanikasiga doir keng qamrovli va zamonaviy talqindagi yagona asardir[7].

Palinologiya – o'simlik gulchanglarini, sporalarini va ba'zi mikroskopik plankton organizmlarni tirik va qazilma shaklda o'rganadigan ilmiy fan. Bu soha o'simlikshunoslik, shuningdek, geologiya fanlari, ayniqsa stratigrafiya, tarixiy geologiya va paleontologiya bilan uzviy aloqador.

Palinologiya, shuningdek, arxeologiya, sud-tibbiyot va voqea joyini tekshirishda, shuningdek, allergiya tadqiqotlarida qo'llaniladi. Shunga ko'ra, palinologik tadqiqotlar sohasi juda keng bo'lib, elektron mikroskoplar yordamida gulchanglar morfologiyasini tahlil qilishdan tortib qadimgi ko'mirlardan ajratilgan organik mikrofosillarni (palinomorflar) o'rganishgacha masalalarni tekshiradi[8].



Geynrix Anton de Bari (1831-yil 26-yanvarda tug'ilgan, Frankfurt-na-Mayn [Germaniya] — 1888-yil 19-yanvar, Strassburg, Ger. [hozirgi Strasburg, Fr.]), nemis botaniki. Olim zamburug'lar va o'simlik kasalliklarini qo'zg'atuvchi boshqa agentlar o'rtasida zamburug'larning roli haqidagi tadqiqotlari bilan tanilgan. Ayniqsa, G.A. de Bari zamonaviy mikologiya va o'simlik patologiyasining asoschisi sifatida mash'hurdir[3].

O'zbekistonda O'zFA Botanika instituti tomonidan zamburug'lar xilma-xilligini o'rganish, O'zbekiston mikobiotalarining makro- va mikromitsetalari biologiyasi, ekologiyasi, geografiasini o'rganish, tabiiy va madaniy o'simliklar, ya'ni texnik, dorivor, yem-xashak va oziq-ovqat o'simliklarida kasallik qo'zg'atuvchi patogen zamburug'larni aniqlash va ularni himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, qo'ziqorinlarning elektron ma'lumotlar bazasi va GIS xaritalarini yaratish, biologik faol moddalarga boy, dorivor va iste'mol qilinadigan qo'ziqorinlarning istiqbolli turlarini aniqlash, sof kulturalarni ajratib olish va ularni sun'iy muhitda yetishtirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha laboratoriya yutuqlari qo'lga kiritilgan.

“A7-FA-0-17178 Aydar-Arnasoy ko'llar tizimining (sharqiy qismi) bioxilma-xilligini (suv o'tlari, oliy suv va botqoq o'simliklar) o'rganish” amaliy loyihasi (2012-2014 y.) bo'yicha 12 ta kuzatuv postida Aydar-Arnasoy ko'llar tizimidagi suv omborlaridan (Arnasoy ko'li, Tuzkon ko'li) 431 ta algologik namunalar olinib, natijada 495 tur va tur ichidagi suvo'tlar aniqlangan. Yuqori suv va botqoq o'simliklari hamda charofitlarning taksonomik tahlili natijasida 45 turkum va 27 oilaga mansub 67 tur aniqlangan. Topilgan turlar ekologik guruhlarga ko'ra quyidagicha taqsimlangan: gigrofitlar 35, gidrofitlar 22, gidatofitlar 10. Gerbariy materiallarini qayta ishlash natijasida O'zbekiston florasida uchun *Droseraceae Salisb* oilasidan juda kam uchraydigan *Aldrovanda vesiculosa* L. suv o'simligi kashf etilgan[5].

Mikologiya o'simlik kasalliklarini o'rganadigan fitopatologiya sohasiga kiradi va bu ikki fanning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligiga ishoradir, chunki o'simlik patogenlarining katta qismi zamburug'lardir.

Mikologiya – zamburug'lar haqidagi fan, zamburug'lar va xamirturushlarni o'z ichiga olgan guruh. Ko'pgina qo'ziqorinlar tibbiyot va sanoatda qo'llaniladi. Mikologik tadqiqotlar penitsillin, streptomitsin va tetratsiklin kabi antibiotiklarni, shuningdek, boshqa dorilarni, shu jumladan, statinlarni (xolesterinni kamaytiradigan dorilar) ishlab chiqishga olib keldi.

Avvallari zamburug'larning alohida belgilari hali kashf etilmagan kezlari olimlar zamburug'larni biologiyaga umumiy o'simliklar nomi bilan kiritganlar. Hozirgi elektron mikroskoplar yaratilishi natijasida ilm-fan ravnaq topgan zamonda esa zamburug'lar alohida bo'limga ajratilgan. Quyida ularning o'zaro farqlari keltirilgan:

| O'simliklar | Zamburug'lar |
|-------------|--------------|
|-------------|--------------|



| | |
|--|--|
| Ular oziq zanjirida produtsentlar* ²² | Oziq zanjirida redutsentlar* ²³ |
| Hujayra devori sellulozadan iborat | Hujayra devori xitindan iborat |
| Oziq-ovqat holda tarkibida kraxmal bor | Tarkibida glikogen mavjud |
| Xlorofilga ega | Xlorofilga ega emas |

O'simliklar va zamburug'lar o'rtasida ayrim o'xshashliklar bor – zamburug'lar ham, o'simliklar ham eukariotlardir. Bundan tashqari, o'simliklar ham, zamburug'lar ham membrana bilan bog'langan yadrolarga ega. Farqlar esa quyidagilarda kuzatiladi: o'simliklar avtotrof – o'z energiyasini ishlab chiqaradi, ammo zamburug'lar geterotrofdir – tayyor holdagi organik moddalardan energiya oladi. Shuningdek, hasharotlarning ekzoskeletida ham zamburug'larda bo'lgani kabi xitin va glyukanlar deb ataluvchi murakkab polisaxaridlar mavjudligi va zamburug'larning hujayra devorlariga tizimli kuch berishi bilan o'xshashdir.

Tabiatda achitqi, zang, chirituvchi, mog'or, qo'ziqorin kabi xil zamburug'lar turlari mavjud. Ulardan qalpoqchali zamburug'lar: 1) qo'ziqorinlar, 2) mog'orlar va 3) achitqilarlar – uchta asosiy toifadir. Zamburug'larning yashash joylari tuproq, suv va juda ko'p o'rganilmagan zamburug'larni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan organizmlarni o'z ichiga oladi, ularning soni o'simliklardan kamida 6 marta ko'p bo'lishi mumkin. So'nggi hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, tabiatda 5,1 million zamburug' turlari mavjud.

Bakteriyalar bilan birgalikda zamburug'lar organik moddalarni parchalash va uglerod, kislorod, azot va fosforni tuproq va atmosferaga chiqarish uchun javobgardir. Qo'ziqorinlar ko'plab maishiy va sanoat jarayonlari, xususan, non, sharob, pivo va ba'zi pishloqlar tayyorlash uchun zarurdir.

Qo'ziqorinlardan tibbiy maqsadlarda foydalanish bakterial kasalliklarni davolashda nihoyatda samaralidir.

Qo'ziqorinlardan olingan penitsillin birinchi marta bakterial kasallikni davolash uchun samarali ishlatilgan. Ilgari o'limga olib keladigan bakteriyalar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab kasalliklar uning yordamida davolanadi:

Griseofulvin, tez-tez ishlatiladigan antifungal dori, qo'ziqorinlardan hosil bo'ladi. **Dermatofitlar** griseofulvin bilan davolanadi. Mahalliy davolanishdan so'ng u soch va terida to'planadi.

Xamirturushlar va xamirturushga o'xshash organizmlarga qarshi ta'sir doirasi cheklangan yana bir murakkab kimyoviy modda – **sordarin**. Kimyoviy moddalar oqsil ishlab chiqarishni bloklaydi va insonning turli qo'ziqorin kasalliklari uchun mashhur terapiya ekanligini isbotladi.

²² Organik moddalar hosil qiluvchilar.

²³ Organik qoldiqlarni chiritib, mineral moddalargacha parchalovchilar.



Bir nechta qo'ziqorinlar metabolit sifatida **siklosporin A** ni ishlab chiqaradi. Bu hayvonlarda kuchli immunosupressant bo'lib, suyak iligi va organlar transplantatsiyasidan keyin odamlarda keng qo'llaniladi.

Statinlar qon tomirlaridan past zichlikdagi lipoproteinlarni (LDL), "yomon" xolesterinni kamaytirishda samarali ekanligini isbotladi va arterial blokirovka, yurak xuruji va diabet xavfini kamaytiradi.

Qo'ziqorin va o'simlik ildizlari o'rtasidagi mikorizal o'zaro ta'sir qishloq xo'jaligi yerlarini ishlab chiqarish uchun juda muhimdir. Daraxtlar va o'tlarning 80-90%, agar ularning ildiz tizimida zamburug'li hamroh bo'lmasa, nobud bo'ladi.

Qo'ziqorinlar inson ovqatlanishida muhim rol o'ynaydi. Delikateslarga a) morels, b) shiitake qo'ziqorinlari, c) chanterelles va d) truffle kiradi. *Agaricus campestris* yoki o'tloq qo'ziqorini turli oshxonalarda ishlatiladi.

1850-yillarning oxirida Lui Paster fransuz pivo ishlab chiqarish biznesi uchun barqaror *Saccharomyces cerevisiae* pivo xamirturushini kashf etdi[4].

Qo'ziqorinlarning 200 ga yaqin turi odamlar uchun zaharli hisoblanadi. Yutish yoki boshqa turdagi ta'sir toshma yoki ko'ngil aynishi kabi engil asoratni keltirib chiqarishi mumkin, biroq undan ko'p ekstremal asoratlar, organ yetishmovchiligi va hatto o'limga olib keladi. Ba'zi zamburug'lar spora hosil qiladi, bu meningit shaklini, miya yoki orqa miya atrofidagi to'qimalarning yallig'lanishini keltirib chiqaradi.

Zamburug'lar oziq-ovqat mahsulotlarini buzish, yog'ochni yo'q qilish, ekinlar, chorva mollari va odamlarning kasalliklarini keltirib chiqarish orqali zarar keltiradi. Qo'ziqorinlar, asosan, *Penicillium* va *Aspergillus* kabi mog'orlar uzoq saqlangan ovqatlar tarkibini buzadi. Zamburug'lar o'simlik xususiyatli kasalliklarining aksariyat katta qismini keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida jiddiy iqtisodiy yo'qotishlarga olib keladi. Eng xavflilari "xavfli guruh"ga mansub bo'lib, unda faqat to'rtta qo'ziqorin patogenlari mavjud: ***Cryptococcus neoformans***, ***Aspergillus fumigatus***, ***Candida albicans*** va ***Candida auris***.

Zamburug'lar shohlangan tuzilishga ega, lekin o'simliklardan ko'ra hayvonlarga yaqinroqdir.

Plastmassalarni yillar davomida emas, balki haftalar ichida parchalashga qodir qo'ziqorin topilgan. Ularning ba'zilari hatto chumolilarni zombilarga aylantirishi mumkin.

Zamburug'lar Yerdagi eng xilma-xil organizmlardan biri bo'lib, biz bilganimizdek, hayotning ko'plab jabhalarida o'z o'rniga ega. Dunyo bo'ylab taxminan 5,1 million zamburug'lar aniqlangan, ammo ularning 90% dan ortig'i hozirda fanga noma'lum. Fanda shohli qo'ziqorinlarning odam, jonivorlar kabi nafas olishi va ba'zilarining hatto go'sht yeyishlari ham ma'lum[6].

Xullas, zamburug'larning insoniyat uchun o'ziga yarasha foydali va ziyon keltiruvchi xususiyatlari bor bo'lib, go'zal tabiatning bir mo'jizaviy "oila"sini tashkil qiladi.



ADABIYOTLAR:

1. Ainsworth GC (1976). Introduction to the History of Mycology. Cambridge University Press.
2. Xolida Mirfayoz qizi Maxkamova. Botanika. T. "O'qituvchi" 1995.1
3. Кудряшова З. Н. Микология с основами фитопатологии. — Минск, 1968.
4. Geison G. The private science of Louis Pasteur. — Princeton, NJ : Princeton University Press, 1995. — 378 p.
5. <https://botany.uz/en/ozbekcha-mikologiya-va-algologiya-laboratoriyasi/>
6. <https://www.bbcearth.com/>
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Mycology>
8. <https://www.britannica.com/>



TUPROQSHUNOSLIK FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847249>

Abduxakimova Xusnidaxon Abdullayevna
b.f.f.d. (PhD) *Farg'ona davlat universiteti*

Annotatsiya. *Zamonaviy pedagogik texnologiya usullarini qo'llash oliy ta'limda o'qitish jarayonining yuqori samaradorlikka erishishiga olib keladi. Maqolada tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda ta'lim berishning noan'anaviy metodlaridan foydalanishning ayrim usullaridan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, interfaol usul, nutq, tarbiya, muloqot, savol-javob, mantiq, fikrlash.*

Bugungi kunda respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida ta'lim sohasida ham bir qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlangan mamlakatlar darajasida raqobatbardosh, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini egallagan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadi va O'zbekistonning kelajagi, istiqboli, avvalambor yoshlar tarbiyasiga, sog'lom muhitni yaratishga, ularni o'stirishga, milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashga bog'liq bo'lib, bu murakkab jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish mustaqil mamlakatning eng dolzarb vazifalaridan biridir [1].

Yuqori malakali pedagoglarga bo'lgan talablar kundan kunga ortib borib, barkamol avlodni asrdar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorganligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan ehtiyoj va talab kun sayin kuchayib bormoqda.

Pedagogik texnologiyaning asosiy elementlari quyidagilardan iborat, ya'ni:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqotidir. Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olinadigan tasavvurlar;
- muloqot yuzasidan fikrlash va fikr almashish;
- pedagogik muloqotni tashkil etishning texnikasi va texnologiyasi;



- ishga ijodiy yondashish va boshqalar [2,3].

2. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va uni mezonlash:

- xatti-harakatlardan olingan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektning qabul qilish;

- baho berish usullarini tanlash, o'qituvchi(pedagog)ning o'z imkoniyatini tahlil etishi va ta'sir samaradorligini oshirishi);

-pedagogik baholash texnologiyasi.

3. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi:

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, demonstratsion va ko'rgazmali vositalar-axborot olish vositalaridan biri sifatida;

- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazmalar;

- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;

- demonstratsion va ko'rgazmali vositalar, etik, iqtisodiy, estetik, gigiyenik materiallar;

- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini demonstratsiya qilish texnologiyasi.

4. Pedagogik vaziyatlarni yaratish va uni yechish texnologiyasi:

- pedagogik konflikt tushunchasi – konflikt pedagogik texnologiya elementi sifatida, konflikt subyektlari orasidagi qarama-qarshiliklar, bo'sh va mazmunli konflikt;

- holat tahlili (voqeani aniqlash);

- konflikt;

- konfliktning xilma-xilligi (norozilik, qarshi chiqish);

- konfliktning yechish shakllari (hazil, mutoiba).

Pedagogik texnologiya atamasiga YUNESKO halqaro tashkiloti tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra:

Pedagogik texnologiya – ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir [4].


Shuningdek, texnologiya deganda, subyekt tomonidan obyektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida subyektning sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, obyektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma - ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Yuqorida keltirilgan tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi(pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarini intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchi-talabalarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin [5,6].



Odatda, tuproqshunoslik fanlarini o'qitishda talabalarning hamkorlikda, guruh bo'lib ishlashlari bilan bog'liq texnologiyalar asosan, seminar dars mashg'ulotlarida muhim natija berib, ma'ruza darslarida ta'lim beruvchi tomonidan dars jarayonida "Zig-zag", "Charxpalak", "Tushunchalar tahlili", "Klaster", "Agar men", "Blist", "Bumerang", "Yelpig'ich", "Aqliy hujum" kabi metodlar yordamida talabani qiziqtirish, diqqatini jamlash, fikrlash jarayonini tezlatish va oson o'zlashtirishga imkon beruvchi organayzer va texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida ma'ruza mashg'ulotlari uchun qo'llanilgan usullarning bir nechtasini keltirib o'tamiz.

"Savol-javob" usuli

Bu usul mavzuning talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo'llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etishi, aynan mavzuga doir bo'lishiga bog'liq.



"Veyer" usuli

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborat beriladi. Ayni paytda, ularning har biri aloxida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda g'oyalar, fikrlarni yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, ximoya qilishga imkoniyat yaratadi [7,8].

"Veyer" texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qatnashuvchi guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

"Veyer" texnologiyasidan mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida foydalanish mumkin.

-boshida, o'z bilimlarini erkin faollashtirish.

- mavzuni o'rganish jarayonida, uning asoslarini chuqur faxmlash va anglab yetish.



- yakunlash bosqichida, olingan bilimlarni tartibga solish.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan ushbu zamonaviy metodlar hamda treninglarda qo'llanilgan texnologiyalar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi [9].

Ma'ruza mashg'ulotlari ta'limning boshqa shakllaridan farqli ravishda, an'anaviy ta'limda asosan o'qituvchi tomonidan boshqarilib, bu holat barcha talabani o'ziga o'qituvchi tomonidan boshqarilib, bu holat barcha talabani o'ziga jalb eta olmaslik, ularning o'quv materiallarini notekis o'zlashtirishlariga va shu kabi ko'plab nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ma'ruza ma'lumotlarini o'rganishda ularning ta'lim beruvchi bilan, shuningdek, o'zaro hamkorligini tashkil etish asosida olib borish har bir talabani dars jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash va shu orqali ularni yuqori darajada o'zlashtirishlarini ta'minlash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev U.B. "Tuproqshunoslik" kursini o'qitishda pedagogik texnologiyalar. – F.: 2023. 126 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – T.: Istedod, 2008. –180 b.
3. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. –T., "Fan va texnologiya", 2007.
4. Абдухакимова, Х. А. (2021). Шохимардонсой конус ёйилмаси сугориладиган тупроқларнинг геохимёси. *Б. ф. ф. д. дисс. автореф. Фаргона, 42.*
5. Isag'aliyev M., Abduxakimova X., Mirzajonov I. Sug 'oriladigan o 'tloqi saz tuproqlarining agrokimyoviy xossalari //Fanning dolzarb masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–F.: FDU. – 2018. – C. 84-86.
6. Isag'aliyev M., Yuldashev G. Abdukhakimova Kh. Geochemistry of biomicroelements in irrigated serozemsof the south of Fergana. *European Sciences review. Scientific journal.* – 2018.
7. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. CULTIVATION OF MEDICINAL SAFFRON PLANT IN THE SOIL COVER OF FERGANA REGION //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 240-244.
8. Abdukhakimova, H. (2023). GENERAL PHYSICAL PROPERTIES OF IRRIGATED SIEROZEM-MEADOW SOILS. *Science and innovation, 2(D2), 140-142.*
9. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. FARG 'ONA VILOYATINING TUPROQ QOPLAMIDA DORIVOR ZAFARON O 'SIMLIGINI YETISHTRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D7. – C. 240-244.



BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847286>

B.U.Normo'minov

*SamDChTI gumanitar fanlar va axborot
texnologiyalari kafedrasida assistent o'qituvchisi
(normuminovbahodir1@gmail.com)*

Annotatsiya: *Maqola bakalavr talabalarini o'qitishning innovatsion shakllariga bag'ishlangan bo'lib, maqolada o'qituvchining kasbiy standartida belgilangan mehnat harakatlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini modernizatsiya qilish mumkinligi muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *bakalavrlar tayyorlash, o'qituvchining kasbiy standarti, modernizatsiya.*

ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: *статья посвящена инновационным формам обучения студентов бакалавриата, в статье обсуждается возможность модернизации знаний и умений педагога, необходимых для осуществления трудовых действий, определенных профессиональным стандартом.*

Ключевые слова: *подготовка бакалавров, профессиональный стандарт педагога, модернизация.*

FUNDAMENTALS OF IMPROVING INNOVATIVE TECHNOLOGIES TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION OF FUTURE TEACHERS

Annotation: *the article is devoted to innovative forms of teaching undergraduate students, the article discusses the possibility of modernizing the knowledge and skills of a teacher necessary for the implementation of labor actions defined by a professional standard.*

Keywords: *bachelor's degree training, professional standard of a teacher, modernization.*

Mamlakatimizda ta'limni rivojlantirishning maqsadli dasturiga muvofiq ta'lim tizimii modernizatsiyalash, kadrlarni qayta tayyorlash, o'quv jarayonini axborotlashtirish, axborot makonlarini yaratish kabilarni amalga oshirish zarur. Sanab o'tilgan talablar yangi milliy ta'lim tizimining shakllanishiga, inson kapitalining



rivojlanishiga, mamlakatimiz iqtisodiyotining mustahkamlanishiga olib keladi. Pedagog kadrlarning bilimlarini, kompetensiyalarining doimiy yangilash va butun ta'lim tizimini takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish lozim. Ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning joriy qilinishi ta'lim oluvchilarni dolzarb pedagogik bilimlar bilan ta'minlash uchun o'z kasbiy faoliyatiga yangi yondashuvlarni olib kirish va ularni o'zlashtirishi darajasining ortishiga imkon beradi. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash ta'lim oluvchilarning ham ta'lim olish faoliyatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi [1].

Axborot jamiyatida o'qituvchilarning maqomi va rolini o'zgartirish zarurati, kasbiy tayyorgarlik sifatining pasayishi, o'qituvchilik kasbini egallashning yangi usullari va vositalarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan o'qituvchilar ta'limini modernizatsiya qilish muhim tarkibiy tuzilmalarga olib keldi va mamlakatimizda pedagogik ta'lim tizimidagi mazmunli o'zgarishlar. Bu birinchi navbatda, zamonaviy o'qituvchining yangilangan qiyofasini shakllantirishda namoyon bo'ldi. Universal professional, professional mobil, fan bo'yicha nafaqat yuqori sifatli tayyorgarlik ko'rishga, balki mustaqil o'qishga, yangi fan yo'nalishlarini o'zlashtirishga va harakat usullari va ta'lim jarayonining turli ishtirokchilari bilan samarali o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yadi.

Shunday ekan, bugungi kunda ta'lim jarayonida ishlab chiqilgan so'ngi umumiy ta'lim dasturlari orqali o'quv jarayonini loyihalash va amalga oshirish bo'yicha faoliyatning birinchi turi pedagogik funktsiya kabi mehnat funktsiyalarini birlashtiradi. Ushbu maqolada bizning ko'rib chiqish ob'ektimiz ta'lim va rivojlantirish faoliyati hamda ularning alohida komponentlaridan iborat.

Ta'lim faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mehnat faoliyatini (zamonaviy amalga oshirish, shu jumladan sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv-tarbiyaviy ishlarning interfaol, shakllari va usullari;
- talabalarda rivojlanish kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va boshqalar);
- zarur ko'nikmalar (o'quv guruhlarida talabalarning turli yoshdagi bolalar-kattalar jamoalarini tashkil etish);
- zarur bilimlar (ta'lim metodologiyasi asoslari).

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – yangi tahrirdagi **“Ta'lim to'g'risida”**gi qonunning qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Belgilab berilgan printsiplar asosida hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari izlanishlariga, mustaqil o'rganib,



tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ishlashda o'qituvchida innovatsion faoliyat haqida tushuncha bo'lishi kerak. Mohiyatiga ko'ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo'llashga tayyorligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi;
- tashabbuskorligi.

Talaba o'qituvchi orqali o'zlashtirgan ma'lumotlarni takrorlash, musraqil fikrlash va original manbalarni o'rganish hamda hayotiy tajribalarga haqiqiy vazifalarga asoslanib faoliyat yuritishga ko'nikma hosil qila olishi kerak. Davlat ta'lim standartining yangi avlodini joriy etish talaba va o'qituvchini "umr bo'yi ta'lim" modelini shakllantirishga asoslanadi. Ushbu kontseptsiya hayot davomida o'rganish zarurligini ko'rsatadi, doimiy va izchil faoliyat yuritishga asoslanadi. Har bir talaba ma'lum bir kompetentsiyaga ega bo'lishi kerak, keyingi hayot va kelajakdagi rivojlanish uchun zarur. Professor S.P. Baranov o'zining 1981 yilda yozgan "O'quv jarayonining mohiyati" asarida eng muhim vazifalar ekanligini ta'kidlaydi. O'qitishda tinglovchilarda olingan bilimlarni hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, shaxsni muayyan jamiyatda hayotga tayyorlash kerakligini ta'kidlaydi [2].

Yangiliklar yoki innovatsiyalar har qanday kasb inson faoliyatiga xosdir va shuning uchun tabiiy ravishda o'rganish, tahlil qilish va amalga oshirish ob'ektiga aylanadi. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular alohida o'qituvchilar va butun jamoalarning ilmiy izlanishlari, ilg'or pedagogik tajribasi natijasidir. Bu jarayon o'z-o'zidan bo'lishi mumkin emas, uni boshqarish kerak.

Pedagogik jarayonga kelsak, innovatsiya deganda o'qitish va tarbiyalashning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangi narsalarni kiritish, o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- YaPT (yangi pedagogik texnologiya) bo'yicha xorijiy tajribalardan bohabar bo'lish;



- Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;

- Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib borish;

- Bilimlarni ko'nikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo'lishi;

- Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;

- Imkoni bo'lsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi;

- O'z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.

- O'qituvchi innovatsion texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil etar ekan, turli texnik vositalardan ham (kampyuter, proyektor, elektron doska va hokazo) foydalanishi mumkin.

O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar haqidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof etish kerak. Har bir o'qituvchi ta'limga individual tarzda yangilik kiritishi mumkin. Innovatsion texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmaslikdan kelib chiqadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezonini o'sib kelayotgan avlodni yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyati baland, har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash hamda mamlakatimiz kelajagini yanada yuksaltiradigan, o'zbek elining dong'ini jahonga taratadigan, g'oyatda intellektual, manan barqaror yosh malakali kadrlarni yetishtirib borishdir.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati, uzluksiz ta'lim tizimi orqali shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib yetishini ko'zda tutadi. Bunda shaxs uzluksiz ta'limda va kadrlar tayyorlashda ta'lim xizmatlarining iste'molchisi hamda ishlab chiqaruvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday ekan bu iste'molchi hamda ishlab chiqaruvchisi bo'lmish yosh avlodning ertangi kunini belgilab beruvchi bilim va ko'nikmalari, o'z navbatida malakali pedagog-o'qituvchilar tomonidan qiziqarli dars mashg'ulotlari, dunyo bilim va ko'nikmalariga javob bera oladigan oliy ta'lim sifati yanada intellektual bilimlar bilan boyitilib borishi hamda ijtimoiy-gumanitar fanlar orqali mu^ahkamlanib bormog'i lozimdir. Avvalombor, qiziqarli dars mashg'ulotlari bo'lajak pedagog yoshlarda o'z faniga hamda kasbiga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi va dars mashg'ulotlariga bo'lgan faol tushunchalar, tajribalar hamda salohiyatni kuchaytiradi. Bu esa ular kelajagiga qo'yilgan ilk qadamlari bo'ladi desak mubolag'a bo'lmas edi. O'sib kelayotgan yosh avlodga bugungi kunda qanchalik e'tibor va ahamiyat qaratadigan bo'lsak mamlakatimizda shu darajada ilmiy yuksalish kuzatiladiki, biz buni hozirgi rivojlanib borayotgan fan-texnika jarayonlarida va barcha sohalarda yaqqol namoyon bo'lganligini ko'ra olamiz desak, fikrimizning yorqin dalili bo'lar edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yanada ilg'or va manan barqaror yosh avlodimiz ertangi kuni yuksak ma'naviyatini salmoqli darajada boyituvchi shaxs pedagoglardir.



Shuningdek, bu borada birgalikdagi harakat yoshlarimizning barkamol inson bo'lib voyaga yetishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millatning taqdiri va istiqbolini ta'minlash kabi jiddiy muammolarni hal qilishning ilmiy asoslari va amaliy yo'llarini yaratishda buyuk ajdodlarimizning ibratli ishlari, ta'limotlarini hayotimizga tadbiq etish taqazo etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baranov S.P. O'quv jarayonining mohiyati. - M., 1981. - 143 b.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
3. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
4. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: "Moliya " nashriyoti, 2003 y. - 171 b.

**МОДУСНИНГ ГРАММАТИК САТХДА ИФОДАЛАНИШИ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847296>

З.Йигиталиева

ф.ф.ф.д., ФДУ

Аннотация: *Мазкур мақолада модус гапнинг грамматик структурасида ифодаланиши ҳақида сўз боради. Унда предикат, гап таркибидаги актуаллашаётган бўлак, кириш бўлаклари сўзловчининг нутқ предмети ва объектив оламга нисбатан муносабати ва баҳосини ифодалаш ҳолатлари таҳлилга тортилган.*

Калит сўзлар: *Синтактик сатҳ, семантик сатҳ, гап, қўшма гап, предикат, кириш бўлаги, модус, баҳо, муносабат.*

Тилшуносликда гап ҳақидаги синтактик назарияларнинг пайдо бўлиши уни турлича талқин қилиниши билан боғлиқдир. Сўз гап ва матннинг модал структураси ҳақида борар экан, гап ва матн ҳақидаги назарияларнинг юзага келиши синтактик бирликларга анъанавий ёндашув натижасида амалга оширилган тадқиқотлар натижалари билан боғлиқ бўлганлигини таъкидлаш муҳимдир. Шу асосда матн, “гап семантикасига қизиқишнинг уйғонишига, лингвистик назария ривожига таъсир этган бир қатор факторлар мавжуд: лингвистиканинг гап мазмуни – пропозицияга алоҳида диққат қилувчи логика билан муносабатининг янги поғонага кўтарилиши, тил ва нутқнинг маъно томонига умумий бурилиш, нутқ фаолиятининг прагматик компонентига эътиборнинг кучайиши, гапга ўзининг махсус маъноси бўлган тил белгиси сифатида қарашнинг юзага келиши ҳамда ... синтактик трансформация назариясининг вужудга келиши сингари факторлар туртки бўлди²⁴”. Проф. А.Нурмонов гап ҳақидаги синтактик назарияларга тўхталиб, синтактик семантика масалаларига алоҳида эътибор қаратади ва бу борада “формал синтактик моделларнинг хусусий маънолари синтактик семантиканинг асосий вазифаси бўлиши керак” деб таъкидлайди. Бизнинг фикримизча, тилнинг модал структураси унинг барча сатҳ бирликлари орқали намоён бўлади. Проф. А.Нурмонов ҳам “тилнинг ҳар қандай сатҳ бирликлари, жумладан, гапнинг структур схемалари ҳам ундаги категориал ва конкрет маънолар муносабатлардан ҳосил бўлган семантик ўзига хосликка эга бўлади,” деб тилнинг барча сатҳ бирликларига алоҳида эътибор қаратадилар. Гап ёки матннинг мазмуний структураси илмий адабиётларда таъкидланганидек, пропозитив, модал ва коммуникатив компонентлардан иборат бўлиб, улар ўзаро бир-бирини тўлдириш учун хизмат қилади, айни пайтда гапнинг семантик

²⁴ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Тошкент, 1988.—58-бет.



структурасига алоқадор бу компонентлар диктум ва модусни дифференциация қилишга, турли мақомга эга бўлган мазмуний структуралардан бирини актуал ва ноактуал қаторга ўтказишга, шу билан бирга кўрсатиб ўтилган компонентлардан бирининг эксплицит, бошқасининг имплицит формаларда баён қилинишига ёрдам беради. Бу фикрлар, албатта, гап ёки матн семантик структурасига тааллуқли бўлган юқоридаги компонентлар томонидан муаллиф тасавуридаги турли муносабатлардан иборат бўлган психологик модусни ифодаланишига ҳам хизмат қилади.

Тилшуносликда синтактик бирлик бўлмиш гапга нисбатан турлича таърифлар берилган бўлиб, улардан бири рус тилшуноси Г.В.Колшанскийга тегишлидир. Олим гап сўзига семантик нуқтаи назардан ёндашиб, уни “субъектив ифода ва объектив мулоҳазани ўз ичига олувчи универсал мантиқий мақомга эга бўлган ягона ахборот²⁵ сифатида талқин қилади. Бундан келиб чиқадики, инсон объектив маънога эга бўлган ахборотни таҳлил қилиш орқали унга субъектив тус беради. Ушбу субъективлик, яъни модус, аксарият ҳолларда жумланинг грамматик структурасида ўз ифодасини топади. Хусусан, илмий адабиётларда модус масалалари ва унинг ифодаланиши тилнинг синтактик сатҳида турлича шаклларда намоён бўлиши ҳақида сўз юритилади. Бу борадаги энг асосий ва етакчи қарашлардан биттаси проф. Н.Маҳмудовнинг эргаш гапли қўшма гаплар таснифига оид мақолаларида кўзга ташланади. Модус гап таркибидаги предикатда, гап таркибидаги актуаллашаётган бўлакда ва эргаш гапли қўшма гапнинг ҳар икки қисмида дифференциацияланган тарзда ифодаланиши тил далиллари билан исботланади.

Модус эргаш гапли қўшма гапларнинг эргаш гап қисмида ифодаланар экан, “эргаш гапда предикат сифатида, кўпинча, шарт майлидаги феъл иштирок этади²⁶” ва у орқали модус ва унинг турли маънолари ифодаланари.

Сиз келганда, биз турсак ярашади, биз келганда, сиз турсангиз хунук кўринади.

(А.Қаҳҳор, Хотинлар)

Юқоридаги мисолларнинг эргаш гап таркибидаги кесим бўлаги мазмуни орқали сўзловчининг коммуникатив вазиятга нисбатан берган муносабати ифодаланмоқда. Мисоллардаги *ярашади*, каби сўзлар ушбу муносабатнинг ижобий ёки салбий бўёқ олишига хизмат қилмоқда.

Модус эргаш гапли қўшма гапнинг бош қисмида ифодаланганда, бош гап таркиби бир сўз қолгунигача қисқариш хусусиятига эга бўлади ва ушбу сўзлар кириш бўлак, деб аталади. Тилшуносликда модал сўзлар ва кириш бўлақлар ҳақидаги илмий назариялар асосида шаклланган модус ҳодисаси ҳақида Н.Маҳмудов, А.Нурмоновлар томонидан 1995 йили нашр қилинган “Ўзбек

²⁵ Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974. – С. 29.

²⁶ Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — 103-бет.



тилининг назарий грамматикаси (синтаксис)“ номли дарслигида кириш бўлаклари билан боғланган ҳолда, уларнинг “семантикаси бевосита модусдан иборат²⁷” эканлигини айтадилар. А.Ғуломов кириш бўлақларнинг этимологиясига назар ташлар экан, уларнинг аксарияти аввал гап шаклида бўлганлигини, сўзловчи коммуникатив мақсадидан келиб чиқиб уларни ихчамлаштирган ҳолда қўллашینی таъкидлайди²⁸. Гап кириш бўлакка айланганида эса, ўзининг денотатив маъносини йўқотади ва эргаш гап билан биргаликда ягона денотатив маънони ифодалайди.

Мен сизга нима демоқчилигимни биласизми, киши чарчаган вақтида кўнгилни ғаш қиладиган хаёлларга боради.

Сизга нима демоқчилигимни биласизми, киши чарчаган вақтида кўнгилни ғаш қиладиган хаёлларга боради.

Нима демоқчилигимни биласизми, киши чарчаган вақтида кўнгилни ғаш қиладиган хаёлларга боради.

“Биласизми, киши чарчаган вақтида кўнгилни ғаш қиладиган хаёлларга боради”.

(А.Қаҳҳор, Хотинлар)

Кўринадики, бош гапнинг бир сўз даражасигача қисқариши қўшма гапнинг умумий маъносига таъсир кўрсатмайди. Сўзловчи кириш бўлагидан фойдаланиш мобайнида тўлиқ гап орқали ифодаламоқчи бўлган ва сўзловчи ва тингловчига бирдек маълум бўлган мазмунни назарда тутаяди. Аммо бу модусга, албатта, таъсир этади. Модус учун ҳар бир элемент (ҳатто уларнинг қисқартирилиши ҳам) аҳамиятлидир. Шу ўринда “сизга нима демоқчилигимни биласизми” тарзида шакллантирилган гап сўзловчи ва тингловчи ўртасида маълум масофа – бегоналик, малол олиш, ёқтирмаслик, асабийлик, эзмалик ва нутқ вазиятига кўра яна бошқа шу кабиларни ифода этса, қисқариб “биласизми” шаклида қўлланиши, аксинча, яқинлик, хайрихоҳлик, вақтичоғлик ва кўтаринкиликни ифодалайди. Аммо уларнинг семантикаси ҳақида айтилган бу фикрлар ўта нисбийдир. Уларнинг ҳақиқий мазмуни нутқ вазиятига кўра аниқланади. Худди шундек *эҳтимол, шубҳасиз, балки, албатта, ҳақиқатан, дарҳақиқат, ростдан ҳам, ўз-ўзидан, албатта, сўзсиз, шекилли, чамаси, афтидан, балки, чоғи, менимча, айтишларича, хуллас, ниҳоят, бахтимга, афсуски, мабодо, назарида, афтидан в.ҳ.к.* кириш бўлаклари ҳам ўзининг келиб чиқиш тарихига эга. Улар нутқнинг мантиқий тузилишини таъминлаш билан бирга, гапларнинг денотатив маъноларига субъектив бўёқ беради. Кириш бўлақларнинг нутққа қўшаётган модус маъноларни қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

- Гапда ифодаланган фикрнинг аниқлиги, реаллигини тасдиқловчи:

²⁷ Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — 101-бет.

²⁸ Ғуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. — Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 156-бет.



Албатта берар эди! Албатта анор олмай, асал олгансиз!

(А. Қахқор, Анор)

Эшикни очсам, дарҳақиқат, Мирвалининг ўғли.

(С.Аҳмад, Гугурт)

Шубҳа йўқки, Анварнинг гапи Ҳолидийга етиб борган.

(Т.Малик, Шайтанат)

• Гапда ифодаланган фикр тахмин, гумон эканини билдирувчи:

Шунда ўтирганлардан бири, интиҳосиз гапдан зерикди шекилли, қаттиқ эснаб, деди: ...

(А. Қахқор, Майиз емаган хотин)

Ҳавасга анор ейди, дейсиз шекилли

(А. Қахқор, Анор)

Борди-ю, у ҳам олисда бўлса қай аҳволга тушаркин, эҳтимол, бундан ҳам узоқ йўлни пиёда босиб келармиди.

(С.Аҳмад, Зумрад)

Орқа қаторда ўтирган йигирма беш ёшлар чамаси бир йигит ўрнидан турди.

(С.Аҳмад,Азроил ўтган йўлларда)

Осмон тўла юлдуз, ой чўл устига келганда пастлаб ўтади, ё менга шунақа туюладими, ё ростдан ҳам ўзи шунақами, билмадим.

(С.Аҳмад,Ўрик домла)

• Бирор воқеа-ҳодисадан афсусланиш, ажабланиш кабиларни билдирувчи:

Э, аттанг. Эсиз умр, эсизгина умр-а! Худо мени одамларнинг лаънати эшитиш учун яратган бўлса, иложим қанча! — деди у афсус-надоматлар билан.

(С.Аҳмад, Азроил ўтган йўлларда)

• Фикрнинг ўзаро муносабатини ва тартибини билдирувчи:

“Демак, мендан қўрқмайди. Демак, менинг эсим соғ. Бу яхши”, деб ўйлади Анвар.

(Т.Малик, Шайтанат)

Хуллас, бир жиннихонада жиннилар тузаладими ё йўқми, билмоқчи бўлишибди.

(Т.Малик, Шайтанат)

• Баён этилаётган фикрга берилган умумий баҳони билдирувчи:

Мана шундай вақтларда тил қотиб оғизда айланмай қолади, мабодо айланса, муштнинг хизмати қилади=x

(А. Қахқор, Анор)

• Фикрнинг кимга карашли эканлигини англатувчи:



Унинг Туробжон билан уй қилганига уч йил бўлиб келаётир, **назарид**, бу одам шу уч йилдан бери ғўлдираб келган, ҳозиргиси шунинг давомидай.

(А. Қахҳор, Анор)

Шундай қилиб, модус бир гап кесимида предикат, гап таркибидаги актуаллашаётган бўлак ва эргаш гапли қўшма гапнинг ҳар иккала қисми ҳамда кириш бўлаклар орқали ифодаланади. Ўз ўрнида кириш бўлаклар ўзининг лексик маъносидан келиб чиққан ҳолда, гапга турли модус маъно беради. Бундай гап бўлакларида сўзловчининг мантиқий фикрлашини тартибга солиш билан бирга, унинг коммуникатив вазиятга, билдирилаётган фикрга, суҳбатдошига ва ҳ.к. нисбатан ифодалаётган муносабати ва баҳоси ҳам намоён бўлади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Гуломов А. , Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. — Тошкент: Ўқитувчи, 1987
2. Йигиталиева, З. М. (2020). МАТНДА МОДУСНИНГ ИФОДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ. *Международный журнал искусство слова*, 3(2).
3. Йигиталиева, З. М. (2022). МОДУСНИНГ ПРОСОДИК ВОСИТАЛАР ОРҚАЛИ ИФОДАЛАНИШИ. *ТА'ЛИМ ВА RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 193-200.
4. Колшанский Г.В. Паралингвистика. – М.: Наука, 1974.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. –Тошкент, 1988.
7. Yigitaliyeva, Z. (2020). EXPRESSION OF THE MODUS BY PARALINGUISTIC MEANS. *Theoretical & Applied Science*, (2), 25-29.
8. Yigitaliyeva, Z. M. (2020). About functional syntactic aspects of modality and modus. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(8), 266-272.
9. Muratovna, Y. Z. (2020, November). EXPRESSION OF EMOTION IN MIMIC MODE. In *Archive of Conferences* (Vol. 9, No. 1, pp. 145-147).



O'ZBEKISTONDA MINIMAL ISTE'MOL XARAJATLARI QIYMATINI HISOBLASH TARTIBI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847308>

Tursunqulov Jahongir Furqat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich

MEKP-02-30 guruh magistri

Anotatsiya. *Ushbu maqola orqali Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab etdi.*

Kalit so'zlar: *Minimal iste'mol xarajatlari, iste'mol, kambag'allik, kambag'allik chegarasi, minimal kilokaloriya, protsentil, real iste'mol qiymati, target guruhi, uy xo'jaligi, Engel koeffitsiyenti, uy xo'jaligi.*

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida:

Mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish va ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlarning natijadorligini oshirish va bunda aholining maqsadli guruhini aniqlash bo'yicha vazifalar aniq bir mezon va uslubiy yondashuvlarning ishlab chiqilishini talab etadi.

O'z navbatida, ushbu uslubiy yondashuv va bazani shakllantirish aholining turmush sharoiti va ijtimoiy holatini bevosita o'zida aks ettiruvchi, ya'ni ularning iste'mol tarkibi va xususiyatlari bo'yicha real holatni ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xususan, mamlakatimizda aholining kambag'al qatlamini aniqlash uslubini amaliyotga joriy etish va takomillashtirib borish amalga



oshirilyapti, bir qator vazirlik va hukumat idoralari tomonidan Jahon bankining texnik ko'magi asosida minimal iste'mol xarajatlari qiymatining hisob-kitoblari tayyorlanadi.[1]

2022-yildan boshlab, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali oilani kam ta'minlangan deb e'tirof etish jarayonida qo'llaniladigan va jon boshiga to'g'ri keladigan bir oylik daromad mezoni minimal iste'mol xarajatlariga tenglashtiriladi;

Minimal iste'mol xarajatlari tarkibini respublika iqtisodiyotining rivojlanishi hamda aholi daromad va xarajatlarining o'zgarishini inobatga olgan holda kamida har 5 yilda qayta ko'rib chiqadi.[2]

Minimal iste'mol xarajatlari, kambag'allik chegarasi va uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari hamda tarkibini o'rganish;

Sog'lom hayot kechirish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal iste'mol xarajatlar qiymatini hisoblash tamoyillari, bosqichlari va tartibi.

Minimal iste'mol xarajatlarini hisoblashda har bir uy xo'jaligi a'zolarining yoshi, tarkibidan kelib chiqqan holda tegishli koeffitsiyentlarni qo'llash;

Uy xo'jaliklari kuzatuvlari qamrovini bosqichma-bosqich oshirish;

kambag'allikni qisqartirishning yangi vositalarini amaliyotga joriy etishni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin.

Aholining real iste'mol xarajatlari, xususiyatlari va tarkibidan kelib chiqib, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibini belgilaydi.

Minimal iste'mol xarajatlari BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi, BMT Taraqqiyot dasturi, Jahon banki, FAO, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash bo'yicha berilgan tavsiyalar asosida ishlab chiqiladi.

Kambag'allik — aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishga yetarli darajada bo'lmasligi;

Kambag'allik chegarasi — aholining real xarajatlari tarkibidan kelib chiqib hisoblanadigan bir kishi uchun minimal iste'mol xarajatlari qiymati;

minimal iste'mol xarajatlari (keyingi o'rinlarda — minimal xarajatlar) — uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari va tarkibini o'rganish asosida ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymati;

minimal kilokaloriya — inson organizmining hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal energiyaviy qiymat;

protsentil — so'rovda ishtirok etgan uy xo'jaliklarini jon boshiga nisbatan jami xarajatlarga ko'ra 1 foizlik guruhlariga ajratish;

real iste'mol qiymati — so'rovnomada uy xo'jaligi tomonidan tovar va xizmatlar uchun amalga oshirilgan xarajatlarning puldagi ifodasi;



target guruhi — so'rovnomada ishtirok etgan respondentlar orasidan iste'mol xususiyatiga ko'ra ajratib olingan kichik guruh;

uy xo'jaligi — ma'lum bir uy-joyda birga yashovchi, daromadlarini to'liq yoki qisman birlashtirgan holda umumiy ro'zg'or yurituvchi kishilar guruhi. Bunda uy xo'jaligi a'zolari o'rtasida qarindoshlik aloqalari bo'lishi shart emas;

uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv — uy xo'jaligi budjetining shakllanishi va taqsimlanishini aniqlash hamda ularning hayot darajasini kuzatishga yo'naltirilgan tanlanma so'rov usuli;

Engel koeffitsiyenti — uy xo'jaligining jami xarajatlari tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari qiymatining ulushi.

Minimal iste'mol xarajatlarining uy xo'jaliklari tanlama kuzatuv natijalari asosida aholining real iste'moli tarkibidan kelib chiqib, statistik usul orqali hisoblashga mo'ljallangan.[3]

O'zbekiston Respublikasida aholi minimal xarajatlari va kambag'allik chegarasini hisoblashda bir xil uslubiy yondashuvni ta'minlaydi.

Minimal xarajatlar qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblashda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan amalga oshiriladigan uy xo'jaligi tanlanma kuzatuv natijalari asosida shakllanadigan aholi iste'moli, daromad miqdori va tarkibi;

uy xo'jaliklari iste'molining kilokaloriyadagi qiymatini aniqlash uchun oziq-ovqat mahsulotlarining energiyaviy qiymati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

Minimal xarajatlar qiymati quyidagi tamoyillarga asoslanib hisoblanadi:

aholi tanlovi va moliyaviy imkoniyatlari kabi iste'mol tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning inobatga olinganligi;

aholi oziq-ovqat mahsulotlari iste'moliga sarflagan amaldagi xarajatlarning e'tiborga olinganligi;

aholining real talabidan kelib chiqib hamda demografik holatning o'ziga xosligini inobatga olgan holda, nooziq-ovqat mahsulotlari turlari va tarkibining inobatga olinganligi;

aholining zarur xizmatlar xarajatlari qiymatini hisoblashda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan bepul xizmatlarning e'tiborga olinganligi;

minimal xarajatlar qiymati aholi real iste'moli tarkibidan kelib chiqqanligi sababli ularda boqimandalik kayfiyatini rag'batlantirishga yo'l qo'yilmasligi;

minimal xarajatlar qiymatini aholi bilan bevosita so'rov o'tkazish orqali aniqlanishi.

Minimal xarajatlarni hisoblash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

birinchi bosqichda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan joylarga chiqqan holda uy xo'jaliklarining iste'moli, daromadi va yashash sharoitini inobatga oluvchi so'rovnomaga o'tkaziladi;

ikkinchi bosqichda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda uy xo'jaliklari



kesimida iste'mol qilingan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar qiymati real iste'mol qiymatidan kelib chiqib, target guruhi uchun respublika o'rtacha narxlarida hisoblab chiqiladi;

uchinchi bosqichda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda uy xo'jaliklarining aholi jon boshiga iste'mol hajmidan kelib chiqib, o'sish tartibida detsillarga (10 foizlik guruh) bo'linadi va eng kam iste'molga ega bo'lgan birinchi uch guruhdagi uy xo'jaliklari (target guruhi) ajratib olinadi;

to'rtinchi bosqichda, kambag'al aholining oziq-ovqat mahsulotlari xarajati asosida bir kilokaloriyaga sarflangan qiymat aniqlanadi;

beshinchi bosqichda, bir kilokaloriya qiymati Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti taklif etgan energiya qiymatiga (2 200 kkal) ko'paytirilib, minimal oziq-ovqat xarajatlari aniqlanadi;

oltinchi bosqichda, target guruhining umumiy xarajatlaridagi oziq-ovqat mahsuloti ulushi aniqlanadi;

yettinchi bosqichda, minimal oziq-ovqat xarajatlarini Engel koeffitsiyentiga bo'lish orqali bir kishi uchun minimal xarajatlar aniqlanadi.[4]

Uy xo'jaliklari tomonidan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga sarflangan iste'mol xarajatlari qiymati real iste'mol narxlaridan kelib chiqib, respublika o'rtacha narxlariga o'tkaziladi.

$M_n = m_n * H_n$, bunda:

M_n — uy xo'jaligi tomonidan n turdagi mahsulot iste'moliga sarflangan xarajatlarning target guruhi uchun o'rtacha respublika narxlaridagi qiymati;

m_n — uy xo'jaligi tomonidan n turdagi mahsulot iste'moli miqdori (kg, litr, dona va boshqalar);

H — n turdagi mahsulotning real iste'mol narxlarining o'rtacha respublika narxi.

Misol uchun, uy xo'jaligi bir oyda 5 kg kartoshka iste'mol qilsa, bunda ushbu mahsulotning respublikadagi o'rtacha yillik narxi 4500 so'mni tashkil etsa, bu holda:

$5 \text{ kg} * 4500 \text{ so'm/kg} = 22\,500 \text{ so'm}$.

Uy xo'jaligi tomonidan iste'mol qilingan oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning yig'indisi orqali uy xo'jaligi jami o'rtacha oylik iste'mol xarajatlari qiymati aniqlanadi.[5]

$JI_m = OX_m + HOX_m + XX_m$, bunda:

JI_m — m uy xo'jaligining jami iste'mol xarajatlari qiymati;

OX_m — m uy xo'jaligining oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan jami xarajatlari qiymati;

HOX_m — m uy xo'jaligining nooziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan jami xarajatlari qiymati;

XX_m — m uy xo'jaligining xizmatlarga sarflangan jami xarajatlari qiymati.

Har bir uy xo'jaligi jami iste'mol xarajatlari qiymatini uning a'zolari soniga bo'lish orqali aholi jon boshiga jami iste'mol xarajatlari qiymati aniqlanadi.



Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi jami iste'mol xarajatlari qiymatiga ko'ra uy xo'jaliklari tartiblanadi va protsentillarga bo'linadi.

Uy xo'jaliklarining oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli miqdoridan (kg, litr, dona va boshqalar) kelib chiqib, oziq-ovqat iste'molining jami kilokaloriya qiymati aniqlanadi.

Uy xo'jaliklari oziq-ovqat iste'molining bir kilokaloriya qiymati quyidagicha aniqlanadi[6]:

$$1 \text{ kkal} = \frac{OX_m^{\text{жк}}}{IK_m^{\text{жк}}}, \text{ бунда:}$$

1 kkal — uy xo'jaligi iste'mol qilgan 1 kilokaloriyaning qiymati;

OX_k — m uy xo'jaligining iste'mol qilgan oziq-ovqat xarajatlari;

IK_k — m uy xo'jaligi iste'mol qilgan kilokaloriya miqdori;

Masalan, 5 kishidan iborat uy xo'jaligi bir kunda 53 463 so'mlik maxsulot sotib olib iste'mol qilsa 11 750 kkal energiya oladi u holda 1 kkal energiya narxi quyidagicha aniqlanadi:

$$1 \text{ kkal} = \frac{53\,463}{11\,750} = 4,6 \text{ сўм}$$

Target guruhida bir kishi uchun o'rtacha bir kilokaloriya qiymatini kunlik minimal kilokaloriyaga ko'paytirish orqali kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlarining qiymati aniqlanadi:

$MOX = 1 \text{ kkal} * N \text{ kkal}$, bunda

MOX — kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymati;

$N \text{ kkal}$ — bir kishi uchun kunlik minimal kilokaloriya.

Kunlik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymatini 30,41 ga (365/12) ko'paytirish orqali mazkur ko'rsatkichning o'rtacha oylik qiymati aniqlanadi.

Masalan, agar bir kilokaloriya narxi 4,6 so'm va bir kishi uchun kunlik minimal kilokaloriya 2 200 ga teng bo'lsa, o'rtacha oylik minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymati quyidagicha aniqlanadi[7]:

$$MOX = 4,6 * 2200 * 30,41 = 304\,404 \text{ so'm.}$$

Uy xo'jaligining o'rtacha oylik jon boshiga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlariga sarflangan xarajatlarining umumiy xarajatlardagi ulushini aniqlash orqali har bir uy xo'jaligining Engel koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$Eng_m = \frac{OX_m^{\text{жк}}}{ЖИ_m^{\text{жк}}} \times 100\% , \text{ бунда:}$$

Eng_m — Engel koeffitsiyenti;

$OX_m^{\text{жк}}$ — m uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami oziq-ovqat xarajatlari qiymati;

$ЖИ_m^{\text{жк}}$ — m uy xo'jaligining aholi jon boshiga jami xarajatlari qiymati.

Masalan, agar uy xo'jaligining jami iste'moli tarkibida oziq-ovqat xarajatlari 304 404 so'm, jami xarajatlari 439 860 so'm bo'lsa, u holda quyidagicha hisoblanadi:



$$\text{Энг} = \frac{304\,404}{439\,860} \times 100\% = 69\%$$

Minimal oziq-ovqat xarajatlari qiymatini Engel koeffitsiyentining o'rtacha miqdoriga bo'lish orqali bir kishi uchun o'rtacha oylik minimal xarajatlar qiymati aniqlanadi.[8]

$$MX = \frac{MOX}{\text{Энг}} \times 100\%$$

, bunda:

Masalan, tanlangan guruh bo'yicha o'rtacha Engel koeffitsiyenti 69 foiz, minimal oziq-ovqat xarajatlari 304 404 so'm bo'lsa, u holda:

$$MX = \frac{304\,404}{69} \times 100\% = 439\,860 \text{ сўм.}$$

Minimal xarajatlar hisoblangan yil bazaviy yil bo'lib, kelgusi yil uchun minimal xarajatlar oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar narxlari darajasidan kelib chiqib, indeksatsiya qilib boriladi.

Bunda iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi oziq-ovqat, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarning narxlari o'zgarishi va ularning minimal xarajatlardagi ulushlari ko'paytmasining yig'indisi orqali minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishi hisoblanadi.

$$MX_{\text{инф}} = MOX_{\text{инд}} * Инф_{\text{oo}} + HOX_{\text{инд}} * Инф_{\text{no}} + XX_{\text{инд}} * Инф_{\text{xiz}}, \text{ bunda}$$

$MX_{\text{инф}}$ — minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishi;

$MOX_{\text{инд}}$ — minimal oziq-ovqat xarajatlarining minimal xarajatlardagi ulushi;

$Инф_{\text{oo}}$ — iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi;

$HOX_{\text{инд}}$ — minimal xarajatlar tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi;

$Инф_{\text{no}}$ — iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi nooziq-ovqat mahsulotlari narxining o'zgarishi;

$XX_{\text{инд}}$ — minimal xarajatlar tarkibida xizmatlarning ulushi;

$Инф_{\text{xiz}}$ — iste'mol narxlari indeksi tarkibidagi xizmatlar narxining o'zgarishi.

Minimal xarajatlardagi narxlar o'zgarishini o'tgan davrdagi minimal xarajatlar qiymatiga ko'paytirish orqali hisobot davrida minimal xarajatlar qiymati aniqlanadi.

$$MX_t = MX_{t-1} * MX_{\text{инф}}$$

Kambag'allik darajasi — xarajati (yoki daromadi) minimal xarajatlar qiymatidan past bo'lgan aholining jami aholiga nisbati orqali aniqlanadi.[9]

1-jadval

Aholining minimal xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash

SXEMASI[10]

| Bosqichlar | Tadbirlar | Muddatlar | Mas'ul organlar |
|------------|-----------|-----------|-----------------|
| | | | |



| | | | |
|-----------|---|--|---|
| 1-bosqich | Minimal xarajatlar qiymatining prognoz parametrlarini inflatsiya kutilmalaridan kelib chiqib hisoblash | Har yili avgust oyida | Iqtisodiyot va Moliya vazirligi |
| 2-bosqich | Minimal xarajatlar qiymatining prognoz ko'rsatkichlarini kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari parametrlarini shakllantirishda inobatga olish | Har yili dekabr oyida | Iqtisodiyot va Moliya vazirligi |
| 3-bosqich | Yillik minimal xarajatlar va kambag'allik darajasining amaldagi qiymatini e'lon qilish | Hisobot yilidan keyingi yilning 20-yanvariga qadar | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi |
| 4-bosqich | Minimal xarajatlar tarkibini respublika iqtisodiyotining rivojlanishi hamda aholi daromad va xarajatlarining o'zgarishini inobatga olgan holda qayta ko'rib chiqish | Har besh yilda | Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, |

Xulosa

Umuman olganda, Bozor iqtisodiyoti taqsimlash munosabatlari sohasidagi sodir bo'layotgan jarayonlarni nazariy jihatdan qayta tushunishni talab qiladi. Bu eng avvalo, "aholi daromadlari" tushunchasining ta'rifi, uning tabaqalanishiga va yuzaga kelgan aholi tabaqalanishiga, aholining turmush darajasidagi o'zgarishlarning yo'nalishlarini kuzatib borishga, aynan bir xil daromadlar siyosatini o'tkazish asosida daromadlarning yuzaga kelishi va o'sishi masalalarini ko'rib chiqishni taqozo etadi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida
2. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida
3. T.Turgunov, I.Jalolov "Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistic baholash: milliy va xalqaro tajriba" - "Jamiyat va boshqaruv" №4, 2018 y.
4. X.Abdurahmonov (2017) "Aholi daromadlari va turmush sifati".-T.: Iqtisod moliya.



5. X.X.Abdurahmonov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov (2014)) “Aholi daromadlari va turmush sifati” .-T.: “Tafakkur Bo’stoni”, -B. 5-10
6. X.Q.Abdurahmonov, N.Q.Zokirova. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O’quv qo’llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2013. – 536 b.
7. Abdurahmonov Q.X., Toxirova X., Sharipov B. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. – Toshkent, 2006.
8. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti”. Darslik. – T.: MEHNAT, 2009.
9. Q.X. Abdurahmonov “Inson taraqqiyoti”. Darslik, – T.: Fan va texnologiya, 2013.
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari.



EKSKAVATOR CHOMICH TISHINI KIMYOYIY TARKIBI, MEXANIK XUSUSIYATLARI VA CHOMICH TISHLARINI QUYISH TEXNOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847318>

Mirzakarimov Jasurbek Madaminjon o'gli

"PICHT" mutaxassisligi

2-bosqich magistranti,

Andijon mashinasozlik instituti, Andijon

Annotatsiya: *Gidravlik ekskavatorlarning ish faoliyatini tahlil qilish natijasida ma'lum bo'ldiki, kon ishlarida qo'llaniladigan ko'plab gidravlik ekskavatorlar texnik tavsifda ko'rsatilganidan pastroq quvvatlarda ishlaydi.*

Bunga ishning kutilmagan uzilishlari, qismlarning tez ishdan chiqishi, ekskavatorning ish qismlarining ishonchsizligi sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu maqolada ekskavator chomich tishlarini quyish jarayoni, kimyoyiy tarkibi, mexanik xususiyatlari va chomich tishlarini mustakamligini oshirish bo'yicha ishlanmalar keltirilgan.

Kalit So'zlar: *Karer, ekskavator, chomich, chelak, tish, himoya elementi, samaradorlik, ish vaqti, ishonchlilik, tosh, abraziv aşınma, kimyoyiy tarkibi, chomich, mexanik xususiyatlari, chomich tishlarini mustakamligini oshirish, gidravlik ekskavatorlar.*

KIRISH

Dunyoda foydali qazilmalar konlarining chuqurlashishi, qazib olishning og'ir kongeologik sharoitlarda olib borilishi va mavjud tog'-kon uskunalarning ishonchliligi va iqtisodiy samaradorligiga bo'lgan talablar ochiq gidravlik ekskavatorlarning ishchi elementlari kimyoyiy tarkibi va mexanik xususiyatlari mukammallashtirishga olib keldi.

Ochiq usulda qazib olishni jadallashtirish zamonaviy gidravlik ochiq ekskavatorlardan foydalanishni va ularning quvvatini oshirishni talab qiladi. Zamonaviy gidravlik ekskavatorlar yuqori texnologiyali, qimmatbaho mashinalar bo'lib, ular ish paytida muhim texnik xizmat ko'rsatishni talab qiladi. Ekskavator murakkab tizimli tizimni o'z ichiga oladi. Chomich tishlarining yeyilish tezligi karer ekskavatorlari bugungi kunda dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ekskavatorlarini ekspluatatsiya qilishda foydalanish xarajatlarini kamaytirish, ularning ishonchliligini oshirish bilan bog'liq masalalar hozirda hal qilinmagan va dolzarbdir [3].

Ekskavatorlarning kesish elementlarining nuqsonlari bir qancha omillarga, asosan ekskavator mashinistining ekspluatatsiya vaqtidagi malakasiga, ekspluatatsiya

qoidalariga rioya qilmaslikka, tog' jinslarining xossalari o'zgaruvchanligiga, yaxshi portlatilgan yirik jinslar va boshqa ko'plab texnik omillarga bog'liq.



Yeyilishi natijasida HITACHI EX-1200 ekskavatorining chomich tishlaridagi teshiklari: a - old va yon teshilish; b - oldingi teshilish; v - yon teshilish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ekskavator chomich tishlarini yeyilishi natijasida ularning unumdorligi sezilarli darajada pasayadi, kesuvchi qirralarning geometriyasining o'zgarishi ularning samaradorligiga salbiy ta'sir qiladi va qazish ishlarining davomiyligini pasaytiradi. [1].

Ekskavator kesuvchi qirralar bilan qazish ishlarida quvvat sarfi yangi kesuvchi qirralarga nisbatan 1,5-2 baravar yuqori ekanligini isbotladi. Ekskavator chomichlaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatdiki, tishlarning yeyilishiga ruxsat berilgan, nominal shakldagi tishlar bilan kesish shartlariga nisbatan solishtirma siljish yukini 50-100% ga oshiradi. Ekskavator va yuklash mashinalarining kesish elementlarining ishlamay qolishi ularning ish qobiliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Ba'zi hollarda ishchi qismning yeyilishi tufayli mashinaning unumdorligi 40% gacha kamayadi va yoqilg'i sarfi 30% gacha oshadi [2].

Ekskavator chomich tishlarini quyish jarayoni.

Quyida har bir bosqichda metal quyish zavodida chomich tishlarini quyish jarayonlari keltirilgan:

1-bosqich. Bozor talabiga ko'ra turli ko'rinish va o'lchamdagi chomich tishlarini loyihalash.



2-bosqich. Po'kak qolib yasash

Po'kak qolib yasash chomich tishlarini quyish uchun birinchi qadamdir. Olovga chidamli qobiqning bo'shlig'ini shakllantirish uchun po'kak qolib ishlatiladi. Shunday qilib, yuqori o'lchamdagi aniqlik va sirt qoplamasi bilan sifatli chomich tishlariga erishish uchun po'kak qolib tayorlab olindi. Po'kak qolib modellarining afzalliklari



past haroratda erish, yaxshi sirt qoplamasi va o'lchamlari, yuqori quvvat va engil vazndir.



3-bosqich. Ekskavator cho'mich tishlarin po'kak qoliblarini sprue eshik tizimiga yopishtirish jarayoni.

Sprue - suyuq material qolipga kiritiladigan vertikal o'tish joyi va u katta diametrli kanal bo'lib, u orqali material qolipga kiradi .



4-bosqich. Qobiq qurishning asosiy jarayonlri quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a. Qoplamaning namlash qobiliyatini yaxshilash uchun biz mum modellarining sirt moyini olib tashlashimiz kerak.

b. Po'kak qolibni keramik qoplamaga botirish va sirtga qum sepish.

c. Quruq va qattiq keramika qobig'i. Har safar keramik qobiq qatlamining qoplamasi quritilishi va qotib qolishi kerak.

d. Keramika qobig'ining to'liq qotib qolganidan so'ng, biz qobiqdan mum mog'orini olib tashlashimiz kerak, bu jarayon dewax deb ataladi.

5-bosqich. Qobiq bo'shlig'ini to'ldirish uchun metall suyuq qotishma quyish



. **6-bosqich.** Quyma chomich tishlarini tozalash.



7-bosqich. Issiqlik bilan ishlov berib to'blashdan so'ng , chomich tishlarining tashqi tuzilishi bir xil bo'lab, aşınma qarshiligi sezilarli darajada yaxshilanadi, shuning uchun xizmat muddati avvalgidan ikki baravar yaxshilanadi.

8-bosqich. Cho'mich tishlariga mexanik ishlov beriladi.

9-bosqich. Tayyor bo'lgan cho'mich tishlarini mexanik xususiyatlari qayta to'liq tekshirilib, sifatsiz mahsulotlarni bozorga chiqarishni samarali ravishda oldi olinadi.

10-bosqich. Turli markalar va mashinalarga mos keladigan sariq, qora, yashil va boshqa ranglarda bo'yash.



Yuk ko'tarish mashinalari va ekskavatorlar uchun cho'mich tishlari.



Quyida quyma cho'mich tishlarining batafsil kimyoviy tarkibi va mexanik xususiyatlari keltirilgan. [4].

| Kimyoviy tarkibi. | | | | | | | |
|-------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|--------|--------|
| C% | Si% | Mn% | Cr% | Mo% | Ni% | P% | S% |
| 0,26-0,30 | 1,20-1,50 | 1,00-1,30 | 1,60-1,80 | 0,20-0,30 | 0,40-0,60 | ≤0,025 | ≤0,025 |

| Mexanik xususiyatlari. | | | |
|------------------------|------------|-----------|-------|
| Kuchlanish | Chozilishi | Qttiqligi | |
| N/mm ² | A% | Yuza | Ichki |
| | | | |



| | | | |
|-------|----|----------|----------|
| ≥1500 | ≥3 | 48-52HRC | 48-50HRC |
|-------|----|----------|----------|

Xulos.

Yuqori marganetsli po'lat ilgari chomich tishlari uchun material sifatida ishlatilgan. Hozirgi vaqtda ekskavatorlarning chomich tishlarining katta qismi hali ham yuqori marganetsli po'latdan yasalgan materiallardan foydalanadi.

Past karbonli qotishma po'latni yuqori marganetsli po'latli chomich tishlari bilan solishtirganda, past qotishma materialli chomich tishlari kengroq konchilik sharoitida qo'llaniladi. Kam qotishma po'lat etarli darajada qattqlikka ega va uning uglerod miqdori odatda 05% dan kam, Si, Mn va boshqa qotishma elementlar asosiy qotishma elementlardir. Kam qotishma po'latning aşınma qarshiligi past qotishma tarkibi, arzonligi va uzoq xizmat muddati tufayli yuqori marganetsli po'latdan 1-3 baravar yaxshi. Issiqlik bilan ishlov berishdan so'ng past uglerodli qotishma po'latdan yuqori qattqlikdagi martensit tuzilishi paydo bo'ladi, karbid nozik, bir xil, yaxshi yumaloqlik, qattqlik o'sishi bir vaqtning o'zida materiallarning aşınma qarshiligini oshiradi, shuning uchun tegishli issiqlik bilan ishlov berish jarayoni yuqori quvvat, qattqlik va yaxshi pishiqlikni olish uchun past karbonli past qotishma po'latning kafolati hisoblanadi. Yuqoridagi tahlilga ko'ra, past karbonli qotishma po'lat abraziv aşınma uchun ideal materiallardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gavrishev SE . Ochiq konlarning ishonchliligi va samaradorligini oshirish uchun tashkiliy va texnologik usullarning asoslari : Ph: - Magnitogorsk, 2002. - 294 pt.
2. Poderny RY Dunyodagi karer mashinalari bozorining hozirgi holatini tahlil qilish // M.: Tog'-kon sanoati, 2013. - №4 (110).
3. Abduazizov N.A., Mahmudov Sh.A., Turdiyev S.A. Hidrokarer ekskavatorlarining ishchi elementlarining ishlash nazariyasiga oid tadqiqot . Buxoro muhandislik-texnologlar universiteti. Ilmiy- texnik jurnalning intizomi va texnologiyasini ishlab chiqish . 2021 yil 3-bet.4-11.
4. <https://www.investmentcastchina.com/casting-process-of-bucket-teeth/>

**FITRAT IJODIDA RAMZIY ORAZLAR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847345>

Buriyeva Shaxnoza

Xo'janova Nasiba

Termiz davlat universiteti talabalari

Termiz, O'zbekiston

+998948940119

sh.b.alisherovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada A. Fitrat ijodi, shaxsiyati, ijodidagi asliyat talqini haqida fikrlarimizni bayon etamiz. Adibning "Qiyomat" va "Ro'zalar" asarlari bayoni tahliliga yuzlanamiz.

Kalit so'zlar: A. Fitrat, "Yopishmagan gajaklar", "Tarixi muslimin", "Qiyomat", "Ro'zalar".

20-asr dunyo adabiyotida shunday adib, shoir va dramaturglar o'tdiki, ularning asarlarida tinchlik, hurriyat, ma'rifat chizgilari yuqori planda bo'ldi. Ular o'zlari uchun emas, vatanlari, ozodliklari, ma'rifatlari uchun yashadilar va bu yo'lda o'zlarinida ayamadilar. Huddi shunday Turkistonlik jadidlardan biri Abdurauf Abdirahim o'g'li Fitratdir. Shoir, dramaturg olim, manbashunos, musiqashunos kabi bir qancha sohalar egasi o'zi aytib o'tganidek 1884-yil eski maktabda tahsil oldi, adabiyot, tarix, falsafadan chuqur bilim egalladi, arab, fors, turk tillarini mukammal o'rgandi. 25 yoshida to'rt yillik hayoti Turkiya bilan bog'landi va u yerdagi adabiy muhit, ijtimoiy hayot va sayqallangan ilm olimning qarashlarida keskin o'zgarish yasadi. Turkiston o'lkasidagi ilmsizlik va hurofotni bartaraf etmoq, xalqni yorug' kunlarga olib chiqmoq adibning orzusiga aylandi. U islohotlar sari qadam tashlab, din va ilmni omixta qo'yishni, ijtimoiy yashash tarzini o'zgartirish g'oyalarini ilgari surdi. Bizga bu kabi harakatlar tafsilotini olimning izlanishlarga, kashfiyotlarga, tahlikalarga to'la hayot yo'li hikoya qiladi. Fitratning Maskva, Turkiston va Turkiya faoliyatlari davomidagi she'rlari: "Yurt qaygusi", "Mirrix yulduziga", "Behbudiy sag'anasini izladim", "Shoir", "Sharq", "Bir oz kul"; nasriy asarlari: "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jasadid maktablari xususida qilgan munozarasi", "Hind sayyohi bayonoti", "Qiyomat"; dramatik asarlari: "Abulfayzxon", "Shaytonning tangriga isyoni", "Ro'zalar" asarlari o'z davri nashriyoti yuzini ko'rdi, Bedil, Yassaviy, Turdi, Mashrab haqida qo'lyozma manba'larga asoslangan ilk maqolalar muallifi ham edi²⁹. Fitrat "Hurriyat" gazetasida e'lon qilingan uch sochmasi va bir she'rini "Yurt qayg'usi" deb nomladi.

-Ey ulug' To'ron, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi?³⁰

²⁹ O. Sharofiddinov. Fitrat va uning ikki maqolasi.

³⁰ A. Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. 31-bet.



Holing hedur? Nechuk kunlarga qolding?

Xitobi ham yurtning qayg'usi o'laroq emas edimi?

Adibga otilgan toshlar orasida 1929-yilda O'rtoq J.Boybo'latovning "Qizil O'zbekiston" ro'znomasidagi Fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari"³¹asariga umuman Fitrat ijodiga, badiiy adabiyotga uloqtirilgan "xarsang" ham bor edi.Ammo, o'sha yilning o'zida adib "Qizil O'zbekiston" gazetasida "Yopishmagan gajaklar" nomli ochiq xati bilan chiqdi va asarga bildirilgan salbiy fikrda aniq bir asos yo'qligi, mavjud bo'lmish "xatoliklar" aniq ko'rsatilmagani, to'ldirilgan uch sahifa uzuq-yuliy adabiyotdan holi bir kimsaning so'zlari ekanligini aytib o'sha "xarsang"ni zarraga aylantiradi.Biz bevosita yana bir o'rinda Fitrat shaxsiyatiga berilgan ijobiy fikr bilan tanishmiz.Bu ham bo'lsa "Tarifi musulimin" majallasida Fitratning "Buxoro vaziri Nasrullohbek Parvonachi hazratlarina ochiq maktub"i mavjud bo'lib unda Nasrullohbek Fitratga"Buxoro millatining mehribon otasi"deya murojaat qiladi va" ...bu jinoyatchilarning vazifayi avvali imomimizni pupga, azonimizni qo'ng'iroqqa, masjidimizni cherkovga almashtirmakdan boshqa nimarsa emas"³²deydir.Fitratning dini islomni, iymonni mustahkam tutmoqqa undovi bejiz emas edi, albatta.Adibning atiestik asar deyila mashxo'r bo'lgan "Qiyomat" nomli hikoyasi 1923-yil Maskvada nashr etildi. Asarga so'z boshi yozgan N.To'raqulov asarni D.Aligeyrining "Ilohiy komediya"siga qiyoslagan.Asarning voqealar rivojida Pochamir ismli bosh qahramon ko'knoriga o'lgudik humor bo'ladi, shundan tobi qochadi o'lib qolsa u dunyoda ko'knori bor yo'qligi uni o'ylantirib qo'yadi va xotiniga ko'knor xaltasini kafanlik qilishligini vasiyat qiladi.Tush ko'radi tushida o'lib qoladi qabr azobini kutadi, bo'lmaydi, kelgan Munkarnakirlarga o'zicha chap beradi, uyatli holda qiyomat kunining guvohi bo'ladi, suv uchun yillab navbatda turadi, tarozibondan o'tadi, qilko'prikka kelganda ujmohga o'tmoq uchun tixirlik bilan katta qo'y talab qiladi , qilko'prikda Pochamirning haqiqiy yuzi namoyon bo'ladi vijdoni qo'zg'aladi. Ujmohda uni kutib turgan sheriklarini ko'rib sevinadi, bog'dagi ko'knor isi dimog'ini qitiqlab u tomon oshiqqanda esa yiqilib tushidan uyg'onadi. Asar haqida turli xil qarashlar mavjud. Fitratshunos H.Boltaboyev "Qiyomat" asari haqida vazmin va to'g'ri fikr bildirganlar. "...ateistlar "Qiyomat" ning faqatgina tashqi tomoniga, bosh qahramon Ro'ziquqning" u dunyodagi "sargo'zashtlari, "ujmoh" , "tamug" haqidagi dahriy so'zlargagina e'tibor berib, haqiqiy, botiniy ma'noga diqqat qilmaganlar, tushunmaganlar. Holbuki Fitrat hikoya botiniga zo'rlikka asoslangan jamiyatning insonga baxt-saodat vada qilib, quruq shiorni, tengsizlik, tartibsizlikni ravo ko'rganini chuqur qayg'u bilan singdiradi.Voqealar kishida kulgi uyg'otsa-da asar tragik asardir"³³ deydi.Zero bu fikrlar ayni haqiqatdir. Asar nomi atrofida aytilgan ilmiy va falsafiy fikrlardan xabardormiz, ammo hikoyaga muallif "hayoliy hikoya" deya ta'rif keltirgan.Balki bu nom o'z davri uchun "hayotiy" hikoya bo'lgandir. Balki bolshivizm

³¹ O.SHarofiddinov.Fitrat va uning ikki maqolasi.

³² Fitrat.Tanlangan asarlar.1-jild.8-bet.

³³ I.G'aniyev.Fitrat va fitratshunoslik.180-bet.



bosqini Turkiston ahli uchun " qiyomat davri" ekanligini "qopqoq ostida" ifodalagandir, Asar qahramoni Pochamirning o'rnida bo'lib qolishni kim istaydi, qilko'prik epizodi jannat va do'zah arosati har qanday musulmonni o'zini-o'zi taftish etishga undamaydimi? Asarga shaxs iymoni masalisi aks etganmi? yoki Fitrat vadaboz jamiyatning "tuhfa etgan" tengsizlik va ocharchiliklarini o'z davri nuqtayi nazaridan aks ettirgandir. Asarga o'sha davr ko'zi bilan qarasa ikkinchi fikrimiz o'rindir. Ammo bugungi kun kitobxonlari uchun ilk fikrimizda qolamiz. Fitratning "Ro'zalar" nomli dramasi esa asar qahramonlari o'z nafs, manfa'atlari yo'lida dinga, shariatga, urf-odatlarimizga hiyonat qiladilar. Asar qahramonlari: bosh qahramon-50 yoshlardagi Er Boqiy o'zicha dindor, duogo'y, e'tiqodli; SHarifa -Er Boqiyning ayoli iymonli muslima, ro'zador, namoz o'qish, to'g'ri gapirish halollikni farz deb biladi. Asarda voqea qurboni 50-yoshlardagi, kambag'al, nochor Ashurbobo edi. Qozi ham nohaqlik, yolg'on dindorlikda Er Boqiydan qolishmaydi. Asar qahramoni Er Boqiy hammani-betoblarnida ro'za farz ekanligiga undab, o'zi yashirincha ro'za yeydir. Haqoratlardan to'ygan xotini Qoziga murojaat qiladi, qozi bilan tili bir Er Boqiy qozi uyida bir kunlik mehmon bo'lish "jazosi" bilan undan qutulib qoladi. Ammo kambag'al luqmasini yemoqdan bo'g'izini poklaydigan qozi hammaga ibrat o'laroq, bemorligi uchun ro'zasini ochgan nochor Ashurboboni yigirma bir darra urdirib, "ibrat" qamog'iga tortadi. Said oqsoqol ikki bolani yetaklagan bir kekxa ayol bilan kelib ularning arzi-Ashurboboni ozod etishini so'rab kelganini aytganda ko'nmaydi lekin qog'ozga o'ralgan bir nechta aqchani olgach farzanlari xotiri deya ozod etadi. Ammo... Ashurbobo o'lib bo'lgan edi. "tuyaning ustida ham it qopadi. Xalqning nonini yeb qonini zulukdek so'rib, tuzuni yeb tuzlig'iga tupurguvchi Er Boqiy kabi kimsalar dunyosi bor ekan, bu dunyoda haqiqat chala, imon toptalgan, ruhlar xor, ulug'lar zor-nochordirlar. Bu yurtda, jamiyatda ma'rifatning taraqqiy qilmog'i mushkuldir."³⁴ Haqiqatdan ham ro'zani faqat luqma bilan emas zabonda ham tutmoq kerak emasmi. Shaxsiyati va asliyatini bir bo'lmagan bu qozi va ro'zadorning nesini xalqqa o'rnak qilish mumkin. Bu holga chetdan kulmoq, ichdan achinish mumkin, Adib asardagi xalqqa nohaqlik, ikkiyuzlamachilik qilayotgan davlat mansabdorlarining illatlarini ushbu dramasi bilan kaltaklaydi. Asar yaratilgan yilga e'tibor beraylik drama 1930-yilda yaratilgan. Ammo o'z manaviy - marifiy qiymatini hozirgi kunda ham yo'qotgani yo'q. A. Fitrat ijodini o'rganish hayotlik davridayoq boshlangan edi. Fitratshunos H. Boltaboyev "Xorijda fitratshunoslik" nomli maqolasida 13 ta horijiy olimlarning maqola va asarlarini o'rganib tavsif etgan. Fitrat horijiy fitratshunoslar e'tiborini tortmasligi ham mumkin emas edi. Fuod Kupruli, Ahmad Zaki To'g'on, Ingibord Baldauf, Ninil Vlademirova, Marsa Butino kabi olimlarning fikrlari qimmatlidir. Xulosa qilib aytganda XX asr milliy tafakkurimiz tarixini Fitrat ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

³⁴ I.G'aniyev. Fitrat va fitratshunoslik. 158-bet.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild she'rlar, nasriy asarlar, dramalar. Toshkent" Ma'naviyat" 2000
2. Fitrat. Tanlangan asarlar 2-jild she'rlar, nasriy asarlar , dramalar. Toshkent "Ma'naviyat" 2000
3. Fitrat "Qiyomat".-M. Toshkent, 1967.
4. O. Sharofiddinov "Fitrat va uning ikki maqolasi"
5. I. G'aniyev "Fitrat va Fitratshunoslik" Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti 2005
6. I. G'aniyev Fitrat dramalari poetikasi. 2005.

**SITRUSCHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847358>

Anarbaev Muhammad Pardaboy o'g'li
Toshkent davlat agrar universiteti magistranti

Annotatsiya: *Bugungi kunga kelib Sitrus mevalariga bo'lgan talab O'zbekistonda kun sayin o'sib bormoqda. 2016-yil bilan taqqoslaganda, o'zbek limonlarining eksporti ikki baravarga oshdi va 2022-yilga kelib, 5 097 tonnani tashkil etdi. Shuningdek, mamlakatimizdagi laboratoriyalarda limon, mandarin va apelsinlarning yangi turlari ishlab chiqilmoqda.*

Kalit so'zlar: *Sitrus, eksport, seleksiya, nav, issiqxona, saqlash, hosil.*

Аннотация: *Сегодня спрос на цитрусовые в Узбекистане растет день ото дня. По сравнению с 2016 годом экспорт узбекских лимонов увеличился вдвое и к 2022 году достигнет 5097 тонн. Также в лабораториях нашей страны разрабатываются новые сорта лимонов, мандаринов и апельсинов.*

Ключевые слова: *Цитрусовые, экспорт, селекция, сорт, теплица, хранение, урожай.*

Abstract: *Today, the demand for citrus fruits in Uzbekistan is growing day by day. Compared to 2016, the export of Uzbek lemons has doubled and will reach 5,097 tons by 2022. Also, new types of lemons, tangerines and oranges are being developed in our country's laboratories.*

Key words: *Citrus, export, selection, variety, greenhouse, storage, harvest.*

Apelsinning O'zbekiston seleksiyachilari tomonidan yaratilgan "O'zbekiston" navi, mandarinning "Toshkent" navi, shuningdek, limonning respublikamizda yetishtirilayotgan o'nga yaqin navlari ichki va tashqi bozorda katta shuhrat qozondi.

Bugungi kunda O'zbekiston mutaxassislari issiqxonalarda va ochiq tuproqda sitrus ko'chatlarining yangi navlarini, shuningdek, tugunchalar (urug'lik maqsadida saralangan ikki yillik ekinlar ko'chatini) yetishtirishga, kasallik va zararkunandalar bilan kurashishga alohida e'tibor qaratmoqdalar. Laboratoriyalarda mehnat qilayotgan olimlar va issiqxonadagi mutaxassislar boshqa mamlakatlarga eksport qilish va tashish uchun mos bo'lgan limon, apelsin va mandarin navlarini rivojlantirish ustida bosh qotirmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-fevraldagi PQ-4610-sonli Qaroriga muvofiq, Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti huzurida Sitrus, subtropik va tropik o'simlik yetishtiruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasi tashkil etildi. Uyushma respublikada limonchilik tarmog'ini yana-da rivojlantirish, ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ilg'or va zamonaviy resurs tejovchi texnologiyalarni qo'llash asosida



yuqori sifatli sanoatbop va eksportbop sitrus mevalarini yetishtirish hajmini oshirish maqsadida tashkil etilgan.

Akademik M. Mirzayev nomidagi Bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ITI olimlari eng yuqori hosildor va eksportga yo'naltirilgan navlarni ajratgan holda, milliy navlarning morfologik xususiyatlarini o'rganishdi va joriy etishdi.

Institut olimlari respublikamiz hududida sitrus daraxtlarini ekish, Davlat reyestriga kiritish maqsadida yangi navlarni ishlab chiqdilar. Ular orasida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- Limonning ikkita "Meyer" va "O'zbekiston" yuqori hosildor navlari. Ularni issiqxonalarda va zovurlarda yetishtirish tavsiya etiladi. Bu navlar erta hosil beradi.

- Apelsinning "Gamlet" navi. Mevalari noyabrda pishib yetiladi. Hosildorligi yaxshi va tashish uchun yaroqli.

- Mandarinning "Klementina" navi. Noyabrda pishib yetiladi va yaxshi hosil beradi.

Shuningdek, institut mutaxassislari sitrus mevalarning quyidagi navlari ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirmoqdalar: "Meyer", «O'zbekiston to'ng'ichi», «O'zbekiston hosildori», "Toshkent" limon navlari; "Gamlin", «Vashington Navel», «Korolyok Grushovidniy», "Glodkokoriy", «F1 29221» apelsin navlari va "Klementin", «Kavano Vase», «Okitsu Vase», "Ponkan" mandarin navlari.

Qizig'i shundaki, masalan, limonning Markaziy Osiyo mamlakatlarida juda mashhur bo'lgan "Meyer" navi Gruziya iqlim sharoitlariga moslashtirilgan. O'zbekistondan tashqari, Tojikistonda yiliga 12-15 ming tonna yetishtiriladi.

O'zbekiston sitrus mevalarini eksport qilish orqali jahonning yetakchi davlatlari orasida o'z mavqeini mustahkamlab olishi mumkin. Buning uchun institutlar, laboratoriyalar va issiqxonadagi mutaxassislar mahsulotlarning sifati va xavfsizligini oshirish, zamonaviy navlarni olish, saqlash, sovutish, tozalash va qadoqlash usullarini yaxshilash ustidagi ishlarni davom ettirmoqda. Ushbu barcha keng qamrovli ishlar hosilning ko'payishiga, eksportning ortishiga va, umuman, qishloq xo'jaligini rivojlantirishga hissa qo'shishi shubhasiz.



TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847364>

Ibragimov Azimbek

*Pedagogika-psixologiya yo'nalishi 2 kurs magistri
Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

Annotatsiya: *Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari bakalavriyat yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarining innovasion yondashuv asosida kasbiy kompetentliklarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlash katta ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *kasbiy kompetentlik, talaba, bilim, pedagogika, ta'lim sifati.*

Аннотация: *Большое значение имеет определение основных направлений развития профессиональных компетенций будущих преподавателей вузов нашей республики, обучающихся по программе бакалавриата на основе инновационного подхода.*

Abstract: *Of great importance is the determination of the main directions for the development of professional competencies of future university teachers of our republic who study under the bachelor's program based on an innovative approach.*

Bo'lajak o'qituvchisining kasbiy kompetentligini innovasion yondashuv asosida rivojlantirish to'g'risidagi yuqoridagi fikrlarni tahlil qilish quyidagi asosiy xususiyatlarni aniqlashga imkon beradi:

- birinchidan, kasbiy kompetensiya o'qituvchilarning innovasion va o'quv faoliyati bo'lib, pedagogik faoliyat sifatining ko'rsatkichidir;
- ikkinchidan, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish nafaqat yakuniy, balki o'qituvchilar va talabalarining o'quv jarayonida innovasion yondashuv asosida o'zgarishi jarayonidir;
- uchinchidan, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishi o'qituvchining tafakkurini shakllantirish jarayoniga ta'sir qiladi.

ga innovasion yondashuv elementlarini tanlash va amalga oshirishda talabalarining o'quv faoliyati hisobga olinishi kerak. Oddiy qoida shundan iboratki, nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida talabalar yangi bilimlarni egallaydilar, so'ngra noan'anaviy usullardan foydalanish orqali olingan bilimlar mustahkamlanishi kerak.

ning ikki asosiy shakli, ya'ni hamkorlikda va individual tarzda kasbiy-kasbiy faoliyatni tashkil etuvchilari aniqlandi.

a) Hamkorlikda kasbiy-kasbiy faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilari.



- qo'shma kasbiy va uslubiy faoliyat: kasbiy va uslubiy faoliyatning ushbu turi o'qituvchi va talabaning bevosita o'zaro ta'siri bilan tashkil etiladi, o'qituvchi talabalarga mustaqil uslubiy faoliyatni amalga oshirishda amaliy yordam beradi, ma'lum ko'rsatmalar, maslahatlar beradi, shu asosda talabalarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantiradi;

- o'qituvchi: kasbiy, uslubiy va pedagogik faoliyati davomida talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirish uchun qo'shimcha o'quv materiallari va ularning mazmuni bo'yicha mustaqil ishlar va vazifalar tayyorlaydi va ularni bajarish uchun talabalarga tegishli uslubiy ko'rsatmalar beradi;

- talaba: o'qituvchi ko'rsatmalari asosida mustaqil kasbiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Amaliy ish usullari, vositalari va shakllarini o'qituvchi bilan kelishgan holda tanlaydi, amaliy ish va ijodiy vazifalarni bajaradi;

- usullar, shakllar, vositalar: o'qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mustaqil ish usullari, vositalari va shakllaridan foydalanish asosida talabalar texnologik jarayonlar va texnik ob'yektlarga oid topshiriqlarni mustaqil tanlaydilar va ijodiy bajaradilar;

- o'qituvchi nazorati: o'qituvchi talaba tomonidan bajarilgan harakatlarni tahlil qiladi. Talaba kasbiy-uslubiy ishlar jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlaydi, amaliy ish metodlarini namoyish yetadi.

- tuzatish: o'qituvchi tomonidan aniqlangan xatolar bartaraf etiladi va amaliy ishning eng yaxshi usullari ko'rsatiladi;

- natija: bitiruvchilar ko'rsatmalar asosida mustaqil ishlay oladigan, ijodiy fikrlaydigan, jarayon va ishlanmalarni samarali amalga oshiradigan malakali mutaxassislar bo'ladi.

b) Individual tarzda kasbiy-kasbiy faoliyat yurita olish kompetentligini tashkil etuvchilari:

- individuallik: talaba kasbiy va kasbiy kompetentlikni shakllantirishda olingan bilim, ko'nikma va malakalardan foydalangan holda individual oladi;

- talaba: olingan vakolatlar asosida mustaqil ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi. Kasbiy va uslubiy faoliyatni amaliy faoliyatiga mos ravishda amalga oshirishi, shakl, usul, vositalarni tanlashi;

- motivlar: talaba o'z xohish-istaklari, ma'naviy ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda kasbiy-uslubiy faoliyatni amalga oshira oladi. Iqtisodiy jarayonlar va iqtisodiy ob'yektlarni imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlaydi va tegishli masalalar yechimini topadi;

- o'z-o'zini nazorat qilish: talaba o'quv jarayoni bilan bog'liq kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lib, xatolardan xulosa chiqaradi. Mustaqil faoliyat samaradorligini oshirish uchun maqbul usullardan foydalanadi;

- ijodkorlik: talaba o'z xulosalari asosida kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirishda sezilarli o'zgarishlarni amalga oshiradi;



- natija: talaba o'zining intellektual qobiliyati va uslubiy qobiliyatiga muvofiq kasbiy va uslubiy faoliyatni amalga oshirishga qodir, ijodiy fikrlashga ega, jarayonlar va pozitsiyalarni mustaqil tanlaydi, mustaqil ijodiy ish olib boradi.

ga innovasion yondashuv va interfaol metodlar avvalo pedagog ongida qaysidir bir yo'nalishdagi faoliyatning umumlashgan loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Har bir yondashuv alohida fan, ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanishi bilan o'zgarib boradi. Hozirgi paytda metodlar o'zgarishining haqqoniy zamini ishlab chiqarish jarayonlaridagi ko'pgina kasbdagi ishchilar mehnatining mazmuni va xarakterining kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish sur'atining oshishi bilan bog'liq.

Shu munosabat bilan o'quv jarayonini jadallashtirish (talabalar ning murakkablashgan mazmunini egallay olmaydilar), ko'nikmalarni maqsadga yo'nalgan holda shakllantirish, faollik, tashabbus ko'rsatish imkonini beruvchi yondashuv va kasbiy usullarni qo'llash zarurati yuzaga keladi.

metodlarini tanlash turli sharoitlarga bog'liq. Bu -tarbiya masalalari, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan o'quv materialining mazmuni, ularning yoshi va xususiyatlari hamda moddiy-texnik bazasi bilan izohlanadi. da turli metodlardan foydalanish zarur, lekin ularning maqsadga yo'nalganligini hisobga olish kerak. Hech qanday metod asosiy va universal bo'lishi mumkin emas. Shu bilan birga amaliyotda yetarli sinovdan o'tmagan metodlarni qo'llash o'rinsizdir.

metodlarini tanlashda quyidagi holatlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- ish joyida yuqori lik, yuqori mahsuldorlikka ega bo'lgan kelajakdagi mutaxassislarning mahorati va madaniyatini o'zlashtirish;

- ularga ishga ijobiy va ijodiy munosabatni rivojlantirishga yordam berishi kerak;

- jarayoni talabalarning unumli mehnatiga asoslanishi kerak;

- tanlangan usullarning vazifasi talabalarning faolligini, aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularga ilg'or ishlab chiqarish fazilatlarini singdirishdir;

- o'qitish usullari shunchalik xilma-xil bo'lishi kerakki, ular birlashtirilganda talabalarni texnologik jarayonni rejalashtirishga, ishlarini nazorat qilishga o'rgatish mumkin;

- ishlab chiqarish metodlarining operasion-kompleks tizimiga mos bo'lishi va talabalar tomonidan alohida usul hamda operasiyalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, ushbu usullar va operasiyalar keng qamrovli ishda birlashtirilishini ta'minlash ham muhimdir;

- metodlar talabalarning ma'lum bir kasbga xos bo'lgan barcha ishlarni mustaqil va samarali bajarish qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;

- myetodlar ishlab chiqarish i bilan ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o'rganish o'rtasidagi hayotiy aloqani doimo amalga oshirishi; o'quv jarayonida ishlab chiqarish i va didaktikaning umumiy tamoyillarini amalga oshirishi kerak.

"rezonansi" innovasion yondashuvi o'qituvchi va talabalarning o'zaro munosabatlari, o'qitish va o'rganishga qaratilgan aniq harakatlar, harakatlar va usullar to'plami sifatida amaliyotga joriy etildi. Mavjud tarbiyaviy vaziyatga qarab o'qituvchi



doimo ijobiy o'zgarishlarni izlaydi va zarur vaqtda har bir talaba yoki talaba uchun alohida-alohida kuch jihatidan zaif lekin, rezonans xarakterli "to'lqinli, aks ta'sirli" pedagogik ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun esa talabaning pedagogik jarayondagi harakatining yo'nalishi va darajasini pedagogik anglab yetishi lozim. Rezonans ta'sir bilan o'qituvchi o'z talabasiga vaqti-vaqti bilan "turtki" berib, beqaror holatdan barqaror va aktiv holatga o'tishi uchun unga yordam beradi.

Mazkur yondashuv o'quv jarayoniga yangi innovasion yondashuv bo'lib, uning samaradorligi nazariy, amaliy mustaqil ning uzluksizligini ta'minlaydigan o'qitish usullari to'plamini tegishli qo'llash orqali ta'minlanadi. Ya'ni bakalavr yo'nalishlarining amaliy mashg'ulotlarni olib borishda qo'llanildi. Kasbiyani joriy etishda jadvalning (I Qator) gorizontalkatakklarga kasbiy kompetentlik fanining kalendar mavzuli rejasidagi mavzular ro'yxati ketma-ketlikda yoziladi. Vertikal katakchalar (I Qator)igaga esa interaktiv metodlar nomi yoziladi. O'qituvchi o'quv jarayonini rejalashtirayotganda mavzuga mos keluvchi metodni tanlab, mavzu va metod kesishgan katakchaga "+" belgisini qo'yadi va shu belgilangan metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etadi (2.1.1-jadval).

Tanlangan metodlar maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida mazmunini o'zlashtirish yo'llari ifoda etiladi, o'qituvchi va talabalarining o'zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

"rezonansi" bir tomondan, maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan boshqariluvchan o'qish faoliyatini amalga oshirish sharti xisoblanadi.

"metodlarini tasnifi ularning ma'lum belgilari bo'yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o'nlab metodlari ma'lum", - ekanligini ta'kidlagan holda I.P.Podlaskiy fikrini quyidagicha davom ettiradi, -"Biroq bugungi kunda yetakchi sanaluvchi didaktik g'oya yagona va o'zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O'qitish - favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo'shqin bo'lishi, metodlarni qo'llash amaliyotidagi doimiy o'zgarishlarni hisobga olishi kerak".

ning tashkiliy shakli - belgilangan tartibda sodir bo'ladigan, beruvchi va tinglovchining maxsus tashkil qilingan faoliyatining tashqi ifodasidir.

jarayoni ishtirokchilari (o'qituvchi va tahsil oluvchilar)ning ma'lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatining tashqi ko'rinishi kasbiy ning tashkiliy shaklini anglatadi.

Bizga ma'lumki, guruhiy va yakka tartibda o'qitish shakli tarixan tarkib topgan va rivojlanmoqda. Har bir o'qituvchi dars jarayonida ushbu shakllarni qo'shib olib borishi zarur.

Yakka tartibda o'qitish shaklida o'qitish har bir oluvchining o'quv materialini o'zlashtirishda shaxsiy sur'atiga, ish tajribasiga va qobiliyatiga qarab alohida o'qitishni tushuniladi.



Juftlikda ishlash – o'qituvchi o'quv guruhi tinglovchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda, juftliklarni shakllantiradi va ularga topshiriqlar beradi, tahsil oluvchilar topshiriqlar yechimini yechishgandan so'ng esa taqdimot o'tkaziladi. Taqdimot jarayonida bahs-munozaralari yuritiladi. Ushbu tashkiliy shakldan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: «O'zbekiston», 1992.-46 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xaqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qathiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Oliy mahlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 27.07.2017 y., PQ-3151, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 30-son, 729-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Oliy tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” 20.04.2017 y., PQ-2909, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda.
8. Ташпулатова, Д. М. (2023). Халқаро таълим дастурлари асосида интеграцион ўқитиш механизмлари. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(3), 53-63.
9. Muqimovna, T. D. (2022). Mehnatning barkamol avlod tarbiyasidagi orni. *Scientific Impulse*, 1(4), 1811-1812.
10. Tashpulatova, D. M., Salomova, M. K. (2023). Integration of primary education disciplines learning problem. International scientific-online conference INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 16(1), 140-144.
11. Tashpulatova, D. M. (2022). Boshlang'ich ta'limning tashkiliy hujjatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 342-347.
12. Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синф ўқувчиларини таълимнинг кейинги босқичларига тайёрлаш. МУҒАЛЛИМ, 6(12), 78-80.
13. Tashpulatova, D. M. (2021). Primary School Teachers Professiogram. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 11-15.



14. Жабборова, О. М., & Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич таълим методикаси. *Экономика и социум*, (10 (89)), 1358-1360.
15. Ташпулатова, Д. М. (2021). ЎҚИТИШНИНГ КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ АСОСИДА ОЛИЙ БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 1056-1060.
16. Жабборова, О. М. (2021). Ташпулатова Дилором Мукимовна, Бошлаетич синф уқитувчиларига куйиладиган талаблар. *Academic research in educational sciences*, (3), 575-582.
17. Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синфларда жисмоний тарбия машғулотларини кластер усулида ташкил этиш. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 33-36.



MAKTAB O'QUVCHILARINING TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANISHGA INTEGRATIV YONDASHISH SAMARALILIGINI EKSPERIMENTAL O'TGANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847373>

Gulmatova Lobar Aziz qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,

Pedagoika fakulteti, magistr,

Tel: 95-788-80-30

Annotatsiya: *maqolada oliy ta'lim muassasalari o'ituvchilarinig pedagogik tasavvur va uning fazilatlarini, kasbiy muhim fazilatlariga psixologik va pedagogik bilim, fan sohasidagi professionallik, kuzatish, pedagogik tasvirlash, rivojlangan nutq va pedagogik kasbni tanlagan kishi kelajakdagi muvaffaqiyatining eng muhim shartlarini yaxshi bilishi kerakligi, aniqligi ifodalangan*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, pedagogik tasavvur, nutq, kasbiy fazilat, psixologik va pedagogik bilim, isbotlash, ta'kidlash, o'rnatish, ob'ekt, fakt, samara, usul, kasbiy madaniyat.*

Аннотация: *В статье выражены педагогическое воображение и его качества, психолого-педагогические знания о профессионально важных качествах выпускников высших учебных заведений, профессионализм в предметной области, наблюдательность, педагогическая образованность, развитая речь и то, что человек, выбравший педагогическую профессию, должен хорошо знать важнейшие условия своего будущего успеха, быть точным*

Ключевые слова: *высшее образование, педагогическое воображение, речь, профессиональные качества, психолого-педагогические знания, доказательство, выделение, установка, объект, факт, результат, метод, профессиональная культура*

Abstract: *The article expresses pedagogical imagination and its qualities, psychological and pedagogical knowledge about professionally important qualities of graduates of higher educational institutions, professionalism in the subject area, observation, pedagogical education, developed speech and the fact that a person who has chosen a pedagogical profession should know well the most important conditions for his future success, be accurate*

Keywords: *higher education, pedagogical imagination, speech, professional qualities, psychological and pedagogical knowledge, proof, selection, installation, object, fact, result, method, professional culture*

Psixologiyada bilish faoliyatini kengayishida ta'lim jarayonlarining o'rni haqida Fransiyalik olim J.Godfruaning "Chto takoe psixologiya" nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat



markazda bo'lgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning bilish jarayonlarining rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat –Psixologiya|| kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qo'llanilganligini, ong va o'zini kuzatish tufayli inson o'zidagi psixik xolatlarni o'rgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni o'rganish zarurati etilganligini izohlab bergan. Mazkur holatlarda o'quvchilar o'zaro bilish munosabatlari, muloqotga kirishadilar. Bolalarning bilish faoliyatlari hissiy idrok, nazariy tafakkur va amaliy faoliyat birligidir. U ta'limning har bir bosqichida vujudga keladi va muntazam ravishda rivojlanib boradi. Bilish faoliyati o'quvchilarning ijtimoiy aloqalari va o'quv faoliyatlarining barcha turlarida mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar bilish faoliyatining kengayishida o'quv jarayonlarida muayyan topshiriqlarni bajarishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik atamalar lug'atida bilishga qo'yidagicha ta'rif beriladi: 1) ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarga taqdim etilgan o'quv materialining o'zlashtirilganlik darajasi; 2) borliq va uning obektiv qonuniyatlarini o'rganish, o'zlashtirish, egallash jarayonidir. Demak, bilish faoliyati jarayonida o'quvchi taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtiradi va tevarak atrofdagi voqelikni anglab etadi. Ma'lumki, bizni o'rab turgan tashqi olamdagi narsa va hodisalarning juda ko'p belgi va xususiyatlari mavjud. Masalan, narsalarning rangi, ta'mi, hidi, qattiq yoki yumshoqligi, g'adir-budur yoki tekisligi, harorat va boshqalar. Ana shu narsa va hodisalarning turli xil belgi, xususiyatlarini biz ham turlicha sezgi a'zolarimiz orqali ongimizda aks ettiramiz. Tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalarning turli xil belgi hamda xususiyatlari har doim ham bizning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib turadi. Natijada bizda turli sezgilar hosil bo'ladi. Chunonchi, nurlarning ko'zimizga ta'sir qilishi natijasida ko'rish sezgisi, har xil tezlik va kuchlanishdagi havo to'lqinlarining qulog'imizga ta'sir etishi natijasida eshitish sezgisi, nafas olish paytida havo bilan birga burun bo'shlig'iga kirgan har turli modda zarrachalarining ta'siri natijasida hid sezgisi, biror narsani qo'limiz yoki badanimizga tegib ta'sir etish natijasida teri (taktil – biror narsaning terimizga tegishi) yoki bosim sezgisi va shu kabi sezgilar har doim hosil bo'ladi. Demak, sezgi deb, atrofimizdagi narsa va hodisalarning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etishi natijasida ularning ayrim belgi va xususiyatlarini miyamizda aks ettirilishini aytamiz. Sezgi bilish jarayonlari ichida oddiy psixologik jarayon bo'lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarni aks ettiradi. Tashqi olamdan kelayotgan qo'zg'atuvchilarning muayyan resteporlarga bevosita ta'sir etish orqali ayrim belgi va xususiyatlarni va organizm ichki holatini aks ettiradi. Ma'lumki, insondan sezishning dastlabki bosqichi hissiy bilishdan boshlanib, keyinchalik u mantiqiy bilishga o'tadi. Sezgi ham oddiy psixologik jarayon bo'lgani bilan uning yuzaga kelishi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Ular jumlasiga



quyidagilar kiradi: 1. Sezgi a'zolariga ta'sir etadigan narsa va hodisaning bo'lishi. 2. Sezuvchi apparat, ya'ni analizatorning mavjud bo'lishi. Masalan, havoning sovuqligini, temirning qattiqligini, qorning yumshoqligi va boshqalarni sezamiz. Sezgi idrok bilan bog'liq bo'ladi, lekin narsa va hodisani idrok qilishdan oldin uni sezish lozim, shu bois sezgilar materiyaning sezgi a'zolarimizga ta'siri natijasidir. Sezgi axborotlarini qabul qilib, tanlab, to'plab, har bir sekundda axborotlar oqimini qabul qilib va qayta ishlab miyaga etkazib beradi. Natijada tevarak - atrofdagi tashqi olamni va organizm o'z ichki holatini adekvat –mos|| aks ettirishi hosil bo'ladi. Sezgi a'zolari tashqi olamning inson ongiga olib kiradigan yo'llaridan biridir. Ta'lim jarayonida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol ongli diqqatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratilishi lozim. Bilish jarayonida mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, misollar, masalalar echish, didaktik mashqlar bajarish, takrorlash yordamida ixtiyoriy, ongli diqqat tarkib topadi. 7-8 yoshli bolalarda diqqatni ixtiyoriy tarzda bir nuqtaga jamlash, taqsimlash, ongli ravishda boshqarish ko'nikmalari shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ma'lum darajada o'z faoliyatlarini mustaqil rivojlantira oladilar. Ular o'z rejalari, harakatlarining izchilligini so'z orqali tasvirlab beradilar. Rejalashtirish yordamida o'quvchilarning ixtiyoriy diqqatlari tarkib topib rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etish turli aqliy faoliyat usullarini taqozo qiladi. O'quvchilarning bilim zaxiralari moddiy olam haqidagi tasavvurlari yordamida boyib borib bilish faoliyatining shakllanishida o'quv jarayoni muhim o'rin egallaydi. Misol uchun, bolada mantiqiy uylash etilmay turib uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatish foydasiz. 3-7 yoshli davrdagi bolalarning asosiy faoliyati quyidagicha:

- Predmetli o'rganish;
- Individual va predmetli o'yinlar, jamoaviy syujetli rolli o'yinlar;
- Individual va guruhlarda ijod;
- Musobaqa o'yinlari;
- Munosabat o'yinlari;
- Ro'zg'or mehnati.;

Bolalarning bilish jarayonlarida ushbu o'yinlarning ahamiyati kattadir. Mutaxassislar shaxsning rivojlanishi moddiy olam bilan bog'liq bo'lib inson turmush tarzi uning ongini belgilaydi, deb hisoblaydilar. Insonning bolalikdagi rivojlanishida o'quv-biluv faoliyati muhim o'rin tutadi. O'quvchilar bilish faoliyatining kengayishi, birinchi navbatda, ularning ilmiy hodisalar, fikrlar, g'oyalar, dalillar va xalqning ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishlari natijasida amalga oshadi. Pedagogika fanida rivojlanish va o'qitishning o'zaro aloqadorligi o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. Dastlab, pedagoglar o'quvchilarning rivojlanishi o'z-o'zidan amalga oshadi, degan fikrni ilgari surganlar. Ta'limning rivojlanish ta'sirini aniqlaganlaridan so'ng, ular bu ta'sirning beixtiyor xarakterga ega ekanini ta'kidlaganlar. SHu bilan bir qatorda, o'quvchilarni o'qitish va aqliy rivojlantirish muammosi bo'yicha shaxsiy nuqtai nazarlar vujudga keldi. Mazkur nuqtai nazarning asosiy mohiyati yaxshi tashkil etilgan



o'quv jarayoni o'quvchi rivojlanishini jadallashtiradi. Ta'lim nafaqat yakunlangan turkumlarda quriladi. Ushbu yondashuv asosida pedagogika fanida ta'limda faoliyatli, individual, tabaqalashgan yondashuv nazariyasi vujudga keldi. Shaxsning rivojlanish jarayonida bir xillik mavjud emas. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu vaqt obrazli tafakkur qilish asosida intellektual rivojlanish davridir. Bu asosan o'quv-biluv jarayonida amalga oshadi. O'quv biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi. Biz o'quvchilar uchun etakchi bo'lgan rivojlanish yo'nalishini asoslashga harakat qilamiz. Intellektual rivojlanishda o'z-o'zini hurmat qilishning asosini o'quvchilarning shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o'quv-biluv jarayonida namoyon bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat o'quvchilarda bunday tajriba mavjud emas. O'z faoliyati natijasidan qoniqmaslik o'quvchilar o'z-o'zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo'nalishda muhim o'rin egallaydigan qonuniyatlardan biri o'quvchilarda muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatining kengayishi, shaxsiy tenglik hamda o'z-o'zlarini hurmat qilishdan iborat. Bu o'quvchilar faoliyatlari orqali namoyon bo'lib bilish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar o'quvchining kayfiyati va rivojlanishiga muayyan ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo'yishi lozim. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: – bilish qiziqishlari; – o'quv maqsadlari; – hissiyotlar: shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik; – yutuqlarni qo'lga kiritish va muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj; – intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik; – shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar. Rus fiziologiyasi va ilmiy psixologiyasining atokdi namoyondasi I. M. Sechenovning (1829—1905) «Bosh miya rsfleklari» degan mashhur asari 1863 yilda bosilib chikdi. «Insondagi psixik va fiziologik jarayonlar—degan edi Sechenov—bu bir xil tartibdagi hodisalar, bir-biriga yaqin real dunyoga xos bo'lgan hodisalardir». Sechenov psixik jarayonlarning asosi bosh miya reflekslaridir, degan ta'limotni ilgari surdi. Sechenov davomchisi I. P. Pavlov oliy nerv faoliyati fiziologiyasiga doir mashhur asarlarida psixik moddiy substrat faoliyatidagi asosiy konuniyatlarni va ayrim jarayonlarning nerv-fiziologik mexanizmlarini ochib berdi. Izlanishlarimizning asosini muayyan o'quv vaziyatlarida o'quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishning samarali yo'llarini tashkil qiladi. O'z-o'zini hurmat qilish har bir shaxsning tahliliy sifatidir. Buning tarkibini tahlil qilish orqali o'quvchining mayllari, qadriyatlarini, tayanadigan qoidalarini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. O'quv-biluv jarayonida bilish faolligini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda o'quvchilarning mustaqilligidan kelib chiqqan holda ular faolligini ta'minlash uch yo'nalishga ajratilgan. – namunaga asoslangan taqlidiy; – izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik; – ijodiy bilish faoliyati. Taqlidiy faoliyat harakatning tayyor namunalari asosida hosil bo'ladi. Ideal tarzda bo'lgani singari, predmetlilik asosida ham o'quvchilarni tirishqoq bo'lishga undaydi. Izlanuvchilikka asoslangan ijrochilik faoliyati tadqiqotchilik faoliyati bilan qiyosiy tarzda o'qituvchi



tomonidan taklif etilgan muammoli vaziyatlarni echish yo'llarini mustaqil tarzda izlashdan iborat. Ijodiy faoliyat esa bilish faoliyati hosil bo'lishining yuqori shakli sifatida muammolarni echishning yangi, o'ziga xos usullarini izlash, o'z xatti-harakatlarini mustaqil boshqarishning yuqori ko'rsatkichlarini namoyon qilish hamda mazkur darajani shaxsiy faollik bilan qiyoslash mumkin. An'anaviy ta'lim sharoitida bilish faoliyati o'qituvchining o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o'tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o'quvchilarga tayyor tarzda uzatilmaligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo'ldilar. O'qituvchi o'quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo'lishiga erishish nazarda tutilmoqda. O'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi:

1. Didaktik yondashuvlar. Bunda asosiy e'tibor o'qituvchilar faoliyati, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o'rnini o'rganishga qaratilgan.

2. Psixologik yondashuv. O'quvchilar o'zlarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda bilish faoliyatidan foydalanadilar. Bilish jarayonining barcha darajalarini tahlil qilishdan ko'zda tutilgan maqsad – uning turlarini aniqlashdan iboratdir. Chunki bilish turlari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zlashtirish usuli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Shu bois, bilish faoliyatini o'zlashtirishning turlarini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. O'quvchining bilish faoliyati muayyan ko'rinishlar, shakllar, vositalar, usullar, yo'llar, metodlar yordamida amalga oshiriladi. Shunga ko'ra, quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1. Tabiiy sharoitdagi maktab amaliyotida bilish faoliyatini turli-tuman ko'rinishlarda vujudga keltirish.

2. O'quvchi bilish faoliyatining hosil bo'lish turlari, ko'rinishlari, usullari, shakllari, metodlariga ega bo'lishi.

3. O'qituvchilar bilish faoliyati turlarining yagona tasnifi mavjud emas.

Bilish faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonlari loyihalashtirilganda umumlashgan bilish ko'nikmalari o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Chunki mazkur jarayonda maqsadga yo'naltirilgan maxsus o'quv vaziyatlari amalga oshadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilarni umumlashgan ko'nikmalarni egallashga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi ularda xususiy xarakterdagi o'quv-biluv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. O'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirishda o'quv vaziyatlari o'ziga xos didaktik ahamiyat kasb etadi. O'quv faoliyati shunday vositaki, uning yordamida o'quvchi o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga intiladi. O'quvchi faoliyati o'quv predmeti mazmunini o'zlashtirishga yo'naltiriladi. Ma'lumki, o'qituvchi o'quvchi faoliyatini boshqarish holatini vujudga keltiradi. Bu jarayon o'quvchi o'z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgunga qadar uzluksiz



tarzda davom etadi. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi o'quvchining mayllarini hisobga olish, rejalashtirish, uning faoliyatini nazorat qilish va tuzatishdir. O'rganish o'quvchida o'z xatti-harakatiga ishonch tug'diradi. Mazkur ishonchni egallash boshlang'ich ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bunga o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladi. Bugungi kunga kelib aksariyat o'quvchilar o'z bilim zahiralari kengaytirishga intilmayotganiga guvoh bo'lishi mumkin. Ular darslarda faol ishtirok etmaydilar, o'quv jarayonidan tashqaridagi erkin faoliyatiga ko'proq qiziqadilar. Buning sabablarini izlash va bartaraf etish pedagogikaning ustuvor masalalaridandir. O'quvchilar maktabga borar ekanlar, o'qituvchilar va sinfdoshlarining mehrmuhabbati, e'tiborini qozonishiga harakat qiladilar. Muammoning echimi uzluksiz ta'limning o'ta muhim masalalaridan biridir. Bugungi kunda –o'quvchi nima uchun sinfdan-sinfga o'tgan sari o'qishga bo'lgan qiziqishni yo'qotadi?, –Bunga kim aybdor, o'qituvchimi yoki o'qitish metodlarimi?, –O'quvchining bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishini uyg'otishda o'qituvchi qanday o'rin egallaydi?, –O'qituvchi qanday qilib, nima yordamida o'quvchilarda o'quv-biluv jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshira oladi, bunda qanday vositalardan foydalanish kerak? kabi savollar o'z echimini kutmoqda. Pedagoglarning e'tirof etishlaricha, o'quvchining muvaffaqiyatlari uning o'quv-biluv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'qishga bo'lgan qiziqish o'quvchilarda bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishdan ruhlengandagina vujudga keladi. O'quvchi mehnati jarayonida quvonchini his qilsa, qiyinchiliklarni bartaraf etganligidan faxrlansa, o'quv jarayoniga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydi. SHuning uchun ham o'qituvchi o'quvchilarga o'quv mehnatidan quvonish vaziyatini yaratishi kerak. O'quvchilar qalbida g'urur va o'z muvaffaqiyatlariga loyqlik hissini tarkib toptirish lozim. Muvaffaqiyat har bir o'quvchi erisha olishi uchun qulay bo'lgan o'quv vaziyatini vujudga keltirish orqali ta'minlanadi. Mutaxassislar o'quv vaziyatida o'quvchining bilish ehtiyojlarini qondirish uning rivojlanishida muhim o'rin egallashini ta'kidlab kelmoqdalar. Agar o'quvchiga o'quv vaziyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyati berilsa, u hayotda ham to'g'ri yo'l tanlay oladi. O'quv vaziyatini vujudga keltirish o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishini har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o'quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa, ularda sog'lom mayllar va qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, Toshkent, 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son farmoni, 2022 yil 28 yanvar. lex.uz



3. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimentai psixologiya / o'quv qo'llanma. -T.: "Tafakkur-Bo'stoni". 2011. 304 bet.
4. Абдуллаева, Г. О. Диагностика в современной профориентации: проблемы и тенденции развития/ Вестник Кабардино-Балкарского государственного университета: Журналистика. Образование. Словесност. – 2021. – Т. 1. – № 1. – С. 84 – 94.
5. Асмолов А.Г. Как проектируют универсальные учебные действия: от действия к мысли / Под ред. А.Г. Асмолова. – М., 2008.
6. Toshtemirova S.A. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda tashxislash amaliyotining ahamiyati // INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE: a collection of scientific works of the International scientific online conference (24th MAY, 2022) – BELARUS, MINSK: "CESS", 2022. Part 86-93 p.
7. Хамракулова, М. М. К., & Коканбаев, И. И. (2022). Билингвальное обучение на уроках химии, как средство повышения качества образования. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 780-783.
8. Kukanbaev, I. I., & Sheralieva, Y. B. (2021). Using independent work to improve the effectiveness of teaching the topic " Halogens" in the school chemistry course. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(4), 172-176.
9. Musurmonov, R., Khimmataliev, D. O., Sultanova, D. A., qizi Tursunbaeva, Y. R., Khakimova, I. K., & Musurmonova, M. (2023). In the Conditions of New Uzbekistan the Main Issues of Science and Modern Education. *Telematique*, 7686-7694.
10. Musurmonova, M., Quzmanova, G., & Allayarova, S. (2022). Matnli masalalarni arifmetik usulda yechishning ba'zi tatbiqlari. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 223-229.
11. Eshqulova, G., Musurmonova, M., & Axmedova, D. B. (2022). Boshlang 'ich sinf ona tili darslarida nutqiy ko 'nikmalarni rivojlantiruvchi o 'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning ilmiy-metodik asoslari. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(1A), 72-75.
12. Soatova, N. R., Nurmatov, S. U., Musurmonova, M. U., & Muhammadiyeva, S. B. (2022). Dazmol so'zining etimologiyasi va kelib chiqish tarixi. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 212-214.
13. Musurmonov, R., Burkhonov, A., & Musurmonova, M. (2021). Innovative activity-a factor of educational efficiency. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 8(3), 1238-1241.
14. Musurmonova, M., & Zamidova, K. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida massa, sig'im va vaqt o'lchov birliklari to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 281-289.
15. Musurmonova, M. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga uzunlik va yuza o'lchov birliklarini o'rgatish usullari. *Экономика и социум*, (8 (87)), 302-311.



16. Musurmonova, M. (2021). To'plam tushunchasi. to'plamlar ustida amallar bajarish. *Экономика и социум*, (8 (87)), 292-301.
17. Musurmonova, M. (2021). Methods of teaching length and surface units for primary school students. *Экономика и социум*, (8), 302-311.
18. Musurmonov, R., Musurmonova, M., & Zamidova, K. (2021). Geometriya fani va uning rivojlanish davrlari tarixi haqida. *Экономика и социум*, (4-2 (83)), 911-915.
19. Musurmonov, R., & Musurmonova, M. (2021). Globallashuv sharoitida maktab darslarining intizomiy omillari. *Academic research in educational sciences*, 2(5), 1268-1274.
20. Abdiyeva, G .B., Qarshiboyeva, X. K. (2022). Dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ixtirochilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish. *Eurasian Journal Of Social Sciences, Philosophy And Culture*, 2(1), 91-94.
21. Karimovna, Q. X. (2022). Ixtirochilik masalalarini yechishga o'rgatish bosqichlari. *Academic research in educational sciences*, 3(12), 183-188.
22. Qarshiboyeva, X. K. (2021). Yozma savodxonlikni oshirishda boshlang'ich sinflarda chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. *Konferensiya*, 1(1), 286-289.
23. Qarshiboyeva, X. K. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish darslarida nutqiy faoliyatini takomillashtirish yo'llari. *Konferensiya*, 1(1), 379-382.



MURIEL SPARKNING "BANG BANG YOU ARE DEAD" АСАРИ БОШ ҚАХРАМОНИНИНГ ЗИДДИЯТЛИ ТАҚДИРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847387>

M.Z.Djalaldinova

*Andijon davlat chet tillari instituti,
1-bosqich doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada M. Sparkning ilk hikoyalaridan biri bo'lgan "Bang Bang You Are Dead" ning bosh qahramoni Sibil xonimning kutilmagan vaziyatlarga boy, ziddiyatli taqdiri, sodir bo'lgan tartibsiz va tushunarsiz voqealar taxlil etiladi.*

Annotation: *This article analyzes an unexpected destiny of the main character of the story "Bang Bang You Are Dead" by Muriel Spark through chaotic and incomprehensible event happened in her life*

Аннотация: *В статье анализируется неожиданная и противоречивая судьба миссис Сибил, главной героини одного из первых рассказов М. Спарка «Bang Bang You Are Dead», а также произошедшие с ней хаотичные и непонятные события.*

Kalit so'z va iboralar *Yolg'izlik, jaholat, gumon, otishma, chalkashlik, tartibsizliklar, noaniqlik, distopiya, fragmentatsiya, ziddiyat*

Key words and phrases; *Loneliness, Ignorance, Suspicion, Shooting, Confusion, Chaos, Uncertainty, Dystopia, Fragmentation, Conflict'*

Ключевые слова и фразы: *Одиночество, Неведение, Подозрение, Стрельба, Замешательство, Хаос, Неопределенность, Антиутопия, Раздробленность, Конфликт*

Асар қахрамони Сибил ўз уйида меҳмонларга 18 йил олдин содир бўлган воқеаларни проекторда намоиш этиш орқали беихтиёр ўтмиш хотираларига ғарқ бўлади. Бу ёзувчининг Африкада кечирган ҳаётини ёритиб берувчи икки ҳикоядан бири бўлиб, учинчи шахс томонидан ёзилган ва ҳикояда вақт уч қисмга тақсимланади: Сибилнинг болалик хотиралари, Африка кечинмалари ва Сибилнинг hozirgi ҳаёти. Ҳикояни ўқиш давомида ёзувчининг асар бош қахрамони Сибил хонимга хайрихоҳлиги ва ҳамдардлигини сезиш мумкин. Асар ёлғизлик, жаҳолат, гумон, отишма, чалкашлик ва қотилликлар каби мавзуларни ўз ичига олади. Ёзувчининг тарифича, 18 йил олдин инсонлар, айниқса аёллар тасаввурида барча эркаклар Рюперт Брук (типик Британиялик юзи) тимсолида гавдаланган³⁵.

(Рюперт Брук англиялик шоир бўлиб, биринчи жаҳон уруши даврида ижод қилган ва ўзининг идеалистик ғояларини ифода этган соннетлар ёзган) Сибил атрофидаги аёллар эркакларнинг келишган ва барваста бўлганликларини иддао

³⁵ M. Spark Bang Bang You Are Dead, 1956, p 53



этар, аммо Сибил эса уларни аниқроқ билиб олгунингизча шундай туюлади деган эди. Демак, Сибил ҳаёти давомида учратган эркаклар унинг наздида чиройли кўринишга эга бўлиши мумкин, аммо инсоннинг ташқи кўриниши унинг ботиний оламини ифода этмаслигини назарда тутган бўлса керак. Мен ёш эдим лекин идеяликдан йироқда бироқ, барибир мен эркакларни жозибали хисобламайман³⁶. Орадан 18 йил ўтибгина кўришга жураат этилган видео тасмаси Сибил ва унинг атрофидаги бирга томоша қилишга чоғланганлар учун ҳам бироз ғалати туюлган эди. “Шунча вақт ўтгандан сўнг ўзингни кино лента тасмаларида кўриш бошқача бўлса керак”- дея сўз қотди Сибилнинг хизматкор аёли. “Нахот Сибил бу тасмани олдин бирон марта ҳам кўрмаган бўлса”- давом эттирди кеч қолиб келган меҳмон. Йўқ, ҳеч ҳам кўрмаган, мен бўлсам шунча вақтни ўтказмасдан кўрган бўлардим менинг, сабрим етмаган бўларди деди Сибилнинг хизматкори³⁷. Кино лента тасмасида жажжи қизалоқ кучук еталаганча пайдо бўлди. Шу онда Сибилнинг болалик давридан уни тақиб қилиб келган Дезирага ўхшатиш жараёни бошланди. Меҳмонларнинг ҳеч бири Дезира ва Сибилни бир биридан ажрата олмаган эди, чунки экранда пайдо бўлган, кучук еталаган қизалоқ аслида Сибил эмас, балки Дезира эди. Мана шу онда асарнинг мавзуларидан бири чалкаштириш ёки чалкашлик намоён бўлади. “Қанчалар кичкинтой кучукчанг бўлган экан”- деди хизматкори, Сибил эса “бу мен эмас бошқаси, дарахтлар орасида юрганимни кўрмадингизми”- деди. “Ҳа, сизни пайқаб олгунча кўринган қизчани сиз деб ўйладимда”-дея иккиланганини яширишга уринди хизматкори. “Ҳа, бироз ўхшаш томонларимиз бўлган”- дея тасдиқлади Сибил³⁸. Ёзувчининг Сибил болалик давлари, 1923 йилларда урф бўлган кийимларни ҳам батафсил тасвирлаши ўша даврга мос бўлган ижтимоий ҳаётни тасвирлайди.

Сибил мактабга боргач Дезира ўзидан 1 ёш катталигини билиб олди, унғача у Дезира ҳақида ҳеч қандай маълумотга эга эмас эди. Дезира Сибилдан бир синф юқорида ўқиса ҳам, мактаб ўқувчилари биргаликда йиғилганда албатта ўқитувчилар дақиқалар ичида Сибилни Дезира билан чалкаштирар эдилар. Баҳор ойининг ёқимли кунларидан бирида ҳар икки қиз ўқийдиган синф ўқувчилари азим дарахт панасида машқларни бажариш билан машғул эдилар. Ўқитувчи танаффус пайтини эълон қилди. Бирдан кўзи пойафзалнинг боғланмаган ипларига тушди ва Сибил пойафзалинг ипларини боғлаб олгин деб бақирди, Сибил эса пойафзалининг иплари боғланган холда устозига ҳайрон қараб турар эди. Э, йўқ, Сибил эмас Дезира дедим такрорлади ўқитувчи³⁹.

Сибил Дезирини дугона сифатида кўрмади, чунки Дезира ҳар сафар унга руҳий тазйиқ ўтказар ва айнан ҳикоянинг номи “Bang Bang You Are Dead”

³⁶ M. Spark Bang Bang You Are Dead, 1956, p 53

³⁷ M. Spark Bang Bang You Are Dead, 1956, p 53

³⁸ M. Spark Bang Bang You Are Dead, 1956, p 56

³⁹ M. Spark Bang Bang You Are Dead, 1956, p 55



куйидаги эпизодларда намоён бўлади. Сибил, Дезира ва Добел оиласининг болалари бирга ўйнаганларида Дезира кўлини тўппонча қилиб Сибилга қарата сени отдим, сен ўлдинг дер эди. Бу бир неча марта, хар сафар бирга ўйнаган даврларида такрорланади. Добеллар ҳам Дезинининг бундай қилиғидан безор эди, аммо бир неча марта огохлантиришларга қарамай Дезира ўз билганидан қолмас, Сибилга руҳий босим ўтказишда давом этар эди. Сибил ҳам хар сафар Дезинининг ахлоқона қилиқларини юзига айтаман деб харакат қилар, аммо Сибил гапираман дегунча Дезира ўша ахлоқона харакатини такрорлар эди. Болаларнинг севимли ўйини биринчи жахон уруши таъсирида оммалашганлиги ҳикояда яққол сезилади.

Иккиланишларга тўла бўлган Сибил 18 йил олдин содир бўлган воқеаларни эшлашда давом этди. Турмуш ўртоғи Доналд билан уни фақат расмий никоҳ боғлаб тургани, уларни ҳамоханг ушлаб турувчи хеч қандай ришта бўлмагани, кундалик турмуш икир чиқирлари билан банд бўлганликлари, Доналднинг археологияга бўлган қизиқиши, унинг Англиядаги даврларида ёзган илмий асарининг унга хеч қандай қизиқиш уйғотмай қўйганлиги, навбатдаги археологик сафарларининг бирида аёл шер томонидан тишлаб олиниши, унинг вафоти, Сибилга кончилар томонидан Англияга қайтиш таклифи, уруш туфайли Сибилнинг ватанига қайта олмай қолгани бевосита асар қахрамонининг бошқа инсонлар билан мулоқот қилишдан қочиш, ўзини ёлғизликка махкум қилиши, ёзувчининг шахсий ҳаётида содир бўлган воқеаларни ҳам ёритиб беради. Мюриел Спарк ҳам турмуш ўртоғи билан Родезияга боради, у ерда турмуш ўртоғи рухий хасталикка чалинади, Спарк ватанига қайтишга қарор қилади, аммо уруш туфайли вақтинча яна Африкада қолишга махкум бўлади⁴⁰. Сибилнинг ёлғизликка махкумлиги, тўсатдан Дезира ва унинг турмуш ўртоғи Бари томонидан уйларига тез тез таклиф қилиниши, Сибил рўпарасида эр хотиннинг очикдан очик муносабатлари, Сибилнинг ҳам ўзига жазман ёки эр топиб турмуш қуришини қайта қайта уқтиришлари, уларнинг ҳаётида 4-одам, Доналднинг пайдо бўлиши ва унинг Дезира билан хуфёна алоқаси бор деб Барининг гумонда бўлиши, аммо Доналднинг Сибилни мутассил тақиб этиши, Барининг хотининг ёнида ҳам очикдан очик Сибилга мулозамати ва унинг шоирликка давоси, Сибилнинг хиссизлиги, эркакларни ёқтирмаслиги, одам овилиги бу эса Дезинининг ғашига тегиши, ичкиликбозлик, кун ора содир бўладиган отишмалар ҳикоянинг асосий қахрамони бўлган Сибилни анча эсанкиратади, содир бўлаётган воқеалар гарчи тушинарсиз ва жумбоқларга тўла, жумладан Доналднинг Сибилни ортидан қолмаслиги аммо якунида Дезинини сўнгра эса ўзини отиб ташлаши ва Барининг Дезинини севувчи турмуш ўртоқ сифатида гавдаланиб, унинг вафотидан эса чуқур қайғуга ботмаганлиги ва хоказолар содир бўлсада ёзувчи Сибил образи орқали юраги буюрганини эмас, балки ақлига, диний эътиқодига таяниб иш кўрадиган аёл

⁴⁰ <https://www.britannica.com/biography/Muriel-Spark>



тимсолини ёритиб беришга ҳаракат қилганлиги яққол билинади. Спарк яна бу ҳикояси орқали турли вазиятларда ҳам ўзини бошқара оладиган, ҳис туйғуларини жиловлаб олган кучли аёл тимсолини яратишга уринган.

Инглиз ёзувчи ва танқидчиси Ричард Женкинс Мюриел Спарк хикояларини романдай узун ёзилганини, хикоялари асосан бир фикр доирасида, айримлари эса бироз кенгроқ доирада ёзилганлигини таъкидлайди ⁴¹. Спаркнинг узундан узун ёзилган хикояларидан бири “Bang Bang You Are Dead” Африка таассуротларни ўз ичига олган, ўтмиш хотираларини кетма кетликда ёритиб берган ва ёзувчининг бошқа хикояларига қараганда хайрлироқ яқун топган хикояларидан биридир аммо, хикоя давомида учта қахрамоннинг ўлими ким томонидан? ва нима учун? содир этилган, деган саволларга жавоб мавҳумлигича қолади. Ноодатий тарзда ёзилган хикоянинг яқунида бош қахрамон, аёлнинг ўзига ўзи -Мен ҳам аёлманми ёки иқтидорли йиртқич?-дея саволи билан хикоя яқун топади ⁴².

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. M. Spark Bang Bang You Are Dead, 1956, p 53-60
2. <https://www.britannica.com/biography/Muriel-Spark>
3. <https://archive.nytimes.com/www.nytimes.com/books/97/10/26/reviews/971026.26jenkynt.html>

⁴¹ <https://archive.nytimes.com/www.nytimes.com/books/97/10/26/reviews/971026.26jenkynt.html>

⁴² <https://archive.nytimes.com/www.nytimes.com/books/97/10/26/reviews/971026.26jenkynt.html>



UDK 62-50. 681.5. 677.21

**4DP-130 RUSUMLI ARRALI JIN PD TA'MINLAGICHINI AVTOMATLASHTIRISH
ORQALI UNUMDORLIKNI OSHIRISH**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847400>**B.M.Jo`Rayev***toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti m
22-21 guruh magistranti***I.X.Siddiqov***ilmiy raxbar t.f.d., prof*


Hozirgi kunda paxtani dastlabki ishlash texnologiyasida ishlab turgan paxta xom ashyosini chigitdan ajratish mashinalari (jinlar)ni avtomatlashtirish orqali tola chiqishini oshirish.

Kalit so`zlar: *Arrali jin, Arra tishining geometriyasi, Ishchi kamera, Jinlash jarayoni, Tola, tsilindr. Increase in fiber yield due to the improvement of machines for separating raw cotton from seeds, on which the technology of primary processing of cotton is currently being developed.*

Keywords: *Saw gin, Saw tooth geometry, Working chamber, Gin process, Fiber, cylinder, construction. Увеличение выхода волокна за счет автоматизации машин для отделения хлопкового сырья от семян (демонов), которые в настоящее время работают по технологии первичной обработки хлопка.*

Ключевые слова: *демон пилы, геометрия зуба пилы, рабочая камера, процесс демона, волокно, цилиндр.*

PD rusumli jin ta'minlagich uskunasing texnologik sxemasi 1.1-rasmda, kinematik sxemasi 1.1- rasmda keltirilgan. Ishlash jarayoni quyidagicha: chigitli paxta ta'minlagich ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushadi. Bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan ta'minlash valiklari (1) chigitli paxtani shaxtadan bir tekisda olib qoziqchali barabanga (2) uzatadi, bu baraban paxtani titkilab to'rli yuza (3) ustidan sudrab o'tib chigitli paxtani mayda xas-cho'plardan oxirgi marta tozalaydi. Tozalangan chigitli paxta qoziqchali baraban yordamida novga (4) uzatiladi va jinning ishchi kamerasiga tushadi. Ajralgan ifloslik esa tasmali transportyor (5) yordamida uskunadan olib ketiladi.




1-rasm. PD rusumli ta'minlagich uskunasini

1. Ta'minlagich va'ligi;
2. Qoziqchali baraban;
3. To'rli yuza (sirt);
- 4- Chiqindi konveyeri;
- 5- Nov;

Ta'minlash valiklarining (1) aylanish tezligi shu valikning o'qiga o'rnatilgan IVA rusumli impulsli variator orqali rostlanishi sababli jinning ishchi kamerasiga uzatiladigan chigitli paxta hajmi ko'p yoki kam bo'lishi mumkin, ya'ni jin uskunasini ish unumdorligini nazorat etishga imkoniyat yaratadi. O'rta tolali chigitli paxtaning tolasini chigitidan ajratish uchun 3XDDM, DP-130, 4DP-130, 5DP-130 va DPZ-180 rusumli arrali jinlar ishlatiladi. Unda namligi 7÷9 % bo'lgan o'rta tolali paxtaning hamma sanoat navlari va uzun tolali paxtaning IV, V sanoat navlariga ishlov beriladi.

Arrali jinlarning konstruksiyasi quyidagi ishchi organlardan, qism lardan iborat:

- ish kamerasi (fartuk, chigit tarog'i, peshtoq brus);
- kolosnikli panjara;
- arrali qilindr;
- tolaning arra tishlaridan ajratish moslamasi;
- o'luk ajratuvchi kozerog;
- ifloslik konveyeri;
- cho'yan devorlardan iborat asos (stanina).



2-rasm. 4DP-130 rusumli arrali jinning ko'ngdalang kesimi


1- ta'minlovchi valiklar; 2- qoziqchali baraban; 3-to'rli yuza; 4- yunaltiruvchi to'siq; 5-magnit; 6- peshtoq brusi; 7-oldingi fartuk; 8- ishchi kamera; 9- arrali silindr (disk); 10- chigit tarog'i; 11- kolosnik; 12- pastki brus; 13- ifloslik bunker; 14-iflosliklarni yig'ishtirish va uzatish shnegi; 15- chiqindi olib ketuvchi moslama; 16- chiqindini uzatish shnegi; 17- saplo; 18- havo kamerasi; 19- tola uzatish quvuri.

4DP-130 rusumli arrali jinning (1.2-rasm) ishlashi quyidagicha: Ta'minlagich barabani paxtani titib (2) mayda iflosliklardan tozalab kerakli miqdorda jinga berib turadi. Unda paxta ishchi kamera (6) ga tushib hom ashyo valigini hosil qiladi va arrali silindrning (7) arratishlari bilan tolani ilib oladi va kolosnik (8) oralig'idan olib o'tadi.

Kolosniklarning oralig'i chigit o'lchamidan kichik bo'lgani uchun faqat tola o'tadi. Arratishidagi tola kolosnik orqasida havo kamerasi (13) ning tirqishdan chiqayotgan havo yordamida tishdan ajratib olinib uzatish kuvuri (14) orqali keyingi jarayonga etkazib beriladi. Tola kolosnik orqasiga o'tganda arratish orqasiga o'rnatilgan pichoqqa (11) urilib xas-cho'p aralashmalardan tozalanadi va ular ulyuk olib ketuvchi vintli konveyer (15, 16) ga tushib uskunadan chiqariladi.

4DP-130 jinlash mashinasini taminlash valigini avtomatik boshqarishning algoritimini va dasturini yaratish

Ishchi kamerani yuklanish toki o'zgarishini nazorat qilish datchiki bilan ta'minlanishi xomashyo valigi zichligini nazorat qilish va ishchi kamerasiga uzatilayotgan material hajmini rostlash imkonini beradi. Jarayonni algoritimini yaratishda tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi alqoritmlardan foydalanildi



4ДП-130 jinlash mashinasini taminlash valigini avtomatik boshqarishning algoritmi

Tarmoqlanuvchi algoritm asosida tokning to'rt xil qiymat oralig'ida taminlovchi valiklarni tezliklari o'zgartiriladi. Jarayon xar ikki daqiqada qayta takrorlanadi. Algoritmida keltirigan qiymatlarni o'zgaririshimiz mumkin. Yaratilgan algoritm asosida dastur ishlab chiqildi.

4ДП-130 jinlash mashinasini taminlash valigini avtomatik boshqarish dasturi:

```


#include <Wire.h>
#include <LiquidCrystal_I2C.h>
LiquidCrystal_I2C lcd(0x27,16,2);
#define PIN_OUT A3
#include <TroykaCurrent.h>
ACS712 dataI(PIN_OUT);
const int motorPin=3;
int Speed1=250;
const int relay=6;
void setup()
{
  Serial.begin(9600);
  pinMode(motorPin, OUTPUT);

```




```
Serial.begin(9600);  
lcd.init();  
lcd.backlight();  
pinMode(relay, OUTPUT);  
}  
void loop()  
{  
digitalWrite(relay, HIGH);  
Serial.print("i = ");  
Serial.print(dataI.readCurrentDC());  
Serial.println(" A");  
float I=dataI.readCurrentDC()+6;  
lcd.clear(); // ekranni tozlash  
lcd.setCursor(0, 0);  
lcd.print("I=  A"); // matnni chiqarish  
lcd.setCursor(1, 0);  
lcd.print(I, 1); // tokning qiymatlari  
if (I<95){  
analogWrite(motorPin, Speed1);}  
if (95< I <100) {  
analogWrite(motorPin, Speed1/2); }  
if (100< I <105) {  
analogWrite(motorPin, Stop); }  
if (I >105) {  
digitalWrite(relay, LOW); }  
Serial.print("i= ");  
Serial.print(dataI.readCurrentDC());  
Serial.println(" A");  
delay(1000);  
}
```

Yozilgan dasturni tekshirish uchun 4ДП-130 jinlash mashinasini prinspiial sxemasi loyihalashtirildi va maketi yasaldi. 4ДП-130 jinlash mashinasini prinspiial sxemasi 14- rasmda keltirilgan.



14-rasm. 4ДП-130 jinlash mashinasini taminlovchi valigining tezligini avtomatik boshqarish prinsipl sxemasi

4ДП-130 jinlash mashinasini maketini yig'ishda quyidagi jihozlardan foydalanildi:

1. Arduino Uno mikrokontrolleri
2. ACS712 tok datchiki
3. SKI display
4. Qadamli elektr yuritma va drayveri
5. ulovchi similar
6. Kuchlanish rele si

Xulosa: Texnologik mashinalarda ta'minlashni avtomatik rostlashning mavjud tizimlarini va texnologik jarayonlarni rostlashning mavjud qonuniyatlari tahlili asosida jinlash mashinalarini xomashyo bilan ta'minlashni rostlashning resurs tejamkor texnologiyasi, jinlarni paxta bilan ta'minlash texnologik jarayonini nazorat qilish va boshqarishni algoritmini va dasturini yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 noyabrdagi PQ -3408-son «Paxtachilik tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori.
2. M.T.Xojiyev, A.Salimov, U.S.Tadjiyev – Kasb mahorati T.: “Adabiyotlar uchquni”, 2018
3. A.Salimov. –Paxtaga dastlabki ishlov berish. T.: –Bilim|| - 2005.
4. E.Zikriyoyev taxriri ostida Paxtani dastlabki qayta ishlash. T.: –Mehnat 2002.
5. A.Salimov –Birlamchi tola agrotexnikasi. T.: –Iqtisod- Moliya-2010
6. F.Omonov taxriri ostida – Paxtani dastlabki ishlash bo'yicha spravochnik T.: –Vorish-nashriyoti -2008.



7. Qahhorov A.A., Yuldashev S.X. Raqamli sxemotexnika va mikroprotssessorli vositalar. Leksional kurs. II qism. Toshkent-2018. 420 b.

8. Иго Т. Arduino, датчики и сети для связи устройств: Пер. с англ. — 2-е изд. — СПб.: БХВ-Петербург, 2015. — 544 с.: ил

9. Петин В. А., Биняковский А. А. Практическая энциклопедия Arduino. - М.: ДМК Пресс, 2017. - 152 с.

10. Блум Джереми. Изучаем Arduino: инструменты и методы технического волшебства: Пер. с англ. — СПб.: БХВ-Петербург, 2015. — 336 с: ил.

11. Бородин В.Б. , Калинин А.В. Системы на микроконтроллерах и БИС программируемой логики. - М.: ЭКОМ, 2002. - 400с.

12. Магруппов Т.М, Расулова С.С., Каххаров А.А. Современные микропроцессоры и их применение в медицинских компьютерных системах. Учебное пособие. Ташкент. 2006. 114с.

13. Безуглов Д.А., Калиенко И.В. Цифровые устройства и микропроцессоры. Учебное пособие. - Ростов на Дону, Феникс, 2008. - 468с.

14. Новиков Ю.В., Скоробогатов П.К. Основы микропроцессорной техники. Москва. ООО «ИНТУИТ.РУ» 2009. 358с.

15. Valdés Pérez, Fernando E. Microcontrollers : fundamentals and applications with PIC / authors, Fernando E. Valdes-Perez and Ramon Pallas-Areny. - USA. CRC Press. 2009. 314 p.

16. Катцен, Сид. PIC-микроконтроллеры. Полное руководство/Сид Катцен; пер. с англ. Евстифеева А. В. - М.: Додэка-XX1, 2010. - 656 с.: ил

17. Harry Hariom Choudhary, Bjarne M Stroustrup. C++ Programming Professional.: Sixth Best Selling Edition for Beginner's & Expert's 2014.

18. Bjarne Stroustrup. The C++ Programming Language, 4th Edition. Person Education, Inc. 2013. Third printing, April 2014.

Nazirov Sh.A., Qobulov R.V., Bobojanov M.R., Raxmanov Q.S. C va C++ tili. "Vorish-nashriyot" MCHJ, Toshkent 2013. 488 b.

Internet manbalari:

19. <http://ZiyoNet.uz>

20. www.electro.nizniy.ru

21. <http://arduino.cc/en/Main/Software>

22. <http://arduino-kit.ru>

23. <https://www.sciencedirect.com/>

**TARBIYAVIY JARAYONDA TOLERANTLIKNING O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847414>

Gafurova Nodira ravshanovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tolerantlik deganda shaxsning (yoki guruhning) boshqa mentalitetga, turmush tarziga ega bo'lgan boshqa odamlar (jamoalar) bilan birga yashash qobiliyati tushuniladi. Bu qobiliyat har bir shaxsda ijtimoiy mavjudot sifatida, har bir jamoada, doimo boshqa jamoalar bilan "muloqotda" shakllanadi.

Tabiiyki, bolalar va ularning jamoalari (sinf, doira, kompaniya va boshqalar) bundan mustasno emas. Bolalar bag'rikengligining o'ziga xos xususiyati uning nafaqat bolalarda erta paydo bo'ladigan atrof-muhitni idrok etish qobiliyati bilan, balki "ijtimoiy" taassurotlarning o'ziga xos qiymatini tanlash, turli xil ekologik omillarni baholash bilan ham rivojlanishi bilan bog'liq. Tolerantlik ob'ektiv dinamik hodisa bo'lib, uning orqasida qadriyat asoslari, axloqiy va psixologik ko'rsatmalar mavjud bo'lib, ular ham dinamikdir. Ta'lim uchun ob'ektiv imkoniyatlar va makon shunday yaratiladi, ya'ni shaxsni o'zgartirish uchun ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni maqsadli yaratadi.

Chegaralarning nafaqat ichki, balki tashqi tomoni ham bor. Shuning uchun bag'rikenglik - bu bolaning mikro muhitida ham, bolalar jamoasida ham, makro muhitda ham u bilan bevosita aloqada bo'lmagan, lekin ularning reaksiyasi va baholanishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan voqealarga munosabat ekanligini ta'kidlash muhimdir.

Maktabdan tashqari, bolaning bag'rikengligini bevosita yoki bilvosita shakllantiradigan va oziqlantiradigan boshqa manbalar mavjud.

Ular orasida, albatta, birinchi o'rinda oila turadi, ya'ni oilaviy ustuvorliklarning jonli namunasi: kattalarning munosabati, ularning fikri, mulohazalari va harakatlari. O'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lgan bolaning ta'lim muhitining ta'siri, o'ziga xos munosabatlar tizimi, majburiy va erkin faoliyatning dolzarb turlari deyarli bir xil darajada muhimdir. Shuningdek, odamlarning shaxsiy taassurotlari, o'qilgan kitoblar, ommaviy axborot vositalari tomonidan obsesif ravishda efirga uzatiladigan "namunalar" oqimi kabi manbalar juda samarali. Bularning barchasi va boshqa manbalar bolalarning xilma-xil va qarama-qarshi hayotiy tajribasini yaratadi va shakllantiradi, va unda ularning bag'rikenglik tajribasi bor. O'qituvchilar tabiiy ravishda ikkalasiga ham ega, ammo uning manbalari orasida kasbiy ta'lim va kasbiy tajriba bor. Har qanday tajribani maxsus boyitish va to'ldirish mumkin.

Bu, aslida, bag'rikenglik tarbiyasining mohiyati va mazmuni - tolerantlikning ijobiy (salbiy) tajribasini maqsadli tashkil etish, ya'ni,



boshqa odamlar, ularning qarashlari yoki xatti-harakatlari, jamiyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita o'zaro ta'sir qilish joylari, boshqacha aytganda, turli xil shaxslarning birga bo'lishini e'tirof etadi. Bu qanchalik boshqacha bo'lishidan qat'i nazar, har qanday holatda ham, o'qituvchi bunga tayyor bo'lishi kerak va buning uchun nafaqat manbalarni, balki nima sabab bo'lishi mumkinligini o'z ichiga olgan omillarni, joylarni ham ko'p darajada bag'rikenglik zaruratini bilishi kerak.

Bola va bolalar jamoasi uchun qiyin bo'lgan barcha turdagi joylar o'qituvchi uchun quyidagi muammolar kam emas. Bular : diniy, etnik, psixologik, qadriyat, kommunikativ, xulq-atvorlar (B. V. Wolfe bo'yicha). Ularning har biri negativizm, rad etish, aniq (yoki hatto haqiqiy) nomuvofiqlik paydo bo'lishining haqiqiy sohasiga aylanishi mumkin.

Shunday qilib, etnik joyda quyidagi salbiy tendentsiyalar eng ko'p uchraydi, ayniqsa so'nggi yillarda millatlararo munosabatlar - alohida bolalar, guruhlar va umuman etnik guruhlar darajasida, qochqinlarga bo'lgan munosabatni bildiradi.

Psixologik zona o'qituvchi uchun eng nozik, o'ziga xos tarzda qiyin bo'lganligi bilan murakkablashadi, chunki u ba'zan bolaning shaxsiy parametrlarini aqliy qabul qilishi yoki qabul qilmasligini tushuntirish qiyin bo'lganligi bilan bog'liq.

Qadriyat zonasi - tengdoshlar (kattalar), tengdoshlar guruhlari, jamoat birlashmalari tomonidan e'tirof etilgan muhim ma'nolar, munosabatlar, naqshlarning qabul qilinishi yoki qoralanishi; bu dunyoqarash sohasi, agar bolalikning bunday tavsifiga yo'l qo'yilsa.

Ma'lum bo'lgan qiyinchiliklar kommunikativ zona bilan ham bog'liq bo'lib, kimdir u yoki bu muloqot doirasini, ayniqsa majburan (bir sinfda, doirada va hokazo) yoki kimningdir muloqot qilish uslubini, uning mazmunini, intonatsiyasini, uslubini qabul qilmasa.

Va nihoyat, bu zonalarning barchasi kesishganga o'xshaydi, xulq-atvor zonasi makonida - qolganlarning haqiqiy namoyon bo'lishida mujassamlangan: bag'rikenglik sub'ekti va uning turli ob'ektlari o'rtasidagi munosabatlari, xulq-atvori, turmush tarzi, hayotiy tajribasi, uni tashkil etish o'qituvchilar faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lib, unda faqat ular o'z vazifalarini amalga oshirishi, uy hayvonlarining bag'rikenglik tajribasini boyitishi va qo'shimcha qilaylik yaratishi ifodalangan.

Pedagogik nuqtai nazardan, vaziyat bola (guruh, sinf) va o'qituvchi turli nuqtai nazarga ega bo'lishi mumkinligi, ya'ni turli xil, ba'zan qutbli qadriyatlar, g'oyalar va shuning uchun tolerantlik ob'ektlariga munosabati bilan murakkablashadi. Va bunday ob'ektlar doirasi, demak, baholash va munosabatlardagi qarama-qarshiliklar doirasi o'zboshimchalik bilan keng va ko'p qirrali bo'lishi mumkin - yoshlik jargonlari va modaga qarashdan hayotiy qadriyatlar va istiqbollari mazmunida bilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:



- 1) Ravshanovna, G. N. (2022, April). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
- 2) Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 95-96.
- 3) Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022, May). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
- 4) Abdurakhmonov, V. (2022). Functional Specificity Of Alternative Interrogative Sentences. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 82-87.
- 5) Abdusattorovich, A. V. (2022). Methodological and semantic classification of alternative interrogative pronouns. *Fsu. Scientific News-Научный Вестник. Фергана*, 1.
- 6) Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17).
- 7) Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 1221-1224.
- 8) Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).
- 9) Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 95-96.
- 10) Abdurakhmonov, V. (2022). FUNCTIONAL SPECIFICITY OF ALTERNATIVE INTERROGATIVE SENTENCES. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 82-87.
- 11) Abdurakhmonov, V. (2022). FUNCTIONAL SPECIFICITY OF ALTERNATIVE INTERROGATIVE SENTENCES. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(03), 82-87.
- 12) Qizi, D. Z. M. M. (2020). Issues on teaching listening to students of non Philological higher educational institutions. *Проблемы современной науки и образования*, (3 (148)), 72-74.
- 13) Адхамжонов, М. (2022). МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ. *PEDAGOG*, 1(2), 402-406.
- 14) Adhamjonov, M. (2022). IMPLEMENTATION OF EFFECTIVE ORAL CORRECTIVE FEEDBACK IN ENGLISH LANGUAGE CLASSES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 4, 30-33.
- 15) Muhammadali, A. (2022). The game is an active way to learn German. Active methods of teaching German Active methods of teaching in German language classes. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 14, 92-95.



- 16) Адхамжонов, М. М. (2020). Преимущества применения современных технологий обучения иностранным языкам в нефилологических вузах. *Проблемы современной науки и образования*, (6-2 (151)), 59-61.
- 17) Gulsora, M. (2022). Exercise Problem in Teaching a Foreign Language. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 15-17.
- 18) Gulsora, M. (2022). Exercise Problem in Teaching a Foreign Language. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 15-17.
- 19) Gulsora, M., & Mamura, S. (2022). CRITERIA FOR EFFECTIVE TEACHING OF GERMAN. *Uzbek Scholar Journal*, 2, 1-2.
- 20) Gulsora, M., & Mamura, S. (2022). CRITERIA FOR EFFECTIVE TEACHING OF GERMAN. *Uzbek Scholar Journal*, 2, 1-2.
- 21) Gulsora, M. (2022, February). Chet tillarini o'qitishda zamonaviy intensiv metoddan foydalanish. In *Conference Zone* (pp. 271-272).
- 22) Gulsora, M. (2022, February). Chet tillarini o'qitishda zamonaviy intensiv metoddan foydalanish. In *Conference Zone* (pp. 271-272).
- 23) Usmanova, S. (2022). An analysis of "assimilation" of landscape terms. *Eurasian Scientific Herald*, 14, 32-36.
- 24) Usmanova, S. (2022). Comparative analysis of landscape terms in Uzbek and English and usage of terms. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 14, 1-3.
- 25) Shaxnoza, U. (2022). Comparative Study of Cosmonyms (Sun, Moon...) In Uzbek and English. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 7, 72-75.
- 26) Holbekova Matluba Abdufattoyevna. (2021). Neurodidactics In Teaching Foreign Languages. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 3, 142-144.
- 27) Umid Umirziyev. (2022). THE EFFECTS OF RECASTS ON INFORMAL WRITTEN DISCOURSE. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 395-401.
- 28) Umirziyev, U., & Abdurakhmonov, V. (2022). FLOW THEORY. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(12), 261-264.
- 29) Umirziyev Umidjon Makhamadjonovich, & Mukhammadjonov Salokhiddin Tulkinjon ugli. (2022). Coaching for English learning. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 15, 4-7.
- 30) Ruzieva Khayotkhon Bakhodir Qizi, & Umirziyev Umidjon Makhamadjonovich. (2022). The meaning of "concept" in Linguistics. *Texas Journal of Philology, Culture and History*, 13, 4-5.
- 31) угли Мухаммаджонов, С. Т. (2022). ПОНЯТИЕ " РЕБЕНОК" И ИХ СРЕДСТВА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. *PEDAGOGS jurnali*, 23(1), 196-199.
- 32) Makhamadjonovich, U. U. (2022). COACHING FOR ENGLISH LEARNING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 34-37.
- 33) Salohiddin, M. (2022). EUROPEAN LITERATURE AND CULTURE. *Journal of Modern Educational Achievements*, 3, 28-32.



- 34) угли Мухаммаджонов, С. Т. (2022). ПОНЯТИЕ" РЕБЕНОК" И ИХ СРЕДСТВА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. *PEDAGOGS jurnali*, 23(1), 196-199.
- 35) Kurbanovna, E. N. (2022). PROBLEMS OF CONCEPTUALIZATION AND CATEGORIZATION OF THE WORLD IN LANGUAGE. *Journal of Modern Educational Achievements*, 3, 57-60.
- 36) Kurbanovna, E. N. (2022). PROBLEMS OF CONCEPTUALIZATION AND CATEGORIZATION OF THE WORLD IN LANGUAGE. *Journal of Modern Educational Achievements*, 3, 57-60.
- 37) Азимова, С. Х. (2022). Прагматический Анализ Иллокутивного Акта «Выражение Отказов». *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 276-282.
- 38) Азимова, С. Х. (2022). Прагматический Анализ Иллокутивного Акта «Выражение Отказов». *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(11), 276-282.
- 39) Ma'mura, S. (2022). Mechanisms of Teaching the German Language Through Traditional and Innovative Methods. *Eurasian Journal of Research, Development and Innovation*, 14, 9-13.
- 40) Xusanboyevna, A. S. (2020, June). LINGUOPRAGMATICS AND THE MAIN CATEGORIES OF LINGUOPRAGMATICS. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 40-42).
- 41) Азимова, С. (2021). Linguopragmatic features of speech acts" expression of refusals" in Russian and Uzbek languages. *Общество и инновации*, 2(4/S), 776-781.
- 42) Xusanboyevna, A. S. (2020, June). ROLE OF THE THEORY OF SPEECH ACTS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF LINGUISTIC PRAGMATICS. In *Archive of Conferences* (Vol. 2, No. 2, pp. 43-45).
- 43) Xusanboevna, S. A. (2021). Linguopragmatic Properties of Language. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 1(4), 10-12.
- 44) Азимова, С. Х. (2020). НУТҚ АКТЛАРИ ВА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯ:“РАД ЖАВОБИНИ БИЛДИРУВЧИ” ИЛЛОКАЦИОН ҲАРАКАТНИ ПРАГМАТИК ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(5).



QUYOSH MEVA QURITGICHLARIDA ISSIQLIK JARAYONI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847421>

Qahhaorov Siddiq Qahhorovich

Buxoro Davlat Universiteti Professori

Qahhorov52inbox.ru

Buxoro Davlat Universiteti fizika kafedrası 2-bosqich magstranti

Orziyev Xurshidjon Aminboy o`g`li

x.a.orziyev@buxdu.uz

Annotatsiya: *Ushbu maqolada quyosh quritgichlarining eksperimental namunadagi dizaynlari keltirib o`tilgan. Maqolada quritish jarayonining tavsiya etilgan rejimlari va quritish agregatlarida qo`llaniladigan eng samarali quritgichlardagi issiqlik fizikaviy jarayonlar keltirib o`tilgan. Quritgichlardagi issiqlik almashinuv jarayonlari hamda namlikning o`zgarishlari jadvallar asosida keltirib o`tilgan.*

Kalit so`zlar: *quritgich, quritish, energiya, namlik, issiqlik, psixrometr, termometr, meva-sabzavotlar issiqlikni saqlash, issiqlik energiyasi, issiqlik tashuvchi, bug`lanish.*

TECHNOLOGY OF THE ENERGY STORAGE PROCESS IN SOLAR FRUIT AND VEGETABLE DRYERS

Abstract. *In this article, experimental designs of solar dryers are mentioned. Recommended modes of drying process and thermal physical processes in the most effective dryers used in drying units are mentioned in the article. Heat exchange processes and humidity changes in dryers are given on the basis of tables.*

Keywords: *dryer, drying, energy, moisture, heat, psychrometer, thermometer, fruits and vegetables heat storage, heat energy, heat carrier, evaporation.*

KIRISH. Har qanday quritgichni hisoblashda dastlabki ma'lumotlar sifatida quyidagilar olinadi:

1. Quritgichning ho`l yoki quruq mahsulotga nisbatan unumdorligi.

$$\Pi_i \frac{\kappa_2}{\text{сутка}} \dot{e}_{\text{ки}} \frac{\kappa_2}{\text{сoam}}$$

2. Quritilgan mahsulotning dastlabki namligi W_H %

3. Quritilgan mahsulotning oxirgi namligi %

4. Atrof-muhit harorati $^{\circ}\text{C}$

5. Quritgich kamerasi ichidagi harorat $^{\circ}\text{C}$

6. Qurish davomiyligi τ sutka.

Quyosh quritgichi quyidagi ketma-ketlikda hisoblanadi:



Dastlab quritish kamerasida bug'lanadigan nam miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$m = \frac{G_1 W_1 - G_2 W_2}{100} \quad (1)$$

Bu yerda G mos ravishda materialning quritishdan oldin va quritilgan (meva) mahsulot massasi; $W_1 W_2$ – materialning quritishdan oldingi va quritilgandan keyingi namligi % .

Materialdagi(mevadagi)bunday miqdordagi namlik bug'latib yuborish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori quyidagi ifodadan topiladi:

$$Q = \frac{1000 m}{d_2 - d_1} i_a \quad (2)$$

Bu yerda i_a – quritish agenti entalpiyasi,

$i_a = ct_0 + 0,001d(2500 + 1,81t_0)$ bunda d_1, d_2, d_0 lar quritish agentining quritish kamerasidagi, kameradan chiqadigan va quruq havoning absolyut namligidir.

C – quruq havoning issiqlik sig'imi;

$$C = 1 \frac{\kappa \mathcal{H} C}{\kappa \mathcal{E}^0 K}; \quad t_0 \text{ – havoning harorati}$$

Quyosh radiatsion – konvektiv quritgichning shaffof sirtiga tushadigan quyosh energiyasini quyidagi munosabatdan topamiz:

$$ADJS \cos i = Q_{\text{nypp}} + Q_{\text{konh}} + Q_{\text{HB}} + Q_B = C \left[\left(\frac{T}{100} \right)^u - \left(\frac{T}{100} \right)^u \right] + \quad (3)$$

$$+ \alpha(t_6 - t_0) + Q_{\text{HB}} + Q_B$$

Shisha yoki plyonkaning issiqlik tavsiflari ma'lumotnomalardan olinadi. Masalan, PTEF plenkasining issiqlik tavsiflari quyidagicha:

$$D = 0,88; \quad A = 0,94; \quad \lambda_s = 0,44 \frac{BT}{MK}; \quad \alpha = 8 \frac{BT}{M^2 K} \quad (4)$$

Quritgichda quritish agentini harakatlantiradigan ventilyatorni tanlash uchun havo sarfi quyidagi ketma-ketlikda aniqlanadi:

Meva (mahsulot) dan o'rtacha sutkalik bug'lanish miqdori quyidagicha topiladi:

$$m_{yp} = \frac{m}{\tau}; \text{bu yerda } \tau \text{ – mevalarni qurish vaqti;}$$

Quritgichda havo sarfi L quyidagi formuladan topiladi.

$$L = \frac{1000 m}{d_2 - d_1}; \quad d_1, d_2 \text{ larning qiymati o'rtaga havo parametrlariga bog'liq bo'lib, (}$$

$J - d$) diagrammadan foydalanib topiladi. Mevalarning o'rtacha qurish davomiyligini τ – ni bilgan holda butun mevalarning qurishi davomidagi havo sarfini topish mumkin:

$$L = L_{yp} \tau \quad (5)$$

L – havo sarfini bilgan holda havo hajmini quyidagi ifodadan topish mumkin.



$$L = \frac{L}{\rho} \quad (6)$$

Yuqorida ta'kidlangandek, massali mevani quritish uchun sarf bo'lgan issiqlik miqdorini issiqlik balansidan topiladi:

$$Q = Q_1 + Q_2 + Q_3 + Q_4 \quad (7)$$

Bu yerda Q_1 va Q_2 mos ravishda mevani qizdirish va bug'lanish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori.

Q_3 – konveksiya tufayli yo'qolgan issiqlik miqdori;

Q_4 – quritgichdan ishlatilgan havo bilan birga chiqib ketadigan issiqlik miqdori.

Bu issiqlik miqdorlarini quyidagi munosabatlardan topish mumkin.

$Q_1 = C_m(t_2 - t_1)$ – mahsulotni qizdirish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori C – mevanning issiqlik sig'imi.

$Q_2 = rm$ – mevani bug'latish uchun zarur bo'lgan issiqlik miqdori.

$Q_3 = \alpha(t_2 - t_1)$ – konveksiya tufayli yo'qolgan issiqlik miqdori

$Q_4 = L(i_2 - i_1)$ – ishlatilgan havo bilan birga tashqariga chiqarib yuboriladigan issiqlik miqdori.

Quritgichning sharffof yuzasi orqali kiradigan quyosh radiyasi quyidagi ifodadan topiladi.

$$Q = BJS \cos i \quad (8)$$

Bu yerda i – quyosh nurlarini quritgich sirtiga tushish burchagi.

Bu munosabatlardan foydalanib quritgichning foydali ish koeffitsientini topish mumkin.

$$\eta = \frac{r m}{Q_1 + Q_2 + Q_4} \quad (9)$$

Foydali ish koeffitsientining yuqori bo'lishi qurilmaning ishlab chiqarishga joriy qilinishini yoki mumkin emasligini ko'rsatadi .

Qurish tezligining kamayish davrida materialdan namning ajralishi materialdagi nam(suv)ning bog'lanish xarakteriga, quritish obyektining fizik-kimyoviy xossalariga va quritish agentining parametrlariga bog'liq bo'ladi. Qurish tezligining umumiy tenglamasini o'zgartirib ko'p sondagi tajriba natijalarini umumlashtirgan holda T.K.Fiolenko keltirilgan qurish tezligining umumiy tenglamasini quyidagi ko'rinishda olgan:

$$\varphi = \frac{(W - W_m)}{A + \beta(W - W_m)^w} \quad (10)$$

Adabiyotlar Tahlili Va Metodologiya. 1997-yilda Baker va Christoferlar quyosh quritgichlarining uch xil turi va energiya ishlatishi bo'yicha turlarini tadqiq qilishdi:

1. Quyosh tabiiy quritgich.
2. Yarim-sun'iy quritgich.



3. Quyosh-yordamlashish quritgichi (quritgichga qo'shimcha element ulash).

Quyosh tabiiy quritgichlar faqat atrofdagi energiyadan foydalanadi va bularda aktiv element yo'q. Havo oqimi qandaydir tirqish orqali kirib va tabiiy konveksiya sababli sodir bo'ladi yoki mo'ri orqali majburan amalga oshiriladi.

Tabiiy Quyosh quritgichi asosan ochiq havoda quritish usuli o'rniga ishlatilib, boshqa energiya manbaiga yaroqsiz hisoblanadi. Uning an'anaviy metoddan farqi shundaki, bu qurilmaning turli xildagi zarar va yo'qotishlar: yomg'ir, chang, hasharotlar va hayvonlardan, shu bilan birga, atmosferadagi zararli gazlardan himoyalaydigan loyihasi yaratilgan (chodir va shkaf turdagi). Bu qurilmalarda sifatli va iqtisodiy samaradorligi yuqori mahsulot olinadi.

Gelioquritgichlarda meva quritish quyosh energiyasi hisobidan amalga oshiriladi. Ma'lumki, meva quritish mavsumi yoz oylarida ayni quyosh energiyasi miqdori ko'p bo'lgan davrlarga to'g'ri keladi. Masalan, geografik kenglik 40° bo'lgan hududlarda $1 m^2$ tik yuzaga iyunda $680 \text{ Vt}/m^2$, iyulda $800 \text{ Vt}/m^2$, avgustda $760 \text{ Vt}/m^2$ energiya tushadi. Qilinayotgan ilmiy ishlar natijasida ishlab chiqilgan gelioquritgichlar ba'zi birlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida ularda qish oylarida ko'kat yetishtirish mo'ljallangan.

Gelioquritgichlar, havo-quyosh usuli (oddiy oftobda quritish) va yoqilg'i bilan ishlaydigan quritgichlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1) havo-quyosh usulida quritish muddati uzoq bo'ladi, ikkinchi tomondan mahsulotlar ifloslanadi, hashoratlar zararlaydi, chang o'tiradi, muhimi ayrim mevalarda, masalan, olmada C vitamin qariyb saqlanmaydi.

2) yoqilg'i bilan ishlaydigan quritgichlarda ma'lum tabiiy gaz, toshko'mir va boshqa yoqilg'ilar yoqiladi, gelioquritgichlardan foydalanilganda ma'lum bir miqdorda organik o'quv ashyolari tejab qolinadi, ikkinchi tomondan quyosh energiyasi ekologik jihatidan toza bo'lib, atrof-muhitni ifloslamaydi.

Gelioquritgichlarda, meva quritish kinetikasi va quritish muddati turli xil mahsulotlar uchun turlicha, masalan, o'rikni quritish muddati 4-5 sutka, olmaniki 3,5-4 sutka, anjirniki 4 sutka va hokazo. Yuqorida keltirilgan mahsulotlarni quritish texnologiyasi odatdagi usulga o'xshash bo'ladi. Avvalo, saralanadi, tozalanadi, o'rikka maxsus ishlov beriladi, olma ma'lum bir qalinlikda kesiladi, so'ngra tagliklarga joylashtirilib quritila boshlanadi. Tajribalar ko'rsatadiki, gelioquritgichlarda quritilgan mahsulot standart talabiga javob beradi. .

NATIJALAR. Meva va sabzavotlarni qurish kinetikasi deganda quritish jarayonida ularning namligini vaqt davomida o'zgarishi tushuniladi. Ya'ni meva namligining $W^c = f(t)$ vaqtga bog'lanishiga aytiladi. Meva va sabzavotlarning qurish kinetikasini o'rganish uchun 0,1 kg miqdorda bir necha meva namunalari quritgichning to'rti polkalariga qo'yiladi. Qurish jarayonida namunalar (mevalar) massasining kamayishi analitik tarozida har soatda o'lchab boriladi.



Namunadagi namning miqdori muvozanatli namlikka yetguncha o'lchashlar olib boriladi.

Quritish obyekti sifatida tut mevasi va sabzavotlardan sabzi olinib, ularning qurish rejimlari o'rganildi. Quritgich modeli ichidagi harorat ish rejimida natur (tabiiy) sharoitdagi gelioquritgich ichidagi haroratga mos qilib olindi.

Meva va sabzavotlarning namligi quyidagi formuladan hisoblab topiladi:

$$W^c = \frac{m - m_{kyp}}{m_{kyp}} \quad (1)$$

bu yerda m – meva massasi, m_{kyp} - quruq meva massasi.

Mevalarni quritish jarayonida quyidagi qurish parametrlari o'lchab boriladi:

1. Quritgich ichidagi harorat t_1 ,
2. Qurish ob'ekti (meva) ning harorati t_2
3. Quritish agentining tezligi ν ,
4. Quritish kamerasi ichidagi va tashkaridagi havoning nisbiy namligi φ
5. Tashqi harorat t_3

O'tkazilgan tajriba natijalari asosida mevalarning qurish kinetikasi, ya'ni meva namligining uning qurish vaqtiga bog'liqlik grafigi (qurish egriligi) chizildi.

Quyida tut mevasining qurish kinetikasi ko'rsatilgan (1-chizma). Grafikdan ko'rinadiki, qurish tezligining o'zgarmas davri mavjud.

Bu davrning davomiyligi oq tut mevasi uchun 8-10 soatni tashkil etadi. Mevalarning qurish egriligi grafigi bo'yicha qurish tezligini aniqlash mumkin. Qurish tezligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$N = \frac{\Delta W}{\Delta \tau}; \quad \text{yoki} \quad tg \varphi = \frac{\Delta W}{\Delta \tau} \quad (2)$$

Tut mevasining o'zgarmas davridagi qurish tezligi $N = 30 \frac{\%}{\text{coam}}$ ni tashkil etadi.

Qurishning ikkinchi davrida mevaning namligi kamayadi. Bunda meva harorati ko'tarila boshlaydi. Tut mevasining namligi $W^c = 330\%$ ga yetganda qurishning ikkinchi davri boshlanadi. Meva namligining qurishi davomida uni o'zgarishi ekspotensial qonun bo'yicha kamaya boradi. Ya'ni

$$\frac{W - W_p}{W_k - W_p} = \exp(-k\tau) \quad (\tau) \quad (3)$$

bu yerda W_p - mevaning muvozanatli namligi, W_k - kritik namlik. k – qurish koeffitsiyenti.


Qurish koeffitsiyentini qurish egriligi grafigidan topish mumkin:

$$tg \varphi = k = \frac{\lg(W_1 - W_p) - \lg(W_2 - W_p)}{\tau_2 - \tau_1} \quad (4)$$




Tut mevasi tarkibidagi namlikni kamayishining vaqtga bog'likligi yoki, kurish knetikasi 1-2 chizmalarda tasvirlangan.

Tajribada tabiiy va majburiy retsirkulyatsiya rejimi optimal rejim ekanligi kuzatildi. Bu rejimda ishlatilgan quritish agenti qaytadan (takroran) foydalaniladi. Bu rejimda quritish kamerasi ichidagi haroratning balandlik bo'yicha taqsimlanishi 3-4^oc dan oshmasligi aniqlandi.



1-chizma. Tut mevasining qurish kinetikasi.



2-chizma. Tut mevasining geliokuritgichdagi va ochiq maydondagi kurish kinetikasi. 1- quritgichda qurish egriligi, 2- ochiq maydonda qurish egriligi.

Mevalarning qurish kinetikasiga oid tajriba turli rejimlarda o'tkazildi. Shuningdek, retsirkulyasiya rejimida mevalar bir tekisda qurishi kuzatildi. Quritgich modelida mevalarning qurish davomiyligi ochiq havoda quritilganga qaraganda 2-2,5 marta qisqarishi ma'lum bo'ldi. Quritilgan mevalarning sifati organoleptik usul bilan aniqlandi. Quritilgan mevalarni sifat ko'rsatgichlari qurish rejimiga bog'liqligi ma'lum bo'ldi.

MUHOKAMA. Qurilma oldingi devori va ustki qismi tiniq shisha bilan qoplangan "issiq qutidan" iborat. Qurilmaning har ikkala tomonida shisha romli eshiklar mavjud. Qurilma kamerasida uch qator siljuvchan to'rtli stellajlar o'rnatilgan bo'lib uch qator stellajda quritiladigan mahsulot joylashtiriladi. Yuqorida o'rnatilgan qo'shimcha issiqlik manbai IK-lampalar quyosh nurlarini mahsulotga to'g'ridan-to'g'ri tushishidan saqlovchi soyabon vazifasini bajaradi, energiya yetarli bo'lmagan hollarda undan ham



Issiqlik energiyasi olish maqsadida foydalaniladi. Havo aylanishini ta'minlash uchun havo oqimi aylanuvchi quvur va havo purkagichlar o'rnatilgan. Qurilmada kechayotgan jarayonlarni boshqarish uchun boshqarish pulti ham mavjud. Qurilma yengil 20-25 kg atrofida va ixcham bo'lib uni hovlining quyosh nuri tushadigan ixtiyoriy joyida o'rnatish mumkin.

Quriladigan mahsulot yuvib olingach stellajlarga joylashtiriladi. Quyosh nurlari shisha orqali qurilma kameralariga kirib, uning qismlari va meva-sabzovotlarda yutilib issiqlik energiyasiga aylanadi. Qurilma ichidagi harorat 60⁰-62⁰ gacha ortadi va harorat orta boshlagach ventilatsiya tizimi ishga tushadi.

Quyosh nuri tushadigan va yog'in-sochinsiz joyda o'rnatilgan bu qurilmadan qish va erta bahorda issiqhona sifatida foydalanish mumkin. Buning uchun stellajlar olib qoyilib uning ostidagi qutilarga hosildor tuproq solinadi va ko'chat hamda ko'kat etishtiriladi.

Asosiy ko'rsatkichlari mahsulot turiga (o'rik, gilos, olma, anjir, pomidor, qovun, turli navli uzumlar va h.k.) qarab qurish jarayoni 2-6 kuni tashkil etadi bu esa ochiq maydonda quritilgandan ikki uch marta ortiqdir. Agar qurilma tokka ulab qoyilsa qo'shimcha energiya manbai ishga tushib bu jarayon yanada tezlashadi. Shu bilan birga mahsulotning sifati yuqoridir. Qurilmaning mahsulot olish hajmi 10-15 kg gacha boradi. Qurilmaning har bir metr kvadrat yuzasi hisobidan mahsulotning pishib etishishi va mavsumiga bog'liq holda navbatma navbat 25-30 kg o'rik, 10-15 kg gilos, 25-30 kg pomidor, 10-15 kg mayiz, 5-10 kg qovun va boshqalarni quruq holda tayyorlab olish mumkin. Qurilmada qish va erta bahorda ovqatbop ko'katlar o'stirish yoki ko'chat etishtirish imkoni mavjud.

Mevalarni qurishi davomida quyidagi qurish parametrlari o'lchab borildi: to'g'ri va sochilgan quyosh radiatsiyasi, tashqi havoning harorati va nisbiy namligi, quritgich ichidagi haroratlar (pastki va yuqori qismidagi) va namlik, meva massasining kamayishi (har soatda), issiq havo oqimi tezligi, meva harorati, mevalarning o'lchamlari. Soat 14⁰⁰ ga qadar quritgich ichidagi harorat oshib boradi. Kamera ichidagi maksimal harorat 58-62⁰C ni tashkil etadi. Retsirkulyasiya rejimida kamera balandligi bo'yicha temperatura farqi 4-6⁰C ga teng bo'ladi. Bunda issiqlik tashuvchining tezligi sekundiga 1-1,5 metrni, havoning nisbiy namligi esa 35% ga tengligi o'lchanadi. Soat 14⁰⁰ dan 19⁰⁰gacha harorat 28-32⁰C gacha kamayadi. Tabiiyki past haroratda mevalarning qurish tezligi ham kamayadi. Kamerada mevalarni qurish tezligini bir meyorda saqlash uchun qo'shimcha issiqlik manbai (IQ-lampalardan) foydalanildi. Harorat 35⁰-40⁰C dan pasayganda termoregulyator IQ lampalarni ulaydi. Zarur bo'lsa IQ lampalarni regulyator yordamida 70⁰C dan katta bo'lmagan istalgan haroratda ham tarmoqqa ulash mumkin. Tunda kerakli haroratga o'rnatilgan avtomatik qurilmalar yordamida IQ lampalar bilan ertalabga qadar mevalar quritiladi.

Qurilmaning afzalliklari:

✦ Minitexnologiyalar sirasiga kiradi, mahsulotlarni tez va yuqori sifatli quritadi.



- ✦ Oilani yil davomida quritilgan ekologik toza mahsulot bilan ta'minlaydi.
- ✦ Yengil, ixcham, ixtiyoriy joyga ko'chirilishi mumkin. Xizmat ko'rsatish uchun maxsus malakali xodimlar talab etilmaydi
- ✦ Qurilma uchun katta miqdorda mablag' talab etilmaydi, uni yasash yoki xarid qilish uchun oilalar mablag'lari etarli bo'ladi.



Qurilgan mahsulotning sifati va tashqi ko'rinishi (quritgichning namlik-issiqlik rejimi) mevalarni quritish rejimlaridan tashqari mevalarga quritishdan oldin dastlabki ishlov berish va quritish texnologiyasiga ham bog'liq bo'ladi.

Mevalarni quritishning optimal rejimini tanlashda quritiladigan mevalarning texnologik, issiqlik-texnikaviy va boshqa xususiyatlarini hisobga olish lozim. Shuningdek, quritishning samarali texnologik jarayonini ishlab chiqishda mevalarning fizikaviy-kimyoviy, strukturaviy, optik va boshqa ko'pgina xossalarni bilish talab etiladi.

XULOSA. Har qanday quritgichni ish jarayonini hisoblashda dastlabki ma'lumotlar sifatida quyidagilar olinadi:

1. Quritgichning ho'l yoki quruq mahsulotga nisbatan unumdorligi.
2. Quritgan mahsulotning dastlabki namligi W_H %
3. Quritilgan mahsulotning oxirgi namligi W %
4. Atrof-muhit harorati $^{\circ}C$
5. Quritgich kamerasi ichidagi harorat $^{\circ}C$
6. Qurish davomiyligi τ sutka.
7. Quritiladigan mahsulotning turi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. "Fan va texnologiyalar taraqqiyoti" ilmiy texnikaviy jurnali. – Buxoro, 2015. – 40 b.
2. Qahhorov S.Q., Jo'rayev H.O. Fizika ta'limida geliotexnologiya. – Toshkent: Fan, 2009.
3. Sharipova D.B. "Muqobil energiya manbalari asosida ishlaydigan meva quritgichini yaratish va tadqiq qilish". Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro-2019



4. To'rayev Akbarjon Farmonovich "Past haroratli Quyosh qurilmalarini yaratish va ularni tadqiq qilish" Magistrlik dissertatsiyasi. Buxoro-2020

5 Qahhorov S.Q., Samiev K.A., Jo'raev H.O. Quyosh qurilmalaridagi jarayonlari modellashtirish. Monografiya. –Toshkent. 2014. – 208 b.

6 Qahhorov S.Q., Jo'raev H.O. Muqobil energiya manbalari. Darslik. –Toshkent: NisoPoligraf, 2016. – 214 b.

7 <http://www.03-ts.ru>

8. www.altenergy.narod.ru

9. www.solarsistem.ru

10 <http://energy-mgn.nm>



MIYA MAGNETIK TASVIRLARINI MASHINA O'RGANISHI ALGORITMLARI BILAN QAYTA ISHLAGAN XOLDA INSULT XOLATINI ANIQLASH USULLARINING XOSSALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847442>

Tadjidinov Muxriddin

Andijon Davlat Universiteti

KIDT yo'nalishi 2 kurs magistranti

e-mail: muxriddin.todjidinov92@gmail.com

tel: [+998914792027](tel:+998914792027)

Anotatsiya: *Maqolada miya magnetik tasvirlarini mashina o'rganishi algoritmlari bilan qayta ishlagan xolda insult xolatini aniqlash usullarining xossalari., diagnostika vositalari va insultni boshqa holatlardan farqlashdagi qiyinchiliklarni har tomonlama ko'rib chiqishga qaratilgan.*

Аннотация: *Цель статьи — всесторонне рассмотреть особенности методов выявления инсульта, средства диагностики и трудности дифференциации инсульта от других состояний с использованием магнитных изображений головного мозга, обработанных алгоритмами машинного обучения.*

Annotation: *The article aims to comprehensively review the features of stroke detection methods, diagnostic tools and difficulties in differentiating stroke from other conditions using brain magnetic images processed by machine learning algorithms.*

Kalit so'zlar: *Logistik regressiya, ekstremal gradient, Kompyuter tamografiyasi va Magnit rezonans tasvir.*

Ключевые слова: *Логистическая регрессия, экстремальный градиент, компьютерная томография и магнитно-резонансная томография.*

Key words: *Logistic regression, extreme gradient, Computed Tomography and Magnetic Resonance Imaging.*

Tibbiy tasvirni tahlil qilish uchun mashinani o'rganish algoritmlarini qo'llash bo'yicha maqolaning natijalar bo'limi tadqiqot natijalarini, shu jumladan algoritmlarning ishlashi, olingan har qanday tushunchalar va klinik amaliyotga ta'sir ko'rsatishi kerak.

Logistik regressiya - bu o'zining asosiy ko'rinishida bo'lgan statistik model ikkilik bog'liq o'zgaruvchini modellashtirish uchun logistik funktsiyadan foydalanadi, ko'plab murakkab kengaytmalar mavjud bo'lsa-da. Regressiyada tahlil, logistik regressiya (yoki logit regressiya) taxmin qilinadi logistik modelning parametrlari (binar shakli regressiya). Matematik jihatdan, ikkilik logistika modeli mavjud ikki mumkin bo'lgan qiymatga ega bo'lgan qaram o'zgaruvchi, masalan, o'tish / muvaffaqiyatsiz ko'rsatkich o'zgaruvchisi bilan ifodalanadi, bu erda ikki qiymatlar "0" va "1" bilan belgilanadi.



Logistik modelda "1" bilan belgilangan qiymat uchun logoddlar (ko'rsatkichlar logarifmi) bir yoki bir nechta mustaqil o'zgaruvchilarning chiziqli birikmasi ("bashoratchilar"); mustaqil o'zgaruvchilarning har biri ikkilik bo'lishi mumkin o'zgaruvchi (ikki sinf, indikator o'zgaruvchisi bilan kodlangan) yoki uzluksiz o'zgaruvchi (har qanday haqiqiy qiymat).

Vektor mashinasini qo'llab-quvvatlash (SVM):

Ushbu klassifikatorlar asosiy xavfni minimallashtirishga bog'liq qaror qabul qilish nuqtasi bilan bosh va faktik o'rganish gipotezasi samarali ishlab chiqaradigan giperplanlardir (tanlov chegaralari). Asosiy hisob - Yordam vektori Tasniflash (SVC) va u taassurot atrofida aylanadi "chekka"- giperplanning bir yoki boshqa tomonida bo'limlar ikkita axborot sinfi. Marjani ko'paytirish eng katta tasavvurga ega bo'ladi giperplane va hodisalar orasidagi masofa bir yoki giperplananing boshqa tomoni yuqori chegarani pasaytiradi kutilgan chayqovchilik. U ikki xil bo'ladi axborot, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri bo'linadigan ma'lumotlar va to'g'ridan-to'g'ri Ajratib bo'lmaydigan ma'lumotlar.

K-eng yaqin qo'shnilar klassifikatori eng oddiy qatoriga kiradi barcha mashina o'rganish algoritmlari. U printsipga asoslanadi o'xshash namunalar bir-biriga yaqin joylashganligi. Sinov ob'ektlarini eng yaqinlari soniga qarab tasniflaydi ta'lim misollari. Bu dangasa o'rganish deb ham ataladi algoritm. KNN parametrik bo'lmagan algoritm bo'lib, bu degani u asosiy ma'lumotlarda hech narsa o'z zimmasiga olmaydi tarqatish. Bunda test orasidagi Evklid masofasi hisoblanadi ma'lumotlar va ta'lim ma'lumotlaridagi har bir namuna test ma'lumotlarini eng ko'p k-yaqin bo'lgan sinfga tasniflash o'quv ma'lumotlarining qo'shnilariga tegishli. K odatda juda kichik musbat butun son. K qiymati oshgani sayin u bo'ladi turli sinflarni farqlash qiyin. Boshqa evristik usullar bilan bir qatorda o'zaro tasdiqlanish qo'llaniladi.

Tasodifiy o'rmon - bu asosiy ML hisobi bo'lib, u mavjud boshqariladigan o'quv protsedurasi bilan joylashtiring. Bo'lishga moyil MLda tartibga solish va takrorlash muammolari uchun ishlatiladi. Bu ning tsikli bo'lgan ansambl o'rganish g'oyasiga bog'liq murakkab muammoni hal qilish uchun turli tasniflagichlarga qo'shilish;

Ekstremal gradientni kuchaytiruvchi klassifikator:

XGBoost - qarorlar daraxtiga asoslangan Machine Learning ansamblidir. gradient kuchaytiruvchi ramkadan foydalanadigan algoritm. Tuzilmagan ma'lumotlar bilan bog'liq bashorat muammolari (rasmlar, matn, h.k.) sun'iy neyron tarmoqlari boshqalardan ustun turadi algoritmlar yoki ramkalar. Biroq, kichikdan o'rta darajadagi tuzilgan/jadvalli ma'lumotlarga kelsak, qarorlar daraxtiga asoslanadi algoritmlar hozirda eng yaxshisi hisoblanadi.

Ma'lumotlar to'plamining umumiy ko'rinishi, shuningdek, ma'lumotlarni to'plash va ishlatishda e'tiborga olingan har qanday axloqiy fikrlarni o'z ichiga olishi kerak. Misol uchun, tadqiqot institutsional tekshiruv kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi mumkin va bemorning maxfiyligi va maxfiyligi ehtiyotkorlik bilan saqlangan bo'lishi mumkin.



Ma'lumotlarni oldindan qayta ishlash natijalari tibbiy tasvirni tahlil qilish uchun mashinani o'rganish algoritmlarini qo'llash bo'yicha maqolaning muhim tarkibiy qismidir. Oldindan ishlov berish ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida muhim qadamdir, chunki u ma'lumotlarni tozalash, normallashtirish va o'zgartirish orqali mashinani o'rganish algoritmlari bilan foydalanishga tayyorlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. . Андреев А.А и др. Пластиковые карточки. – М.: БДЦ-Пресс, 2002.
2. Xayitmatov O.T., Fayzullayev S.X va boshqalar. "Informatika va axborot texnologiyalari" – T.: TKTI, 2005.
3. Alimov R.X, Yulchiyeva G.T, Alishov Sh.A, " Axborot texnologiyasi va tizimlari".Ma'ruza matnlari. T: - TDIU, 2005 y.
4. Alimov R.X, Begalov B.A., Yulchieva G.T., Alishov Sh.A. "Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari". O`quv q`llanma. T.: - O`YUAJN, 2005 y.



**O'ZBEK TILINING JAHON HAMJAMIYATIDA TUTGAN O'RNI
(NUTQ RAVONLIGIGA PUTUR YETKAZUVCHI ASOSIY OMILLAR)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847458>

Qobilov Mirziyo Eshnozari o'g'li

*Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
mirziyo@tersu.uz*

Mamayusupova Nilufar Jo'ra qizi

*Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti
1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zligimiz timsoli hisoblangan o'zbek tili hamda nutqimiz ravonligiga putur yetkazuvchi asosiy omillar haqida so'z boradi. Nutq so'zlash davomida ma'lum me'yorlarga amal qilish haqida aytib o'tiladi.*

Kalit So'zlar: *Til, varvarizm, vulgarizm, konselyarizm, parazit so'zlar.*

**THE PLACE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE WORLD COMMUNITY
THE MAIN FACTORS THAT DAMAGE SPEECH FLUENCY**

Qobilov Mirziyo Eshnozariyevich

*Lecturer, Department of Uzbek linguistics,
Termez State University. mirziyo@tersu.uz*

Mamayusupova Nilufar Jo'rayevna

*Termiz State University
Faculty of Uzbek Philology
1st stage student*

Abstract: *This article talks about the main factors that affect the fluency of our Uzbek language, which is considered a symbol of our independence, and our speech. During the speech preparation, it is mentioned about following certain norms.*

Key Words: *Language, barbarism, vulgarism, councilorism, parasitic words.*

O'zbek tili - o'zligimiz timsoli. Millatimiz ko'rki hisoblangan tilimiz qadim zamonlardan buyon hozirgi kungacha o'z mavqeyini yo'qotmay kelyapti. Bu milliy tilimiz Nodiralalar, Anbar Otinlar, Huvaydo-yu Uvaysiyalar tilidir. Dunyoda xalq borki, u o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib ma'lum bir yutuqlarga erishadi. Har bir xalq o'zi yaratayotgan moddiy ne'matlar bilan faxrlanishga haqli. Ammo tabiatda shunday boylik borki, unga ega bo'lmasdan, avaylab-asramasdan, rivojlantirmasdan turib kamolotga erishib bo'lmaydi. U ham bo'lsa, millatga berilgan ulug' ne'mat - tildir.



Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".⁴³

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak. Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak"⁴⁴

Tilimiz shunday go'zal tilki, biz unda otamiz-u onamizni betakror nomlar bilan atay olamiz, yaqinlarimiz mehrini ba'zan so'z orqali his qilamiz. Dunyodagi qadimiy va yuksak o'tmishga ega tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida benihoya muhim o'rin egallab kelayotgan g'oyat yuksak qadriyatdir.

Nutq, nutq odobi insonning manaviyatini - ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy meyordagi ifodalar bilan yetkazishdir.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, til inson uchun berilgan buyuk ne'mat, u milliy madaniyatning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U nafaqat aloqa quroli, balki inson shaxsini fazl-u kamolga yetkazuvchi, uning xulqi-odobi, insoniy xislat va fazilatlari uyg'unligini ta'minlovchi ibrat va tarbiya manbai hamdir. Zero, u xalqqa kuch-quvvat, ruhiy barkamollik bag'ishlaydi. Undan tashqari til inson faoliyatida borliqni bilish, fikr almashish, jamg'arilgan bilimlarni avloddan avlodga yetkazish vositasidir. Tilda millatning bor-yo'g'i, o'y-fikri, dunyoqarashi, orzu-umidlari, Vatani, his-tuyg'ulari aks etadi. Har bir til asrlar davomida rivojlanib, boyib boradi.

O'zbek tili nafaqat jozibador til, balki boy til. Bizning bobolarimiz Navoiylar, Lutfiylar, Atoiylar qalam tebratgan bu til shu holatida ham boy u chetdan kirgan so'zlarga muhtoj emas. Buyuk yozuvchi va adibimiz Abdulla Qodiriy "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zlari kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", - degan edilar.

Insonni kiyinishi yoki tashqi ko'rinishining orastaligi uning hayotdagi tutgan o'rnini belgilashi mumkinligini inkor etmagan holda, omma tomonidan nutqning orastaligiga bo'lgan e'tibor chetda qoladi. Holbuki, hattoki e'tiborsiz shaxslarni ham ravon nutq egalarining jozibasi jalb eta oladi va beixtiyor ularga ergashish tendensiyasi namoyon bo'ladi. Ravon, aniq va ifodali nutqning har qanday husndan ortiqroq maftunkorlik xususiyati mavjuddir. Ayrim insonlarni eshitsang, nogoh so'zlarining jodusiga cho'mib, aytganlarini bajarishga intilasan. Boshqa bir

⁴³ <https://unicon.uz/uz/news/346>

⁴⁴ <https://president.uz/oz/2953>



toifadagilarning esa aytayotganlari qanchalik haq va mazmunli bo'lmasin, unga amal qilgning ham, haq deb tan olgning ham kelmaydi, kishi.

So'zlayotgan har bir so'zimiz ifodali, jarangli, shu bilan birga, mazmundor bo'lishi uchun nutqimizga zarar yetkazuvchi vositalardan holi bo'lishimiz darkor. Aks holda, nutqimiz barchaga birdek manzur bo'lmaydi, balki tinglovchilarda ham qiziqishni so'nadi. Eng birinchi navbatda esa o'zligimiz ramzi bo'lgan o'zbek tilimizga bo'lgan behurmatlik hisoblanadi.

Nutqning ravonligiga putur yetkazadigan 5 ta asosiy omil mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Parazit so'zlar yoki ifodalardan haddan ziyod ko'p iste'molda qo'llash;

(Ularning tez-tez takrorlanishi so'zlovchining nutqidagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam berishi barobarida, uning qayta-qayta takrorlanishi suhbatdoshni chalg'itib, uni parazit so'zlarni sanashga undab, natijada muloqotda aytilmoqchi bo'lgan fikr umuman diqqat markazidan chiqib ketadi).

Misol tariqasida, *Said Ahmad o'z asarida qo'llagan ""Xo'jayin, shu, shu, desangiz. Shu... bizdi mashina dovoning naryog'ida, shu, radiatori teshilib, shu, qolib ketibdi"* gapini keltirib o'tishimiz mumkin. Bu gapda "shu" so'zining tez-tez takrorlanishi so'zlovchi gapiga salbiy ta'sir etyapti.

2. Nomaqbul iboralar (so'kinish, qarg'ish, haqorat, jargon so'zlar)ning nutqda uchrashi;

(Nomaqbul iboralar va ravon nutq bir-biroviga zid tushunchalar bo'lib, bu kabi iboralar faqatgina ziyolilarni tanqid qiluvchi ma'lum ijtimoiy qatlam vakillarining so'zlashuv quroli hisoblanadi).

3. Nutqning haddan ziyod uzun va davomlilik;

(Me'yor darajasiga nisbatan uzun gaplar va uzoq davom etuvchi nutqlar tinglovchini ma'lumotning egasini, kesimini va umuman ko'zlanayotgan maqsadini anglashga to'sqinlik qiladi. Muloqotni boshidayoq chalkashib ketgan suhbatdosh, tabiiyki, zerikadi va muloqot oxiriga yetmasdanoq chekinadi).

4. So'z boyligining juda ozligi yoki, aksincha, faqat ma'lum sohaviy terminlardan ko'p foydalangan holda gapirish;

(Berilayotgan ma'lumotning odatiy bo'lmagan, lekin tilga xos bo'lgan qandaydir boshqacha usulda taqdim etilishi aniq suhbatdoshning diqqatidan chetda qolmaydi. Lekin faqatgina tor sohaga doir iboralarni qo'llab fikrni ifoda etish tinglovchini toliqtiradi hamda ma'lumotni qabul qilish ishtiyoqini so'ndiradi)

5. Ovozning juda baland tembrda bo'lishi;

(Bunda, tabiiyki, o'ta past ovozda gapirish ilgari surilayotgani yo'q. Chunki juda sust ovoz ham ishonchsizlik ishorasi sanalib, suhbatdoshda ayrim ikkilanish hisini uyg'otadi, ammo ovoz tembrining quyi ohanglarda bo'lishi, albatta, berilayotgan ma'lumotning ta'sirli bo'lishiga astoydil yordam beradi).⁴⁵

⁴⁵ <https://yuz.uz/uz/news/nutqni-ravonligiga-putur-etkazadigan-asosiy-besh-omil>



Chiroyli va mazmunan boy nutqi hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda tuzilgan bo'lishi, g'ayriadabiy til unsurlaridan holi bo'lishiga qarab baholanadi. Nutqning toza bo'lishiga halaqit beruvchi unsurlar: dialektizm va varvarizm hisoblanadi. Zero, ushbu unsurlar badiiy adabiyotda ma'lum bir badiiy - estetik vazifani bajarsa-da, O'qituvchining dars jarayonidagi va tarbiyaviy faoliyatidagi nutqida ishlatilmasligi lozim. O'qituvchi doimiy ravishda idoraviy atamalarni, rasmiy so'z va iboralarni noo'rin ishlatishi o'z nutqining notabiyligiga, ishonchsiz chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida o'qituvchi tomonidan ishontirish metodi orqali qoilaniladigan fikrlar mukammal bayon etilmaydi. So'zlovchi tilni qancha chuqur bilsa va unda so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, uning tafakkuri shunchalik boy bo'ladi. So'z barcha dalillar, barcha fikrlar libosi, o'qituvchi nutqining esa poydevori hisoblanadi. Hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish lozim. Zero, dunyoda so'z mulkidan ham ortiq va qimmatli xazina yo'qligini Sharq mutafakkirlari o'zlarining adabiy meroslarida ham bayon etganlar. Nutq ravonligiga putur yetkazuvchi asosiy omillar: varvarizm, vulgarizm, konselyarizm hamda shu kabi vositalardir. Varvarizm - muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi, vulgarizm esa haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar hamda konselyarizm o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish demakdir. Ushbu vositalar nutqning sofligiga putur yetkazadi. Kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir. Haqiqiy so'zlovchining nutqi til qudratini namoyon qila olishi nihoyatda zarur jarayon. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida shunday yozadi: *"Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul chiqsa, tilning ofatidir"*. Tilimiz nutq uchun qurol hisoblanar ekan, uning kuch-qudrati nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Agar til o'q bo'lsa, nutq kamondir. O'qning qudrati, asosan, kamonning qobiliyatiga bog'liq. Kamon qanchalik mustahkam bo'lsa, mo'ljalga bexato uradigan bo'lsa, tilning ya'ni o'qning qudrati shunchalik yaqqalroq namoyon bo'ladi.

Tabiiyki, nutqqa olib kiriladigan har bir so'z va ibora, albatta, «ishlashi», muayyan ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi kerak. Nutq tarkibiga olib kirilgan so'z yoki ibora nutqning mazmuniy qurilishi uchun bir «g'ishtcha» bo'lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuk, demakki, nutqning sofligiga halal beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so'zlar deb ataladigan bunday birliklar ko'proq og'zaki nutqda kuzatiladi. Aytilmoqchi bo'lgan fikrni yetarli darajada aniq tasavvur qilmaslik, fikrlar o'rtasidagi tizimli munosabat idrokining yetishmasligi, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni, qanday bo'lmasin, «yopish», tegishli uyg'un ifodani o'ylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta'minlash ehtiyoji bilan bog'liq holatda *e-e-e, hm-m-m, he-ye-ye kabi tovush «oqim»lari, xo'-o'-o'sh, haligi, anaqa, masalan, demak, shu, innankeyin, ya'ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi lug'atlarda aniq ma'nosi mavjud so'z va iboralar ayni ma'nosidan begona qilingan tarzda qo'llanadi. Bunday



qo'llashlar bora-bora nutq tuzuvchida o'ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir haligi, kimdir demak, yana boshqa birov bildingizmi so'zini og'zaki nutqida parazit so'z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so'zlar u yoki bu notiqning so'zlashuv uslubining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lib qoladi (hatto bu «ko'rsatkich» shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, «shu-shu» domla, «xo'sh-xo'sh» usta kabi). Bu, albatta, nutqning sofligini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan informatsiyani qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg'itadi, nutqning o'z maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz mumkinki, gaplarimizning ta'sirli bo'lishida nutqimizning ortiqcha iboralardan xoli bo'lishi, qisqa va lo'nda ma'lumotlarni taqdim etilishi, foydalanilayotgan iboralarning o'rinliliigi va albatta, nutq tonimizning me'yorida bo'lishi asosiy omillardan sanaladi. Bundan tashqari yana shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, istiqbolli muammolarning yechimiga zamon talablari asosida, davrga hamohang munosabatda bo'lish, maqsadli va samarador masalalar bilan shug'ullanish har doim ham taraqqiyotni belgilovchi asosiy omillardan bo'lgan. Qayd etib o'tilgan muammolar yechimida ham mutaxassislar faoliyatini uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy muassasalardagi tuzilma va bo'limlar maqsad hamda vazifalarini qayta belgilash, istiqbolli muammolar bilan shug'ullanuvchi bo'lim, markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish zarur ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N, Odilov Y, Ziyodullayeva G "Ona tili" 11-sinf 1-qism. Toshkent, 2018.
2. Xoliqov A "Pedagogik mahorat". Toshkent, 2011.
3. Qobilov M.E, Xolnazarov U. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari hozirgi o'zbek tilining o'z qatlamini boyitish manbasi sifatida / Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muammo va yechimlar. – Andijon, 2020. B. 912
4. Qobilov M.E. The place of language 1 and language 2 neologisms in enrichment of uzbek lexicon // World scientific research journal, Volume 6, Issue-1, / August, 2022. – 104 b. 2181-3116, 2181-3108
5. Eshnozar o'g'li Q. M. Mahmud Kashgari's work" Devonu Lugatit Turk" as a source of enrichment of the current Uzbek language //Zien Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 10. – C. 17-18.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ GRID ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ВИЗУАЛИЗАЦИИ ГЕО ИНФОРМАЦИОННЫХ ДАННЫХ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847478>

Бимуратов Даулетмурат Мурат улы

Аннотация: На данный момент в мире сложилась ситуация, когда разные космические агентства и организации, связанные с обработкой космических данных либо уже имеют собственные Grid-инфраструктуры (ESA, NASA, JAXA), либо находятся в процессе их создания (CNES, CNR, НАНУ и НКАУ). Активное развитие Grid-подхода в данной области обусловлено распределенностью космических данных. Кроме того, создание продуктов обработки космических данных разных уровней требует использования моделей, интеграции данных разной природы, и, как следствие, больших вычислительных мощностей, которые не всегда имеются в каждой отдельной организации

Ключевые слова: Grid, ESA, NASA, JAXA, инфраструктура, природа, метод, технология.

ВВЕДЕНИЕ: Создание интегрированной Grid-инфраструктуры поддерживается международными инициативами, в том числе GEOSS и GMES. В области наук о Земле Grid-технологии активно развиваются в рамках EGEE (например, проект DEGREE, <http://eu-degree.eu/>). Инициирован ряд международных проектов, направленных на объединение Grid-систем. Среди них особо следует отметить проект Wide Area Grid (WAG), поддерживаемый рабочей группой по информационным системам и сервисам WGISS комитета CEOS, в котором активное участие принимает и НКАУ.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ: В рамках реализации проекта WAG и нескольких других международных проектов в настоящее время создается Inter-Grid инфраструктура, объединяющая ресурсы Украины, Китая и ESA для совместного решения задач мониторинга наводнений на основе интеграции данных разной природы и усвоения их в модели.

Таким образом, приобретает актуальность задача изучения и разработки средств взаимодействия Grid-систем, которые в общем случае могут быть реализованными на разных платформах (Globus Toolkit, gLite, NorduGrid, Alien и т.д.).

Результаты И Обсуждение

При разработке средств взаимодействия Grid-платформ можно выделить ряд задач, решение которых позволит реализовать большую часть функциональности Grid и использовать высоко-уровневые сервисы на ее основе

с учетом специфики задач спутникового мониторинга. К таким задачам относятся следующие:

обеспечение взаимодействия между системами безопасности разных Grid-платформ;

реализация надежной передачи файлов между Grid-платформами;

реализации высокоуровневого доступа к геопространственной информации.

Представление задач к выполнению на вычислительных ресурсах является одной из важнейших задач Grid-систем, поскольку они часто рассматриваются как универсальное средство для доступа к высокопроизводительным системам. К сожалению, интерфейсы представления задач довольно сильно отличаются между разными Grid-платформами и задача их унификации требует значительных усилий.

В ходе исследования возможностей для представления задач на разных Grid-платформах было выявлено два возможных варианта реализации:


Использования Grid-портала на основе каркаса, который поддерживает разные Grid-платформы. Примерами таких каркасов являются GridSphere и P-GRADE Portal (рис. 1);

Использование высокоуровневого Grid-планировщика, который поддерживает разные Grid-платформы и предоставляет стандартный программный интерфейс (рис. 2).

Использование Grid-портала обладает преимуществом сравнительно легкого развертывания, настройки и управления. Недостатком порталного решения является предоставление только интерфейс уровня пользователя, но не программного интерфейса, который можно использовать для построения высокоуровневых сервисов.

Напротив, подход с использованием Grid-планировщика (в качестве которых рассматривались планировщики GridWay [7] и Karajan [8]) позволяет получить некоторый стандартный программный интерфейс,

Рис. 1. Интеграция с помощью Grid-портала



который может быть использован для программирования взаимодействия с этим планировщиком. ПО GridWay предоставляет внешние программные интерфейсы GRAM4 и DRMAA, а Karajan — специальный WSRF- сервис, который может быть использован для выполнения не только отдельных задач, а и их последовательностей (workflow). Недостатками подхода с использованием планировщиков являются отсутствие простого интерфейса пользователя и сложность развертывания и администрирования такой системы.

Наиболее функциональным и удобным является комбинированный подход, который использует планировщик для предоставления стандартизированного интерфейса к вычислительным ресурсам системы и Grid-портал, взаимодействующий с планировщиком через эти интерфейсы, для предоставления удобного Web-интерфейса пользователя.

Следует отметить, что эти же подходы могут использоваться и для обеспечения мониторинга и управления задачами, выполняемыми в разнородной Grid-среде, поскольку мониторинг и управление являются функциями, тесно связанными с представлением задач к выполнению.

Для отработки механизмов представления задач к выполнению был развернут Grid-портал (<http://gridportal.ikd.kiev.ua:8080/gridsphere>), предоставляющий доступ к ресурсам вычислительных и архивных ресурсов ИКД НАНУ-НКАУ, ИК НАНУ и RSGS CAS.




Рис. 2. Интеграция с помощью высокоуровневого планировщика

ЛИТЕРАТУРЫ:

- Shelestov A., Kravchenko O., Ilin M. Distributed visualization systems in remote sensing data processing GRID // International Journal "Information Technologies and Knowledge". 2008. Volume 2 (in print).
- Fusco L., Goncalves P., Linford J., Fulcoli M., Terracina A., D'Acunzo G. Putting



Earth- Observation on the Grid // ESA Bulletin. 2003. 114. P. 86-91.

- Куссиль Н.Н., Лупян Е.А., Шелестов А.Ю. и др. Grid технологии в системах мониторинга окружающей среды // Пятая Юбилейная Открытая Всероссийская конференция «Современные проблемы дистанционного зондирования Земли из космоса» Москва, ИКИ РАН, 12-16 ноября 2007 г.

- Kussul N., Shelestov A., Korbakov M., et al. Grid Infrastructure for Satellite Data Processing in Ukraine // International Journal "Information Technologies and Knowledge". 2008. Volume 2.

- Ed Gerck, Overview of Certification Systems: x.509, CA, PGP and SKIP, The Black Hat Briefings— 1999, <http://www.securityte chnet.com/resource/rsc- enter/presentation/black/vegas99/certover.pdf>

- ITU Recommendations - X.509 : Information technology - Open Systems Interconnection - The Directory: Public-key and attribute certificate frameworks, 2005.

- Vázquez-Poletti J.L., Huedo E., Montero R.S., Llorente I.M. A Comparison Between two Grid Scheduling Philosophies: EGEE WMS and GridWay // Multiagent and Grid Systems, Vol. 3, № 4, 2007.

- Laszewski G., Hategan M., Kodeboyina D., Java CoG Kit Workflow // Workflows for e-Science Scientific Workflows for Grids, 2007.

- Shelestov A. Workflow Modelling in Grid System for Satellite Data Processing// International Journal on Information Theory and Applications. 2008. Vol. 15.

**AMIR TEMUR BUYUK DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847487>

Xusanova Nargiza Farxod qizi

*Buxoro davlat pedagogika
institutining 1-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: *Amir Temur O'rta, Janubiy va G'arbiy Osiyo, shuningdek, Kavkaz, Povoljya va Rus tarixida muhim o'rin tutgan O'rta Osiyolik turkiy hukmdor, sarkarda va zobit. Sarkarda, poytaxti Samarqand bo'lgan Temuriylar saltanati (1370 yil) asoschisi.*

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Chingizxon, Qashqadoryo, Ginrix*

Kirish

Amir Temur 1336 yil 9 aprel kuni Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo'ja Ilg'or (Yakkabog') qishlog'ida tug'ilgan. Rivoyatlarga ko'ra, u qo'lida qip-qizil qon bo'lgi bilan, sochlari esa mo'ysafid kabi oppoq holatda tug'ilgan, bunday holat Chingizxon haqida ham gapirilgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay turk avlodining barloslaridan bo'lib, Movarounnahrda o'ziga yarasha obro'-e'tiborga ega, nufuzli ziyolilardan bo'lgan. Uning ota-bobosi afsonaviy turkiy Alan quva shajarasidan kelib chiqqan bo'lib, Chig'atoy ulusining saroydagi obro'-e'tiborli kishilari qatoridan joy olgan. Kesh va Nefes atrofidagi yerlar ularga qarashli mulk hisoblangan.

Temurning otasi Tarag'ay doimiy ravishda xon ulusi bo'lmish Il daryosi qirg'og'iga chaqiriluvchi chig'atoy beklari qurultoylarida ishtirok etgan. 1355 yil u Turmush og'a barlosi amir Jakuning qiziga uylanadi.

Movaraunnahrning bosh amiri Qozag'on Amir Temurning qobiliyatlariga ishonch hosil qilib, shu yiliyoq unga nevarasi Uljay Turkan og'ani nikohlab beradi. Ushbu nikoh sharofati bilan Qazog'onning nevarasi amir Husayn va Amir Temurlar ittifoqi vujudga keladi. Bu ittifoq mo'g'ullarga qarshi kurashda juda qo'l keladi. 1356 yil Amir Temurning 2 o'g'li dunyoga keladi — Jahongir va Umar Shayh.

Adabiyotlar taxlili va metod

XIII asr boshi XIV asr oxirlariga kelib Movaraunnahrning iqtisodiy ahvoli kundankunga yomonlashib boradi. Bundan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur foydalanib qoladi va hech qanday qarshiliksiz Qashqadaryogacha yetib boradi. Amir Temur unga xizmat qilishni boshlaydi. Biroq, Tug'luq Temur Movaraunnahr hukmdori etib o'zining o'g'li Ilyos Xodjani tayinlaydi va Amir Temur shahzodaga xizmat qilishdan bosh tortib, Balx hukmdori amir Husayn bilan birlashib olib, mo'g'ullar bilan qat'iy jangga kirishadi.

Bu vaqtda Samarqandda sarbadorlar - "dorga osiluvchilar", shuningdek, mo'g'ullarga qarshi kurashuvchilar hukmron surgan. Mazkur xalq harakatining "Yoki ozodlik uchun kurash, yoki dorga osilgan kalla" shiori ham uning ishtirokchilari



tomonidan yaratilgan. 1370 yil Amir Temur Balxda bo'lib o'tgan qurultoyda Turonning bosh amiri etib e'lon qilinadi.

Chingizning qizi Saroy Mulk Xonim bilan nikohi esa Amir Temurga "gurgan", ya'ni "xonning kuyovi" faxriy unvonini berdi.

Amir Temurning asosiy vazifasi parchalangan davlatga bardosh berish va alohida yerlarni bir davlatga birlashtirishdan iborat bo'lgan. Mazkur davlatning poytaxti etib u Samarqandni tayinlab, tezkorlik ila shaharning himoya devorlarini, qo'rg'onlar va saroylarni barpo etishni boshlaydi.

Amir Temur Amudaryo va Sirdaryo orasidagi yerlarni, shuningdek, Farg'ona va Shosh viloyatlarini o'ziga bo'ysundirib, birlashtiradi,

Natija



Dunyoning turli mamlakatlarida taniqli davlat va jamoat arboblari, olimlar va adiblar o'z ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va ijodiy faoliyati davomida buyuk ajdodlarimiz, xususan, Sohibqiron Amir Temurning jahon sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga qo'shgan munosib ulushini yuksak e'tirof etib keladi.

Xaqiqatan ham, Amir Temur jahon tarixida qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etgan buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagina mavqe tutmaydi. Sohibqiron o'z poytaxti bo'lmish Samarqandni yer yuzining madaniy-me'moriy va ilmiy-ma'naviy markazlaridan biriga aylantirgan.

Muhokama

Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan biri shuki, u zot bundan olti asr avval davlatlararo manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, uzoq va yaqin xalqlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlash o'z saltanati yorqin istiqbolini ta'minlashning muhim omili ekani teran anglagan. Shu bois, Yevropa va Osiyoni bog'lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan – Xitoy,



Hindiston, ikkinchi tomondan – Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqa o'rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan.

Mamlakatimiz olimlari va xorijlik mutaxassislar tomonidan ilmiy asosda e'tirof etilganidek, Amir Temur tarixda o'z davrining eng mohir diplomati sifatida ham chuqur iz qoldirgan. Sohibqiron buyuk davlat arbobi sifatida o'z maqsadlariga erishishda diplomatiyaning tinch yo'li va harbiy tadbirlarni mohirona qo'shib olib borgan.

Amir Temur barpo etgan buyuk saltanat o'sha davrdan boshlab nafaqat qo'shni mamlakatlar va ularning podsholarini, balki uzoq yurtlar hukmdorlarini ham o'ziga jalb etib kelgan. Tarixiy hujjatlar dalolat berishicha, XIV asrning 70-yillaridanoq Yevropa davlatlari vakillari Movarounnahrda kelib, bu yerdagi yangi, mustaqil davlatning qudrati va salohiyati bilan jiddiy qiziqqanlar.

Sohibqiron ham, o'z navbatida, ayniqsa, qudratli saltanat shakllangach, o'sha davrning deyarli barcha yirik davlatlari va ularning hukmdorlari bilan faol diplomatik aloqa o'rnatgan. Turli davlatlarga o'z elchilarini yuborgan, shuningdek, uning huzuriga yo'llangan xorij elchilarini qabul qilgan.

Amir Temur Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III (ayrim manbalarda – Ispaniya qiroli Genrix III), Fransiya hukmdori Charl VI (ayrim manbalarda – Karl VI), Angliya qiroli Genrix IV saroyiga elchilar yuborgani, o'z navbatida, ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa bir qator – jami 20 dan ortiq xorijiy davlat elchilarini o'z poytaxti Samarqandda qabul qilgani haqida atroflicha bayon etilgan ko'plab tarixiy va ilmiy asarlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Amir Temur diplomatiyasining o'ziga xos tomonlaridan biri – u o'zining barcha murojaatlarida, hatto qat'iy talab shaklida yozilgan nomalarida ham Sharq diplomatiyasi etiketlariga rioya qilgan. Ayrim yurtlar hukmdorlarining qo'pol shaklda, ba'zi hollarda jahl va jaholat bilan yozilgan nomalariga ham Sohibqiron hamma vaqt o'z fikrini aniq bayon qilgan holda madaniyat va odob bilan javob qilganini o'sha davrlardan meros bo'lib qolgan tarixiy xatlar orqali bilib olish qiyin emas. Amir Temurning Fransiya qiroli Charl VI ga yo'llagan maktubida "Salom va tinchlik e'lon qilaman!", degan so'zlar bitilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shu o'rinda Fransiyada Amir Temur shaxsiga bo'lgan katta qiziqish haqida to'xtalib o'tsak. Fransuz sharqshunoslari Sohibqiron va u asos solgan buyuk sulola tarixini yoritishda faqat harbiy yurishlar va amalga oshirilgai ishlar solnomasini tuzish bilan cheklanmasdan, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy muhitini hamda Amir Temurga va uning avlodlariga xos sof insoniy fazilatlarni, ularning davlat, jamiyat, din va ilm-fanga bo'lgan munosabatini ham atroflicha tadqiq qilishga alohida e'tibor beradilar.

Fransuz sharqshunoslarining Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganish miqyosi keng bo'lib, ular o'sha davr boshqaruv va harbiy tizimini, madaniyati, dini, falsafasi va ilmiy tafakkurini atroflicha yoritadi. San'at va me'morchilik fransuz olimlari uchun alohida va doimiy qiziqish mavusidir. Temuriylar Uyg'onish davriga



bag'ishlab ular yozgan asarlar, o'tkazgan ilmiy anjumanlar va ko'rgazmalar shundan dalolat beradi.

Sho'rolar davrida Amir Temur to'g'risida iliq so'z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda, ya'ni 1987 yil 22 martda Parijda "Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish va fransuz-o'zbek madaniy hamkorligi" uyushmasi tuzilgan. Uyushma Amir Temur va temuriylar davri tarixi va madaniyatini targ'ib qilish borasida dunyoda birinchi tuzilgan tashkilotdir. Uning asosiy maqsadi Amir Temur va temuriylar madaniyati, san'ati, shuningdek, Buyuk ipak yo'lining muhim qismi, Sharq va G'arb madaniyatlarining chorrahasi bo'lmish Markaziy Osiyo tarixi va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi bilan keng fransuz ommasini tanishtirishdan iborat. Buning yaqqol dalili sifatida ular Samarqandu Shahrizabz, Buxoro-yu Hirot, Balxu Shimoliy Hindistondagi tengsiz Sharq me'morchilik durdonalarini misol qilib ko'rsatadilar. Shu maqsadda uyushma turli temurxonlik kechalari, ilmiy anjumanlar, ko'rgazmalar o'tkazib turadi. Temuriylarning xaqiqiy ixlosmandi bo'lmish uyushma a'zolari fransuzlarni mashhur tarixiy "Samarqand yo'li"dan borishga, Amir Temur saltanati poytaxti moviy gumbazlariga mahliyo bo'lishga, Sharq uyg'onish davri madaniyati va san'atidan zavqlanishga chorlaydi.

O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi ilmiy-madaniy hamkorlik rivojida uyushmaning munosib o'rni bor.

Shuni ham qayd etish kerakki, fransuz temurshunoslari yaratgan asarlar qatorida professor Lyusyen Kerenning kitob va maqolalari alohida o'rin tutadi. 1961 yilda O'zbekistonga qilingan safar professorning hayotida burilish yasaydi. Shu paytdan boshlab u o'z hayotini Amir Temur shaxsi va temuriylar sulolasi tarixini o'rganishga bag'ishlagan.

Professor L.Keren o'z asarlarini yozishdan avval Amir Temur to'g'risida yozilgan Sharq va G'arb manbalarini chuqur tanqidiy nuqtai nazardan o'rganib chiqqan. Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshohning solnomalari, Rui Gonsales de Klavixo "Kundaliklar"i, mavjud tarixiy arxiv hujjatlari va yozma manbalar hamda taniqli fransuz sharqshunoslarining asarlari shular jumlasidandir.

Olim Sohibqiron haqida ulkan arxiv, tarixiy, ashyoviy va hayotiy ma'lumotlar to'plagan. Ana shu manba va asarlarni muqoyasa kilib, taqqoslab, ulardan har birining tarixiy dalillar nuqtai nazaridan ishonchli va xolis ekaniga baho bergan. Natijada Amir Temurning mukammal tarjimai holi va obrazini yaratishga muvaffaq bo'lgan, Sohibqiron faoliyatini teran va xolis baholagan.

Xulosa

Lyusyen Keren Amir Temur shaxsiga xolis va mafkuraviy aqidalarsiz yondashadi. Ilmiy va tarixiy dalillar asosida mulohaza yuritadi va xulosalar chiqaradi. Olim Sohibqiron shaxsini tahlil qilar ekan, uning faqat harbiy iste'dodiga emas, balki maqsadini aniqlab, unga erishish borasidagi siyosiy zakovatiga, diplomatik mahoratiga va bunyodkorligiga ham tan beradi.



Professor L.Keren Amir Temur va uning Yevropa bilan aloqalariga bag'ishlangan bir qator asar va maqolalar muallifidir. Uning eng asosiy kitoblaridan biri "Temur yoxud Sohibqiron saltanati" ilk bor 1978 yilda bosilib chiqqan. Uning yirik asarlaridan yana biri "Temur davrida Samarqand yo'li" (Parij, 1990) kitobi YUNESKOning "Ipak yo'li – muloqotlar yo'li" dasturi doirasida tayyorlangan.

Lyusyen Kerenning bu kitoblari uni dong'i ketgan temurshunos olimlar qatoriga qo'shgani bejiz emas. Ayniqsa, Sohibqironning Yevropadagi o'rni va xizmatiga oid fikrlari diqqatni jalb etadi. Olim Amir Temur Yevropa andozasidagi buyuk davlat boshlig'i va muzaffar sarkarda, mohir diplomat va ilm-fan homiysi ekanini alohida qayd etgan.

Lyusyen Keren "Amir Temur" nomli ikki qism, olti pardali pyesa ham yaratgan. Qariyb o'ttiz besh yil davomida Amir Temur to'g'risida olib borgan tadqiqotlari xulosasi sifatida shunday deb yozadi: "Bir tomonda kattiqqo'l Temur tursa, ikkinchi tomonda ilm ahlini qutlab, himoyasiga oladigan Temur turadi; bir tomonda butun-butun shaharlarni zabt qiluvchi Temur bo'lsa, ikkinchi tomonda obidalar, madrasalar, anhorlar qurdiruvchi va bog'lar barpo ettiruvchi Temur turadi. Bu murakkab shaxs muarrixlar uchun ham jumboq bo'lib qolmoqda".

O'zbekiston yer yuzidagi ko'plab mamlakatlar bilan turli sohalarda o'zaro manfaatli aloqalarni keng yo'lga qo'ymoqda, xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, hamkorlikning barcha shakllarini rivojlantirish yo'lida izchillik va qat'iyat bilan odimlamoqda. Bu yo'lda bizga buyuk ajdodlar, ayniqsa, Amir Temur merosi doim hamrohdir. Amir Temur yoshligidayoq aqlining tiniqligi va jasurligi bilan ajralib turardi. Unda harbiy iste'dod erta namoyon bo'ldi, u otda yurish mashqini olgan va kamondan otishga mohir edi. (Aleksandr Yurevich Yakubovskiy)



1996 yil O'zbekistonda "Amir Temur yili" deb ataldi. YUNESKO qarori bilan Sohibqiron tavalludining 660 yilligi butun dunyo bo'ylab nishonlandi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabzda Amir Temurning muhtasham haykallari o'rnatildi. Onasi va otasi Shahrisabzda dafn etilgan. Amir Temur onasi xotirasiga balandligi yetmish bir metr keladigan dunyoga mashhur Oqsaroy yodgorligini bunyod ettirdi. Rivoyatlarga qaraganda, kunlardan bir kun Sohibqironning sakkizinchi bobosi Qochuvli bahodir tush ko'ribdi, tushida uning qo'ynidan bir yulduz uchib chiqib jamol ko'rgizibdi va shu zahotiyoq so'nibdi, keyin ikkinchisi uchinchisi, to'rtinchisi yarqirab chiqibdi, bari so'naveribdi. Bu hol yetti marta takrorlanibdi. Biroq sakkizinchi martasida katta porloq yulduz otilib chiqibdi-yu, butun dunyoni yoritib yuboribdi! Mana shu Amir Temur yulduzi deb taxmin qilinadi. Undan yana bir necha kichik yulduzlar paydo bo'libdi, katta porloq yulduz mag'rib chizig'iga bosh qo'yib so'ngandan keyin, kichik yulduzlar porlashda davom etibdilar... Amir Temurning bolaligi Bolaligidanoq tabiatan og'ir-bosiq, zehni o'tkir, shoshilmay fikrlaydigan Temurbek dastavval maktabda saboq oldi, savodini chiqardi, ustozlar nazoratida kamon dastasini ushlab, o'q uzish, nayza tutish, otlarni saralay olish, shikorlar uyushtirish, chavandozlik va qilichbozlik sirlarini yaxshilab o'rgandi. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha,



Temurbek o'n ikki yoshida tengqurlari bilan "poshsho-vazir" o'ynashar ekan. Temurbek podsho bo'lar, qolganlarning har biriga bir "mansab" berilar, "gunohkor" odamni jazolab, "yurt" boshqarar ekan. O'n ikki yoshligidayoq yurt boshqarish havosini olishga intilish kuchli bo'lgan, niyatni katta qilgan. Kichikligidanoq Qur'oni karimni yod olganini aytishadi, Qur'on o'qishda uning ovozi qorilarniki kabi salobatli va yoqimli bo'lgan. 1360–1370-yillarda Turkistondagi vaziyat Milodiy 1358-yilda Turkiston (Movarounnahr) hukmdori Amir Qozog'on o'ldirilgandan keyin boshboshdoqlik avj olib ketdi. Tarixchi Xondamirning xabar berishicha, mamlakat o'nga yaqin bekliklarga bo'linib ketgan, hukmdorlar o'zaro nizolar, janglar bilan ovora, birlashishni o'ylamasdilar. Shu sababdan, Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurxon 1360–1361-yillarda yagona hokimi yo'q yurtimizga bosqin uyushtirganda unga bas keladigan kuch topilmadi. Amir Temur ana shunday vaziyatda tarix maydoniga kirib keldi. Xudo kelajakda ulug' saltanat barpo qilishni uning ko'ngliga jo etgan edi. Buning uchun mamlakatni birlashtirish lozim bo'lardi. U o'zboshimcha amirlar boshini bir joyga qovushtira oldi. Og'ir kurashlardan keyin milodiy 1370-yilda Amir Temur davlat boshiga keldi. Turkiston tarixida 1370-yil 9-apreldan boshlab mutlaqo yangi sahifalar boshlandi. Mustaqil Turon davlatiga asos solinishi Sohibqiron Amir Temur Qashqar, Yettisuv, Turkiston va Xorazmning bir qismidan iborat Chig'atoy ulusining vorisi sifatida maydonga chiqdi va ulus yerlariga to'liq egalik qilishni o'zining qonuniy huquqi deb hisobladi. O'sha paytdagi taomilga ko'ra, davlatga Chingizxon asos solgan, shuning uchun faqat uning avlodidan bo'lganlargina xon atalishga loyiq ko'rilardi. Amir Temur davlat boshiga kelishdan oldin chingiziy Suyurg'atmishxonni nomigagina xon qilib ko'tardi, soxta obro'lar ketidan quvishga ehtiyoji bo'lmagan Sohibqiron o'zini xon deb atamadi, chunki u xon avlodidan emas, balki oddiy xalq ichidan chiqqan qahramon edi. Samarqandni Turon saltanatining poytaxti deb belgiladi, 1391-yilda To'xtamishxon bilan jangga borayotib, Dashti Qipchoqda ulkan toshga xotira satrlarini o'ydirib yozdirganda, o'zini "Turon sultoni" deb atadi. Birinchi qadamlar parchalanib ketgan yurtni – Turon mamlakatini birlashtirishdan boshlandi. Bu ishni amalga oshirish uchun Jeta (boshqa nomi Mo'g'uliston)ga besh marta, Xorazmga besh marta yurish qilishga to'g'ri keldi. Parokanda mustamlaka yurt yaxlitlik maqomiga ega bo'lib, ozodlikka erishdi. Bu tariximizdagi diqqatga sazovor ulkan voqealardan biridir. O'ttiz besh yil (1370–1405) hukm surgan Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo hududlarini yagona markazlashgan davlatga birlashtirdi, Hind va Gangadan to Orol dengizigacha, Tyan-Shandan to Bosforgacha ulkan imperiya barpo etdi. Amir Temur, eng avvalo, mustaqil ulkan Turon davlatini tuzgan vatanparvar, buyuk davlat arbobidir, vatanimizni mo'g'ul bosqinchilaridan ozod etgan xalq qahramonidir. U mustabidlarga qarshi kurash va mustaqil davlat bunyod etish o'zining burchi ekanini chuqur anglab yetdi. Prezident Islom Karimovning: "Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir", – degan so'zlari zamirida ana shunday teran ma'no mujassamdir. «Sohibqiron» so'zining ma'nosi «Sohibqiron» so'zining arabcha «saodatli, zafarli, g'olib» ma'nolari bor. Ilmi nujum (astrologiya)da va afsonalarda Zuhra



(Venera) – do'stlik va mehru muhabbat tug'yonlarini in'om aylaguvchi, Mushtariy (Yupiter) – omadu iqbol, muzaffariyatu shodiyonalar sayyorasi deb ta'riflanadi. Shu ikki sayyoraning bir burjda uchrashgan vaqti saodatli lahzalardur, uni qiron deydilar, shunday vaqtda tug'ilgan bola o'sha qiron sohibi hisoblanadi. Bunday bolaning baxtli, ulug' martabalar egasi bo'lishi oldindan bashorat etiladi. Sharq mamlakatlarida hukmdorlarga beriladigan sharafli unvon. Amir Temur Ko'ragon ham shu unvonga musharraf bo'lgan. Uch yillik, besh yillik, yetti yillik yurishlar va ularning sabablari Amir Temur urushning aytgani-aytgan, degani-degan qattol bir zamonda yashadi, qilichu nayzaga suyangan bu zamonning hech kimga bo'ysunmaydigan o'z qonunlari bor edi. Ularga rioya qilmaslik yoki chetlab o'tish mumkin emasdi. Shuni ta'kidlash joizki, Sohibqiron xudo izmidan chiqmaydigan bandalardan edi, hech qachon birinchi bo'lib urush boshlamasdi, savashishlarni yoqtirmasdi. Uning yurishlari zaruratdan kelib chiqardi. Eng avvalo, u urushning oldini olish chorasini izlardi. Ayrim hollarda, qaysidir mamlakatda zulm ortib ketgan bo'lsa, u joyning ulug'lari sohibqiron Amir Temurga ko'mak so'rab murojaat qilishardi. Amir Temur o'z "Tuzuklar"ida davlat ishlarining to'qqiz ulushini kengash (diplomatiya)ga ajratgani, bir ulushini qilichga qoldirganini yozgan. U umr bo'yi bunga rioya qildi. Muxolif mamlakatga takror-takror elchilar yuborar, quda-andachilikni yo'lga qo'yishga tirishar, qarindoshchilikni rivojlantirish yo'llarini izlardi. Buning yorqin misoli Xorazmning go'zal malikasi Xonzoda xonimning Turon saltanati valiahdi shahzoda Jahongir Mirzoga uzatilishi edi. Amir Temurning "uch yillik" (1386–1388), "besh yillik" (1392–1396), "etti yillik" (1399–1404) yurishlari tarixdan ma'lum. Bu yurishlar zamirida Buyuk ipak yo'liga egalik qilish uchun kurashlar ham yotadi. Savdo yo'llari davlatga katta daromad keltirishdan tashqari, xalqaro siyosiy maydonda mavqe, obro'-martabani yuksak darajaga ko'tarardi. Amir Temur yurishlari, urushlar, albatta, o'z asoratlarini qoldirdi, lekin ularning jahon tarixida ijobiy tomonlari borligi ham haqiqat. Sohibqironning yurishlari Xitoyda Min sulolasi davlat boshiga kelganda mo'g'ullarning Xitoyga solayotgan xavfini bartaraf etdi... Oltin O'rda hoqoni To'xtamishxon bilan 1391, 1395-yillarda olib borilgan ulkan janglar Rossiyani mo'g'ullar zulmidan xalos qildi, rus xalqiga markazlashgan davlat tuzish imkoniyatini yaratdi. Amir Temurning Usmonlilar imperiyasi ustidan qozongan g'alabasi Yevropani usmonlilar mustamlakasidan qutqarib qoldi, uni Yevropa xaloskoriga aylantirdi, Vizantiya imperiyasi umriga yarim asr umr qo'shdi.

FOYDALINGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Akmal Saidovakademik.

O'zA maqolasidan foydalindi.

Muhammad ALI,

O'zbekiston xalq yozuvchisi maqolasida foydalanildi.

“Temur tuzuklari”



© 2016-2023 – www.temurtuzuklari.uz Materiallardan foydalanilganda manba
Temur va Ulug'bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996
Amir Temur. Tarixiy roman.1995– 294b.

Yetti iqlim sultoni / Rus tilidan To'rabekov.H, Sokin.Sh tarjimasini. Axmedov B.,
Mukminova R., PugachenkovaG.Amir Temur .1999
военного искусства (книга 1). - Ташкент, 2006



UMUMLASHGAN HILFER MA'NOSIDAGI HOSILA VA RIMAN-LIUUVILL MA'NOSIDAGI INTEGRALNI O'Z ICHIGA OLUVCHI ODDIY DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN KOSHI MASALASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847513>

Omonova Dinora Dilshodjon qizi
Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumlashgan hilfer ma'nosidagi hosila va riman-liuuvill ma'nosidagi integralni o'z ichiga oluvchi oddiy differensial tenglama uchun koshi masalasi o'rganilgan. Masalaning yechimi Mittag-Leffler funksiyasi yordamida topilgan. Berilgan funksiya yetarli shart topilgan va teorema shaklida bayon qilingan hamda bu teorema isbotlangan.*

ЗАДАЧА КОШИ ДЛЯ ОБЫКНОВЕННОГО ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ С ПРОИЗВОДНОЙ В ОБОБЩЕННОМ СМЫСЛЕ ГИЛЬФЕРА И ИНТЕГРАЛОМ В СМЫСЛЕ РИМАНА-ЛИУВИЛЯ

Аннотация: *В статье исследуется задача Коши для обыкновенного дифференциального уравнения, содержащего производную в обобщенном смысле Гильфера и интеграл в смысле Римана-Лиувилля. Решение задачи было найдено с помощью функции Миттаг-Леффлера, для данной функции найдено достаточное условие, которое сформулировано в виде теоремы, и эта теорема доказана.*

THE CAUCHY PROBLEM FOR AN ORDINARY DIFFERENTIAL EQUATION INVOLVING THE DERIVATIVE IN THE GENERALIZED HILFER SENSE AND THE INTEGRAL IN THE RIEMAN-LIOUVILLE SENSE

Abstract: *In this article, the Cauchy problem for an ordinary differential equation containing a derivative in the generalized Hilfer sense and an integral in the Riemann-Liouville sense is studied. The solution to the problem was found using the Mittag-Leffler function. A sufficient condition was found for the given function and it was stated in the form of a theorem, and this theorem was proved.*

Kalit so'zlar: *oddiy differensial tenglama, kasr tartibli operator, Koshi masalasi.*

Ключевые слова: *обыкновенное дифференциальное уравнение, оператор дробного порядка, задача Коши.*

Keywords: *ordinary differential equation, fractional order operator, Cauchy problem.*



I.Kirish. So'ngi vaqtlarda kasr tartibli integro-differensial operatorlar qatnashgan differensial tenglamalar bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bunga sabab ko'plab issiqlik tarqalish va diffuziya jarayonlarini matematik modelini tuzish funksiyani biror qiymati qatnashgan differensial tenglama uchun qo'yiladigan masalalarga keltiriladi. Kasr tartibli integro-differensial operatorlar qatnashgan xususiy hosilali va oddiy differensial tenglamalar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan [1-3] ishlarga qaralsin.

II. Masalaning qo'yilishi.

(0,1) oraliqda ushbu

$$D_{0x}^{(\alpha,\varphi),\beta} y(x) - \lambda I_{0x}^\gamma y(x) = f(x) \tag{1}$$

kasr tartibli oddiy differensial tenglamani qaraylik, bu yerda $y(x)$ -noma'lum funksiya, $f(x)$ – berilgan funksiya; $\alpha, \varphi, \beta, \lambda$ - o'zgarmas haqiqiy sonlar bo'lib, $0 < \alpha < 1, 0 < \varphi < 1, 0 \leq \beta \leq 1$; $D_{0x}^{(\alpha,\varphi),\beta} y(x)$ - Hilfer ma'nosidagi kasr tartibli hosilasi [4].

$$D_{0x}^{(\alpha,\varphi),\beta} y(x) = I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)} y(x) , \tag{2}$$

$I_{0x}^\gamma y(x)$ – Riman-Liuvill ma'nosida γ (kasr) tartibli integral [5].

$$I_{0x}^\gamma y(x) = \frac{1}{\Gamma(\gamma)} \int_0^x (x-t)^{\gamma-1} y(t) dt, \gamma > 0.$$

Koshi masalasi. Shunday $y(x)$ funksiya topilsinki, u quyidagi xossalarga ega bo'lsin:

- 1) $x^{(1-\beta)(1-\varphi)} y(x) \in C[0,1]$, $D_{0x}^{(\alpha,\varphi),\beta} y(x) \in C(0,1)$ sinfga tegishli
- 2) (1) tenlamani qanoatlantirsin;
- 3) $x = 0$ nuqtada esa

$$\lim_{x \rightarrow 0} I_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)} y(x) = A \tag{3}$$

shartni qanoatlantirsin, bu yerda, A - berilgan o'zgarmas haqiqiy son.

(1) tenglamani

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)} y(x) - \lambda I_{0x}^\gamma y(x) = f(x) \tag{4}$$

ko'rinishda yozib olamiz.

(4) tenglamaga $D_{0x}^{\beta(1-\alpha)}$ ni ta'sir ettirib,

$$D_{0x}^{\beta(1-\alpha)} I_{0x}^\gamma y(x) = \frac{1}{\Gamma(1-\beta(1-\alpha)+\gamma)} \frac{d}{dx} \int_0^x (x-z)^{\gamma-\beta(1-\alpha)} y(z) dz ,$$

$$D_{0x}^{\beta(1-\alpha)} y(x) = \frac{1}{\Gamma(1-\beta(1-\alpha))} \frac{d}{dx} \int_0^x (x-z)^{-\beta(1-\alpha)} y(z) dz ,$$



formulalardan foydalanib, uni quyidagicha yozib olamiz;

$$\begin{aligned} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\beta)(1-\alpha)} y(x) - \frac{\lambda}{\Gamma(1-\beta(1-\alpha)+\gamma)} \frac{d}{dx} \int_0^x (x-z)^{\gamma-\beta(1-\alpha)} y(z) dz = \\ = \frac{1}{\Gamma(1-\beta(1-\alpha))} \frac{d}{dx} \int_0^x (x-z)^{-\beta(1-\alpha)} f(z) dz. \end{aligned} \quad (6)$$

(6) ni 0 dan x gacha integrallab, uni quyidagicha yozib olamiz;

$$\begin{aligned} I_{0x}^{(1-\beta)(1-\alpha)} y(x) - \frac{\lambda}{\Gamma(1-\beta(1-\alpha)+\gamma)} \int_0^x (x-z)^{\gamma-\beta(1-\alpha)} y(z) dz = \\ \frac{1}{\Gamma(1-\beta(1-\alpha))} \int_0^x (x-z)^{-\beta(1-\alpha)} f(z) dz + A \end{aligned} \quad (7)$$

(7) ga $D_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)}$ ni
ta'sir ettirib, ba'zi

hisoblashlarni amalga oshirib, quyidagi

$$\begin{aligned} y(x) - \frac{\lambda}{\Gamma(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi))} \int_0^x (x-z)^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1} y(z) dz = \\ = \frac{1}{\Gamma(\varphi+\beta(\alpha-\varphi))} \int_0^x (x-z)^{\varphi+\beta(\alpha-\varphi)-1} f(z) dz + \frac{Ax^{-(1-\beta)(1-\varphi)}}{\Gamma(1-(1-\beta)(1-\varphi))} \end{aligned} \quad (8)$$

ko'rinishdagi ikkinchi tur Volterra integral tenglamasini hosil qilamiz.

(8) integral tenglamani yechish uchun ba'zi belgilashlarni kiritamiz:

$$g(x) = \frac{1}{\Gamma(\varphi+\beta(\alpha-\varphi))} \int_0^x (x-z)^{\varphi+\beta(\alpha-\varphi)-1} f(z) dz + \frac{Ax^{-(1-\beta)(1-\varphi)}}{\Gamma(1-(1-\beta)(1-\varphi))} \quad (9)$$

$$K(x, z) = \frac{(x-z)^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1}}{\Gamma(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi))}. \quad (10)$$

(9) va (10) tenglamani ketma-ket yaqinlashish usuli orqali yechamiz.

$$K_1(x, z) = \frac{(x-z)^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1}}{\Gamma(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi))} \quad \text{va} \quad K_i(x, y) = \int_y^x K_1(x, t) K_{i-1}(t, y) dt$$

formulalardan foydalanib, ba'zi hisoblashlarni amalga oshirib, n - iteratsialangan yadroni

$$K_n(x, z) = \frac{(x-z)^{n(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi))-1}}{\Gamma(n(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)))}$$

ko'rinishda topamiz. $K_n(x, z)$ orqali $R(x, z, \lambda)$ rezolventani

$$R(x, z, \lambda) = \sum_{n=1}^{+\infty} \frac{\lambda^{n-1} (x-z)^{n(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi))-1}}{\Gamma(n(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)))}$$

ko'rinishda topamiz.

Integral tenglamalar nazariyasiga ko'ra tenglama yechimini,

$$y(x) = g(x) - \lambda \int_0^x R(x, z, \lambda) g(z) dz$$

ko'rinishda yozib olamiz, bu yerda



$$R(x, z, \lambda) = \sum_{n=1}^{+\infty} \frac{\lambda^{n-1} (x-z)^{n(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi))-1}}{\Gamma(n(\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)))}$$

(9) va (10) belgilashlarni e'tiborga olib, ba'zi hisoblashlarni amalga oshirib, A masalaning formal yechimini

$$y(x) = Ax^{-(1-\varphi)(1-\beta)} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), 1-(1-\beta)(1-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] + \int_0^x (x-z)^{\varphi+\beta(\alpha-\varphi)-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\beta(\alpha-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] f(z) dz \quad (11)$$

ko'rinishda topamiz, bu yerda

$$E_{p,q}(z) = \sum_{n=0}^{+\infty} \frac{z^n}{\Gamma(pn+q)} \quad (12)$$

- Mittag-Leffer funksiyasi [6].

Teorema. Agar $f(x) = x^{-p} f_1(x)$ bunda $p < 1 - \mu(1-\alpha)$, $f_1(x) \in C[0,1]$ bo'lsa, u holda Koshi masalasining yechimi mavjud va u (11) formula bilan aniqlanadi.

Isbot. Dastlab (11) formulani (1) tenglamani qanoatlantirishini ko'rsatamiz. masala yechimni

$$y(x) = y_1(x) + y_2(x) \quad (13)$$

ko'rinishda yozib olamiz, bu yerda

$$y_1(x) = Ax^{-(1-\varphi)(1-\beta)} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), 1-(1-\beta)(1-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}],$$

$$y_2(x) = \int_0^x (x-z)^{\varphi+\beta(\alpha-\varphi)-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\beta(\alpha-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] f(z) dz.$$

Avval $y_1(x)$ ni (1) tenglamani qanoatlantirishini ko'rsatamiz. Buning uchun $I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_1(x)$ ni hisoblaymiz:

$$I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_1(x) = I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} \left[Ax^{-(1-\varphi)(1-\beta)} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), 1-(1-\beta)(1-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] \right] \quad (14)$$

da ba'zi

hisoblashlarni amalga oshirib,

$$I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_1(x) = A E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), 1} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] \quad (15)$$

tenglikni hosil qilamiz. (15) ni differensiallaymiz:

$$\frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_1(x) = A \lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] \quad (16)$$

(16) ni har ikki tarafini $I_{0x}^{\beta(1-\alpha)}$ ni ta'sir ettiramiz:

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_1(x) = I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \left[A \lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] \right] \quad (17)$$

(17) da ba'zi hisoblashlarni amalga oshirib,

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_1(x) = \lambda A x^{\varphi+\gamma+\beta-\beta\varphi-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\gamma+\beta-\beta\varphi} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] \quad (18)$$

tenglikni hosil qilamiz.

Yuqoridagi kabi $I_{0x}^\gamma y_1(x)$ ni



$$I_{0x}^{\gamma} y_1(x) = Ax^{\varphi+\gamma+\beta-\beta\varphi-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\gamma+\beta-\beta\varphi} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] \quad (19)$$

ko'rinishda topamiz.

(18) va (19) dan

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)} y_1(x) - \lambda I_{0x}^{\gamma} y_1(x) = 0 \quad (20)$$

ekanligi kelib chiqadi.

Endi $y_2(x)$ ni (1) tenglamani qanoatlantirishini ko'rsatamiz.

Ko'rsatish qiyin emaski, quyidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

$$I_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)} y_2(x) = \int_0^x (x-z)^{-\beta(1-\alpha)} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), 1-(1-\alpha)\beta} [\lambda(x-z)^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)} f(z) dz \quad (21) \quad (21)$$

da quyidagicha belgilash

$$I_{0x}^{(1-\beta)(1-\varphi)} y_2(x) = g(x) \quad \text{kiritamiz:}$$

(22)

Ko'rish

qiyin

emaski

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} g(x) = \frac{d}{dx} I_{0x}^{\beta(1-\alpha)+1} g'(x) \quad (23)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

(22) va (23) dan foydalanib,

$$\frac{d}{dx} I_{0x}^{\beta(1-\alpha)+1} g'(x) = \frac{d}{dx} \frac{1}{\Gamma(1+\beta(1-\alpha))} \int_0^x (x-t)^{\beta(1-\alpha)} g'(t) dt \quad (24)$$

tenglikni yozib olamiz.

(24) da bir marta bo'laklab integrallash qoidasini qo'llab, $g(0) = 0$ va $\beta(1-\alpha) > 0$

ekanligidan

$$\frac{d}{dx} I_{0x}^{\beta(1-\alpha)+1} g'(x) = \frac{d}{dx} \frac{1}{\Gamma(\beta(1-\alpha))} \int_0^x (x-t)^{\beta(1-\alpha)-1} g(t) dt$$

tenglikni hosil qilamiz. (22) va (21) tengliklardan foydalanib, ba'zi soddalashtirishlarni amalga oshirib,

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_2(x) = \frac{d}{dx} \int_0^x f(z) E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), 1} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] dz \quad (25)$$

tenglikni hosil qilamiz.

Bu yerda $E_{\delta,1}(0) = 1$ ekanligini e'tiborga olib, parametr bo'yicha hosila olib,

$$I_{0x}^{\beta(1-\alpha)} \frac{d}{dx} I_{0x}^{(1-\alpha)(1-\beta)} y_2(x) = f(x) + \lambda \int_0^x (x-t)^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)} [\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] f(z) dz$$

(26)

tenglikni hosil qilamiz.

Yuqoridagi kabi $I_{0x}^{\gamma} y_2(x)$ ni



$$I_{0x}^{\gamma} y_2(x) = \int_0^x (x-t)^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)-1} E_{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi), \varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}[\lambda x^{\varphi+\gamma+\beta(\alpha-\varphi)}] f(z) dz \quad (27)$$

ko'rinishda topamiz.

(26) va (27) dan $y_2(x)$ ni (1) tenglamani qanoatlantirishi kelib chiqadi.

(15), (21) va $E_{\delta,1}(0) = 1$ dan foydalansak, $\lim_{x \rightarrow 0} I_{0x}^{(1-\varphi)(1-\beta)} y(x) = A$ kelib chiqadi.

Teorema isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Omonova D.D. Yuklangan kasr tartibli oddiy differensial tenglamalar uchun masalalar. Ijodkor o'qituvchi. Vol. 2 No. 24 (2022). 252- 255- betlar.
2. Omonova D.D. Yuklangan kasr tartibli integro-differensial tenglamalar uchun masalalar. O'zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. Vol. 2 no. 16 (2023):
3. Omonova D.D. Yuklangan kasr tartibli integro-differensial tenglamalar uchun masalalar. Journal of innovations in scientific and educational research. vol. 2 no. 15 (2023):
4. Hilfer R., Luchko Y., Tomovski Z. Operational method for the solution of fractional differential equations with generalized Riemann-Liouville fractional derivatives. Fractional Calculus Applied Analysis. vol. 12 is. 3. 2009. pp. 300-317.
5. Kilbas A.A., Srivastava H.M., Trujillo J.J. *Theory and applications of fractional differential equations* (North-Holland Mathematics Studies, 204). Amsterdam: Elsevier, 2006. - 523p.
6. Бейтмен Г., Эрдейн А. Высшие трансцендентные функции Эллиптические и автоморфные функции Функции Ламе и Матье Ортогональные полиноми- Москва Наука



IKKINCHI TARTIBLI INTEGRO-DIFFERENSIAL TENGLAMA UCHUN TO'G'RI VA TESKARI MASALALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7847527>

Bozorova Madinaxon Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu ishda ikkinchi tartibli integro-differensial tenglama uchun bir teskari masala bayon qilingan va tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *ikkinchi tartibli integro-differensial tenglama, Riman-Liuvill ma'nosidagi kasr tartibli integral, teskari masala.*

ПРЯМАЯ И ОБРАТНАЯ ЗАДАЧИ ДЛЯ ИНТЕГРО-ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНОГО УРАВНЕНИЯ ВТОРОГО ПОРЯДКА

Аннотация: *В этой работе была сформулирована и исследована обратная задача для интегро-дифференциального уравнения второго порядка.*

Ключевые слова: *Интегро-дифференциальное уравнение второго порядка, Интеграл Римана-Лювилля в смысле дроби, обратная задача.*

DIRECT AND INVERSE PROBLEMS FOR AN INTEGRO-DIFFERENTIAL EQUATION OF THE SECOND ORDER

Annotation: *In this paper, the inverse problem for a second order integro-differential equation was formulated and investigated.*

Keywords: *Integro-differential equation of the second order, Riemann-Liouville integral in the sense of (fractions), inverse problem.*

I Kirish. So'ngi vaqtlarda noma'lum manbali differensial tenglamalar bilan shug'illanishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bunga sabab ko'plab issiqlik taqalish va diffuziya jarayonlarini matematik modelini tuzish noma'lum manbali differensial tenglama uchun qo'yiladigan masalalarga keltiriladi. Bunday differensial tenglamalar uchun teskari masalalar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan (masalan, ushbu [1]–[10] ishlarga qaralsin).

II Masalani qo'yilishi.

(0, 1) oraliqda ushbu

$$y''(x) - \lambda I_{0x}^{\alpha} y(x) = f(x) \quad (1)$$



ikkinchi tartibli integro-differensial tenglamani qaraylik, bu yerda $y(x)$ – noma'lum funksiya; $f(x)$ – berilgan uzluksiz funksiya; λ, γ – o'zgarmas haqiqiy sonlar bo'lib; $I_{0x}^{\gamma} y(x)$ – Riman-Liuvill ma'nosida γ (kasr) tartibli integral [11]

$$I_{0x}^{\gamma} y(x) = \frac{1}{\Gamma(\gamma)} \int_0^x (x-t)^{\gamma-1} y(t) dt.$$

Koshi masalasi. Shunday $y(x)$ funksiya topilsinki, u quyidagi xossalarga ega bo'lsin:

1) $(0, 1)$ oraliqda (1) tenglamani qanoatlantirsin;

2) $C^1[0,1] \cap C^2(0,1)$ sinfga tegishli bo'lsin;

3) $x=0$ nuqtada esa

$$y(0) = A_1, \quad y'(0) = A_2, \quad (2)$$

chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda A_1, A_2 – berilgan o'zgarmas haqiqiy sonlar.

(1) tenglamani ketma-ket 2 marta integrallab, (2) shartdan foydalanib,

$$y(x) - \frac{\lambda}{\Gamma(\gamma+2)} \int_0^x (x-t)^{\gamma+2-1} y(t) dt = A_1 + A_2 x + \int_0^x (x-z) f(z) dz \quad (3)$$

ko'rinishdagi integral tenglamani hosil qilamiz.

(3) da ba'zi belgilashlarni kiritib, uni ko'rinishda yozib olamiz, bu yerda

$$g(x) = A_1 + A_2 x + \int_0^x (x-z) f(z) dz, \quad \beta = \gamma + 2, \quad K(x,t) = \frac{(x-t)^{\beta-1}}{\Gamma(\beta)}$$

$$y(x) - \lambda \int_a^x K(x,t) y(t) dt = g(x) \quad (4)$$

(4) Volltera ikkinchi tur tenglamasi bo'lib, uni ketma-ket yaqinlashish usuli yordamida yechamiz.

$$K_1(x,t) = \frac{(x-t)^{\beta-1}}{\Gamma(\beta)} \quad \text{va} \quad K_i(x,y) = \int_y^x K_1(x,t) K_{i-1}(t,y) dt$$

rekurent formuladan foydalanib, ba'zi hisoblashlarni amalga oshirib

$$K_n(x,t) = \frac{(x-t)^{n\beta-1}}{\Gamma(n\beta)}, \quad n = 1, 2, 3, \dots \text{ topamiz.}$$

Integral tenglamalar nazariyasiga ko'ra, (4) tenglamaning yechimi

$$y(x) = g(x) + \lambda \int_a^x R(x,t, \lambda) g(t) dt \quad (5)$$

ko'rinishda yozib olamiz, bu yerda

$$R(x,t, \lambda) = \sum_{n=1}^{\infty} \lambda^{n-1} K_n(x,t), \quad R(x,t, \lambda) = \sum_{n=1}^{\infty} \frac{\lambda^{n-1} (x-t)^{\beta n-1}}{\Gamma(\beta n)}$$



(5) da $g(x) = A_1 + A_2x + \int_0^x (x-z)f(z)dz$ ekanligi e'tiborga olib, ba'zi

soddalastirishlarni amalga oshirib Koshi masalasining yechimini

$$y(x) = A_1 E_{\beta,1}(\lambda x^\beta) + A_2 x E_{\beta,2}(\lambda x^\beta) + \int_0^x (x-z) E_{\beta,4}[\lambda(x-z)^\beta] f(z) dz \quad (6)$$

ko'rinishda topamiz, bu yerda $E_{\alpha,\beta}(z) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{z^n}{\Gamma(\alpha n + \beta)}$ - Mittag-Leffler funksiyasi

[12].

Endi

$$y''(x) - \lambda I_{0x}^\gamma y(x) = kf(x) \quad (7)$$

tenglamani (0,1) oraliqda qaraylik, bu yerda $y(x)$ -noma'lum funksiya, λ, γ - o'zgarmas haqiqiy sonlar, $f(x)$ -berilgan funksiya, k -noma'lum son.

T₁ masala Shunday $y(x)$ -funksiya va k sonni topilsinki u quyidagi xossalarga ega bo'lsin:

1) (0, 1) oraliqda (7) tenglamani qanoatlantirsin;

2) $C^1[0,1] \cap C^2(0,1)$ sinfga tegishli bo'lsin;

3) $x=0, x=1$ nuqtalarda esa

$$y(0) = A_1, y(1) = B_1 \quad (8)$$

$$y(\xi_0) = D_1 \quad (9)$$

shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda A_1, B_1, D_1 - berilgan o'zgarmas haqiqiy sonlar.

T₁ masala yechimini (6) formuladan foydalanib,

$$y(x) = A_1 E_{\beta,1}(\lambda x^\beta) + A_2 x E_{\beta,2}(\lambda x^\beta) + k \int_0^x (x-z) E_{\beta,4}[\lambda(x-z)^\beta] f(z) dz \quad (10)$$

ko'rinishda yozib olamiz, bu yerda A_2 noma'lum son.

(10) tenglikda $y(1) = B_1$ shartdan foydalanib, noma'lum A_2 ni

$$A_2 = \frac{B_1 - A_1 E_{\beta,1}(\lambda) - k \int_0^1 (1-z) E_{\beta,4}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,2}(\lambda)} \quad (11)$$

ko'rinishda topamiz.

Endi, $y(\xi_0) = D_1$ nolokal shartdan k ni

$$k = \frac{A_1 E_{\beta,1}(\lambda \xi_0^\beta) + \frac{B_1 - A_1 E_{\beta,1}(\lambda)}{E_{\beta,2}(\lambda)} \xi_0 E_{\beta,2}(\lambda \xi_0^\beta) - D_1}{\int_0^1 (1-z) E_{\beta,2}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz - \int_0^{\xi_0} (\xi_0 - z) E_{\beta,2}[\lambda(\xi_0 - z)^\beta] f(z) dz} \quad (12)$$

ko'rinishda topamiz.



(11) va (12) larni (10) ga qo'yib, T_1 masalaning yechimi hosil qilamiz.

1-teorema. Agar

$$\xi_0 E_{\beta,2}(\lambda \xi_0^\beta) \frac{\int_0^1 (1-z) E_{\beta,2}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,2}(\lambda)} \neq \int_0^{\xi_0} (\xi_0 - z) E_{\beta,2}[\lambda(\xi_0 - z)^\beta] f(z) dz$$

bo'lsa, u holda T_1 masala yagona yechimga ega bo'ladi.

T_2 masala (7) tenglamada shunday $y(x)$ -funksiya va k sonni topilsinki u quyidagi xossalarga ega bo'lsin:

1) $(0, 1)$ oraliqda (7) tenglamani qanoatlantirsin;

2) $C^1[0,1] \cap C^2(0,1)$ sinfga tegishli bo'lsin;

3) $x=0, x=1$ nuqtalarda esa

$$y'(0) = A_2, \quad y(1) = B_1 \quad (13)$$

va (9) shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda A_2, B_1, D_1 - berilgan o'zgarmas haqiqiy sonlar.

T_2 masala yechimini (6) formuladan foydalanib,

$$y(x) = A_1 E_{\beta,1}(\lambda x^\beta) + A_2 x E_{\beta,2}(\lambda x^\beta) + k \int_0^x (x-z) E_{\beta,4}[\lambda(x-z)^\beta] f(z) dz \quad (14)$$

ko'rinishida yozib olamiz, bu yerda A_1 noma'lum son

(12) formulada $y(1) = B_1$ shartdan foydalanib, noma'lum A_1 ni

$$A_1 = \frac{B_1 - A_2 E_{\beta,2}(\lambda) - k \int_0^1 (1-z) E_{\beta,2}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,1}(\lambda)} \quad (15)$$

ko'rinishda topamiz.

Endi, $y(\xi_0) = D_1$ nolokal shartdan k ni

$$k = \frac{A_2 \xi_0 E_{\beta,2}(\lambda \xi_0^\beta) + \frac{B_1 - A_2 E_{\beta,2}(\lambda)}{E_{\beta,1}(\lambda)} E_{\beta,1}(\lambda \xi_0^\beta) - D_1}{\frac{\int_0^1 (1-z) E_{\beta,2}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,1}(\lambda)} - \int_0^{\xi_0} (\xi_0 - z) E_{\beta,2}[\lambda(\xi_0 - z)^\beta] f(z) dz} \quad (16)$$

ko'rinishda topamiz.

(15) va (16) larni (14) ga qo'yib, T_2 masalaning yechimi hosil qilamiz.

2-teorema. Agar

$$E_{\beta,1}(\lambda \xi_0^\beta) \frac{\int_0^1 (1-z) E_{\beta,2}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,1}(\lambda)} \neq \int_0^{\xi_0} (\xi_0 - z) E_{\beta,2}[\lambda(\xi_0 - z)^\beta] f(z) dz$$

bo'lsa, u holda T_2 masala yagona yechimga ega bo'ladi.



T₃ masala (7) tenglamada shunday $y(x)$ -funksiya va k sonni topilsinki u quyidagi xossalarga ega bo'lsin:

- 1) $(0, 1)$ oraliqda (7) tenglamani qanoatlantirsin;
- 2) $C^1[0,1] \cap C^2(0,1)$ sinfga tegishli bo'lsin;
- 3) $x=0, x=1$ nuqtalarda esa

$$y(0) = A_1, y'(1) = B_2 \tag{17}$$

va (9) shartlarni qanoatlantirsin, bu yerda A_1, B_2, D_1 - berilgan o'zgarmas haqiqiy sonlar.

T₃ masala yechimini (6) formuladan foydalanib,

$$y(x) = A_1 E_{\beta,1}(\lambda x^\beta) + A_2 x E_{\beta,2}(\lambda x^\beta) + k \int_0^x (x-z) E_{\beta,4}[\lambda(x-z)^\beta] f(z) dz \tag{18}$$

yozib olamiz, bu yerda A_2 noma'lum son.

(17) tenglikda $y'(1) = B_2$ shartdan foydalanib, noma'lum A_2 ni

$$A_2 = \frac{B_2 - A_1 E_{\beta,\beta}(\lambda) - k \int_0^1 E_{\beta,1}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,1}(\lambda)} \tag{19}$$

ko'rinishda topamiz.

Endi, $y(\xi_0) = D_1$ nolokal shartdan k ni

$$k = \frac{A_1 E_{\beta,1}(\lambda \xi_0^\beta) + \xi_0 E_{\beta,1}(\lambda \xi_0^\beta) \left[\frac{B_2 - A_1 E_{\beta,\beta}(\lambda)}{E_{\beta,1}(\lambda)} \right] - D_1}{\xi_0 E_{\beta,2}(\lambda \xi_0^\beta) \frac{\int_0^1 E_{\beta,1}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,1}(\lambda)} - \int_0^{\xi_0} (\xi_0 - z) E_{\beta,2}[\lambda(\xi_0 - z)^\beta] f(z) dz} \tag{20}$$

ko'rinishda topamiz.

(19) va (20) larni (18) ga qo'yib, T₃ masalaning yechimi hosil qilamiz.

3-teorema. Agar

$$\xi_0 E_{\beta,2}(\lambda \xi_0^\beta) \frac{\int_0^1 E_{\beta,1}[\lambda(1-z)^\beta] f(z) dz}{E_{\beta,1}(\lambda)} \neq \int_0^{\xi_0} (\xi_0 - z) E_{\beta,2}[\lambda(\xi_0 - z)^\beta] f(z) dz$$

bo'lsa, u holda T₃ masala yagona yechimga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. **Urinov A.K., Azizov M.S.** Boun dary value problems for a fourth order partial differential equation with an unknown right-hand part. Lobochevskii Journal of Mathematics, volme 42, pp.632-640. 2021



2. **Азизов М. С.** Обратная задача для уравнения четвертого порядка с сингулярным коэффициентом Бюллетень Института математики 2021, Vol. 4, No4, стр.51-60.
3. **Tillabayeva G.I.** Birinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun nolokal shartli masalalar. NamDU ilmiy axborotnomasi 2020-yil 1-son 3-6 betlar.
4. **Tillabayeva G.I.** O'ng tomoni noma'lum va koeffitsiyenti uzulishga ega bo'lgan birinchi tartibli chiziqli oddiy differensial tenglama uchun Bitsadze-Samariskiy masalasi NamDU ilmiy axborotnomasi 2020-yil 2-son 20-26 betlar.
5. **Bozorova M.M.** To'rtinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun nolokal shartli teskari masalalar "Algebra va analizning dolzarb masalalari" .TerDU. 29-31 betlar.
6. **Bozorova M.M.** To'rtinchi tartibli oddiy differensial tenglama uchun nolokal shartli teskari masalalar "Ijodkor o'qituvchi" respublika ilmiy jurnali, 247-251 betlar.
7. **Bozorova M.M.** To'rtinchi tartibli integro-differensial tenglama uchun to'g'ri va teskari masala. "O'zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar" respublika ilmiy jurnali, 132-135 betlar.
8. **Bozorova M.M.** To'rtinchi tartibli integro-differensial tenglama uchun nolokal shartli teskari masalalar "Ijodkor o'qituvchi" respublika ilmiy jurnali, 8-12 betlar.
9. **Bozorova M.M., Omonova D.D** To'rtinchi tartibli integro-differensial tenglama uchun teskari masala "Mathematics, mechanics and intellectual technologies" Tashkent-2023 200-201 betlar.
10. **Omonova D.D., Bozorova M.M.** Yuklangan kasr tartibli integro-differensial tenglama uchun nolokal shartli masala "Mathematics, mechanics and intellectual technologies" Tashkent-2023 223-bet.
11. **Kilbas A.A., Srivastava H.M., Trujillo J.J.** Theory and applications of fractional differential equations (North-Holland Mathematics Studies, 204). Amsterdam: Elsevier, 2006. - 523 p.
12. **Бейтмен Г., Эрдейи А.** Высшие трансцендентные функции. Эллиптические и автоморфные функции. Функции Ламе и Матъе. Ортогональные полиномы. -Москва: Наука, 1967. -300 с.

**ОЦЕНКИ РАЗНОСТНЫХ ПСЕВДОМОМЕНТОВ В ЗОНАХ БОЛЬШИХ
УКЛОНЕНИЙ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852572>

Ахмедов Сохибжон Акбарович

Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Турсунов Бекзод Бурхон огли

Андижанский государственный университет, Андижан, Узбекистан

Абстракт. Асимптотические приближения функций распределений сумм независимых или зависимых случайных величин является классической задачей теории вероятностей и математической статистики. В данной статье методом семиинвариантов получена общая лемма для оценки абсолютных псевдомоментов, в случае когда предельным распределением является нормальной. Для того чтобы получить аналогичные оценки в предельных теоремах для сумм независимых или зависимых случайных величин достаточно получить оценку семиинвариантов типа Статулявичуса

Ключевые слова: Семиинварианты, условие Статулявичуса, неравномерная оценка, разностный псевдомомент, вероятности больших уклонений.

**ESTIMATES OF DIFFERENT PSEUDO-MOMENTS IN THE ZONES OF LARGE
DEVIATIONS.**

Abstract. Asymptotic approximations of functions of distributions of sums of independent or dependent random variables are a classical problem of probability theory and mathematical statistics. In this article, a general lemma is obtained by the method of cumulants for estimating absolute pseudo-moment, in the case when the limit distribution is normal. In order to obtain similar estimates in limit theorems for sums of independent or dependent random variables, it is sufficient to obtain an estimate of cumulants of the Statulavicius condition.

Keywords: Cumulants, the Statulavicius condition, uneven estimate, difference pseudo-moment, probabilities of large deviations.

Рассмотрим случайную величину (сл.в) $\eta = \eta_{\Delta}$, зависящую от параметра Δ , с функцией распределения $F_{\eta}(x) = P(\eta < x)$ с средним $E\eta = 0$ и дисперсией $D\eta = 1$.

Обозначим $\Gamma_k\{\eta\}$ – семиинвариант k – го порядка сл.в η , $\Phi(x) = P(N < x)$ – (0,1) нормальное распределение, $\chi_s(\eta, N) = s \int_{-\infty}^{\infty} |x|^{s-1} |F_{\eta}(x) - \Phi(x)| dx$ разностные псевдомоменты порядка $s \geq 1$.



Предположим что существуют постоянные $\gamma \geq 0, H > 0, \Delta > 0$ такие, что выполнено условие Статулявичуса:

$$|\Gamma_k\{\eta\}| \leq H(k!)^{1+\gamma}/\Delta^{k-2}, k = 3,4, \dots, l$$

В настоящей работе получены некоторые общие оценки для величин $\chi_s(\eta, N)$ при условии (S_γ) .

Оценка для $\chi_s(\eta, N)$ опирается на общие неравномерные оценки для величины $|F_\eta(x) - \Phi(x)|$, полученным использованием общую лемму о вероятностях больших уклонений [1], а также на экспоненциальные оценки распределения сл.в [2].

Лемма 1. Пусть сл.в η с $E\eta = 0$ и $D\eta = 1$ выполнено условие (S_γ) . Тогда

1) При $0 \leq x \leq 1$

$$|F_\eta(-x) - \Phi(-x)| \leq |F_\eta(x) - \Phi(x)| \leq c(\delta, \gamma)/\Delta^{1/(1+2\gamma)} \quad (1)$$

Где $c(\delta, \gamma) = \frac{2160}{\delta} \left(\frac{\sqrt{6}}{2}\right)^{1/(1+2\gamma)} \left(1 + \frac{2560}{\delta^4 e^4}\right), 0 < \delta < 1;$

2) При $1 \leq x \leq \sqrt[3]{\Delta_\gamma}$

$$|F_\eta(-x) - \Phi(-x)| \leq |F_\eta(x) - \Phi(x)| \leq \frac{c(\delta, \gamma) x^3 \exp\{-x^2/2\}}{\sqrt{2\pi} \Delta^{1/(1+2\gamma)}} \quad (2)$$

Доказательство. Используя общую лемму о вероятностях больших уклонений [1], в интервале $1 \leq x \leq \sqrt[3]{\Delta_\gamma}$ можно получить следующую оценку:

$$|F_\eta(-x) - \Phi(-x)| \leq |F_\eta(x) - \Phi(x)| \leq (1 - \Phi(x)) \left\{ |1 - \exp\{L_\gamma(x)\}| + |1 - \exp\{L_\gamma(x)\}| \cdot |f_j(x)| \cdot \frac{x+1}{\Delta_\gamma} + |f_j(x)| \cdot \frac{x+1}{\Delta_\gamma} \right\} \quad (3)$$

Здесь

$$L_\gamma(x) = \sum_{3 \leq i < q} \lambda_i x^i + \theta(x/\Delta_\gamma)^3, q = \begin{cases} \frac{1}{\gamma} + 2, & \gamma > 0 \\ \infty, & \gamma = 0, |\theta| < 1 \end{cases}$$

λ_i выражаются через семиинварианты сл.в η , причем

$$L_\gamma(\pm x) \leq \frac{x^3}{2(x+8\Delta_\gamma)}, \quad (4)$$

$$f_j(x) = \frac{60(1+10\Delta_\gamma^2 \exp\{1-x/\Delta_\gamma\}\sqrt{\Delta_\gamma})}{1-x/\Delta_\gamma}, j = 1, 2 \Delta_\gamma \text{ приведено в } (1)$$

Пуст далее $0 \leq x \leq \sqrt[3]{\Delta_\gamma}$. Тогда используя (4) легко проверить, что $L_\gamma(\pm x) \leq \frac{1}{2}$ и следовательно

$$|1 - \exp\{L_\gamma(\pm x)\}| \leq 2|L_\gamma(\pm x)| \leq \frac{x^3}{x+8\Delta_\gamma} \quad (5)$$

Обозначим

$$\delta = \inf_{\Delta} \left(1 - 1/\sqrt[3]{\Delta_\gamma^2} \right)$$

причем при достаточно больших $\Delta > 0$ можно показать, что $0 < \delta < 1$.

Далее при $0 \leq x \leq \sqrt[3]{\Delta_\gamma}$, элементарным путем получим



$$|f_j(x)| \leq \frac{60}{\delta} \left(1 + \frac{2560}{\delta^4 e^4}\right), j = 1, 2 \quad (6)$$

Пусть теперь $0 \leq x \leq 1$, то используя (5) и (6) из (3) получим (1). Если $0 \leq x \leq \sqrt[3]{\Delta\gamma}$, то имея ввиду, что

$$\Phi(-x) = 1 - \Phi(x) \leq \frac{1}{x\sqrt{2\pi}} \exp\{-x^2/2\} \quad (7)$$

(см.[3].стр.192) используя также (5) и (6) из (3) получим (2)

Лемма 1 доказана.

Лемма 2. Пусть сл.в η с $E\eta = 0$ и $D\eta = 1$ выполнено условие (S_γ) . Тогда существует постоянная $c(\delta, \gamma)$, что имеет место оценко:

$$\chi_s(\eta, N) \leq c(\delta, \gamma) / \Delta^{1/(1+2\gamma)} \quad (8)$$

Доказательство. Имеем

$$\begin{aligned} \chi_s(\eta, N) &= s \int_{|x| \leq \sqrt[3]{\Delta\gamma}} |x|^{s-1} |F_\eta(x) - \Phi(x)| dx + s \int_{|x| > \sqrt[3]{\Delta\gamma}} |x|^{s-1} |F_\eta(x) - \Phi(x)| dx \\ &\leq s \int_{|x| \leq \sqrt[3]{\Delta\gamma}} |x|^{s-1} |F_\eta(x) - \Phi(x)| dx + s \int_{|x| > \sqrt[3]{\Delta\gamma}} |x|^{s-1} P(N \geq x) dx \\ &+ s \int_{|x| > \sqrt[3]{\Delta\gamma}} |x|^{s-1} P(\eta \geq x) dx = J_1 + J_2 + J_3 \quad (9) \end{aligned}$$

Далее J_1 оценим через (1) и (2). J_2 при помощи (7), а J_3 оценкой полученной в [2]: если выполнено условие (S_γ) , то для всех $x \geq 0$

$$P(\pm\eta \geq x) \leq \exp\{-x^2/4H\}, \text{ если } 0 \leq x \leq (H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)};$$

(10)

$$P(\pm\eta \geq x) \leq \exp\left\{-\frac{1}{4}(x\Delta)^{1/(1+2\gamma)}\right\}, \text{ если } x \geq (H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)} \quad (11)$$

Оценим J_1 . Используя (1) и (2) имеем

$$\begin{aligned} J_1 &= s \int_{-1}^1 |x|^{s-1} |F_\eta(x) - \Phi(x)| dx + s \int_{1 < |x| \leq \sqrt[3]{\Delta\gamma}} |x|^{s-1} |F_\eta(x) - \Phi(x)| \\ &\leq \frac{sc(\delta, \gamma)}{\Delta^{1/(1+2\gamma)}} \left(\frac{2}{s} + \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} |x|^{s+2} \exp\{-x^2/2\} dx \right) \\ &\leq \frac{4sc(\delta, \gamma)}{\Delta^{1/(1+2\gamma)}} \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{\infty} |x|^{s+2} \exp\{-x^2/2\} dx \end{aligned}$$

Так как

$$E|N|^m = \begin{cases} \frac{m!}{2^{m/2} \left(\frac{m}{2}\right)!}, & m - \text{четное;} \\ \sqrt{\frac{2}{\pi}} 2^{(m-1)/2} \left(\frac{m-1}{2}\right)!, & m - \text{нечетное.} \end{cases} \quad (12)$$

Тогда взяв (12) $m = s + 2$ получим



$$J_1 \leq \frac{c_i(s, \gamma)}{\Delta^{1/(1+2\gamma)}}, i = 1, 2 \tag{13}$$

$$\text{Где } c_i(s, \gamma) = \begin{cases} \frac{4sc(\delta, \gamma)(s+2)!}{2^{(s+2)/2}(\frac{s+2}{2})!}, & s - \text{четное}, i = 1 \\ 4sc(\delta, \gamma) \sqrt{\frac{2}{\pi}} 2^{(s+1)/2} (\frac{s+1}{2})!, & s - \text{нечетное}, i = 1; \end{cases}$$

Оценим J_2 . Используя (7) получим

$$J_2 \leq \frac{2s}{\sqrt{2\pi}} \int_{\sqrt[3]{\Delta\gamma}}^{\infty} x^{s-2} \exp\{-x^2/2\} dx$$

Известно (см.стр.176 в [4], что

$$\int_a^{\infty} x^p \exp\{-x^2/2\} dx \sim a^{p-1} \exp\{-a^2/2\}, a \rightarrow \infty$$

(14)

Поэтому

$$\int_{\sqrt[3]{\Delta\gamma}}^{\infty} x^{s-2} \exp\{-x^2/2\} dx \sim \left(\sqrt[3]{\Delta\gamma}\right)^{s-3} \exp\left\{-\sqrt[3]{\Delta\gamma^2}/2\right\}$$

при достаточно больших $\Delta\gamma$ выражение

$$J_{2s}(\Delta\gamma) = \left(\sqrt[3]{\Delta\gamma}\right)^{3-s} \exp\left\{-\sqrt[3]{\Delta\gamma^2}/2\right\} \int_{\sqrt[3]{\Delta\gamma}}^{\infty} x^{s-2} \exp\{-x^2/2\} dx$$

ограничена.

Обозначим

$$C_{2s} = \sup_{\Delta\gamma \geq 1} J_{2s}(\Delta\gamma)$$

Тогда

$$J_2 \leq \frac{2sC_{2s}}{\sqrt{2\pi}\Delta\gamma} \left(\sqrt[3]{\Delta\gamma}\right)^s \exp\left\{-\sqrt[3]{\Delta\gamma^2}/2\right\}$$

(15)

Функция $M_{2s}(\Delta\gamma) = \left(\sqrt[3]{\Delta\gamma}\right)^s \exp\left\{-\sqrt[3]{\Delta\gamma^2}/2\right\}$ достигает максимума при $\Delta\gamma \geq 1$.

Обозначим

$$M_{2s} = \sup_{\Delta\gamma \geq 1} M_{2s}(\Delta\gamma) \tag{16}$$

Учитывая (16) из (15) имеем

$$J_2 \leq \frac{2sC_{2s}M_{2s}}{\sqrt{2\pi}c\gamma} \frac{1}{\Delta^{1/(1+2\gamma)}} \tag{17}$$

Оценим теперь J_3 . Используем (10) и (11).

Пусть

$$\sqrt[3]{\Delta\gamma} \leq (H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)^{1/(1+2\gamma)}}$$

Тогда



$$\begin{aligned}
 J_3 &\leq 2s \int_{\sqrt[3]{\Delta_\gamma}}^{(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)}} x^{s-1} P(\eta \geq x) dx + 2s \int_{(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)}}^{\infty} x^{s-1} P(\eta \geq x) dx \\
 &\leq 2s \int_{\sqrt[3]{\Delta_\gamma}}^{\infty} x^{s-1} \exp\left\{-x^2/4H\right\} dx \\
 &\quad + 2s \int_{(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)}}^{\infty} x^{s-1} \exp\left\{-\frac{1}{4}(x\Delta)^{1/(1+2\gamma)}\right\} dx = J_3' + J_3''
 \end{aligned}$$

Для оценки J_3' еще раз используем (14). Имеем

$$\begin{aligned}
 &\int_{\sqrt[3]{\Delta_\gamma}}^{\infty} x^{s-1} \exp\left\{-x^2/4H\right\} dx \\
 &= (\sqrt{2H})^s \int_{\sqrt[3]{\Delta_\gamma}}^{\infty} \left(\frac{x}{\sqrt{2H}}\right)^{s-1} \exp\left\{-\frac{\left(\frac{x}{\sqrt{2H}}\right)^2}{2}\right\} d\left(\frac{x}{\sqrt{2H}}\right) \sim (\sqrt{2H})^s \left(\sqrt[3]{\Delta_\gamma}\right)^{s-2} \exp\left\{-\frac{\sqrt[3]{\Delta_\gamma^2}}{2}\right\}
 \end{aligned}$$

Обозначим

$$C'_{3s} = \sup_{\Delta_\gamma \geq 1} J'_{3s}(\Delta_\gamma), M'_{3s} = \sup_{\Delta_\gamma \geq 1} M'_{3s}(\Delta_\gamma)$$

где

$$\begin{aligned}
 J'_{3s}(\Delta_\gamma) &= \left(\sqrt[3]{\Delta_\gamma}\right)^{2-s} \exp\left\{-\sqrt[3]{\Delta_\gamma^2}/2\right\} \int_{\sqrt[3]{\Delta_\gamma}}^{\infty} \left(\frac{x}{\sqrt{2H}}\right)^{s-1} \exp\left\{-\frac{\left(\frac{x}{\sqrt{2H}}\right)^2}{2}\right\} d\left(\frac{x}{\sqrt{2H}}\right) \\
 M'_{3s}(\Delta_\gamma) &= \left(\sqrt[3]{\Delta_\gamma}\right)^{s+1} \exp\left\{-\sqrt[3]{\Delta_\gamma^2}/2\right\}
 \end{aligned}$$

Тогда

$$J_3' \leq 2s(\sqrt{2H})^s C'_{3s}(\Delta_\gamma) M'_{3s} / c_\gamma \Delta^{1/(1+2\gamma)} \tag{18}$$

Для оценки J_3'' используем следующее асимптотическое соотношение (см.[5], стр.35)

$$\int_a^{\infty} x^{p-1} \exp\{-\beta x^\mu\} dx \sim \frac{1}{p} a^p \exp\{-\beta a^\mu\}, a \rightarrow \infty \tag{19}$$

Взяв $p = s, \beta = \frac{1}{4}, a = (H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)}, \mu = \frac{1}{1+2\gamma}$ из (19) имеем

$$J_3'' \sim \frac{2s}{\Delta^s} \frac{1}{s} (H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)} \exp\left\{-\frac{1}{4}(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)^2}\right\}$$

Обозначим

$$C_{3s}'' = \sup_{\Delta \geq 1} J_{3s}''(\Delta), M_{3s}'' = \sup_{\Delta \geq 1} M_{3s}''(\Delta),$$



где

$$J_3''(\Delta) = \frac{s \exp\left\{\frac{1}{4}(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)^2}\right\}}{(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)}} \int_{(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)}}^{\infty} (x\Delta)^{s-1} \exp\left\{-\frac{1}{4}(x\Delta)^{1/(1+2\gamma)}\right\} d(x\Delta),$$

$$M_3''(\Delta) = \Delta^{(1-2s\gamma)/(1+2\gamma)} \exp\left\{-\frac{1}{4}(H^{1+\gamma}\Delta)^{1/(1+2\gamma)^2}\right\}$$

Тогда

$$J_3'' \leq 2sH^{\frac{s(1+\gamma)}{1+2\gamma}} C_{3s}'' M_{3s}'' / \Delta^{1/(1+2\gamma)}. \quad (20)$$

Итоге из (18) и (20) получим

$$J_3 \leq 2s \left(\frac{(\sqrt{2H})^s}{c_\gamma} C_{3s}' M_{3s}' + H^{\frac{s(1+\gamma)}{1+2\gamma}} C_{3s}'' M_{3s}'' \right) \frac{1}{\Delta^{1/(1+2\gamma)}} \quad (21)$$

Окончательно используя (13), (17) и (21) из (9) получим (8):

$$\chi_s(\eta, N) \leq \left((c_i(s, \gamma) + \frac{2sC_{2s}M_{2s}}{\sqrt{2\pi}c_\gamma} + 2s \left(\frac{(\sqrt{2H})^s}{c_\gamma} C_{3s}' M_{3s}' + H^{\frac{s(1+\gamma)}{1+2\gamma}} C_{3s}'' M_{3s}'' \right) \right) \frac{1}{\Delta^{1/(1+2\gamma)}} = c(s, \gamma) / \Delta^{1/(1+2\gamma)}$$

Лемма 2 доказана.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Рудзкис Р., Саулис Л., Статулявичус В. Общая лемма о вероятностях больших уклонений. // Литовск. матем. сб. – 1978. – Т. XVIII, №2. – С. 99 – 116.
2. Бенткус Р., Рудзкис Р. Об экспоненциальных оценках распределения случайных величин. // Литовск. матем. сб. – 1980. – Т. XX, №1. – С. 15 – 30.
3. Феллер В. Введение и теорию вероятностей и ее приложения. Т. I. – М., Мир. 1984. 528 с.
4. Петров В.В. Предельные теоремы для сумм независимых случайных величин. – М.: Наука, 1987. – 320 с.
5. Федорюк М.В. Асимптотика: Интегралы и ряды. – М.: Наука, 1987. – 544 с



БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МАГИСТРЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШ БЎЙИЧА ДИНАМИК МОДЕЛНИ САМАРАЛИ ТАДБИҚ ЭТИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ- ШАРОИТЛАРИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852592>

Йўлдошев Рустам Элмуродович

таянч докторант(ҚарДУ)

Аннотация. Мазкур мақолада бошланғич таълим магистрларини тайёрлаш бўйича динамик моделни самарали тадқиқ этишнинг педагогик шарт-шароитларига доир тажрибалар таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: Коммуникатив, компонент, таълим, магистр, касб, индивидуал, тадқиқот, динамик, модел.

Аннотация. В этой статье анализируются методы эффективного введения начального образования и педагогических условий для эффективной реализации динамической модели.

Ключевые слова: Коммуникативный, компонент, образование, магистр, профессия, личность, исследование, динамика, модель.

Annotation. This article analyzes the methods of effective introduction of primary education and pedagogical conditions for the effective implementation of the dynamic model.

Keywords: Communicative, component, education, master, profession, personality, research, dynamics, model.

Мақолада бошланғич таълим магистрларини тайёрлаш тизимида динамик тузилмавий-функционал моделни қўллаш тажрибаси мазкур моделни муваффақиятли жорий этишнинг педагогик шарт-шароитларини аниқлаш ва уларни илмий асослаб бериш, шунингдек, унинг самарадорлигини ошириш ва амалдаги таълим жараёнларига мослаштириш ҳақидаги назарий маълумотлар тушунтирилган.

Зарур педагогик шарт-шароитлар орасида муҳим, ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлганларидан бири магистратура талабаларида тадқиқотчилик компетентлигини шакллантиришга қаратилган коммуникатив-ижодий муҳитни ривожлантиришдан иборатдир.

Маъжозий қилиб айтганда, мазкур муҳит бошқа муҳитларга нисбатан умум шароитлар интиқоси сифатида қаралади, негаки, айнан коммуникатив-ижодий муҳит магистрларни тайёрлаш билан боғлиқ таълим барча (инсонпарварликка йўналтирилган, креатив, тадқиқотчилик, инновацион ва шу каби) жараёнларининг парадигмасини белгилаб беради.



Фаолияти ёндашув доирасида муҳит таҳсил олувчининг хатти-ҳаракатларини унинг фаолият объекти сифатида қараш фактори сифатида намоён бўлади.

Коммуникатив-ижодий муҳит яратиш муаммоси Л.С. Выготский тадқиқотларида назарий жиҳатдан ишлаб чиқилган. У, муҳитнинг ўрни ва аҳамияти таълим олувчи айна муҳитда “ким сифатида” иштирок этиши ҳамда у амалга оширган маълум муносабатларни таҳлил этиш орқали аниқланади, деб ҳисоблайди. Муҳит ичидаги ўзаро муносабатлар ушбу вазиятда тараққиётнинг етакчи кучи сифатида қаралади. Л.С. Выготский таълим олувчининг шахсий муносабатлари ҳамда муҳитнинг ўзига хосликларини ифодаловчи қандайдир бир “бирлик” (ўлчов бирлиги назарда тутилмоқда – муаллиф) ахтариб топишга ҳаракат қилади. Бундай бирлик сифатида у биоижтимоий йўналтирилганлик хусусиятига эга бўлган ва шахс билан муҳит ўртасида пайдо бўладиган “ҳамдардлик” (ёки ташвишдошлик) ҳолатини назарда тутди. Бироқ Л.С. Выготскийнинг бу фикри ўз вақтида илмий жамоатчилик томонидан қабул қилинмади ва ҳатто муайян даражада танқидларга ҳам учради: натижада эса мазкур йўналишларга бағишланган илмий тадқиқотлар ўз-ўзидан тўхтаб қолди [1].

Т.В. Менг мазкур тушунчани турли коммуникатив механизмлар билан умумий яхлитликлар орқали боғланган ва шахснинг қадрият сифатида ривожлантиришига йўналтирилган “кўпўлчамли ижтимоий-педагогик ҳодиса” ҳамда ижтимоий-маданий қадриятларни тарғиб этиш ва ўзлаштиришга қаратилган муносабатлар ва хатти-ҳаракатларнинг фаоллашиб боришини таъминловчи ҳодиса сифатида талқин этади.

“Таълим муҳити” педагогик атамалар луғатида янги ташкилий мажмуалар – анъанавий ва инновацион моделлар тизими, таълим стандартларининг мураккаб тизимлари, ўқув дастурлари ва режаларининг мураккаб интеграциялашган мундарижаси, юксак технологияли таълим воситалари ва таълим материаллари, шунингдек, энг асосийси, таълим субъектлари ўртасидаги диалогли мулоқотларнинг янги кўринишлари ўртасидаги ўзаро таъсирлашувлар сифатида тавсиф этилади [2].

Юқоридагиларни умумлаштириб, биз мазкур тадқиқотларда “таълим муҳити” деганда турли коммуникатив механизмлар билан яхлит боғлиқлик ҳосил қилган ва шахснинг қадриятларга йўналтирилган ривожланишига таъсир ўтказувчи ҳамда ижтимоий-маданий қадриятларни ўзлаштириш ва тарғиб этишга қаратилган таълим стандартларининг мураккаб тизимлари, ўқув дастури ва ўқув режаларининг мураккаб тарзда интеграциялашуви ҳамда юксак технологияли таълим воситалари ва таълим материалларининг мужассамлашган ҳолдаги кўринишини тушунамиз.

Таълим муҳитини тадқиқ этиш учун В.А. Ясвин векторли моделлаштириш методикасидан фойдаланади. Мазкур методика координаталар системасини



қуриш асосида амалга оширилади: координатилар системаси икки ўқдан иборат бўлиб, ундаги биринчиси – “эркинлик-қарамлик”, иккинчиси – “пассивлик-фаоллик” ўқларидир. Мазкур ўқларнинг комбинацияланишларига мувофиқ равишда таълим муҳитининг тўрт хил тури кўрсатилади:

- догматик муҳит– таълим олувчида пассивлик ва қарамликнинг ривожланишига олиб келади;
- осойишта муҳит – ривожланишнинг эркинлигини таъминлайди, лекин таълим олишнинг пассивлашувини келтириб чиқаради;
- ривожлантирувчи муҳит – фаолликни оширади, лекин таълим олувчини қарамликда қолдиради;
- ижодий муҳит – фаол таълим олувчининг эркин ривожланишини таъминлайди .

Умумий тарзда таъкидлаш мумкинки, замонавий таълим тизимида ривожлантирувчи муҳитнинг устиворлиги сезилиб туради: яъни таълим олувчининг фаоллиги рағбатлантирилган ҳолда унинг фаоллиги етарлича “чеклов”да туради. “Чеклов” воситаларига, шу жумладан, таълим стандартлари ҳам киради. Бунга сабаб таълим олувчининг таълим стандартларига қарамлиги ўқитиши мақсадларига эришишнинг технологик жиҳатдан ягона самарали воситаси сифатида қаралади. Бу ҳолни ижобий қабул қилган ҳолда айтиш мумкинки, бундай муҳит таълим олувчида ижодий қобилиятларнинг ривожланишига тўсқинлик қилади. Магистрларни тайёрлашда эса асосий урғу педагогик жараёнлар давомида коммуникатив муносабатлар ҳамда ўзаро таъсирлашувлар натижасида таҳсил олувчиларнинг шахсий ва касбий сифатларини ривожлантиришга қаратилган ижодий муҳитнинг устиворлиги муҳим саналади[8].

Шу йўсинда биз олий таълимнинг иккинчи даражали мутахассисларини тайёрлашда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлган ҳодиса – тадқиқотчилик компетентлигини ривожлантиришга йўналтирилган коммуникатив-ижодий муҳит ҳосил бўлишини кўришимиз мумкин.

Коммуникация – кенгмаънода таҳсил олувчиларнинг ўзаро муносаатлари, фикр, маълумот, ахборот, илғор ғоя алмашинувларидир. Бу алмашинувлар таълим нуқтаи назаридан муҳим бўлиб, умумий алоқаларнинг самарали кўринишидир. А.А. Брудный ўз тадқиқотларида коммуникациянинг икки кўринишини қараб чиқади. Бу кўринишлар:

-биринчиси аксиаль коммуникация бўлиб, аниқ манзилли хабарлар жўнатиш ва қабул қилиш орқали амалга оширилади;

-ретиалкоммуникацияда қабул қилувчилар сони узатиш ҳудудидаги таҳсил олувчилар сони ва уларнинг хабар мазмунига эътибор қаратганлик даражаларига боғлиқ бўлади .

Ўқитишнинг гуруҳли ва индивидуал шакллари уйғунлаштиришни назарда тутувчи коммуникатив-ижодий таълим муҳити шароитида динамик



моделни жорий этишдаретиал таълим майдонидаги аксикаль коммуникация устиворлиги намоён бўлади: бу ҳол магистрлар тайёрлаш жараёнида шахсга йўналтирилганлик ёндашуви амалга оширилганлиги билан боғлиқдир.

Таълим муҳитини лойиҳалаштиришда коммуникациянинг ташкилий жиҳатларига эътибор қаратиш ҳам муҳим саналади. Педагогик жараён вертикал ва горизонтал коммуникацияларнинг ўзаро уйғунлигини назарда тутаяди: коммуникациянинг мазкур турлари педагог, касбий соҳа вакили ва магистратура талабаларининг ўзаро алоқаларида, шунингдек, уларнинг ҳамкорликларида ва таҳсил олувчиларнинг бир-бирлари билан ўзаро таъсирлашувларида намоён бўлади. Бу вазиятларда коммуникативликни таъминловчи, яъни ўзаро уйғунликдаги алоқаларни ўртанувчилик роли магистрлар тайёрлаш жараёнининг барча субъектларига – ўқитувчилар, тегишли соҳа ёки тармоқ ходимлари ва магистратура талабалари – ҳаммаларига муайян даражада тегишли бўлиши мумкин. Бунинг натижасида таълим жараёнининг “субъект – субъект” кўринишидаги хусусияти таъминланган бўлади. Бундай коммуникацияларда қайтариқли алоқаларнинг аҳамиятига муҳим ўрин ажратилади[7].

А.А. Брудный коммуникациялар воситасида амалга ошириладиган учта функцияга тўхталиб ўтади.

1. Фаоллаштириш функцияси – онгли равишда белгиланган йўналиш бўйича ҳаракатланишга рағбат уйғотувчи ва йўналтирувчи функция.

2. Тақиқловчи (интердиктив) функция – маън этувчи функция.

3. Мувозанатдан чиқарувчи функция (таҳдидлар, ҳақоратлар ва шу кабилар).

Фаоллаштирувчи ва тақиқловчи функциялар жуда мустақам тарзда ўзаро боғланиб кетади, бироқ олий таълимнинг иккинчи (яъни магистратура) босқичида тақиқловчи функциянинг таъсирини мумкин қадар камайтиришга эришиш мақсадга мувофиқдир. Бунга сабаб, коммуникациянинг мазкур функцияси магистратура талабаларида мустақиллик ривожланишига монелик қилади ва таълим жараёнида эркинлик даражасининг сезиларли пасайишига олиб келади. Юқорида қайд этилганидек, таълим жараёнидаги эркинлик ижодий муҳит яратишнинг энг муҳим омили ва Бошланғич таълим магистрларини тайёрлаш тизимининг динамик моделини самарали жорий этиш учун зарур бўлган қулай педагогик шароит яратиш гаровидир.

Ижод муаммоси мамлакатимиз ва хориж фанларида етарлича фаоллик билан ўрганилган ва ўрганилмоқда. Умумий тарзда ижод янги, айна вақтгача номаълум бўлган маҳсулот олишга қаратилган фаолият сифатида талқин этилади. Ижоднинг кўринишларидан бири илмий ижод бўлиб, у илмий билимларни такомиллаштиришга қаратилган алоҳида фаолият тури ҳисобланади.



А. Маслоу фикрига кўра, креативлик (ижодий қобилиятга эгалик) тушунчаси ва соғлом, ўз-ўзини фаоллаштира оладиган шахс тушунчалари ўзаро кўп жиҳатдан яқин ва ўхшаш жиҳатларга эгадир. Улар орқали тавсифланадиган фаолият турлари бир-бири билан шунчалар кўп муштарак жиҳатларга эгаки, ҳатто кейинги тадқиқотларда иккови битта ҳодиса сифатида талқин этилса ҳам ажаб эмас. А.Маслоу, шунингдек, янги даврнинг ўзига хос жиҳатларини таъкидлаб, бу жиҳатларни билиш маромларининг тезлашиб кетганида ва бунга мувофиқ равишда фактлар, билимлар, методикалар, кашфиётлар ва технологияларни ҳам йиғиш маромларининг тезлашиб кетганини ёзади. Бундай шароитларда одамнинг янги тури фаолият кўрсатиши лозим бўлади (мутахассис бундай одамни Гераклийлар деб атайдилар), деб ҳисоблайди. Унинг фикрига кўра, бу турдаги одам ўзини ҳар қандай суръатдаги ўзгаришлар шароитида яхши ҳис қилади, у ўзгаришларни ёқтиради, ностандарт муаммоларни ҳал этишга қодир, шунингдек, импровизацияни амалга оширишнинг уддасидан чиқади. Бундай одамлар учун анъанавий усуллар ҳал этиш имкони бўлмаган муаммоли вазиятларнинг мавжудлиги ижодга иштиёқ уйғотади, кашфиётлар қилиш ва ностандарт қарорлар чиқариш учун туртки бўлади.

Ижодий фаолият учун замин яратадиган шарт-шароитлар сирасига инсондаги мослашувчанлик, фикрнинг тезкор ва ўзига хослиги, танқидий таҳлилга мойиллик, агглютанация (турли мазмундаги манзараларни умулаштирган ҳолда тасаввурда яхлит манзара яратиш) ва схемалаштириш қобилияти, мақсадли идрок этиш каби сифатлар киради.

Ижодий потенциал (салоҳият) ҳар бир инсонда маълум даражада мавжуд деб ҳисоблаш қабул қилинган ва аслида ҳам шундай. Таълим эса ўз мақсад ва моҳиятига кўра, унинг намоён бўлиши ва ривожланиши учун хизмат қилмоғи лозим. Бундан келиб чиқадики, таълим муҳитининг ҳар битта компонентини лойиҳалаштиришда таълим жараёни субъектларининг барчасида ижодий қобилиятнинг рўёбга чиқиши ва давомли ривожланишига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Бошланғич таълим магистрининг касбий фаолияти учун энг муҳим омил ҳисобланадиган тадқиқотчилик компетенциясининг негизини ҳам, аслида, турли хил кўринишларда намоён бўлгучи ижодий қобилият ётади. Айнан шунинг учун ҳам ОТМда талабаларнинг билиш фаоллигини оширишга, ташаббускорликларини рағбатлантиришга ва мустақилликларини барқарор қилишга қаратилган шароит яратишни назарда тутувчи коммуникатив-ижодий таълим муҳитини шакллантириш ва ривожлантириш энг муҳим аҳамият касб этади. Бу билан магистрантларнинг ўз-ўзини фаоллаштириш ва келгуси касбий фаолиятларига ўзларини тўлиқ бағишлашлари учун замин ҳозирланган бўлади.



ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Дорожкин Е. М. Дидактическая модель формирования профессиональных компетенций [Текст] / Е. М. Дорожкин, С. Н. Копылов // Педагогическое образование и наука. – 2011. – № 9. – С. 12–15.
2. Зеер.Э.Ф Компетентностный подход как фактор реализации инновационного образования [Текст] / Э. Ф. Зеер, Э. Э. Сыманюк // Образование и наука. – 2011. – № 8. – С. 3–14.
3. Кубрушко, П. Ф. Общие вопросы создания инновационной образовательной среды в инженерном вузе на основе синергетического подхода [Текст] // Вестник Федерального государственного образовательного учреждения высшего профессионального образования Московский государственный агроинженерный университет им. В.П. Горячкина, 2009. – № 5. – С. 48–49.
4. Фетисова, О.Ю. Уровни развития личностного опыта исследовательской деятельности магистра педагогического образования [Текст] / О. Ю. Фетисова // Мир науки, культуры, образования. – 2014. – № 3(46). – С. 121–123.
5. Шишов, С. Е. Оценка качества профессиональной подготовки студентов на основе интегративного подхода [Текст] / С. Е. Шишов, В. А. Кальней // Вестник РМАТ. – 2013. – № 1(7). – С. 51–55.
6. Yo'ldoshev R.E. Description of the principles and approaches used in the development of a dynamic model. UzMU xabarlari 2022 1/4 89-91P
7. Yo'ldoshev R.E. Structural components of the dynamic model of the system of training primary education masters. Eurasian scientific herald vol 12/ 21-23
8. Yo'ldashev R.E Principles of Educational Technologies and Modular Education in the Introduction of a Dynamic Model of the System of Training Primary Education Masters. Eurasian research bulletin vol 12/ 28-32



HARBIY- VATANPARVARLIK TARBIYASINING TAMOYILLARI, SHAKL VA USLUBLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852599>

Alinazarov Nodirxon Nosirxonzoda

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy asoslari, uning birlamchi mazmunini tashkil etuvchi tamoyillarida yoritib berilgan. Bu tamoyillarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy qoidalari, talablar, Yoshlarni Vatan himoyasiga axloqiy-siyosiy, harbiy-texnik va jismoniy jihatdan tayyorlashning amaliy faoliyatining mazmuni, shakl va uslublari o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: harbiy vatnparvarlik, tarbiya, harbiy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, tamoillar, harbiy faoliyat, vatanparvarlik tuyg'usi, uslublari, shylik.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari quyidagilardir:
harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy asoslanganligi;
harbiy- vatanparvarlik tarbiyasiga tarixiy yondoshish;
harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasining amaliyot bilan uzviy bog'liqligi;
vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaning birligi tamoyili;
jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tamoyili;
har xil yoshlar guruhlariga muvofiq yondoshish tamoyili;
tarbiyaning shaxs xususiyatlariga muvofiqligi tamoyili;
harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining haqiqiy xizmat sharoitlariga muvofiqligi tamoyili.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy asoslanganligi tamoyili, uning uslubiy va mafkuraviy asoslari ilmiy jihatdan asoslanganligini harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonidagi har qanday o'zgarishlar, faktlar, holatlar tahlil etilib, har tomonlama ochib berilishini nazarda tutadi.

Yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi milliy mafkuraga asoslanib, jangovar hujumkor xususiyatlarga ega bo'lishi, Yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash borasida uchrayotgan barcha kamchiliklarni qat'iy ochib tashlashi va ularni tuzatish tadbirlarini ishlab chiqishi kerak.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga tarixiy yondoshish tamoyili, avvalo, bu tarbiya mazmuni, uning shakl va uslublari kechayotgan tarixiy vaziyatga moslashishi kerak, degan mazmunni ifoda etadi. Bu harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini o'zbek xalqining o'tmishdagi jangovar va mehnat an'analariga va hozirgi davrdagi mustaqil suveren, iqtisodiyot jihatdan rivojlangan, xalqaro miqyosda o'z o'rniga ega bo'lgan, O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratayotgan xalqimizning qahramonona mehnatlariga tayanib, ular asosida olib borilishini nazarda tutadi.



Amur Temur, M.Bobur kabi dono hukmdorlar hokimiyatni boshqargan zamonlar o'zbek davlatchiligining, sivilizatsiyasining eng gullab yashnagan va eng yuqori darajaga ko'tarilgan davrlari bo'lgan. Bunday buyuk kishilar hukmronlik qilgan yerlarda hunarmandchilik, ilm-fan va san'at gullab yashnagan. Xuddi shu davrlarda xalqimizning harbiy san'ati ham o'zining eng yuksak darajasiga yetgan. Biz A.Temur, Bobur kabi buyuk sarkardalarimizning mustaqil, qudratli davlat tuzilishi uchun olib borgan qahramonona kurashlarini bilamiz va ular bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Xulosa shuki, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida, Yoshlar o'z Vatani va xalqining o'tmishi naqadar buyuk bo'lganligini yaxshi bilib va tushunib olishlari kerak, biz kelajagi buyuk- O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, o'lkamizning ana shu buyuk o'tmishi bizga katta ishonch, intilish, qobiliyat va kuch-quvvat baxsh etadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasining amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili, tarbiya jarayonida o'zining muhim o'rniga egadir.

Bu tamoyil harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini - O'zbekiston xalqi har bir tarixiy vaziyatda yechayotgan, amalga oshirayotgan vazifalariga yondosttirishni nazarda tutadi. Yoshlarga xalqimiz, jamiyatimiz taraqqiyotini yuksaltirish borasida olib borayotgan ishlar, bo'layotgan ulkan o'zgarishlar natijalari va qurilish jarayonida uchrayotgan kamchiliklar haqida to'la ma'lumot berish, ularni xalqimiz amalga oshirayotgan tarixiy, olamshumul mehnat jarayoniga jalb qilishda juda muhimdir.

Vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaning birligi tamoyili -bu harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim tamoyillaridan biridir. Vatanparvarlik tarbiyasi - bu Yoshlarni, xalqimizning qahramonan o'tmishini, ulug' ajdodlarimiz va xalqimizning buyuk sarkardalari, jasur o'g'lonlari qahramonliklari va ular hayotiga tayanib, ularda Vatanga cheksiz muhabbat, Ona yurt dushmanlariga nafrat ruhida tarbiyalashni, o'z Prezidenti va xalqiga hamisha sadoqatli bo'lib qolish kabi xususiyatlarni shakllantirish demakdir.

Baynalmilal tarbiya bu o'zga xalqlar va ularning tili va madaniyatini hurmat qilish, qo'shni davlatlar xalqlari, ularning yoshlari bilan o'zaro do'stona aloqada bo'lish va hamjihatlikda, tinch-totuvlikda yashash, umumiy maqsadlar sari birga kurashish kabi xislatlarga o'rgatish va yo'naltirish degan mazmunni anglatadi.

Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash tamoyili bu harbiy ish, harbiy xizmat va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi munosabatlar jamoaviy xususiyatga ega ekanligini nazarda tutadi. Chunki, hozirgi davrda murakkab qurol-yarog'lar, jangovar texnikalar, harbiy jamoalar -ekipajlar, bo'limlar tomonidan boshqariladi. Bu vaziyat o'z-o'zidan bu jamoada o'zaro hamkorlik, bir-birlarini tushunish, bir-birlariga yordam berish kabi munosabatlarni talab etadi. Bunday munosabatlarning bo'lishi, harbiy jamoaning har qanday vaziyatda ham aniq va tezkor ravishda harakat qilishlariga imkon yaratadi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining har xil yoshlar guruhlariga muvofiq yondoshish tamoyili, avvalo, bu yoshlar guruhlari bilan, ularning qiziqishi va



intilishlarini, hayotda egallagan mavqelari va ularning ezgu-niyat, maqsadlarini inobatga olib, tarbiya ishlarini olib borishni taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, yoshlardagi ulg'ayishning har bir davrida ular uchun qiziqish uyg'otuvchi va ularning harakatini, intilishini ma'lum bir yo'nalishlarga yo'naltiruvchi omillar mavjud bo'ladi.

Harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni mana shu omillarni xisobga olib, o'z ishlarini amalga oshirgan holdagina, ko'zlangan natijalariga erishishi mumkin.

Tarbiyaning shaxs xususiyatlariga muvofiqligi tamoyili, yana bir muhim tamoyillardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu tamoyil Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari va boshqa o'qituvchilar tomonidan har bir o'quvchining shaxsiy sifatlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga tartibli yondoshishni nazarda tutadi. Bu yerda o'quvchilarning qobiliyatlarini, qiziqish va intilishlarini, ularning ijobiy va salbiy odatlarini o'rganish va ular asosida tarbiya ishlarini olib borish muhim ahamiyatga egadir.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining yana bir muhim tamoyillaridan biri, bu- harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini haqiqiy harbiy xizmat sharoitlariga muvofiqligi tamoyilidir. Bu tamoyil Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbaridan, harbiy ish va harbiy xizmat asoslaridagi yangiliklardan o'z vaqtida xabardor bo'lishni, yangi jangovar texnika va qurollarni bilishni, Qurolli Kuchlar tuzilishidagi o'zgarishlar va qo'shinlardagi ta'lim va tarbiya jarayonidagi ilg'or shakl va uslublar asosida ish yuritishni talab etadi. Bo'lg'usi Vatan himoyachilarini harbiy xizmat davrida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga o'rgatish katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida keltirib o'tilgan harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy tamoyillari, bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, ular doimo bir-birlarini to'ldirib turadilar. Shuning uchun ham harbiy- vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini ana shu omillarni hisobga olgan holda rejalashtirish va tashkillash maqsadga muvofiqdir.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublari.

O'quvchilarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ishlarida tarbiya, ommaviy tashviqot ishlarining keng shakl va uslublari qo'llaniladi.

Yodda tuting:

Tarbiyaviy ishlarining shakllari deganda, u yoki bu tarbiyaviy maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'quvchilarning jamoaviy va yakka tartibdagi faoliyatlarini tashkillash uslublari tushuniladi.

Bunday shakllarga quyidagilar kiradi:

- ma'ruzalar;
- dokladlar;
- suhbatlar;
- hikoyalar;
- tematik kechalar;
- yig'ilishlar;
- majlislar;



sayohat va ekskursiyalar uyushtirish;
jasorat darslari;
harbiy- sport bayramlari;
«Shunqorlar» va «Temurbeklar» harbiy-sport o'yinlari.
Yodda tuting:

Tarbiyaning uslubi deyilganda, o'quvchilarda aniq bir tarbiyaviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik ta'sirning usul va uslublarining yig'indisi tushuniladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida tarbiyaning umumiy uslublari keng qo'llaniladi. O'quvchilarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida o'rnak, ishontirish, mashq, rag'batlantirish, taqdirlash kabi uslublardan foydalaniladi.

Tarbiya uslublari o'z xususiyatlari bo'yicha o'rgatish, rivojlantirish, shuningdek, tarbiyalash vazifalarini ham bajaradi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari dastur bo'yicha mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan uslublarni tanlaydi, bu uslublar ko'zlangan tarbiya va o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlashi lozim.

Quyida biz harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining asosiy uslublarni ko'rib chiqamiz:

Ishontirish uslubi -o'quvchilarda keng dunyoqarashini, vatanparvarlik tuyg'ularini, asosiy sifatlarini shakllantiruvchi va ularni rivojlantiruvchi asosiy uslubdir.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari bu uslub yordamida o'quvchilarning ongi, tuyg'ulari va irodalariga bevosita ta'sir etib, ularni aniq maqsadlar sari yo'naltiradi.

O'rnak uslubi asosida, avvalo insonlarning ijobiy obrazlariga taqlid qilish, ularga ergashish kabi ongli intilishlari yotadi. O'quvchilarga ajdodlarimizning qahramonona o'tmishlari, ularning jasurliklari va bugungi kundagi Qurolli Kuchlarimiz safidagi fidoyi ofitser va askarlarning jasoratlari haqidagi hikoyalar chuqur ta'sir etadi. Ular bu qahramonlar hayotidan faxrlanadilar, ulardan o'rnak olishga intiladilar, ularning hayot yo'llarini o'rganib, ularga o'xshashga harakat qiladilar.

O'quvchilarning harakatlari va yurish turishlarini faollashtirish uchun rag'batlantirish uslublari qo'llaniladi. Bularga quyidagilar kiradi:

rag'batlantirish uslubi;

Rag'batlantirish uslubi o'quvchilardagi ijobiy qiziqish va intilishlarni, ularda o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'ularini rivojlantirish va erishilgan natijalariga ma'suliyat hissi, yangi muvaffaqiyatlarga intilishlar kabi xislatlarni shakllantirish uchun qo'llaniladi. Rag'batlantirish shakllari maqtov, minnatdorchilik, mukofot, faxriy taxtachaga o'quvchining suratini joylashtirish va boshqalar bo'lishi mumkin.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining shakl va uslublarini, ulardan foydalanish tartib qoidalarini chuqur bilish, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbariga harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va ommaviy-mudofaa ishlarini puxta rejalashtirish va tashkillashga imkon yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008
y
2. Абдулла Авлоний .“Туркий гулистон ёхуд ахлоқ ”,Тошкент ,”Ўзбекистон
“,1992 ,12-бет
3. А.Мунавваров. Педагогика. Т., “Ўқитувчи”, 1996 й, 187 б
4. Абдулла Авлоний. Тошкент ,”Ўзбекистон “,1992 ,18-бет й
5. R.Mavlonova, O.Turayeva .Pedagogika. T., “O`qituvchi”, 2006 y
6. Абдулла Авлоний .“Туркий гулистон ёхуд ахлоқ ”,Тошкент ,”Ўзбекистон
“,1992 ,12-бет.



ABDULLA QODIRIYNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852601>

Karabayeva Soxiba

Guliston davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi

kafedrasi magistiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarida so'zlarni qo'llash mahorati masalasiga bag'ishlanadi. Adibning hajviy asarlarida qo'llangan so'z va jumlar maqolaning illustrativ material sifatida xizmat qiladi.

Tayanch so'z va iboralar. Asar, feleton, hajviya, maqol, matal, aforizm, tahlil, tasnif, leksema va b.

Biz ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarida so'zlarni qo'llash mahorati haqida to'xtalamiz. Qodiriyning ijod namunalari ko'p o'rganilgan. Asarni qayta mutoala qilish jarayonida biz adibning ochilmagan qirralariga duch kelaveramiz. Shunday ekan Abdulla Qodiriy ijodi qancha chuqur tadqiq etilsa, shuncha yangi topilmalarga duch kelveramiz.

Til adabiyotning ifoda quroli sifatida ijodkorning maqsadini ifodalab beradi. Lisoniy birliklar fikrni bayon qilish uchun katta imkoniyat hisoblanadi, shuning uchun har bir ijodkor undan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Abdulla Qodiriy ham tildan foydalanishda o'ziga xos uslubga ega ijodkordir. Uning romanlari tili bilan hajviy ruhda yozilgan asarlari tili o'rtasida katta tafovut bor. Insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishida adabiyotning roli katta, bu esa til orqali amalga oshadi. Ijodkorlarning tildan foydalanish mahorati biri ikkinchisiga o'xshamaydi, shu ma'noda, Qodiriy ijodiy merosini o'rganish barchani birdek qiziqtiradi, bizningcha. Alohida ta'kidlash kerakki, Abdulla Qodiriy yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan asarlar bu – uning hajviyalari, aniqrog'i, "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" va "Toshpo'lat tajang nima deydi?" hajviy qissalari bo'ldi.

Adib "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" qissasida haqiqiy hayotdan butunlay uzilgan, xurofotdan boshqa narsani ko'ra olmaydigan mahalla masjidi imomi Kalvakning kulgili sarguzashtlari, tug'ilishidan boshlab boshidan kechirgan voqea-hodisalar o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda nihoyatda ta'sirli hikoya qilinadi.

Abdulla Qodiriyning yirik asarlari to'liq yetib borgunga qadar ham Julqunboy nomi xalq orasida mashhur bo'lgan. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, turli nashrlarda har xil imzolar bilan yozilgan birorta asar yo'qki, unda kulgi, tanqid va yo bittagina bo'lsa-da, o'tkir so'z, qochirim ibora bo'lmasa. Qodiriygagina xos nodir jumlar, tesha tegmagan iboralar, maqol va matallar bu jazzi asarlarga yanada jozibadorlik



bag'ishlagan. Muhimi shuki, boshqalar tilda qo'pol, uyatsiz bo'lib yangraydigan so'kish va haqorat so'zlari ham Ovsar yoki Dumbul, Kalvak feletonlarida o'zining dag'al ma'nosini biroz o'zgartiradi, o'quvchi qulog'iga yoqimli eshitiladi. Masalan, yozuvchi bir feletonida o'z qahramonini *"qornini yorg'anda alif o'rniga loaqal kaltak chiqmayturg'an dardisar"* deb ta'riflaydi⁴⁶. Uning besavod bir johil ekanligini oddiy so'z bilan tasvirlab bo'lmas edi.

The Electronic Library is a programmatic complex with a private system of documentation and security for students and educators, providing the possibility of concentrating and communicating full-text E-information on the basis of resources, telecommunication tools.

Electronic control (testing) is a component of e - learning publication, an analogue of traditional computer-free testing. In the case of electronic testing, the computer displays the test and its results, introducing algorithms related to it. (For example, the presence or absence opportunity to return to completed or missed assignments, the limitation of time to one test, etc.).

Conclusion.

Digital technology phase is a programmatic telecommunications environment based on the management of educators, teachers and educational institutions and the use of computerized techniques that provide society with unified technological means of information provision. This environment is designed to support the management of the educational process and educational institution with information, informatization of the progress and results of the educational process, as well as non-educational activities.

Electronic assignments are an important manifestation of the source of information, which embodies the set of tasks that the teacher arranges for independent and supervisory work, taking into account the individual capabilities of the teachers. The assignments created can be recommended to learners in their traditional "paper" and electronic variants. An electronic tool is a tool that allows participants in the educational process to develop, modify, bind, transmit, distance, store and perform other active actions on information agents.is the process of ensuring the field of education with the theory and practice of the development and use of modern information technologies designed to introduce the psychological and pedagogical goals of training and education. It also ensures that we occupy an



important place in the global community. Today's classrooms are very different from decades ago, and classrooms are equipped with computers, iPads, tablets, smart boards and other types of educational technologies. As elsewhere in the world, seven digital generation screens have appeared in Uzbekistan and are being used to improve image quality - a TV, a computer, a tablet, a phablet, a smartphone and a smart watch.

REFERENCES:

1. Sharon Y.V. Digitalization of technologies in higher and professional education: from personality-oriented smart didactics to blockchain in network training of specialists // modern problems of science and education. – 2019. – № 2. Abdullaev M., Saidakhror, G., & # (2020). Digital economy-current areas of personnel training. Archive of Scientific Research, 1(23). discovery <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/2702> . 3. <https://community.uzbekcoders.uz/post/raqamli-texnologiyalar-609525917>

**AYOLLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY HAYOTDAGI ROLI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852649>

Xaydarova Anora

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya : Mazkur maqolada xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, tadbirkor ayollar imkoniyatlarini kengaytirish, ayollar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash, xotin-qizlarga zarur shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratish, buni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaldagi qonunlar va davlatimizning boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari tahlili umumlashtiriladi. nashr.

Kalit so'zlar: ayollar salomatligi, jamiyat kuchi, gender tengligi, ayollar tadbirkorligi, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi o'rni.

Ayollar sog'lom, farzandlari barkamol bo'lgan yurtning kelajagi porloq bo'ladi. Bu borada o'zbek ayollariga, aziz va muhtaram onalarimiz, opa-singillarimizga havas qilsa arziydi. Bugun yurtimizda o'z o'rnini topayotgan ayollar safi kengayib bormoqda. Ayolning haqiqatda jamiyatda o'z o'rnini topishi uning hayotdan ma'no va quvonch topib yashayotganidan dalolatdir. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligini mustahkamlash, ularga munosib shart-sharoit yaratish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar samaralarini bugun har tomonlama sog'lom va yetuk farzandlarimiz qiyofasida hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Zero, ayollar salomatligi – oila salomatligi, jamiyat mustahkamligi, yurt barqarorligidir.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan Barqaror rivojlanish sammitida qabul qilingan 70-sonli rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, BMT global kun tartibidagi Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston beshinchi Barqaror rivojlanish maqsadini amalga oshirish doirasida "gender tengligini ta'minlash va barcha ayollar huquqlarini kengaytirish" bilan bog'liq qator vazifalarni ishlab chiqdi. Beshinchi maqsad (gender tengligi) maqsadlariga muvofiq 2030 yilgacha barcha ayollarga nisbatan kamsitishning har qanday shakliga chek qo'yish, ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash zarur. , iqtisodiy va ijtimoiy hayot va etakchilik uchun teng imkoniyatlar. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlat boshqaruvining turli darajalarida davlat dasturlarini qabul qilish jarayoniga gender tengligi tamoyillarini joriy etishni nazarda tutadi.



Keyingi yillarda gender tengligini ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda :

- * ayollar huquqlariga oid qonunchilikni takomillashtirish;
- * Ayollarni himoya qilish bo'yicha institutsional bazani takomillashtirish ;
- * Aholining gender tengligi va ayollar huquqlari haqida xabardorligini oshirish ;
- * huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul

O'zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta'limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta'kidlash kerak. Ya'ni, 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyati tiklandi. Ta'limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Fursatdan foydalanib, Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rinli deb bilaman:

“Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak”.⁶³

Bu boradagi qonunchilik chora-tadbirlariga kelsak, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida “Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi hamda “Xotin-qizlarni himoya qilish to'g'risida”gi qonunlar qabul qilindi. 2019-yil sentabr oyida qabul qilingan .⁶⁴

Gender tenglik bo'yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo'ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi, Hukumat huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi.

⁶³ <https://strategy.uz/index.php?news=745&lang=uz>

⁶⁴ 1.O'RQ-562-son 02.09.2019 y. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” .



Muhim jihati shundaki, mazkur yangi tashkil etilayotgan barcha institutsional mexanizmlar O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi bilan birgalikda BMT Konventsiyasiga muvofiq, ayollar huquqlarini himoya qilish, gender tengligi, ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanadi.

Jamiyatda xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash, o'z salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish imkoniyatini berish nafaqat gender tengligiga erishish, balki rivojlanishning yanada keng bosqichlariga erishishda ham muhim omil bo'lmoqda. Gender tengligi, shuningdek, har bir jamiyatda erkaklar va ayollar moliyaviy mustaqillik, ta'lim va shaxsiy rivojlanish uchun teng imkoniyatlarga ega ekanligini anglatadi.

Qayd etish joizki, qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O'zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadami bo'lib, xalqaro normalar hamda qonunchilik va amaliyot standartlariga to'la mos keladi, ba'zilar esa BMTning inson huquqlari bo'yicha tavsiyalariga asoslanadi. huquq organlari.

Qonunning qabul qilinishi, ayniqsa, xotin-qizlarni ta'qib va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonun uzoq yillik muhokamalardan so'ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo'ravonlik qurbonlariga yordam ko'rsatish, ularni boshpana, ishonch telefonlari bilan ta'minlash hamda nafaqat jismoniy zo'ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar uchun ham majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilishning asosidir. Bunday chora-tadbirlar, xususan, uzoq vaqtdan beri BMTning inson huquqlari tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan. Shu bilan birga, bu yo'nalishda uzoq muddatli izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bunda nafaqat qabul qilingan ko'rsatmalar, balki ularning xalqaro majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda xotin-qizlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi qarorlarni qabul qilishning barcha bosqichlarida to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Binobarin, "Ayollar va erkaklarning teng huquq va imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar ijrosini ta'minlashga qaratilgan "yo'l xaritalari"ni qabul qilish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Gender tengligi milliy strategiyasini qabul qilish rejasi ham mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkiloti agentliklari gender tengligi va kamsitilmaslik masalalarida, jumladan, maxsus hujjatlarni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish, yangi kodekslarning maxsus qoidalarini - jinoyat-protsessual va ijroiya qonunlarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatishni davom ettirishga tayyor.

Qabul qilingan u yoki bu darajadagi hujjatlar ayollar va erkaklar uchun bir xil bo'lishini ta'minlash uchun qonunchilikda majburiy gender ekspertizasini nazarda tutish ham muhimdir.⁶⁵

O'z navbatida, biznes-inkubatorlar bilan bir qatorda xotin-qizlarni ta'lim va fan sohasiga rag'batlantirish, shuningdek, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) laboratoriyalarini tashkil etish orqali ularni tabiiy va texnika fanlari

⁶⁵ Tohir Malik. Tanlangan asarlar: to'qqizinchi jild. "Odamiylik mulki" - "Axloq kitobi". - P., "Istiqlol" - 704 p



sohasiga jalb etish choralari ko'rish zarur. Bu, o'z navbatida, xotin-qizlar bandligini oshirish, ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, BMTning 2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlarini hayotga izchil tatbiq etish bo'yicha kun tartibida belgilangan tamoyillar, ayniqsa, "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyilini inobatga olgan holda alohida e'tibor qaratildi. kamsitishning turli shakllariga duchor bo'lgan ayollarning ahvoliga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yerda asosiy e'tibor mamlakatimizning chekka hududlaridagi qishloq ayollari, milliy ozchiliklar, 180 nafar nogironlar, OIV/OITS bilan kasallangan ayollar, mahrumlik joylaridagi ayollarga qaratilmoqda. ozodlik va ozodlikni cheklash (jumladan, qamoqxonalar, pansionatlar, qariyalar uylari va psixiatriya shifoxonalari), huquq himoyachilari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va qochqinlar. Ayni paytda BMTning O'zbekistondagi agentliklari o'rtasidagi hamkorlik doirasida gender masalalari bo'yicha maxsus guruh faoliyat ko'rsatmoqda. , unda BMTning deyarli barcha agentliklari vakillari ishtirok etadi. Bundan tashqari, kun tartibidan konferensiya, videorolik, Xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi yuridik klinika o'rin olgan. O'zbekiston, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ko'plab tadbirlar ayollar muammolaridan xabardorlikni oshirishga qaratilgan turli formatlarda. Bu borada "Taraqqiyot strategiyasi" markazi va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan faol ish olib borilmoqda .

O'z navbatida, BMTning O'zbekistondagi guruhi hozirda barcha ishtirokchilarning keng ko'lamlil maslahatlashuvlari asosida ishlab chiqilayotgan 2021-2025 yillarga mo'ljallangan barqaror rivojlanish sohasidagi hamkorlik dasturi doirasida gender tengligini ta'minlashda mamlakatga har tomonlama yordam berishda davom etadi. milliy hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar.

Ayolning jamiyatda, oilada o'z o'rnini bor. Ular siyosiy jarayonlarda, xoh ta'lim, xoh tibbiyot, xoh sportda faol ishtirok etadilar. Davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor bu borada yanada faollikni taqozo etadi. Darhaqiqat, xalqimizning uzoq tarixiy yo'lida ayollarning ham o'z o'rnini bor. Dono, dono ayollar ishtirokida adolatli qarorlar qabul qilinmoqda , turli masalalar ko'pchilikni quvontiradi. Sharq ayolining qiyofasi har doim ajoyib bo'lgan. Tumaris , Bibixonimlar , Nodiraylar shu zaminda tug'ilgan. Bu zamin ayollarining iffatining tengi yo'q, balki shuning uchundir doston ularning tillarida, hatto ajdodlari tillarida ham asrlar osha. Mamlakatimizda o'zbek ayolining o'zi uchun muqaddas bilim bo'lgan oiladagi o'rnini, farzand tarbiyasiga e'tibori, jamiyat hayotidagi o'rnini hamisha muhim sanalgan .

Oila - avlodlar davomiyligini ta'minlovchi, muqaddas urf-odatlarimizni asrab-avaylash, shu bilan birga kelajak avlodlar qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya markazi ekanligini e'tirof etishimiz kerak. Voyaga etgan har bir qiz o'zining shirin orzulari daryosida oila degan kemani boshqarishni maqsad qilgani tabiiy. Asosiy savol shundaki, u bu kichik, ammo ulkan yuk kemasini boshqarishga qanchalik tayyor ekanligiga ishonchi komilmi? "Oila bo'lishga tayyor bo'lish o'ziga bo'lgan ishonchni baholashdan ko'ra qiyinroq ish emasmi?" degan



savolga ba'zi qizlarimiz: "ovqat pishirish, pechenye tayyorlash, yuvish, dazmollash, uy yig'ish, uyni yig'ishtirish, kutish" deb o'ylashsa, adashadi. mehmon va hokazo, uyda bo'lgan har bir kishining qovog'iga qarab, shuni aytishim mumkinki, bu o'zgacha narsa bo'lardi" Agar qiz ona bor oilaga ruhan tayyor bo'lsa, unga qiyin bo'lmaydi. vasiylik kabi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish.

Ayol! O'zbek ayoli o'z qiyinchiliklarini qanday yengishi haqida gapirishning hojati yo'q. Kumushbibi, Ra'no, Barchinoy kabi iztiroblarni boshidan kechirgan ulug' zotlarning timsoli hali ham hamma ko'z o'ngida o'z aksini yo'qotgani yo'q. ayol – sharq ayoli, olamni larzaga soladigan, qalblarni to'lqinlantiruvchi, olamni zavqlantiradigan, daryo suvlaridek muhabbat nurini taratgan o'zbek ayoli. O'zbek ayoli, o'zbek onasi, mehribon ona, sodiq rafiqasi, jamiyatni boshqaradigan, bir qo'li bilan beshik, bir qo'li bilan dunyoni tebratgan. Butun olamga saxovat, mehr-oqibat, go'zallik baxsh etuvchi, hayotimizni yoritib turuvchi muhtaram inson ham o'zbek ayolidir. Yurtimizda azaldan xotin-qizlarga hurmat bilan munosabatda bo'lgan. Mamlakatimiz mustaqilligi tufayli bu hurmat yanada oshdi. Ayollarning jamiyat hayotidagi roli kuchaytirildi.⁶⁶

Bugun jamiyatning deyarli hech bir muammosini, hatto kelajagi buyuk davlatni barpo etish vazifasini ham ayollar ishtirokisiz hal qilib bo'lmaydi. Biz kelajagi buyuk davlatni barpo etishda, birinchi navbatda, yosh avlodga tayanamiz. Bolaning ulg'ayishi oilaviy tarbiyani to'g'ri qurishdan boshlanadi. O'g'il-qizlarimizning qanday inson bo'lib voyaga yetishi ayollarimizga bog'liq.

Oilani ham, jamiyatimizni ham jipslashtirib, farovonlik olib borayotgan, xonadonimizni mehr-oqibat, mehr-oqibat, mehr-oqibat nuri bilan quvontirayotgan zotlar, aslida, olijanob onalarimiz, uka-singillarimizdir. Donishmand, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehr-oqibati, qalb pokligi bilan oilada, undan ham ko'proq jamiyatda poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini ta'minlab kelmoqda. Onani e'zozlash xalqimiz, xalqimiz uchun eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan fazilatdir. Xotin-qizlarni qanchalar e'zozlasak, hayotimiz chirog'i, hayotimiz gulidek e'zozlasak, oilamizni, Vatanimizni shunchalik e'zozlasak, Darhaqiqat, davlatimiz tomonidan ayollarga katta e'tibor qaratilmoqda. Ularning jamiyatimiz hayotining turli jabhalarida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. <https://strategy.uz/index.php?news=745&lang=uz>
2. O'RQ-562-son 02.09.2019 y. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida".
3. Tohir Malik. Tanlangan asarlar: to'qqizinchi jild. "Odamiylik mulki" - "Axloq kitobi". - P., "Istiqlol" -704 p
4. www.gender.stat.uz

⁶⁶ www.gender.stat.uz

**JINOYAT PROTSESSIDA TERGOVGA TEGISHLILIKNING AHAMIYATI VA O'RNI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852659>

Saidov Sarvar Faxriddin o'g'li

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti yuridika fakulteti
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada quydagilarga e'tibor qaratgan holda, jinoyat ishini sudga qadar yuritishning asosini tashkil qiluvchi tergovning qanday vazifalarni ado etishi lozimligi, tergovga tegishlilik masalalarini to'g'ri hal qilinishining jinoyat ishidagi ahamiyati, tergovga tegishlilik turlari va asoslari, shuningdek ushbu masalalarning milliy qonunchilikdagi ba'zi kamchiliklari hamda xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlili o'z aksini topgan. Shuningdek, jinoyatda tergovga tegishlilikning ahamiyati haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tergov, dastlabki tergov, surishtiruv, tergovga qadar tekshiruv, tegishlilik, tergov organlari, dalil, prokuratura, tergovchi, ichki ishlar organlari, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, guvoh, farmoyish, ijtimoiy xavflilik darajasi, hududiylik.

KIRISH

Jinoyat protsessual huquqida tergov jinoyat ishlarini yuritishning alohida mustaqil bosqichi hisoblanadi va jinoyat ishini sudga qadar yuritishning asosini tashkil qiladi. Jinoyatlarni tez va to'liq fosh etish aynan tergov organlarining samarali faoliyatiga bog'liq bo'lib, shu sababli tergov sifatini yaxshilash, jinoyat protsessida shaxs huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmini joriy etish hamda ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlarning tergovini soddalashtirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmogda. Chunki statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, butun O'zbekiston hududida jami ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2021-yilga kelib 111 082 tani tashkil qilgan bo'lsa, bu 2020-yilgi ko'rsatkichlardan 1.5 barobar (62081 ta) va 2019-yilgidan esa 2.5 (46089 ta) barobardan ham ko'proqdir.⁶⁷

Bu davrda umumiy jinoyatchilik hamda uning og'ir va o'ta og'ir turlarini fosh etish miqdorlari ham doimiy ravishda ortib bordi. Umumiy jinoyatchilikning ochilishi 1999-yilda 78 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik bu miqdor 82 foizga, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarning ochilishi esa 75,3 foizdan 85,5 foizga yetdi. Tergov sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar ham o'zining ijobiy natijasini berdi. Jumladan, 10 oy davomida prokuratura organlari tomonidan 16406 jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov harakatlari olib borilib, ulaming 11011 tasiyblov xulosalari bilan sudlarga yuborilgan. Jazoning

⁶⁷ <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>



muqarrarligini ta'minlash bilan birga jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararlarni aybdorlardan undirishga alohida e'tibor qaratildi.⁶⁸

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ushbu satatistik ma'lumotlar jinoyat ishini sudda ko'rilishi uchun yetarli dalillar to'plash, protsessual majburlov choralarini asosli tarzda qo'llash, jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlash kabilarda tergovning qanchalar muhimligini ko'rsatib berdi.

O'zbekiston hududida tergovni amalga oshirish. O'zbekiston hududida tergov harakatlari 2 xil ko'rinishda: dastlabki tergov va surishtiruv asosida amalga oshiriladi. So'nggi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasi o'laroq, 2017-yil 6-sentyabrda «Surishtiruv instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonunga asosan yuqoridagi norma, ya'ni jinoyat ishini tergov qilish surishtiruv yoki dastlabki tergov shaklida amalga oshirilishi belgilandi. Bu orqali esa tergov ancha soddalashtirilib, jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab bir oy ichida (qo'shimcha surishtiruv muddati o'n kun) tamomlanishi kerak. Dastlabki tergov esa jinoyat ishi qo'zg'atilgan kundan boshlab uch oy ichida (yetti oygacha uzaytirilishi mumkin) tugatilishi shart.⁶⁹ Bugungi kunda ichki ishlar organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Majburiy ijro byurosi, Davlat bojxona qo'mitasi, Milliy gvardiya surishtiruvchilari surishtiruv va tergovni amalga oshiradi. Dastlabki tergovni prokuratura, ichki ishlar organlari va Davlat xavfsizlik xizmati tergovchilari olib boradi.⁷⁰

Jinoyat protsessida tergovga tegishlilik masalalari. JPKning 345 hamda 3812-moddalarida jinoyat ishining tergovga tegishlilikiga oid munosabatlar tartibga solingan. Bu institut jinoyat huquqida eng muhimlaridan hisoblani, undan keyin sodir etiladigan huquqiy harakatlarning barchasi tergovga bog'liq bo'ladi. Zeroki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi kafedra boshlig'i, yu.f.f.d. Xurshid Karimov aytganlaridek: "Tergovga tegishlilikning ahamiyati shundaki, jinoyat sodir etilganda u bo'yicha qaysi tergov organi tergov o'tkazishi lozimligini biladi. Tergovga tegishlilikni tartibga soluvchi normada Jinoyat kodeksida belgilangan barcha jinoyatlar aks etgan bo'lishi shart, aks holda muayyan jinoyat sodir etilganda u bo'yicha qaysi organ tergov o'tkazishi lozimligi haqida savollar paydo bo'lishda davom etaveradi".⁷¹

⁶⁸ O.M.Madaliyev Sud statistikasi: O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: K.P. Irkaxodjayev y.f.n. dosent. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. -289 bet.

⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi: Darslik // Sh.T.Ikramovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. - 635 b.

⁷¹ Узбекистан Республикаси Бош прокуратураси Академияси кафедра бошлиги, ю.ф.ф.д. Хуршид Каримов: "ТЕРГОВГА ОИД НОРМАЛАР ТАКОМИЛЛАШТИРИЛАДИ". - 16.12.2020



Jinoyat protsessual qonunchilikda quyidagi tergovga tegishlilik turlari belgilab o'tilgan: 1) predmetli, ya'ni jinoyat turiga ko'ra (turdosh); 2) muqobil (alternativ); 4) mustasno tergovga tegishlilik. 5) jinoyat sodir etilish hududiga ko'ra - hududiy jihatdan tergovga tegishlilik.

1. Jinoyat turiga ko'ra tergovga tegishlilik. Bu Jinoyat kodeksi Maxsus qismining moddalaridan kelib chiqqan holda JPKning 345-moddasiga asoslanib dastlabki tergovni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan 3 organdan biri - prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, agar xavfli qilmishni 210-modda bilan kvalifikatsiya qilish kerak bo'lsa, 345-moddaga ko'ra bunday ishlar prokuraturaning yurisdiksiyasiga tegishli bo'lsa, JKning 169-moddasi (o'g'rilik) - ichki ishlar organlari tergovchilarining tergoviga tegishlidir.

2. Aralash (alternativ) tergovga tegishlilik. Bunda ishning alohida holatlaridan kelib chiqqan holda bir turdagi jinoyat ishlari bo'yicha turli organlar tomonidan dastlabki tergov olib borilishi mumkinligi nazarda tutiladi.

3. Mustasno tergovga tegishlilik. ba'zi jinoyatlar to'g'risidagi ishlarning alohida qoidalar asosida, qat'iy ravishda bir tergov organiga tegishli bo'lishini belgilab beradi. Maxsus tergovga tegishlilik jinoyat subyektining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u harbiy prokuratura organlarining tergoviga tegishlikni belgilaydi. Jumladan, JPK 345-moddasining 3-qismiga muvofiq, harbiy prokuratura tergovchilari tomonidan Jinoyat kodeksining 279—302-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha, shuningdek harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha dastlabki tergov olib boriladi.⁷²

4. Hududiy jihatdan tergovga tegishlilik. Jinoyat qayerda sodir etilgan bo'lsa, jinoyat ishi o'sha tuman (shahar) tergovchisining tergoviga tegishli bo'ladi. Dastlabki tergov, basharti ish holatlarini ancha tez, puxta, to'la, xolisona, har tomonlama tekshirishga yordam bersa, ish qo'zg'atilgan joyda yoki gumon qilinuvchi yoxud ayblanuvchi yoki guvohlarning ko'pchiligi turgan yerda o'tkazilishi ham mumkin. Yuqori turuvchi prokuror yoki yuqori tergov bo'linmasi boshlig'ining farmoyishiga asosan dastlabki tergov hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalariga rioya qilinmagan holda olib borilishi ham mumkin. Tergov harakatlari o'tkazish joyi hududiy jihatdan tergovga tegishlilik qoidalari asosida aniqlanadi. Zarur hollarda tergov harakatlari boshqa joylarda tergovchining shaxsan o'zi borishi yoki tegishli organga alohida topshiriq berish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Bundan tashqari, protsessual qonunchilikda yuqoridagi qoidalarga bo'ysunmaydigan, to'g'ridan to'g'ri kodeksning o'zi bilan tartibga solinadigan holatlar ham mavjud:

a) Turli dastlabki tergov organlari tergoviga tegishli jinoyat ishlari bitta ish yurituviga birlashtirilganda, prokuror tergovni olib borishni og'irroq jinoyat to'g'risidagi jinoyat ishining tergovi qaysi organga tegishli bo'lsa, shu organga,

⁷² Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. // -Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. - 406 bet.



jinoyatlarning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi teng bo'lganda esa, jinoyat ishini uzoqroq muddat davomida tergov qilayotgan organga topshiradi;

a) Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilishini ta'minlash maqsadida jinoyat ishini, tergovga tegishlilik qoidalaridan qat'i nazar JPKning 345-moddasi 11-bandida aks ettirilgan holatlar mavjud bo'lganda jinoyat ishini asoslantirilgan qarorga binoan bir dastlabki tergov organidan boshqasiga o'tkazishga haqli .

Endigi navbatda xorijiy davlatlardagi jinoyat ishining tergovga tegishlilikini hal etish tartiblariga to'xtalib o'tsak:

Fransiya. Jinoiy tergov odatda Frantsiya Jinoyat kodeksida mavjud bo'lgan jinoyat qonunlarining mumkin bo'lgan buzilishini o'z ichiga oladi. Fransiyadagi jinoiy tergovlar odatda ikki toifaga bo'linadi: oddiy va doimiy ishlar, ular prokuror tomonidan ko'rib chiqiladi; va murakkab hamda muhim masalalar, ular ba'zan tergov magistratiga havola qilinadi. Prokurorlar tomonidan olib borilgan tergov harakatlari barcha jinoyat ishlarining 97 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bunday hollarda prokuror politsiya bilan ish olib boradi va masalani tergov qiladi va dalillarni qayd qiladi. Quyida muhokama qilingan sud tergovidan farqli o'laroq, gumonlanuvchilarning ushbu bosqichda ishtirok etish va o'zini himoya qilish huquqi juda kam. Prokuror bayonnoma bilan qanoatlansa, ish odatda huquqbuzarlik sodir etilgan joyda mahalliy bo'lgan va ayblovning og'irligiga bog'liq bo'lgan tegishli sudga yuboriladi. O'sha paytda ayblanuvchi va uning himoyachisi sud muhokamasiga tayyorgarlik ko'rish uchun asos bo'ladigan fayl bilan tanishish huquqiga ega bo'ladi.

Og'ir jinoyatlar uchun tergov magistratini tayinlash majburiydir. Oddiy jinoyatlarga kelsak, tergovchiga prokurorning buyrug'i bilan tergovni boshlash huquqi berilishi mumkin. Prokurorlar odatda faqat shu qadar murakkab ko'rinadigan ishlar bo'yicha tergovchilarni tayinlashni so'raydilar, shuning uchun faktlarni mustaqil ravishda ishlab chiqish juda ko'p vaqtni oladi va katta resurslarni o'zlashtiradi yoki prokurorlar o'zlari qila olmaydigan harakatlarni talab qiladilar, masalan gumon qilinuvchi shaxslarni tergovga qadar vaqtincha qamoqqa olish joylariga joylashtirish. Amalda, xalqaro masalalar bilan bog'liq jinoiy tergovlarning aksariyati tergov magistrati tomonidan ko'rib chiqiladi.

Shuningdek bu vaziyatga qo'shimcha sifatida Fransiyadagi jinoyatlarlarning turlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Yuqori darajadagi jinoyatlar 10 yildan ortiq qamoq jazosi bilan jazolanadigan jinoiy ishlardir. Og'ir jinoyatda ayblanayotgan shaxs og'ir jinoyatlar sudi deb ataladigan maxsus sudda hakamlar hay'ati tomonidan ishi ko'rib chiqiladi. Oddiy jinoyatlar - ikki oydan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va moliyaviy jazo bilan jazolanadigan huquqbuzarliklar; korrupsiya jinoyati va aksariyat tadbirkorlik jinoyatlari shu toifaga kiradi. Ularning ishlari mahalliy okrug sudida ko'rib chiqiladi. Uchinchi esa noqonuniy xatti-harakatlar, ya'ni moliyaviy jarimalar bilan jazolanadigan qonunbuzarliklar bo'lib, quyi sudlarda ko'rib chiqiladi.



Angliya. Jinoiy protsessual va tergov to'g'risidagi 1996 yilgi Aktga ko'ra Angliya va Uelsda jinoyatni tergov qilish - bu shaxsni jinoyat sodir etganlikda ayblash kerakmi yoki yo'qligini yoki jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsning aybdorligini aniqlash maqsadida militsiya xodimlari tomonidan olib boriladigan harakat sifatida tavsiflanadi.

Tergovga tegishlilik esa sodir etilgan jinoyatga qarab tergovchi, tergovga mas'ul xodim va fosh qiluvchi xodimning vazifalari alohida hisoblanadi. Ular bir, ikki yoki undan ortiq shaxs tomonidan amalga oshiriladimi, ishning murakkabligiga va har bir politsiya kuchlari tarkibidagi ma'muriy tartiblarga bog'liq bo'ladi.

Har bir militsiya bo'limi boshlig'i fosh etish bo'yicha ofitserlar va fosh etish bo'yicha o'rinbosarlari tergovning murakkabligiga mos ravishda o'z vazifalarini samarali bajarish uchun yetarli malaka va vakolatlarga ega bo'lishini ta'minlashi shart. Xizmat vazifasini o'tayotgan shaxs agar bu vaziyatda manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lsa, masalan, tergov bo'yicha xodim tergov predmeti sifatida taxmin qilinayotgan jinoyat qurboni bo'lsa, fosh etish bo'yicha xodim sifatida tayinlanmasligi yoki shu lavozimda davom etmasligi kerak⁹. Agar manfaatlar to'qnashuvi ushbu ish bo'yicha xizmat xodimining faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilmasligiga shubha tug'ilsa, har doim yuqori martabali ofitserning maslahatiga murojaat qilish kerak. Agar bundan keyin ham shubha qolsa, prokuror maslahatiga murojaat qilish kerak bo'ladi.

Jinoyat protsessual qonunchilikda ko'rsatilganidek, har qanday tan olinishi mumkin bo'lgan jinoyatni tergov qilish jarayoni faqat politsiya organlariga tegishli. Ularning vakolatlarni qonuniy ravishda va qonun qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiradilar. Tergovchi tomonidan to'plangan materiallar bo'yicha sudning tergovga aralashishi mumkin emas. Sud faqat tergov organiga huquqbuzarlik sodir etilganligi yoki sodir etilganligi to'g'risida hisobot taqdim etishi mumkin. Shundan keyingina sudya tegishli choralar ko'rish huquqiga ega. Agar tergovchi birinchi ma'lumot hisobotida da'voni tasdiqlovchi material topmasa, magistr hisobotni qabul qilishi yoki qo'shimcha surishtiruvni buyurishi mumkin. Shuningdek, u sudga, tegishli holatda tezkor choralar ko'rish uchun ochiqdir. Biroq, sud tergov organiga ushbu fikrga muvofiq hisobot taqdim etishi mumkin emas¹¹.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tergovga oid milliy qonunchilikdagi kamchiliklar va ularning xalqaro qiyosiy tahlili. Jinoyat protsessual qonunchiligidagi tergovga oid normalarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularni kamchiliklardan xoli emasligiga guvoh bo'lamiz: jinoyat kodeksining maxsus qismidagi moddalarning tergovga tegishliliigi tahlil qilinganda, bir qator moddalarning tergovga tegishliliigi belgilanmagani oqibatida qonunchilikda bo'shliq vujudga kelgani aniqlangan. Jumladan professor ustozlar ta'kidlab o'tganidek, JKning 125 -moddasi (Nikoh yoshi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish), 216 -moddasi (G'ayriqonuniy jamoat birlashmalari va diniy tashkilotlar faoliyatida qatnashishga undash) va 216 -moddasida (Diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish) nazarda tutilgan jinoyatning qaysi surishtiruv organiga tegishliliigi JPKning 381 -



moddasida belgilab berilmagan. Bundan tashqari JKning 168-moddasining 4-qismi (Firibgarlik), 2301-moddasi (Dalillarni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) va 230 - moddasida (Tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini soxtalashtirish (qalbakilashtirish) belgilangan jinoyat qaysi dastlabki tergov organiga tegishliligi JPKning 345-moddasida belgilab berilmagani oqibatida qonunchilikda kollizion normalar vujudga kelib qolgan .

Fikrimizcha, milliy qonunchilikni yuqorida keltirib o'tilgan rivojlangan davlatlardan hisoblangan Buyuk Britaniya (AQSH qonunchiligi ham bu huquq oilasiga juda o'xshash) yoki Fransiyaning tizimiga solishtiradigan bo'lsak, jinoyatlarni tergov qilish va ishlarni tegishlilikka qarab tavsiflash ancha oddiy ekanligiga, ushbu vakolatni amalga oshiruvchi organlarning sanoqli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Chunki bu orqali bizdagi tizimdan farqli ravishda bir-birini takrorlovchi lavozim va vazifalar oldini oladi hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish osonlashadi.

Bundan tashqari yana bir e'tiborli jihati, bu davlatlarda vakolatli organlar o'rtasida bir-biridan ustun yoki quyi turuvchi holatlarning deyarli yoq'ligi. Masalan, birgina Angliya va Uelsda hatto sud ham tergov organlarini ishiga aralashishi mumkin emas. Milliy qonunchiligimizda esa bunday holatlarni talaygina uchratish mumkin. Bunday holatlar o'sha organlarning to'la qonuniy va samarali vakolat yuritishiga to'sqinlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. - 76 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2018.
4. Jinoyat-protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. // -Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018. - 406 bet.7
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessi: Darslik // Sh.T.Ikramovning umumiy tahriri ostida. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. - 635 b.
6. O.M.Madaliyev Sud statistikasi: O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir: K.P. Irkaxodjayev y.f.n. dosent. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. -289 bet.
7. Узбекистан Республикаси Бош прокуратураси Академияси кафедра бошлиги, ю.ф.ф.д. Хуршид Каримов: "ТЕРГОВГА ОИД НОРМАЛАР ТАКОМИЛЛАШТИРИЛАДИ".- 16.12.2020
8. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-iustice-2>



9. The International Investigations Review: France. Antoine Kirry and Alexandre Bisch Debevoise & Plimpton LLP 01August 2021.
(<https://thelawreviews.co.uk/title/the-international-investigations-review/france>)

10. Criminal Procedure and Investigations Act 1996 (section 23(1)) Code of Practice Revised in accordance with section 25(4) of the Criminal Procedure and Investigations Act 1996.

11. <https://www.legalserviceindia.com/legal/article-3535-powers-of-police-in-investigation.html>



ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЗАРГАРЛИК САНЪАТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852665>

Марасулова Иззат Мухаматсултановна
Чирчиқ давлат педагогика университети
“Тасвирий санъат ва дизайн”
кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада янги Ўзбекистон заргарлик санъатининг ўзига хослиги, заргарлар ижодида турли бадий услубларнинг қўлланилиши заргарлик тақинчоқлари мисолида таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: заргарлик, бадий услуб, анъана, безак фалсафаси, модерн, маҳаллий безакли тасвирлар.

Ўзбек халқ амалий санъати қадимийлиги ҳамда бой маданияти билан бутун дунёга машхурдир. Унинг ер усти ва тупроқ остидаги қисми улкан бир тарихий музей. Самарқанд, Бухоро, Хива, Термиз, Тошкент, Фарғона ва бошқа шаҳарлардаги ҳар бир тарихий меморий обида, халқ амалий санъати намунаси ота-боболаримиз яратган бетакрор, теран мазмунли, чуқур маъноли, бебаҳо санъат асарлари, дурдоналаридан иборат бадий ва маънавий меросдан иборат. Асрлар мобайнида орттирилган маданий ва маънавий меросимиз, хусусан ўзбек миллий халқ амалий санъатининг энг кўп ривожланган турлари: ганчкорлик, наққошлик, ёғоч ўймакорлиги, тоштарошлик, суяк ўймакорлиги, кандакорлик, пичоқчилик, заргарлик, каштачилик, зардўзлик, гиламчилик кабиларнинг ўзига хос томонлари, ишлаш технологияси, усталарнинг ҳақиқий асл номлари, ўзига хос мактаблари, яратган услублари бугунга қадар устоздан шогирдга ўтиб келмоқда. Бугунги кунда мамлакатимизда халқимизнинг бой ижодий меҳнати натижасида яратган халқ ҳунармандчилиги асарларини ёхуд анъаналарини кўз қорачиғидек авайлаш, қадрлаш, улар оркали ёшлардаги бадий эстетик дидини ўстириш ҳамда юксак маънавиятли шахслар қилиб тарбиялаш учун кенг имкониятлар очилди. Бу борада **“Умумбашарий маданиятнинг ажралмас қисми бўлган халқ амалий санъати дунёдаги ҳар бир халқ ҳаётида, унинг турмуш тарзи ва қадриятлари ривожда алоҳида ўрин тутади. Инсониятнинг онгли ҳаётида ҳунармандчиликнинг пайдо бўлиши - цивилизация сари ташланган энг муҳим тарихий қадам, десак, ҳақиқатни айтган бўламиз”** - Ўзбекистон Республикаси президенти Шавкат Мирзиёевнинг ушбу фиклари амалий санъатимизга бўлган юқори эътибор саналади

Барча санъат турлари қатори заргарлик - қадимий санъат тури сифатида узоқ асрлар давомида ўз анъаналарини давом эттириб келади. Юртимиздан кўплаб маҳоратли зарган усталар етишиб чиққан. Бундай ижодий жараёнлар



ҳозирда ҳам давом этмоқда Янги Ўзбекистонда давлатимиз раҳбари томонидан заргарлар учун янги ижодий имкониятлар яратилмоқда. мазкур соҳани ривожлантириш масалалари давлатимиз сиёсатининг таркибий қисмига айланиб улгурди. Юртимизнинг турли ҳудудларида фаолият кўрсатиб келаётган маҳоратли заргар усталар ўз ижодий тажрибаларини ошириб, мазкур санъатнинг энг яхши оригинал ва бутакрор анъаналари ва бой тасвирий безак услубларидан, устоз санъаткорлар тажрибаларидан самарали фойдаланган ҳолда янгидан янги намуналарни яратиш келмоқда. Бир атор заргарлар учун бадиий анъана самовий тартибнинг биринчи тамойиллари дунёсини, заргарлик буюмлари яратилиш қонунларини кашф қилган аждодларимизнинг анъанасини давом эттириб келадилар.

Бугунги кунда кўплаб иқтидорли ижодкорлар ўз бадиий маҳоратларини намоиш этиб келишмоқдалар. Рассом-модельер, заргар Анел Улумбекова ўзига хос ижоди билан республиканинг етакчи заргарлари қаторида тилга олинади. Унинг асарлари ассортимент кенг – узук ва бўйин тақинчоқлари, тўғноғич ва бошқалар ниҳоятда бетакрор ва ноёблиги билан ажралиб туради. Уларда бирон-бир заргарлик мактабининг анъаналарини ёки бирон машҳур устанинг таъсири кўринмайди. Уста рангли металллар билан ишлаш жараёнида эритилаётган металллар бўлакларини турли шаклларга кириши орқали кутилмаган образлар ва қиёфаларни пайдо қилади. А.Улумбекова мана шу нозик пайтдан фойдаланиб, уларга озгина ишлов бериш орқали умуман янгича, композиция томонидан қизиқарли шаклларни кашф этмоқда. Ўз навбатида ушбу услуб ва йўналишни инновация, деб таъриф бериш ўринли. Сабаби унинг асарлари ғайриоддий ва замонга, истеъмолчилар талабига мос, кутилмаган унсурларга, жуда бой кўриниш касб этган..

Ўрта авлод вакили, —“Holmuradov Design” бренди асосчиси, —“Ҳунарманд” уюшмаси аъзоси, дизайнер-заргар У.Холмуродовнинг асарлари ҳам техник томондан нозиклиги ва металл безакдорлигини услуб томондан кўрсатишга ҳаракат қилганлиги билан диққатга моликдир. Левон Авакяннинг шогирди ҳисобланган У.Холмуродов ҳозирда устозининг анъаналарини давом эттирмоқда. У.Холмуродов ижодидаги услубий изланишлари бир неча асосий йўналишни ва бадиий техник омилларни ўзида мужассам этганлиги билан изоҳланади.

Биринчи йўналиш - Шарқ, замонавий дизайннинг жуда кучли уйғунлашувларини ўзида мужассамлаштирганлигида кўзга ташланади. Масалан, кашғар балдоқнинг эски анъанавий шаклига йўналтирилган ва дизайнерлик ёндашув асосида яратилган сирғалар, муаллифнинг стилизацияси жараёнида турли хил ўзгаришларни ўз ичига олади. Бу сирғалардаги тасвирий ёки декоратив мотив – рангли тошнинг майда қирраланган ва сайқалланган қисмлари ва тақинчоқ орасидаги бўшлиқлари таркиби, уларнинг ўйнаши



самодаги шакл, ранг ва ёруғлик нисбатининг ўзига хос оптик иллюзиясини яратади.

Иккинчи йўналиш унга янада яқинроқ бўлиб, бу нотижорат характеридаги, жиддий ва айна пайтда замонавий дизайн, кенг талаб учун мосланмаган, балки кўпроқ талабни амалга ошириш учун мўлжалланган. Бу каби ижодий ғоялари сирасига –Минора, –Фракциялар номли сирғаларни киритиш мумкин.

Улуғбек Холмуродов ижодининг яна бир ўзига ҳослиги - мис, жез, никел, кумуш, олтин, платина каби металллардан маҳорат билан ясаган ҳамда феруза, ложувард, ақиқ, халцедон, маржон, каби тошлар қадалган билакузуклар, узук, бўйин безакларни муаллиф ёш бўлишига қарамасдан катта иқтидор ва маҳорат билан ишлаб чиққанлигида кўзга ташланади.

Заргарнинг ижодий маҳорати Тошкент архитектура-қурилиш институти –Графика дизайни бўлимида шаклланган. Шу боис у томонидан яратилган барча намуналар - заргарлик тақинчоқларида айнан дизайн йўналиши таъсири сезилади.

1995 йилдан буён ўзининг ижодий изланишларини бошлаган заргар 2010 йилга келиб –Holmuradov Design брендига асос солади. Мазкур брендда мазмунли, чуқур фалсафа ҳамда геометрик чизиқлар ва шакллар билан бойитилган заргарлик буюмлари ўрин олган.

Заргарнинг –Мерос, –Панжара, –Бох (–Қути), –Шарқона, –100% cotton (–Пахта), –White Gold & Diamonds (–Оқ олтин ва олмослар||), –Модерн каби мавзуларда яратилган заргарлик коллекциялари заргар учун машхурлик келтирган.

– Holmuradov Design бренди ўзининг геометрик дизайни, ижтимоий йўналтирилган лойиҳалари ва дадил тақинчоқлари билан машхур. Шунинг учун ҳар бир тақинчоқ мустақил санъат объекти сифатида кўзга ташланади. Бу тақинчоқлардаги заргар меъморчилик элементларини қўллаш асносида, вақт ва у орқали маконни кўриши ифодаланган. Бир сўз билан айтганда, У. Холмуродовнинг заргарлик асарларида модерн услубидаги инновацион ечимлар ифодаси ўз аксини топган.

Юқоридагилардан хулоса шуки, ватанимиз уста заргарларга ниҳоятда бой мамлакат сифатида жаҳон майдонларида ўз ўрни ва мавқеига эга. Юртимизда маҳоратли, қўли гул усталар ниҳоятда кўп. Уларнинг ижоди нафақат юртимизда ҳатто унинг ташқарисида ҳам яхши танилган. Уларни ўрганиш, ёшларга ўргатиш масалалари ҳам шу қадар долзарблашиб бормоқда.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон амалий санъати дурдоналари. /Таҳрир кенгаши: Т.Кўзиёев, А.Ҳакимов, Т.Маҳмудов, О.Файзуллаев, А.Нарзуллаев. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2013. –171 б.



2. Хакимов А. Ўзбекистон хунармандчилиги дурдоналари. Китоб-альбом. – Т.: Ўзбекистон НМИУ, 2019 й. – 384 б.
3. Бинафша Нодир. Ўзбекистон амалий санъати: анъаналар давомийлиги. – Т.: –San'at журнали нашриёти, 2021. – 368 б.
4. Зардўзлик санъати / Бахшилло Жумаев/ “SАННОF” нашриёти, Тошкент. 2022.-288 б.
5. Султанов, Х.Э., Марасулова, И.М., Махмудов М.Ж., Бахриев, И.С. (2020). На пути совершенствования изобразительного искусства в непрерывном образовании: из опыта работы. *Academic research in educational sciences*, (4), 231-237.
6. ИМ Марасулова, ДС Павлов/ ДЕКОРАТИВНО ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА// Научные исследования в области педагогических наук, ст 378-384
7. Sultanov H E, Marasulova I M, Yunusova K H. // Training cluster cooperation and preliminary results // 2th International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Berlin, Germany April 30 th 2021, pp 224-228.
8. Султанов Х.Э., Марасулова И.М., Юнусова К.Х. Педагогик инновацион кластери: Чирчиқ тажрибасининг илк натижалари // «МУҒАЛЛИМ ҲЭМ ЎЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ» № 3-2 Нөкис — 2021. 37-41 б.
9. Султанов Х.Э., Марасулова И.М., Абдухамидов Қ.Я., Алимова Н.Ш. Кластер ёндашувидаги «арт-терапия» таълими - фанлар интеграциясини амалга ошириш омили //“Yangi o'zbekistonda pedagogik ta'lim innovatsion klasterini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari /may 1-qism SHIRCHIQ – 2022. 606-612 б.
10. Марасулова И.М./Амалий безак санъатининг ўзига хос хусусиятлари. витраж мисолида// “Journal of innovations in scientific and educational research” VOLUME 2, ISSUE 13 (26- December) 2022



YUK VA YENGIL AVTOMOBILLAR O'RTASIDA KO'RINMAS XUDUDDA YO'L TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISH CHORALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852667>

O'tkir Isoxanov Inoyatovich

(Toshkent davlat transport universiteti)

Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti)

Turdibekov Salohiddin Qodirovich

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'rinmas hudud engil hamda yuk avtomobillari bilan to'qnashuv sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan havfli hududlar keltirib o'tilgan.

Abstract: In this article, invisible areas are identified as dangerous areas where collisions with light and truck vehicles may occur.

Kalit so'zlar: ko'rinmas hudud, avtomobil, yo'l transport hodisasi.

Key words: invisible area, car, road traffic accident.


Ko'rinmas hudud – bu haydovchi tomonidan avtomobilning harakat jarayonida nazorat qila olmaydigan ko'rinmas hududlaridir. Avtomobilni tashqi ko'zgu oynalari va peshoyalarni bilan jihozlangan bo'lsa ham, ularga to'liq ishonib bo'lmaydi. Ulardan avtomobilning orqasida nima sodir bo'layotgani haqida to'liq ma'lumotni aniqlashtira olmaydilar, faqat umumiy ma'nodagi tasavvurga ega bo'la oladilar. Hattoki kamera o'rnatilgan avtomobillarda ham ko'rinish ozmi-ko'pmi cheklangan bo'ladi.

Og'ir yuk avtomobillari va avtobuslarda katta o'lchamlari tufayli o'lik joylarni bu tarzda boshqarish mumkin emas. Shuning uchun, agar siz katta o'lchamli transport vositasini boshqarayotgan bo'lsangiz, ko'rinmas xudidlarni kuzatmasdan manevrlar qilmang, agar qilsangiz albatta yo'l transport xodisasiga uchraysiz.

Yuk avtomobilida yomon ko'rinadigan bir nechta joylar 1-rasmda keltirilgan.

Avtomobilning o'lchamlari qanchalik katta bo'lsa, haydovchining ishlashi shunchalik qiyin bo'ladi. Ko'r ko'rinadigan zonalarining soni va hajmi quyidagilarga bog'liq:

- * kabinaning balandligi;
- * tirkamaning uzunligi, kengligi;
- * ko'zgularning soni va joylashuvi;
- * avtomobilning tuzilishi.




1-rasm. Yuk avtomobilining ko'rinmas xudud chegarasi

Burilish va qayta tizilish vaqtida avtomobilni kuzatish ko'zgulari bilan iloji boricha ushbu ko'rinmas xudidlarni ko'proq qoplashga harakat qiling. Misol uchun, T – shaklidagi chorrahada chapga burilish qilishingiz kerak. Manevr imkon qadar xavfsiz bo'lishi uchun avtomobilni chorrahaga to'g'ri burchak ostida yo'naltirilishi kerak. Avtomobil haydovchilari bunday holatlarda, go'yo avtomobilni keyingi oqimga yo'naltirgandek, oldindan burilishadi. Agar siz buni yuk avtomobilida qilsangiz, chorrahaning o'ng tomoni bitta tomoni ko'rinmas xudid bo'ladi. Bu hatto kichik yuk avtomobillariga ham tegishli. Kabinadagi ko'rinish juda cheklangan bo'ladi.

Yengil avtomobil egalari katta o'lchamli transport vositalariga ergashib, avtomagistral bo'ylab harakatlanish qanchalik qiyinligini bilishadi. Yuk avtomobillari yaqinidagi quvib o'tish va boshqa manevrlar xavfli. Yuk avtomobilda ko'rish uchun yopiq ko'rinmas xudidlarda mavjud. Avtomagistralning bu qismlari og'ir yuk avtomobil haydovchisiga ko'rinmaydi. Yo'l transport hodisadan qochish uchun siz ko'rinmas xudidlarda qayerda joylashganligini bilishingiz kerak. Yo'l harakati ishtirokchilari ko'rinmas xudidlarga kirmasliklari tavsiya etiladi.

Misol uchun Kobalt rusumli va Daf rusumli bo'lgan avtomobillarini bilan to'qnashuv sodir bo'lganda, Kobalt avtomashinasining orqa qanoti, orqa chap eshigi va orqa zarbqaytargichi shikastlangan, Daf avtomashinasining oldi zarbqaytargichi, oldi o'ng chiroqlari va zina bezaklari shikastlangan.

Mos iz va shikastlarni, ularning qanday joylashganligini xisobga olgan holda avtomashinalarning modellarini solishtirish natijasida ularning to'qnashuv vaqtidagi bir-biriga nisbatan xolati aniqlandi. Shunga ko'ra, to'qnashuvning dastlabki vaqtida Daf avtomashinasining oldi o'ng burchagi bilan Kobalt avtomashinasining orqa chap eshigiga tekkan va bu vaqtda ularning bo'ylama o'qlari orasidagi burchak 10+_5 daraja atrofida bo'lgan deb aytish mumkin.



2-rasm. Avtomobillarning mazkur xolatlari yo'lning elementlariga nisbatan olinmagan bo'lib, chizmada ularning modellari keltirilgan

Demak to'qnashuv vaqtida Daf avtomashinasining oldi o'ng burchagi bilan Kobalt avtomashinasining orqa chap eshigiga tekkan va bu vaqtda ularning bo'ylama o'qlari orasidagi burchak 10 ± 5 daraja atrofida bo'lgan deb aytish bo'lgan.

Yuqorida o'tkazilgan tadqiqotlardan, to'qnashuvning dastlabki Daf avtomashinasining oldi o'ng burchagi bilan Kobalt avtomashinasining orqa chap eshigiga tekkan va bu vaqtda ularning bo'ylama o'qlari orasidagi burchak 10 ± 5 daraja atrofida bo'lganligini ko'rsatdi.

Daf va Kobalt rusumli avtomashinalari harakatda bo'lganligi, avtomobillardagi sidirilish va bukilish izlari, Kobalt rusumli avtomobilining orqa chap eshigiga tekkanligi va shu vaqtdagi to'qnashuv ta'sir kuchlarining yo'nalishlarini, avtomobillarning YTH keyingi xolatlari va to'qnashuv mexanizmlarini inobatga olsak; Kobalt rusumli avtomobili harakat yo'nalishini o'ngdan chapga yo'nalishga o'zgartirgan bo'lsa, ushbu Kobalt rusumli avtomobil harakat yo'nalishini o'zgartirganligi ko'rsatdi.

Demak yuqoridagi tadqiqotlardan shunday xulosaga kelamiz, ushbu xolatda Kobalt avtomobili harakat yo'nalishini o'zgartirgan. Ehtiyot bo'lishingiz kerak, hatto yuk avtomobili yonidan o'tishingiz kerak bo'lsa ham. Siz o'ng tomondan quvib o'tolmaysiz. Sababi yuk avtomobillari yengil avtomobilini yo'ldan surib tashlashi mumkin, yuk avtomobillarining o'ng tomoni eng xavfli hisoblanadi.

"Ko'rinmas hududda" yo'l transport hodisalarning oldini olish uchun quyidagi umumiy qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

- har doim boshqa haydovchilarning to'satdan burilishi va signallariga ehtiborsiz bo'lmang;
- burilish to'g'risidagi signallari bilan boshqa yo'l foydalanuvchilarini manevrlar haqida o'z vaqtida ogohlantiring;
- qayta tizilishda ehtiyot bo'ling, har bir yo'l foydalanuvchisida "ko'rinmas hudud" borligini yodda tuting;



•bir oz vaqt ajrating va o'zingizga maksimum ko'rinishi uchun avtomobil yon oynalarini sozlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'G, J. R. Y. R., O'G'Li, A. E. X., & Hamroyevich, T. N. (2021). HAYDOVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI O'ZBEKISTON 2030 DASTURINI JORIY ETISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 749-754.

2. E Abdusamatov, S Abruyev, N Tursunov (2022). Evaluate the Economic Efficiency of Fuel Consumption of Vehicles at an Intersection. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1(3), 49-45.

3. S Abruyev, E Abdusamatov, J Choriyev (2022). Impact of Technical Means on Road Traffic Accidents. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1(3), 35-39

4. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТХ ТАҲЛИЛИ ИЮДКОР ОЪҚИТУВЧИ 2 (24), 216-219.

5. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТХ ТАҲЛИЛИ ИЮДКОР ОЪҚИТУВЧИ 2 (24), 220-222.

6. D Abdurazakova, S Utkirov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Science and innovation in the education system 2 (4), 8-10.

7. S Utkirov, E Abdusamatov, B Raxmanov (2023). ORGANIZATION OF TRAFFIC AT UNCONTROLLED INTERSECTIONS. Евразийский журнал академических исследований 3 (2 Part 2) 57-65.

8. Э Абдусаматов, Н Турсунов, Ш Ўткиров (2023). ЙЎЛ ҲАРАКАТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ОШИРИШ БЎЙИЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO 1 (6) 84-88.

9. S Utkirov (2023). YO'L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA YANGICHA MEKANIZMLARNI ISHLAB CHIQUISH. Академические исследования в современной науке 2 (4) 71-73.

10. Б Рахмат, Э Абдусаматов, Ш Шерматов (2022). ТОШКЕНТ ШАҲРИ КЎЧАЛАРИДА ТАРТИБГА СОЛИНМАГАН ПИЁДАЛАР ЎТИШ ЖОЙИДА ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ҲОДИСАЛАРИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ. ИЮДКОР О'ҚИТУВЧИ 2 (24) 44-47.

11. S Shamshir, A Erkinjon, R Baxtiyor (2023). YO'L-TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNING O'RNI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2 (20) 87-91.



AVTOMOBIL YO'L EKSPERTIZASI BO'YICHA YA'NI YO'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852671>

O'tkir Isoxanov Inoyatovich

(Toshkent davlat transport universiteti)

Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti)

Turdibekov Salohiddin Qodirovich

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'lning aybi bilan bog'liq bo'lgan yo'l transport hodisalarini yo'lning qanchalik sababli ekanligini va yo'lga nisbatan qilingan xulosalarni o'rganib va tahlil qilib chiqilgan.

Abstract: In this article, road traffic accidents related to the fault of the road are studied and analyzed to what extent the road is the cause and the conclusions made about the road.

Kalit so'zlar: yo'lning o'tuvchanlik samaradorligi, xizmat ko'rsatish darajasi, yullarni modellashtirish usullari, yo'lning texnik xolati, YTHga sababchi, xulosalar.

Key words: road permeability efficiency, level of service, road modeling methods, technical condition of the road, causes of accidents, conclusions.


Respublikamizda aholi soniga nisbatan transport vositalari soni jadal sur'atda o'sib bormoqda, shu bilan birga transport xizmatiga bo'lgan talab yanada ortmoqda. Ko'pgina shaharlar chorrahalarida qo'shimcha transport yuklanishi tirbandlik muammosini ortishiga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, o'limga olib kelgan yo'l-transport hodisalarining soni hali ham yuqori bo'lib, avtomobil yo'llarida xavfsizlikni ta'minlash tizimini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatmoqda.



1-расм. 2022-йилда O'zbekiston Respublikasida sodir bo'lgan yo'l transport hodisalari tahlili

O'tkazilgan tahlillarda ko'rishimiz mumkinki, Respublikamiz hududida birgina 2021 yilda 10 mingdan ortiq yo'l-transport hodisasi qayd etilgan. Ularda 2426 kishi halok bo'lgan, 9230 kishi turli darajadagi tan jarohatlari olgan. Yo'l-transport hodisalarining asosiy sabablari belgilangan tezlik meyoriga rioya qilmaslik – (20,1 foiz), yo'llar nosozligi – (20,1 foiz), piyodalarning yo'llarni belgilanmagan joylardan kesib o'tishiga aloqador – (13,8 foiz), quvib o'tish yoki qarama-qarshi yo'nalishga chiqish (7%), velosipedlar yo'lining qatnov qismida harakatlanishi (5,3%), haydovchilarni rulda uxlab qolishi (5,1%) va avtomobilni mast holatda boshqarish (4,2%) kabi holatlar bo'lgan.



2-rasm. 2022-yilda yo'l transport hodisalarning kelib chiqish sabablari tahlili

Chet davlatlarda yo'l sharoitining yomonligi oqibatida quyidagi miqdorda YTH umumiy soniga nisbatan Angliya - 6,7%; Ispaniya - 6,5%; Fransiya - 10,8%; Shvetsiya - 6,1%; Yugoslaviya - 20,4%; Yaponiya - 17,3% sodir etilgan.

Ohirgi yillarda respublikamiz shahar chorrahalarida, avtotransport vositalari tirbandligini kamaytirish uchun tartibga solingan chorrahaning geometrik shakli bir nechta bor o'zgartirilganligini, ya'ni an'anaviy chorrahadan aylanma harakatlanishli yo'l kesishmasiga, aylanma harakatlanishli yo'l kesishmasidan an'anaviy chorrahaga o'zgartirilganligini kuzatish mumkin. Bu kabi o'zgartirishlar shahar ko'chalari infratuzilmasi uchun qo'shimcha qurilish harajatlarini talab etishi bilan birga yo'l texnik xolatlari va ish unumdorligiga YTHga qanchalik ta'sir qiladi.

Ko'pincha, yo'l texnik xolatlari ekspertizasida YTH qanday ta'sir qilishi mumkinligi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. Shu sababdan muayyan joy uchun uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishda eng maqbul variantni asoslashda tizimli baholash talab etiladi.

So'ngi yillarda jihozlangan harakatliklar keng ko'lamda foydalanib kelinsada, rivojlanayotgan davlatlarda, shu qatori yurtimizda harakatlanishli yo'llarni qurishda aniq YTHlarda yo'lning texnik xolati inobatga olinmaydi va yo'lning texnik xolati ekspertizasini o'tkazishlar, YTH vaqtida yo'lning xolatining qanchalik YTH bo'lishi inobatga olinmasdan kelingan va yo'lning texnik xolati ekspertizalari va tadqiqotlarga kiritilmagan. Ushbu turdagi yo'lning texnik xolati ekspertizalari yo'lga qo'ish va yo'lning xolati qanchalik aybi borligi, xaydovchining YTH kelib chikishiga sababchi bo'lganligi aniqlash va to'g'ri xulosa olishga katta imkoniyatlar eshigi ochilar edi.

Maqolaning maqsadi YTHlarda xaydovchilarning qanchalik sababchi bo'lganligi yoki yul texnik xolati (yo'l ko'rinishi, yo'lning sozligi, yo'lning qoplamasning sozligi,



yo'ldagi o'rnatilgan harakatni boshqarishdagi texnik vositalar va xakozalarni) aniqlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Васильев А.П. Эксплуатация автомобильных дорог / Васильев А.П. - Москва: Академия. -Т.1.- 2010. - 315 с.
2. Васильев А.П. Эксплуатация автомобильных дорог / Васильев А.П. - Москва: Академия. - Т.2.-2010. - 319с.
3. Васильев, А.П. Ремонт и содержание автомобильных дорог: справочная энциклопедия дорожника (СЕД). Т.2 / Васильев А.П. [и др.]; под редакцией А.П. Васильева. - М.: Информавтодор, 2004. -507 с.
4. Садило. М. В. Автомобильные дороги: строительство и эксплуатация: учебное пособие / М. В. Садило, Р.М.Садило. - Ростов н/Д: Феникс, 2011. - 367 с.
5. Сильянов. В. В. Транспортно эксплуатационные качества автомобильных дорог и городских улиц/ В. В. Сильянов, Э. Р. Домке. - М.: Академия, 2007.-352 с.
6. Эксплуатация автомобильных дорог и орган из азия дорожного движения: Учебник для ВУЗов/ под редакцией А.П. Васильева - М: Транспорт, 1990. - 304 с.
6. O'G, J. R. Y. R., O'G'Li, A. E. X., & Hamroyevich, T. N. (2021). HAYDOVCHILARNI TAYYORLASHDA RAQAMLI O 'ZBEKISTON 2030 DASTURINI JORIY ETISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(9), 749-754.
7. E Abdusamatov, S Abruyev, N Tursunov (2022). [Evaluate the Economic Efficiency of Fuel Consumption of Vehicles at an Intersection](#). Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1(3), 49-45.
8. S Abruyev, E Abdusamatov, J Choriyev (2022). [Impact of Technical Means on Road Traffic Accidents](#). Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1(3), 35-39
9. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) [ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТХ ТАХЛИЛИ](#) IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 216-219.
10. Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022) [ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТХ ТАХЛИЛИ](#) IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24), 220-222.
11. Б Рахмат, Э Абдусаматов, Ш Шерматов (2022). [ТОШКЕНТ ШАХРИ КЎЧАЛАРИДА ТАРТИБГА СОЛИНМАГАН ПИЁДАЛАР ЎТИШ ЖОЙИДА ЙЎЛ-ТРАНСПОРТ ХОДИСАЛАРИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ](#). IJODKOR O'QITUVCHI 2 (24) 44-47.



12. S Shamshir, A Erkinjon, R Baxtiyor (2023). [YO'L-TRANSPORT HODISALARINI OLDINI OLISHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARNING O'RNI](#). MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH 2 (20) 87-91.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852675>

Qurbonov Sanjar

Xorazm viloyati PYMO'MM, katta o'qituvchi
qurbanovsanjar75@mail.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida matematik tushunchalarni shakllantirishda "Mozaika" strategiyasidan foydalanishning amaliy qo'llanilishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: mantiq, tanqidiy fikrlash, tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, aniqlashtirish, mavhumlashtirish.

Аннотация: В данной статье показано практическое применение использования стратегии «Мозаика» в формировании математических понятий у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: логика, критическое мышление, анализ, синтез, сравнение, классификация, обобщение, уточнение, абстракция.

Abstract: This article shows the practical application of using the "Mosaic" strategy in the formation of mathematical concepts in elementary school students.

Key words: logic, critical thinking, analysis, synthesis, comparison, classification, generalization, clarification, abstraction.

Mantiq to'g'ri fikrlash qonuniyatlari va shakllarini o'rganadi. Pedagogika uchun mantiqni bilish juda muhimdir. Har bir o'quv fanining mantiq'i uni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar tomonidan shakllantirilishi kerak bo'lgan mantiqiy amallar tizimini, ular erishishi kerak bo'lgan umumlashmalarni belgilaydi.

Fikrlash o'yin, ta'lim, mehnat va boshqa turli faoliyat turlarida rivojlanadi. Agar ta'lim tizimli tashkil etilsa, o'z-o'zidan mantiqiy bo'lsa, o'quvchilar o'quv jarayonida o'ylash va fikrlash orqali o'rgansa, ularning mantiqiy tafakkuri yanada muvaffaqiyatli rivojlanadi. Kognitiv faoliyat muvaffaqiyatli faollashadi va rivojlanadi, qachonki, o'quvchilar yangi savollardan xabardor bo'lib, ularga javob izlashda, avval o'qituvchi bilan hamkorlikda, so'ngra mustaqil ravishda, asta-sekin oddiydan murakkabroq savollarga o'tilsa.

Darhaqiqat, ijodiy fikrlash va tanqidiy fikrlash hozirgi ta'limning dolzarb mavzularidan biridir. Samarali va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun ijodiy fikrlash tanqidiy fikrlash bilan to'ldirilishi kerak. Agar jarayonga tanqidiy nuqtai nazar bilan qaramasangiz, ijodkorlik har doim samarasiz bo'ladi.



Tanqidiy fikrlash - bu ma'lumotlar, g'oyalar va dalillarni sinchkovlik bilan baholash, shuningdek, fikrlash jarayonini chuqur tushunish orqali ishlarning haqiqiy holatini bilish uchun faol izlanish.

Ta'limning har bir bosqichidagi har bir fanning mazmuni o'quvchilarga nafaqat idrok etish va takrorlashni, balki aks ettirishni ham talab qiladigan savollarni qo'yish imkonini beradi. Bunday ishlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni savollarni tanib olish, ularni aniqlashtirish yo'llarini topish, buning uchun zarur bo'lgan amallarni bajarish va to'g'ri xulosalar chiqarishning umumlashtirilgan qobiliyati. Fikrlash o'rganish qobiliyatining markazidir.

Ko'pincha 1-sinfga chiqqan bolalar o'qiy oladi, hisoblaydi va maktabga to'liq tayyor bo'lib tuyuladi. Biroq, ba'zi o'quvchilar o'qishning birinchi oylaridayoq muammolarni hal qilish va tushuntirish, muayyan qoidalar va tushunchalarni shakllantirish, sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatish va asoslashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bunday vaziyatning umumiy sabablaridan biri - mantiqiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligidir.

Bolaning his-tuyg'ulari va idroklariga asoslangan mantiqiy fikrlashni qanchalik tezroq rag'batlantirish va rivojlantirishni boshlasangiz, uning kognitiv faolligi shunchalik yuqori bo'ladi, aniq fikrlashdan murakkabroq shaklga silliq tabiiy o'tish tezroq bo'ladi.

Bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchi turli mashqlar va o'yinlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Buning uchun:

- fikrlashning barcha bosqichlari ya'ni tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, aniqlashtirish, mavhumlashtirishni o'z ichiga olgan mashqlarni tanlang;

- fikrlashni rivojlantirish uchun mo'ljallangan vazifalardan bolaning nutq faolligi eng ko'p bo'lganini tanlang;

- mashqlardagi vazifalarni murakkabligi ortib borishi tartibida joylashtirish;

- qiyinligi yuqori bo'lgan mashqlar o'quvchidan katta kuch talab qilmaydigan osonroq mashqlar bilan almashtirilishi kerak, bu unga o'z qobiliyatiga ishonchni oshirishga va keyingi ishiga moslashishga imkon beradi;

- mashqning murakkabligi o'quvchining qobiliyatiga mos kelishi kerak.

Zamonaviy uslubiy adabiyotlarda siz mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga hissa qo'shadigan juda ko'p mashqlar va o'yinlarni topishingiz mumkin. Ular barcha o'quvchilar uchun dolzarbdir.

O'z darslarida o'qituvchi nutqni rivojlantirish orqali fikrlashni yaxshilash uchun barcha nutq materialini tanlaydi, chunki nutq materialining o'zi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash kabi fikrlash amaliyotini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, tovush nutq oqimidan ajratilganda, nafaqat bolalarning fonemik eshitishlari, balki tahlil va sintez kabi aqliy amaliyoti ham rivojlanadi. Maktab o'quvchilarining so'z boyligining kengayishi bilan bir-biriga bog'liq so'zlar guruhlarini tasniflash qobiliyati shakllanadi, shu bilan umumlashtirish va tasniflash kabi fikrlash



amaliyoti rivojlanadi. O'qituvchi grammatik ko'nikmalarni rivojlantirish ustida ishlaganda, o'quvchilar so'z birikmalarini tushunish va to'g'ri qo'llash, rasm asosida gaplar tuzish, shu orqali so'zlarning ma'nosi ustida ishlash, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishni o'rganadilar, mantiqiy hukm chiqarishni rivojlantiradilar.

Butun ob'ektni nomlash yoki qismlarni nomlash orqali butunni topish mashqlari juda foydali. Bu ish so'z boyligini faollashtiradi, guruhlaydi, shu orqali tasniflash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Darslarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan hamkorlikda izlash mulohazalarga katta e'tibor berilishi kerak. Buning uchun bolalarni umumiy tushuncha, muhim xususiyatlar atamalari bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tushunchalardan foydalanib, o'quvchilar mustaqil ravishda harakat qilishadi, mavzuning ta'rifini shakllantirishadi. Masalan:

O'qituvchi: Terak kabi ob'ekt uchun umumiy tushunchani tanlang.

Bolalar: Bu daraxt.

O'qituvchi: Archa, qarag'ay ham daraxtlardir. Ular terakdan qanday farq qiladi?

Bolalar: Barglari bilan farqlanadi.

O'qituvchi: Shunday qilib, terak - bargli daraxt, qarag'ay - ignabargli. Terakning barcha muhim xususiyatlarini nomlang.

Bolalar. Oq, ko'k po'stlog'i va yurak kabi barglari bor.

O'qituvchi. Xo'sh, terak so'zi nimani anglatadi?

Bolalar. Terak - oq, ko'k po'stlog'i va yurak shaklidagi barglari bo'lgan bargli daraxt.

Bunday mulohaza yuritish jarayonida o'quvchilar asosiy narsani ko'rishni o'rganadilar, ularning tushuncha apparati shakllanadi, tushunchalar o'rtasidagi bog'lanish turlarini o'rnatishni o'rganadilar, mavhumlashtirish darajasiga erishadilar. Bunday ishlardan so'ng o'rganilayotgan so'zga etimologik ma'lumot berish, shu orqali o'quvchilarning dunyoqarashini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Darslarda xalq og'zaki ijodi materialidan foydalanish: maqollar, matallar, iboralar - bolalarning so'z boyligini kengaytiradi va mavhum fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi.

Darslarga qiziqishni saqlab qolish va fikrlashni rivojlantirish uchun bajarilgan ishlarga ijobiy munosabatda bo'lishga, ish faoliyatini yaxshilashga va materialni bir xillik va zerikishsiz ko'p marta takrorlashga imkon beradigan didaktik o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Taqqoslash, umumlashtirish qobiliyati mantiqiy ravshanlikda, nutqning isbotida namoyon bo'ladi, bu bolalarni muvofiqlashtiruvchi va bo'ysunuvchi bog'lanishlar bilan murakkab sintaktik tuzilmalardan foydalanishga o'rgatadigan mashqlar yordam beradi. Misol uchun: "Men sharni kubning yoniga qo'yish kerak, deb hisoblayman, chunki shar, kub kabi fazovaviy shakldir." Maktab o'quvchilarini ob'ekt yoki hodisaning xususiyatlarining umumiylikini hisobga olish qobiliyatini o'zlashtirishga o'rgatish juda muhimdir. Ushbu ko'nikma muammolarni hal qilish, topishmoqlarni topish va tuzish, syujet rasmini to'g'ri tasvirlash uchun talab qilinadi. Sinfda



ma'lumotlar bilan ishlashda bolalar tahlil va sintez, guruhlash, tasniflash, umumlashtirish usullaridan foydalanadilar, kuzatishlar asosida mustaqil ravishda xulosalar chiqaradilar.


Mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi o'yinlardan bir nechtasini ko'rib chiqamiz.

"Tavsif" o'yinida o'quvchilarga bir xil va turli xil xususiyatlarga ega bo'lgan beshta tasvir taklif etiladi. Buyumning tavsifi rasmlardan birida berilgan. O'quvchilar qaysi mavzu muhokama qilinayotganini taxmin qiladilar va ushbu mavzuning o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarini aytishadi. (1-rasm).



(1-rasm)

"Tasnif" o'yini orqali o'quvchilar tasniflash, taqqoslash, umumlashtirishni mashq qilishadi. Rasmi jadval berilgan bo'lib, birinchi qatorda chumchuq, kaptar, hakka; ikkinchisida - bo'ri, asalari, tulki, uchinchisida - qaldirg'och, sigir, kapalak tasvirlangan. O'qituvchi jadvalda tasvirlanganlarning barchasini nomlarini so'raydi. (2-rasm)



(2-rasm)

Shundan so'ng quyidagi savollar beriladi:

1. Birinchi qatordagilarni umumiy qanday nomlash mumkin? (*qushlar*)
2. Jadvalda nechta qush bor? (*to'rta*) Ularni nomlang. (*chumchuq, kaptar, hakka, qaldirg'och*)
3. Hayvonlar ko'pmi yoki hasharotlar? (*hayvonlar*)
4. Rasmdagilarni necha guruhga bo'lish mumkin? (*uch*)
5. Dioganaldagi rasmlarga qarang. Ularda qanday umumiylik bor? (*Hammasi uchadi*)
6. Ikkinchi va uchinchi ustunlarni solishtiring. Nimani sezdingiz? (*Har bir ustunda qush, hayvon, hasharot tasvirlangan*)

"Bo'g'in" o'yini tahlil va sintez kabi fikrlash jarayonlarini shakllantiradi. Bu o'yinda bir nechta so'zlar qatori beriladi va har bir so'zdan faqat birinchi, ikkinchi, oxirgi bo'g'in olinib, yangi so'z hosil qilinadi.

Bekat, dala, navo (bedana) - birinchi bo'g'inga ko'ra;

Pomidor, binokor, qoraqat (minora) - ikkinchi bo'g'inga ko'ra;



Olifta, fuqaro, qazi (taroz) - oxirgi bo'g'inga ko'ra;

Daryo, favvora, munozara, jibljibon (darvozabon) - yashirin so'zni toping.

Bu usuldan foydalanib, siz yangi lug'at so'zlarini, mavzu nomini shifrlashingiz mumkin.

“Ortiqcha” o'yini o'quvchilarning umumiy tushunchalarni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi va induktiv nutq tafakkurini shakllantiradi.

1. Harflar o'rnini o'zgartirib, so'z hosil qiling va qaysi so'z ortiqcha ekanligini ayting: *okbit, lamaq, zaqumqomy, tadraf, ichzichg'*.

2. So'zlarning shifrini aniqlang va ularni qanday birlashtirish mumkinligini ayting: *ebih, isogl, og'loshm, talfisho, shavanit*.

Shunday qilib, o'quvchilarning fikrlash jarayonini shakllanishida ta'lim faoliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi, uning bosqichma-bosqich murakkablashishi esa mantiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga olib keladi. Biroq, bolalarning aqliy faoliyatini faollashtirish va rivojlantirishda, ular uchun qiziqarli, standart bo'lmagan vazifalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Fikrlashning rivojlanishiga bolaning harakatlari va qiziqishi qandaydir ruhiy muammolarni hal qilishga qaratilgan har qanday faoliyat yordam beradi. Shunday ekan, dars jarayonida mantiqiy topshiriqlar, turli boshqotirmalar va mashqlar, didaktik o'yinlar, ko'rgazmali materiallardan foydalanish o'quvchilarning o'z mulohazalarini asoslash, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi, taklif qilingan hukmlardan xulosa chiqarishni o'rgatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Непряхин Н. Анатомия заблуждений. — «Альпина Паблицер», 2020.— 54 с.

2. Чатфилд Т. Критическое мышление. Анализируй, сомневайся, формируй свое мнение. — «Альпина Диджитал», 2018.— 32 с.

3. Лау, Дж.У. Введение в критическое мышление и теорию креативности. — М.: Эксмо, 2017. — 7 с.

4. Bikbayeva N.U., Girfanova K.M. 4-sinf Matematika. Toshkent: «O'qituvchi», 2020. — 177 b.



XALQARO ARBITRAJDA MAXFIYLIK VA OSHKORALIK O'RTASIDAGI QARAMA QARSHILIKLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852680>

Ummatov Muhsinjon Xasanboy o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

"xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik" fakulteti talabasi

muhsinbekummatov699@gmail.com

+998 93 001 19 47

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro arbitrajda maxfiylik va oshkoralik, ularning afzalliklari bo'yicha fikr mulohazalar ketadi. Qonun hujjatlari asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: reglament, arbitror, qonun, maxfiylik, arbitraj qarorilari.

Kirish

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda chet el investitsiyalarini, shu jumladan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda manfaatdor davlatlar faoliyatining ustuvor yo'nalishi qulay huquqiy muhitni yaratish, qonunlarni va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hisoblanadi. Nufuzli, malakali arbitraj sudlari davlatning xalqaro ishbilarmonlik muhitida obro'li qiyofasini shakllantiradi, obro'-e'tiborini mustahkamlaydi, bu esa o'z navbatida iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, shu jumladan qulay investitsiya muhitini yaratishga olib keladi. Shu munosabat bilan UNCITRAL Xalqaro savdo arbitraji to'g'risidagi Namunaviy qonun asosida, shuningdek arbitraj muhokamasi sohasida jahon amaliyotini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasining "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. Mazkur qonun 56 ta moddani o'z ichiga olgan bo'lib, 8 ta bobdan iborat hisoblanadi. Unda asosiy tushunchalar, qonunning qo'llanilish sohasi, xalqaro tijorat arbitrajiga hal etish uchun topshiriladigan nizolar, arbitrlarning va arbitraj muhokamasi boshqa ishtirokchilarining immuniteti, arbitraj sudining mustaqilligi, sud aralashuvining chegaralari, sudning vakolati, yozma xabarlarini olish, e'tiroz bildirish huquqidan voz kechishga oid normalar belgilangan. Mazkur Qonunning 53-moddasiga ko'ra, agar taraflar boshqacha kelishib olmagan bo'lsa, arbitraj muhokamasi va arbitraj muhokamasi uchun tayyorlangan hamda ushbu muhokama jarayonida tayyorlangan barcha hujjatlar maxfiy xususiyatga ega bo'ladi, bundan ushbu axborotni oshkor etish:

- 1) qonunchilikka muvofiq tarafning majburiyati bo'lgan
- 2) uchinchi shaxslarni huquq va qonuniy manfaatlarni himoya qilishga yoki uni amalga oshirishga qaratilgan;
- 3) arbitrajning hal qiluv qarorini ijro etish yoki ushbu qaror yuzasidan sudda



nizolashish uchun zarur bo'lgan hollar mustasno⁷³ ekanligi belgilab qo'yilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Maxfiylik ko'pincha xalqaro arbitrajning asosiy afzalliklaridan biri sifatida qaraladi. Masalan, maxfiylik maxfiy ma'lumotlarning oshkor etilishini va jamoatchilik fikrining ta'sirini kamaytiradi. Maxfiylikni maxfiylikdan farqlash kerak, chunki faqat arbitraj kelishuvi taraflari sud majlisida qatnashishi va arbitraj muhokamasida ishtirok etishi mumkin. Arbitraj muxokamasi maxfiyligi uchinchi shaxslarning jarayonga aralashishiga yo'l qo'ymasligini nazarda tutsa, konfidensiallik esa taraflarning arbitraj muhokamasi bilan bog'liq ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik majburiyatlarini bildiradi.

Maxfiylik prinsipi amal qilishi boyicha turli davlatlarning milliy arbitraj qonunchiligidagi farqlar mavjudligi tufayli xalqaro arbitrajda maxfiylikni tartibga solish bo'yicha qarama qarshiliklar vujudga keladi. Xalqaro arbitraj konventsiyalarida maxfiylik to'g'risida aniq tushuncha berib o'tilmagan. Mazkur holatda maxfiylik prinsipining doirasi milliy qonunchilik bilan belgilanadi.

Xalqaro arbitrajda maxfiylik boyicha partiyalar avtonomligi tushunchasi mavjud. Bunda taraflar arbitraj muhokamasining maxfiyligi to'g'risida kelishib olish huquqiga ega. Bu huquq zamonaviy huquq tizimlarida tan olingan partiyalar o'zlarini xalqaro maydonda avtonomlikni amalga oshirishidan kelib chiqadi. Ular arbitraj muhokamasi bo'yicha, maxfiylik to'g'risida shartnoma tuzishlari mumkin. Bunday kelishuvlar vaqtinchalik choralar yoki boshqa tegishli himoya vositalari bilan himoyalaniishi mumkin bo'lgan huquqlarni ta'minlaydi. Biroq, maxfiylik to'g'risidagi shartnomalar uchinchi tomonlarni emas, balki faqat ushbu shartnoma taraflarini bog'laydi, shuning uchun uchinchi shaxslar olingan materiallarni hech qanday maxfiylik cheklovlarisiz oshkor qilishlari mumkin.

Muhokama va natijalar

Angliya, Fransiya va AQShda maxfiylikni saqlash majburiyati tomonlar maxfiylik qoidalariga aniq rozi bo'lmagan hollarda, milliy sudlar maxfiylikni saqlash bo'yicha nazarda tutilgan majburiyatlarni ta'minlashlari mumkinligini belgilab beradi.

Xususan, agarda taraflar maxfiylik boyicha kelishuvga erisha olmagan bo'lsalar, ingliz sudlari arbitraj kelishuvi mavjudligi sababli maxfiylik bo'yicha nazarda tutilgan majburiyatlarni o'zlari o'rnatadilar. Ingliz sudlari arbitraj muhokamasining maxfiyligini maxfiylik majburiyati deb hisoblashadi. Ushbu qarorlarning mantiqiy asosi shundaki, nazarda tutilgan majburiyat arbitraj sudining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Biroq, agar biron bir tomonning huquqlarini himoya qilish uchun oshkor qilish zarur bo'lsa, bu prezumpsiya sud tomonidan rad etish mumkin. Ingliz sudlari odatda arbitraj muhokamasi materiallarini himoya qiladi, shu bilan birga taraflarning huquqlarini himoya qilish uchun arbitraj sudining qarorlarini oshkor qilishga ruxsat beradi.

⁷³ ORQ-674-Son 16.02.2021. Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida



Fransiya qonunchiligiga ko'ra, dastlabki sud amaliyotida arbitraj muhokamasi arbitraj kelishuvidan kelib chiqadigan maxfiylik majburiyatiga bog'liqligini ko'rsatdi. Biroq, keyinchalik Fransiya ichki arbitraj uchun aniq maxfiylik majburiyatini o'z ichiga olgan qonunchilikni qabul qildi, bu xalqaro arbitrajga tatbiq etilmagan. Ushbu istisno xalqaro investitsion arbitrajda shaffoflikni oshirish tendentsiyasining natijasi sifatida tushuntirildi. Xalqaro tijorat arbitraji uchun fransuz sudlari tomonidan ilgari tan olingan majburiyat o'z kuchini saqlab qoladi, deb bahslashish mumkin. Biroq, bu noaniqlik tufayli, Fransiyada arbitraj uchun, arbitraj kelishuviga maxfiylik bandini kiritish tavsiya etiladi.

Qo'shma Shtatlarda tomonning so'rovidan keyin ko'pincha arbitraj muhokamasini oshkor qilish holatiga yo'l qo'yiladi. Sudlar odatda arbitraj muhokamasida vakillik, dalillar va stenogrammalarni ishlatishga ruxsat beradi. Biroq, bu maxfiylik bo'yicha nazarda tutilgan majburiyatga ta'sir qilmaydi. Ba'zan sud arbitraj kelishuvida maxfiylik to'g'risidagi aniq qoidalarga yoki arbitraj sudining qonunchiligiga binoan maxfiylik bo'yicha yashirin majburiyatlarning mavjudligiga qaramay stenogrammadan foydalanadi.

Maxfiylik har doim xalqaro tijorat arbitrajining afzalliklaridan biri hisoblangan. Doktrinalarda va arbitraj amaliyotida bu muammoga ikkita qarama-qarshi yondashuv mavjud. Klassik yondashuvga ko'ra, "ko'zda tutilgan maxfiylik" mavjud arbitrajning xususiy huquqiy tabiati⁷⁴ (Dolling-Baker v Merret (1990) sifatida namoyon boladi. Bu yondashuv Angliya, Shveysariya, Fransiyada rivojlangan. Biroq, hozirgi xalqaro tijorat arbitrajining rivojlanish tendentsiyasi maxfiylik prezumpsiyasini rad etish va bir qator qoidalarni joriy etish tarafdori hisoblanadi. Ushbu tamoyildan istisnolar Avstraliya, AQSh davlatlaridagi huquq tizimi mamlakatlari uchun xosdir.

Arbitraj institutlari va reglamentlaridagi maxfiylik prinsipining ayrim istisno holatlari qo'llanilmoqda: o'z huquqlarini himoya qilish, jamoat manfaatlarini yoki odil sudlovni himoya qilish zarurati vujudga kelganda; boshqa tarafning ishni oshkora tartibda ko'rishga roziligi mavjud bo'lganda; sud hal qiluv qarorini ijro qilish zarurati. Faktgina ayrim arbitraj bo'yicha reglamentlar maxfiylik masalasi bo'yicha qoidalarni o'zida nazarda tutadi. Lekin hamma uchun bir xil bo'lgan maxfiylik tushunchasi belgilab qo'yilmagan. Arbitraj shartnomasini tuzishda u yoki bu reglament qoidalariga amal qilinishi bo'yicha shart qo'yishdan oldin reglament qoidalari bilan tanishib chiqish, undagi maxfiylik bo'yicha shartlashuv kimning majburiyatiga aylanishi va qaysi holatlarda maxfiylik qoidalaridan istisno qilish mukinligi masalalarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Qoida bo'yicha maxfiylikni saqlash, taraflar, arbitraj sudi, ekspertlar, guvohlar zimmlariga tushadi. Maxfiylik shartnomasining predmeti arbitr muhokamasi, protsessual yoki boshqa hujjatlar, nizoning mavjudligi holati, sud muhokamasi ishtirokchilarining shaxsi, arbitraj sudi hal qiluv qarori bo'lishi mumkin.

⁷⁴ Dolling-Bekker va Marret (1990)-



Belorussiya Savdo-sanoat palatasi huzuridagi Xalqaro arbitraj sudi reglamenti maxfiylik prinsipini umumiy qoidalar asosida tartibga soladi. Reglamentning 13-bandida ishlarni maxfiy tarzda ko'rilishi bo'yicha umumiy prinsip mavjud, mazkur prinsip Reglamentning 16-bandida mazmuni ochib berilgan, unga ko'ra, agar taraflar tomonidan ishni ochiq tartibda ko'rib chiqish bo'yicha qaror qabul qilinmagan taqdirda ishni muhokamasi yopiq tarzda olib borilishi ko'rsatilgan.

Xalqaro arbitraj sudi a'zolari va boshqa xodimlari boshqa arbitrlar yopiq sud majlisida ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, sud tomonidan taraflarning hohishiga ko'ra ikki kishidan ko'p bo'lmagan shaxslarni sud majlisiga kiritishi mumkin. Yopiq sud majlisi ishtirokchilari sud muhokamasi bo'yicha olingan ma'lumotlarni sir tutishlari shartligi haqida barcha ishtirokchilarga e'lon qiladi. Ko'rib turganimizdek, Belorussiya Respublikasi arbitraj sud bo'yicha qonunchiligida umumiy qoidalar o'z aksini topgan xolos. Reglamentda maxfiylik bo'yicha aniq qoidalar o'rnatilmagan. Mazkur holatda himoya choralari bo'yicha alohida normalarning o'rnatilmaganligi ikkinchi tarafga qulaylik vujudga keltirib qonunni sharxlashda ustunlik berishi mumkin.

Xalqaro arbitraj amaliyotida quyidagi himoya vositalari uchrab turadi. Ular: sud taqiqi, zararlarni qoplash bo'yicha va da'voni ta'minlash bo'yicha choralarni ko'rish. Biroq taraflar tomonidan sudning u yoki bu himoya choralari ko'rilishida asosli qaror chiqarayotganligi bo'yicha nizolar kelib chiqishi, shuningdek, maxfiylik buzilganligi sababli kelib chiqqan zararlarni bo'yicha noroziliklar bo'lishi extimoli mavjud. Ko'pchilik holatlarda sudlar masalani qanday tartibga solish bo'yicha aniq qoidalar reglamentda mavjud bo'lmaganda, ularni bu maxfiylik masalasi bo'yicha masalani yechishga vakolatlari yo'qligini ko'rsatadilar.

Taraflarga kelajakda shartnoma yuzasidan nizolarni ko'rib chiqishda arbitraj sudida kelishmovchiliklar vujudga kelmasligi uchun quyidagilar maslahat beriladi: shartnomaga maxfiylik bo'yicha xalqaro hujjatlarga amal qilish bo'yicha shart kiritish; alohida maxfiylik bo'yicha shartnoma tuzish, arbitraj sudlovi jarayoni bo'yicha reglament tanlashda aniq qoidalar to'liq aks etganligiga alohida e'tibor qaratish va uni amal qilishini shartnomaga kiritish.

2013-yilda Birlashgan Millatlar tashkilotining xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (UNCITRAL) xalqaro shartnomalar asosida investorlar va davlatlar o'rtasidagi arbitraj muhokamasi sharoitida shaffoflik qoidalarini ishlab chiqdi.

Mazkur qoidalar UNCITRAL arbitraj reglamentining ajralmas qismiga aylandi. Qoidalar sakkiz ta normani o'z ichiga oladi. Birinchi norma hujjatni qo'llash sohasiga bag'ishlangan. Qoidalar 2014-yil 1-aprelda yoki undan keyin tuzilgan xalqaro investitsiya shartnomalari bo'yicha UNCITRAL arbitraj qoidalariga muvofiq qo'zg'atilgan investorlar va qabul qiluvchi davlatlar o'rtasidagi nizolar bo'yicha qo'llaniladi.

Qoidalar xalqaro shartnoma taraflari boshqacha kelishuv tuzishlarini rad etmaydi. Qoidalar agar arbitraj muhokamasi taraflari ularni qo'llashga rozi bo'lsa yoki



xalqaro investitsiya shartnomasi taraflari 2014-yil 1-apreldan keyin kelishib olgan bo'lsa ham qo'llanilishi mumkin.

Mazkur Qoidalar nafaqat UNCITRAL arbitraj reglamentlari bo'yicha qo'llanilishi mumkin, balki boshqa arbitraj reglamentlari bo'yicha ham qo'llanilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, qoidalar agar bu xalqaro shartnomada nazarda tutilmagan bo'lsa nizo taraflariga orqaga chekinish imkoniyatini bermaydi.

Hozirgi vaqtda foydalanishda ijobiy natijaga erishish maqsadida Kanada bilan bog'liq to'rtta investitsiya nizolari bo'yicha hujjatlar UNCITRAL restriga kiritilgan.

Taraflardan biri arbitraj to'g'risida xabar olganidan so'ng darhol xabarnomaning nusxasini UNCITRAL axborot zaxirasiga yuboradi.

Da'vogar yoki javobgar tomonidan da'vo nusxasi axborot saqllovchi zaxiraga kiritilgandan so'ng zaxira tomonlarning nomlari, ular tomonidan amal qilinayotgan reglament, qaysi soha bo'yicha ya'ni iqtisod, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, energetika sohalari bo'yicha ajratib oladi.

Oshkor etilishi mumkin bo'lgan hujjatlar arbitraj tomonidan tomonlarga tanishib chiqish uchun berilgan tilda va shaklda yuboriladi va axborot zaxiraida saqlanadi. Hujjatlarni olishga ruxsat berilgan taraf hujjatlarni yuborish, nusxa ko'chirish xarajatlarini berishi lozim bo'ladi.

Qoidalarining 3-moddasida ochiq e'lon qilinishi mumkin bo'lgan hujjatlar ro'yxati keltirib o'tilgan. Bular: arbitraj bo'yicha xabarnoma, arbitraj xabarnomasiga javob; da'vo arizasi; da'vo bo'yicha e'tiroz, nizo taraflarining yozma da'volari va iltimosnomalari; yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarga keltirilgan dalillar ro'yxati, ekspertlar xulosasi, guvohlar ko'rsatmalari, uchinchi shaxslarning da'volari, muhokama bayonnomalari, arbitraj sud qarorlari.

Xalqaro shartnomalar asosida investorlar va davlatlar o'rtasidagi arbitraj muhokamasi sharoitida shaffoflik qoidalari bo'yicha sud muhokamasi ochiq tarzda o'tkaziladi. Lekin maxfiy axborotni sir tutilishi lozim bo'lgan holatda sud tomonidan muhokamaning ayrim qismlari ya'ni maxfiy hujjat bilan bog'liq qismi bo'yicha ish ko'rilayotgan paytda sud majlisi yopiq tarzda o'tkazilishi mumkin. Taraflar bilan maslahatlashgandan so'ng qaysi bir ma'lumotlar maxfiy bo'lishi bo'yicha kelishib olinadi. Arbitraj tomonidan hujjatdagi qaysi axborotlar oshkor etilishi mumkinligi masalasi ko'rib chiqiladi, bunda hujjatdagi maxfiy deb topilgan qism taraflar tomonidan chaqirib olinadi. Shu bilan birga arbitraj sud tomonidan javobgar tomonning davlatidan xafsizlikka va manfaatlarga zarar yetkazuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishni talab qtilishi mumkin emas.

Qoidalarda quyidagi ma'lumotlar himoya qilinadi:

- a) maxfiy tijorat ma'lumotlari;
- b) xalqaro shartnomaga muvofiq oshkoralikdan himoyalangan ma'lumotlar;
- c) oshkoralikdan himoyalangan ma'lumot; Ma'lumot javobgar davlat tomonidan, davlat qonuniga muvofiq taqdim etilgan bo'lsa, boshqa ma'lumotlar



bo'lsa har qanday qonun yoki qoidalarga muvofiq, arbitraj sudi bunday ma'lumotlarni oshkor qilish yoki qilmaslik masalalarini ko'rib chiqadi;

d) oshkor etilishi qonun hujjatlariga rioya qilinishiga to'sqinlik qiladigan ma'lumotlar (Qoidalarining 7-moddasi 2-bandi).

Nizo taraflari bilan maslahatlashgandan so'ng, arbitraj sudi maxfiy yoki himoyalangan ma'lumotlarning oshkor qilinishini oldini olish choralari ko'radi.

Konventsiya ushbu moddada ko'rib chiqilgan qoidalarni investorlar va davlatlar o'rtasidagi har qanday arbitraj muhokamasiga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Ushbu Mavrikiya konventsiyasining muqaddimasida o'z ifodasini topgan Mavrikiy konventsiyasini ishlab chiquvchilarning fikriga ko'ra, " shaffoflik qoidalari muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xalqaro investitsiya nizolarini adolatli va samarali hal etish uchun kelishilgan huquqiy asosni shakllantirishga qo'shgan hissasi shaffoflikni oshiradi, javobgarlik va yaxshi boshqaruvga hissa qo'shadi..."

Xalqaro biznes bozorining yirik sub'ektlari o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqishda, ma'lum ma'lumotlarni oshkor qilishda zarar etkazish xavfi tufayli, ko'pincha maxfiylik masalasi paydo bo'ladi. Maxfiylik tushunchasi bir necha jihatlarni nazarda tutadi. Birinchidan, arbitraj muhokamasining maxfiyligi oshkoralikni istisno qiladi, ya'ni uchinchi shaxslar (shu jumladan matbuot, jamoatchilik), har xil turdagi tashkilotlar arbitraj muhokamalarida ishtirok etishga yoki tomonlarning tegishli roziligi olinmasa, tomonlarning ishi materiallariga kirishni talab qilishga haqli emas.

Arbitraj sudining hakamlari va xodimlari taraflar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlari, bunday ma'lumotlarni taqdim etishda arbitraj sudining tarafi bo'lmagan shaxsning so'rovini rad etishlari kerak. Maxfiylikni huquqiy belgilashda ushbu kontseptsiya ikki jihat bilan belgilanadi, ya'ni maxfiylik prinsipini tarqatish predmeti va ob'ekti. Maxfiylikning subyektiv jihati maxfiylikni saqlash majburiyatining egasi kimligini aniqlaydi, masalan, arbitraj muhokamasi taraflari, arbitraj sudyalari, arbitraj sudi kotibiyati, arbitraj muhokamasi taraflari vakillari (advokatlar), shuningdek protsessda ishtirok etadigan uchinchi shaxslar. Maxfiylik prinsipining ob'ektiv tarafi nuqtai nazaridan, ushbu prinsipga bo'ysunadigan ob'ektlar (hujjatlarning) hisobga olinishi kerak, masalan, tinglash jarayonida oshkor qilingan ma'lumotlar (dalillar), hakamlarning buyruqlari va qarorlari (protsessual hujjatlar), tomonlarning har qanday yozma arizalari, shu jumladan bunday ma'lumotlarga qo'shimchalar, tomonlarning tafsilotlari va boshqalar. Arbitraj sudlarining qoidalarida ushbu prinsip kinga va nimaga tegishli ekanligi aniq ko'rsatilgan.

London xalqaro arbitraj sudining arbitraj qoidalariga muvofiq (30-moddaning 1-qismi), birinchi navbatda, arbitraj muhokamasi ishtirokchilari barcha arbitraj qarorlari va uni o'tkazish uchun yaratilgan arbitraj muhokamasining barcha boshqa materiallari, shuningdek boshqa hujjatlar va arbitraj muhokamasining mazmunini maxfiy saqlashga majburdirlar. Savdo palatasi



huzuridagi arbitraj institutining Reglamenti Stokgolm shuningdek, maxfiylik to'g'risidagi qoidani o'z ichiga oladi va ushbu prinsipning shahar savdo palatasiga tarqalishini belgilaydi.

Maxfiylik qoidalari va ushbu prinsipga rioya qilish majburiyatlari Parij Savdo sanoat palatasi arbitraj Reglamentida keng tavsiflangan. Ikkala tomonning iltimosiga binoan arbitraj tarkibi arbitraj muhokamasining maxfiyligi to'g'risida buyruq chiqarishi, tijorat sirlari va maxfiy ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan choralarni ko'rishi mumkin (22-moddaning 3-qismi). Parij Savdo sanoat palatasi arbitraj Reglamenti (ICC) Xalqaro arbitraj sudining Nizomi tarkibiga kiradi, shu sababli ishida ishtirok etadigan har qanday shaxs uchun sud majlisi maxfiy xarakterga ega.

Ushbu Nizom "sud va uning kotibiyati ishiga tegishli materiallarni" ham maxfiylikni tarqatish ob'ektlari deb ta'riflaydi. UNCITRAL arbitraj reglamentida sud majlisini maxfiylikka rioya etilishi bo'yicha aniq qoidalar nazarda tutiladi (28-modda), ammo tomonlarning maxfiylikni saqlash bo'yicha majburiyatlari va maxfiylik ob'ekti bo'yicha aniq qoidalarni qamrab olmaydi.

Ukraina TPP huzuridagi (MKAS) Arbitraj reglamentiga muvofiq (12-modda), arbitraj raisi, uning o'rinbosarlari, arbitrlari va kotibiyati o'zlariga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga nisbatan maxfiylikni saqlashlari shart.

Maxfiylik prinsipi e'tiborsiz qoldirilgan holatlar ham mavjud. Masalan, Australia Resources Ltd va boshqalar Plowmanga qarshi (energiya va minerallar uchun Minister) ishida Avstraliya Oliy sudi maxfiylik arbitraj muhokamasining ajralmas qismi emasligini va qonundan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma yoki tomonlarning aniq kelishuvi bo'lmagan taqdirda, arbitraj shartnomasining o'zi maxfiylik majburiyatini o'z ichiga olmasligini, ishni ko'rib chiqish jarayonida olingan ma'lumotlarni oshkor qilishni taqiqlash to'g'risida sud majburiyatga ega emasligini takidlaydi. Sud davlatlar organlari o'rtasidagi ushbu nizoda tomonlar nazorat qiluvchi organ bo'lgan va butun jamiyat manfaatlari yo'lida faoliyat yuritadigan Avstraliya energetika vazirligiga malumotlarni berish maxfiylik bilan bog'liq emasligini ta'kidlaydi. Bulgarian Foreign Trade Bank Ltd ishida va boshqalar A. I. Trade Finance Inc. Shvetsiya oliy sudi apellyatsiya sudi tomonidan Arbitraj sudi qarorini bekor qilish bo'yicha qaroriga qo'shildi. Ushbu qarorda ko'tarilgan masalalar arbitraj shartlari va tomonlar maxfiylik majburiyati bilan bog'liq edi. Ushbu ishda arbitraj sudi maxfiylik majburiyatlarini bajarmaganligi aniqlangan. 1929-yildagi Shvetsiya arbitraj to'g'risidagi qonunida bunday majburiyatni nazarda tutmaydi. A. I. Trade Finance Inc. Bulgarian Foreign Trade Bank Ltd maxfiylik majburiyatlari bilan bog'liqlik haqida. Birlashgan Millatlar tashkilotining Evropa iqtisodiy komissiyasining arbitraj qoidalariga asoslanib "ish faqat ikkala tomon ham talab qilishi sharti bilan ochiq eshiklar ostida ko'rib chiqiladi" (29-modda). Bulgarian Foreign Trade Bank Ltd uning ta'kidlashicha, bunday talqin, garchi u butun jarayonga tegishli bo'lsa – da, lekin so'zma-so'z shakllantirish faqat og'zaki tinglash bilan bog'liq.



Sudning fikriga ko'ra, maxfiylik masalasini hal qilishning boshlang'ich nuqtasi shundaki, arbitraj muhokamasi kelishuvga asoslanadi. Arbitraj xususiy xarakterga ega bo'lsa-da, u qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu ishda arbitraj sudi arbitraj muhokamasi arbitraj qonunchiligida belgilangan qoidalarga asosan davlat sudlariga qonunchiligiga ko'ra yoki xavfsizlik choralari ko'rishda, dalillarni yozishda yoki sud muhokamalariga qarshi chiqishda ochiq bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shvetsiya Oliy sudining fikriga ko'ra, agar taraflar bunga rozi bo'lmasa arbitraj sudi tarafi maxfiylik majburiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi rivojlanib borayotgan davrda davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivoji, o'zlarining xususiy iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishni vujudga keltirmoqda. O'zlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida davlatlar o'zaro huquqiy hamkorlik masalalariga alohida e'tibor berishmoqda. Xalqaro savdo-iqtisodiy integratsiyalashuvni huquqiy jihatdan himoya qilishning ustuvor yo'nalishlari, vazifa va maqsadlari o'zaro ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarda o'z aksini topmoqda. Iqtisodiy-siyosiy munosabatlarni tartibga solish masalalari xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinmoqda. Savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi davlatlar o'rtasidagi va ularning subyektlari o'rtasida vujudga keladigan nizolarni bartaraf etishni ham nazarda tutadi. Ushbu nizolarni hal qilish uchun xalqaro tijorat arbitrajlar yordamga keladi.

Xalqaro arbitraj sudlarida ish olib borilishida maxfiylik qoidasi amal qiladi, lekin xalqaro arbitrajda maxfiylik tushunchasiga aniq chegaralar belgilanmaganligi, ayrim holatlarda ishlarni ko'rilishida taraflar tomonidan aniq qoidalar o'rnatilmaganligi sababli sud muhokamalari ochiq tartibda olib borilishiga yo'l qo'yilishi, sud hal qiluv qarorlarini ochiq tarzda e'lon qilinishi holatlari, uchinchi shaxslarning manfaatlarini vujudga kelgan holatda sud ochiqlikka yo'l qo'yishi holatlari yuzaga keladi, bu esa taraflar obro'siga putur yetkazishi yoki tijorat siri bilan bog'liq ma'lumotlar oshkor bo'lib qolishi natijasida taraflarga zarar yetkazilishi holatlari vujudga kelmoqda. Shu bilan birga sud muhokamasida ochiqlik prinsipiga amal qilinishini ijobiy taraflari mavjud. Sud muhokamasi ochiq tarzda bo'lganda, arbitraj sudi odil bo'lishiga ishonch yuqori darajada bo'lishi, uchinchi taraflarning manfaatlarini ham himoya qilinishi, boshqa shu kabi nizolar vujudga kelganda ishning hal bo'lishi bo'yicha boshqa investorlarda huquqiy tajriba oshishida ahamiyatli hisoblanadi.

Taraflar o'rtasida ishni arbitraj sudida ko'rilishida tushunmovchiliklar kelib chiqmasligi uchun arbitraj shartnomasini tuzishda u yoki bu reglament qoidalari amal qilinishi bo'yicha shart qo'yishdan oldin reglament qoidalari bilan tanishib chiqish, undagi maxfiylik bo'yicha shartlashuv kimning majburiyatiga aylanishi va qaysi holatlarda maxfiylik qoidalaridan istisno qilish mumkinligi, shartnomaga maxfiylik bo'yicha xalqaro hujjatlarga amal qilish bo'yicha shart kiritish; alohida



maxfiylik bo'yicha shartnoma tuzish, arbitraj sudlovi jarayoni bo'yicha reglament tanlashda aniq qoidalar to'liq aks etganligiga alohida e'tibor qaratish va uni amal qilishini shartnomaga kiritish masalalarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гэри Борн, Международный коммерческий арбитраж, Второе издание, глава 20: Конфиденциальность в международном арбитраже, п. 2782.
2. Bakhramova, M. (2022). Legal Regulation of Electronic Arbitration: Recognition and Execution of its Decisions. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 412-415.
3. Bahramovna, B. M. (2022). Raqamli makonda onlayn nizolar tushunchasi va ularning huquqiy maqomi. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 163-168.
4. Gulyamov, Said, and Mokhinur Bakhramova. "Digitalization of International Arbitration and Dispute Resolution by Artificial Intelligence." *World Bulletin of Management and Law* 9 (2022): 79-85.
5. Gulyamov, S., & Yusupov, S. (2022). Issues of Legal Regulation of Robotics in the Form of Artificial Intelligence. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 440-445.
6. Rustambekov, Islambek, and Mokhinur Bakhramova. "Legal Concept and Essence of International Arbitration."
7. Викторова Н. Н. К вопросу о применении правил ЮНСИТРАЛ о прозрачности в контексте арбитражных разбирательств



TARTIBGA SOLINGAN VA TARTIBGA SOLINMAGAN TEMIR YO'L KESISHMALARI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852683>

Abruyev Shaxbos Isroil o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti)

Abdusamatov Erkinjon Xalim o'g'li

(Toshkent davlat transport universiteti)

Tursunov Nodir Hamrayevich

(Toshkent davlat transport universiteti)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tartibga solingan hamda tartibga solinmagan temir yo'l kesishmalari tahlili keltirib o'tilgan.

Abstract: Ushbu maqolada tartibga solingan hamda tartibga solinmagan temir yo'l kesishmalari tahlili keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tartibga solingan, tartibga solinmagan temir yo'l kesishmalari. **Key words:** regulated and unregulated railway crossings.

Temir yo'l kesishmalari - bu avtomobil va temir yo'llarning bir xil darajasidagi kesishmalar. Ushbu chorrahalar har ikkala transport turi harakati uchun eng katta xavf tug'diradigan joylar qatoriga kiradi va shuning uchun maxsus to'siqlarni talab qiladi. Avtomobil va temir yo'llarning harakatlanuvchi tarkibi o'rtasidagi to'qnashuvlar eng og'ir oqibatlariga olib keladi. Shu bilan birga, ko'plab temir yo'l kesishmalari shahardan tashqarida ham, ba'zi hollarda ham shahar magistrallarida transport vositalarining uzoq kechikish joylari hisoblanadi. Shu sababli, avtomobil yo'llarining temir yo'llar bilan kesishgan joylari ko'p hollarda yo'lning o'tkazuvchanligini keskin cheklaydi. Temir yo'l kesishmalari harakatni boshqarish xizmatining eng yahshi e'tiborini talab qiladi. Temir yo'l transportining katta inersiyasini hisobga olgan holda, kesishmalarda harakatlanishning ustuvor huquqi temir yo'l transportiga beriladi. Shuning uchun temir yo'l kesishmasining normal ishlashini ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri u orqali harakatlanuvchilarning xavfsizligini maksimal darajada oshirish uchun tashkiliy, protsessual va texnik choralarni ko'rishdir.

Birinchi navbatda, temir yo'l kesishmasini jihozlash uchun joy tanlashda ular, iloji bo'lsa, haydovchilar va piyodalar, shuningdek, temir yo'l transporti haydovchilari uchun barcha yo'nalishlarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rishning maksimal masofasini ta'minlashga harakat qilishadi.

Temir yo'l kesishmalari 4 toifaga bo'linadi, ular kesishmadagi harakatning tarkibi va intensivligi, chorhadagi yo'lning toifasi va ko'rish sharoitlari bilan belgilanadi. Shuningdek, o'tish joylari tartibga solinadigan va tartibga solinmaganlarga bo'linadi. Tartibga solinadigan o'tish joylarida harakat xavfsizligi kesishma signalizatsiya




qurilmalari yoki navbatchi xodim tomonidan, tartibga solinmagan o'tish joylarida esa faqat transport vositalari haydovchilari tomonidan ta'minlanadi.

Chakana savdoda raqamli marketing - bu mijozlarga erishish va mahsulot yoki xizmatlarni ilgari surish uchun veb-saytlar, elektron pochta, qidiruv tizimlari, ijtimoiy media va boshqa onlayn platformalar kabi raqamli kanallardan foydalanish. Bu chakana sotuvchilar uchun o'z mijozlari bilan bog'lanish va munosabatlarni o'rnatish usulidir. Ushbu turdagi marketing chakana sotuvchilarga katta maqsadli auditoriyani qamrab olish, o'z aloqalarini shaxsiylashtirish va mijozlarning ishtirokini kuzatish imkonini beradi. Chakana savdodagi raqamli marketing, shuningdek, mijozlarning xohish-istaklari va xatti-harakatlari haqida tushuncha berishi mumkin, bu esa chakana sotuvchilarga o'z marketing strategiyalarini moslashtirish va sotishni boshlash imkonini beradi.[1]

Raqamli marketing chakana savdo uchun muhim, chunki u korxonalariga kengroq auditoriyani qamrab olish va o'z mijozlari bilan shaxsiy darajada bog'lanish imkonini beradi. Raqamli marketing chakana savdo korxonalariga to'g'ri vaqtda to'g'ri odamlarni yo'naltirish orqali ko'proq sotuvlar olib borish va o'zlarining brend xabardorligini oshirish imkonini beradi.



Chakana savdo zaxiralari quyidagicha hisobga olinadi:

1) chakana savdo tarmog'ida;

2) umumiy ovqatlanish tarmog'ida (restoranlar, kafelar, oshxonalar, choyxonalar, bufetlar va boshqalar).

Chakana savdo tarmog'ining zaxiralari:

1) chakana savdo maydonchasida va chakana savdo tarmog'ining yordamchi xonalarida (do'konlar, dorixonalar, chodirlar, kiosklar, yetkazib berish va tarqatish tarmog'i), shuningdek, savdo korxonalarini va tashkilotlariga tegishli bazalarda, omborlarda, sabzavot do'konlarida mavjud bo'lgan tovarlar, ularning balansida ko'rsatilgan va chakana savdo va umumiy ovqatlanish uchun mo'ljallangan;

2) kundalik sotishni ta'minlaydigan joriy saqlash tovarlari, mavsumiy saqlash tovarlari zaxiralari (yil fasllari bo'yicha savdoni ta'minlash uchun yaratilgan, xususan, kartoshka, sabzavot, mevalar);

3) sotib olingan va to'langan, ammo yetkazib beruvchilar tomonidan saqlanadigan, shuningdek qayta ishlangan tovarlar;

4) chakana savdo tarmog'ida va savdo korxonalarini hamda tashkilotlarining omborlarida konsignatsiya asosida olingan tovarlar;

5) qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari hamda vositachilaridan kelishuv narxlari asosida sotib olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari kiradi [2]

Tovar aylanmasini oshirishning usullari

- Do'koningizning eng ko'p vaqt mijoz gavjum vaqtini tanlang;
- Eng yaxshi savdo hamkorlaringiz bilan ishlang;
- Savdo bo'yicha samarali treningni taqdim eting;
- Mahalliy brendingizni targ'ib qiling;
- Chakana savdo strategiyangizga e'tiborni kuchaytiring;
- Do'koningizda bepul yetkazib berishni xizmatini yo'lga qo'ying;
- Bepul va pullik xizmatlarni taklif eting;
- Diqqatni jalb qiluvchi reklamalarni ishga tushiring;
- Do'konda mijozlarga moslashtirilgan xizmatni taklif qiling;
- Sotib olish jarayonini tezlashtiring, bunda konsultant maslahatchilarni

yollang.

Chakana savdo uchun onlayn reklama haqida o'ylashning aqlli usuli - bu potentsial mijozlarini savdo tsiklida "qayerda" ekanligini bilish va aniqlash.

Xarid reklamalaridan foydalanishning uchta muhim afzalliklari bular:

- Saytda minglab mahsulotlar mavjud bo'lsa ham, xarid tasmlarini avtomatik ravishda yaratish;
- Avtomatlashtirilganidan mustaqil qo'shimcha tasmlarni yaratish, bu mahsulotlarni assortiment, taklif yoki chegaralar asosida guruhlash imkonini beradi;
- Smart Shopping maqsadlari sifatida do'konga tashrif buyurish va yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyati.[3]



Chakana savdo aylanmasining yurtimizdagi holatini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra bilib olishimiz mumkin bo'ladi. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 109 323 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 353 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 108 970 tani tashkil qildi. 2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 110 061 tani tashkil etib, 2023- yil 1- fevralga nisbatan 8818 taga oshgan (o'sish sur'ati 108,7 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 317 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 109 744 tani tashkil qildi. Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan respublikaning Toshkent shahri (96,6 %), Toshkent (95,6 %), Farg'ona (94,9 %) va Buxoro (92,1 %) viloyatlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Bundan ko'rinib turibiki, respublikamizda aholi zichligi va yana bir qancha ko'rsatkichlariga ko'ra yuqori bo'lgan hududlarda chakana savdoga bo'lgan talab yanada oshib bormoqda.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 110 061 tani tashkil etib, 2023- yil 1- fevralga nisbatan 8818 taga oshgan (o'sish sur'ati 108,7 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 317 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 109 744 tani tashkil qildi.

Chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi o'sish (kamayish) sur'atlarining dinamikasi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda





—●— chakana savdo ⇨◆ - ulgurji savdo

2021 yilning yakuni bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi 252 056,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,2 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 44 587,5 mlrd. so'mni, umumiy hajmdagi ulushi 17,7 %ni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,8 %ga o'sdi), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 186 925,2 mlrd. so'mni, umumiy hajmdagi ulushi 74,2 %ni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12,3 %ga o'sdi) uyushmagan savdo tovar aylanmasi 20 543,9 mlrd. so'mni, umumiy hajmdagi ulushi 8,2 %ni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,2 %ga oshgan) tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibiki, yurtimizda savdo sohasiga, tadbirkorlikga yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanishimiz lozim.[4]

Jahon miqiyosida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o'z imkoniyatlarini o'rganishdan ko'ra, xaridorlarning xulq-atvori, ehtiyoj va talablarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni tashkil etmoqda. Keskin raqobat sharoitida iste'molchi xattiharakatlaridagi tezkor o'zgarishlar tadbirkorlardan raqamlashgan marketing tadqiqotlarini izchil va tizimli o'tkazishga qaratilgan strategiyalarni qayta ko'rib chiqishni talab etadi.[5]

Butun dunyo bo'ylab rivojlanib borayotgan iqtisodiy tendensiyalardan biri bo'lgan savdo tarmog'ini rivojlantirish, chakana savdoga bo'lgan keng ko'lamli islohotlarni olib borish maqsadida yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikga berilayotgan keng imkoniyatdan unumli foydalangan holda, chakana savdoni rivojlantirish, aholini ehtiyojlarini qondirish, ish bilan ta'minlash maqsadida, aholi daromadini oshirish yo'llarini izlab topmog'imiz lozim. Chakana savdo turlaridan biri bo'lgan internet savdosini yanada rivojlantirib, aholiga va tadbirkorga qulaylik yaratish lozim.

Sotuvni rivojlantirish do'konda mijozlarni yig'ish va ko'paytirish uchun avvalo do'konning nomi, joylashuvi, tovarlar joylashuvi merchendayzing, hamkorlaringiz, sotuvni amalga oshiruvchi sotuvchilar muhim ahamiyat egallaydi. Mijozlarga imkoniyat sifatida internet savdo va to'lov turlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mijozlarning hohishiga ko'ra to'lov turlarining ko'pligi ham do'konga jalb qiladi, masalan, naqd yoki pul o'tkazmalari orqali to'lash, bo'lib to'lash, kredit kartalari orqali to'lash.[6]

Sotuvni rivojlantirish maqsadida bir qator tadbirlar, bayramlar, o'yinlar, skidkalar o'tkazib turish, butunsiz narxlardan foydalanish ham savdo aylanmasini oshishini ta'minlaydi. "O'yinchoq do'konlarimda men band bo'lgan ota-onani kirishga majbur qilgan bir qator tadbirlarni yaratdim. Bu san'at va hunarmandchilik bo'lishi mumkin yoki Anna va Elza tashrif buyurishi va qo'shiq aytishi mumkin." – Aalap Shah, sobiq o'yinchoq sotuvchisi, 1o8 raqamli marketing agentligi asoschisi. Ushbu sohada juda katta ishni bajaradigan yana bir chakana sotuvchi - Sephora. Sephora bo'yanish texnikasidan tortib terini parvarish qilishgacha bo'lgan hamma narsani o'z ichiga olgan



darslarni o'tkazadi. Va ular mijozlarga mahsulot namunalarini tarqatadilar. Keyin tadbirdan so'ng sotishni maksimal darajada oshirish uchun Sephora ishtirokchilarga "Go'zallik Recap" elektron pochta xabarini yuboradi. Bu e-pochtada ular sinfda ishlatgan mahsulotlar va ularni sotib olish uchun havolalar mavjud. Xaridorlarga nisbatan yaratilgan har bir qulaylik mijoz yig'ishga va uni ushlab qolish uchun sabab bo'lishi mumkin.[7]

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sharopova, N (2023) Tadbirkorlikda marketing tadqiqotlari zarurati. Iqtisodiy innovatsion texnologiyalari jurnali. 2023(3) 39-bet
2. <https://www.retaildoc.com/>
3. <https://stat.uz/>
4. <https://fitsmallbusiness.com/>
5. <https://www.lightspeedhq.com/>
6. <https://www.getdor.com/blog/2020/02/29/successful-retail-pricing-strategies/>
7. <https://www.creatopy.com/blog/retail-advertising/>
8. <https://www.shopify.com/retail/retail-digital-marketing>



PROBLEMS OF APPLYING MODERN DIGITIZATION PROCESSES IN ALGORITHM IN MODERN EDUCATION

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852778>

Raximov S. D

TDTrU assistant mr.sardor.raximov@gmail.com

Pirimqulov R. O

TDTrU talabasi pirimqulovrahmonali@gmail.com

Abstract: The digitization of education has brought many benefits, such as increased access to information, improved communication, and personalized learning experiences. However, the algorithmic application of modern digitization processes, such as the use of artificial intelligence and machine learning, has also created several problems. This article will discuss some of the key issues related to algorithmic application in education.


Keywords: algorithmic application, digitization, education, artificial intelligence, technology, student outcomes, teacher roles.

One major concern is the potential impact on student outcomes. While AI and other technologies can provide valuable insights into student progress, they can also reinforce existing biases and limit opportunities for students who do not fit within predetermined parameters. Additionally, the use of algorithmic systems can lead to a reduction in the role of teachers, who may feel that they are being replaced by machines. This can have a negative impact on the learning experience, as teachers are essential in providing personalized feedback and support to students. Digitization processes involve the conversion of analog information into digital format, and this has revolutionized many aspects of our lives, including education. Algorithms, which are sets of instructions for solving a particular problem, can be used to analyze, process, and interpret the large amounts of data that are generated in digital education environments. However, there are several challenges associated with the algorithmic application of digitization processes in education.

One of the main problems is the potential for bias and discrimination in algorithmic decision-making. Algorithms are designed to identify patterns in data, but if the data that is used to train them is biased or incomplete, then the resulting algorithms may also be biased. This can result in unfair outcomes for certain groups of students, particularly those who are historically marginalized. For example, an algorithm used to select students for a particular program may unintentionally discriminate against students from low-income backgrounds, because they may not have access to the same resources as wealthier students.

Another challenge is the complexity of developing algorithms that can accurately capture the nuances of the educational context. Education is a complex and multifaceted domain, and it can be difficult to develop algorithms that can capture all of the relevant variables. For example, an algorithm designed to predict student outcomes may not take into account factors such as teacher effectiveness or social-emotional learning, which can also have a significant impact on student success. Furthermore, there is a risk that the algorithmic application of digitization processes could lead to a dehumanization of education. Education is not just about the transmission of information, but also about the development of critical thinking skills, creativity, and interpersonal relationships. If algorithms are used to replace human interaction and feedback, then students may not develop these important skills.

In addition, there are concerns around data privacy and security when using algorithms in education. The use of algorithms requires the collection and storage of large amounts of data, including sensitive information such as student performance, behavior, and personal characteristics. There is a risk that this data could be misused or hacked, leading to serious consequences for students and educational institutions.



Another challenge is the ethical implications of algorithmic decision-making. AI algorithms may make decisions based on incomplete or biased data, leading to unfair outcomes for certain students. Additionally, the use of AI can raise questions about data privacy and security, as well as the potential for misuse of student data. In conclusion, while the algorithmic application of modern digitization processes has the potential to transform education, it is important to consider the potential challenges and limitations of these technologies. Educators, policymakers, and other stakeholders must work together to ensure that these technologies are used in ways that support



positive student outcomes, uphold ethical standards, and promote equity and access for all students.

Overall, the algorithmic application of digitization processes in education has the potential to bring many benefits, but it is important to be aware of the potential challenges and limitations. Educators, policymakers, and technology developers must work together to ensure that algorithms are developed and used in ways that support positive student outcomes, uphold ethical standards, and promote equity and access for all students.

Finally, the rapid pace of technological change can make it difficult for educators to keep up with new developments and effectively integrate them into their teaching practices. This can lead to a divide between those who have access to the latest technologies and those who do not, exacerbating existing inequalities in education.

LITERATURE:

1. Khodjayeva, N., & Sodikov, S. (2023). Methods and Advantages of Using Cloud Technologies in Practical Lessons. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 77-82.

2. Raximov S. D. Ma'lumotlar tuzilishi va python dasturlash tilida algoritmik fikrlash jarayonlari //so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – т. 6. – №. 3. – с. 27-33.

3. Raximov, S. D., & Sodiqov, S. S. (2022, november). Texnik soha mutaxassislari o 'quv fanlarini o'qitish tayyorgarlik jarayonida c++ dasturidan foydalanish zarurati. in international conference: problems and scientific solutions. (vol. 1, no. 7, pp. 115-118).

4. Alabi, O. T. (2021). Artificial intelligence in education: A review of current applications and future prospects. *Education and Information Technologies*, 26(3), 3053-3072.

5. Нам А. Л., Рахимов С. Необходимость использования системы matlab в преподавании учебных дисциплин при подготовке специалистов технических направлений //central asian journal of theoretical and applied science. – 2021. – т. 2. – №. 5. – с. 160-164.



KREATIV YONDASHUV-BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852790>

Ro'zmetova Muslima

UrDU. "Maktabgacha ta'lim" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti:

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda erta yoshdan boshlab tasavvurlarini boyitish, dunyoqarashini shakllantirish, faoliyatlar davomida interfaol usullardan foydalanish, ularni zamon bilan hamnafas yashash ruhida tarbiyalash haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: zamonaviy maktabgacha ta'lim, innovatsiya, texnologiya, zamonaviy yondashuv, AKT, interfaol usul, o'yin, didaktik material, pedagogik texnologiya, multimedia, animatsion o'yinlar, kreativlik

Аннотация. В данной статье изложены представления об обогащении воображения дошкольников с раннего возраста, формировании мировоззрения, использовании интерактивных методов в деятельности, воспитании их в духе жизни в ногу со временем.

Ключевые слова: современное дошкольное образование, инновации, технологии, современный подход, ИКТ, интерактивный метод, игра, дидактический материал, педагогические технологии, мультимедиа, анимационные игры, креативность.

Annotation. This article describes ideas about enriching the imagination of preschool children from an early age, forming a worldview, using interactive methods during activities, educating them in the spirit of living in step with the times.

Key words: modern preschool education, innovation, technology, modern approach, ICT, interactive method, game, didactic material, pedagogical technology, multimedia, animated games, creativity

Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoevning 2016 yil 29 dekabr, "2017—2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son hamda 2017 yil 9 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-son, kabi qator qaror, qonun va qonun osti hujjatlar yaratildi. Bizga ma'lumki, bugungi kunda talim-tarbiya



jarayonini samarali tashkil etish, bolalarda ijodiy va intellektual dunyoqarashni tarkib toptirish maqsadida zamonaviy metodlar ishlab chiqilmoqda. Ularga interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, turli didaktik o'yinlarni misol qilishimiz mumkin.

Biz bolalar dunyoqarashini o'stirishda kreativ metodlarni o'rnini tahlil qilar ekanmiz, dastlab uning bolada paydo bo'lishiga to'xtalib o'tmoqchimiz. Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko'zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash;

bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish ularda javobgarlikni kuchaytirish;

- 1) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun im
- 2) bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish;
- 3) "Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb

kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar

Kreativ dunyoqarashga ega bolalar: boshqa bolalarning hayoliga kelmagan g'oyalarni bildiradi; o'zlarini ifoda etishning o'ziga xos uslubini tanlaydi; ba'zan mavzuga aloqasi yo'q yoki g'ayrioddiy savollar beradi; yechimi ochiq qolgan vazifalardan zavqlanadi; g'oyalarni aniq dalillar asosida muhokama qilishni afzal ko'radi; muammoning yechimini topishda noan'anaviy yondashuvni tanlaydi. Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida bolalar hamda tarbiyachi-pedagoglar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish, tarbiyalanuvchilar tomonidan tushuncha va bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi. Bunday metodlarga "Aqliy hujum" strategiyasi, "Baliq skeleti" grafik organayzeri, "Bahs- munozara" strategiyasi, "BBB" grafik organayzeri, "Blitz-so'rov" metodi va boshqa kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda ko'plab rivojlangan mamlakatlar talim-tarbiya sohasida kreativ metodlar ham qo'llanilib kelinmoqda. Kreativ metodlar interfaol ta'lim, kreativ ta'lim asosida shakllangan metodlar majmuidir. Kreativ metodlar bu o'quvchining ijodkorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda eng katta vositadir. Zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda.



Odatda kreativ metodlarga asoslangan ta'limiy harakatlar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual; juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash ko'rinishlarida.

Kreativ metodlar orqali bolalarda quyidagi sifatlar shakllanadi:

- g'oyaviy ijodkorlik, yaratuvchanlik;
- ijodiy fikrlash, dunyoga ijodkorlik nigohi bilan qarash;
- eng original yechimlar va fikrlarni topish;
- mustaqil fikrlash va fikrini dalillay olish qobiliyati;
- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;

tengdoshlari orasida o'z g'oyalarini erkin bayon qilish, bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;

- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
- guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
- o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
- fikrlash, fikrlarini umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
- o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida kreativ metodlarning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:

1. Kashf etmoq- bu metod orqali bolalarning kashfiyotchilik qobiliyati, fantaziya kuchi oshiriladi. Bolalarga "Agarda men...", "Agarda..." kabi boshlang'ich qo'zg'atuvchi savol tashlab qo'yiladi. Bolalar o'zlarining tasavvurlariga suyanib jarayonni davom ettirishlari lozim bo'ladi. Masalan, "Agarda men sehrgar odam bo'lib qolsam...", "Agarda yer yuzida har kuni quyosh chiqib turmasa...", "Agarda suv bo'lmasa..." kabi.

2. Obrazli rasmlar-bu metodda ob'ekt hissiy-obrazli tadqiq qilinadi. Bola tanlangan ob'ektni tahlil qilish yoki kuzatish natijasida uning o'z tasavvuridagi matnli yoki grafik ko'rinishdagi obrazini yaratishi talab qilinadi. Ushbu metoddan ko'zlangan maqsad bolalarda obrazli tafakkurni, tahliliy fikrlashni rivojlantirish, ularning tasavvuri, xayoloti va dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatishdir.

3. Giperbolizatsiya - bu metod biron obektni orttirib, kattalashtirib yoki aksincha kichraytirib, kamaytirib ko'rsatish orqali nomoyon bo'ladi. Misol uchun devlar, Gulliver, yoki "Pakana burunboy" ertagi qahramoni kabi obrazlar kattalashtirib, "Jimjiloq", "Dyumchaxon", "No'xatpolvon" kabi obrazlarning kichiklashtirib olinishini misol qilib olish mumkin.

Shunday ekan, mashg'ulotlar jarayonida foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar o'ziga xos, takrorlanmas, pedagogik va psixologik talab darajasida bo'lishi va tarbiyachining aktiv faoliyatida yorqin namoyon bo'lishi talab etiladi. Endilikda, ko'pgina pedagog-tarbiyachilar o'zlarining kreativlik dasturlari orqali dunyoni anglab yetishdagi bir vosita ekanligini, aynan shu vositaning taraqqiy etishi bilan birga MTT larga yangicha ta'lim uslub va usullari, yangicha fikr va g'oyalar kirib kelishini e'tirof etishmoqda



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabr, "2017—2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabr, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori.
3. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b. 70.
4. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: O'zMU OPI, 2003. – 68 b.



IMPLEMENTING INTERNET RESOURCES IN TEACHING THE ENGLISH LANGUAGE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852803>

Normurodova Nafisa Baxadirovna

*Samarkand State Institute of foreign languages Master of 2nd course, 21 09 group,
Linguistics (English)*

Annotation: English language skills here mean the development of the main parts or elements of the language which include speaking, listening, reading, and writing. English language subject has different educational tools that are likely suited with it. Smartphone and internet usage have actively influence daily life, even for children and adolescents. In learning activity, smartphone is a tool to help students connected to be online. A qualitative approach was pursued in this study. Then, the data collection technique used in this study is a survey by using questionnaires. As result, the research shows that most students spend much time to access the social network, some students access internet for dictionary and games, and only a few students access internet for education purposes. In short, the students rather to use smartphone for other thing than education.

Keywords: smartphone, internet, English language learning.

INTRODUCTION

Most children and adolescents in Indonesia are now actively using internet. Internet is needed for them to study or just to communicate with families and their friends around the world. Internet does provide a powerful genuine resource for the learning of English. As Warschauer (2001) reveals that internet may be said to enhance English language learning in accordance to communicative language teaching principles on meaningful interaction. This shows that internet has essential effect to English learning which is to activate communicative skill. In this case, students' roles are required to be more dominant on English language learning process to catch knowledge from various resources.

RESULTS AND DISCUSSION

Smartphone and internet usage have influence human daily life, even for children and adolescents. The way people learn English has also shifted from the traditional classroom to the internet. Many apps and website are available to learn and explore the language. With updating reason, teacher prepared materials (texts, audio-visual, video, pictures, etc.) to support students to learn English in classroom. So, many exercises are adopted as if they are authentic one in learning process.

Furthermore, McLuhan (2012) states some advantages of online learning as follows:



- 1) Access – the internet offers the possibility to experience English without the need of travel. Even without the need of leaving home or bedroom.
- 2) Flexibility – the internet allows for students to learn language whenever they want and wherever they want.
- 3) Response – the internet offers the possibility of instant feedback to learners. This greatly enhances the learning experience.
- 4) Repeatability – the learner can encounter the language in a repetitive fashion until mastery is achieved.
- 5) Durability – the internet is 24/7. It never tires. It does not take coffee breaks.
- 6) Modality – the internet is a multi-modal learning tool. It stimulates in a rich sensory and cognitive and thus fertilizes language acquisition successfully.
- 7) Specificity – the internet allows the language learner choose in both what and with who will be learned. Learning can be tailored to the language learners' precise makeup and needs.
- 8) Cost – the internet is a business model which due to economies of scale can offer services for pennies. It also offers to widen access through a pay as you can dynamic.

In brief, internet allows students to share not only brief messages, but also create lengthy documents – thus facilitating collaborative writing (learning). Besides, learners can share graphics, sounds and video. Thus, the internet does help teacher in creating an environment where authentic and creative communication is integrated into all aspects of the course.

The results of many researches show that most students spend much time to access social network and other, some students access internet for dictionary and games, and only a few students access internet for education purposes. In short, the students were rather to use smartphone for other thing than education. The media used by them in order to support their learning including making tasks, projects, or other assignments, especially in the development of English language skills.

CONCLUSION

Internet is a media to help teachers and students to get much materials, enrich teacher's pedagogy when selecting the material and methods in English learning, and engage the students in creating a new English learning experience.

Based on the result of the data analysis, most students spend much time to access the social network and other, some students access internet for dictionary and games, and only a few students access internet for education purposes. In short, the students were rather to use smartphone for other thing than education.

English language learning should be focused on leading language teaching by using English resources from smartphone and internet, as media, which closed to students. By using smartphone and internet, it is expected that either teacher or students become more active and creative to explore their knowledge through media.



Pedagogically, there is an urgent need for teachers to implement smartphone-based language learning in order to engage students to be critics with material and its content. So, it enables students to build and enhance a technology awareness of smartphone and internet usage on English language learning in classroom.

REFERENCES:

1. Constantinescu, A. I. (2007). Using Technology to assist in vocabulary acquisition and reading comprehension. The Internet TESL Journal, XIII(2). Retrieved from: <http://iteslj.org/Articles/Constantinescu-Vocabulary.html>
2. Davis, F. (1989). Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology. MIS Quarterly, 13(3), 319-340.
3. Ghose, A., Goldfarb, A., & Pil, H. S. (2010). How is the mobile internet different? Search costs and local activities. Wharton Interactive Media Institute-Marketing Science Institute.
4. McLuhan, M. (2012). Understanding media. New York: McGraw-Hill.
5. Park, B., & Lee, K. C. (2011). The effect of students' characteristics and experiential factors on the compulsive usage of the smartphone. Common in Computer and Information Science, 151, 438-446.



TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB QUUVVATLASH ZAMONAVIY MEXANIZMLARINI YARATISHNING NORMATIV HUQUQIY HUJJATLAR BILAN TARTIBGA SOLINGANLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852817>

Fayziyeva Dilnoza Abduraximovna

Buxoro viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har bir mamalakat iqtisodini ko'taruvchi, investitsiya kiritishning faol tashabbuskori bo'lgan tadbirkorlar va ular faoliyatining huquqiy qo'llab quvvatlanganligi bo'yicha nazariy ma'lumotlar misollar orqali ifodanlandi. Tadbirkorlik faoliyatining huquqiy normalar bilan tartibga solinishi ularning erkin va ochiq faoliyat olib borishini kafolatlaydi.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik, tavakkalchilik, samaradorlik, mustaqillik, qonun, norma, Tadbirkorlik kodeksi*

Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati bu - iqtisodiy foydadir) - o'z tavakkalchiligi ostida amalga oshiriladigan, mulkka egalik qilish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishdan muntazam ravishda daromad olishga qaratilgan mustaqil faoliyat sanaladi.

"Tadbirkor" so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, birinchi marta Jak de Bruslon tomonidan tuzilgan va 1723-yilda nashr etilgan, "Dictionnaire Universel de Commerce" nomli fransuzcha lug'atda paydo bo'lganini bilishimiz mumkin. Tadbirkorlikni o'rganish klassik iqtisodga asos bo'lgan irland-fransuz iqtisodchisi Richard Kantillonning XVII asr oxiri va XVIII asr boshlaridagi faoliyatiga to'g'ri keladi. Uilyam Stenli Jevons uni „siyosiy iqtisod beshigi“ deb hisoblagan. „Umumiy savdo tabiati“ (Essai sur la Nature du Commerce en Général) essesinde Kantillon bu atamaga birinchi marta ta'rif bergan. Kantillon ushbu atamani „mahsulot uchun ma'lum bir narxni to'laydigan hamda uni belgilanmagan narxda qayta sotadigan, resurslarni olish va ulardan foydalanish to'g'risida qaror qabul qilish, shu bilan birga korxonaning xavf-xatarini tan olish“ deb ta'riflagan. U tadbirkorni - moliyaviy daromadni maksimal darajada oshirish uchun bor imkoniyatlaridan foydalanish yo'lida resurslarni ongli ravishda taqsimlaydigan tavakkalchi shaxs deb hisoblagan. Kantillon tadbirkorni tavakkal qilishga va noaniqlik bilan shug'ullanishga tayyorligini ta'kidladi, shu bilan birga u tadbirkorning funksiyasiga e'tibor qaratdi, tadbirkor va pulni taqdim etgan mulkdorning funksiyasini ajratdi

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushbu lavozimda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak. Tizimda foyda keltirmaydigan tovarlarni sotish kabi ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishning alohida hollari



tadbirkorlik hisoblanmaydi. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun tadbirkorning o'zi tomonidan, tashqaridan jalb qilingan mulklar ya'ni nomoddiy aktivlari va mehnat resurslari ham qo'llanilishi lozim. Sarflangan mablag'lar o'zini qoplashiga, ishlab chiqarilgan narsa foyda bilan sotilishiga kafolat yo'q. Bu mulkni to'liq yoki bir qismini yo'qotish xavfi ham mavjuddir.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi nafaqat foyda miqdori, balki korxonada qiymatining o'zgarishi bilan ham baholash mumkin. Tadbirkorlik faoliyati ko'pincha kichik biznes bilan bog'liq bo'lsa, egasi ham yetakchi hisoblanadi. Katta kompaniyada boshqaruv funksiyalari ko'pincha yollangan menejerlar tomonidan amalga oshiriladi, ammo kompaniya asoschisi daromad olishi hammaga ma'lum. Faqatgina vaqti-vaqti bilan umumiy yig'ilishlarda ovoz berishadi.

Mustaqillik yillaridan buyon O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini va ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni qo'llab quvvatlashga alohida ahamiyat berilib, ushbu maqsadda bir qancha normativ huquqiy hujjatlar ham qabul qilingan va ularning amaliy ifodasi bilan bog'liq masalalarga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Ushbu normativ huquqiy hujjatlarda tadbirkorlar faoliyatini qo'llab quvvatlash va ularga ayrim imtiyozlar berish bilan bog'liq jihatlarga ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining yangi tahririda tadbirkorlik faoliyatining erkinligi va javobgarlik masalasi bo'yicha moliyaviy sanksiyalarning qo'llanilishi borasida ham ayrim yengilliklar berilgan bo'lib, tadbirkorlik subyektlari nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlar natijalari bo'yicha ko'rsatmalarini bajargan, shuningdek, yetkazilgan zararining o'rnini belgilangan muddatlarda va to'la to'la hajmda ixtiyoriy ravishda qoplagan, jumladan, penya to'lagan taqdirda ularga nisbatan moliyaviy sanksiyalarning qo'llanilmasligi, aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarliklardagi aybga iqror bo'linganda va soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori olingan kundan e'tiboran, o'n kunlik muddatda moliyaviy sanksiyalar summasi ixtiyoriy ravishda to'langanda jarima miqdori belgilangan miqdorga nisbatan ikki baravarga kamaytirilishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 17-avgustda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq, xususiy tadbirkorlik faoliyatini himoya qilishning huquqiy mexanizmlari va kafolatlarini yanada mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini yaratish, tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, shu asosda yangi ish o'rinlarini tashkil etishni rag'batlantirish va respublika bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi resurs bazasining manbalari etib belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PF-5780-son "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish,



tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi PQ-4417-son "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi hisobidan loyihalari bo'yicha moliyaviy yordam ko'rsatiladigan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarining ro'yxati tasdiqlanib, tijorat banklariga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish uchun milliy va xorijiy valyutada, xorijiy kredit liniyalarini jalb qilish hisobidan resurslar taqdim etilishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, jamg'armaning tijorat banklari tomonidan berilayotgan kredit miqdorining 50 foizigacha (kredit miqdori 500 ming AQSh dollaridan ko'p bo'lmagan taqdirda) yoki unga ekvivalent hajmdagi kreditlari bo'yicha kafil bo'lishi belgilab qo'yildi va jamg'arma tomonidan tijorat banklari kreditlari bo'yicha foizli xarajatlarni qoplash uchun kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordam ko'rsatilishi ko'zda tutuvchi norma belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi PQ-5087-sonli "Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, biznes yuritish shart-sharoitlarni yanada yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishga oid islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, ularni zarur moliyaviy va infratuzilmaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida 2021-yil 1-maydan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga umumiy qiymati 5 milliard so'mdan, foiz stavkasi Markaziy bank asosiy stavkasining 1,5 baravaridan oshmagan tijorat banklarining milliy valyutada ajratiladigan kredit va lizinglari bo'yicha uning asosiy stavkadan oshgan, biroq asosiy stavkaning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismini qoplash uchun uch yil muddatgacha kompensatsiya taqdim etish, "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan fuqarolarga tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish uchun kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravaridan ortiq bo'lmagan tijorat banklari kreditlari bo'yicha kafillik berish nazarda tutilgandi.

Bugungi kunda Adliya vazirligi tomonidan Tadbirkorlik kodeksi loyihasi ishlab chiqildi va jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Kodeks loyihasi bilan yaxlit 9 ta amaldagi qonun, 2 ta yangi qonun loyihalari va 10 dan ortiq qonunosti hujjatlari birlashtirilib tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdan boshlab uni tugatishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni tartibga solishga qaratilgan.

Tadbirkorlik kodeksi loyihasi bilan quyidagilar nazarda tutilmoqda:



- ilg'or xorijiy davlatlar tajribasiga asosan, tadbirkorlik sub'ektlari kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratilmoqda;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lmagan faoliyat turlarini belgilagan holda ularga qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi berilmoqda;

- 43 ta davlat organining 146 ta nazorat funksiyalari va Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan 18 turdagi tekshiruvlar ro'yxatlari mazkur Kodeksga ilova sifatida tasdiqlanmoqda. Bunda ro'yxatga kiritilmagan barcha tekshiruvlar Biznes-ombudsman bilan kelishilgan tartibda amalga oshirilishi belgilanmoqda;

- davlat nazoratining 4 ta shakli belgilanib, shundan faqat ma'lumotlarni tahlil qilish va tekshiruvda aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan tadbirkorga nisbatan huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi belgilanmoqda.

Tadbirkorlik kodeksining qabul qilinishi tarqoq holda bo'lgan qonunchilik hujjatlarini yagona hujjatga birlashtirish, tadbirkorlik sohasidagi qonunchilik hujjatlarini barqarorlashtirish, davlatning tadbirkorlik sohasiga aralashuvini kamaytirish, shuningdek tadbirkorlik huquqi sohasida yagona yondashuvni belgilashga xizmat qiladi. Kodeks loyihasini ishlab chiqishda mazkur sohada ilg'or tajribaga ega bo'lgan xorijiy davlatlarning (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Estoniya, Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, Ozarbayjon va boshqalar) amaliyoti o'rganilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son.

2. "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" gi O'RQ 17.08.2017

3. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni tashkil qilish tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslar va ishlab chiqarish infratuzilmasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish to'g'risida"gi PF-5780. 13.08.2019

4. " Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5087-sonli, 21.04.2021

5. Vasilenok V. L., Aleksashina Ye. I. „Развитие предпринимательства и факторы его определяющие.“ (ru). economics.ihbt.ifmo.ru. 14-yanvar 2019-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 14-yanvar 2019-yil. — Statya. — NIU ITMO, seriya ekonomika i ekologicheskiy menedjment.- UDK 334.72



6. „FPP Newsletter October 2014 (PDF)“. Human Rights Documents online. Qaraldi: 22-dekabr 2019-yil.

7. Carlen, Joe, A brief history of entrepreneurship : the pioneers, profiteers, and racketeers who shaped our world. — New York. — 1 online resource (243 pages) c. — ISBN 978-0-231-54281-4, 0-231-54281-X

8. Brewer, Anthony, 1942- Richard Cantillon : pioneer of economic theory. — London: Routledge, 1992. — x, 210 pages



LECTURERS' METHODS IN TEACHING SPEAKING

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852827>

Nasimova Muattar Khasanovna

Toshmukhammedova Gulnoza

*Samarkand State Institute of Foreign Languages,
English teacher of the Chair of Joint
Education programme, Uzbekistan*

Abstract: The article discusses modern methods of preparing and conducting lectures and seminars on foreign language teaching methods, revealing the potential of teachers and students, as well as new approaches to teaching speaking skills.

Keywords: modern educational technologies, information technologies, jigsaw, acting from a script, prepared talks, student-team learning, debate, discussion.

Аннотация. В статье рассматриваются современные методы подготовки и проведения лекций и семинаров по методам обучения иностранному языку, раскрывающие потенциал преподавателей и студентов, а также новые подходы к обучению разговорной речи.

Ключевые слова: современные образовательные технологии, информационные технологии, головоломка, игра по сценарию, предварительные выступления, групповое обучение, дебаты, дискуссия.

Introduction

Speaking English lessons, in particular, are successful and effective when the lecturers are competent and using the right teaching techniques. Despite the significance of such elements in effective instruction, the results are far from ideal. Surprisingly, a lot of students deal with these issues in the classroom. The most frequent causes of this issue are the learners' limited vocabulary, lack of enthusiasm, and lack of practice in speaking the target language.

A modern student does not perceive classical lectures, traditionally organized types of practical and independent work, since he relies on the use of modern educational technologies. Usually a lecture is a transfer of ready-made knowledge through a monologue form of communication. With the development of information technologies in the educational process, electronic lectures were also conducted, characterized by a block diagram of the construction of the material, a developed hypertext structure, the use of demonstration material, which helps to increase the efficiency of students' assimilation of educational information. The advantages of using information technologies can be traced in the process of teaching the following disciplines: theory and methods of teaching foreign languages, modern pedagogical technologies, modern means of evaluating learning outcomes, etc.



Therefore, English lecturers must employ a variety of pertinent teaching tactics in order to assist students in learning English and enhance their speaking talents in terms of accuracy and fluency. In order to aid students in the process of learning the target language, lecturers must also present classroom activities that encourage the usage of English as much as possible both within and outside of the classroom. Language is learned by practice, according to M. F. Patel and P. M. Jain, and students will get better the more they are exposed to the target language. According to T. Hedge, who supports this notion, when language learners process the available linguistic input, they will require.

One illustration of these beneficial activities is encouraging pupils to converse socially in English in the classroom. It is crucial to consider both "the contexts in which individuals learn" and the characteristics of the particular learner, according to B. Norton and K. Toohey. A good lecturer also knows why they do what they do. In other words, they are knowledgeable about the subject matter they are teaching while also having a broad understanding of the many and numerous different teaching tactics, methods, and strategies.

There is no doubt that different lecturers will organize classroom activities differently and use different methods in the language classroom due to differences in competency, experience, knowledge, and personalities. However, it is thought that a knowledgeable and skilled lecturer will be able to make better choices during the teaching process. As a result, the researcher made the decision to actively watch and investigate the teaching strategies employed by the lecturers in the speaking class as well as how those strategies are executed in the classroom.

There are a number of activities that can be used to teach speaking, including the following:

1. Jigsaw; the teacher organizes the work at the seminars on the technology "Saw" (Jigsaw), which involves group work of students of different levels of performance. The audience is divided into groups of five people, they are asked five questions on the topic of the seminar. Each member of the group chooses one question and becomes the "expert" on that question in their group. At a practical lesson, students are given 20 minutes to discuss the issue in an expert group, where they discuss, ask, complement each other. For the next 20-25 minutes, the "experts", returning to their original groups, take turns telling all the information they have collected on their question.

As a result of joint work, each student should get a general idea of what the other members of his group have prepared. The remaining time of the seminar is devoted to a joint discussion of all questions, the teacher can ask any student to answer any of the five questions. The final score of the group is the sum of the points received for the answer of each of the members of the group. This technology seems to be effective in increasing the motivation for independent work. At seminars organized according to the "Jigsaw" method, students have to process a large amount of various modern methodological and scientific literature in order to be truly an expert in their field.



The advantage of this method is that each student is brought up with individual responsibility for the success of the whole team, although in practice there were difficulties in this regard. The observations made by the teacher showed that the students were reluctant to start work in groups, since it was important for everyone to get a grade for their answer. The bias of assessment, associated with the fact that each member of the group receives an overall assessment of the group, regardless of the degree of preparedness.

Student Team Learning; the main idea of which is to create conditions for active joint learning activities of students in different learning situations. Students are grouped into groups, each of which is offered a separate task. The whole group is interested in the assimilation of educational information by each of its members, since the success of the team depends on this. This encourages team members to follow each other's progress and the whole team to come to the aid of their comrade in mastering the material.

The peculiarity of learning in a team is that each student earns points by improving his own previous results, and not by comparing with the results of other group members. This gives advanced, intermediate and backward students an equal opportunity to earn points for their team. At the same time, the teacher differentiates the complexity of tasks for strong and weak students.

2. Acting from a script; students act out dialogue they have created for themselves, scenes from plays, or the script from their textbook.

3. Classroom discussion; this can take the shape of a formal, multi-staged discussion or an informal, small-group exchange.

4. Debate; Students prepare arguments for and against numerous propositions in a debate, after which they offer their points of view on a certain issue.

5. Prepared Talks; one or more students give a presentation on a subject of their own choosing. The pupils will have some time to get ready for their speech. According to [11], there are a number of qualities that encourage the effective teaching of speaking, including the following. 1) Students should have plenty of opportunities to speak during class communication time; 2) participation in class discussion should not be dominated by a small number of talkative students; rather, all students should have an equal opportunity to speak, and contributions should be distributed fairly; 3) picking an engaging and novel subject for study should encourage students to help with meeting learning objectives.

6. Tables and diagrams into electronic format (presentation in Power Point) are now used by teachers in lectures that require students to be able to operate with abstract categories. The diagrams and tables clearly reflect the relationship between key concepts and basic definitions, which makes it as easy as possible to assimilate the studied material. A computer, a screen and a multimedia projector are used to demonstrate materials. After the lecture course in theoretical disciplines, seminars are organized to consolidate the knowledge gained by students during listening to lectures



and independent work on the subject. Seminars usually take the form of a detailed conversation, discussion of reports and abstracts, a debate seminar, commented reading, exercises for independent thinking, written (test) work, etc.

The choice of the form of conducting a seminar on the theory and methodology of teaching foreign languages, of course, depends on the content of the topic and the nature of the sources and manuals recommended for it, on the level of preparedness, organization and efficiency of students.

Conclusion

As we can see, the use of modern technologies in lectures and seminars has a number of positive aspects: the attitude of students to theoretical subjects is clearly changing, the constant interest in learning them is increasing, the level of knowledge is the understanding of the educational material. deepens. Thus, if the lecturer, who always gives lectures, uses different techniques in the lectures, the level of students' mastery will also increase. It is possible to improve the quality of the lesson through a creative approach.

REFERENCES:

1. M. F. Patel and P. M. Jain, English language teaching: (methods, tools & techniques). Jaipur, India: Sunrise Publishers & Distributors, 2008.
2. T. Hedge, Teaching and Learning in the Language Classroom. Oxford University Press, 2000.
3. H. D. Brown and P. Abeywickrama, Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Pearson Education, 2004.
4. B. Norton and K. Toohey, "Changing Perspectives on Good Language Learners," TESOL Q., vol. 35, no. 2, pp. 307–322, Jun. 2001.
5. J. C. Richards and T. S. Rodgers, Approaches and Methods in Language Teaching, 2nd ed. New York: Cambridge University Press, 2001.
6. J. C. Richards and R. W. Schmidt, Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics, 3rd ed. Longman Publishing Group, 2002.
7. J. J. Asher, Learning Another Language through Actions: The Complete Teacher's Guidebook. Los Gatos: Sky Oaks Productions, 1977.
8. J. C. Richards, Communicative Language Teaching Today. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
9. J. Harmer, How to teach English: an introduction to the practice of English language teaching. Harlow: Longman, 1998.
10. P. Ur, A Course in Language Teaching: practice and theory. Cambridge University Press, 1996.
11. Суханова М. В., Мирошниченко Л. А. Практикум по теории обучения иностранным языкам в схемах и тестах. Воронеж, 2007. Концепция



модернизации российского образования. Приложение к приказу
Минобразования России от 29.12.2001 N 1756-р. М., 2002. 2.



BOSHQARUVGA DOIR QARASHLAR: ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” DOSTONI MISOLIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852833>

Maratova Nilufar Laziz qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada mutafakkir Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonidagi boshqaruv jarayoniga doir qarashlar, boshqaruv taktikalari, rahbarlarga xos xususiyatlar va bugungi kun uchun namuna bo'ladigan hikmatlar borasida so'z borgan.

Kalit so'zlar: an'ana, bashariyat, tahlika, tuzum, podshoh, tasarruf, manfaat, qahramon.

Аннотация: В статье рассказывается о взглядах мыслителя Алишера Навои на процесс управления в саге «Хамса», о тактике управления, характеристиках лидеров и мудрости, которые могут служить примером на сегодняшний день.

Ключевые слова: традиция, человечество, опасность, система, царь, управление, интерес, герой.

Abstract: The article talks about the views of the thinker Alisher Navoi on the management process in the “Khamsa”, management tactics, characteristics of leaders and wisdom that can be an example for today.

Key words: tradition, humanity, danger, system, king, management, interest, hero.

Sharq xalqlari adabiyotida dostonnavislik shakllaridan biri, “Xamsa” yozish bilan bog'liq adabiy an'ana. Nizomiy Ganjaviy XII asrning ikkinchi yarmi XIII asr boshlarida asos solgan. Nizomiy o'z asarini fors tilida yozgan. Shu sabab ijodkorning asari “Panj ganj” deb ham nomlangan, (forsiy tilda “Besh xazina” ma'nosini anglatadi). Boshqa xalqlar ana'nasini o'z tillarida davom ettirganlar. Undan so'ng 1253-1325 yillarda yashab ijod qilgan. Xisrav Dehlaviy o'zining fors - tojik tilidagi “Xamsa” asarini yozadi. XV asrda yashagan aksariyat shoirlar “Xamsa” ga o'xshatma bitishga harakat qilishgan bo'lsalar ham, ko'plari bir yoki bir necha asar yaratishga erishdilar. Chunonchi, Mavlono Ashraf, Mavlono Abdullo, Kotibiy Nizomiyning bir qator dostonlariga javob bitgan bo'lsalar, Mavlono Faseh Rumiy uning “Maxzan ul- asror”iga, Xoja Hasan Xizrshoh “Layli va Majnun” dostoniga o'xshatma dostonlar yozishgan. Lekin ikki buyuk ijodkor : Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiygina to'liq “Xamsa” yaratishga erishdilar.

Xususan Jomiy asari beshta emas, yetti dostonni o'z ichiga olgan. Jomiy o'zining bu asarini “Haft avrang” yaniki, “Yetti taxt” deb nomladi. SHundan so'ng Alisher Navoiy bobomizning xamsa asarlari dunyoga keldi. Navoiy qalamiga mansub besh doston,



shoirning ta'kidiga qaraganda, jami 30 oy – ikki yarim yil ichida yaratilgan bo'lsa-da, bu asarlarning har birini ko'p yillik ijodiy mehnatning natijasi deb qarash kerak. Zero, yoshlikdan shu ulug' maqsadni o'z oldiga qo'ygan shoir "Xamsa" yaratish ishiga avvaldan kirishgan, shu maqsadda yuzlab tarixiy, ilmiy va adabiy kitoblarni o'rganib chiqqan va ularni tadqiq etgan, bir-biri bilan qiyoslab, o'z xulosalarini ko'plab ustozlari va fikrdoshlari sinovidan ham o'tkazgan edi. Shuning uchun uning besh dostoni butun xalq manfaatlarini aks ettirgan, omma uchun asrlar davomida sevikli bo'lib qoladigan o'lmas qahramonlar qiyofalari bilan limmo-limdir. Alisher Navoiy 1483- yilda bu murakkab ishga kirishib, ikki yarim yil ichida "Hayrat ul- abror ", "Farhod va Shirin ", " Layli va Majnun ", "Sabbai sayyor", "Saddi Iskandariy " dostonlaridan tashkil topgan "Xamsa" kitobini eski o'zbek tilida yaratib , jahon adabiyotini bezavol va betakror buyuk asar bilan boyitdi. Navoiy o'z xamsasini yaratar ekan , Nizomiy va Dehlaviylar yaratgan ayrim ijobiy qahramonlar qiyofasini keskin o'zgartirib yuboradi. Zeroki Navoiy asarining qahramonlari asrlar davomida necha-necha avlodlar uchun ma'naviyat va odobda, odamiylik va jasoratda, xalqparvarlik va saxovatda o'rnak bo'lib xizmat qiladigan yorqin badiiy siymolar bo'ldi. Farhod va Qays, Suhayl va Sa'd, Axiy va Farrux, Muqbil va Jo'na kabi betakror qiyofalar, Shirin va Layli, Mehr va Mehinbonu, Dilorom va boshqalar ma'naviy barkamol ayollar timsollari Navoiy asaridan boshlab hanuzgacha yoshlarimizni oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda.

Jahonda neki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod.

Navoiy, ayniqsa o'zi yaratgan qahramonlarning ichki dunyosini, ruhiyatini to'laqonli aks ettiradi. Farhodning Salosil qal'asidagi kechinmalari , Majnunning dasht va sahroda chekkan iztiroblari, Ka'ba huzuridagi nolishlari, Laylining alamli dil so'zlari, Iskandarning onasiga maktubi kabi o'nlab tasvirlarda qalb kechinmalarining dardli ifodalari g'oyat ta'sirchan ifodalangani ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Shoir asarida tabiat va inson munosabatlarini eng jozibador, eng nafis, eng ta'sirchan aks ettiradi. Tabiatdagi har bir mavjudot, burjlar-u fasllar, oy-u yulduzlar, har qaysi o'simlik, samovot Navoiy qahramonlari tarafdori, ular uchun g'am chekadi, iloji boricha madad qo'llarini cho'zadi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga hamdamlashadi. Navoiy Xamsasidagi yaqqol ko'zga tashlanib turadigan kashfiyotlardan yana biri dostonlarda ilmiy hayotiy timsollarga keng o'rin berilishidir. Ilm va fan bilan bolalikdan qiziqib kelgan shoir "Farhod va Shirin" dostonida robotlar sistemasini yovuz kuchlar quroli sifatida tasvirlab, inson tafakkurining Farhodning bu ilmiy – xayoliy jismlar ustidan g'alabasini tasvirlagan edi. " Sabbai sayyor" dostonida Navoiy soatiga 35-45 kilometr yuradigan "Sariyus sayr" nomli ulov haqida fikr yuritadi. Bu asboblarga tez harakat qilishga imkon beradi. Xususan Navoiy mumtoz she'riyatimizda keng qo'llanib kelgan turli xil uslublardan o'rni bilan unumli foydalanaveradi. Shuning uchun Xamsa dostonlarida sof realistik hayotiy hodisalar, manzaralarini ham, xalq og'zaki ijodiga xos xayoliy fantastik lavhalarni ham aralash holda uchrataveramiz. Alisher Navoiy "Xamsa" sini tashkil qiluvchi dostonlarning har biri katta hajmga ega bo'lgan , yuksak



ma'naviyat va badiiyat qonunlariga to'la amal qilingan holda yozilgan hamda boy va go'zal o'zbek tilining bor nafasatini o'zida ifoda qilgan mukammal badiiy asardir.

Ana endi buyuk mutaffakkir bobomizning shu besh dostonidagi boshqaruvga oid fikr mulohazalariga birma - bir tuxtalib, yoritib utsak zeroki uni o'qigan o'quvchi bu asarda odil podshoh, xalqchillik nma ekani, komil inson tasviri qanday bo'lishini anglab yetmog'i lozimdir.

“Hayrat ul-abror” “Xamsa” asari tarkibidagi birinchi doston bo'lib, “Yaxshi kishilarning hayratlanishi“ degan ma'noni anglatadi. Navoiyning bu asari 1483-yilda yozilgan bo'lib, pand nasihat ruhidagi ta'limiy – axloqiy, falsafiy doston hisoblanadi. Doston 3,988 baytdan iborat bo'lib, 64 bob va 20 maqolatdan tashkil topgan. Asar ana'naviy muqaddima – hamd va na't bilan boshlanadi. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o'z aksini topgan. Uningcha dunyoning boshi ham, oxiri ham, yaratuvchi ham, kuzatuvchi ham Allohdir:

Avval o'zung, mobayn o'zung, Barchaga xoliq, boriga ayn o'zung.[1:86]

Navoiy dostonida umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariga doir savollar qo'yadi va keyingi dostonlarda muayyan taqdir, voqealar misolida ularga javob beradi. Dostonida o'sha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatlar, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar o'z ifodasini topgan.[2:132]

Asarda shoir Alloh, borliq, inson haqida shunday fikrlaydi: bir vaqtlar bu jahon pinhon (yashirin) edi. Na yer, na ko'k, na kun, na tun — hech narsa yo'q edi. Sendan boshqa hech kim, hech narsa yo'q edi. Nozir ham, manzur ham o'zing eding. Ishqingdan mast, husningdan masrur eding, husning jilvasiga cheku chegara yo'q edi. Senga ko'zgu kerak bo'ldi va shu maqsad bilan dunyo maydonga keldi. Demak, dunyo sening jamolingga oynadir. Sen dunyoni g'oyat go'zal (latif) qilib yaratding, lekin hammasidan insonni ulug' (sharif) aylading. Binobarin, Alloh har narsadan ulug' va yaqin tutgan inson ham tabiatning, ham jamiyatning gultojidir. Navoiy dunyoni Allohning namoyon bo'lishidir, deb biladi. Inson esa uning markaziy siyмосi. [3:8]

Asardagi 2 bob ustozlar ta'rifiga bag'ishlangan, 2 bob so'z va undagi ma'no haqida. 1-maqolat iymon, 2-maqolat islom, 3-maqolat shohlar haqida. Unda shoir bevosita shohga murojaat qiladi: "Ey, dabdabasi olamni tutgan sulton, senga haq hukmfarmolik berdi, qo'lingni baland qilib, el-xalqni, ne-ne buyuklarni qoshingda past etdi. Lekin shuni bilki, sen ham ularning ko'pidan ojizroq bir bandasan... Haq senga vazifa topshirgan. Birinchi vazifa — bergan ne'matiga shukr qilmoq, ikkinchisi — xalqni xurram tutmoq, haqini haqlab bermog, asramog. U senga omonat berilgan. Agar sen elning bir siniq ignasini tortib olsang, oxiratda olmos xanjar bo'lib, bag'ringga qadaladi. Ingichka bir ip kabi zarar yetkazgan bo'lsang, uni seni halok qiluvchi ilon deb bilaver... Beayb Parvardigor, lekin ayb qildingmi, tavba qil. Adolatsizlik qildingmi, adolat qil". Shu tariqa har bir maqolat bir mavzuga bag'ishlangan. Ayni mavzuga munosib biror ibratli hikoya keltiradi[4:16].

Navoiyning „Farhod va Shirin“ dostoni u yaratgan „Xamsa“ ning 2-dostoni bo'lib, unda Farhod oddiy tosh yo'nar oshiq emas, balki xoqonning o'g'li, aniqrog'i, Xo'tan



mamlakati podshosining qarilikda ko'rgan yakka-yu yagona farzandi bo'lib, yoshligidan fanning barcha sohalariga qiziqqan, harbiy bilimlarni, ayniqsa, toshyo'narlik, kasbini egallashga uringan. U Shirinni otasi xazinasidagi sehrli oynada ko'rib, darhol sevib qoladi. Unga erishish uchun turli mashaqqatlarni boshidan kechiradi. U Arman elida Shirin uchun qazilayotgan ariqni bitkazish ishlarida o'zining nimalarga qodir ekanini ko'rsatadi. Ammo bosqinchi Eron hukmdori Xusrav bilan kurashda xiyla bilan qo'lga olinib, qahramonlarcha xalok bo'ladi. Uning sevgilisi Shirin esa uning jasadi ustida jon beradi. Farhodning yoshlikdagi bilimga chanqoqligi, uning piri komili Suqrot nasihati bilan sof sevgi va ma'naviy yuksalish yo'lidagi kurashi, mamlakat obodonchiligi yo'lida tog'dan ariq qazib, qaqragan yerlarga obi – hayot bag'ishlashi, sevgilisi Shirin mamlakatini bosqinchi, xudbin Xisravdan himoya qilishi uning haqiqiy komil inson ekanligini yaqqol ko'rsatib beradi. Zero uning chin oshiq ekanligi shirin ishqida bir hiylaga aldanib joni uzilganidan ham bilsak bo'ladi.

Alisher Navoiy o'z "Xamsa" sining to'rtinchi dostoni bo'lmish "Sab'ai sayyor" asarini yozishga kirishar ekan, Nizomiy va Xisrav Dehlaviylarning an'alarini davom ettirib, Eron shohlaridan bo'lgan Bahrom binni Yazdijurdning hayoti va faoliyatiga murojaat etishni lozim topdi. Ajam mamlakati tarixiga bag'ishlangan barcha asarlarda bu hukmdorning taxtga chiqishi bilan bog'liq ajoyib hodisalar, uning adolatli siyosati, qiziqarli hayot tarzi, "Havarnaq" deb atalgan muhtasham qasr qurdirishi, ov qilishga bo'lgan ishtiyoqi, shuningdek, halokati tafsilotlari atroflicha bayon qilinadi. Alisher Navoiyning "Tarixi mulki ajam" asarida ham shoh Bahrom faoliyati ancha keng aks ettirilgan. Shoir jahon tarixidan munosib joy egallagan ushbu hukmdor haqida qalam surishga kirishar ekan, o'z salaflariga qaraganda boshqacharoq g'oyaviy-badiiy niyatni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi, ya'ni dostonda shoh Bahromning taxt egallashi bilan bog'liq voqealardan boshlab o'limiga qadar yuz bergan barcha hodisalarni to'la tasvirlash yo'lini tanlamay, uning Dilorom bilan munosabatinigina bayon qilish va u voqe'likni shoh va uning kanizi o'rtasidagi yuksak, pokiza va samimiy muhabbat tarixiga aylantirishni, asardan o'rin oladigan yetti hikoyani esa bevosita asosiy mavzu bilan uzviy bog'liq holda bayon etishni ma'qul deb bildi. Chunki bir shoir tasvirlagan tarixni yana takrorlash nomaqbulligi, ya'ni:

Bir deganni ikki demak xush emas, o'z chu takror topti, dilkash emas.

Bahrom obrazi dastlab forsiy adabiyotda Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"sida tasvirlanadi. Firdavsiy Bahromni musbat va manfiy jihatlarga ega murakkab shaxs sifatida tasvirlaydi: u bir tomondan, adolatsevar podsho, vatanparvar yurt egasi, tengsiz aql-idrok, kuch-quvvat sohibi mohir ovchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, kitobxon ko'z o'ngida aysh ishratga, ehtirosiga o'ch, xudbin va qahri qattiq shaxs sifatida gavdalanadi [5:132]. Shoh Bahrom juda odil va adolatli podshoh bo'ladi uning adolatidan xalq juda minnatdor va xursand bo'ladi u yetti iqlim hukmdori bo'lib o'z qo'l ostidagi qaram mamlakatlarga ham zug'm qilmas edi. Ayniqsa boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga umuman aralashmas, ularga uzlarining viloyat hokimlarini boshliq qilib tayinlab qo'ygan faqatgina belgilangan o'lponni talab qilar va



ularning tinch va xotirjam yashashlarini taminlar edi. Xalq o'z podshosidan juda xursand bo'lib ,farovon va osoyishta hayot kechirib yashashardi.

Karam birla xalq aylagay olame ,

Bu olamda maqsud anga odame.

Xamsa asarini yakunlovchi oxirgi beshinchi doston "Saddi Iskandariy" dunyodagi buyuk siymolardan biri, uch sohibqironning eng mashhuri- jahongir Iskandarga bag'ishlangan bo'lib .Sharqda u Iskandar Zulqarnayn ("ikki shoxli " yoki "kun chiqish va kun botish hukmdori") nomi bilan mashhurdir. [6:150] Alisher Navoiyning bu dostoni haqiqiy odil podshoh qanday bo'lishini to'laqonli ko'rsatib beradi. Chunki bu asardagi shoh iskandarning qilgan ishlarini ko'rib hayratga tushadi odam va shu bilan birga uning ishlaridan hozirgi kundagi rahbarlarimiz o'rnak olsa juda ham yaxshi bo'lardi. Iskandarning boshqaruv siyosati haqida bir hikoyatni misol qilmoqchiman: Iskandarning otasi vafot etgandan so'ng mamlakat boshqaruvi uning zimmasiga tushadi.Rum mamlakati ikki- uch yil davomida Zang shohi bilan qattiq janglar olib borganidan Doroga yuborishi kerak bo'lgan mablag'l yetarli emas edi. Xirojni o'z vaqtida yubormasa Iskandarga Doroning dushman bo'lib qolishi aniq edi.Chunki Malik Faylaqus Rum ahliga shoh bo'lganda har yili ming oltin tuxumni xiroj qilib to'lashgan va'da bergan edi. Uch yildan beri o'sha xiroj yuborilmayapti. Shu uch yillik xiroj yuborilsa do'stligimiz yana rivojlanaveradi. Keyinchalik bu so'zlar Iskandarga qattiq botdi va shunday dedi:Doroga mendan salom ayt ! Salomdan so'ng mening ushbu javobimni yetkaz ! Shohlikning baqosi yo'q, fano oxiratdan boshqa natijasi yo'q. Bugun ertalik umr uchun ranj chekmaki, albatta, ganj uzra ganj qo'ygansan xolos. Sen haddan ortiqcha xazunalar yig'ding. Ular sen uchun haddan tashqari ranj olib keldi. Senga ham, bizga ham bu xazinalardan foyda yo'q. Tuxum tilab ko'p mehnatga urinaverma. Tuxum tug'adigan qushlar allaqachon uchib ketib bo'lgan. Buni eshitgan Doroning juda jahli chiqdi va shunday dedi:"Mening nevaram tenggi, ota onalari saroyimda xizmat qilib yurgan bu go'dak shunday so'zlarni aytishga jurat qilibdiki, ularni so'z deb hisoblab ham bo'lmaydi [7:395]. Shundan so'ng Doro Iskandar bilan jang qilish niyatida uning mamlakatiga Lashkar tortib boradi. Bundan tashvishga tushgan Iskandar juda ko'p o'ylaydi. Shu paytda yaratgandan Iskandarga bir ishora bo'ladi buni sezgan Iskandarning ko'ngli joyiga tushadi. Bu orada Doroning mulozimlari unga fitna uyishtirashadi va bu haqida Iskandarga habar berishadi. Iskandar buni o'ziga bo'layotgan fitna deb o'ylab e'tibor bermaydi. Shu tariqa Doro vafot etadi va barcha mamlakatlar podshosi Iskandar bo'lib qoladi. Dora unga o'z vasiyatini aytib vafot etadi. Shundan so'ng barcha unga qaram bo'lgan mamlakatlar Iskandarga bo'ysuna boshlaydi. Ammo bu oson kechmaydi Iskandarga uch mamlakat podshohlari qarshi chiqadi. Shunday vaziyatlarda ham Iskandar o'z odilligi, bir so'zligi bilan xalqning farovonligini saqlab qoladi.Zeroki Iskandar shunday aqlga sig'mas darajadagi ishlarni qiladiki hayron qoladi kishi,bu esa uning haqiqiy tug'ma qobiliyatga ega ekanligini , haqiqiy yo'l boshlovchi xalqni ortidan yetaklay ola biladigan podshoh ekanligini kursatib beradi. Alisher Navoiy shoh Iskandarni shunday



darajada tariflaydiki uning jasorati xalqining osoyishtaligi yo'lida hech qanday ishdan qaytmasligini ko'rib haqiqiy rahbar ega bo'lishi kerak bo'lgan barcha xislatlar unda mujassam ekanligini anglab yetasiz. Zero Iskandar vafot etayotganida shunday vasiyat qiladi: Tobutimdan qo'limni chiqarib qo'ying zeroki xalq bilsin yetti iqlim podshohi u dunyoga bo'sh qo'li bilan ketmoqda,- deb aytadi. Mana shu yerdan ham bilsak bo'ladiki Iskandar faqat mol-u dunyo to'plash uchun jang-u jadal kechmagan. U faqatgina o'z xalqi uchun barcha ishga tayyor bo'lgan. Alisher Navoiyning aynan mana shu dostonidagi Iskandar obrazini bugungi kundagi ideal rahbarga o'rnak qilib ko'rsatsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy. "Xamsa". "Yangi asr avlodi", 2021-yil. 538b.
2. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov, 2019, "Tamaddun" nashriyoti, 2019. <https://fayllar.org/>.
3. Shuhrat Sirojiddinov. "Alisher Navoiy:manbalarining qiyosiy - tipologik, tekstologik tahlili". "Akademnashr" nashriyoti, 2011-yil. 98b.



IT SOHASINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YORITILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852844>

Turg'unova E'zoza Ilg'or qizi

*O'zJOKU televideniye va radioeshittirish
yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Jurnalistikada axborot texnologiyalari sohasiga ixtisoslashuv boshlanganiga hali ko'p bo'lgani yo'q. Avval ham bunga doir yangiliklar ommaviy axborot vositalarida berib borilgan, faqat uni yangilik va reportaj tayyorlashga mas'ul muhbirlar amalga oshirganlar. Axborot texnologiyalari rivoji ommaviy axborot vositalaridan ham ixtisoslashuvni talab qildi va bugun IT-jurnalistlar media makonda o'ziga xos o'rin topdilar. Bunga avvalo axborot texnologiyalari olamidagi voqealarni yorituvchi internet saytlar, teleko'rsatuvlar, radio eshittirishlar paydo bo'lgani sababchidir. Axborot texnologiyalari mavzusida qalam tebratuvchi jurnalistdan alohida bilim va mahorat talab etiladi. Chunki u nafaqat o'z kasbi sir-asrorlari, balki IT olamiga doir eng muhim ma'lumotlarni bilishi shart. Shuningdek, IT sohasining ayollar uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan muvaffaqiyatli ayollar haqida ommaviy axborot vositalarida yoritib borib boshqalarga motivatsiya berish ham aynan jurnalistlar zimmasidadir. Qolaversa, bir kunini ham axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qolgan hozirgi zamonda uy bekalarining yaratilayotgan qulay imkoniyatlardan unumli foydalanishlarida ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos.

Kalit so'zlar: IT, jurnalist, axborot texnologiyalari, reportaj, ommaviy axborot vositalari, internet, sayt, fuqarolik jamiyati, Tumaris Tech, USAID, ICT4Girls, IT-Woman.

Huquqiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni o'z oldiga strategik maqsad qilib qo'ygan O'zbekistonning har bir fuqarosidan, xoh u ayol, xoh erkak bo'lsin, bugun, birinchi navbatda, azm-u shijoat, ijtimoiy faollik, mas'uliyat va yuksak huquqiy madaniyat talab etiladi. Oilada, ishxonada, mahallada, turli darajadagi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida, tadbirkorlik va siyosat jabhasida millatimizning ayol-u erkaklari yurtimizning ertangi kuniga teng ravishda mas'uldirlar. Bunday mas'uliyatni shakllantirishda, inson huquqlari va manfaatlarini himoya qilishda, ayol-u erkaklarning qadr-qimmatini teng ta'minlashda milliy OAV va jurnalistlar oldida qator vazifalar turibdi. Ularni bajarish davomida OAV xodimlarining o'zi ham gender muvozanatiga rioya qilishi, tahririyatlarda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlarning ijodiy, kasbiy va tashkiliy salohiyati to'la-to'kis namoyon bo'lishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zarur bo'ladi.



Dunyo bo'ylab IT sohasida faoliyat yurituvchi muvaffaqiyatli ayollar ko'p. Biz ular haqida ommaviy axborot vositalari orqali ko'p eshitganmiz. Ammo o'zimizda ham zamonaviy kasb orqasidan yaxshigina daromad topib, ham uyini, ham yosh bolasini eplayotgan o'zbek ayollari ham yo'q emas. Ammo ko'pchilik ularni o'z qobig'iga o'ralib olgan, odamovi kishilar deb biladi. Bunga ham jamiyatdagi dasturchilar haqidagi ba'zi bir streotiplar sabab bo'ladi. Toki ular haqida ommaviy axborot vositalari orqali ko'proq bong urib, ommaga tanishtirib borilmas ekan, bunday fikrlarga barham berish qiyin.

Masalan, 2021-yilda bo'lib o'tgan "Koinot go'zali" tanlovida Meksikalik 26 yoshli dasturiy ta'minot muhandisi va ayollar huquqlari faoli Andrea Meza g'oliblikni qo'lga kiritgan. Ma'lumotlarga ko'ra, aynan Mezaning go'zallik standartlari va ularni o'zgartirish haqidagi nutqi tanlovda g'olib bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu haqida o'sha yilning 19-may sanasida Daryo.uz saytida maqola chop etilgan.⁷⁵[<https://daryo.uz/2021/05/19/koinot-gozali-tanlovida-26-yoshli-meksikalik-dasturchi-qiz-golib-boldi-foto/?ysclid=lgknffk9iv273924760>] Bundan ko'rinib turibdiki, dasturchilar o'z ichki olami bilan band bo'lib, tashqi ko'rinishiga unchalik e'tibor qaratmaydi, degan fikrlarga hamisha ham ishonaverish kerak emas.

Shu bilan birga, IT sohasi bilan shug'ullanish yoki axborot texnologiyalardan keng foydalangan holda, blog yurg'izib, odamlarga yordam berish uchun koinot go'zali bo'lish ham shart emas. Shunday insonlar borki zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanib, o'zini mutlaqo namoyish etmasa-da, uning mehnati ko'plab insonlarning mushkulini oson qiladi. Ana shunday ayollardan biri dunyodagi eng baland bo'yli dasturchi ayol Rumeysa Gelgi. Naq 5 ta rekord sohibasi bo'lgan turkiyalik ushbu ayol haqida 2022-yilning 10—noyabr kuni xabar.uz saytida ham maqola chop etilgan. Rumeysa Uiver sindromi deb nomlanuvchi noyob genetik mutatsiya bilan dunyoga kelgan. Bu dard tananing tez o'sishiga olib keladi, ko'pincha suyaklarni zaiflashtirib, bo'g'imlar harakatini cheklaydi. U 5 yoshga to'lar-to'lmas ikkita og'ir jarrohlik amaliyotini boshidan kechirdi. Shundan so'ng, u ilk bor qadam bosishga muvaffaq bo'lgan.

2014-yilda Rumeysa "Dunyodagi eng baland bo'yli o'smir qiz" degan nomga sazovor bo'ldi. 2021-yil oktyabr oyining o'rtalarida Ginnesning rekordlar kitobi vakillari hozirda yashayotgan eng baland bo'yli ayol unvoni bo'yicha jahon rekordini rasman tasdiqlashdi.

"Har qanday kamchilikni fazilatga aylantirish mumkin. Shuning uchun o'zingizni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qiling. O'z salohiyatingizni ro'yobga chiqarish uchun qo'lingizdan kelganicha harakat qiling", – dedi u Guinness nashriga bergan intervyusida. Rumeysa o'zining baland bo'yli o'smirlik davridagi shon-shuhratini shunday izohlaydi: "Rekord o'rnatish – eng katta orzularimdan biri. Rekordchi bo'lish juda ajoyib".

⁷⁵<https://daryo.uz/2021/05/19/koinot-gozali-tanlovida-26-yoshli-meksikalik-dasturchi-qiz-golib-boldi-foto/?ysclid=lgknffk9iv273924760>



Gelgi hozirda dasturiy ta'minot sohasida ishlaydi. 2021-yilda Turkiyadagi yirik yong'inlar paytida u Instagramdagi profilida yordam so'rab hayqirdi. Bundan ko'rinib turibdiki, qahramonimiz nafaqat baland bo'y, balki boshqa odamlarning muammolariga befarq bo'lmagan katta qalb sohibasi hamdir.⁷⁶ [<https://ict.xabar.uz/uz/0i4>]

Bugun jamiyatda ayollarimiz faqat uy bekasi, rafiqqa yoki ona vazifasi bilangina cheklanib qolmayapti. Zero, rahbar lavozimlar yoki xususiy faoliyatini yo'lga qo'yayotgan xotin-qizlar soni tobora oshib bormoqda. 2020-yilda tadbirkorlik faoliyatini boshlagan ayollar soni 38 mingtadan ko'proqni tashkil etdi. Ular tomonidan 58 mingta yangi ish o'rni yaratilgan. Va aynan shu sababli, IT Park biznes muhit va tadbirkorlikni rivojlantirish USAID loyihasi qo'llab-quvvatlashi bilan O'zbekiston Respublikasida ayollar texnologik tadbirkorligini rag'batlantiruvchi [Tumaris Tech](#) loyihasini yo'lga qo'ydi.

Mazkur loyihaning o'ziga xos tarafi, taqdim etiladigan dastur va kurslar o'z g'oyalarini daromad kelturuvchi biznesga aylantirish istagida bo'lgan IT sohasidagi tadbirkor xotin-qizlar uchun mo'ljallangan. Loyihaning asosiy vazifasi – xotin-qizlarga g'oyalarini amalga tatbiq etishlari uchun har tomonlama ko'mak hamda qo'shimcha ta'lim olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni ayollarni ICT ekotizimiga jalb etishni kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Loyiha ishtirokchisiga aylanish uchun tumaris.tech saytida ro'yxatdan o'tish va o'z startapi prezentatsiyasi ko'rinishidagi arizalarini qoldirish lozim. Xotin-qizlar tadbirkorligini yaxshilashga qaratilgan bunday tashabbuslar ko'plab ish o'rinlari yaratib, aholining o'zini-o'zi ish bilan bandligini oshirishga yordam beradi hamda mamlakatda iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha resurs yaratadi.⁷⁷ [<https://xabar.uz/uz/texnologiya/xotin-qizlar-diqqatiga>]

Hozirda nafaqat IT mutaxassisisi bo'lgan ayollar uchun, balki o'z sohasida axborot texnologiyalarini ham moxirona qo'llay olgan xotin-qizlarimiz uchun qator loyihalar tashkil qilinib, bundan loyihalar viloyatlarda ham targ'ib qilinmoqda. Jumladan, IT Park va YXHT hamkorligida "Iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash" loyihasi doirasida Buxoro viloyatida hunarmandchilik faoliyati bilan band bo'lgan ayollar uchun bepul malaka oshirish kurslari boshlandi. Loyihaning asosiy maqsadi – axborot texnologiyalari va raqamlashtirish orqali tadbirkor ayollarning ishbilarmonlik salohiyatini kuchaytirish, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.⁷⁸ [https://t.me/itpark_uz/6944]

ICT4Girls loyihasi doirasida O'zbekiston qizlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish forumi bo'lib o'tdi. Tadbirda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, ta'lim muassasalari va o'quv markazlari vakillari ham ishtirok etdi. O'zbekiston qizlarining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish forumi doirasidagi mehnat va ta'lim

⁷⁶ <https://ict.xabar.uz/uz/0i4>

⁷⁷ <https://xabar.uz/uz/texnologiya/xotin-qizlar-diqqatiga>

⁷⁸ https://t.me/itpark_uz/6944



yarmarkasida yurtimizdagi IT sohasiga aloqador davlat tashkilotlari, universitetlar, kompaniyalar va o'quv markazlari ishtirok etdi. IT sohasiga qiziqqan turli yoshdagi yigit-qizlar o'z tashrifi davomida bo'sh ish o'rinlari va o'qish uchun mavjud imkoniyatlar bilan tanishib, yangi do'stlar orttirishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur forumdan lavhalar O'zbekiston 24 telekanalining Axborot 24 informatsion dasturida o'zbek va rus tillarida namoyish etildi. Shuningdek, Xalqaro Press klub jamoasi ham forumda faol qatnashib, tadbirdan ajoyib reportaj tayyorladi.⁷⁹ [<https://youtu.be/m3oEQWZNhtM>]

Xabar.uz axborot portalining IT-Woman sahifasi bugungi kunda yurtimizda va xorijda axborot texnologiyalari sohasida faoliyat yuritib kelayotgan ko'plab muvaffaqiyatli ayollarni xalqqa tanitishda va bu orqali hayotda o'z o'rnini topishga qiyalayotgan qanchadan-qancha opa-singillarimizga ko'rsatuv qahramonlari orqali motivatsiya berishda yetakchilik qilib kelmoqda. IT-Woman ko'rsatuvining ana shunday qahramonlaridan biri asosiy maqsadi IT sohasida ayollar faolligini oshirish bo'lgan "Women Techmakers" hamjamiyati yetakchilaridan biri Durдона Bahronova ham IT sohasidagi uch yillik tajribasidan kelib chiqqan holda, ushbu soha aynan xotin-qizlar uchun juda mos ekanligini ta'kidlaydi.

Uning fikricha, IT sohasida ayollarning kamligi aslida juda katta muammo va aniq bir jihat yoki kamchilikni misol keltirib bo'lmaydi. Shuningdek, ayollarning o'ziga bo'lgan ishonchsizligi ham bunga sabab bo'lishi mumkin. Bu faqat IT sohasida emas, balki umumiy aniq fanlarda ham kuzatiladi. Ayollar orasida muhandis, matematik yoki dasturchilar juda kam. Aslida bu yillar davomida shakllanib, qolib ketgan stereotipdir. Oldindan negadir bu fikr qotib qolgan, ayollar bu sohani eplay olmaydi, ularning kasbi emas deya. Tasavvur qiling, IT sohasi butun dunyo uchun hayotimizni yaxshilaydigan yechimlar yaratib bersa-yu, nega biz unda ishtirok etmasligimiz kerak?

Durdona agar insonda kuchli xohish-istak bo'lsa, IT sohasini tekinga ham o'rgansa bo'ladi, deb hisoblaydi. Durдона Amerikaning Super Dispatch texnologik kompaniyasida ishlayotgan kezlari Amerikaning CNN telekompaniyasi tomonidan butun dunyodagi iste'dodli va iqtidorli yoshlar haqidagi yangi "The Generation Next" loyihasining ilk sonida ham mehmon bo'lgan.

"Ayollar hayot tarzidagi muammolarni hal qilish erkaklarga qolishi kerak emas. Chunki ular hamma uchun mo'ljallangan mahsulot yaratishga harakat qilishsa-da, ayollarga taalluqli masalalarda baribir ayol mutaxassislar talab etiladi", - deydi u. Ya'ni, bu gaplari bilan u ayollarga mo'ljallangan dasturlarni tayyorlashda ayollar nuqtai nazaridan yondashish uchun ularning o'zlari ana shu sohada faoliyat olib borishlar kerakligiga ishora qilgan. 80

[<https://edition.cnn.com/2021/12/20/world/female-coders-uzbekistan-spc-intl/index.html>]

⁷⁹ <https://youtu.be/m3oEQWZNhtM>

⁸⁰ <https://edition.cnn.com/2021/12/20/world/female-coders-uzbekistan-spc-intl/index.html>



Bugungi kunda hayotimizni IT sohasisiz tasavvur qila olmaymiz. Uning bir qismi bo'lgan telefonku shundoq ham kun-u tun jon-jigarimizdan ham yaqin qadrdonimizga aylanib ketgan. Ha, aynan mana shu soha sizni oddiy uy bekasi-yu, bola tarbiyachisidan har taraflama moliyaviy erkin, haqiqiy ishbilarmon ayolga aylantiradi.

Bu borada tajribali va taniqli PR mutaxassisi, Arzon Apteka loyihasining sobiq ijrochi direktori va qolaversa, O'zbekistondagi go'zallik shaydolarini bir joyga to'plagan yagona platforma Beutify.uz asoschisi Nigora Akilova ham xabar.uzga bergan intervyusida IT sohasi bizning iboli-hayoli o'zbek ayollarimiz uchun nihoyatda qulay sohali ekanligi va ushbu soha ularga erkin kun tartibida ishlash imkonini berishini alohida e'tirof etib o'tgan.⁸¹ [<https://ict.xabar.uz/uz/lfq>]

Haqiqatan ham, IT sohasida erkin kun tartibida ishlash imkonini mavjudligi uchun ham u ayollar uchun qulay soha hisoblanadi. Ammo bu degani ular faqat uyda ishlaydilar, degani emas. Albatta, istagan inson o'z bilim va tajribalaridan kelib chiqqan holda, istagan kompaniyasida dasturchi sifatida grafik asosida ishlashi ham mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunda IT sohasida faoliyat yurituvchi veb-dizayner, frontend, bekind dasturchi qizlarni ko'rsak, hayron qolmaymiz. Ammo, streotiplar hanuz saqlanib qolgan, ayollar aynan IT jamoada o'z o'rinlarini topishlari uchun nimalarga ahamiyat berishlari kerak?

Agar siz IT jamoasidagi birinchi ayol kishi bo'lsangiz, professionallik sinoviga tayyor turing. Jinsdan qat'iy nazar, har qanday ishga qabul qilinuvchi xodim bunday sinovdan o'tadi, deb bahslashish mumkin. Ammo, ba'zi dasturchilar istehzo bilan ta'kidlaganidek: agar erkak dasturchi junior pozitsiyadan boshlasa, nozik jins vakillari uchun "ayol" pozitsiyasidan boshlanadi. U ham har qanday murakkablikdagi loyihani o'z zimmasiga olishini isbotlashi kerak. Bu haqda suhbat jarayonidayoq aytib o'tilishi lozim.

Boshqa har qanday jamoada bo'lgani kabi, IT jamoasida ham noto'g'ri tushuncha mavjud: masalan, ayol yuqori malakali mutaxassis bo'la olmaydi, chunki unda oilaviy mas'uliyat katta va u bola tarbiyasi bilan ham shug'ullanadi. Shu sababli, ish beruvchilar nomzodlarni tanlashda, hatto ayolning tajribasi ko'proq bo'lsa ham, erkaklarga ko'proq yon bosadilar.

Negadir ayol kishi uchun erkak dasturchilar bilan umumiy til topishish qiyinroqdek tuyuladi. Chetdan qaraganda, dasturchilar o'z ishiga berilgan, o'z dunyosida yashovchi va xarakteri bir qarashda yomon ko'rinishi mumkin bo'lgan o'ziga xos insonlarga o'xshaydi. Ammo ular bilan bir jamoada ishlay boshlagach, soqolli, qattiqqo'l yigitlar qiyofasi haqiqatga to'g'ri kelmasligi ayon bo'ladi. Ular o'z ishlariga shunchalik ishtiyoqmandlarki, hatto ta'tilda ham sohil bo'yida dam olishni emas, balki foydali ishlarni afzal ko'rishadi, masalan, yangi dasturlash tilini o'rganish yoki professional adabiyotlarni o'qish. Ayol kishi uchun esa bunday hamkasblar bilan til topishish unchalik oson bo'lmasligi mumkin, lekin bunga juda qiyin masaladek qaramaslik kerak.

⁸¹ <https://ict.xabar.uz/uz/lfq>



Har qanday jamoada bo'lgani kabi professionalizm va ishga mas'uliyat bilan yondashuv o'zaro hurmatga loyiqdir. Agar siz bu sohada endigina ish boshlagan bo'lsangiz, avvalo, jamoaning bir qismiga aylanishga harakat qiling. Kirishimlilik hamkamlar bilan tez til topishishda ancha yordam beradi.⁸² [<https://ict.xabar.uz/uz/j3m>]

IT sohasini o'rganish va tushunish ayollar uchun bir muncha qiyinchilik tug'diradi, deb hisoblovchi hamyurtlarimiz uchun o'qish jarayonlarini oson va qiziqarli qilish maqsadida ta'lim jarayonida eng ilg'or texnologiyalardan foydalanib kelayotgan Kamila Ahmedova ham IT Parkda o'z jamoasi bilan "Techbika", "IT-Woman", "Tumaris Edu" kabi bir qator loyihalar doirasida ayollarni shu kunga qadar axborot kommunikatsiyalari va texnologiyalari sohasiga mo'ljallangan kurslarda bepul o'qitib va ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda iqtidorli xotin-qizlar uchun startap loyihalarini joriy etishda yetakchilik qilib kelmoqda. Kamila xabar.uz axborot portalining "IT-Woman" sahifasiga bergan intervyusida shunday deydi:

"Biz ayollarga ilhom beramiz, o'qitamiz va yangi iste'dodlarini kashf etishga hamda IT sohasida rivojlanishiga ko'maklashamiz. Bundan tashqari, bitiruvchilarga orzu qilgan ishlarini topishda ko'maklashamiz. Quvonarlisi shundaki, qo'lida hunari yo'q ayrim uy bekalari ham loyihalarimizni tamomlagandan so'ng ishga joylashib, mustaqil pul topa boshlashdi".⁸³ [<https://youtu.be/AG-duMGIyds>]

Sun'iy intellekt va innovatsiya birlashgan joyda ayollar uchun ham yangidan-yangi imkoniyatlar yaratiladi. U hatto uyda o'tirib ilg'or AKT yordamida ishlay oladi, o'qib-o'rganib, yangi kasblarni egallaydi. Boz ustiga, ayollarda nozik barmoqlar, nafis tasavvurdan suv ichadigan fantaziya, ijodkorlik bor. Faqatgina ularni yuzaga chiqarish kerak, xolos.⁸⁴ [<https://xs.uz/uz/25902>]

IT sohasi faqat erkaklar uchun degan narsa yo'q aslida. Bugungi kunda ishlayman, o'qiyman, o'rganaman deganlar uchun barcha imkoniyatlar, shart-sharoitlar mavjud. Biror muassasaga borib o'qishga sharoiti bo'lmaganlar uchun onlayn ta'lim olishga ham imkoniyat yetarli. Turmushga chiqib, farzandli bo'lgan ayollar uchun ham IT sohasida imkoniyatlar talaygina. Oila tashvishlari IT sohasida faoliyat yuritish uchun to'siq bo'la olmaydi. Chunki uy sharoitida ham, bo'sh vaqtida masofadan turib, ish faoliyatini olib borishi mumkin. Buning uchun albatta sizda internet va noutbook yoki kompyuter bo'lsa kifoya. Aynan shu taraflama ham IT sohasi boshqa sohalarga qaraganda ayollar uchun juda qulay hisoblanadi.

Bugun zamonaviy ayollarimizning dasturlashni o'rganishlari uchun hech narsa to'sqinlik qilmaydi. Ya'ni, siz ham bemalol dasturchi bo'la olasiz, biz yuqorida misol tariqasida keltirgan ayollar ham xuddi siz kabi nozik hilqat vakillari. Qolaversa, ular bugungi kunda yuqori daromad topish nozik jussalari bilan og'ir mehnat qilishmayapti, bir joyda ohista o'tirib ishlaydigan ish uchun hatto ko'chaga

⁸² <https://ict.xabar.uz/uz/j3m>

⁸³ <https://youtu.be/AG-duMGIyds>

⁸⁴ <https://xs.uz/uz/25902>



chiqishlariga ham hojat qolmayapti. Haqiqatan ham agar ular frilanserlik bilan shug'ullansalar, uyda bola tarbiyasi, uy-ro'zg'or yumushlarini tark etmasdan ham bo'sh vaqtlarida bemalol yuqori daromad topishlari mumkin.

Freelance – o'z shaxsiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, masofaviy ishlash imkoniyati mavjud platforma. Mana shu platformalarda ishlovchi insonlar esa frilanserlar deb yuritiladi. Agar siz ma'lum bir bilimlarga ega bo'lsangiz va shaxsiy komputeringiz bo'lsa hamda Internet tarmog'ingiz yaxshi bo'lsa freelanserlik orqali sizga uyda o'tirib ham pul ishlash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bir so'z bilan aytganda, freelance platformasi insonning aqliy mehnat salohiyati sotiladigan bozor.⁸⁵ [https://youtu.be/iD_GRT6BXWU]

Freelance Industry 2012 hisobotiga ko'ra, frilanserlarning 71% dan ortig'i 30 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ayollardir. Ketrin Makkerchening jurnalistika sohasi bo'yicha olib borgan tadqiqot natijalari esa ommaviy axborot vositalarida hali ham erkaklar faoliyati ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, frilanserlik yo'nalishida mustaqil faoliyat yuritayotgan jurnalist va muharrirlarning aksariyati asosan xotin-qizlardan iborat.

Garchi ish uchun texnik vazifalarni mijozlar belgilasa-da, biroq frilanserlar ishchi xodim sanalmaydi, balki mustaqil pudratchi hisoblanadi. Mijoz esa faqat ishning qanday yakunlanganini nazorat qilishi huquqiga ega. Shuningdek, frilanser bo'lib ishlash o'z xizmati uchun o'zi istagan narxni belgilashga ham imkon beradi. Ya'ni, narxni tashqaridan hech kim siz uchun belgilab bermaydi.

Bugungi kunda erkin bozorda raqobat bo'lishiga qaramasdan, sifatli va ishonchli frilanserlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ko'plab korxonalarda ishchi kuchi yetishmasligidan frilanserlar ko'magiga tayanadilar. Ehtimol, frilanserlikni endigina boshlovchilar uni yollamoqchi bo'lgan har qanday mijozni qabul qilishni istashlari mumkin, ammo keyinchalik tajriba orttirib, mijozlar soni ham ko'paygach, o'ziga ma'qul keladigan narx va muddatidan kelib chiqib har taraflama qulay bo'lgan ishni bemalol tanlay oladilar. Tabiiyki, stabil daromad bo'lmaydi, chunki frilanser o'z xohishiga ko'ra ishlaydi, uni ishlash uchun hech kim majbur qilmaydi. Shunday ekan, biror ishga majbur bo'lmagan kishi, hech qanday ish qilmasa uning qo'lga pul ham kelib tushmaydi. Shuning uchun ham frilanserlik yo'nalishida doimiy ishdan tashqari, qo'shimcha ish sifatida ishlash tavsiya etiladi.⁸⁶ [<https://uz.wikipedia.org/wiki/Frilanser>]

Axborot asri bo'lmish XXI asr jamiyat hayotining har qanday jabhasiga qator yangilanishlarni olib kirdi. Mazkur o'zgarishlar birinchi navbatda yangi axborot kommunikatsion texnologiyalari ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida informatsiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflandi. Shular qatori jurnalistika ham zamonaviy texnologiyalar ta'siridan chetda qolmadi. XX asrning yakunida biz elektron gazeta, internet jurnal, raqamli TV va online rejimda faoliyat

⁸⁵ https://youtu.be/iD_GRT6BXWU

⁸⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frilanser>



yurituvchi axborot agentliklari vujudga kelganining guvohi bo'ldik. Ayni damda mazkur jarayon sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib ulgurdi. Yangi axborot texnologiyalari, elektron va multimedia vositalari, raqamli va sun'iy yo'ldoshli aloqa kanallari hamda internet inson imkoniyatlari, uning tafakkuri, bilimi va ijodiy bunyodkorligi samarasidir. Mutaxassislar axborot texnologiyasining asosiy belgisi sifatida ma'lumotni qayta ishlash jarayonining muayyan bosqichlarga bo'linishini e'tirof etadilar.⁸⁷ [D.Rashidova. N.Muratova. Internet jurnalistika. T.: 2007 - B.8.]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.Rashidova. N.Muratova. Internet jurnalistika. T.: 2007 - B.8.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frilanser>
3. <https://xs.uz/uz/25902>
4. <https://ict.xabar.uz/uz/j3m>
5. <https://xabar.uz/uz/tehnologiya/xotin-qizlar-diqqatiga>
6. <https://daryo.uz/2021/05/19/koinot-gozali-tanlovida-26-yoshli-meksikalik-dasturchi-qiz-golib-boldi-foto/?ysclid=lgknffk9iv273924760>
7. <https://ict.xabar.uz/uz/0i4>
8. <https://ict.xabar.uz/uz/lfq>
9. <https://edition.cnn.com/2021/12/20/world/female-coders-uzbekistan-spc-intl/index.html>
10. <https://youtu.be/m3oEQWZNhtM>
11. <https://youtu.be/AG-duMGIyds>
12. https://t.me/itpark_uz/6944
13. https://youtu.be/iD_GRT6BXWU

⁸⁷ D.Rashidova. N.Muratova. Internet jurnalistika. T.: 2007 - B.8.

**РАДИОНУТҚНИНГ АФЗАЛИГИ ВА КАМЧИЛИКЛАРИ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852862>

Абдусагатов Фирюза Хамидовна

Ўзбекистон Миллий Университети

журналистика факултети катта ўқитувчиси

Оммавий ахборот воситалари ҳисобланган газета, журналлар матбуотнинг асосини ташкил этади. Улар деярли тўрт асрдан буён инсониятга хизмат қилиб келяпти. Бир неча юз йилликлар – ХВИИ - XIX асрлар давомида эса матбуот фақат газета ва журналлардан ташкил топиб келди. Аммо матбуотнинг жамият ҳаётидаги аҳамияти шу қадар каттаки, инсоният фақат газета ва журналлар билан кифояланиб қолмади. XIX асрнинг охири ва XX асрнинг бошларига келиб, оммавий ахборот воситаларининг яна бир тури – радио кириб келди.⁸⁸

Радио тасвирлар беришнинг имкони йўқ, бироқ баён қилиш йўли билан воқеа ҳақида тасаввур ҳосил қила олади. Ҳикоя қилиш, ифода эта олиш санъатини яхши эгаллаган репортёр ўз ҳикояси билан телевизион сюжетга нисбатан кўпроқ натижага эришиши мумкин. Лекин бунинг учун радиожурналист ҳодисанинг майда икир-чикирларигача билиши ҳамда уни ўз нутқида тингловчига еткази олиш қобилиятига эга бўлмоғи ва бу билан тингловчи фикран воқеа жараёнини ўз тасаввурида ҳосил қила олишига муваффақ бўлмоқ керак.⁸⁹

Дарҳақиқат, радиожурналистикада воқеа-ҳодисаларни тингловчига етказиб беришда асосий омил тил ва нутқдир. Шу маънода радиожурналист олдида қўйиладиган энг биринчи талаб унинг нотиклик санъати сирларидан хабардор бўлиши ва нотиклик маҳоратини эгаллаган бўлишидир. Маълумки, нотиклик санъати оғзаки санъат бўлиб, уни эгаллаш катта меҳнат орқали амалга ошади. Бугунги кун журналистикамининг ҳар бир тармоғида нотиклик санъатидан фойдаланилади. Тингловчи ва ўқувчиларнинг кўнглига йўл топишда ҳар бир журналист маълум маънода нотиклик санъатининг сирларини эгаллаган бўлиши лозим.

Радио – ОАВнинг ўзига хос электрон техникасига асосланган туридир. Радио туб маънодаги матбуот маҳсули эмас, яъни, у сўзни босма усул билан кўпайтирмайди, балки уни махсус асбоблар воситасида оғзаки кўпайтиради. Шу жиҳати билан радио оммавий ахборот воситаларининг техникага асосланган алоҳида бир тури ҳисобланади. Радио ОАВ таснифида алоҳида ўрин тутади. Яъни, газета ва журналлар кўриш, босма сўзларни ўқиш орқали инсон онгига

⁸⁸Хамдамов Ю., Абдусагатов Ф. Аудиовизуал журналистика. Ўқув қўлланма. – Т.: ЎЗМУ, 2022. 24-бет.

⁸⁹Фихтелиус Э. Радио ва телевидение журналистикаси асослари. Журналистиканинг 10 қоидаси. –Т.: Шарқ. 2002. 61-бет.



етиб борса, радио эса, овозни эшиттириш орқали таъсир кўрсатади. Бу эса инсоннинг энг асосий сезув аъзоси бўлмиш қулоқ орқали информасия қабул қилишдек энг қадимий ва табиий имкониятидан келиб чиқади. Бу жиҳатдан уни матбуот ҳали вужудга келмаган пайтларда унинг вазифасини бажарган оғзаки нутқ, жарчилик, нотиқлик санъатининг давоми, бошқача қилиб айтганда, юқоридаги воситаларнинг техникага асосланган қайтарилган кўриниши дейиш мумкин. Демак, радиода нутқнинг алоҳида бир кўриниши оғзаки нутқдан фойдаланилади. Оғзаки нутқ ёзма нутқдан ўз икониятларининг кенглиги билан ажралиб туради. Оғзаки нутқда фикр (ахборот) асосан тил воситасида муайян мақсадга мувофиқ ифодаланади: фикрлаш жараёни лисоний ифодага кўчирилади. Фикрни нутқ ифодасига кўчириш жараёнидаги лисоний изланишлар, сўз танлаш ва қўллашдаги адашишлар, тўғрилашлар нутқ таркибланишида ҳам акс этади. Бу нутқ ифодасидаги турли хатолар, чалкашликлар тарзида юзага чиқади. Сўзловчининг ўз-ўзини тўғрилаши, гапни қайта тузиши, қайта талаффуз қилиши, сўз танлашда “тутилиб” қолишлар оғзаки нутқнинг ўзига хос ислоҳий-тахририй хусусияти сифатида намоён бўлади. Оғзаки нутқ кишиларнинг ҳамкорликда оширадиган ҳатти-ҳаракатлари билан бевосита боғлиқ. Бунда ахборот узатиш бир вақтнинг ўзида лисоний ва нолисоний воситалар орқали амалга оширилади. Сўзловчининг овоз товланишлари, қандай гапираётганлиги, сўзлаш тарзи (манераси), ҳис-туйғулари ҳам ахборот ташийди: тингловчига муносабатини, мавзуга, вазиятга нисбатан баҳосини англатади. Унинг гапидан мулоқотни давом эттириш-эттирмаслиги ёки киноя-қочирим қилаётганлиги англашилиб туради. Бир сўзни ёки гапни турли ҳил маънода ифодалаш мумкин. Бунда нутқ товушлари, урғу, оҳанг, ритм, товуш тембри, интонасия, пауза сингари фонетик воситалар, имо-ишоралар, кўз қарашлари, тана аъзолари ҳолати ва ҳаракати каби паралингвистик ифодалар, оҳ уриш, хитоб қилиш, ундаш, сукут сақлашдек нолисоний ҳодисалар муҳим вазифа ўтайди. Шу маънода оғзаки нутқ воситасида иш кўрадиган радионинг матбуотдан устунлиги ҳам намоён бўлади.

Радио матбуотнинг ўзига хос эшитувчига бевосита қаратилган тури сифатида инсоният ҳаётига дадил кириб келди ва унда ўзининг муносиб ўрнини олди. Радио пайдо бўлгач, кишилар ижтимоий ҳаёт янгиликларини тезроқ эшитадиган бўлдилар, дунёдан янада кенгроқ хабардор бўла бошладилар, ижтимоий тафаккур уфқлари янада кенгайди. Радио ўзининг пайдо бўлиши ва хусусиятлари билан соҳа мутахассислари олдида қуйидаги муаммоларни қўяди:

1. Радио кашф этилгандан кейин матбуот билан бир қаторда, кишиларга энг муҳим хабарлар етказиб беришда муҳим ўрин тутди. Радио техника билан боғлиқ бўлганлиги сабабли, у йилдан-йилга янада такомиллашувни талаб этади.



2. Радио пайдо бўлиши билан инсониятнинг нотиқлик санъати янада такомиллашди, шу боис кишиларга энг муҳим янгиликлар, хабарларни ўзига хос тарзда етказиб бериш.

3. Фан-техника ютуқларини ва янги технологияларни жорий қилиб, оммага янада тезкор, сифатли ахборотларни етказиб беришга эришиш.

4. Кишиларга жамиятда содир бўлаётган энг муҳим воқеа ва ҳодисаларни имкон даражасида тезроқ етказиб беришга эришиш.

Радио фақат ўзигагина хос бўлган хусусиятларга эга. Бу хусусиятлар унинг кўп сонли радиотингловчиларга кучли таъсир ўтказа олиш имконияти билан боғлиқ. Ҳар куни Ўзбекистоннинг миллионлаб аҳолиси энг сўнгги янгиликлар билан Ўзбекистон радиосининг эшиттиришлари орқали танишишади. Бу танишувда радиотингловчи муайян янгиликни эшитади. Айни пайтда ҳар қандай янгилик, информасия замирида у ёки бу ҳодисага муносабат, у ёки бу воқеа тўғрисида тасаввур ва тушунча пайдо бўлади. Натижада ҳар бир эшиттириш тингловчида воқеа ва ҳодисаларга нисбатан мусбат ва манфий қарашни шакллантиради. Бу журналистика илми нуқтаи назаридан мураккаб жараёнدير. Лекин ушбу жараённинг асосий унсурларидан бири журналистнинг радиога хос бўлган хусусиятларни яхши билишидир. Бу эса журналистик маҳоратни яна ҳам ривожлантиради. Қисқа вақт ичида янгиликларни маҳорат билан тингловчиларга етказиш, кўзлаган самарага эришиш – журналистлардан, муҳбирлардан катта малака, масъулият ва қобилият талаб қилади.

Журналистнинг радио орқали тингловчилар билан алоқа боғлаши радионинг ўзига хос хусусияти – ахборот етказишнинг оғзаки харктерда экани билан боғлиқ. Тингловчилар радио орқали берилаётган ахборотни эшитиш орқали қабул қилади. Бунинг муайян қийин томонлари ҳам бор. Газета ё журналдаги матнни тушуниш учун қайта-қайта ўқиш имкони мавжуд. Лекин радиодан бир эшитишда ҳамма ахборотни ҳам тўла қабул қилиш қийин. Радиоешиттиришга хос бу хусусиятни ҳамиша ёдда тутиш керак. Шу боис радиожурналистлар тингловчилар билан доимий алоқада бўлиш, унинг диққат-эътиборини муттасил тортиб туриш учун радионинг техник ва журналистиканинг ижодий хусусиятларидан фойдаланишга ҳаракат қиладилар.

Юқорида таъкидлаганимиздек, радиода оғзаки нутқдан фойдаланиш унинг таъсирчанлигини таъминлашда асосий омил бўлади. Бундан ташқари бадий шовқинлар, мусиқа ва монтаж кабилар радионинг таъсирчан воситалари саналади. Радионинг тўрт таъсирчан воситаси мавжуд бўлиб, ахборот эшиттиришлари фаолиятида биринчи ва асосий ўринни оғзаки нутқ воситаси эгаллаб туради. Нутқий мулоқотнинг асосий турлари ва шаклларининг таснифи ахборот радиоешиттиришлари назариясини ўрганувчи тадқиқотчи учун муҳим вазифаларни юзага келтиради. М.В.Зарва шундай ёзган эди: “Радио орқали янграётган нутқнинг оғзакилиги, унинг тўғридан-тўғри, гарчи бевосита бўлса



хам, талаффузи билан баравар қабул қилаётган кўпсонли тингловчиларга муурожаати, ана шу янграётган нутқдан ўзига хос хислатларни талаб этади.”⁹⁰

Журналист радиода қўлланиладиган жанрларнинг ўзига хос хусусиятларни яхши билмай туриб талаб даражасидаги материални тайёрлай олмайди. Бу эса материални оммага тушунарли тарзда етиб боришига тўсиқ бўлади. Маълумки “жанр – объект, ҳаётини лавҳа, фактлар ёки мустаҳкам белгиларга эга воқелик ҳодисаларни акс эттирувчи аниқ адабий ёки публицистик шаклдир”. “Ахборот радиожанрларига анъанавий равишда хабар, репортаж ва интервью киради.”⁹¹ Ҳар бир жанрнинг ўзига хос лисоний-услубий хусусиятлари мавжуд. Масалан, хабарда умумистеъмолда бўлган сўзлардан кенг фойдаланилса, интервьюда истеъмол доираси чегараланган сўзлар, атамалардан ҳам кенг ўринда фойдаланиш мумкин. Хабар, репортажда адабий тил меъёрларига қатъий амал қилиш, синтактик жиҳатдан бутун гаплар тузиш асосий меъзон бўлса, интервью, суҳбатларда эса сўзлашув услубига хос узук-юлуқлик, тўлиқсиз гаплардан кенг фойдаланига ҳам йўл қўйилади.

Радионутқнинг ўзига яраша афзаллик ва камчилик жиҳатлари мавжуд. Оғзаки нутқнинг бойлиги радиода турли шаклларда намоён бўлади – нутқ тезлигида, жонли овоз кучида, талаффуздаги урғуда ва яна бир қанча жиҳатларда. Булардан ҳар бир журналист ўз маҳорати даражасида фойдаланади. Вақти келса таъсирли, тўғри нутқ юзага келтиради. Лекин эшиттиришлар давомида тилдан нотўғри фойдаланган ҳоллар ҳам тез-тез учраб туради. Бундай хатолар нутқий мулоқотнинг бошқа кўринишларида ҳам етарли. Масалан, урғуни нотўғри қўйиш, матнни ҳаддан ташқари тез ва секин ўқиш ва ҳоказо. Журналистнинг нутқ маданияти кўп жиҳатдан суҳбатдошининг, умуман олганда тингловчининг тил маданиятига таъсир этади. Оддий ва аниқ нутққа эришиш усуллари мураккаб ва ортиқча сўзлардан қутулиш, сўз ва ибораларни нафақат тўғри қўллаш, балки тўғри талаффуз этиш билан боғлиқ. Замонавий радионутқнинг муайян камчилиги рус ва бошқа чет тилларидан кирган сўзлардан нотўғри фойдаланиш оқибатида келиб чиқади. Буни тузатиш тахририят ижодий ходимларининг вазифасидир.

Журналистнинг нутқий маҳорат муайян тилнинг нутқий сифатларини билиши ва уни амалда қўллаш олишидир. Нутқнинг тўғрилиги, аниқлиги, софлиги, жўялилиги, мантиқийлиги, ифодалилиги, образлилиги, таъсирчанлиги, соддалиги, қисқалиги, бойлиги каби хусусиятларини билмаган журналист муваффақият қозонмаслиги аниқ. Нутқнинг тўғри бўлиши, унинг адабий тил меъёрларига мувофиқ келиши бўлса, аниқ бўлиши ундаги сўзлар, сўз бирикмалари маъноларининг ўзаро муносабати мантиқ ва тафаккур қонунларига мувофиқ келишидир, софлиги эса адабий тилга ёт бўлган, ўзлашмаган сўзлар, гап қурилишларининг қўлланмаслигидир. Нутқ жўялилиги

⁹⁰ Абдусатторов Р.Х. Радио журналистиканинг ўзига хос хусусиятлари. Ўқув қўлланма. – Т.: 2000. 14-бет.

⁹¹ Абдусатторов Р.Х. Радио журналистиканинг ўзига хос хусусиятлари. Ўқув қўлланма. – Т.: 2000. 24-бет.



ўз вақтида айтилувчи нутқ бўлса, қисқалиги деганда қабул қилувчини зериктирмаслик, оз сўз орқали кўп фикр етказиш назарда тутилади.

Радиожурналистикада нутқий маҳоратнинг яна бир асосий жиҳати-нутқ техникасидир. Фикр лўнда ифода, тиниқ талаффуз билан етказилмаса ўз аҳамиятини йўқотади. Овоз, нафас, интонасия, дикция, пауза, урғу – булар нутқий техника омилларидир. Шу маънода радионутқнинг ўзига хос томонларини, унинг афзаллик ва камчилик жиҳатларини ўрганишни бугунги кунда долзарб масала ҳисобланади.

**DAVLAT TILIDA ISH YURUTISH HAR BIR DAVLAT XIZMATCHISINING BURCHIDIR**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852870>

Saule Erkinovna Imamberdiyeva

*Toshkent viloyati Yangiyo'l shahar 5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi Davlat tili
fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: mazkur maqolada Davlat tiliga ya'ni o'zbek tiliga bo'lgan e'tibor, Davlat tarafidan bu sohadagi islohotlar, yangiliklar ko'rsatilgan. Shuningdek, Davlat tilida ish yurutish har bir duqoroning burchi ekanligi to'g'risida tushunchalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Davlat tili, burch, Prezident farmoni, til to'g'risidagi qonun, O'zbek tili bayrami.

Millatimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir. O'zbekistonda 1989-yil 21-oktyabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Istiqloq yillarida ona tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, "Taraqqiyot strategiyasi" markazi va keng jamoatchilikning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun — 21-oktyabr sanasini "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilsin va uning tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlandi.

Quyidagilar Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari etib belgilandi:



⑦ davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish:

⑦ davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan, shuningdek, uni rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini yuritish bo'yicha takliflar tayyorlash;

⑦ o'zbek tilining yozma nutqi me'yor va qoidalarini ishlab chiqish bo'yicha hamda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish;

⑦ davlat tilini rivojlantirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

⑦ davlat tilini rivojlantirish bo'yicha dasturlar va "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish, ularning amalga oshirilishini nazorat qilish, shuningdek, "O'zbek tili bayrami kuni"ni nishonlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

⑦ davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Mamlakatimizda hujjatlarni davlat tilida rasmiylashtirish, ish yuritishni o'zbek tilida olib borish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib, ish yuritish sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilgan, me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 1999-yil 29-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 140-qarori, Bosh vazir tomonidan 2009-yil 30-avgustda tasdiqlangan "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik birlashmalari, ularning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish hamda ijro intizomining ahvoli monitoringini olib borish tartibi", Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-dekabrda 488-"Litsenziyalar blankalarini tayyorlash tartibi to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida litsenziyalar reestrini shakllantirish va yuritish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi, 2000-yil 25-iyuldagi 283-"Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari, korporatsiyalari, konsernlari, uyushmalari, kompaniyalari va boshqa markaziy muassasalari apparatlarida ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo'yicha Namunaviy yo'riqnoma (O'zR VM 29.03.1999-y. 140-sonli qarorining 2-ilovasi) shular jumlasidandir.

Lekin respublikamizda bugungi kunlarda ham davlat tilida ish yuritish jarayonlariga to'liq amal qilinmoqda, deb bo'lmaydi. Yuzaga kelgan holatni yaxshilash maqsadida 2020-yil 25-aprelda Adliya vazirligi davlat tilida ish yuritishni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxs-larga javobgarlik belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasiga muvofiq, O'zbekistonda davlat tili o'zbek tili



ekan-ligi, «Davlat tili haqida»gi qonunning 9-moddasiga ko'ra, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritilishi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi kabi moddalarga asoslanib MJtKning 42-moddasiga: «Davlat organlari va tashkilotlarida ish yuritishda davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etmaslik, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi» degan to'ldirish kiritishni taklif etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Har qaysi xalqning turmush tarzi, urf-odatlar, madaniyati uning tilida o'z ifodasini topadi. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida davlatimiz delegatsiyalari tashrifi, yoshlarimiz yutuqlari, sportchilarimiz g'alabalari sharafiga o'zbek tilida madhiyamiz kuylanayotir. Biz o'z ona-tilimizni asrab-avaylashimiz, uning nufuzini oshirishimiz, go'zal va sofligini avlodlarga meros sifatida qoldirishimiz, dunyoga tanitishda o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. "Til yashasa, millat yashaydi". Agar biz o'z tilimizning ko'rkamligi, boyligini dunyoga tarannum etsak, millatimiz yanada charog'on bo'ladi va birligimiz musyakkam bo'ladi. Zero rus tarixchisi Shobelev aytganidek "Millatni yo'q qilish uchun u yerga qurol ko'tarib borish shart emas, uning tilini, ma'naviyatini, adabiyotini yo'q qilish kerak, shunda millatning o'zi yo'q bo'lib ketadi" degan fikri naqadar to'g'ri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Toshkent sh., 2020-yil 20-oktabr, PF-6084-son
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 1997-yi, 29-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", 1997-yi, 29-avgust.
4. Ibrohim Haqqul. Mushohada yog`dusi. T- 2009.



DIZARTRIYANI BARTARAF ETISH METODLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852875>

Dadajanova Dilfuza Mirzahmatovna

*Angren shahar 34-son Tayanch-harakat a'zolari shiksatlangan bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan maktab internati.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada dizartriyaning bartaraf etish uslublari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: korreksiya, ritm, oxangdorlik, ovoz, nutqiy nafas, artikulyatsion gimnastika.

Dizartriyaning bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni artikulyatsion apparat massaji va gimnastik mashqlari, ovoz va nafas ustida ishlash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy — tarbiya, fizioterapiya va dori — darmonlar bilan davolash ishlari.

Asosiy diqqat bolada nutkning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik—grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlariga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham xisobga olinadi.

Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg'ulotlar sekin—asta artikulyatsion apparat, apparat motorikasini normallashtiradi, artikulyatsion harakatlarni rivojlantiradi, artikulyatsiya a'zolarida ixtiyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o'tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonimatik eshituvni to'la qonli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari AG.Ippalitova, O.V.Pravdina, V.V.Ippalitova, Ye.M.Mastyukova, G.V.Chirkina, I.I.Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Dizartrik bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari quyidagilardan iborat:

1 - tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, ya'ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqqa qo'yish va mustahkamlash.

2 - fonematik idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish. ituvni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

3- nutqning ritm, oxangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kamchiliklarni bartaraf etish.

4 - paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'rilash.

Dizartrik bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaf-fuzidagi kamchiliklarining



asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyasion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Tovushlar talaffuzi ustida ishlash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:

1- dizartriya shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshi-ni hisobga olish.

2- nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi komunikatsiyaning rivojlanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

3- motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo'lgan buzilishlarining bartaraf etishga intilish, o'z - o'zini anglashni, o'ziga ishonch, o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'z qadrini bilish hamda o'z kuchiga ishonish.

4-differensial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini rivojlantirish.

5-ko'ruv—kinestetik tuyg'uni rivojlantirish yo'li bilan artikulyatsion tartib va artikulyatsion harakatni kuchaytirish.

6-ishni bosqichma—bosqich tashkil etish. Korreksion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba'zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko'ra tanlab olinadi, ammo artikulyatsiyaon buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

7-eng og'ir buzilishlarda ya'ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo'lganda korreksion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo'g'inlardan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo'lsa va u ayrim so'zlarda nuqsonli tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olsa unda ish «tayanch» so'zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

8-markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo'li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarni oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Korreksion logopedik ishning tayyorlov bosqichi

Dizarteriyada olib boradigan logopedik ishlar bosqichma bosqich olib boriladi.

1- bosqich tayyorlov bosqichi - bu bosqichning asosiy maqsadi:

- artikulyatsion apparatni, artikulyatsion tartibni shakllantirishga tay-yorlash;
- bolaning ilk yoshida—nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash;
- passiv lug'atni aniqlash va rivojlantirish;
- nafas va ovozdagi kamchiliklarni korreksiyalash.

Bu bosqichning eng ahamiyatli vazifalari bu - sensor funksiyani ayniqsa eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir.

Korreksion ish metodlari va usullarini qo'llash nutq, rivojlanishi darajasiga bog'liq. Bolada muloqot nutq vositalarining bo'lmasligi boshlang'ich ovoz reaksiyasini tezlashtiriladi va tovushlarga taqlid qilishga olib keladi, hamda unga kommunikativ ahamiyat tusini beradi.



Logopedik ishlar dori darmonlar bilan ta'sir etish, fizioterapevtik davolash, davolov jismoniy tarbiyasi va massaj bilan qo'shib olib boriladi.

2 - bosqich boshlang'ich kommunikativ talaffuz qobiliyatini shakllanti-rish bosqichi.

Bu boskichning asosiy maksadi:

- nutqiy muloqot va tovushlar analizi malakasini rivojlantirish;
- artikulyatsion apparat muskullarini bo'shashtirish;
- og'iz holatini nazorat qilish;
- artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish;
- ovozni rivojlantirish;
- nutqiy nafasni to'g'rilash;
- artikulyatsion harakatlarni sezish va maksadga yo'naltirilgan artikulyatsion harakatni rivojlantirish.

Artikulyatsion gimnastika. Artikulyatsion gimnastikani o'tkazishda taktil-proprietseptiv stimulya-siya, statik-dinamik sezgilarni rivojlantirish, aniq artikulyatsion kines-teziyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ishning dastlabki bosqichlarida saqlangan analizatorlardan (eshitish, ko'rish, taktil) mukammal ravishda foydalanish orqali amalga oshiriladi. Mashqlar ko'zlarni yopiq holda bolaning diqqatini proprotseptiv sezishlarga qaratish orqali bajariladi. Artikulyatsion gimnastika dizartriyaning shakli va artikulyatsion apparatning jarrohatlanish darajasiga qarab differen-siyalashtiriladi. Nutq muskullari harakatini rivojlantirishdan avval yuzning mimik muskullari mashqlaridan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolada mimikaning ixtiyoriy va differensirlashgan harakatlari va o'z mimikasi ustidan nazorat qilish rivojlantiriladi. Bolaning so'zli ko'rsatma bo'yicha ko'zini ochish va yopishga, qoshlarini chimirish, lunjini shishirish, so'lagini yutish, og'zini ochish va yopishga o'rgatiladi.

Yuz va lab muskullarini yetarlicha kuchini rivojlantirish uchun toza ro'molcha, naychadan foydalanib maxsus qarshilik mashqlaridan foydalanila-di. Bola naychani lablari bilan ushlab, katta odam uni tortib olishga harakat qilsa ham ushlab turishi lozim.

Tilning artikulyatsion gimnastikasi tilning uchini pastki tishlarning chetlariga faol tegishini tarbiyalashdan boshlanadi. So'ngra tilning umumiy, kam diferensirlangan harakatlari avval passiv keyin passiv-faol va faol harakatlari rivojlantiriladi. Tilning ildizi muskullarini rivojlantirish ularni maxsus zond orkali til ildizini ta'sirlash yo'li bilan reflektor ravishda qisqartirishdan boshlanadi. Mustahkamlash ixtiyoriy yo'talishdan foydalanib o'tkaziladi. Artikulyatsion matorikani rivojlantirish uzviy ravishda umumiy va maxsus mashqlardan foydalanilgan holda olib boriladi. O'yinlar artikulyatsion motorikani xarakteri va nuqsonning darajasi, bolaning yoshini e'tiborga olgan holda tanlaniladi.



Ovozni rivojlantirish. Dizartrik bolalarda ovozni rivojlantirish va korrektsiyalash uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalaniladi, bu mashqlar nafas faoliyati, fonotsiya va artikulyatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ovoz ustida ishlash artikulyatsion gimnastika va massajdan so'ng olib boriladi. Bular bilan birga yana bo'yin muskullarini bo'shashtiruvchi, boshni xar tomonlama harakatini bajarish bo'yicha maxsus mashqlar, shu mashq bilan bir vakqni, o'zida i-e-o-u-a unli tovushlarni talaffuz etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tanglay muskullarini mustahkamlash uchun uni bo'shashtirish va taranglashishni navbati bilan almashtirish mashqlaridan foydalaniladi. Bolaga esnash harakatini tugashida «a» tovushi talaffuz etish, OG'IZNING katta ochiq holatida «a» tovushini talaffuzidan «p» tovushiga nafasni bosim ostida ushlab turib o'tiladi. Bolaning diqqati tanglay holatini sezishga qaratiladi. Shuningdek ovoz kuchi tembri va balandligini rivojlantirish mashqlaridan foydalaniladi. Masalan, o'nliklar bo'yicha ovozni kuchaytirib turri sanash va ovozni asta-sekin pasaytirib teskariga sanash mashqlaridan foylaniladi. Ovoz tembri, balandligi va ovoz intonadiyasini rivojlantirishda turli o'yinlar ertaklarni rollarga bo'lib o'kish, inssenirovkalar katta ahamiyatga ega.

Tilning passiv gimnastikasi.

1. Og'iz bo'shlig'idan tilni oldinga chiqarish.
2. Tilni orqaga tortib olish.
3. Tilni pastga tushirish.
4. Tilni tepaga ko'tarish (labning tepa qismiga)
5. Tilni ikki yonga chapga va o'ngga qaratish.
6. Og'iz bo'shltg'ining ost qismiga til uchini bostirib turish.
7. Til uchini tanglayga ko'tarish.
8. Tilning har tarafga yengil tebranish xarakatlarni bajarish.

Lablarning passiv gimnastikasi.

1. Labning tepa qismining yig'ish (ikkala qo'lning ko'rsatkich barmog'ini labning chetiga qo'yib, uni o'rta chiziqqa keltirish).
2. Labning pastki qismini yig'ish (shu uslub bilan).
3. Lablarni naychasimon yig'ish – xartumcha.
4. Tabassum qilish va og'iz burchaklarini barmoqlar bilan ushlash.
5. Labning yuqori qismini ko'tarish.
6. Labning pastki qismini tushirish.
7. Yopiq og'izning kinestetik hislarini ishlab chiqish uchun lablarni yig'ish.
8. Unli tovushlarni aytish uchun zarur bo'lgan („a“, „o“, „u“, „e“) turli xil lablar shaklini yaratish.

Faol gimnastika mashiqlardagi xarakatlar passiv xolatda bajarilganda va rivojlangadagina bemor tomonidan mustaqil tarzda qilinadi. Faol gimnastikaning maqsadi harakatning qo'lamini, aniqligini, tezligi va boshqa xarakatlarga o'tuvchanligini oshirishdan iborat.



Yuz mimikasi mushaklarini rivojlantirish uchun mashqlar.

1. Ko'zlarni yumib, ochish.
2. Qoshlarni chimirish.
3. Qoshlarni yuqoriga ko'tarib peshonada bir chiziq ajinlarni paydo qilish.
4. Lunjlarni ishirish.
5. Og'izni ochib yopish.
6. So'lakni yutish.
7. Chaynash harakatlari.

Lab mushaklarini rivojlantiradigan mashqlar

1. Lablarni naychasimon cho'zish „xartumcha“.
2. Lablarni ikki chetka yoyish tabassum.
3. „Xartumcha“ - „miyg'ida“ kulish xarakatlarini almashtirib bajarish.
4. Ochiq va yopiq xolatdagi jag'larda lablarni yig'ish.
5. Lablarni tezkorlik bilan yoyib, yoig'ish.
6. „Bo'sa“

Tovushlar talaffuzini korreksiilash

Tovushlar talaffuzini to'g'irlatda individual yondoshish tamoyilidan foydalaniladi. Tovushlarni to'g'rilash va nutqqa qo'yish individual tan-lanadi. Bir nechta tovushlar ustida ishlash ishda izchillikni talab etadi. Tuzatish ishida birinchi navbatda artikulyatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan tovushlar yoki tuzatish oson bo'lgan tovushlar tanlab olinadi. Bu tovushlar; a, p, u, m, k, n, x, B, o, t, s, l. Ushbu tovushlar ustida ishlash jarayonida ularni talafuz normasigacha keltirish mumkin. Yuqorida ko'rsa-tilgan tovushlar ustida ishlash bilan bir vaqtda fonematik eshituvni rivojlantirish va tovushlar analizi malakalarini shakllantirish ustida ham ish olib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz/.O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
2. Ayupova.M.Y. —Logopediya O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatinashriyoti Toshkent – 2007.
3. Ayupova.M.YU —Korreksion ishlar metodikasi Ma'ruza matni .T-2001
4. L.I. Belyakova, YE.A. Dyakova —Logopediya Zaikaniye xrestomatiya - Eksmo-Press, 2001.



BOLALAR MIYYA FALAJIDA UCHRAYDIGAN NUTQ NUQSONLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH USHLUBLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852877>

Anarkulova Liliya Esanbayevna

*Angren shahar 34-son Tayanch-harakat a'zolari shiksatlangan bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan maktab internati.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada nuqsonli bolalarda nutq ko'nikmasi muammolarini bartaraf etish va shakillantirish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Logoped, miyya falaji, nutq ko'nikmasi, disgrafiya, ta'lim tizimi.

Yozuv jarayonining psixofiziologik qurilishi. Disgrafiya - bu yozuv jarayonining qisman uziga xos buzilishidir. Yozuv ızida nutq faoliyatining murakkab shaklini, ko'p darajali jarayonini aks ettiradi. Unda turli xil analizatorlar: nutqni eshitish, nutqni xarakterga keltirish, kirish, umumiy xarakterlantirish analizatorlari ishtirok etadi. Yozuv jarayonida ular orasida yaqindan bog'lanish va o'zaro aloqadorlik o'rnatiladi. Bu jarayonning tuzilishi yozuv malakalarini o'zlashtirish bosqichiga, yozuvning maqsadi va xususiyatiga bog'liqdir. Yozuv og'zaki nutq jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, xamda uning yuqori darajali rivojlanishi asosida amalga oshadi.

Yozuv jarayoni ko'p darajali kurilishga ega bo'lib, ko'p miqdorli operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bunday operatsiyalar katta kishilarda qisqa, yopiq xarakterda bo'ladi. Yozuv malakalari egallaganda bu operatsiyalar ochiq ko'rinishli bo'ladi.

A.R. Luriya "Yozuv psixofiziologiyasi xaqida ocherklar" nomli kitobida yozuvning quyidagi operatsiyalarni ajratib ko'rsatadi. Yozuv xissiyotlarining uyg'onishi, sabab va vazifalardan boshlanadi. Kishi o'zining fikrlarini qayd etish maksadida, axborotlarni ma'lum muddatgacha saqlash, ularni boshqa shaxsga yetkazib berish, kimnidir xarakterga undash va xokazolar uchun yozayotganini biladi. Inson yozma bayon mazmuni rejasini, fikr dasturini, fikrlarining izchilligini xayolan tuzadi. Bunda boshlang'ich fikr gapning ma'lum kurilmasiga bog'liq bo'ladi. Xat bitish jarayonida yozayotgan kishi jumlaning yozilishi tartibiga rioya qilishi, yozilgan va navbatdagi yoziladigan so'zlarga qarab mo'ljal olishi kerak. Yozilishi kerak bulgan xar bir gap so'zlarga bo'linadi, shunday ekan, yozuvdagi so'zlar orasidagi ma'lum bir chegaralanish bo'ladi.

So'zning tovush tuzilishini taxlil etish yozuv jarayonining eng murakkab operatsiyalaridan biri xisoblanadi. So'zni to'g'ri yozish uchun uning tovush tuzilishini, davomiyligini va xar bir tovushning o'rnini aniqlash lozim. Sızning tovush taxlili nutqni eshitish va xarakterga keltirish analizatorlarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. Tovushlarning xakteri va ularning so'zdagi izchilligini aniqlashda baland, past va ichki talaffuz katta o'rin tutadi. Talaffuzning yozuv jarayonidagi o'ri



xaqida ko'pgina tadqiqotchilar fikr bildirishgan. Masalan, L.K. Nazarova 1 sinf bolalari bilan quyidagicha tajriba o'tkazgan. Tajribaning birinchi bosqichida ularga yozish uchun tanish bo'lgan matn beriladi. Ikkinchi bosqichida ularga talaffuz etilmagan, mazmuni qiyin matn berildi: bolalar yozuv jarayonida kichkina tilchalarini tishlab olishdi yoki og'izlarini ochishdi. Bundayo paytlar ular oddiy xat yozishdagiga nisbatan ko'proq xatoga yo'l quyishdi.

Yozuv malakalarini egallashning dastlabki bosqichida talaffuz etishning roli katta bo'ladi. U tovush xarakterini aniqlashga, uni o'xshash tovushlardan farqlashga, tovushlarning so'zdagi izchilligini belgilashga yordam beradi. Disgrafiya yozuv jarayonining normada oshiruvchi amalga oliy psixik faoliyatining rivojlanmay qolishi (so'zilishi) bilan bog'liq bo'ladi. Yozuvning buzilishini belgilashda asosan quyidagi atamalardan foydalaniladi: disgrafiya, agrafiya, dizorfoografiya, evolyusion disgrafiya (bu so'nggi atama bolalardagi o'qish malakasini egallab olish jarayonining buzilganligi belgilash uchun qo'llanadi).

O'qish va yozishdagi buzilishlar bir-biriga o'xshash bo'ladi. Yozuvi buzilgan bolalarda ko'pgina oliy psixik funksiyalar: qobiliyatining tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, nutq tovushlarini ko'rish-eshitish orqali farqlash, fonematik xamda bo'g'inli analiz va sintez qilish, gapni so'zlarga ajratish, nutqning leksik-grammatik tuzilishi, xotira, diqqat-e'tibor suksessiv va simultan jarayonlarining, emotsional-irodaviy so'zaning shakllanganligi kuzatiladi. Logopedik adabiyotlarda disgrafiyaning psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganish yetarlicha ko'rsatilmagan. Bu jixat yozuvning buzilish mexanizmini yozma nutq operatsiyalari (A.A. Leonteva fikricha): bog'lanishli matnni ichki rejalashtirish, aloxida gapni ichki rajalashtirish, gapni grammatik jixatdan to'g'ri tuzish, fonemalarni tanlash operatsiyasi, so'zlarni fonematik jixatdan taxlil qilish va boshqalar (E.M. Gopichenko, Ye.F. Sobotovich)ning zaiflashuvi sifatida o'rganadi.

Disgrafiya tasnifi. Disgrafiyaning tavsiflash turli xil me'yorlar: analizatorlar, psixik faoliyatlarning buzilganligi, yozuv operatsiyasining shakllanmaganligi xisobga olish asosida amalga oshiriladi. O.A. Tokaryova disgrafiyaning 3 turini: akustik, optik, motor disgrafiyalarni ajratib ko'rsatadi. Akustik disgrafiya eshitish qobiliyatining tabaqalashmagani, tovushni analiz va sintez qilishning yetarli jarajada rivojlamagni kuzatiladi. Bunda tovush va artikulyatsion jixatdan o'xshash xarflar urnini almashtirish, aralashtirish va ba'zi bir xarflarni tushirib qoldirish, shuningdek tovushni noto'g'ri talaffuz eshitishning yozuvda qayd qilinish xollari kuzatiladi. Optik disgrafiya kurish orqali tasavvur eshitishning mutsawkam emasligi bilan bog'liqdir. Bunda kishi ma'lum xarflarni anglamaydi, bu xarflar talaffuzdagi tovushga mos kelmaydi. Harflar turli paytlarda xar xil qabul qilinadi. Ko'rish qobiliyatining notekisligi oqibatida ular yozuvida aralash-kuralash bo'ladi. Ko'pincha qo'yidagi xarflar qo'lyozmasining aralash kelishi kuzatiladi. p-n, p-i, s-i, sh-i, m-l, b-d, p-m, n-k Disgrafiyaning M.E. Xvatsev tomonidan turlarga ajratilgani xam uozirgi kunda yozuvning buzilgani xaqida to'liq tasavvur xosil qilmayapti.



Disgrafiyaning shunday tasnivlari ko'proq asoslangan xisoblanadiki, uning asosida yozuv jarayonidagi muayyan operatsiyalarining shakllanmagani yotadi. (Bu tasnivlar A.I. Gersennomidagi LDPI logopediya kafedrasining xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan). Unga asosan disgrafiyaning quyidagi turlari ajratiladi: artikulyator - akustik disgrafiya, fonematik idrok (fonemalarning tabaqalanishi), buzilishi asosidagi disgrafiya til taxlili va sintez buzilishi asosidagi disgrafiya shuningdek agrammatik, optik disgrafiyalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Yu. Ayupova. Logopediya. «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati». – T., 2007
2. D.A. Nurkeldiyeva, N. Muxamedxanova. To'g'ri yo'llanma – samara uchun kafolat // Bola va zamon jurnali, 2013, №3–4.Л.М.
- 3 Шипицина, «Необучаемый» ребенок в семье и обществе. Социализация детей с нарушением интеллекта. – 2-е изд., перераб. и дополн. – С-Пб.: Речь, 2005.



ABDULLA QODIRIY IJODIDA LEKSIK SEMANTIK MUNOSABATLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852899>

Djalilova Shoira

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani 52- IDUM Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qodiriy ijodida leksik semantik munosabatlarning ifodalanishi haqida munozaralar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik, leksikologiya, semantik tahlil, allegoriya.

Badiiy matnda ko'chimlar turli ko'rinishlarga ega bo'lib, ularni ko'pchilik adabiyotlarda "troplar" deb yuritiladi. "Ko'chimlar deyilganda, adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning, umuman, ko'chma ma'noda ishlatilishi"⁹² nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Tasviriy vositalarning deyarli barchasida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat tushuncha yotadi. Metafora, o'xshatish, sifatlash, metonimiya, sinekdoxa, mubolag'a, allegoriya, jonlantirish, prafraza kabi usullar ko'chimlarning turlaridir.

Metafora - narsa-buyum, voqea - hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. Mumtoz adabiyotshunoslikda metafora "istiora" deb yuritiladi. Metaforaning ikki turini farqlash lozim: 1. Lingvistik metafora, 2. Xususiy muallif metaforalari mavjuddir.⁹³

Lingvistik metaforalar til taraqqiyoti bilan bog'liq hodisa. Bunday metaforalar, asosan, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan subyektiv munosabat aks etmaydi. Faqatgina ma'lum bir so'zning ma'no doirasi kengayadi. Masalan: *odamning oyog'i - stolning oyog'i*.

Uslubiy metaforalarda bir sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa- tushuncha boshqa sezgi organi bilan idrok etiladigan narsa tushunchaga o'xshatiladi. Masalan: *shirin tabassum, shirin gap, yengil tabassum, yengil nigoh*.

Metonimiya - voqea - hodisa, narsa buyumlar o'rtasidagi o'zaro yaqinlik va bog'liqlik asosida ma'no ko'chishiga aytiladi. Masalan: *Saroy tinch uyquda tun yarim*. Bu misolda saroy so'zi orqali. "Saroydagi odamlar" ma'nosi ifodalangan.

Sinekdoxa - butun bo'lak munosabatiga asoslanuvchi ma'no ko'chishiga aytiladi. Adabiyotlarda "ko'plik o'rnida birlik yoxud birlik o'rnida ko'plik shakllarini qo'llash

⁹² Шомаксудов А., Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х. Узбек тили стилистикаси. -Тошкент: 1974, 236- бет.

⁹³ Кунгуров Р. Узбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан; 1977



yo'li bilan ham sinekdoxalar yaratilishi mumkin. Masalan, *qo'limni kesib oldim, daraxtlar sarg'aydi* birikmalarida butunning nomi bilan bo'lak; *tirnoqqa zor, jamoaning qo'li baland keldi* kabi birikmalarda qismning nomi butun bilan ifodalanayapti.

Kinoya deb, til birligini uning haqiqiy ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda, kesatq, qochirim, piching bilan ishlatishdan iborat ko'chimga aytiladi. Yevropa adabiyotshunosligida bu hodisa "ironiya" atamasi ostida umumlashtiriladi.

O'xshatish- badiiy tasvir vosifalaridan biri bo'lib, obyektning orazli, ta'sirchan, konkret va ixcham ifodalash xususiyatlari bilan ajralib turadi. Sana'tkor qahramonlarni tasvirlashda, ularning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochishda, ruhiy holatlarni aks ettirishda, tabiat manzaralarini tasvirlashda o'xshatishlardan foydalanadi. O'xshatish deb, bir predmet yoki hodisani ikkinchi bir predmet yoki hodisa bilan taqqoslanganda ularning shakli yoki mazmun tomondan obrazli o'xshashligiga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik - grammatik traktlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsurdan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni:

- 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt;
- 2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki obyekt;
- 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi;
- 4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi.⁹⁴

O'xshatishlarning hosil bo'lishi zamirida muallifning kommunikativ maqsadi, uning voqelik faktlariga bo'lgan munosabati, ularni lisoniy va nolisoniy omillarga tayangan holda baholashga intilishi yotadi. Tilimizda nutqning turli ko'rinishlarida, xususan, og'zaki so'zlashuvda va badiiy nutqda, qisman publististik matnlarda ham tez-tez uchraydigan *"muzday suv"*, *"qo'yday yuvosh"*, *toshday qattiq"*, *"paxtaday yumshoq"*, *"tulkiday ayyor"*, *"terakday uzun"* kabi bir qator o'xshatishlar nutqimizda ko'p qo'llanilganligi, tasvir obyektining ma'lum bir sifatiga izohlashi bilan cheklanib qolganligi uchun obrazlilik, ta'sirchanlik xususiyatini deyarli yo'qotgan. Ular bugungi kunda **an'anaviy o'xshatishlar** hisoblanadi. Badiiy matnlar esa kutilmagan, kitobxon ruhiyatiga kuchli ta'sir qiluvchi, obrazlilik hosil qiluvchi vositalar hisobiga poetik qimmat kasb etadi. Tilimizda "O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni:

- 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar;
- 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar⁹⁵ farqlanadi.

Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorlilik bilan

⁹⁴ Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, 53b

⁹⁵ Mahmudov N. O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son,19-24b



o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavidalantiradi"⁹⁶.

Biz bu bitiruv malakaviy ishimizda Abdulla Qodiriy asarlari misolidagi o'xshatish va sifatlashlarni ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida qo'llanilgan o'xshatishlar betakrorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi, unga zavq bag'ishlaydi. Bu esa yozuvchining tilimizni yashirin imkoniyatlari, o'xshatish hosil qiluvchi vositalarini yaxshi bilishidan dalolat beradi. Abdulla Qodiriy so'z san'atidan, tilimizdagi badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan. Romandan ko'chimlar va figuralarga istagancha misollar topish mumkin. Ayniqsa, o'xshatish va uning turlariga misollar rang-barangdir. Romandagi har bir personaj o'zga bir olam. Ularning nutqi va nutqining ravonligi ortiqcha so'z va gaplardan mutasnoligi tilimizning boyligini oshiradi. U, albatta, yangi so'z ayta oladi. Asarning badiiyligi juda kuchli berilgan. Til boyligini yuzaga chiqarishda uni ahamiyatligi va ta'sirchan bo'yoqlarga boyligi, o'xshatishga to'plangan misollardan ham ko'rinib turadi. Ish davomida leksik va grammatik tipdagi o'xshatishlarga ko'plab misollar to'plandi. Romanni o'qir ekanmiz, o'xshatishga ko'plab misollar uchratamiz. Albatta, original, ya'ni badiiylilik ufurib turgan yoki o'xshatish yaqqol namoyon bo'lgan misollar tahlilga olindi. Ular ikki guruhga ajratiladi:

1. Leksik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatish;
2. Grammatik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatish.

1. Leksik vositalar bilan hosil bo'lgan o'xshatishlar. O'xshatish hosil bo'lishida anchagina mustaqil va yordamchi so'zlar ishlatiladi:

a) kabi, singari, qadar ko'makchilari vositasida. Bunda predmetlar harakati holati bilan bog'liq bo'lgan bir-biriga yaqin belgilar qiyos qilinadi. Bu ko'makchi har doim o'xshatiladigan predmetni ko'rsatuvchi so'zlardan keyin keladi.

Bularni yozuvchi asarlari asosida ko'rib o'tamiz. Adibning "**O'tkan kunlar**" romani badiiy til mahoratining keng ko'lamli qirralarini aks ettirish namunasidir. Yozuvchi o'zining birinchi romanidayoq til xususiyatlari bilan badiiy asarga qo'yiladigan barcha talablarga javob bergan edi va roman tili sodda, bo'yoqdor, ifoda va tasvir kuchi jozibador edi:

*Musulmonqul o'z g'arazi yolida orada yo'q nizolarni qo'zg'ab, kuyavi Sheralixonni oldirdi, gunohsiz Murodxonni shahid etdi, **qo'y kabi** yuvvosh Toshkand hokimi Sarimsoqbekni o'ldirib, o'rniga Azizbekdek zolimni belguladi va o'zini mingboshi deb e'lon qilib, aqlsiz bir go'dakni (Xudoyorni) xon ko'tarib el yelkasiga mindi(10-bet.)*

Bu o'rinda Musulmonqulning o'z manfaati yo'lida hech qanday yo'ldan qaytmasligini, hatto qabih maqsadini amalga oshirish uchun odam o'ldirish darajasigacha borish holatlariga guvoh bo'lamiz. Bu keltirilgan qisqagina misol orqali Azizbekni shu holida ham zolimligini, Sarimsoqbekni esa "**qo'y kabi**" yuvvosh ekanligini anglash mushkul emas. Sarimsoqbek begunoh, balki beozor insonligini ushbu keltirilgan parcha orqali ham bilib olsa, bo'ladi. Yozuvchi o'z qahramonlarini

⁹⁶ Махмудов Н. Ухшатишлар - образли тафаккур махсули. Узбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.



shunday o'xshatishlar orqali tasvirlaganki, xuddi ularni ko'rib turgandek his qilasz. Bu misolda ham leksik, ham grammatik o'xshatishlar bor. O'xshatishni yuzaga chiqarishda yozuvchining *kabi* yordamchi so'zi va - *dek* grammatik vositasidan unumli foydalanganligi ko'zga tashlanadi.

Sarimsoqbek - o'xshatish subyekti; qo'y- o'xshatish etaloni; o'ldirmoq semasi - o'xshatish asosi; -kabi - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi. Azizbek - o'xshatish subyekti ham etaloni, - dek - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi, e'lon qilmoq- o'xshatish asosi. Boshqa qahramonlar ham o'ziga xos tarzda betakror o'xshatishlar vositasida berib o'tilgan.

Bir narsa boshqasiga aynan, butunligicha, o'xshatilganda, o'xshatish asosning qo'llanmasligi asosiy holatdir. Bunda aytish mumkinki, fotografik tasviriylik yuzga keladi, ya'ni o'xshatilgan narsa ko'z oldimizda gavdalanadi: *O'rtadan ko'b fursat o'tmadi, boyag'i uyqusirashyana takrorlandi:*

— «**Oy kabi**yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff»(13-bet)

Otabekning Kumushni ko'rgandan buyon o'zgarib qolish holatini muallif juda go'zal, mohirona berib o'tadi. Uning ichki kechinmalarini ochiq oydin emas, balki oddiy alahshirash orqali Hasanaliga, u vositasida esa kitobxon-o'quvchiga ko'rsata olgan. Bu bilan Kumushning naqadar go'zalligini, uning yuzini go'yoki oyga qiyos etilayotgan ekanligini bilib olish qiyin emas. Keyingi o'rinlarda esa Kumushbibining tavsifi kuchayib boradi:

*Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz bu kulgulikka tortilib, uning yuvoshqina iljayishidan **yoqutdek** lablari ostidagi **sadaf kabi** oq tishlari biroz ko'rinib qo'ydilar(35-bet).*

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, bu yerda ham leksik va grammatik vositalar birgalikda qo'llanilyapti. Kumushbibi - o'xshatish subyekti; yoqutdek va sadaf - o'xshatish etaloni; lablar hamda oq tishlar - o'xshatish asosi; kabi va - dek - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlaridir. Ushbu matnda biz ketma-ket kelgan o'xshatishlarni uchratdik. Bu yozuvchining mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu o'rinda kelgan ketma-ket o'xshatishlar badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

*Bu kungi kech Otabek bilan Homidning hayot va mamot masalalarini o'zining qora quchog'ig'a olg'an qorong'i bir tun edi va bulardan qaysi birlarining so'ng soatlariyetkanligi shu **qorong'i tun kabi** qorong'i edi(162-bet).*

Otabek bilan Homidning o'tasidagi kurashni yozuvchi o'xshatishlar orqali berib, ularning qay birisi omon qolish holatini, xuddi qorongi tunga qiyos etgan. Bu misolda yozuvchi *kabi* o'xshatishni yuzaga keltiruvchi leksik vositadan foydalangan va "qorong'i tun kabi" birikmasi sifat so'z turkumiga aylanib, o'xshatish hosil qilishda ishtirok etgan.

An'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatiladi, shu asosida yozuvchi tabiat tasvirini ham o'xshatishlar asosida berib o'tadi:



Chinor shoxlari tasbeh kabi chizilg'an boyqushlar bilan to'lg'an. Ular oy nuridan uncha xursand emaslar, chunki oy yer yuziga kulib qaray boshlasa, ular boshlarini kaftlari ichiga oladirlarda, dum-dumaloq bo'lib siqilib ketadirlar(146- bet).

An'anaviy o'xshatishlarni tasviriylik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Chinor shoxlariga kelib joylashgan boyqushlar go'yoki tasbehga o'xshatilmoqda. Bu esa yozuvchining o'xshatishlar borasidagi mohirona uslubidan dalolat berib turadi.

Adib ko'p hollarda harakatdagi yoki muayyan holatdagi o'xshatish etalonlarini tanlaydi. Bu harakat yoki holat ko'pincha sifatdosh yoki sifatdosh oboroti orqali ifodalanadi va bu sifatdosh yoki sifatdosh oboroti bevosita etalonni ifodalaydigan bo'lakka aniqlovchi bo'lib keladi:

Oy bulutlar osng'a kirsas, ular rohatlang'an kabi chig'-chig'-chig', ki-ki-ki qilib sayrab ham yuboradirlar. Bu vaqt shu boyqushlar sayrog'i ichidan ingranish kabi bir tovush ham eshitilgandekboladir(146-bet).

Oyning bulutlar orasiga kirish tarzini ko'rib turgan boyqushlarning keyingi holatini yozuvchi ularning sevinish, rohatlanishi deb tasvirlab, hatto bundan ularning xursandchilik ohanglarini ham aks ettiradi. Bu misolda o'xshatishning leksik va grammatik formalari ishtirok etgan va " rohatlangan kabi", eshitilgandek" birikmalarida ko'rinadi. Bu o'xshatishning ma'no-mazmuni shu qadar to'q va ta'sirchanki, Qodiriyning til sezgisidan, tilni qahramon ruhiyati va milliy tasavvur bilan uyg'unlashtira olishdan hayratga tushmaslik mumkin emas.

Xullas, o'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo'llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarining natijalari sifatida yuzaga kelgan bo'lsa, badiiy asarda so'z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi teran va badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi. O'xshatishlar badiiy tasvir vositalarida keng o'rinni egallaydi. Ular vositasida yozuvchi uslubi, mahorati, dunyoqarashi, tasvirlash darajasini bilib olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, 53b
2. Mahmudov N. O'xshatishlar - obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son,19-24b
3. Шомаксудов А.,Расулов И., Кунгуров Р., Рустамов Х. Узбек тили стилистикаси. -Тошкент: 1974, 236- бет.
4. Кунгуров Р. Узбек тилининг тасвирий воситалари. -Тошкент: Фан; 1977



POLISEMIYANING TURLI SATH BIRLIKLARIDA NAMOYON BO'LISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852908>

Nurmatova Gulnoza Arabjonovna

Farg'ona davlat universiteti lingvistika: ingliz tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

nurmatovagulnoza795@gmail.com

Qurbonova Sayyora Maxamadaliyevna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, PhD

Abstrakt: Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: polisemiya, ko'p ma'nolilik, omonimiya, frazeologik birlik, lug'aviy ma'no, leksik kontekst

So'zning ko'p ma'no anglatishi tilda mustaqil tizim bo'lib, bu hodisa umumiy tilshunoslikda polisemiya termini bilan nomlanadi. So'z dastlab bir ma'noni atash uchun qo'llanilib, davrlar o'tishi va turli lingvistik ta'sirlar vositasida bir necha ma'noni bildiradi. Polisemiya bir turkum doirasida leksik ma'nolardan tarkib topishi, ularning o'zaro bog'liq bo'lishi, ma'nolarning ayni so'zning o'ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan ajralib turadi.⁹⁷

Ko'p ma'nolilik til rivojida katta o'rin tutib, uning lug'at tarkibini boyishiga ulkan hissa qo'shadi.

Lug'aviy ma'noning taraqqiy etishi frazeologik birliklarga ham xos hodisa hisoblanadi. Ma'lumki, frazeologik birliklar har bir tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular boshqa til birliklari singari semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya va polisemiya kabi hodisalarga duch keladi.

Polisemiya nafaqat lug'aviy birliklarga, balki grammatik birliklarga ham xos hodisa bo'lib, shu jihatdan ikkiga bo'linadi:

I. Lug'aviy polisemiya — lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi ya'ni *dars* so'zi 1) "o'quv yurtlarida ilm, ma'lumot olish yoki berish maqsadida o'tkaziladigan mashg'ulot, saboq", 2) "tajribadan kelajak uchun chiqarilgan foydali natija, ibrat, saboq" kabi mazmunda ishlatilsa; ingliz tilidagi *wing* (*noun*) so'zi quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi:

- 1."qanot" . One of the bird's wings is broken - Qushning bir qanoti singan.
2. "tomon". Look in your wing mirror. - O'zing tomondagi ko'zguga qara.

II. Grammatik polisemiya — Grammatik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: - ga 1) o'zi qo'shilgan negiz harakat yo'naltirilgan predmet ekanini bildiradi: Ukamga

1. Миртожиев М. Узбек тилида полисемия. -Т.: ФАН, 1975. -Б. 47.



tikildim; - ga 2) o'zi qo'shilgan negiz harakatni bajarishda maqsad bo'lgan predmet ekanini bildiradi: Ukamga oldim kabi.

Lug'aviy polisemiya ham o'z navbatida ikki turga ajratiladi: leksik polisemiya so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasi hisoblansa, frazeologik polisemiya iboralardagi ko'p ma'nolilikni ifodalaydi: *gap qaytarmoq* -1) javob qilmoq; 2) e'tiroz javobini bermoq, aytishmoq kabi.

Frazeologik polisemiya ham xuddi leksik polisemiya bo'lganidek bosh ma'no va yasama ma'no farqlanadi. Ammo leksik polisemiya bosh ma'no to'g'ri ma'noga, hosila ma'no esa ko'chma ma'noga teng; frazeologik polisemiya bundan farqli ravishda, bosh ma'no ham ko'chma (obrazli) ma'no bo'ladi, chunki har qanday frazeologik ma'no ustama, ko'chma ma'no sifatida yuzaga keladi. ⁹⁸

Hozirgi o'zbek va ingliz frazeologik birliklarida lug'aviy ma'no asosan, metafora yo'li bilan ko'chirish natijasida taraqqiy etgan. Masalan, "ko'ngliga tegmoq" frazeologik birligi asli biror ovqat tez-tez iste'mol qilinishi tufayli "yoqmay qolmoq" ma'nosini anglatadi. Bu frazeologik birlik keyinchalik ovqatdan boshqa narsalarga, shuningdek, kishilarga qarata ham ishlatilgan, bunday ko'chirish natijasida bu frazeologik birlikda - tabiatiga to'g'ri kelmay qolib, "yoqtirmaslik hissi uyg'ondi" ma'nosi hosil bo'lgan:

1) Mastava ko'ngillaringizga tegib yurgandir.

2) Ammo har kuni bir xil narsani takrorlayverish uning ko'ngliga tegdi

Polisemantik frazeologik birliklar o'zbek tilida ham anchagina bo'lib, ingliz tilida nisbatan kamroq uchraydi. Polisemantik frazeologik birliklarning aksariyati ikki va uch ma'nolidir. Masalan, *quloq solmoq* - 1) tinglamoq; 2) aytganini qilmoq ma'nolarini ifodalasa, *ko'z olaytirmoq* frazeologik birligi - 1) o'qraymoq; 2) o'z manfaatiga bo'ysundirish niyatida bo'lmoq kabi ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, *qo'lga tushmoq* frazeologik birligi uch ma'noni bildirib keladi: 1) tutqun bo'lmoq; 2) biror nojo'ya ish bilan tutilmoq; 3) aldanib, o'z ixtiyorini berib qo'ymoq; *boy bermoq* birligi ham uchta ma'noga ega - 1) yutqizmoq, 2) behuda, befoyda o'tkazmoq; 3) ("sir"ni) oshkor qilmoq, sezdirib qo'ymoq.

Qo'lga olmoq frazeologik birligi esa quyidagi to'rt ma'noni anglatadi: 1) o'z ixtiyoriga o'tkazmoq, 2) qo'qqisdan hujum qilib bosib olmoq; 3) hibs qilmoq, qamash maqsadida tutmoq; 4) biror yo'l bilan o'z xohishiga bo'ysunadigan qilmoq.

Ingliz tili frazeologiyasida ko'p ma'nolilik munosabati keng yoritilmagan bo'lib, A.B Kunin frazeologik lug'atida ham faqatgina 3% ko'p ma'noli frazeologik birliklar ko'rsatib berilgan [8;38].

Ko'p ma'noli iboralarda uning ma'nolari asosan biri ikkinchisidan o'sib chiqqan bo'ladi. Masalan, "the leading man" iborasini tahlil qilsak, bu uch ma'noli frazeologik birlik bo'lib, ma'nolar orasidagi bog'lanish bevosita ko'zga tashlanadi:

1) ajralib turadigan, mashhur inson;

2) atoqli davlat arbobi;

3) teatrdagi bosh rol ijrochisi.

⁹⁸ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., O'QITUVCHI. 1978. -B. 5



Har uchala ma'no uchun umumiy jihat "muhim, taniqli shaxs" semasi hisoblanadi. Frazeologik birliklar nechta ma'nodan tarkib topgan bo'lmasin, ulardagi semantik umumiylik albatta ko'zga tashlanadi.

Frazeologik ma'nolar ham, xuddi leksik ma'nolarda bo'lganidek, o'ziga xos kontekstda namoyon bo'ladi. Polisemantik frazeologik birlikning ma'nolari o'zaro, lug'aviy ma'nosidan tashqari, leksik kontekstida, grammatik tabiatida farqlanib turishi mumkin. Masalan, *boy bermoq* frazeologik birligi lug'aviy uch ma'noni anglatadi:

- 1) "yutqizmoq",
- 2) "yo'qotmoq", "behuda, befoyda o'tkazmoq",
- 3) "oshkor qilmoq".

Har uch ma'no turlicha leksik kontekstda namoyon bo'ladi: birinchisida qimorni, garovni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida vaqtni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa sirni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi.

Ingliz tilida ham xuddi shunday frazeologik birliklarning ma'nolari kontekstda namoyon bo'ladi. Masalan, *gain ground* frazeologik birligi uch lug'aviy ma'noni anglatadi:

- 1) "qurshab olmoq, yoki ega bo'lmoq",
- 2) "rivojlanmoq",
- 3) "yoyilmoq".

Uchala ma'no leksik kontekstda anglashiladi: birinchisida siyosatni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida shaxsiy munosabatlarni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa hissiyotni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi. Shu bilan birga ingliz tilida kontekstning ahamiyatga ega ekanligi frazeologik birlik bilan erkin bog'lanma orasida namoyon bo'ladi. Masalan, "*to let the cat out of the bag*" frazeologik birligi "sirni oshkor qilmoq" lug'aviy ma'noga ega, ammo bu frazeologik birlik erkin bog'lanma sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bu esa frazeologik birlikdan tashqaridagi kontekstda o'z isbotini topadi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklar hamda ular o'rtasidagi polisemiya hodisasining o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Lekin ikkala tilda ham umumiylik bitta, ya'ni frazeologik polisemiya - frazeologik birliklarning bir necha leksik ma'nolarga ega bo'lishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Миртожиев М. Узбек тилида полисемия. -Т.: ФАН, 1975. -Б. 47.
2. Hamdamov L. Ingliz va o'zbek tillari frazeologik birliklarida polisemiya// "Science and Education" Scientific Journal. -2020
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik -Т.: "Talqin", 2005.
4. Mukaramxodjayeva T. Ingliz tilida so'zlashuv frazeologiyasi. Dissertatsiya. Samarkand. - 2014



5. Nazarova S. "Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarda polisemiya". Bitiruv malakaviy ishi. Buxoro. -2012
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1978.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T., 1978
8. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – B., 1999.
9. Кунин А.В. Основные понятия фразеологии как лингвистической дисциплины и создание англо-русского фразеологического словаря: автореф. дис. д-ра филол. наук – М., 1964. –38 с.
10. Кунин А.В. Внутренняя форма фразеологических единиц // Слово в грамматике и словаре, – М., 1984.
11. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – М.: Издательство «Высшая школа», 1970.
12. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3 (10), 126–128.
13. Mukhammad, K. K., & ogli Melikuziev, A. L. (2022, December). THE ESSENCE OF NONVERBAL COMMUNICATION. In *INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 19, pp. 91-93)*.
14. ogli Melikuziev, A. L. (2022). HISTORICAL AND MODERN CLASSIFICATION OF PARALINGUISTICS. *Academia Globe: Inderscience Research*, 3(10), 126-128.



**АЧЧИҚ ШУВОҚ ЎСИМЛИГИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ҲАМДА ТИББИЁТДА
ШИФОБАХШ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА ОЛИБ БОРИЛГАН
ИЛМИЙ ИЗЛАНИШЛАРГА ҚИСҚА ШАРҲ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852910>

Атамурадов Шамсиддин Илашевич

тиббиёт фанлари номзоди, доцент

Махсумов Музаффар Джахангирович

тиббиёт фанлари номзоди, доцент

Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучлари Ҳарбий тиббиёт академияси

Аннотация: Мақолада жаҳоннинг барча минтақаларида учрайдиган ва хомашё сифатида тўплаш муаммо бўлмаган, хозирга кунда тиббиётида кенг қўлланиб келаётган доривор ўсимлик Аччиқшувоқ (эрмон) *Artemisia L.*нинг кимёвий таркиби, ундан ажратиб олинган биологик фаол моддалар асосида тайёрланган дори препаратлари ҳамда бу ўсимликнинг халқ табobatiда қўлланилишини ўрганиш бўйича олиб борилган илмий изланишлар натижалари бўйича эълон қилинган маълумотларни таҳлил қилиш асосида шарҳ ва хулосалар келтирилган.

Калит сўзлар: аччиқ гликозидлар, органик кислоталар, ошқозон-ичак тракти, абсинтин, яллиғланишга қарши, антиаллергик, антиспазмодик, аналгетик, термал химоя, антидиабетик таъсир, антифунгал ва антиоксидант фаоллик.

**КРАТКИЙ ОБЗОР НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, ПОСВЯЩЕННЫХ
ХИМИЧЕСКОМУ СОСТАВУ, ЦЕЛЕБНЫМ СВОЙСТВАМ РАСТЕНИЯ ГОРЬКОЙ
ПОЛЫНИ В МЕДИЦИНЕ**

Атамурадов Ш.И.

кандидат медицинских наук, доцент

Махсумов М.Д.

кандидат медицинских наук, доцент

Военно медицинская академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан

Аннотация: В статье представлен краткий обзор опубликованных данных результатов научных исследований, проведенных по изучению химического состава растения горькая полынь - *Артемизия L.*, которое встречается во всех регионах мира и которое без труда можно собирать в качестве сырья. Представлен анализ использованию в народной медицине, а также препаратов,



приготовленных на основе выделенных из него биологически активных веществ. На основе анализа сделаны комментарии и выводы.

Ключевые слова: горький, гликозиды, органические кислоты, желудочно-кишечный тракт, абсент, противовоспалительное, противоаллергическое, спазмолитическое, обезболивающее, тепловая защита, противодиабетическое действие, противогрибковая и антиоксидантная активность.

A BRIEF REVIEW OF SCIENTIFIC RESEARCH ON THE COMPOSITION, PHARMACOLOGICAL PROPERTIES AND SIGNIFICANCE OF THE BITTER WORMWOOD PLANT IN MEDICINE.

Atamuradov Sh. I.

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

Annotation: The article presents a brief overview of the published data of the results of scientific research conducted to study the chemical composition of the plant bitter wormwood - *Artemisia L.*, which is found in all regions of the world and which can be easily collected as a raw material. The analysis of the use in folk medicine, as well as preparations prepared on the basis of biologically active substances isolated from it, is presented. Based on the analysis, comments and conclusions are made.

Keywords: bitter, glycosides, organic acids, gastrointestinal tract, absinthe, anti-inflammatory, anti-allergic, antispasmodic, analgesic, thermal protection, antidiabetic effect, antifungal and antioxidant activity

Ўсимлик номи - Аччиқ шuvoқ (эрмон) *Artemisia absinthium L.* Оиласи-Астрадошлар - Астерасеае. Аччиқ шuvoқ кўп йиллик, бўйи 100 сантиметргача етадиган ўт ўсимлигидир. Илдизпоеси калта ва шохланган, ундан бир нечта поялар ўсиб чиқади. Пояси тик ўсувчи, бир қиррали бўлиб, юқори қисми шохланган. Илдиз олди барглари узун баргли, учбурчак юмалоқ кўринишда, 2-3 марта патсимон ажралган. Поядаги барглари қисқа бандли кетма-кет ўрнашган, поянинг юқори қисмидаги барглари уч бўлакли. Сарик рангли, найчасимон гуллари майда саватчада рўваксимон тўпгулни ташкил этади. Меваси - ўткир учли, чўзинчоқ, қўнғир рангли писта. Июл-август ойларида гуллайди.

Аҳоли яшайдиган жойларда йўл ёқаларида, ўтлоқларда, ўрмон четларида, сув бўйларида ва экинзорларда бегона ўт сифатида ўсади. Айниқса, Россиянинг Европа қисмида (шимолий туманлардан ташқари), Молдава, Украина, Беларусь республикаларида, Кавказ, Ғарбий Сибирь, Қозғистон ва Марказий Осиё худудларида, шу жумладан, Ўзбекистонда ҳам кўплаб учрайди [1].

Кимёвий таркибини ўрганишга бағишланган тадқиқотлар. Аччиқ шuvoқ ўсимлигининг кимёвий таркибини ўрганиш шуни кўрсатдики, аччиқ шuvoқнинг ўсимлик хомашёси сесквитерпеноидлар хосилаларини (абсинтин, анабсинтин,



артамарин, артамаридин, артамиридинин, артабсин, артабин, матрицин, анабсин, абсинтолид, изоабсинтин, А,В,С,Д артабсинтолидлар) ўзида сақлайди [2]. Бу моддаларнинг сифат ва сон кўрсаткичлари ўсимликнинг қайси органида жойлашганлигига ва вегетация фазасига қараб ўзгарувчан бўлади [3]. Эфир мойлари (0,12-0,8%) [4,5], таркибида кадинен, туйон, хамазулен, S-гвайазулен, кетопеленолид а, кетопеленолид б, гидроксикетопеленолид а, б-кариофиллен, у-селинен, бизаболларни сақловчи [6,7,8], 2-метил-6-метиленил-10-птолилундецен-2, 2-метил-6-метелинил-10п-толилундекан, мирцен, а-пинен, туйил спирти, нерол, туйилацетат каби моддаларни сақлайди [4,7]. Аччиқ шuvoқ ўсимлигида эфир мойининг максимал концентрацияси гуллаш даврига тўғри келса, баргларида гуллагунга қадар энг юқори миқдорда бўлади [9]. Шунингдек, аччиқ шuvoқда полисахаридлар, сапонинлар, флавоноидлар (артемитин, кверцетин, кемпферол, изорамнетин, апигенин) [9,10,11], фитонцидлар, аскорбин кислотаси [12], мумсимон моддалар, калий тузи, артемизетин, каротин, органик кислоталар (кахраболи) борлиги аниқланган. Лигнанлар: сезамин, эпиэудесмин, фаргезин, янгамбин, эпиянгамбин, диаангамбин, асхантин, эпиасхантин; юқори ёғ кислоталари: лаурин, миристин, пальмитин, стеарин, олеин, линол; фенолкарбон кислоталар: 3,4,5-триметоксибензойлар мавжудлиги аниқланган. Ўсимликнинг илдизлари углеводларга бой, жумладан, инсулин моддасига. Кумаринлар: скополетин, умбеллиферон [13] моддалари бу ўсимлик таркибида мавжудлиги аниқланган.

Антибактериал ва антифунгал хусусиятларини ўрганиш.

Айрим тадқиқотчилар томонидан Stechm Weber ex Artemisia gmelinii антибактериал ва антифунгал хусусиятига баҳо берилган. Artemisia gmelinii Weber ex Stechm таркибидаги биологик фаол компонентларнинг антимиқроб фаолиятини ўрганиш учун, субкритик шароитларда карбонат ангидрид иштирокида олиш усули 70% этил спирт ёрдамида перколяция қилиш ва хлороформ эритмасида экстрактлар айланмаси усуллари ишлатилган. Ўсимликнинг антибактериал ва антифунгал фаоллигини ўрганиш антимиқроб фаолликни текшириш бўйича Европа комитети талаблари ҳамда клиник ва лаборатор текширувлар стандартлари Институти бошқарув тамойиллари бўйича микро-суюлтириш усули ёрдамида амалга оширилган [15,16].

Stechm Weber ex Artemisia gmelinii нинг антибактериал ва антифунгал фаолиятини ўрганишда типга оид культураларнинг Америка коллекциясидан олинган референс штаммлар: - грамм-мусбат бактериялар (Staphylococcus aureus ATCC 25923, Staphylococcus aureus ATCC 43300, Staphylococcus aureus ATCC 6538, Staphylococcus epidermidis ATCC 12228, Bacillus subtilis ATCC 6633, Bacillus cereus ATCC 10876, Micrococcus luteus ATCC 10240, Streptococcus pyogenes ATCC19615, Streptococcus pneumonia ATCC49619, Streptococcus mutans ATCC25175);91 - грамм-манфий бактериялар (Escherichia coli ATCC 25922, Proteus mirabilis ATCC 12453, Klebsiella pneumoniae ATCC 13883, Pseudomonas aeruginosa



ATCC 9027); - ачитқисимон замбуруғлар (*Candida albicans* ATCC 2091, *Candida albicans* ATCC 10231, *Candida parapsilosis* ATCC 22019) лар ишлатилган.

Микроорганизмлар инкубация қилингандан сўнг, спектрофотометрик йўл билан тест-штаммнинг ўсишини ингибирловчи бирикманинг энг паст концентрацияси аниқланган. Назорат текшируви сифатида тест синовидан ўтказилмаган моддалари бўлган мухит олинган. Энг кам бактерицид концентрация (МБК) ёки энг кам фунгицид концентрация (МФК) айрим турдаги бактерия ёки замбуруғларнинг нобуд бўлиши учун зарур бўлган бирикмаларнинг энг паст концентрацияси деб белгиланган. МБК қиймати МФК қийматидан кўпи билан тўрт марта юқори бўлса, антимикроб восита бактерицид восита ҳисобланган [14].

Artemisia gmelinii эфир мойи бактериостатик ва бактерицид таъсирга эга. Эфир мойининг антимикроб фаоллиги кокклар флорасига таёкчасимон бактерияларга караганда сезгиррок бўлган кислородли бирикмалар мавжудлиги тахмин килинади. Тажрибада *Artemisia gmelinii* эфир мойи 160 марта суюлтирилади, 24 соатда олтин рангли *Staphylococcus aureus* ва ичак таёкчасига зарарли таъсир кўрсатган. *Artemisia gmelinii* ўтининг настойкаси холеретик таъсирга эга, қон ивишини тезлаштиради. *Artemisia gmelinii* нинг сувли ва спиртли экстрактлари, шунингдек, эфир мойи антгелминтик, фунгицид ва антибактериал хусусиятларга эга. *Artemisia gmelinii* ўсимликларидан олинган этанол, петролеинли, метанол экстрактлари бўйича олиб борилган тадқиқотлар гепатопротектив, антидиабетик, антиоксидант, цитотоксик таъсирга эга бўлиши мумкинлигини кўрсатган [18].

Антиоксидант фаоллигини ўрганиш. Айрим муаллифларнинг келтиришича, экстрактларнинг турли хил параметрларига боғлиқ равишда ўсимликнинг *A. dracunculus*, *A. campestris* и *A. Vulgaris* турларидан олинган EC50 экстрактининг фаоллиги 15 мкг/мл дан 30 мкг/мл гачани ташкил қилган. *Artemisia gmelinii* Weber ex Stechm хомашёсидан олинган экстрактларнинг антиоксиданлик фаоллигини ўрганиш *A. Spicigera*дан олинган метанолли экстракти фаоллигига яқинлигини (EC50 45,8 мкг/мл га тенг) кўрсатган [17]. Юқори антиоксидантлик фаоллик AAI>2,0 хисобланган ҳолатда *Artemisia gmelinii* Weber ex Stechm экстрактининг антиоксидантлик фаоллиги нисбатан сустлиги (AAI 0,5 дан 1,0 гача) исботланган. Ушбу муаллифлар томонидан ўсимликдан олинган экстрактларнинг барчаси антимикроб ва антифунгал таъсирга эга эканлиги аниқланган. Лекин, булар орасида 70%ли этанолни экстрагент сифатида перколяция усулида олинган қурук экстракт кучли антимикроб ва антифунгал таъсирга эга эканлиги исботланган.

Хулоса: Аччиқ шувоқ ўсимлигининг таркиби, фармакологик хусусиятлари ва тиббиётдаги ахамиятини ўрганиш бўйича олиб борилган илмий изланишлар натижасида эълон қилинган маълумотларни ўрганиш шуни кўрсатдики, бу ўсимлик доривор сифатида кенг ўрганилган. Ундан олинган биологик фаол



моддалар асосида бир қанча препаратлар ишлаб чиқилган. Ўсимликнинг турли хиллари дунёнинг барча халқлари, айниқса Сибирь ва Осиё мамлакатлари халқлари томонидан таъбиотда кенг қўлланилади. Ўсимликнинг кимёвий таркиби кўплаб биологик фаол моддалардан иборат эканлиги келажакда бу ўсимликдан олинган моддалар асосида янги дори препаратларини яратиш имкони кўплигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. О.Аҳмедов, А.Ергашев, А.Абзалов, М.Йўлчиева, Д.Мустафакулов "Доривор ўсимликлар етиштириш технологияси ва экология" Тошкент-2018

2. А.П. Северин "Изучение химического состава и фармакологической активности комплексов биологически активных веществ, выделенных из шротополыни горькой" . Фармацевтическая химия, фармакогнозия 14.04.02 шифр ВАК

3. Рыбалко, К.С. Природные сесквитерпеновые лактоны / К.С. Рыбалко. - М, 2001. - С. 30- 52.

4. Войткевич, С.А. Особенности структуры некоторых душистых веществ, способных оказывать физиологическое воздействие на человека / С.А. Войткевич // Косметика и медицина. - 2000. - № 2. - С. 39-47.

5. Калинкина, Г.И. Перспективы использования в медицинской практике эфирно-масличных растений флоры Сибири / Г.И. Калинкина, Т.П. Березовская, С.Е. Дмитрук // Химия раст. сырья. - 2000. - № 3. - С. 512.

6. Fabien Juteau et al. Composition and Antimicrobial activity of essential oil of Artemisia absinthium from Croatia and France / Fabien Juteau, Igor Jerkovic, Veronique Masotti, Mladen 233. Milos, Josp Mastelic, Jean Marie Bessiere, Josette Viano // Planta Medica. - 2003. - Vol. 69, No. 2. - P. 158.

7. Seo J-M et al. Antitumor Activity of Flavones Isolated from Artemisia argyi I J-M Seo, Hyun-Mi Kang, Kwang-Hee Son, Jong Han Kim, ChangWoo Lee, Hwan Mook Kim, Soo-Ik Chang, Byoung-Mog Kwon // Planta Medica. - 2003. - Vol. 69, No. 3. - P. 218-222.

8. Ханина М.А, Серых Е.А, Покровский, Л.М. Ткачев А.В. Новые данные по химическому составу эфирного масла Artemisia absinthium L. Сибирской флоры // Химия растительного сырья. 2000. - №3. - С.33-40.

9. Чаузова, А.В. Разработка методики количественного определения суммы флавоноидов в гомеопатической матричной настойке из свежесобранного сырья полыни горькой / А.В. Чаузова, Ж.А. Союнова, Т.Л. Киселева / Сб. науч. тр. IV Рос. гомеопатического съезда (24 окт. 2009 г.; г. Москва). - М.: Изд-во ФНКЭЦ ТМДЛ Росздрава, 2009. - С. 94-97.

10. Шалдаева, Т.М. К вопросу о возможности использования сведений по флавоноидам в систематике полыней (род Artemisia L.) / Т.М. Шалдаева //



Проблемы ботаники Южной Сибири и Монголии: тез. док. 1-ой межд. науч.-практ. конфер. - Барнаул, 2002. - С. 44-46.

11. Шалдаева, Т.М. Флавоноиды видов рода *Artemisia* L. и их возможное хемотаксономическое значения / Т.М. Шалдаева // Ботанические исследования в Азиатской России : материалы 2-го съездарус.ботан. о-ва. - Барнаул. 2003. - Т. 2. - С. 291-292.

12. Сальникова, Е.Н. Химическое исследование флавоноидов полыни горькой (*Artemisia absinthium* L.), полыни Сиверса (*A. sieversiana* Willd.) и полыни якутской (*A. jacutica* Droe.) / Е.Н. Сальникова, Г.И. Калинкина, С.Е. Дмитрук // Химияраст. сырья. - 2001. - №3. - С. 7178

13. Киселева, Т. И. Разработка методики проведения ТСХ для обнаружения флавоноидов и кумаринов в матричных настойках из сырья различных видов полыни / Т.Л. Киселева, Е.В. Цветаева, Л.А. Устынюк // Традиционная медицина. - 2007. - №3(10). - С. 34-39.

14. Маматова А.С. «Фармакогностическое, фармакотехнологическое изучение полыни *artemisia gmelinii* и создание на ее основе фитосубстанций» 2013.

15. Desiree C.K. Antibacterial and Antifungal Activity of the Essential Oil Extracted by Hydro – Distillation from *Artemisia annua* Grown in West – Cameroon. F.K.Renem, K.Jonas // Br. J. Pharmacol. Toxicol. – 2013. – №4(3). – P. 89 – 94.

16. Priscila I.U. Antibacterial activity of medicinal plant extracts. / T.N. Mariama, C.D.Luiz // Braz J Microbiol. – 2007. – №38. – P. 717 – 719.

17. Afshar F.H., Evaluation of antimalarial, free – radical – scavenging and insecticidal activities of *Artemisia scoparia* and *A. spicigera*, Asteraceae. A. Delazar, O. Janneh // J Pharmacog. – 2011. – №21(6). –P. 986–990.

18. Чимитцыренова Л.И. “Фармакогностическое исследование *artemisia gmelinii* web. exstechm и разработка лекарственных средств на ее основе”.



**BO'RTMA NEMATODALAR KELITIRIB CHIQRADIGAN KASALLIKLAR
(FILOMETROIDOZ, RAFIDOSKARIDOZ, DIOKTOFIMOZ) NING KELIB CHIQISH
SABABLARI VA OLDINI OLISH UCHUN YECHIM**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852915>

Xudoyberdiyeva Xusnora Numonjon qizi

*Abdulla Qodiriy Nomidagi Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Biologiya
Yo'nalishi 1-Kurs Talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada fitogelmintlar qatoriga kiradigan bo'rtma nematodalarning ayrim vakillari tomonidan keltirib chiqariladigan kasalliklar va ularning oldini olish yo'llari haqida ma'lumot keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *fitometroidoz, rafidoskaridoz, dioktofimoz, lichinka, oraliq xo'jayin.*

Dioktofimoz. Kasallikni qo'zg'atuvchi chuvalchang nematodalarga mansub bo'lib, ilmiy nomi *Dioctophyme renale*, urg'ochisining uzunligi 20-100 sm, erkak jinslilari 14-40 sm ga teng bo'ladi[2]. Bu parazit nematodalar go'shtxo'r va mo'ynali hayvonlarning buyragida, siydik pufagida va qorin bo'shlig'ida yashashga moslashgan. Rivojlanishini xo'jayin almashtirish bilan amalga oshiradi. Asosiy xo'jayinlarini axlati va siydigi bilan tashqi muhitga, ya'ni suvga tushgan tuxumlarni suv oligoxetalari yeydi. Oligoxetalar ichidagi tuxumdan lichinka chiqadi. Zararlangan oligoxetani baliqlar yeydi. Baliq ichagida oligoxeta hazm bo'ladi, invazion lichinka baliq muskulariga, ichak devoriga, jigariga, jinsiy bezlarga borib, kapsulaga o'raladi. Kapsulaga o'ralgan parazitlarni baliq bilan iste'mol qilgan asosiy xo'jayinlari (it, bo'ri, chiyabo'ri, ayiq, ba'zan odamning buyraklari)ga borib to'xtaydi va 9 oydan keyin voyaga yetadi. Buyrakda u 3-5 yilgacha yashaydi[1]. Bu parazit nematodani yuqtirib olmaslik uchun baliq maxsulotlarini, go'shtini, go'shtxo'r hayvonlarga yedirmaslik lozim bo'ladi.

Rafidoskaridoz. Kasallikni qo'zg'atuvchi chuvalchang *Raphidascaris acus* nematodalar vakilidir. Jinsiy voyaga yetgan nematodaning urg'ochisi 40-45 mm, erkak jinsi 18-20 mm ga teng. Rivojlanishi asosiy va 2 ta oraliq xo'jayinlarida o'tadi[2]. Voyaga yetgan jinslari cho'rtan baliq va bir qator yirtqich baliqlar, ularning ichidagi oraliq xo'jayinlari suv umurtqasiz hayvonlaridan hasharotlarning lichinkalari, oligoxetalar va mollyuskalar bo'lsa, ikkinchi oraliq xo'jayinlari karpsimon va olabug'asimon baliqlar bo'lib, parazit lichinkalar ularning jigarida, gavda bo'shlig'ida va jinsiy bezlarida joylashgan bo'ladi. Kasallik Rossiyaning bir qator viloyatlarida va O'rta Osiyo Respublikalari suv havzalarida tarqalgan. Kasallangan baliqlar nisbatan ozg'in va tashqi ta'sirlarga javob qaytarmaydigan, tanasi shilliq moddasi bilan qoplangan bo'ladi. Bunday baliqlarni ichi ochib ko'rilganda kapsulaga o'ralgan lichinkalar ichak, jigar, jinsiy bezlar va qatqorinda topish mumkin. Kasallik kelib



chiqmasligi uchun *Raphidascaris acus* bilan zararlangan baliqlarni iste'mol qilmaslik zarur.

Filometroidoz. Kasallikni qo'zg'atuvchi nematoda *Philometroides lusiana*. Uning uzunligi 16 sm gacha bo'lib, tanasi qizg'ish yoki qizil rangda. Erkak jinsli nematodaning uzunligi 5 mm gacha yetadi. Rivojlanish bosqichlari 2 ta xo'jayinda o'tadi. Oraliq xo'jayini siklop, asosiy xo'jayini karpsimon baliqlar. Jinsiy voyaga yetgan urg'ochi nematodalar baliqning muskul to'qimasida, teri tangachalari orasidagi cho'ntakchalarda joylashib, bahorda suv harorati 16-180°C ga ko'tarilgati, tirik lichinkalarni tug'a boshlaydi va ular suvga chiqadi. Lichinkalarning uzunligi 0.3-0.5 mm ga teng. Lichinkalar suvda 8-10 kun davomida hayotchanligini saqlaydi. Ushbu lichinkalarni sikloplar yutganda ularning tanasida 6-7 kunda ikki marta po'st tashlab, invazion lichinkaga aylanadi. Sikloplarni iste'mol qilgan karp baliq'iga lichinkani ham yutadi. Baliq ichagi devori orqali gavda bo'shlig'iga o'tib, suzgich pufagi yonida to'planadi. Shu joyda ular yana bir marta tullab, voyaga yetgan yosh individlarga aylanadi. Erkaklari urg'ochilarining urug'lantirgandan so'ng suzgich pufagi devoriga kirib oladi va bir necha yil yashaydi. Urg'ochilari esa bir yil yashaydi[2]. Filometroidoz asosan karp, sazan baliqlarida va ularning duragaylarida parazitlik qiladi. Yosh baliqlar (sigoletkalar) ning qariyb 40-75 % i halok bo'ladi. Parazitni yuqtirmaslik uchun zararlangan va talabga javob bermaydigan baliq mahsulotlarini iste'mol qilmaslik kerak. Parazit nematoda tufayli ichki organlarda filometroidozga moyillik ortadi va kasallik rivojlana boshlaydi.

Xulosa qilib aytganda, talabga javob bermaydigan, sanitariyaga rioya qilmaydigan, zararli suvda yetishtiriladigan baliqlarni iste'mol qilishda ehtiyot bo'lish o'z sog'ligimiz uchun foydali bo'ladi. Parazit nematodalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni avj olmasidan oldin aniqlab, kasallikni bartaraf etish o'rinli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Дадаев С.Д. Паразитология. -Тошкент. 2006. -207 б
2. Xurramov, SH.X., Xurramov, A.SH. Fitogelmintologiya. O'quv qo'llanma. Termiz 2008.



ALGEBRAVIK TENGLAMALARNI ECHISHDA GIPERGEOMETRIK QATORLARNI QO'LLANILISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852918>

Turdaliyeva Maftunaxon Saydolim qizi

FarDU magistranti.

Kompleks tekislikda quyidagi chiziqli n -tartibli oddiy differensial tenglamani ko'rib chiqamiz:

$$a_0(z)\omega^{(n)} + a_1(z)\omega^{(n-1)} + \dots + a_{n-1}(z)\omega' + a_n(z)\omega = 0 \quad (1)$$

bu yerda $a_j(z)$ ochiq $U \subset C$ to'plamda golomorf funksiyalar. Quyidagi teorema o'rinli:

Teorema 1. $z_0 \in U$ uchun shunday nuqta bo'lsinki, unda $a_0(z_0) \neq 0$ bo'lsin. U holda, shunday $\delta > 0$ son mavjudki, $\{|z - z_0| < \delta\}$ aylanada (1) tenglamaning golomorf yechimlari vektor fazosi o'lchami n ga teng bo'ladi.

Ta'rif. $a_0(z_0) = 0$ bo'lsa, u holda $z_0 \in U$ nuqta (1) ning maxsus nuqtasi deyiladi.

Umuman olganda, maxsus nuqta atrofida (1) yechimlari turlicha bo'lishi mumkin. Misol uchun, $z^2\omega' + \omega = 0$ tenglama nol nuqta yaqinida yechimga ega, $\omega = \exp(1/z)$ funksiya esa, koordinata boshida muhim maxsuslikka ega. Biroq maxsus nuqtalarning o'ziga xos turi mavjud. Ular quyidagi teorema bilan tavsiflanadi, ularning isbotini [12, 4-bob] yoki [26] da topish mumkin.

Teorema 2. z_0 nuqta (1) ning maxsus nuqtasi bo'lsin. U holda quyidagilar ekvivalent bo'ladi:

1) $b_k(z) = \frac{a_k(z)}{a_0(z)}$ funksiyalar z_0 da k tartib qutbga ega.

2) (1) tenglamaning yechimlari bo'lgan $\{0 < |z - z_0| < \delta\}$ yetarlicha kichik o'yilgan aylanada ko'p qiymatli golomorf funksiyalarning vektor fazosi n o'lchamga ega va quyidagi ko'rinishdagi funksiyalar orqali hosil bo'ladi.

$$(z - z_0)^\lambda (\ln(z - z_0))^j f(z),$$

bu yerda $\lambda \in C$, $j \in Z$, $0 \leq j \leq n-1$ va $f(z)$ $\{|z - z_0| < \delta\}$ doirada golomorf va $f(z_0) \neq 0$.

Agar bu shartlar bajarilsa, z_0 nuqta (1) tenglamaning regulyar maxsus nuqtasi deb ataladi. Masalan quyidagi

$$z^n \omega^{(n)} + b_1 z^{n-1} \omega^{(n-1)} + \dots + b_{n-1} z \omega' + b_n \omega = 0 \quad (2)$$



Eyler tenglamasi uchun koordinatalar boshi regulyar maxsus nuqta bo'ladi, bu yerda b_1, \dots, b_n o'zgarmas sonlar, $\theta = z \partial_z$ deb, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$z^j \partial_z^j = \theta \cdot (\theta - 1) \cdots (\theta - j + 1)$$

va shuning uchun (2) tenglamani $L(\omega) = 0$ ko'rinishda yozish mumkin bo'ladi, bu yerda L -differentsial operator ushbu ko'rinishda aniqlanadi:

$$L = \sum_{j=1}^n b_{n-j} \theta \cdot (\theta - 1) \cdots (\theta - j + 1). \quad (3)$$

Endi har qanday $\lambda \in C$ uchun $\theta(z^\lambda) = \lambda z^\lambda$ deb olaylik. U holda

$$L(z^\lambda) = p(\lambda) z^\lambda \quad (4)$$

bu yerda $p(\lambda)$ ko'phad ushbu ko'rinishda aniqlanadi:

$$p(\lambda) = \sum_{k=0}^n b_{n-k} \prod_{j=0}^{k-1} (\lambda - j) \quad (5)$$

Aniqki, agar $p(\lambda_0) = 0$ bo'lsa, u holda $\omega = z^{\lambda_0}$ (2) ning nolning yaqinidagi golomorf yechimidir. Bundan tashqari, agar λ_0 , p ning l karrali ildizi bo'lsa, u holda $(\ln z)^j z^{\lambda_0}$ funksiyalar $j = 0, \dots, l-1$ lar uchun (2) ning yechimlari bo'ladi. Buni osongina tekshirish mumkin: (4) funksiyani z va λ larning funksiyalarining ayniyati sifatida qarash lozim. Agar λ_0 , p ning l karrali ildizi bo'lsa, u holda ushbu

$$\frac{\partial^j}{\partial \lambda^j} (p(\lambda) z^\lambda)$$

funksiya $j = 0, \dots, l-1$ uchun λ_0 da nolga aylanadi. Boshqa tomondan,

$$\frac{\partial^j}{\partial \lambda^j} (z^\lambda) = (\ln z)^j z^\lambda \text{ tenglik biz kutgan natijani beradi.}$$

Teorema 3. (1) tenglama z_1, \dots, z_k, ∞ nuqtalarda maxsuslikka ega bo'lib, boshqa maxsus nuqtalari bo'lmasligi uchun

$$b_j(z) \prod_{i=1}^k (z - z_i)^j c_j(z)$$

tenglik bajarilishi zarur va yetarlidir, bu yerda $c_j(z)$ darajasi $j(k-1)$ dan oshmaydigan ko'phad.

3 teorema shartlarini qanoatlantiradigan tenglama Fuchsian tenglamasi deyiladi. 2-teorema Fuchsian tenglamasining maxsus nuqta atrofidagi yechimlarining tuzilishini tavsiflaydi. Yuqoridagi misolda ko'rib chiqilgan Fuchsian tenglamasi faqat 0 va ∞ nuqtalarda maxsuslikka ega. Eyler tenglamasining koordinata boshi atrofida lokal yechimlarini qurish uchun qo'llanilgan usul regulyar maxsus nuqta atrofida lokal yechimlarni qurish uchun umumlashtirilishi ham mumkin.



Aytilgan, (1) tenglama z_0 da regulyar maxsuslikka ega bo'lsin. Umumiylikni chegaralamasdan z_0 koordinata boshida deb faraz qilaylik. z_n orqali ko'paytirish (1)ni biz $L(\omega)=0$ sifatida qayta yozishimiz mumkin, bu yerda L differentsial operator quyidagicha aniqlanadi:

$$L = \sum_{k=0}^n b_{n-k}(z)\theta \cdot (\theta-1) \cdots (\theta-k+1)$$

bu yerda $b_0(z)=1$ va $b_k(z)$ koordinata boshi atrofida golomorf.

(1) tenglamaning yechimini ushbu ko'rinishda qidiramiz:

$$\omega(z) = z^\lambda \sum_{r=0}^v \sum_{j=0}^{\infty} u_{rj} (\ln z)^r z^j; \quad u_{00} = 1, \quad \lambda \in C \quad (6)$$

bu yerda u_{rj} noma'lum kompleks koeffitsientlar. Agar (6) qator (1)ning maxsus nuqta atrofidagi yechimi ekanligidan, uning maxsus nuqta o'yib olingan atrofida yaqinlashishi kelib chiqadi.

(5) ga o'xshash quyidagi ko'phadni aniqlaylik:

$$p^{(j)}(\lambda) = \sum_{k=0}^n \frac{b_{n-k}^{(j)}(0)}{j!} \prod_{j=0}^{k-1} (\lambda - j) \quad (7)$$

Biz $p(\lambda) = p^{(0)}(\lambda)$ ko'phadni L operatorining ko'rsatkichli ko'phadi deb ataymiz.

Quyida Frobenius teoremasining oddiy ko'rinishini keltiramiz:

Teorema 4. $\lambda_0 \in C$ $p(\lambda)$ ning μ karrali ildizi bo'lsin. Bundan tashqari, barcha $j \in N$ lar uchun $p(\lambda + j) \neq 0$ deb faraz qilaylik. U holda, μ ta chiziqli erkli (6) qator mavjud bo'lib, $\lambda = \lambda_0$ va $v < \mu$ da $L(\omega) = 0$ bo'ladi.

Isbot. Ayatlyk, $\omega(z)$ (6) dagi $r=0$ kabi bo'lsin. Bu holda u_j koeffitsientlarida ikkinchi indeksni tushiramiz. Bizda quyidagi tenglik bor:

$$L(\omega) = \sum_{j=0}^{\infty} u_j L(z^{\lambda+j}) = \sum_{j=0}^{\infty} \sum_{k=0}^j u_{j-k} p^{(k)}(\lambda+k-j) z^{\lambda+j}$$

Shunday qilib, $z^{\lambda+j}$ koeffitsienti quyidagicha ifodalanadi:

$$u_j p(\lambda+j) + \sum_{k=1}^j u_{j-k} p^{(k)}(\lambda+k-j) \quad (8)$$

va shuning uchun u_j koeffitsientlarini rekursiv ravishda topishimiz mumkin, shunda barcha $j \geq 1$ uchun (8) nolga aylanadi. Koeffitsientlarni tanlash uchun, quyidagicha deylik:

$$L(\omega) = p(\lambda)z^\lambda.$$

Bundan tashqari, (8) dan kelib chiqadiki, u_j koeffitsientlari λ ga ratsional ravishda $p(\lambda+k)$ ildizlarining qutblariga bog'liq bo'ladi, $k=1, \dots, j$. Demak, agar $\lambda_0 - p$



ning ildizi va barcha $j \in N$ uchun $p(\lambda_0 + j) \neq 0$ bo'lsa, u holda (6) dagi kabi $r=0$ va $\lambda = \lambda_0$ bo'lgan $L(\omega) = 0$ ning yechimi bo'lgan ω ni yagona usulda qurishimiz mumkin.

Agar $\lambda - \mu$ karrali ildiz bo'lsa, u holda yuqoridagi misolda bo'lgani kabi, $\partial_\lambda^\nu \omega(\lambda, z)$ ning ixtisoslashuvi barcha $\nu < \mu$ uchun L tomonidan yo'q qilinadi. Bu $L(\omega) = 0$ ning yechimi bo'lgan va $\nu < \mu$ ga ega bo'lgan (6) qatorni beradi.

Izoh. (6) ko'rinishdagi yechimlar qatorini qurish butun ildizlarga ega bo'lgan ko'rsatkichli ko'phad holatga kengaytirilishi mumkin. Masalan, $p(\lambda)$, λ_3 , $\lambda_2 = \lambda_3 + a$ va $\lambda_1 = \lambda_3 + b$ ildizlarga ega bo'lsin, bu yerda $b > a$ musbat butun sonlar va bundan boshqa bunday formadagi ildizlari mavjud bo'lmasin. Bundan tashqari, bu ildizlar mos ravishda μ_3 , μ_2 va μ_1 karrali bo'lsin. Shubhasiz, 4-teoremaning isbotidagi $p(\lambda_3 + a) = p(\lambda_3 + b) = 0$ bo'lgani uchun λ_3 qiymatida bajarilmaydi. Boshqa tomondan, agar biz qurishni quyidagicha o'zgartirish orqali

$$u_0 = (\lambda - \lambda_3)^{\mu_1 + \mu_2}$$

umumlashtirishimiz mumkin.

U holda $j = 0, \dots, a - 1$ lar uchun matematik induksiya orqali tekshirish mumkinki, u_j ning (8) da berilgani kabi $(\lambda - \lambda_3)^{\mu_1 + \mu_2}$ ko'paytuvchisi bor va shuning uchun u_a yaxshi aniqlangan bo'ladi, chunki $p(\lambda + a)$ λ_3 da μ_2 tartibli nolga ega. Lekin, $(\lambda - \lambda_3)^{\mu_1 + \mu_2}$ ko'paytuvchiga barcha u_j , $j < a$ larda e'tiborli bo'lish kerak. Xuddi shunday hamma $a \leq j < b$, u_j lar uchun $(\lambda - \lambda_3)^{\mu_1 + \mu_2}$ ko'paytuvchi bor va biz u_b koeffitsient yaxshi aniqlanganligini yuqoridagi kabi ko'rsatishimiz mumkin.

Biroq, $\lambda = \lambda_3$ o'rniga qo'yish u_j , $j < b$ koeffitsiyentlar hammasi yo'q bo'lishining natijasida bo'lardi va demak biz bosh hadi z^{λ_3} bo'lgan qatorni olamiz. Boshqa tomondan, agar biz quyidagi qatorni etiborga olsak

$$\partial_\lambda^b (w(\lambda, z))$$

va uni λ_3 da baholaymiz, $L(\omega) = 0$ ning yechimi bo'lgan va bosh hadi z^{λ_3} bo'lgan (6) ko'rinishdagi qatorni olamiz. Keyingi hosilalarni olib, biz $\mu_3 - 1$ qator yechimlarini qurishimiz mumkin. Shu tarzda, Fuchsian tenglamasini hisobga olgan holda, biz har bir maxsus nuqta atrofidagi yechimlar qatorining asosini qurishimiz mumkin.

Ushbu Gaussning gipergeometrik tenglamasini qaraylik

$$z(z-1)\partial_z^2 F + ((\alpha + \beta + 1)z - \gamma)\partial_z F + \alpha\beta F = 0$$

U 0, 1 va ∞ nuqtalarda regulyar maxsusliklarga ega. 0 dagi ko'rsatkichli ko'phadi quyidagicha

$$p(\lambda) = \lambda(\lambda - 1) + \gamma\lambda = \lambda(\lambda - (1 - \gamma))$$



aniqlanadi.

Shunday qilib, agar $\gamma \notin \mathbb{Z}_{\leq 0}$ bo'lsa, u holda 0 ko'rsatkichli ko'phadning ildizidir va hech qanday musbat son ildiz bo'lmaydi. Demak, Gauss tenglamasining yechimini darajali qator ko'rinishida qurishni 4-teorema isbotidagidek bajarishimiz mumkin. Bundan tashqari, agar $\gamma \neq 1$ bo'lsa, 0 soni p ning oddiy ildizidir.

Yechimni 0 ildizga mos keladigan koordinata atrofida qurish uchun Gauss differensial operatori uchun $(\theta_x + \alpha)(\theta_x + \beta)F = (\theta_x + \gamma)\partial_x F$ ni x ga ko'paytirishimiz mumkin va ushbu differensial tenglamani olamiz:

$$((\theta_z - 1 + \gamma)\theta_z - (\theta_z + \alpha)(\theta_z + \beta))F = 0.$$

Ushbu differensial operatorni quyidagi

$$\sum_{j=0}^{\infty} u_j z^j$$

qatorga qo'llab, quyidagini olamiz:

$$\sum_{j=1}^{\infty} ((j-1+\gamma)ju_j - (j-1+\alpha)(j-1+\beta)u_{j-1})z^j.$$

Nol darajali ko'phad nolga aylanadi, chunki 0 ko'rsatkichli ko'phadning ildizidir. Shunday qilib, berilgan qator ushbu

$$\frac{u_j}{u_{j-1}} = \frac{(j-1+\alpha)(j-1+\beta)}{(j-1+\gamma)j}$$

tenglik bajarilganda va faqat shu holdagina yechimi bo'ladi. Bunda $u_0 = 1$ deb faraz qilsak, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$u_j = \frac{(\alpha)_j(\beta)_j}{(\gamma)_j j!}.$$

Boshqacha qilib aytganda, biz Gaussning gipergeometrik qatori ${}_1F_2(\alpha, \beta, \gamma; z)$ ni tikladik.

FOYDALANOLGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Adolphson. Hypergeometric functions and rings generated by monomials. Duke Math. J., 73(2):269–290, 1994.
2. B. Sturmfels. Solving algebraic equations in terms of A-hypergeometric series. Discrete Math., 210(1-3):171– 181, 2000. Formal power series and algebraic combinatorics (Minneapolis, MN, 1996).
3. D. Eisenbud, D. R. Grayson, M. Stillman, and B. Sturmfels, editors. Computations in algebraic geometry with Macaulay 2, volume 8 of Algorithms and Computation in Mathematics. Springer-Verlag, Berlin, 2002.
4. E. A. Coddington and N. Levinson. Theory of ordinary differential equations. McGraw-Hill Book Company, Inc., New York-Toronto-London, 1955.



5. E. L. Ince. Ordinary Differential Equations. Dover Publications, New York, 1944.



SOVET HOKIMIYATINING XX ASRNING 20-30-YILLARIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALGA OSHIRGAN DINIY SIYOSATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852930>

Najmiddinov Boburmirzo Zuhridin o'g'li

O'z FA Tarix inisituti stajor-tadqiqotchisi

Annatsiya: Sovetlarning Turkiston o'lkasida diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan yuritgan siyosati 1917-1924-yillarda beqarorlik va ishonchsizlik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Bu esa o'lkada diniy omilning kuchli ta'siri tufayli oshkora ateistik siyosatni olib borishiga yo'l qo'ymagan. Biroq bu jarayon uzoqqa cho'zilmay, 1924-yilning oxiridan boshlab diniy ulamolarga, islom muassasa va tashkilotlarga qarshi ochiq kurash yo'liga o'tila boshlandi.

Kalit so'zlar: Sovet hokimiyati, O'zbekiston MIQ, Islom dini, ateistik siyosat, Xudosizlar jamiyati, vaqf mulklari, qatag'on, aksilinqilobiy targ'ibot, "Ateist" va "Bezbojnik" gazetalari.

Islom dini asrlar davomida o'zbek xalqining asosiy diniy e'tiqodi sifatida mavjud bo'lgan. O'zbek xalqining urf-odatlarini, an'analarini islom dinining odat va marosimlari bilan uzviy ravishda bog'lanib ketgan. Shariat va odat xalqimizning turmush tarzi va hayotini belgilagan. Buni yaxshi bilgan sovetlar o'zlarining hokimiyatining dastlabki yillaridanoq Turkiston mintaqasida asrlar davomida mavjud bo'lgan bu diniga qarshi kurasha boshladilar. Ularning kurashlari dastlabki yillarda ochiqchasiga bo'lmasada, keyinchalik oshkora va terror usulida amalga oshirila boshlandi.

Turkistonda sovetcha tartiblar o'rnatilgan dastlabki kunlardanoq, hukumat soxta, "balandparvoz" deklaratsiyalar e'lon qilish orqali aholini o'z tartiblariga ijobiy munosabatda bo'lishini maqsad qilgan edi. Sovet hukumati vujudga kelgan dastlabki kunlarida ikki tarixiy hujjat aynan shu maqsadda qabul qilingan.

1917-yil 2-noyabrda "Rossiya xalqlari huquqlari deklaratsiyasi" va shu yilning 20-noyabrida "Rosssiya va Sharqning barcha musulmon mehnatkashlariga" murojaatnomasi e'lon qilindi. Unda barcha fuqarolarning tengligi, boshqa xalqlarning esa Rossiya Federatsiyasidan xattoki ajralib chiqishi va mustaqil davlat tuzish huquqi, milliy, diniy imtiyozlar va cheklashlarni bekor qilish kabilar rasmiy ravishda e'lon qilingan edi. Murojaatnomada "Rossiya musulmonlari, Volgabo'yi Qrim tatarlari, Sibir va Turkistonning qirg'iz va sartlari, Zakavkaziyaning turk va tatarlari, Kavkazning chechen va tog'liklari... sizning din va urf-odatlaringiz, sizning milliy va madaniy muassasalaringiz bundan buyon erkin va daxlsiz deb e'lon qilinadi. O'z milliy turmushingizni erkinlik bilan baxuzur tuzaveringiz. Shunday qilishga xaqlisiz, o'z mamlakatingizga o'zingiz xo'jayin bo'lmog'ingiz lozim! O'z turmushingizni



ko'nglingizdagidek va o'z xoxishingizga muvofiq qilib o'zingiz tuzmog'ingiz lozim, siz shunday qilishga haqlisiz, chunki sizning taqdiringiz o'z qo'lingizda..."⁹⁹ deyilgan edi.

Biroq bularning bari amalda o'z aksini topmadi, aksincha bo'ldi. Sovetlarning Turkiston o'lkasida diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan yuritgan siyosati 1917-1924-yillarda beqarorlik va ishonchsizlik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Bu esa o'lkada diniy omilning kuchli ta'siri tufayli oshkora ateistik siyosatni olib borishiga yo'l qo'ymagan. Biroq bu jarayon uzoqqa cho'zilmay, 1924-yilning oxiridan boshlab diniy ulamolarga, islom muassasa va tashkilotlariga qarshi ochiq kurashga o'tila boshlandi. Sobiq Turkiston ASSR, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlaridan iborat bo'lgan yangi subyekt - O'zbekiston SSR tashkil topganidan keyin "dinga qarshi tashviqot va turmush xurofotlariga qarshi kurash", partiya va komsomol yacheykalarida dinga qarshi bevosita targ'ibotni yo'lga qo'yish uchun vaqt keldi, deb hisoblash bosqichiga o'tildi.¹⁰⁰

1920-yillarning birinchi yarmi boshlarida Markazda va O'zbekistonda dinga qarshi matbuot organlari va maxsus tashkilotlarining tuzilishi, "xudosizlik" uchun kurash harakatlari ommaviy tus oldi. 1922-yilning oxirlaridayoq markazda dahriylik siyosatini targ'ib qiluvchi "Ateist" va "Bezbojnik" gazetalarini chop etila boshlandi. SSSRda ateistik harakat avj olib, u davlat siyosatining uzviy qismiga aylandi. Ushbu siyosat yuzasidan joylarda ko'plab "Xudosizlar jamiyati" tuzildi. Bu jamiyatlar mavjud diniy e'tiqodga, uning peshvolariga qarshi ateistik kurash olib bordi, uning joylardagi tashkilotlari zo'r berib faoliyat ko'rsatdi. Xudosizlikka doir maxsus gazeta va jurnallar nashr qilindi. Mazkur yillar davomida sovet hukumati tomonidan o'zbek xalqining olis asrlarga borib taqaluvchi moddiy va ma'naviy madaniyati durdonalari, maktab, madrasalarga qarshi zo'rlik yo'li bilan kurash olib borildi. Islom dini va musulmon ruhoniylari kamsitilib, eski usuldagi maktablar "eskilik va xurofot uyasi" sifatida ta'riflandi.

Turkistonda azaldan maorif va madaniyatning moddiy tayanchi bo'lgan vaqf mulklarini ham sovet hukumati asta-sekin cheklay boshladi.

1920-yil 17-noyabrda Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Soveti "Rossiya Federatsiyasi Turkiston Respublikasida yerdan foydalanish haqida" gi 353-sonli Nizomiga asosan vaqf yerlarini davlat tasarrufiga o'tkazish to'g'risidagi qarorini e'lon qiladi. Shu tariqa vaqf mulklari masalasi diniy muassasalar ixtiyoridan butunlay tortib olinadi. Faqat qarorda masjidlariga tegishli bo'lgan vaqf yerlariga vaqtincha yer-suv islohotini o'tkazish jarayoniga qadar tegmaslik uqtiriladi.¹⁰¹ 1924-yilgacha faqat masjidlarning vaqf mulklari qolgan edi. O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1928-yil 22-sentyabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida vaqf mulklarini bekor qilish to'g'risidagi

⁹⁹ Rajabov Q., Xaydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 y.). -T.: Universitet, 2002. - 43-44-betlar

¹⁰⁰ O'zbekiston Kommunistik partiyasi syezdlarining rezolyusiya va qarorlari. 1-tom.-Toshkent: 1957. - 48-51-betlar

¹⁰¹ Solmonov Axmadjon. O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (Matn) : monografiya A.Solmonov. - T.: Tafakkur, 2015. - 36-bet



qaror e'lon qildi¹⁰². Bu qarorga asosan vaqf mulklarining tugatilishi va ularning mahalliy sovet organlariga berilishi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston SSRning barcha viloyatlarida shoshilinch tadbirlardan biri sifatida qaraldi.

“Xudosizlar” jamiyati vujudga kelishi bilan dinga qarshi kurash yagona markaz qo'lida to'plandi. Daxriylik siyosati olib borishning usul va vositalari takomillashtirib borildi, bu yo'nalishga katta miqdorda mablag' ajratildi. Ayniqsa, noshirchilik ishi keng yo'lga qo'yilib, 1925-1928-yillarda cherkov va masjidlarini tugatish harakati kuchayib ketdi.¹⁰³ Misol uchun birgina O'zbekiston SSRning Xorazm viloyatida 1925-1928-yillar davomida 10 ga yaqin masjidlar yopib qo'yiladi.¹⁰⁴ Ularni quydagi jadval orqali ko'rishingiz mumkin:

O'zbekiston SSRning Xorazm viloyatida 1925-1928-yillar davomida yopib qo'yilgan masjidlar ro'yxati

| № | Masjidning nomi | Qurilgan yili | Yopilgan yili |
|---|-----------------|---------------|---------------|
| 1 | Kaptarxona | 1879-1880 | 1927 |
| 2 | Nurillaboy | 1894-1895 | 1928 |
| 3 | Shaxbozbobo | 1874-1875 | 1925 |
| 4 | Mamat Maxram | 1900 1927 | 1928 |
| 5 | Oq masjid | 1795-1780 | 1925-1926 |
| 6 | Masjidi Kalon | 1804-1808 | 1927-1928 |
| 7 | Saidboy | 1828-1830 | 1927-1928 |
| 8 | Qo'shbegi | 1840-1843 | 1927-1928 |
| 9 | Abdalbobo | 1900-1902 | 1927 |

Sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan respublikada dinga qarshi amalga oshirgan ishlaridan so'ng, keyingi yillar davomida tarixiy obidalar bo'lmish minglab madrasa, masjid, maqbara, xonaqoh binolari qarovsiz qolib ketdi. Diniy boshqarmaning tugatilishi va madrasalar faoliyatining to'xtatilishi bilan bilimli diniy ulamolarni yetkazib berish, islom shariatini to'g'ri yo'lga qo'yish kabi muhim masalalarga bo'lgan e'tibor yo'q qilindi.

1927-yil O'zbekiston SSR Kompartiyasining III syezdida “Din va dinga munosabat” yuzasidan 2 ta qaror qabul qilinib¹⁰⁵, ushbu qarorlarda dinga qarshi targ'ibotni yanada kuchaytirish, ulamolarni ta'qib qilish va qat'iy nazorat ostiga olish mazmunidagi fikrlar bayon qilingan edi. Ushbu qarorlarda dinga qarshi tashviqot masalasi keskin qo'yilgan bo'lib, avvalo, “faollar ichida diniy-maishiy urf-odatlariga (xatna to'yi, diniy dafn marosimlari, nikoh o'qitish va boshqalarga) qarshi partiya ichida keng kurash olib borish lozim... Yerli xalq orasida ham, shuningdek, yevropaliklar ichida ham dinga qarshi tashviqotni avj oldirish zarur deb hisoblansin...

¹⁰² Qizil O'zbekiston. 1929. 1- yanvar. №9

¹⁰³ Безбожник . 1930. № 10. - С. 3

¹⁰⁴ O'zRMDA, 2456-fond, 1-ro'yxat, 10-ish, 14, 140-varoqlar.

¹⁰⁵ Qonun, din cherkov.-Toshkent: O'zbekiston, 1987.- 54-bet



maktab, klub, qizil choyxona, dehqonlar uyi, agronomiya markazlari va "Xudosizlar jamiyati"ning yacheykalari dinga qarshi tashviqotning markaziga aylanishi zarur"¹⁰⁶, kabi ochiqdan-ochiq qarash va qatag'onga da'vat qiluvchi fikrlar keltirib o'tilganligi ham dinga qarshi kuch bilan kurashilganligini ko'rsatadi.

Quyidagi ma'lumotga ko'ra SSRda "Xudosizlar jamiyati" a'zolari, muhbir, dehqon va ishchilar hamda uyushma faollarining soni 1920-yilda 100 ming kishini, 1929-yilda 700 ming kishini, 1932-yilga kelib esa 5,5 mln. kishini tashkil qilgan. Tashkilotga 2 milliondan ortiq yoshlar jalb qilingan.¹⁰⁷ Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, partiya organlari, ayniqsa yoshlar orasida dinga qarshi tashviqot-targ'ibot ishlari keng ko'lamda olib borilgan.

O'zbekiston SSR Kompartiyasining III syezdi Respublika miqyosida din va diniy muassasalarga qarshi ommaviy ochiq kurash hamda qatag'on davrini boshlab berdi. Shuningdek 1927-yil 13-15-iyun kunlarida Samarqand shahrida O'zbekiston SSR Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasining VI plyenumi bo'lib o'tadi. Plenumda "Ruxoniylar va maktab to'g'risida"gi masala muhokama qilinib, unda eski usul maktablarni yopish, ruxoniylarni quvg'inga olish, maorif sohasida ateistik bilimlarni rivojlantirish masalalari belgilab olindi¹⁰⁸. Plenum qarorida ruhoniylar va dindorlar "sovet tizimiga dushman bo'lgan eng asosiy kuch" deb ta'kidlangan va ular qattiq ta'qib ostiga olindi. Dinga qarshi keskin kurash bir necha yo'nalishlarda olib borildi. Bular xotin-qizlarni erkaklar bilan tenglashtirish masalasi, maktab va o'quv yurtlarida ateistik tarbiyani kuchaytirish, arab yozuvidan lotin alifbosiga o'tish va boshqalar edi. 1927-yili xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish "Hujum" kampaniyasi davrida dindorlarni xurofot va eskilik tarafdori sifatida ta'qib qilish yanada avj oldirildi. Bunday ateistik harakatlarni ommaviylashtirish maqsadida 1929-yil 10-11-iyun kunlari Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq xudosizlar uyushmasining II syezdi Markaz va uning Ittifoqdagi barcha respublika bo'limlarini "kurashchan xudosizlar" deb nomlashga qaror qiladi¹⁰⁹.

Dinga qarshi keskin kurash targ'ibotini yanada kengaytirish maqsadida oliy o'quv muassasalarida ateist tashviqotchilarni tayyorlaydigan o'quv kurslar ochila boshladi. Jumladan 1929-yildan Samarqand Oliy pedagogika instituti va Toshkent O'rta Osiyo Kommunistik universiteti qoshida dinga qarshi qaratilgan tashviqotchi-ateistlar tayyorlaydigan bir yillik o'quv kurslari ochildi¹¹⁰.

XX asrning 30-yillarida Markazning dinga qarshi olib borayotgan ateistik siyosati hayotiy zaruriyat ekanligini isbotlash maqsadida, davlat va hukumat rahbarlari, ziyolilar va ilmiy jamoatchilik daxriylik targ'ibotiga keng jalb qilindi. Ushbu harakatda ishtirok etmagan kishilarga nisbatan tazyiq o'tkazish va zo'rvonlik va yo'li bilan obro'-e'tibori hamda egallab turgan lavozimlaridan mahrum qilish choralari qo'llanildi. Aynan shu yillar mobaynida ateistik ruhdagi adabiyotlar keng ko'lamda nashr etila

¹⁰⁶ O'zbekiston Kommunistik partiyasi syezdlarining rezolyusiya va qarorlari. 1-tom.-Toshkent: 1957. -189 -251-betlar

¹⁰⁷ Наука и религия. 1977, № 10. -С 16

¹⁰⁸ По'latov G'. E'tiqodlar kurashi. Toshkent, 1964. - 44-bet

¹⁰⁹ Правда. 1929. 12 июнь. №132 С.18

¹¹⁰ По'latov G'. E'tiqodlar kurashi. Toshkent, 1964. 53-bet



boshlandi. Misol uchun 1939-1940-yillar davomida o'zbek tilida 470 ming nusxada 30 xil nomdagi dinga qarshi qaratilgan adabiyotlarning nashr etilishi, 1940-yilning birinchi yarim yilligida respublika gazetalarida sahfasi 170 ta maqolaning mazkur mavzuga bagishlanganligi¹¹¹ bu siyosatning naqadar keng miqyosda olib borilganligini ko'rsatadi.

Sovet hokimiyati o'zining salbiy natijalarini bergan islohotlarini o'tkazar ekan, jamiyatda kishilarning islomiy ma'naviyat ta'sirida asrlar osha yashab kelayotgan xalqning his-tug'ularini oyoq osti qildi. Bunday ta'qib va tazyiqdan diniy ulamolar ko'proq jabr ko'rdi. Sovet hokimiyatining milliy o'lkalardagi zo'ravonlik siyosati oxir-oqibat bu rejimga qarshi xalq ommasining uzoq vaqt davom etgan qurolli harakatini keltirib chiqargan. Sovet tuzumiga muxolifatda bo'lgan kuchlar hamda sovet davri tarixi adabiyotlarida "aksilinqilobchilar" deb baholangan tashkilotlar faoliyati asos qilinib, diniy ulamolar tazyiq ostiga olindi. Ulamolarga "bosmachilarga ko'maklashgani, bosmachilarni yashirgani, bosmachilikda ishtirok etgani, ular bilan sherikchilik qilgani, josusligi, aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zo bo'lgani, aksilinqilobiy targ'ibot yuritgani, terrorchiligi, bosmachilarga g'oyaviy rahnamolik qilgani" kabi ayblar qo'yilib, jazoga tortish ommaviy tus oldi. Mulla, shayx, qozi, imom, a'lam va mutavallilar boy, quloq bo'lgani yoki ularning yirik zamindorlarga xayrixohligi ham qatag'on qilinishiga sabab bo'lgan.

Aksilinqilobiy targ'ibot yuritgan, terrorchi, ommaviy chiqishlarda ishtirok etgan kabi o'nlab ayblar bilan butun O'rta Osiyo qamoqxonalarda 1930-yil iyuniga qadar 51 nafar ulamo aynan bosmachilarga sheriklikda, 59 ta ulamo josuslikda, 1 ta ulamo norasmiy chegaradan o'tishda va 1 ta ruhoniy soxta pul chiqarishda ayblanib, tergov qilingan¹¹².

1930-yillarning oxirlaridan boshlab, to'g'ridan to'g'ri dindor bo'lgani uchun, diniy marosimlarda qatnashgani hamda unda xizmat ko'rsatgani, daromad olgani uchun ham ta'qib ostiga olish avj oldirilgan. Jumladan, Abduolim Tog'ayev degan shaxs paxta yig'im terimi davrida diniy marosimlarni, Ramazaon hayitini o'tkazish orqali paxta yig'im-terimi muddatini atayin uzaytirganlikda ayblangan. U "millatchi unsur, bosmachilar malayi, mulla, guruh tuzib diniy yig'ilishlar o'tkazib turishi" bahonasi bilan otuvga hukum qilinadi¹¹³.

XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarda diniy ulamolar "bosmachilik"ka ko'maklashgani, ularni yashirgani, aksilinqilobiy harakatlarda ishtirok etgani, sovet hokimiyatiga qarshi targ'ibot yuritgani, kolxozlar tuzishga qarshi chiqqani, qo'poruvchilik qilgani, diniy marosimda qatnashib soliq to'lamagani, yashirin tashkilotlarda ishtirok etganligi, diniy marosimlarni boshqargani kabilar ro'kach qilinib, qatag'on girdobiga tortildi. Sovet hokimiyatining yuqorida keltirib o'tilgan din va unga qarshi kurash borasida amalga oshirgan siyosati aholi orasida keyinchalik

¹¹¹ Саидбаев Т.С. Ислам и общество (опыт историко-социологического исследования) М.: Наука, 1978. С.166

¹¹² Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. -T., Sharq 2003. – 183-bet

¹¹³ Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlarini. - T.: Sharq, 2001. – 216-bet.



diniy e'tiqodning susayishi va diniy savodsizlikni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Lekin dinga qarshi harakatlar qanchalik kuchaymasin odamlar o'z diniy etiqodlariga yashirincha amal qilaverdilar. O'sha davrdagi hukumat tomonidan qilingan cheklovlarga qaramasdan xalqimizning o'z dinini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini yo'q qila olmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov Q., Xaydarov M. Turkiston tarixi (1917-1924 y.). -Toshkent. Universitet, 2002.
2. O'zbekiston Kommunistik partiyasi syezdlarining rezolyusiya va qarorlari. 1-tom.-Toshkent: 1957.
3. Solmonov Axmadjon. O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (Matn) : monografiya A.Solmonov. – Toshkent. Tafakkur, 2015.
4. Qizil O'zbekiston. 1929. 1- yanvar. №9
5. O'zRMDA, 2456-fond, 1-ro'yxat, 10-ish (SSSR Xalq Komissarlari Soveti qoshidagi Diniy ishlar kengashining O'zbekiston SSRdagi vakilligi)
6. Qonun, din cherkov.-Toshkent: O'zbekiston, 1987.
7. Po'latov G'. E'tiqodlar kurashi.Toshkent,1964.
8. Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, quloqlashtirish, surgun. -Toshkent, Sharq 2003.
9. Shamsutdinov R. O'zbekistonda sovetlarning quloqlashtirish siyosati va uning fojeali oqibatlari. – Toshkent, Sharq, 2001.
10. Саидбаев Т.С. Ислам и общество (опыт историко-социологического исследования) М.: Наука, 1978.
11. Правда. 1929. 12 июнь. №132
12. Безбожник . 1930. № 10.

**ТЮРКИЗМЫ В РОМАНЕ ГУЗЕЛИ ЯХИНОЙ «ЗУЛЕЙХА ОТКРЫВАЕТ ГЛАЗА»**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852939>

Давронова Азиза Амриллоевна

Магистр БухДУ.

a.a.davronova@buxdu.uz

Аннотация. В статье рассматривается использованная тюркская лексика в романе Гузели Яхиной «Зулейха открывает глаза». Материалом послужили тюркизмы романа Г. Ш. Яхиной «Зулейха открывает глаза», прокомментированные автором в приложении «Словарь татарских слов и выражений». В статье обсуждается этнолингвистический подход к изучению тюркизмов, включающий анализ этимологии слова, его лингвоэтнического статуса, функциональной специфики, фоновой информации. Устанавливается, что частотными являются приемы экспликации и генерализации, способствующие сохранению этнолингвистической самобытности произведения.

О национально-культурной составляющей романа написала также литературный критик Галина Юзефович: «На дворе стоит страшный 1930 год, и тридцатилетняя Зулейха, тонкая, маленькая и зеленоглазая, уже 15 лет замужем. Ее муж («какого хорошего человека Аллах послал») старше ее на 30 лет и практикует по отношению к жене шариатские нормы брака во всем их культурном своеобразии. Тяжкий безнадежный труд, побои, оскорбления - все это «женщина» (именно так - без имени - к Зулейхе обращаются дома) считает своей нормальной обыденной жизнью, за это держится из последних сил даже тогда, когда в их глухой татарской деревне начинают вовсю задувать безжалостные ветры эпохи. Коллективизация уносит и ненавистного Муртазу, и садистку-свекровь, а саму Зулейху - бесприютную, одинокую и совершенно не подготовленную — выбрасывает в огромную новую жизнь. И эта новая жизнь - ледяной сибирский ад, уготованный советской властью для раскулаченных, - внезапно оказывается заметно лучше той, которую Зулейха вела до сих пор. Для нее открывается целый мир - любви, материнства, самостоятельных решений и всего того, о чем на протяжении первых 30 лет жизни она попросту не имела понятия»¹¹⁴.

Обратимся к тексту романа Гузель Яхиной «Зулейха открывает глаза» и попытаемся определить, какие именно концептуальные сегменты маркируют билингвальную языковую личность автора и каким образом в структуре

¹¹⁴ Юзефович Г. Л. Следы на воде, Зулейха и завидное чувство Веры Стениной / Г. Л. Юзефович. - Режим доступа: <https://meduza.io/feature/2015/05/29/sledy-na-vode-zuleyha-i-zavidnoe-chuvstvo-very-steninoj>



повествования функционируют и взаимодействуют различные этнокультуремы.

Первый концептуальный сегмент составляют безэквивалентные национально-маркированные единицы, так называемые «этнографизмы», как правило, представляющие собой бытовые реалии:

а) предметы, используемые в быту, в хозяйстве: *камча* («кнут, плетка»), *каплау* («покрывало»), *кашага* («подзор по краю матицы в избе»), *киштэ* («полка под потолком для складирования постельных принадлежностей»), *лэгэн* («таз»), *лэукэ* («полка в бане»), *сяке* («большая лавка, широкие нары»), *табан* («стол, место приема пищи»), *тастымал* («длинное вышитое полотенце»), *чаршау* («занавеска»), *чыбылдык* («занавеска»);

б) одежда, обувь: *кульмэк* («платье, рубаха»), *кота* («короткие домашние валенки»), *малахай* («широкий кафтан без пояса»), *чыба* («верхняя демисезонная одежда, суконный чекмень»), *тюбетейка* («национальный головной убор»), *яга* («род шубы, тулуна халатного покроя»);

в) продукты питания, кушанья: *кош-теле* («мучная сладость»), *кызылык* («конская колбаса») и др.

В романе данный концептуальный сегмент в основном представляют так называемые «татаризмы» (тюркизмы, пришедшие из татарского языка). Этнокультурная маркированность этого сегмента определяется этнической принадлежностью автора, его фоновыми знаниями и культурной пресуппозицией. Нужно также отметить, что в тексте романа данные слова в основном употребляются в первой части («Мокрая курица»), в котором рассказывается о жизни Зулейхи в татарской деревне *Юлбаш*, недалеко от Казани. Во второй части романа («Куда?») этнографизмы используются реже (например, *кульмэк*, *тюрбан* и др.), а в третьей части романа («Жить»), где рассказывается о жизни Зулейхи в глухом таежном поселке на Ангаре, безэквивалентная лексика используется крайне ограниченно.

Второй сегмент концептосферы языковой личности автора составляет лексика, маркирующая мифологические представления и верования. Данный сегмент репрезентирует архаическое, родовое, мифологическое сознание, отражающее особенности проявления традиционной культуры татарского этноса.

Например, это мифологические и фольклорные персонажи: *аждаха* («дракон»), *албасты* («женский демонический персонаж в мифологии»), *басу капка иясе* («дух околицы»), *бичура* («домовой, низший дух»), *дэв* («злой дух, антропоморфный великан»), *жалмавыз* («мифологическая старуха-великанша, обжора и людоедка»), *зират иясе* («дух кладбища»), *иясе* («домовой, дух»), *пэри* («мифологический дух в образе девушки»), *су-анасы* («водяная»), *убырлы карчык*



(«кровожадная демоническая старуха, ведьма, упыриха»), **фэрэштэ** («ангел»), **шурале** («дух леса, леший»), **юха** («мифологическая змея, принимающая облик красивой женщины»).

Третий концептуальный сегмент репрезентирует национальные традиции и обычаи: **калым** («выкуп за невесту»), **кереш** («татарская национальная борьба»), **Курбан (Курбан-байрам)** («мусульманский праздник жертвоприношения»), **кыз-куу** («конная игра»), **туй** («праздник, свадьба»), **Ураза (Ураза-байрам)** («мусульманский праздник в честь окончания поста Ураза»).

Четвертый сегмент концептосферы составляют номинации, репрезентирующие предметы и реалии религиозного культа: **ляухэ** («хранящая скрижаль» - «настенный коврик с изречением из Корана»), **михраб** («молитвенная ниша в мечети»), **таш** («могильный камень»). Здесь отдельно следует выделить номинации, которые обозначают лиц, занимающих определенное религиозное и/или социальное положение: **мулла** («служитель религиозного культа у мусульман»), **абыстай** («супруга духовного лица»).

Все вышеперечисленные концептуальные сегменты этнокультурной лексики относятся к так называемым «мировоззренческим концептам», или «концептам культуры», по поводу которых Ю. Н. Кольцова пишет: «Это слова, обозначающие культурные категории, характерные для народа, говорящего на данном языке и являющегося носителем данной культуры (этнокультуремы)»¹¹⁵.

Г. А. Кажигалиева разработала типологию, согласно которой выделяются:

- 1) прямые (непосредственные),
- 2) описательные и
- 3) фоновые текстовые лингвокультуремы¹¹⁶.

Мы, в свою очередь, на материале романа Гузель Яхиной «Зулейха открывает глаза» попытались проследить, какие именно виды этнокультурем образуются в тексте и каким образом они маркируют языковую специфику билингвальной личности автора.

В концептосфере языковой личности автора мы предлагаем выделять 3 вида этнокультурем - смысловозначительные, культурно-опосредованные, транспонированные.

1. Смысловозначительные этнокультуремы проявляют себя в определенном текстовом окружении (контексте), в котором они не только отличаются по значению, но и актуализируют различные культурные и этнические коннотации.

¹¹⁵ Кольцова Ю. Н. Концепт как категория семантической категории перевода / Ю. Н. Кольцова // Вестник Моск. ун-та. Сер. 22.: Теория перевода. - 2008. - № 4. - С. 47.

¹¹⁶ Кажигалиева Г. А. О системе текстовых лингво-культурем / Г. А. Кажигалиева. - Режим доступа: <http://philology-and-culture.kpfu.ru/?q=node/260>



Так, в тексте романа используются такие смыс-лоразличительные номинации, как «лес» - «урман» - «тайга», среди которых этномаркированная номинация «урман» будет выступать в качестве текстовой этнокультуры.

Известно, что номинация «лес» является для многих народов универсальной (исключение составляют только те случаи, когда слово «лес» является лакуной), и поэтому не обладает вне контекста этнокультурной спецификой.

Однако в следующем фрагменте романа номинация «лес» обогащается лингвокультурным содержанием: «Лес возле Юлбаша хороший, богатый. Летом кормит деревенских крупной земляникой и сладкой зернистой малиной, осенью - пахучими грибами. Дичи много. Из глубины леса течет Чиш-мэ - обычно ласковая, мелкая, полная быстрой рыбы и неповоротливых раков, а по весне стремительная, ворчащая, набухшая талым снегом и грязью. Во времена Большого голода только они и спасали - лес и река. Ну и милость Аллаха, конечно»¹¹⁷.

В тексте романа оппозиция «лес - урман» дифференцирует особенности употребления данных реалий: «... Лес заканчивался - начинался дремучий урман, буреломная чащоба, обиталище диких зверей, лесных духов и всякой дурной нечисти. Вековые черные ели с похожими на копья острыми вершинами росли в урмане так часто, что коню не пройти. А светлых деревьев - рыжих сосен, крапчатых берез, серых дубов - там не было вовсе.»

Говорили, что через урман можно прийти к землям марийцев - если идти от солнца много дней подряд. Да какой же человек в здравом уме решится на такое?! Даже во времена Большого голода деревенские не смели преступать за границу Крайней поляны: объели кору с деревьев, перемололи желуди с дубов, разрыли мышинные норы в поисках зерна - в урман не ходили. А кто ходил - тех больше не видели»¹¹⁸.

Лингвокультура «тайга» также выступает в составе семантической оппозиции «урман - тайга»: «Осторожно высвобождает руку из-под его головы, опускает босые ноги на прохладный с ночи пол, кладет на подушку свой платок: сын надумает просыпаться, потянется лицом - уткнется в ее запах и поспит еще немного. Не глядя, снимает с гвоздя пиджак, торбу, ружье. Толкает дверь - в комнату врывается птичий гомон, шум ветра - и тихо выскальзывает вон. Обувается в сених в кожаные поршни (бабка Янипа мастерил из лосиной шкуры), наскоро переплетает косы и - вперед, в урман»¹¹⁹.

¹¹⁷ Яхина Г. Ш. Зулейха открывает глаза : роман / Г. Ш. Яхина ; предисл. Л. Улицкой. - М. : АСТ : Редакция Елены Шубиной, 2015. - 1718 с.

¹¹⁸ Яхина Г. Ш. Зулейха открывает глаза : роман / Г. Ш. Яхина ; предисл. Л. Улицкой. - М. : АСТ : Редакция Елены Шубиной, 2015. - 18 с.

¹¹⁹ Яхина Г. Ш. Зулейха открывает глаза : роман / Г. Ш. Яхина ; предисл. Л. Улицкой. - М. : АСТ : Редакция Елены Шубиной, 2015. - 386 с.



«Весной и летом носила из тайги жирных тетеревов, тяжелых гусей с толстыми упругими шеями; пару раз посчастливилось подбить косулю, а однажды даже - трепетную пугливую кабаргу; на зайцев ставила силки, на лис - капканы (привезли по заказу артели из центра). За пушниной - белка, колонок, изредка соболь - ходила только зимой, когда зверь выкунит, покроется густой лоснящейся шерстью»¹²⁰.

Таким образом, в тексте романа номинации «лес» - «урман» - «тайга» не только разграничиваются по смыслу (лес - «хороший, богатый; источник спасения от голода»; урман - «опасный, запретный;местилище злых духов и нечисти; символ смерти»; тайга - «источник охоты и пропитания»), но и обладают лингвокультурным содержанием. Лексема «урман» является смыслоразличительной этнокультуремой, которая выполняет функцию символа.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Диброва Е. И. Этноидиолектный концепт в кван тово-лексикографической интерпретации / Е. И. Диброва // Известия Южного федерального ун-та. Сер.: Филологические науки. – 2010. – № 4. – С. 42–50.
2. Шапошникова И. В. Для чего нужны концепты и концептосферы? (Размышления о филогенезе мировоззрения и возможностях его исследования) / И. В. Шапошникова // Вестник Новосибир. гос. ун-та. Сер.: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2007. – Т. 5, Вып. 2. – С. 103–117.
3. Седых А. П. Этнокультурные характеристики языковой личности (на материале французской языковой личности) : автореф. дис. ... д-ра филол. наук / А. П. Седых. – Саратов : Саратов. гос. ун-т, 2005. – 44 с.
4. Сагнаева У. Л. Категория этнокультурной доминанты и методы ее изучения / У. Л. Сагнаева // Вестник Новосибир. гос. ун-та. Сер.: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2007. – Т. 5, Вып. 1. – С. 31–39.
5. Воробьев В. В. Лингвокультурология : учеб. пособие / В. В. Воробьев. – М. : Изд-во РУДН, 2006. – 332 с.
6. Алефиренко Н. Ф. Картина мира и этнокультурная специфика слова / Н. Ф. Алефиренко // Научные ведомости Белгород. гос. ун-та. Сер.: Гуманитарные науки. – 2009. – № 4. – С. 5–9.
7. Бахралинова А. Ж. Функционирование лингвокультуремы в сознании билингов, владеющих русским языком : теоретико-экспериментальное исследование : автореф. дис. ... канд. филол. наук / А. Ж. Бахралинова. – Кемерово : Кемер. гос. ун-т, 2013. – 24 с.

¹²⁰ Яхина Г. Ш. Зулейха открывает глаза : роман / Г. Ш. Яхина ; предисл. Л. Улицкой. - М. : АСТ : Редакция Елены Шубиной, 2015. - 387 с.



8. Кажигалиева Г. А. О системе текстовых лингво культурем / Г. А. Кажигалиева. – Режим доступа: <http://philology-and-culture.kpfu.ru/?q=node/260>

9. Яхина Г. Ш. Зулейха открывает глаза : роман / Г. Ш. Яхина ; предисл. Л. Улицкой. – М. : АСТ : Редакция Елены Шубиной, 2015. – 508 с.



УДК 621.01.

**ТАВСИЯ ЭТИЛГАН ТОЛА ТОЗАЛАГИЧНИНГ АРРАЛИ ЦИЛИНДРИ ВА ЭЛЕКТР
ЮРИТГИЧНИНГ ХАРАКАТ ҚОНУНИНИ ТАЖРИБАДА АНИҚЛАШ**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852943>**Ш.Холдоров***мустақил изланувчи***А.Джураев***т.ф.д., профессор***А.Мавлянов***доцент*

Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

shavkatxoldorov@mail.ru

Аннотация. Мақолада тавсия этилган тола тозалагич аррали цилиндри ва электроюритгичнинг ҳаракат қонунини тажрибавий тадқиқотларда аниқлаш натижалари келтирилган. Тажрибаларни ўтказиш методикаси ва ҳаракат қонунлари юкланишларини ифодаловчи осциллограммалар ҳамда ўтиш жараёни таҳлили берилган.

Аннотация. В статье приведен результаты определения пыльного цилиндра рекомендуемого волокноочистителя и закона движения электродвигателя в экспериментальных исследованиях. Приведены осциллограммы, представляющие методологию проведения экспериментов и загрузку законов движения, а также анализ переходного процесса.

Abstract. In the article presented the results of determining the saw cylinder of the recommended fiber cleaner and the law of motion of the electric motor in experimental studies. The waveforms representing the methodology of conducting experiments and loading the laws of motion, as well as the analysis of the transition process are given.

Калит сўзлар. Тола тозалагич, аррали цилиндр, тензометрик датчиклар, бурчак тезлик, юкланиш, чиқиш вақти, осциллограмма, буровчи момент, ҳаракат қонуни.

Ключевые слова. Волокноочиститель, пыльный цилиндр, тензометрические датчики, угловая скорость, нагрузка, время на выходе, осциллограмма, крутящий момент, закон движения.

Key words. Fiber cleaner, saw cylinder, strain gauges, angular velocity, load, output time, oscillogram, torque, law of motion.

Кириш Ҳозирда дунё мамлакатларида табиий толаларга, айниқса пахта толасига бўлган талаб ортиб бормоқда. Пахта бўйича халқаро маслаҳат



кўмитаси (ICAC) маълумотларига кўра, «ташқи бозорга пахта толасини етказиб бериш бўйича етакчи давлатлар Хитой, АҚШ, Ҳиндистон, Покистон, Бангладеш, Миср, Бразилия ва Ўзбекистон» ҳисобланади. Ушбу ташкилот маълумотларига кўра, 2020-2021 йиллар мавсумида пахта толаси ишлаб чиқариш 5,1 фоизга (22,48 миллион тонна), талаб эса 1,7 фоизга (24,09 миллион тонна) ўсиши башорат қилинганлигини ҳисобга олсак, пахта толаси таркибидаги ифлослик ва нуқсонларни самарали тозалайдиган, энергия ва ресурстежамкор тозалаш машиналарини амалиётга жорий этишни муҳим ҳисобланади.

Шуни таъкидлаш керакки, ҳозирги кунда пахта тозалаш корхоналарида ишлатилаётган тола тозалаш машиналарининг тозалаш самарадорлиги бор-йўғи 20-25% ни ташкил этиб, бугунги кунда етарли эмас, чунки ифлослиги юқори бўлган пахта хом ашёсидан юқори навли толаларни олишни таъминлай олмайди.

Бугунги кунга келиб, пахтанинг қийин тозаланувчи селекция навларини кўпайиши ва машинада терилган пахтанинг улушини ортиши, олимлар конструкторлар ва пахтатозалаш саноати ходимлари олдига биринчи навбатда –ўзининг техник-иқтисодий кўрсаткичлари бўйича самаралироқ бўлган технологиялар, тола тозалаш машиналарини яратиш ва жорий этиш муҳим ҳисобланади.

Тажрибавий тадқиқотларни амалга ошириш методикалари. Тавсия этилган модернизация қилинган пахта толасини тозалаш машинасининг тажриба нухаси кўриниши 1-расмда келтирилган.

Олдин таъкидлаб ўтилганидек, аррали цилиндрнинг подшипниклари корпусга резинали амортизаторлар орқали ўрнатилади. 2-расмда таянч подшипниклари сиртига вулканизация қилиб ўрнатилган амортизаторларини умумий кўринишлари келтирилган.

Амортизатор сифатида қўлланиладиган резина маркалари [1], НО-68, 1338, 6308 олинган. [2]. Уларнинг физик механик хусусиятлари [3] тўлиқ келтирилган. Булардан 1847 маркали резинада бикрлиги $(4,0 \div 4,5) \cdot 10^4 \text{ Н/м}$, 1338 маркали резинада бикрлиги $(2,1 \div 2,3) \cdot 10^4 \text{ Н/м}$. Подшипниклар сиртига бириктирилган резинали втулкалар вулканизация усулида $(150 \div 160)$ градусда $(35 \div 40)$ дақиқа давомида юкланиб ўрнатилган.



1-рasm. Модернизация қилинган тола тозалагичнинг тажриба нухасини умумий кўриниши




а-1338 маркали резина



б-6308 маркали резина

2-рasm. Амортизаторли подшипниклар кўринишлари



3-рasm. Тола тозалагичнинг тажриба нухасида параметрларни ўлчашни электротензометрик схемаси


бу ерда, 1-электр юритгич, 2-муфта, 3-подшипникли таянч, 4-амортизатор, 5-аррали цилиндр, 6-тензодатчиклар, 7-амортизаторни таркибли колосник, 8-тебранишни ўлчаш датчиги, 9-цилиндрнинг вертикал силжишини ўлчаш датчиги, 10-магнитоэлектрик ўлчаш датчиги, 11-токни ўтказгич, 12-“Azdino” русумли сонли автоматик ўзгартиргич, 13-компьютер, 14-ток манбаи.

3-рasmда тола тозалагич тажриба нухасида параметрларни ўлчашни электротензометрик схемаси келтирилган. Ушбу схемага асосан тозалагич тажриба нухасида тегишли датчикларни [4, 5] қўллаб, электр юритгич



валидаги ва аррали цилиндр валидаги буровчи моментларни, бурчак тезликларини ҳамда колосник ва цилиндр валини тебраниш қийматларини, шовқин даражасини ўлчаш мумкин бўлади.

Мос равишда 4-расмда қўлланилган ўлчаш асбоблари, жумладан тензодатчиклар (а), vibXpert II (б), кварц (в), бурчак тезлик ва моментнинг ўлчагичлари, штангенциркул (г), токни чиқаргич (д) ҳамда ўлчаш жараёни (е) кўринишлари келтирилган. Таъкидлаш лозимки, деярли барча сигналлар дастлаб автоматик сонли ўзгартиргич орқали компьютерга узатилган [6, 7].



4-расм. Ўлчаш асбобларининг кўринишлари.


бу ерда, а- тензодатчиклар, б-vib Xpert II ва в-кварц валларидаги буровчи момент ва бурчак тезликларни ўлчагич, г-штангенциркул, д-токни чиқаргич асбоби, е-ўзгаришларни ўлчаш жараёни.

Тажрибаларда параметрлар қийматлари уч хил иш унумида, яъни аррали цилиндр айланиш частотасида, таянчларни турли ҳил маркадаги резина маркаларидан тайёрланган вариантларда амалга оширилди. Натижалар осциллограммалар ва графиклар, жадваллар шаклида қайд қилинган.


Датчикларни тарировкалаш. Тажрибавий тадқиқотларда параметрларни қийматларини электр, геометрик шаклидан асосий қийматларига ўтказиш учун уларни тарировкалаш усулидан фойдаланилди.

Бунда асосан валлардаги буровчи моментларни қийматлари тарировкалаш усулида кўриб чиқилди. 5а-расмда, тарировкалаш осциллограммада, уларни

қайта ишлаш асосида тарировкалаш осциллограммаси, 5б-расмда тарировка графиклари келтирилган.



5а-расм. Валлардаги буровчи момент қийматларини аниқлашдаги тарировкалаш




5б-расм. Валлардаги буровчи момент қийматларини аниқлашдаги тарировкалаш графиги

Демак, қурилган тарировкалаш графигига асосан (5б-расм, график) электр юритгич ротори валидаги (1) ва аррали цилиндр валидаги (2) буровчи моментларни ўзгаришлари чизиқли бўлиб, қаршилик моменти (юкланиш) ортиб бориши қайд этилган. Ушбу графиклардан фойдаланиб ҳар хил иш унумида валлардаги буровчи моментларнинг қийматлари аниқланди [8, 9].

Тажриба натижалари ва таҳлили. Тажриба тадқиқотлари натижалари осциллограммалар шаклида олинган бўлиб, уларни қайта ишлаш натижасида параметрларни ва аррали цилиндрнинг ишлаш режимлари орасидаги боғланиш графиклари қурилган.

Электр юритгич ва аррали цилиндр бурчак тезликлари ўртача қийматлари ўзаро тенг. Лекин бунда, аррали цилиндр бурчак тезлиги технологик қаршилик, тозаланаётган пахта толалари ва кинематик жуфтлардаги (подшипниклардаги) ишқаланиш кучлари қаршилик моментлари ҳисобига бироз кичик бўлиши аниқланди. 3.6-расмда модернизация қилинган тола тозалагич тажриба нусхасидаги аррали цилиндрнинг бурчак тезлиги $\phi_{ц}$ ва буровчи моменти $m_{ц}$ ўзгариш қонуниятларини ифодаловчи осциллограмма келтирилган.



бу ерда, $M_{Т,К} = 9,5$ кН

6-расм. Тавсия этилган модернизация қилинган пахта толасини тозалагич машинаси аррали цилиндри бурчак тезлиги ва валидаги буровчи моментни ўзгариш қонуниятларини ифодаловчи осциллограмма.

Осциллограммада аррали цилиндрни барқарор ҳаракатга чиқиши ва пахта толасини тозалаш жараёни, технологик қаршилиги 9,5 Нм бўлган ҳолат учун келтирилган. Бунда қайд этиш лозимки, олдинги бобда келтирилган назарий тадқиқотлар натижасида аррали цилиндрни барқарор ҳаракатга чиқиш вақти (0,35÷0,46)с оралиғида бўлганлигини инобатга олинганда, тажрибавий тадқиқотларда ушбу ўтиш жараёни (0,36÷0,48)с оралиғида бўлиб, уларнинг ўзаро фарқи (5,5÷8,2)с ни ташкил этади.

Технологик қаршилик ортиши билан ϕ_c қиймати камайиб M_c ортиб боради. Шунингдек аррали цилиндр инерция моментини ортиши билан ўтиш жараёни вақти ҳам ортиб боради, бурчак тезлигининг нотекислик коэффиценти камаяди. Тавсия қилинган конструкциянинг ўзига хос томонига аррали цилиндрининг қайишқоқ амортизаторли подшипникли таянчларга ўрнатилгани ҳисобланади. Аррали цилиндр тебранишларни амортизация қилиб, унинг эгилишини етарли даражада камайтиради. Шунинг учун технологик тирқиш ўлчамлари сақланиб, иш унумини ортишига олиб келади.

Хулоса. Тензометрик ва магнитоэлектрик усулларни қўллаб тажрибавий тадқиқотлар натижасида тола тозалагич электр юритгич ротори, аррали цилиндри валидаги бурчак тезлик ва буровчи моментларни иш унумига, ишқаланиш кучлари momenti ва технологик қаршилиқни ўзгаришига боғлиқлик қонуниятлари, аниқланди. Аррали цилиндрни барқарор ҳаракатига чиқиш вақтини ўзгаришига келтирилган инерция моментини таъсири аниқланган. Ушбу вақт назарий натижалардаги қийматлари билан таққосланганда, улар фарқи (5,5÷8,2) % дан ошмаслиги қайд қилинди.



АДАБИЁТЛАР:

1. Григорьев Е.Т. Расчет и конструирование резиновых амортизаторов. –М.: -с. 153.
2. Потураев В.Н., Дыра В.И. Резиновые детали машин. –М.: Машиностроение. 1977. –с.216,
3. Джураев А., Кенжабоев Ш. Разработка конструктивных схем и научные основы анализа и синтеза рычажных механизмов с упругими элементами и гибкими звеньями приводов технологических машин. Монография изд. «Наманган» 2019 г. –с 267,
4. Раевский Н.П. Датчики механических параметров машин. М.: изд. 1999г. –с 226,
5. Немец И. Проктическое применение тензорезисторов. М.: Энергия. 1970 г. –с.144.
6. Сафронова И.В. Технические методы и средства измерений в швейной промышленности. М: “Легкая и пищевая промышленность”. 1983 г. – с229.
7. Менли Р. Анализ и обработка записей колебаний // - М.: Машиностроение. 1972. –с. 368.
8. https://ohranatruda.ru/ot_biblio/norma/248780.
9. Цзе Д.С., Морзе И.Е., Хинка Р.Т. Механические колебания Москва. Изд. «Машиностроение» 1966. –с.508,



XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ARBITRAJ BITIMINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852945>

Nortojiyev Asadbek Shodiyorovich

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti 3-kurs talabasi

asadbeknortojiev02@gmail.com

+998917757868

Annotatsiya: Mazkur maqola xalqaro tijorat munosabatlarida keng qo'llaniladigan nizolarni muqobil hal etish usuli hisoblangan arbitrajning huquqiy asosini tashkil etuvchi arbitraj bitimlarining mohiyati va ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Arbitraj bitimi bilan bog'liq masalalarni ochib berishda asosiy e'tibor xalqaro shartnomalar va xalqaro arbitraj amaliyotiga yo'naltiriladi. Xususan, kamida 156 ta ishtirokchilari bo'lgan Nyu-York konvensiyasi hamda ko'plab davlatlar o'zining arbitraj qonuni sifatida qabul qilgan YUNSITRAL namunaviy qonunining turli moddalari eslab o'tiladi. Bundan tashqari, sohaga oid ilmiy ishlar, tajribali xalqaro arbitrlarning fikrlariga havolalar qilinadi. Ushbu maqola, asosan, arbitraj bitimining ta'rifi, uning mazmuni va shartlari, bitimning haqiqiyliigi yoki bekor qilinishi bilan bog'liq jihatlar, namunaviy arbitraj izohlari hamda arbitraj kelishuvi bilan qamrab olinadigan nizolarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, arbitraj bitimining tarkibiy elementlari hamda uni tuzish jarayonida e'tibor qaratish lozim bo'lgan masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro tijorat arbitraji, arbitraj bitimi, arbitraj kelishuvi, arbitraj izohi, arbitraj joyi, arbitraj tili, namunaviy izoh, qo'llaniladigan huquq

Arbitraj bitimi arbitrajning asosi hisoblanadi, chunki u tomonlarning mavjud yoki kelajakdagi nizolarini hal qilishni arbitrajga topshirishga roziligini bildiradi. Tomonlarning kelishuvi har qanday nizolarni davlat sudlaridan tashqarida hal qilishning zaruriy shartidir. “Albatta, uning asosisiz, arbitraj kelishuvisiz hech qanday arbitraj muhokamasi bo'lmaydi”, degan taniqli arbitr Jan van den Berg. Mahalliy va xorijiy huquqiy doktrinada, shuningdek, milliy qonunchilikda va arbitraj masalasiga taalluqli xalqaro hujjatlarda bitimning ma'nosini belgilashga kelsak, u qat'iy ta'rifni talab qilmaydi. Demak, arbitraj kelishuvining umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas va bugungi kunga qadar ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, ular asosan uning qaysidir elementiga asoslanadi. Arbitraj bitimining mohiyati shundan iboratki, u taraflarning xususiy shartnomasi – nizolarni hal qilishni davlat sudlari o'rniga arbitraj yurisdiksiyasiga o'tkazadi.

Arbitraj bitimi nizolarni milliy sudlardan tashqarida hal qilish tizimi uchun asos yaratadi. Yaxshi tuzilgan arbitraj izohi taraflarning nizoni qanchalik samarali, adolatli



va muvaffaqiyatli hal etishlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Afsuski, shartnomani muhokama qilish va tuzish jarayonida taraflar ko'pincha arbitraj izohiga e'tibor berishmaydi. Natijada "patologik arbitraj kelishuvi" vujudga kelishi mumkin. Ushbu nuqson arbitraj bitimining bekor qilinishiga yoki kamida arbitraj izohining mazmuni va arbitrajning tashkillashtirilishi bo'yicha keng tortishuvlarga sabab bo'ladi.

Arbitraj bitimi arbitrlarga yurisdiksiyani beradi. "Yurisdiksiya" deganda biz arbitrlarga majburiy qaror qabul qilish orqali ularga taqdim etilgan masalalarni hal qilish imkonini beradigan vakolatlarni tushunamiz. U sudyalarga taraflar arbitrajga topshirishga kelishib olgan nizolarni hal qilishiga to'sqinlik qiladi. Agar taraflardan biri ushbu masalalar yuzasidan da'vo arizasi bilan murojaat qilsa, ikkinchisi sudlarning vakolatidan voz kechilganligi sababli e'tiroz bildirishi mumkin¹²¹.

Tomonlarning roziligi arbitraj bitimining asosiy shartidir. Shartnoma taraflarning iroda erkinligidan kelib chiqqan bo'lishi kerak. Shuning uchun agar ulardan biri firibgarlik, majburlash yoki noto'g'ri ta'sir natijasida harakat qilgan bo'lsa, unda kelishuv haqiqiy emas deb topiladi. Taraflarning arbitrajga topshirish qobiliyatining yo'qligi ham bitimining haqiqiy emasligiga olib keladi. Keng ma'noda, o'z zimmasiga majburiyat olish huquqiga ega bo'lmagan taraf tomonidan irodaning namoyon bo'lishi yuridik oqibatlar keltirib chiqarmaydi.

Har bir xalqaro tijorat arbitraj sudining yurisdiksiyasi tomonlarning arbitraj to'g'risidagi kelishuvidan kelib chiqadi. Shuning uchun bunday bitimning mavjudligi va haqiqiyliigi masalasi arbitrajning hal qiluv qarorini sud tomonidan ko'rib chiqish bosqichida katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Arbitraj bitimi u kiritilgan shartnomaga nisbatan mustaqil bitim sifatida qaraladi va bu shartnomaning bekor qilinishi, umuman olganda, asosiy shartnomaning haqiqiy emasligiga bog'liq emas. Biroq, asosiy shartnomada ham, arbitraj kelishuvida ham bir xil kamchilik mavjud hollarda asosiy shartnoma arbitraj kelishuviga bevosita ta'sir qiladi. Bu esa arbitraj sudi tomonidan bitimning haqiqiy emas deb e'lon qilinishiga olib keladi. Masalan, asosiy shartnoma bo'yicha taraflarning roziligi yo'qligi, shuningdek, ushbu shartnomaga kiritilgan arbitraj bitimini tuzishga roziligi yo'qligini ham anglatishi mumkin. Asosiy shartnoma va arbitraj kelishuvining yakuniy natijasi bir xil bo'lsa-da, alohida baholash muhimdir. Chunki arbitraj bitimining haqiqiy emasligini tekshirish tartibi asosiy shartnomaning haqiqiy emasligi tartibidan alohida hisoblanadi.

Xalqaro advokatlar assotsiatsiyasi (IBA – The International Bar Association) xalqaro arbitraj izohini tuzish bo'yicha o'zining ko'rsatmalarini e'lon qildi¹²². Ushbu ko'rsatmalar nafaqat samarali arbitraj izohini tuzishning muhim elementlarini muhokama qiladi, balki kerakli natijaga erishish uchun misollar keltiradi. Bundan tashqari, Amerika arbitraj assotsiatsiyasi veb-saytida "Nizolarni hal qilish izohini tuzish: amaliy qo'llanma"si (Drafting Dispute Resolution Clauses: A Practical Guide) mavjud bo'lib, u ham tuzish bo'yicha maslahatlar beradi va muayyan izohlarni tavsiya

¹²¹ UNCTAD/EDM/Misc.232/Add.38

¹²² <https://www.ibanet.org/MediaHandler?id=D94438EB-2ED5-4CEA-9722-7A0C9281F2F2>



qiladi¹²³. Amerika arbitraj assotsiatsiyasining xalqaro bo'linmasi, ya'ni Nizolarni hal qiluvchi xalqaro markazi (the International Centre for Dispute Resolution, ICDR) o'zining "Xalqaro nizolarni hal qilish izohlarini tuzish ICDR qo'llanmasi"ni chop etdi¹²⁴.

Nyu-York konvensiyasiga ko'ra, arbitraj bitimining yozma shaklda bo'lishi muhimdir. Konvensiyaning 2-moddasidagi "yozma ravishda kelishuv" atamasi taraflar tomonidan imzolangan shartnomadagi arbitraj izohi yoki arbitraj bitimini yoki o'zaro xatlar, telegrammalar almashinuvini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ko'plab davlatlar o'zining arbitraj qonuni sifatida qabul qilgan YUNSI TRAL namunaviy qonunida ham bu talab mavjud. Uning 7-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra: "Agar bitim taraflar imzolagan hujjatda bo'lsa yoki bunday bitimning qayd etib qo'yilishini ta'minlaydigan xatlar, teletayp, talegraf orqali yoki boshqa elektr aloqa vositalaridan foydalangan holda xabarlar ayirboshlash yo'li bilan yoxud taraflardan biri bitimning mavjudligini tasdiqlaydigan, boshqasi esa bunga e'tiroz bildirmaydigan da'vo arizasini va da'voga javobni ayirboshlash yo'li bilan tuzilgan bo'lsa, u yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi. Shartnomada arbitraj shartlarini o'z ichiga olgan hujjatga ishora qilinishi, agar shartnoma yozma shaklda tuzilgan bo'lsa va mazkur ishora zikr etilgan shartlarni shartnomaning bir qismiga aylantirsa, u arbitraj kelishuvi hisoblanadi".

Arbitrajlarini boshqarish uchun institutlarni tanlaydigan taraflar shartnomalarida mazkur institutning namunaviy arbitraj izohidan foydalanishlari tavsiya etiladi. Yetarlicha odatiy bo'lgan namunaviy izoh London xalqaro arbitraj sudiga (LCIA) tegishli:

"Ushbu shartnoma bilan bog'liq yoki shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo, shuningdek shartnomaning mavjudligi, haqiqiyliги yoki bekor qilinishi bilan bog'liq bo'lgan har qanday savol, LCIA Qoidalariga muvofiq arbitrajga havola etiladi va arbitraj tomonidan hal qilinadi, shu bilan birga LCIA Qoidalari ushbu bandda nazarda tutilgan holda kiritilgan hisoblanadi.

Arbitrlarning soni [bitta/uchta] bo'lishi lozim.

Arbitraj amalga oshiriladigan joy yoki arbitrajning huquqiy joyi [Shahar va/yoki Davlat] bo'ladi.

Arbitraj jarayonlarida foydalaniladigan til [...] bo'ladi.

Shartnomani boshqaruvchi qonun [...] davlatning moddiy qonunchiligi bo'ladi"¹²⁵.

Bundan tashqari, Toshkent xalqaro arbitraj markazining (TIAC) namunaviy izohini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq: "Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan yoki unga bog'liq bo'lgan barcha nizolar, shu jumladan uning mavjudligi, haqiqiyliги yoki bekor qilinishi bilan bog'liq har qanday nizolar Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAC) arbitraj qoidalariga muvofiq ko'rib chiqiladi va yakuniy hal qilinadi. Arbitraj amalga oshiriladigan joy [...] bo'ladi. Arbitraj jarayonlari [...] tilda olib boriladi".

¹²³https://www.adr.org/sites/default/files/document_repository/Drafting%20Dispute%20Resolution%20Clauses%20A%20Practical%20Guide.pdf

¹²⁴https://www.icdr.org/sites/default/files/document_repository/ICDR_Guide_Drafting_Clauses.pdf

¹²⁵ Moses, Margaret L. The principles and practice of international commercial arbitration. 3rd ed. Cambridge University Press, 2017.



Arbitraj izohini tuzishda taraflar ba'zi muhim qarorlarni qabul qilishlari shart. Masalan, bitta yoki uchta arbitrni tayinlashni aniqlashda taraflar shartnomaning murakkablik darajasini, nizoning kelib chiqish ehtimolini va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoning taxminiy qiymatini ko'rib chiqishi kerak. Murakkab va yuqori qiymatga ega nizolarni hal etishda taraflar odatda uchta arbitr tayinlashni afzal ko'rishadi. Taraflar arbitraj izohida har bir tomon bittadan arbitr tanlashini va ular tanlagan ikkala arbitr birgalikda raislik qiluvchi uchinchi arbitrni tayinlashlarini ko'rsatishlari mumkin. Agarda taraflar arbitrlarni tayinlash borasida o'zaro kelisha olmasa, tayinlov arbitrajni boshqaruvchi institut tomonidan amalga oshiriladi.

Tomonlar arbitraj kelishuviga arbitrlarning soni va agar iloji bo'lsa, ular tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan malaka yoki talablar to'g'risidagi qoidalarni kiritishlari tavsiya etiladi. Ad hoc arbitrajda ushbu spetsifikatsiyalar uzoq muhokamalardan va mumkin bo'lgan qonuniy harakatlardan qochadi. Institutsional arbitrajda muassasa qoidalarida tomonlarning sukut saqlash holatlari uchun yechimlar mavjud bo'lsa-da, ular hech qachon tomonlar kelishib olganidek yaxshi bo'lmaydi. Arbitraj deyarli har doim uchta arbitrdan iborat bo'ladi, garchi tomonlar odatda ushbu qarorni ochiq kelishuv bilan o'zgartirishiga ruxsat beriladi. Arbitrlar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan shartlarni ko'rsatish ad hoc arbitrajda bo'lgani kabi institutsional arbitrajda ham muhimdir. Mojaroga duch kelganda taraflar arbitrlarni tayinlash bo'yicha kelishib olishlari qiyin bo'lishi mumkin. Keyin tayinlash arbitrlarini tayinlash uchun mas'ul bo'lgan uchinchi shaxs – xususiy tayinlovchi organ yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu kutilmagan vaziyatga arbitrlarning malakasiga oid arbitraj bandida taraflar tomonidan kiritilgan batafsil qoidalar uchinchi tomonning ixtiyoriy chegarasini cheklaydi. Arbitrlarni kim tayinlasa tomonlar kelishuviga rioya qilishi kerak. Ishlar qanchalik yaqinroq aniqlansa, shunday qilib tayinlangan arbitrlar tomonlar tanlaganlarga o'xshash bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Haqiqiy to'qnashuv sharoitida ular o'rtasidagi konsensus har doim ham mavjud emas deb hisoblasak, tomonlarning umumiy irodasi hurmat qilinishini ta'minlash uchun oldindan kelishib olish qulaydir. Arbitrlarning soniga kelsak, har bir muassasa o'z tajribasi va odatda boshqaradigan nizolarning tabiati asosida yakka arbitr yoki arbitrajga ega bo'lish afzalligini belgilaydi.

Arbitraj amalga oshiriladigan joyni (the seat of arbitration) tanlash katta ahamiyatga ega. Chunki arbitraj amalga oshiriladigan joyning qonuni arbitraj protsessini boshqaruvchi qonun (lex arbitri) hisoblanadi. "Odatda, taraflar sud arbitraj jarayoniga aralashmaydigan joyni tanlashni xohlaydilar. Shu bilan birga, ular sudning potensial yordamini ham maqsadlariga erishish uchun bir vosita sifatida ko'rib chiqishlari kerak", - deydi Xalqaro arbitraj sudi (ICC) prezidenti Klaudia Salomon. Neytral yurisdiksiyada bo'lish maqsadida taraflar arbitraj amalga oshiriladigan joy sifatida ikkala tarafning ham faoliyati joylashmagan davlatni tanlashga intilishadi.

Professor Le Pera shunday tushuntiradi: "...arbitraj joyi muhim ahamiyatga ega, chunki u hakamlik muhokamasiga qo'llaniladigan protsessual qonunni belgilaydi, bu



esa o'z navbatida qaror qaysi milliy qonunchilikka tegishli bo'lishini belgilaydi. Biz Nyu-York konvensiyasi kabi tomonlar arbitraj joyi qonunidan boshqa protsessual qonunni tanlashi mumkinligini qabul qilsak, tanlangan protsessual qonun hududiylik tamoyilini chetlab o'tadi. Advokatlar kamdan-kam hollarda mijozlarga xalqaro shartnomani belgilangan moddiy qonunsiz bajarishga ruxsat berishadi, lekin ko'pincha arbitraj joyini ochiq qoldiradilar"¹²⁶.

Taraflar arbitraj jarayonida foydalaniladigan tilni arbitraj izohida belgilashlari kerak. Ba'zi taraflar shartnomaning tili arbitraj tili bilan bir xil bo'lishi to'g'risida taxmin qilishsada, har doim ham unday bo'lavermaydi. Agarda taraflar arbitraj tilini belgilashmagan bo'lsa, arbitraj boshqa bir tilni tanlashi mumkin.

Xulosa

Arbitraj bitimi xalqaro tijorat arbitraji protsessida muhim ahamiyat kasb etadi. Arbitraj qarorini tan olish va ijro etish uchun tegishli qonun talablariga javob beradigan arbitraj bitimi mavjud bo'lishi shart. Taraflar o'zlarining nizolarini hal qiluchi huquqiy tizim parametrlarini belgilashda juda katta erkinlikka ega. Arbitraj bitimini tuzadigan tomonlar ular xohlagan jarayonlarga ruxsat beradigan, tizimning o'zi bo'yicha nizolarni minimallashtiradigan, institutsional qoidalarni yoki boshqa majburiyatlarni buzish xavfini tug'dirmaydigan, arbitraj bitimini bekor bo'lishiga olib keluvchi noaniqliklarni keltirib chiqarmaydigan huquqiy tizimni tanlashni e'tiborga olishlari lozim. Arbitraj bitimini aniq va puxta tuzish nizolarni samarali hal qilishni ta'minlash orqali xalqaro tijoratga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agarda arbitraj bitimi aniq qonuniy kuchga ega bo'lsa hamda muammosiz va samarali ishlaydigan tizimni yaratsa, taraflarning sudga murojaat qilish kabi jarayonni kechiktiradigan usullarni qo'llash xohishlari kamayadi.

REFERENCES:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining chet el arbitrajleri qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi konvensiyasi (Nyu-York konvensiyasi) (1958);
2. "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni;
3. Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi YUNSITRAL namunaviy qonuni (1985);
4. The Arbitration Rules of London Court of International Arbitration (2020);
5. TIAC Rules of Arbitration (2021);
6. TIAC Model Arbitration Clause;
7. IBA Guidelines for Drafting International Arbitration Clauses (2010);

¹²⁶ LE PERA, Serxio: "Qayerdan bo'shsh kerak va xorijiy arbitraj qarorlarining ijro etilishiga qanday qarshilik ko'rsatish kerak: ISEC va Bidas SA", Xalqaro arbitrajning Amerika sharhi, Parker xorijiy va qiyosiy huquq maktabi, Kolumbiya universiteti, Nyu-York, 1991-yil, jild. 2, я 1.



8. Drafting Dispute Resolution Clauses: A Practical Guide (AAA);
9. Guide to Drafting International Dispute Resolution Clauses (ICDR);
10. Moses, Margaret L. The principles and practice of international commercial arbitration. 3rd ed. Cambridge University Press, 2017.
11. Gary Born. International Arbitration: Law and Practice. Kluwer Law International, 2012;
12. Рустамбеков И.Р. Международный коммерческий арбитраж. Учебник. – Т.: ТГЮУ, 2018. 164 стр.
13. UNCTAD/EDM/Misc.232/Add.38;
14. LE PERA, Serxio: "Qayerdan bo'shsh kerak va xorijiy arbitraj qarorlarining ijro etilishiga qanday qarshilik ko'rsatish kerak: ISEC va Bidas SA", Xalqaro arbitrajning Amerika sharhi, Parker xorijiy va qiyosiy huquq maktabi, Kolumbiya universiteti, Nyu-York, 1991-yil, jild. 2, я 1.
15. Axtamova, Yulduz Axtamovna, and Samandarbek Farxodjon O'G'Li Norboyev. "XALQARO TIJORAT ARBITRAJIDA ARBITRAJ BITIMINING AHAMIYATI: INGLIZ HUQUQI VA AMALIYOTI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.12 (2022): 774-785.



O`G`ITLAR ISHLAB CHIQRISHDA QORAQALPOQ AGRO RUDALARINING AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852955>

Saparbaeva B.J

Qoraqalpoq davlat

universiteti kimyo-texnologiya fakulteti

stajyor oqituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada agro rudalar tasnifi, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasida qo'llaniladigan agrorudalar, Qoraqalpoq hududida agro rudalarni o'g'itlar ishlab chiqarishdagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq agro ruda, o'git, tuproq, fosfor, kaliy, fosforit, glaukonit, bentonit, vermukulit, mineral o'gitlar.

THE IMPORTANCE OF KARAKALPAK AGRO ORES IN THE PRODUCTION OF FERTILIZERS

Annotation. This article shows the classification of agro ores, agrorudas used in the technology of production of mineral fertilizers, the importance of agro ores in the production of fertilizers in the territory.

Keywords: Karakalpak agro ore, fertilizers, soil, phosphorus, potassium, phosphorite, Glauconite, bentonite, vermiculite, mineral fertilizer scab.

ЗНАЧЕНИЕ КАРАКАЛПАКСКИХ АГРО РУД В ПРОИЗВОДСТВЕ УДОБРЕНИЙ

Аннотация. В данной статье показана классификация агро-руд, , используемые в технологии производства минеральных удобрений, значение агро-руд в производстве удобрений на территории.

Ключевые слова: Каракалпакии агро-руды, фосфор, калий, фосфорит, глауконит, бентонит, вермикулит, минеральное удобрение парша.

Kirish. Agro rudalar - qishloq xo'jaligida tabiiy ko'rinishida yoki ulardan tuproq unumdorligini oshirish va ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida olinadigan mineral va organik o'g'itlar shaklida qo'llaniladigan tog' jinslari va minerallardir. Yaqin vaqtgacha natriy va kaliy nitrat eng muhim agrotexnik rudalardan biri hisoblanardi. Hozirgi vaqtda atmosfera azotidan sintetik ravishda azot birikmalarini olishning sanoat usuli ixtiro qilingan. Sintetik yo'l bilan olingan azotli o'g'itlar tabiiy nitratlar bilan solishtirganda sifat jihatidan ancha yaxshi. Asosiy agrotexnik rudalar fosfat, kaliy va oltingugurt rudalari bo'lib, ular asosida zamonaviy mineral o'g'itlar sanoati yotadi.



Qolgan rudalar mahalliy o'g'it sifatida ishlatiladi va foydalanish joyi yaqinida qishloq xo'jaligi yoki kichik sanoat korxonalarining o'zlari tomonidan qazib olinadi. Foydalanish xususiyatiga ko'ra agrotexnik rudalar bir necha guruhlariga bo'linadi: Agro rudalar o'simliklarning oziqlanishi uchun kimyoviy elementlarning manbalari hisoblanadi.

Agrorudalar organik moddalar manbalari hisoblanadi. Organik moddalar (gumus) manbalari agrorudalar - jinslar: baland va pastda joylashgan torf va sapropellardir. Bunday qishloq xo'jaligi rudalari to'liq o'g'itlar deb ataladi, chunki ular o'simlik uchun zarur bo'lgan barcha oziq moddalarni har xil miqdorda o'z ichiga oladi.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasida qo'llaniladigan agrorudalar. Vermikulit (0,5-1%), mayda maydalangan seolit va ohaktosh qo'shimchalari mineral o'g'itlarning qotib qolishini oldini oladi. Oltingugurt (mahalliy) va uning sulfat kislotaga qayta ishlangan turli birikmalari fosfat va azotli o'g'itlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Agro rudalari qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash va pestitsidlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Insektitsid tashuvchilar (plomba moddalari) sifatida kaolinit, montmorillonit, talk va zeolitlardan foydalaniladi. Oltingugurt o'simlik zararkunandalariga qarshi kurashish uchun preparatlarga, shuningdek, hayvonlarni fumigatsiyalash uchun dezinfektsiyalovchi va turli xil malhamlar tarkibidagi terapevtik vositaga kiradi.

Qoraqalpoq agro rudalari. Hozirgi vaqtda agrorudali o'g'itlarni olish va ulardan foydalanish muammosi ayniqsa keskin. Ularning samaradorligi fiziologik faol moddalar, mahalliy qishloq xo'jaligi rudalari hamda hayvon va parranda chiqindilari asosida olingan organomineral o'g'itlarning elementlaridan oqilona foydalanishga bog'liq. Fosforli va kaliyli o'g'itlar yetishmasligi holatlarida mahalliy agro rudalarni ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Ular orasida glaukanit, vermikulit, bentonit, jelvakli fosfarit Qoraqalpog'istonda Xo'jako'l, Sultan uvays, Qrantaw, Shukay-Tukay, Besto'be, Nazarxan, hududlarida ushrashadi.

| Namuna konlari | SiO ₂ | Fe ₂ O | FeO | F | P | A | C | M | Na | K | CO | SO ₃ | H ₂ O | % |
|----------------|------------------|-------------------|-----|---|---|---|---|----|-----|---|-----|-----------------|------------------|-------|
| Xo`jeli | 39,9 | 3,36 | - | 1 | 1 | 5 | 2 | 0, | 1,1 | 1 | 2,2 | 1,4 | 2,29 | 99,65 |
| Xojakól | 31,4 | 1,89 | - | 2 | 1 | 3 | 3 | 0, | 1,4 | 0 | 4,1 | 1,7 | 3,06 | 99,88 |



| | | | | | | | | | | | | | | |
|--------------|------|------|------|---|---|---|---|----|-----|---|-----|-----|------|-------|
| Shukay Tukay | 40,9 | 1,57 | 0,16 | 1 | 8 | 3 | 2 | 0, | 1,4 | 1 | 11, | 1,4 | 2,18 | 99,79 |
|--------------|------|------|------|---|---|---|---|----|-----|---|-----|-----|------|-------|

Bu hududlarda glaukonit bentonitlar katta miqdorda topiladi. Glaukonit bentonitlar, tuz, kloridlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'lgan yerga o'tqazilgan organik materiallarning tarkibida paydo bo'ladigan argillit turlari hisoblanadi. Xo'jako'ldagi glaukonit bentonitlar ayniqsa, o'rta va yuqori sifatli hamda ko'mir zaxiralari va neft uchun ishlatiladi. Besto'be esa eng katta sifatli glaukonit bentonit manbai hisoblanadi va ko'p qator texnologiyalarda ishlatiladi. Masalan, keramika sanoati, gaz kasalliklari davomida yuriladigan foydali zaxiralarni ajratishda va suvni tozalash xizmatida.

Fosforit. Qoraqalpog'istondagi fosforitlar yurtimizdagi boshqa fosforitlardan (Qizilqum, Gulyob) fizik-kimyoviy jihatdan farq qiladi. Qoraqalpog'iston zaminidagi fosforitlarni paydo etuvchi kristallar bir-biri bilan joylashuvi bo'shligi, tuproqda sekin eruvchanligi ilmiy jihatdan isbotlangan, jelvakli fosforitlarning kimyoviy tarkibi P_2O_5 -11-14% , Fe_2O_3 -7,5% , SiO_2 -30-31% , Al_2O_3 -5-6% , FeO -1,5% , CO_2 -4-4,5% Qoraqalpog'iston fosforitlari asosan suvda erimaydigan o'rtacha tuzlardan tashkil topgan. Shuning uchun o'simliklar undagi fosforni juda qiyinchilik bilan o'zlashtiradi (achchiq tuproq sharoitlaridan tashqari). Mineral o'g'it kimyoviy nomi bo'yicha - tuz. Kislotaliligi 3-4 foiz ko'rsatkichga ega bo'lgan mineral o'g'it yerni sho'rlanishiga olib keladi. Agar mineral o'g'itlar bilan fosforitni aralashtirsa (aralashma tayyorlansa) undan olingan mineral o'g'itning kislotaliligi kamayadi, yerning sho'rlanish darajasi ham pasayadi. O'simlikning mineral o'g'it olish koeffitsienti oshadi. Quyidagi jadvalda jelvakli fosforit namunalari tarkibi ko'rishimiz mumkin

- Quyidagilar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari hisoblanadi:

- Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'ligini mustahkamlash;

- Bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;

- Bolaning intellectual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;

- Bolaning rivojlanishidagi (nutqida, ko'rishida, eshitishda) yengil nuqsonlarni korreksiyalashni amalga oshirish.

- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

- bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlash;

- bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;



-bolalarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
-bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'alariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish.¹⁴³

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 7 — 50 nafar bolalarga tarbiya berilishiga yo'l qo'yiladi.

Maktabgacha ta'limning maqsadi –bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta'lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta'lim muassasasiga birlashtirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Muassasada ta'lim samaradorligini oshirishda, ta'lim jarayoniga yangicha metodlarning joriy etilishida, didaktik o'yinlarning, interfaol metodlarning o'zni beqiyos. Ulardan biri ta'lim jarayonida eng keng qo'llaniluvchi fikriy hujum metodi.

“Fikriy hujum” metodi

O'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish,

muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabli bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi. “Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lim jarayonida ushbu metoddan samarali va muvaffaqiyatli foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'lamining rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. “Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida tarbiyalanuvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir soatgacha qadar tashkil etilishi mumkin. Ya'ni tayyorlov guruhlarini uchun mos keladi.

Misol uchun: Tarbiyachi tomonidan biron bir ertak hikoya qilib beriladi. Tarbiyalanuvchilarga ertak haqida fikr mulohazalarini bilish uchun bir qancha savollar beriladi. Ertak haqidagi fikr va hulosalarini, voqealar rivojini, ertakdan o'zlariga qanday ibrat olganliklari haqida fikr yuritadilar. Tarbiyachi bolalarning fikrlarini umumlashtirib, yakuniy xulosani aytadi.

¹⁴³ (5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son)



Xulosa o'rnida shuni takidlash lozimki, interfaol o'yinlar bolaning nodavlat ta'lim tashkiloti faoliyati samaradorligini oshirishga hizmat qiluvchi asosiy pedagogik vosita bo'lib, natijada bolaning faollikni oshiradi, ruhiyatni ko'taradi. O'yin bolaning muloqotga kirishuvchanligini oshirib, uning rivojlanishiga olib keladi. Buning oqibatida bola muvaffaqiyat qozonishga intiladi, uning ziyrak, hushyor bo'lishga, zavqlanishga o'rganadi. U olamni bilish, o'rganish harakatida bo'ladi. Intizomli bo'lish, chaqqonlik, tez fikr yuritishga intiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zligini namoyon qilish uning kundalik yashash tarziga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni 15-bandi.
2. Yuldoshev J. va boshqalar. Interfaol ta'lim sifat kafolati. - T.: YUNISEF, 2008.
3. Slastenin V.A., Kashirin V.A. Psixologiya i pedagogika. Dlya vuzov. - M.: «Akademiya», 2008.
4. Bogdanovich O.N. Sovremennye formy organizatsii uchebno-vospitatelnogo protsessa. - M.: MOZYR, OOOID «Bely veter», 2009.
5. Mirzaxmatova SH., Pulatova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta'lim. - T.: «Yangi asr avlodi», 2011.
6. Yuldashev J. G., Pulatova D. Ta'limda o'yinli texnologiyalar samaradorlik omili sifatida. ZAMONAVIY TA'LIM / SOVREMENNOE OBRAZOVANIE 2014,
7. Султонова Н. А., Ўлмасова К. КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ // Интернаука. – 2020. – №. 3-2. – С. 84-86. 7.
8. N.A Sultonova, Ibragimova Sh, D. Xolqoziyeva. TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES // 2020/3 European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences – 2- 3 p.
9. (5-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 20-maydagi 320-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021-y., 09/21/320/0482-son) https://cyberleninka.ru/viewer_images/1901431https://cyberleninka.ru/viewer_images/19014312/f/2.png2/f/1.png



ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИДА ФАНЛАРАРО АЛОҚАЛАРНИ УЙЎНЛАШТИРИШ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853097>

Холдорова Гулбаҳор Михлибоевна

*Жиззах Давлат педагогика университети Табиий фанлар факултети
География ва иттиқодий билим асослари кафедраси катта
ўқитувчиси, г.ф.ф.д., PhD,*

Қудратов Жонибек Асомиддин ўғли

Жиззах Давлат педагогика университети талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада география дарсларида фанлараро алоқалардан унумли фойдаланиш, фанлараро алоқалар табиий, тарих ва адабиёт фанлар ўртасидаги муносабатларни ҳақида маълумотлар берилган. Таълим жараёнида ўқувчилар томонидан бундай муносабатлар ўрнатилиши учун билимларни чуқурроқ ўзлаштиришни таъминлаш зарур ҳисобланади

Таянч Сўз Ва Иборалар: Таълим, тарбия, тарих, ландшафт, ер, экскурсия, педагогик технология, лойиха, тадқиқот.

Кириш. Ҳар қандай жамият тараққиётининг ҳар томонлама етук ўқитувчиларсиз тасаввур этиб бўлмайди. Таълимнинг турли босқичларига етук педагогик кадрларни етказиш аввало таълим соҳасидаги тадқиқотларни изчил олиб бориш, таълим методикаси фанига алоҳида эътибор беришни тақозо этади.

Мамлакатимизда Таълим тўғрисидаги қонун (1997 йил 29 август) ва Кадрлар тайёрлаш миллий дастурида туб ислоҳотлар олиб бориш, таълимни янада ривожлантириш ва унинг узликсизлигига алоҳида эътибор қаратилган.

Дарсларни олиб боришда бошқа фанлар билан боғлаб олиб бориш яхши самара беради. Фанлараро алоқалар алоҳида фанлар ўртасидаги муносабатлар бўлиб улар таълим жараёнида ва талаба томонидан ўрнатилиши керак. Бундай боғланишларни аниқлаш учун билимларни чуқурроқ ўзлаштиришни таъминлайди ва уларни амалиётда янада самарали қўллашга ёрдам беради. Шунинг учун ўқитувчи ҳар қандай фанни ўрганишда ушбу муаммога алоҳида эътибор қаратиши зарур ҳисобланади.

Шу жиҳатдан келиб чиққан ҳолда география дарсларида Ватанимиз табиати ва унинг бой табиий ресурслари ўрганилаётганда, биология ва адабиёт фанларига мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ бўлади. Ундан ташқари география дарсларида бадиий адабиётлардан фойдаланган ҳолда ўтилган дарсларда ўқувчилар фаоллигини ошириш, уларнинг мустақил ишлашга ўргатишдан иборатдир.



Тадқиқот ишининг объекти ва предмети. ишининг **объекти** биология, физика, тарих, адабиёт фанларидаги асарлар маълумотлари, **предмети** эса барча тарихий манбалардан Ўзбекистон географиясини ўзига хос хусусиятларини дарс давомида ўқувчиларга очиб беришдир.

Тадқиқот ишининг методи. Мазкур ишда тарихий, таққослаш, солиштириш, киёслаш, маълумотлар тўплаш, таҳлил қилиш, чуқурлаштириш каби ананавий ҳамда замонавий педагогик технологияларнинг кейс стади ва ақлий хужум методлардан фойдаланган холда ўқувчиларга етказиш.

Тадқиқот ишининг мақсад ва вазифалари: Ушбу ишдан кўзда тутилган **мақсад** турли фанлардан фойдаланиладиган маълумотларни географик жиҳатларини атрофлича чуқур таҳлил этиш ва ўрганиш асносида ўқувчиларга етказишдан иборат. Ушбу мақсаддан келиб чиқиб қуйидаги **вазифалар** белгиланди:

- Биринчидан мавзуга оид тўпланган манбалар билан ўқувчиларни таништириш;
- Иккинчидан тўпланган маълумотларни муайян тизимга келтирган холда таништириш;
- Учинчидан тўпланган маълумотлар асосида фанлари ўрганадиган мавзулардаги географик жиҳатларни тўлиқ таҳлил қилиб бериш;
- Тўртинчидан асардаги Ўзбекистон географиясига оид қисмини ўзига хос хусусиятларини очиб бериш;
- Бешинчидан ўтилган мавзу орқали география фанинг бошқа фанлар билан алоқасини ёритиб беришдан иборат;

География фанини ўқитишни ҳозирги замон талаби даражасига кўтариш масаласи уни бошқа фанлар билан изчил боғлаб олиб боришни талаб қилади. Ўқитувчи ўз фани материалларини ўргатиш билан бирга ўқувчиларнинг бошқа фанлардан олган билим ва малакаларига таяниши, ўқувчиларга барча фанлар ўртасида ўзаро боғланиш борлигини кўрсатиш ва уларга бошқа фанлардан олинган маълумотлардан фойдалана билишни ўргатиши, уларнинг фикрлаш қобилиятларини активлантириш, билимларини чуқурлаштириши зарур ҳисобланади. География фанини ўқитишни бошқа фанларга мустаҳкам боғлаб олиб бориш учун ўқитувчининг ўзи бошқа дарс дастурларини яхшироқ билиши, ўқув масалаларини бошқа дарс ўқитувчилари билан бирга ҳал қилиши лозим.

Географиянинг ботаника ва зоология билан узлюксиз боғаниши об-ҳаво, иқлим ва тирик табиатни кузатиш орқали амалга оширилади. Шунингдек, ўқувчиларнинг мактаб тажриба участкасидаги ишлари метеорологик кузатишлар натижасидан фойдаланганда, амалга оширилади. Бу яқин алоқадорлик география ва биология ўқитувчилари раҳбарлигида табиатга қилинган комплекс экскурсиялар орқали бажарилади. Бу экскурсиялар вақтида ботаника ва географиядан кузатиш ва амалий ишлар бажарилади.



5-синф дастурида география ҳамда ботаникадан кузги экскурсия уюштириш учун алоҳида соат ажратилган. Бинобарин, ўқув дастурида кўрсатилган экскурсияни ўтказиш мажбурийдир. Шундай экан, ботаника билан географиядан уюштириладиган кузги экскурсиянинг бирга уюштирилиши катта аҳамиятга эга. Ўқув экскурсия уюштиришда ҳозиргача қийинчилик туғдириб келаётган нарса шуки, кўп жойларда экскурсиялар барча фанлардан алоҳида-алоҳида ўтказилиб келинади. Берилган 2-соатда ўқитувчи мақсадга эриша олмайди. Бунинг натижасида ўқувчилар билимларини амалиёт билан боғлай олмайдилар. Бу эса ўқувчиларнинг пухта билим олишларига эриша олмайди ва шундай қийинчиликлардан ҳоли бўлишда фанлараро алоқа катта аҳамиятга эгадир. Масалан, кузги экскурсияни география ўқитувчиси биология ўқитувчиси билан бирга уюштириши орқали амалга ошириши мумкин. Чунки, ҳар икки фандан экскурсия уюштириш учун ажратилган соатлар фанлар билан ўзаро алоқада олиб борилса яхши натижалар беради. Маълумки, экскурсияларни уюштиришда ўқувчилар олдиндан хабардор қилинади, уларга экскурсияда қилинадиган ишлар бўйича саволлар, топшириқлар берилади. Улар экскурсия учун тайёргарлик кўрадилар.

География дарсларида адабиёт ва тарих фани билан ўзаро алоқалар муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Серқуёш ўлкамизда маданий ландшафт жуда катта майдонни эгаллайди. Буларнинг барчаси узоқ йиллар мобайнида кишилар меҳнати билан яратилган маданий ландшафтлардир. Улуғ адиб Ойбекнинг “Ўзбекистон” сарлавҳали шеърида ҳудди шу маданий ландшафтлар жуда образли қилиб тасвирлардан десак ҳато бўлмайди: бу шеъри ўқиб баҳра олибгина қолмай маълум даражада география, тарих фанига оид билимга ҳам эга бўламиз. Ўзбекистон географик ўрни Туронда эканлигини, бунда беш халқ (ўзбек, қозоқ, тожик, қирғиз ва туркман) оға-ини, бир жон, бир тан эканлиги, икки дарё (Сирдарё ва Амударё) сувини ичиб, душманни бирга енгган, яксон қилганини равон тараннум этилади. Доим бирга бўлиш зарурлигини англатади. “Ўзбекистон табиати” мавзусини ўтишда шоир Ҳамид Олимжоннинг машҳур “Ўзбекистон” шеъридан олинган парчадан фойдаланиш мумкин. Бу парча ўлкамиз табиат элементлари орасидаги табиий боғланиш яъни тоғ билан текислик орасидаги боғланиш, тоғдан бошланган дарёлар текисликка томон оқиши, дарё водийлари ва дарё суви туфайли ҳосил бўлган воҳалар ландшафтлари шоирона куйланади. Бу ўқувчиларда эмотсия ҳосил қилиб, ўлка табиатининг мазмуни ва хусусиятини англашга самарали кўмаклашади.

Хулоса. Мамлакатимизда ҳозирги кунда ёшларга таълим ва тарбия беришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Таълим-тарбия ҳамиша жамият тараққиётининг асоси бўлган. Ёшлар тарбияси ҳамда уларни тарбиялашда таълим тизимининг катта аҳамиятга эга. География дарсларида Турли фанларни ўзаро боғлаб олиб бориш аҳамияти жуда катта ҳисобланади. Шу ўринда келгуси тараққиётни ўтмишдаги ноёб меросларимизсиз ўрганиб, ўқиб



бўлмайди. Ўрта Осиё ва Шарқ мутафаккирлари яшаб ижод этган заминимизни тарихини, табиатини таърифлаб ўтган географ, сайёҳ олимлар хусусан Заҳриддин Муҳаммад Бобурдек аллома, шоир, сиёсатшунос, давлат арбоби, қолаверса буюк саёҳатчи географ яратган “Бобурнома” ёшларга таълим-тарбия беришда жуда аҳамиятлидир.

Билимдон мутахасис кадрларни тайёрлаш, инсон салоҳиятини юзага чиқариш эса ҳар жиҳатдан устозларга, уларнинг билимдонлик билан ўқитиш жараёнини ташкил қилиш ва дарс беришига боғлиқ. Шунинг учун ҳам ўқув жараёнини ташкил этиш, ўқувчиларнинг чуқур билим олишига ёрдам берувчи ўқув методларини қўллашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ҳозирги даврда ўқув жараёнини ташкил этиш ўқитувчидан фақат чуқур билимгина эмас, балки педагогик маҳоратга эга бўлишларини, дарс беришнинг турли методларини билишни ҳам ўз устида тинмай ишлашни талаб қилади.

Ватанимиз географиясини илмий-назарий савиясини кўтариш, унинг таълимий ва тарбиявий самарадорлигини ошириш учун география ва бошқа фанлардан қўшимча маълумотлар ва таълимнинг бадиий воситаларидан, турли педагогик методлардан моҳирона фойдаланиш самарали ёрдам беради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Даринский А.В. “Методика преподавания географии”. Москва, “Просвещения”, 1975.
2. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Т., Ўқитувчи, 1996.
3. Топилдиев В.Р. Таълим ва тарбия жараёнларини ташкил этишнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари. –Т., 2015. 164-бет.
4. Қурбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси.Т.,Ўқитувчи,2001 й.
5. Холдорова, Г. (2021). Мирзачўлда атроф-муҳитни мониторинг қилиш масалалари. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, (1)
6. Gapparov, A., & Kholdorova, K. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
7. Abdunazarov, U., & Sabitova, N. (2020). Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. *Архив Научных Публикаций JSPI*
8. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. *Проблемы современной науки и образования*, (4 (86)).

**КАТТАЛАР ТАЪЛИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853106>

Коптилеуова Венера Бахитовиа

Ажиниёз номидаги НДПИ магистратура бўлими педагогика назарияси ва тарихи 2-курс магистранти

Бисенбаева Рамиза Куанишбай қизи

Кегайли тумани, 10-сонли мактаб психологи

Яббарбергенова Айтбийке Абдуллаевна

Кунғрот тумани, 47-сонли мактаб ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллигига эришуви таълим ва тарбиянинг миллий шакллари ривожланишига кенг имкониятлар очиб берди. Ҳозирги замон педагогикасида тарбия- тарбиячининг тарбияланувчи шахсига оддий таъсир кўрсатиши эмас, балки тарбиячилар ва тарбияланувчиларнинг аниқ бир мақсадга қаратилган, бир-бири билан ҳамкорликда қиладиган муносабатлари ва ўзара таъсир кўрсатиши эканлиги алоҳида таъкидланади. Педагогика фани нафақат бола тарбиясини, бугунги кунда катталарни тарбиялаш ва ўқитишда ҳам маълум даражада хизмат қиладилар. Шунингдек, таълим ва тарбия билан ҳамма ва даимо, яъни бутун жамият аъзолари, бутун умри давомида шуғулланишлари керак эканлигини ҳам ҳаётнинг ўзи кўрсатди.

Педагогика фанининг ривожланишида катталар таълимига қизқиш ўтган асрнинг 30 йилларида «катталарни ўқитиш лозимми?» деган саволлар билан чиқишди. Бу вақтларда катта ёшлилар учун ўқув қўлланмалар етарли бўлмаган ёки ёшлик даврдагидек ўқитиш-ўқиш жараёнларидаги ўзгаришларни ҳисобга оладиган бўлсак ҳам ёши катталар таълимига алоҳида психологик ёндашувларни қайта кўриб чиқишни таклиф қилди. Ёши катталар психологиясида ноаниқ бўлган, тушунарсиз бўлган қарама-қаршилиқлар бўлиб, бу уларнинг ўзига хос психологик хусусиятларига боғлиқ. Ҳозирги кунда катталар таълими «Андрогогика» бўйича кўплаб илмий тадқиқот ишлар олиб борилмоқда. «Андрогогика» - бу катталарни ўқитишга ёрдам берувчи фан ва санъат. Таълимнинг субъекти ёши катталар ҳисобланади. «Андрогогика» грекча сўз бўлиб, «андрос- одам» «гогос-олиб юрувчи» маънони билдириб, демак «одамга кириш ёки ёши катталар ҳақида» маънода ёндашадиган бўлсак ёши катталарга ёрдам бериш, уларнинг психологик хусусиятларини ҳисобга олишган. Албатта, бу терминдан таълим жараёнида фойдаланганлигимиз тўғайли, катталарнинг таълим ва тарбия олишиги ёрдам бериш назарда тутилади. Катталар нима учун ўқишади?

❑ *Қизиқишни қондириш, саволга жавоб топиш.



- ❑ Янги кўникмани ҳаётда қўллашдан роҳатланиш.
- ❑ Ўқишдан завқ олиш.
- ❑ Қизиқишлари умумий бўлган инсонлар билан учрашиш.
- ❑ Ўқиганлик ҳақидаги ҳужжат.
- ❑ Бошқа сабаблар.

Ёшларга билим бериш устида ҳар куни ҳар хил усуллар, янгича ёндашувларни амалиётга тадбиқ этилар экан, уларга таълим бераётган профессор-ўқитувчиларнинг билим ва малакаларини оширишда замонавий илғор педагогик технологиялар ўз вақтида жорий этишни талаб этади. Сабаби, катта ёшли инсонларнинг ўзига хос ўқиш тамойиллари бор:

- Катта ёшли ўқувчилар мустақил ва ўзларини бошқара оладиган инсонлар ҳисобланишади. Улар ўзларини бошқариш учун эркин ҳис қилишлари лозим. Улар бутун ўқув жараёнига жалб қилинишлари ва ментор уларга ўз шахсий ривожланишларида ўзлари масъулиятли бўлишлари кераклигини уқтириши лозим. Шунинг учун менторлар фасилитаторлар вазифасини бажаришлари лозим, улар ўз ўрганувчиларига фактлар беришдан кўра уларнинг ўз билимларига йўналтириши лозим.

- Катта ёшли ўқувчилар ишга оид фаолиятлари, оиладаги мажбуриятлари ва илгариги ўқиш тажрибаларини ўз ичига олган ҳаётий тажриба ва билимларга эга Инсонлар ҳисобланишади. Улар ўқув жараёнини шу билим ва тажрибага боғлашлари лозим. Ментор буни амалга оширишда ўрганувчининг шу мавзуга хос тажриба ва билимига аҳамият қаратиши керак. Улар назариялар ва тушунчаларни иштирокчиларга боғлаши ва ўқув жараёнида тажрибанинг кадр қийматини билиб олишлари лозим.

- Катта ёшли инсонлар ўз мақсадлари сари интилишади. Улар одатда ўзлари эришмоқчи бўлган мақсадни билишади. Шунинг учун ҳам улар тартибли ташкил этилган ва аниқ мақсадли таълим дастурларини кадрлашади. Ўрганувчилар катта ёшлиларга ўз мақсадларига эришишларида қандай ёрдам беришаётганликларини кўрсатишлари керак ва шахсий мақсадларнинг қай даражада умумий мақсадларга мос қўйилганлигини очиб беришлари лозим

- Катта ёшли инсонлар зарур нарсаларга аҳамият қаратишади. Улар бирор нарса ўрганишда сабаб кўришлари лозим. Ўрганиш уларнинг ишига даҳлдор ёки бошқа мажбуриятларида кадрли бўлиши лозим. Яъни назариялар ва тушунчалар иштирокчиларга бу хусусда маълумот беришга боғлиқ бўлиши лозим. Бундай эҳтиёж ўрганувчига ўз эҳтиёжлари ва қизиқишлари доирасидаги мавзуларга аҳамият қаратишларига руҳсат бериш орқали бажарилади.

- Катта ёшли инсонлар ишчан ҳисобланишади. Улар ўз ишларида энг фойдали бўладиган менторинг алоқаларининг аспектига аҳамият беришади. Улар билимга қизиқмасликлари мумкин, лекин менторлар билимнинг фойдали тарафларини уларга кўрсатиб беришлари лозим.



- Барча ўрганувчилар каби катта ёшли ўқувчилар ҳам ўзларига ҳурмат талаб қилишади. Инструкторлар катта ёшли иштирокчининг менторинг алоқаларига қанчалик бой тажриба олиб келишини олдиндан билишлари лозим. Бундай катта ёшли инсонлар тажриба ва билимда тенг деб ҳисобланишлари ва синфда ўз фикрларини эркин ифодалашларига рухсат берилиши лозим.

Қандай қилиб катталарни ўқитишга рағбатлантириш мумкин?

Кизиқтириш орқали

Фойдалилигини намойиш қилиш орқали

Саволга жавоб бериш орқали

Янги кўникмаларни қўлагандан мамнун бўлиш орқали

Фақат ўқишдан хузур қилиш орқали

Бир хил қизиқишга эга бўлган бошқа одамлар билан учрашиш орқали

Катта ёшдаги ходимлар ҳар қандай вақтда турли ёшдаги ва турли тайёргарлик даражасига эга бўлган тингловчилар гуруҳи билан ишлайди, шу сабабли гуруҳларни бошқаришда улардан алоҳида психологик маҳорат талаб этилади.

Зеро, ҳар бир ўқитувчи нафақат мутахассислиги, балки замонавий педагогик, психологик ҳамда методик билимларини доимий равишда, изчил бойитиб бориши, шунингдек, комил инсон ва малакали мутахассисни тайёрлашдек умуммиллий мақсадни амалга ривожлантириш йўлида алоҳида фаоллик кўрсатишга интилиши зарур. Ҳар бир соҳада ташкил этилаётган фаолият самарадорлиги ва муваффақияти мутахассиснинг касбий тайёргарлиги, малакага эгалик даражаси, зиммасидаги вазифаларни бажаришга нисбатан ижодий ёндашиши ҳамда ўз устида қунт ва изчиллик билан ишлаши асосида таъминланади. Шахсий фазилатларни бойитиш, ўз устида ишлаш, фаолиятга ижодий ёндашиш эҳтиёжига эга бўлмаган мутахассис, шу жумладан, педагог муайян ютуқларга эриша олмайди. Доимий равишда ўз устида ишловчи, ижодкор ўқитувчи жамият томонидан ёш авлод таълим-тарбиясига қўйилган ижтимоий буюртманинг муваффақиятли бажарилишини таъминловчи асосий ижрочилар ҳисобланади. Шу сабабли бугунги кунда малака ошириш тизими ходимларига бир қатор катта маъсулятли вазифалар юклатилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Педагогика// Абдуллаева Ш. Таҳрири остида.-Тошкент: Фан ва ахборот технологиялари, 2008.-432 бет
2. Подласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2000.
3. Харламов И.Ф. Педагогика. – М.: Гардарики, 1999. – 520 с.



NODIRA AFOQOVA SHE'RIYATIDA BADIY KO'CHIMLARNING O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853114>

Jumanazarova Rayhona

*Qarshi davlat universiteti,
Adabiyotshunoslik kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada iste'dodli shoira Nodira Afoqova she'rlarida qo'llangan poetik ko'chimlarning xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so'zlar: *she'riy san'atlar, talmeh, metafora, obrazlilik, nafosat, iste'dod, individuallik.*

Annotatsiya: *В данной статье рассматриваются особенности поэтических движений, использованных в стихах талантливой поэтессы Нодиры Афоковой.*

Ключевые слова: *поэтическое искусство, талмех, метафора, образность, изысканность, талант, индивидуальность.*

Annotation: *This article discusses the characteristics of poetic movements used in the poems of the talented poetess Nodira Afokova.*

Keywords: *poetic arts, talmeh, metaphor, figurativeness, sophistication, talent, individuality.*

O'zbek she'riyati ko'plab nodir iste'dodlarga boy. Ana shunday noyob iste'dod sohibasi hassos shoira Nodira Afoqovadir. Shoiraning she'rlari latofati, maftunkorligi, mazmundorligi bilan ko'ngilga yaqin. Zero, yirik adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov haqli e'tirof etganidek: "Nodira Afoqova o'zbek she'riyatiga yoniq dil, katta jasorat va o'zigagina xos g'oyaviy-estetik nigoh bilan kirib keldi". [1.3] Uning she'rlarini kuzatar ekanmiz, bu she'rlarda inson qalbini entiktiruvchi, hayratga, larzaga soluvchi misralarning ko'pligiga guvoh bo'lamiz.

Shoira asarlarida badiiy san'atlarning ko'plab turlarini mahorat bilan qo'llaganligini ko'ramiz. Uning sevib qo'llagan badiiy san'atlardan biri talmeh san'atidir. She'r ilmining zukko bilimdoni Atoullah Husayniy "Badoyi-us-sanoye' nomli asarida shunday yozadi: "Talmeh kalomda mashhur qissa yo mashhur nodir she'r yoki mashhur maqolga ishorat etmakdin iborattur". [2.2]

Bu mard ona To'maris faryodi,
Muqannaniing tinmagan oh-dodi,
Boburning so'ng ilinji, imdodi:
"O'lsam o'lay, sani man hur ko'ray"

Shoiraning "O'zbekiston" she'rida qo'llangan To'maris, Muqanna, Bobur kabi siymolar millat tafakkuri darajasini belgilovchi shaxslarning nomlari ekanligini barcha yaxshi biladi. Shoira bu bilan tarixni zukko bilimdoni ekanligini, xalqini sevishini, tarixini hurmat qilishini, faxrlanishini ko'rsatgan. To'marisning shiddati, Muqannaning



oriyati, Boburning armoni dillarni orziqtiradi. O'quvchi talmehni anglashi uchun keng bilimga, tafakkurga ega bo'lishi zarur.

Nodira Afoqovava she'riyatida tabiat va undagi barcha predmetlarning insonning hayotiga, xatti-harakatlariga, o'y-xayollariga, hissiyotlariga ko'chirilishi, shaxslarning ichki dunyosi ruhiyati, fe'l-atvori, uning ma'naviy olami ko'chim darajasidagi metaforalar orqali ifodalash ustuvorlik qiladi. Nodira Afoqova she'rlarida tog' timsoli inson o'zligini, matonatini, kuz timsoli shoir qalbi, baxt timsoli Onaning borligi, yomg'ir timsolida silqib turivchi iztirob anglashiladi. Bu kabi so'zlar she'r matnida ixcham tarzda ifodalansa-da, butun she'r darajasida voqealanib, obraz-metafora yaratilgan. Shoir she'rlarida obraz-metaforalarning mohirlik bilan qo'llanilishi uning badiiy maqsadi, ifoda ta'sirchanligiligini ta'minlagan.

Insonning tabiatida o'zini qoniqtirmaydigan har qanday narsadan uzoqlashish mavjud. Bu uzoqlashishga obyektiv va subyektiv omillar bor. Hayotiy tajribalar natijasida jiddiy xulosalarga kelinadi. Metafora individuallik xarakteriga ega va u inson fikrlash tarzining o'ziga xos ko'rinishlaridan biri. Hayotni istiorasiz tasavvur qilib, tushunib, biror narsani ikkinchi bir narsadan afzalligini aniqlab bo'lmaganidek, badiiy adabiyot ham istiorasiz yashay olmaydi. Agar she'rdan istiora olib tashlansa, u oddiy, quruq xabarga aylanib qoladi. So'zga sirilik, ta'sirchanlik, emotsionallik bag'ishlaydigan istiora chegara bilmaydi.

Hassos shoira N.Afoqova "Ernest Xeminguey" nomli she'rida metaforik obraz yordamida insoniy kechinmalarni turli xil vosita va usullar bilan gavdalantiradi.

... O odamzod! O erk ovchisi,
Temir tuzum naqqoshlari, o!
O bozingar! Dil o'ynovchisi!
O'ynarmisan umrimni hatto?

Jamiyatdagi chirkinliklarga murosasiz mashhur yozuvchi, to'g'riso'z va isyonkor Xemingueyning tabiatini ochib berish va ijtimoiy tuzumning asl qiyofasini ko'rsatishda "erk ovchisi", "Temir tuzum naqqoshlari", "Dil o'ynovchisi" kabi metaforalarni qo'llagan va badiiy niyatiga erishgan. Ishonchning yo'qolishi, tevarak-atrofdagi odamlarning sotqinligi, ikkiyuzlamachiligi, laganbardorliklari, xushomadgo'yliklari uni juda charchatgan, hatto jonidan kechishgacha olib borgan.

Inson qadr-qimmatini oyoqosti bo'lgan joyda hayotga muhabbat o'rnini nafrat va alamzadalik egallaydi.

Bu gavjumda, bozor dunyoda
Sizni qanday topdim, bilmayman.
Shundan beri oq-oydin shomda
Oyning chiltorini chalgayman.

Dunyoning bozorga o'xshatilishi badiiy adabiyotda tez-tez uchraydi. Faqatgina she'riyatda emas, nasrda ham dunyoning bozor orqali ifodalanganligi kuzatish mumkin. Masalan, Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor", Ulug'bek Hamdamning



“Yusuf va Zulayho” asarlarida bozor majoziy obrazi vositasida fano olamining mohiyati ochib berilgan.

N.Afoqova she'rida qo'llangan “Oyning chiltori” metaforasini u yaratgan individual metafora deyish mumkin, sababi bunday metaforani boshqa shoirlarda uchratmaymiz. Oy nurlarining chiltor qillariga o'xshatilishi lirik qahramon kechinmasini aniqlashtiradi hamda she'rxon tasavvurida sirli bir holat gavdalanadi.

Kezar edim kuz bog'larinda,
Har bitta barg – yo'qlikdan chopar.
Dedingizki, qaroqlaringda
Nastarinlar ochilib yotar.

Yo'qlik xabarchisi, qaroq, ochilgan nastarin o'rtasida mantiqiy bog'liqlik bo'lib, ular orqali odam umrining bo'laklari, umrning o'tkinchiligi juda ishonarli tasvirlangan.

Tirnar edi bo'g'zimni dam-dam
Ovozimning singan qilichi.
Dedingizki, bazmdir kuz ham,
Barglar – noxin, bog'lar – cholg'uchi.

She'r misralaridagi “ovozning singan qilichi”, “bazm-kuz”, “barglar-noxin”, “bog'lar-cholg'uchi” metaforalari orqali dramatism kuchaygan, hayot simfoniyasi eng yuksak nuqtaga ko'tarilgan. Unda insonning alamga to'la qalb bilan indamay jimgina boqib turishi aks etgan.

Dedingizki, asotirlardan
Tushib qolgan tushga o'xshaysan.
Qanotingda chopqilar izi,
Afonaviy qushga o'xshaysan.

Chopqilar – hayotning zarbalari, insonlardan yetgan zulm, nohaqlik, adolatsizlik. Qahramon mana shunday hayot yo'lini bosib o'tishga majbur bo'lgan, lekin o'zining ichidagi hurriyatini yo'qotmagan.

Birdan oyning yuziga boqib
Dedingizki, qayg'urma, kuyma...
Tepamizda yulduzlar yoqib
Suzar edi muazzam kema.

Oy va kema. Manzil tomon shoshayotgan ikki yo'lchi ham o'z maqsadi tomon ilgarilaydi. Oy qora tundan so'ng tongga boshlab boradi. Kema esa qahramonni o'z matlabi, orzulari sari olib ketmoqda. Oy, kema– hayotning timsoli. Oy yoqqan yulduzlar inson qalbidagi orzular, xuddi yulduz misol go'zal, sehrlil, lekin qo'l yetmas.

Tasodifmi topganim Sizni,
Bu gavjumda ro'y berdi tilsim:
Qanday tortdi nigohingizni
Mening siyoh chaplangan ismim?



Samoda chaqmoq chaqishi tabiatning bir mo'jzasi. Shoir mazkur bandda hayotiy asosga ega tabiat hodisasini inson umriga ko'chirgan. Ko'chim she'rni xuddi kartina singari kitobxon ko'z o'ngida gavdalantiradi.

Qahramonning ko'ksini yara yanglig' yalang haqiqat g'ijimlaydi. Chunki u o'z sevganiga mushtoq, ayriliqda yuragi qon. Ayni shu holat badiiy ko'chim vositasida go'zal poetik fikrga aylangan. N.Afoqova she'riyatidagi metaforik obrazlarning qo'llanilishi shoiraning badiiy maqsadi, ifoda ta'sirchanligi va poetik mahoratini namoyon ettiradi. Albatta, shoir ijodidagi metaforik obrazlar tabiatini keng aspektda o'rganish, ularni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Афоқова Н. Кўнгил шеваси. Тошкент, "Фан" нашриёти, 2006. 96 б.
2. Афоқова Н. Қора наво. Тошкент, "Академнашр" нашриёти, 2021. 94 б.
3. Хусайний А. Бадойиъу-с-санойиъ. Тошкент, Гафур Ғулом номидаги АСН. 1981. 92 б.
4. Степанова Ю.С. В трехмерном пространств языка.–М.:1995. стр. 68.



XALQARO SAVDO PALATASINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853120>

Muxammadjanov Suhrobbek Sultonboy o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xalqaro Savdo Palatasining nizolarni hal qilish, savdodagi to'siqlarni kamaytirish borasidagi faoliyatining eng asosiy jihatlari, shuningdek u qatnashgan sud jarayonlari aniq misollar yordamida tadqiq qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные аспекты работы Международной торговой палаты в части разрешения споров, снижения торговых барьеров, а также судебных разбирательств, в которых она участвовала, на конкретных примерах.

Abstract: In this article, the main aspects of the activity of the International Chamber of Commerce in terms of dispute resolution, reduction of barriers to trade, as well as the legal proceedings in which it participated, are studied using concrete examples.

Kalit so'zlar: ICC, arbitraj, Jahon Savdo Tashkiloti, ekspropriatsiya, investitsiya, tarif.

Ключевые слова: ICC, арбитраж, Всемирная торговая организация, экспроприация, инвестиции, тариф.

Keywords: ICC, arbitration, World Trade Organization, expropriation, investment, tariff

Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) dunyodagi eng yirik biznes tashkiloti bo'lib, 100 dan ortiq mamlakatlarda 45 milliondan ortiq kompaniya va birlashmalarni o'z ichiga oladi. 1919-yilda tashkil etilgan ICC xalqaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish hamda biznes rahbarlariga siyosiy munozaralarda qatnashish va global biznes hamjamiyatining manfaatlarini himoya qilish uchun forum yaratish maqsadida ishlaydi. Ushbu maqolada biz ICC tarixi, tuzilishi va faoliyati, shuningdek, uning xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirishdagi rolini muhokama qilamiz.

ICC o'zining dastlabki yillarida savdoni liberallashtirishga ko'maklashish va xalqaro iqtisodiy hamkorlik tizimini yaratishni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratdi. Bu davrda uning asosiy tashabbuslaridan biri bojxona tariflari bo'yicha birinchi xalqaro shartnoma bo'yicha muzokaralar olib borilishi bo'lib, u Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) deb nomlanadi.

1930-1940-yillarda XKM Yevropada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi, hukumatlar va boshqa tashkilotlar bilan yanada integratsiyalashgan va farovon Yevropa hamjamiyatini barpo etish uchun yaqin hamkorlik qildi. U, shuningdek, Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropani qayta



qurishda muhim rol o'ynadi, butun qit'adagi hukumatlar va biznesga texnik yordam va maslahatlar berdi.

Urushdan keyingi davrda ICC iqtisodiy rivojlanish va xalqaro savdoni kengaytirishga ko'proq e'tibor qaratdi. U bir qancha muhim xalqaro savdo shartnomalari, jumladan GATT va uning vorisi Jahon Savdo Tashkiloti (JST) bo'yicha muzokaralarda yetakchi rol o'ynadi.

So'nggi yillarda ICC o'z faoliyati va ta'sirini kengaytirishda davom etdi, xalqaro savdo va investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynadi va barcha o'lchamdagi biznesni qo'llab-quvvatlash va himoya qilishni ta'minladi. Shuningdek, u barqaror va mas'uliyatli biznes amaliyotlarini, jumladan, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va inson huquqlarini ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlarni ilgari surishda tobora ko'proq ishtirok etmoqda.

O'z tarixi davomida ICC xalqaro savdo va hamkorlikni rag'batlantirish va iqtisodiy yo'llar bilan mojarolarning oldini olishga yordam berish kabi o'zining asosiy missiyasiga sodiq bo'lib kelgan. Bugungi kunda u global biznes muhitini shakllantirish va butun dunyo bo'ylab iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

Bugungi kunda ICC xalqaro biznes olamida yetakchi kuch bo'lib qolmoqda. U jahon standartlari va ilg'or tajribalarni o'rnatishda davom etmoqda va korxonalariga global iqtisodiyotning murakkabliklarini hal qilishda yordam berish uchun keng ko'lamlil xizmatlarni taqdim etadi. Qo'mitalar va filiallarning global tarmog'i bilan ICC dunyoning barcha burchaklaridagi biznes manfaatlarini ifodalash va bir asrdan ortiq vaqt davomida o'z missiyasining markazida bo'lgan hamkorlik va hamkorlik qadriyatlarini ilgari surish uchun o'ziga xos pozitsiyaga ega.

ICC har birining o'ziga xos yo'nalishi va vakolatiga ega bo'lgan bir qancha turli organlar va qo'mitalar tashkil topgan. Bu organlarning eng muhimi ICC Butunjahon kengashi bo'lib, u tashkilotning qarorlar qabul qiluvchi oliy organidir. Butunjahon Kengashi butun dunyo bo'ylab milliy qo'mitalar, shuningdek, bir qator ixtisoslashgan qo'mitalar va ishchi guruhlar vakillaridan iborat.

ICC faoliyati bir qator ixtisoslashgan qo'mitalar va ishchi guruhlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va ular jahon biznes hamjamiyatini qiziqtirgan muayyan sohalarga e'tibor qaratadi. Masalan, ICC Bank komissiyasi xalqaro bank faoliyatining ilg'or tajribalarini ilgari surish bo'yicha ish olib boradi, ICC Arbitraj va ADR bo'yicha komissiyasi esa xalqaro arbitraj va muqobil nizolarni hal etish mexanizmlarini ishlab chiqish va targ'ib qilish uchun mas'uldir.

ICC xalqaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish hamda jahon biznes hamjamiyatining manfaatlarini qo'llab-quvvatlovchi siyosatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha uzoq tarixga ega. ICC buni amalga oshirishning asosiy usullaridan biri xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni ishlab chiqish va ilgari surishdir.



Masalan, ICC korxonalariga xalqaro savdo va investitsiyalarning murakkabliklarida harakat qilishda yordam berishga qaratilgan bir qator yo'riqnomalar va namunaviy shartnomalarni ishlab chiqdi. Birinchi marta 1999-yilda nashr etilgan va 2021-yilda qayta ko'rib chiqilgan Xalqaro savdoni moliyalashtirish bo'yicha ICC yo'riqnomasi transchegaraviy operatsiyalarda ishtirok etuvchi banklar va korxonalar uchun ilg'or tajribalar bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Ushbu ko'rsatmalar hujjatli kreditlar, bank kafolatlari va savdoni moliyalashtirishda firibgarlik kabi keng ko'lamli mavzularni qamrab oladi.

Savdoni moliyalashtirish bo'yicha o'z ishidan tashqari, ICC xalqaro bitimlar uchun bir qator namunaviy shartnomalarni ham ishlab chiqdi. Birinchi marta 1955- yilda nashr etilgan va 2020-yilda qayta ko'rib chiqilgan ICC Modeli Xalqaro Savdo Shartnomasi tovarlarni xalqaro bozorlarda sotish uchun keng qo'llaniladigan shablondir. Namunaviy shartnoma xalqaro savdo operatsiyalari uchun standartlashtirilgan asosni taqdim etadi va yetkazib berish, to'lash va nizolarni hal qilish bo'yicha qoidalarni o'z ichiga oladi.

ICC, shuningdek, xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi korxonalar uchun nizolarni hal qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yetakchi provayder hisoblanadi. ICCning Xalqaro arbitraj sudi xalqaro tijorat nizolarini hal etish bo'yicha dunyodagi yetakchi institutlardan biri bo'lib, o'tgan yillar davomida ko'plab shov-shuvli ishlarda ishtirok etgan.

XMKning arbitraj xizmatlari xalqaro arbitraj ishini yuritish uchun keng qamrovli asosni ta'minlovchi ICC arbitraj qoidalariga asoslanadi. Xalqaro arbitraj qoidalari xalqaro arbitraj amaliyotidagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun muntazam ravishda yangilanadi va xalqaro tijorat nizolarini hal etishning eng samarali va samarali mexanizmlaridan biri sifatida keng e'tirof etiladi.

ICC arbitraj xizmatlarining asosiy afzalliklaridan biri ICC arbitraj qarorlarining ijro etilishi hisoblanadi. 1958-yilda qabul qilingan Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi konvensiya (Nyu-York Konvensiyasi) dunyoning 160 dan ortiq mamlakatlarida hakamlik sudlari qarorlarini tan olish va ijro etishni nazarda tutadi. Bu xalqaro nizolarni hal qilish uchun ICC arbitrajidan foydalanadigan korxonalar o'zlarining mukofotlari dunyoning aksariyat mamlakatlarida tan olinishi va ijro etilishiga ishonchlari komil bo'lishi mumkinligini anglatadi.

ICCning arbitraj xizmatlari faqat tijorat nizolari bilan cheklanmaydi. ICC, shuningdek, investitsiya nizolarini hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (ICSID) orqali investitsiya nizolarini hal qilish xizmatlarini taqdim etadi. ICSID 1965-yilda tashkil etilgan bo'lib, xorijiy investorlar va qabul qiluvchi davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun neytral forumni ta'minlaydi.

ICSIDning arbitraj xizmatlari dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan ICSID Konvensiyasiga asoslanadi. ICSID Konvensiyasi investitsion nizolarni hal qilish uchun keng qamrovli asosni taqdim etadi va yillar davomida ko'plab yuqori darajadagi nizolarni hal qilish uchun foydalanilgan.



Standartlar va nizolarni hal qilish bo'yicha ishidan tashqari, ICC xalqaro savdo va investitsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamlı targ'ibot va siyosat muhokamalarida ham ishtirok etadi. Misol uchun, ICC savdo to'siqlarini kamaytirish va proteksionistik choralarni bartaraf etish tarafdori bo'lib, savdo va investitsiyalarni qo'llab-quvvatlovchi siyosatni ilgari surish uchun hukumatlar va xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi.

ICC ko'plab muhim xalqaro shartnomalar va konvensiyalarda ham ishtirok etadi. Masalan, Jahon Savdo Tashkiloti (JST) va hozirgi xalqaro savdo tizimi uchun asos yaratgan Tariflar va Savdo bo'yicha Bosh kelishuv (GATT) bo'yicha muzokaralarda ICC asosiy rol o'ynadi. ICC JST bilan bog'liq munozaralar va muzokaralarda ishtirok etishda davom etmoqda va global savdo siyosatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) ko'p yillar davomida xalqaro tijorat arbitraji sohasida yetakchi bo'lib, turli mamlakatlar taraflari o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun neytral va samarali forumni ta'minlab kelmoqda. Quyida ICCning xalqaro tijorat arbitrajidagi tajribasiga o'nta misol keltiramiz:

1. BG Group plc Argentina Respublikasiga qarshi: Ushbu shov-shuvli ishda Xalqaro arbitraj sudi BG Groupni Argentina Respublikasi kompaniyaning tabiiy gaz taqsimlovchi kompaniyaga kiritgan sarmoyasini ekspropriatsiya qilganidan keyin 185 million dollardan ortiq zararni qoplashga qaror qildi.

2. Técnicas Reunidas, S.A. Sharqiy Afrika taraqqiyot bankiga qarshi: Bu holatda, Xalqaro arbitraj sudi Técnicas Reunidasni Sharqiy Afrika taraqqiyot banki neftni qayta ishlash zavodi qurilishi bo'yicha shartnomani buzganidan so'ng, 65 million dollardan ortiq zararni qoplashga qaror qildi. Uganda.

3. CME Czech Republic B.V. Chexiyaga qarshi: Bu holatda, ICC Xalqaro arbitraj sudi Chexiya tomonidan ikki tomonlama investitsiya shartnomasini buzganidan keyin CME Czech Republic B.V.ga 270 million dollardan ortiq zararni qoplashga qaror qildi.

4. Chevron korporatsiyasi Ekvador Respublikasiga qarshi: Bu ishda ICC Xalqaro arbitraj sudi Ekvador Respublikasi neftni qidirish va qazib olish bo'yicha shartnomani buzganligi sababli Chevronga 96 million dollardan ortiq zararni qoplash to'g'risida qaror chiqardi.

5. Sosedad General de Aguas de Barcelona, S.A. Argentinaga qarshi: Bu holatda, Xalqaro arbitraj sudi Sosedad General de Aguas de Barcelona, S.A.ga Argentina Respublikasi tomonidan konsessiya shartnomasini buzganidan keyin 100 million dollardan ortiq zararni qoplashga qaror qildi.

6. "Metal-Tech Ltd." O'zbekiston Respublikasiga qarshi: Bu ishda ICC Xalqaro arbitraj sudi "Metal-Tech Ltd" kompaniyasiga gaz yetkazib berish bo'yicha shartnomani O'zbekiston Respublikasi tomonidan buzganligi sababli 52 million dollardan ortiq zararni qoplash to'g'risida qaror chiqardi.

7. ConocoPhillips Petrozuata B.V. Venesuela Bolivar Respublikasiga qarshi: Bu ishda ICC Xalqaro Arbitraj sudi ConocoPhillips Petrozuata B.V.ni kompaniyaning neft



loyihasiga kiritgan sarmoyasini Venesuela Bolivar Respublikasi ekspropriatsiya qilganidan keyin 66 million dollardan ortiq zararni qoplashga qaror qildi.

8. ICC ishi No 16955/CA/ND: Bu holatda, ICC Xalqaro Arbitraj sudi Janubiy Amerikada elektr stansiyasini qurish bo'yicha shartnoma bekor qilinganidan keyin qurilish kompaniyasiga 55 million dollardan ortiq zararni qoplash to'g'risida qaror chiqardi.

9. ICC ishi No 15344/MS: Bu holatda, ICC Xalqaro arbitraj sudi Evropada tezyurar temir yo'l liniyasini qurish bo'yicha shartnoma bekor qilinganidan keyin qurilish kompaniyasiga 42 million dollardan ortiq zararni qoplash to'g'risida qaror chiqardi.

10. ICC ishi № 18169/JHN: Bu holatda, ICC Xalqaro arbitraj sudi Osiyoda to'g'on qurish bo'yicha shartnoma bekor qilinganidan keyin kompaniyaga 17 million dollardan ortiq zararni qoplash to'g'risida qaror chiqardi.

Bu misollar ICCning xalqaro tijorat arbitraji bo'yicha katta tajribasini va butun dunyo bo'ylab tomonlar uchun nizolarni samarali va samarali hal qilish xizmatlarini taqdim etish qobiliyatini namoyish etadi. O'zining tajribasi va adolat va betaraflikka sodiqligi tufayli ICC murakkab transchegaraviy nizolarni hal qilishda muhim rol o'ynashda davom etmoqda.

Xalqaro Savdo Palatasi butun dunyo bo'ylab millionlab kompaniyalar va uyushmalar manfaatlarini ifodalovchi jahon biznes hamjamiyatidagi muhim tashkilotdir. Advokatlik, standartlarni belgilash va nizolarni hal qilish faoliyati orqali ICC xalqaro savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish, xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi korxonalarining o'sishi va farovonligini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Global biznes muhiti rivojlanishda davom etar va tobora murakkablashib borar ekan, ICCning roli korxonalariga ushbu qiyinchiliklarni engish va global bozorda muvaffaqiyatga erishishda yordam berishda muhimroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro tovarlar oldi-sotdisi to'g'risidagi Konvensiyasi. 1980.

Investitsiya Nizolarini hal qilish Xalqaro Markazi to'g'risidagi Konvensiya. 1965.

ICC ning Xalqaro Savdo va Moliya haqidagi Yo'riqnomasi. 2021.

ICC Na'munaviy Xalqaro Savdo Shartnomasi. 2020.

Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Konvensiya (Nyu-York Konvensiyasi). 1958.



O'ZBEKISTON XALQARO TIJORAT ARBITRAJIGA QANCHALIK TAYYOR?

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853132>

Rayimov Akbarali Ahmadjon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston qonunchiligida xalqaro arbitraj va hakamlik sudining o'rni va ahamiyati, shuningdek ushbu sudlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy holatiga moslashuvi va samaradorligi izchil tadqiq qilinadi.

Аннотация: В данной статье последовательно исследуются роль и значение международного арбитража и третейского суда в законодательстве Узбекистана, а также адаптация и эффективность этих судов к социально-экономическому положению страны.

Astract: In this article, the role and importance of the international commercial and national arbitration, as well as their adaptation into socio-economic situation and productivity of them are to be explored in detail.

Kalit so'zlar: Nizolarni muqobil hal qilish, investitsiya, hakamlik sudi, ijro etish, protsessual.

Ключевые слова: Альтернативное разрешение споров, инвестиции, арбитраж, правоприменение, процессуальное.

Keywords: Alternative Dispute Resolution, investment, arbitration court, enforcement, procedural.

Tan olish kerakki, bugungi kunda ADR (muqobil nizolarni hal qilish) tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyati hakamlik muhokamasini amalga oshirish jarayonini tartibga solish uchun amaldagi qoidalarni allaqachon o'rnatgan. Darhaqiqat, tijorat shartnomalari bilan bog'liq yoki ular bilan bog'liq bo'lgan tijorat nizolarining 90% dan ortig'i iqtisodiy va moliyaviy jihatdan eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblangan Singapurdagi xalqaro tijorat arbitrajari (ICA) tomonidan hal qilinadi. Fransiyaga kelsak, tijorat arbitrajining huquqiy asoslari alohida e'lon qilingan - uning ikki turi bo'yicha: ichki (Fuqarolik protsessual kodeksining 1442-1503-moddalari) va xalqaro (1504-1527-moddalar) arbitraj yuzasidan maxsus normalar belgilangan. Ko'rinib turibdiki, arbitraj ham mamlakat iqtisodiyoti uchun, ham tomonlar foydasiga katta rol o'ynaydi, bu haqda quyida muhokama qilinadi. Umman olib qaraganda, O'zbekiston arbitrajini qabul qilish va kiritish uchun qonuniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan yetarlicha tayyormi?

Arbitraj muqobil (milliy sudlarga) va turli xil huquqiy munosabatlardan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni hal qilishning keng tarqalgan vositasidir, masalan, tijoriy va investitsion nizolar, shartnoma majburiyatlari va boshqalar aynan arbitrajlar yordamida kengroq hal qilinadigan muammolar sanaladi. Asosan, u ichki bo'lgan 2 turga bo'linadi: mahalliy arbitrajda taraflar hakamlik (mahalliy arbitraj) sudyasi



joylashgan mamlakat fuqarolari bo'lishi kerak va faqat quyida muhokama qilingan xalqaro nizolarni hal qiladigan xalqaro arbitrajlar. Mahalliy arbitrajlardan ko'ra, xalqaro tijorat arbitrajleri xalqaro jihatga ega bo'lgan tijorat nizolari bo'yicha keskin ustunlikka erishmoqda. Xalqaro tijorat nizolarini hal qiluvchi asosiy komponentlar UNCITRAL Model qonunining 1-moddasida (1985) nazarda tutilgan, biroq bu tomonlarning boshqa huquqni tanlash huquqini yo'qqa chiqarmaydi, cheklamaydi.

Qonunchiligimizga muvofiq ikkita alohida qonun (biri ichki, ikkinchisi xalqaro tijorat arbitraji uchun) tasdiqlangan. 2007-yilda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi qonunida uning asosiy prinsiplari va vazifalari, shuningdek, qaysi turdagi nizolarni hal etish mumkinligi va uning yurisdiksiyasi belgilab berilgan. Jumladan, mazkur qonunning 9-moddasida shunday deyilgan: "Hakamlik sudlari fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlari o'rtasida kelib chiqadigan xo'jalik nizolarini hal qiladi". Shu bilan birga, qonun ma'muriy, oilaviy va mehnat huquqiy munosabatlari kabi da'volarning qanday turlari berilishi mumkin emasligi masalalarini ham o'z ichiga qamrab olgan. Bundan tashqari, qonunning 10-moddasiga ko'ra xo'jalik yuritish amaliyoti va zarurat tug'ilganda qonunlarning o'xshashligi nazarda tutilgan holda faqat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari qo'llanilishi kerak. Ajablanarlisi shundaki, bu arbitrajlar hech qachon boshqa qonun hujjatlari yoki xalqaro qoidalar to'plamini qo'llash vakolatidan foydalana olmaydi, chunki bu ularni haqiqiy emas deb topish imkoniyatini yaratadi. Shunga qaramay, sudyalari hal qiluv qarorining bekor qilinishi ehtimolini kamaytirish uchun deyarli har doim xorijiy me'yorlardan foydalanishga yo'l qo'ymaydilar. Ammo, afsuski, jamoatchilikning bexabarligi va ularga nisbatan ishonchsiz munosabat tufayli hakamlik sudlari haligacha muvaffaqiyatli bo'la olmayapti. Chunki hakamlik sudlarining qarorlari aksar vaziyatlarda qonun hujjatlariga mos kelmaydi, bu sudyalarning qonunlarni to'g'ri hamda aniq qo'llash bilan bog'liq malakasi yetarli darajada emasligidan dalolat. Dalil sifatida, 2021-yilda shtat sudlari tomonidan 200 dan ortiq hakamlik sudlari bekor qilingan, bu anchagina yomon holat sifatida bahonalandi.

Xalqaro tijorat arbitrajiga kelsak, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil avgust oyida kuchga kiradigan "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi qonuni mavjud. Bu UNCITRAL Model qonunining deyarli o'zgartirilmagan, ayrim nyanslari bilan bevosita tatbiq etilishining namunasi, deb aytish muqarrar. Qonunning 4-moddasi (UNCITRAL Model qonunining 1-moddasi bilan bir xil) ICA (Xalqaro tijorat arbitraji) yurisdiksiyaga ega bo'lgan huquqiy munosabatlarni aks ettiradi. Xususan, ICA nizolarni arbitraj qilish qobiliyatiga ega, agar:

1) arbitraj bitimi taraflarining tijorat korxonalarini uni tuzish vaqtida turli mamlakatlarda joylashgan bo'lsa; yoki

2) agar quyidagi joylardan biri tomonlarning tijorat korxonalarini joylashgan mamlakatdan tashqarida joylashgan bo'lsa:



a) hakamlik muhokamasi joyi, agar u hakamlik kelishuvida yoki unga muvofiq ko'rsatilgan bo'lsa;

b) tijorat munosabatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning katta qismi bajarilishi kerak bo'lgan har qanday joy yoki nizo predmeti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan joy; yoki

3) agar taraflar hakamlik bitimi predmeti bir necha davlatga tegishli ekanligi to'g'risida bevosita kelishib olgan bo'lsa, arbitraj xalqaro hisoblanadi.

Qizig'i shundaki, data.egov.uz ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 1100 dan ortiq mahalliy hakamlik sudlari mavjud bo'lhan holatda xalqaro arbitrajning O'zbekistondagi umumiy miqdori 1 ga teng. Toshkent xalqaro arbitraj markazi (TIAK) butun mamlakatdagi yagona ICA hisoblanadi. Hattoki shu yagona ICA ham O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzurida Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAK) tashkil etish to'g'risida"gi farmoni (05.11.2018) asosida tashkil etilgan edi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida hamda davlatning hech qanday tashabbuslarisiz hali xalqaro tijorat arbitraji O'zbekistonda tashkil etilganicha yo'q. TIAC hozirgacha 20 dan ortiq xalqaro tijorat nizolarini hal qildi, bu butun mamlakat bo'ylab hukmron monopol arbitraj uchun juda past natija. TIAC tarafdorlari, asosan, taraqqiyotga erishish va o'zini yetarli darajada namoyish qilish uchun muayyan vaqt talab qilinishi haqidagi fikrni ilgari surishadi, ammo eng asosiy muammolar bu fikrni qo'llab-quvvatlamaydi.

Avvalo, O'zbekistonda 1996-yildan beri Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Konvensiyaning (Nyu-York, 1958 yil) a'zosi bo'lgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ijro etilishining shaffofligiga erishish tom ma'noda murakkab jarayonligicha qolmoqda. Davlat arbitraj qarorlarini majburiy deb tan olishi va qaror qabul qilingan hududning ish tartibi qoidalariga muvofiq ularni ijro etilishi lozim. O'z navbatida, mazkur Konvensiyaning 5-moddasida muayyan qarorning ijro etilishini rad etish uchun beshta umumiy asos beradigan ba'zi bandlar nazarda tutilgan. Ushbu qoidalar umumiy xarakterga ega va milliy qonunlarga ularni o'z qonunchiligiga moslab talqin qilish, kengaytirish va aniqlashtirish huquqini beradi. Shu asnod, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Protsessual Kodeksi 256-moddasida ham xuddi shunday qoidalar belgilab o'tilgan. Biroq, muammo milliy sudlarning arbitraj qarorlari bo'yicha ishni qayta ko'rib chiqishidir. Konvensiya ham, ichki qonunlar ham milliy sudlarga ishni moddiy huquq asosida qayta ko'rib chiqish vakolatini bermaydi, biroq mahalliy sudyalarda bu normani vaqti-vaqti bilan buzishadi. Ichki sudlar faqat protsessual qoidalarga muvofiq ishlarni qayta ko'rib chiqishlari shart, bu hali ham ICAlar uchun asosiy tashvish aralash qo'rquvligicha qolmoqda. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun sudyalarga xalqaro konvensiyalarni va ularning keng doirada qo'llanilishini o'rgatish lozim, chunki sudyalarning aksariyati xalqaro huquqni qo'llash bo'yicha yetarlicha tajribaga ega emaslar.

Bundan tashqari, sudyalarda qonunlarni noto'g'ri qo'llaydigan ikkinchi nuqta alohidalik prezumpsiyasi borasidadir. Nyu-York Konvensiyasining 2-moddasiga



muvofig, arbitraj kelishuvi har qanday asosiy shartnomadan butunlay mustaqildir, kamdan-kam hollarda bo'ladigan ba'zi shartlar bundan mustasno. Amerika Qo'shma Shtatlarining ushbu normani qo'llash borasidagi tajribasi anchagina boy va umuman olganda, xalqaro arbitraj kelishuvlariga nisbatan eng demokratik va adolatli munosabatni ko'rsatadi. Xususan, Prima Paint va Buckeye kabi alohidalik doktrinasini bilan bog'liq bir necha ishlar mavjud bo'lib, ular orqali AQSh qonunchiligi yana ikkita katta sud pretsedentlari bilan boyitilgan. Yuqoridagi holatlar bo'yicha advokatlar arbitraj bitimini butun tijorat shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risida vakolatli sudga berishga urinishgan. Shunga qaramay, milliy sud asosiy shartnomada nazarda tutilgan arbitraj bandini haqiqiy emas deb hisoblashni rad etdi.

Misol tariqasida, agar shartnoma ishtirokchisi nizolarni hal qilish shartlaridan boshqa shartlarga e'tiroz bildiruvchi da'vo arizasi bilan murojaat qilsa, AQSh milliy sudlari ishni ko'rib chiqmaydi, chunki e'tiroz arbitraj bandining o'ziga qaratilmagan. Har qanday ishni faqat hakamlik sudi birinchi instantsiya sifatida ko'rib chiqishi kerak, deb hisoblab, shtat sudlari arbitraj bandi to'xtamas ekan, ishni arbitraj bandi bo'yicha kelishilgan hakamlik sudiga yuboradi. Agar e'tiroz hakamlik sudining qarorini qonuniy kuchsiz deb topishga qaratilgan bo'lsa, hakamlik sudi oshkoralik tamoyili asosida bu haqda qaror qabul qila olmaydi, agar bu bundan ham yomonroq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lmasa. Chunki arbitraj hech qachon o'ziga kelib tushgan ishni ko'rib chiqishni rad etmaydi va ular arbitraj qoidasining asosligidan foydalanadilar, shuning uchun faqat milliy sudlar arbitraj moddasi bo'yicha e'tirozlarni ko'rib chiqishlari kerak.

Biroq, ba'zi bir aniq asoslar bo'yicha kelishuv to'g'ridan-to'g'ri milliy sudlarga kiritiladi, masalan, arbitrajning vakolatiga kirmaydigan shartnoma tuzish yoki mavjudligi. Boshqa tomondan, arbitraj asoslilik yoki qonuniylik bilan bog'liq nizolarni hal qilishi mumkin. Haqiqiylik va mavjudlik asoslari bir-biriga nisbatan o'xshashdir, shuning uchun u xo'jalik arbitrajlari va milliy sudlarning vakolatlarini aniq va adolatli taqsimlash nuqtai nazaridan ma'qullashning asosiy og'riqli nuqtasidir. Tabiiyki, yuqorida aytib o'tilgan ma'lumotlardan savol tug'ilishi mumkin: Ba'zi muammolar asosiy shartnomaning boshqa qismlari bilan bog'liq bo'lgan, qolganlari esa hakamlik sudida bo'lgan ishni qanday hal qilish kerak? Javobni bilmagan shaxs, universallik yuzaga kelganligi sababli, milliy sudlar ishni ko'rib chiqishi kerak, deb da'vo qilishi mumkin, ammo bu o'rinli emas. AQSh sudlari bu masalani keng sharhlaydi: agar yuqoridagi holat ro'y bersa, odatda, hakamlik sudlari uni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lishi kerak, chunki arbitrajning o'zi ustidan e'tiroz bildirish maqsadi tarafda yo'q, uning e'tirozi umumiy shartnomaga ham qisman yo'naltirilgan. Ushbu muddatda niyat muhim ahamiyatga ega va agar da'vo faqatgina arbitraj izohi bandida bo'lmasa, bu masala hal qilish uchun arbitraj sudiga tegishli.

Bundan tashqari, ICA tashkil etish uchun zarur bo'lgan maxsus protsessual normalar umuman mavjud emas. Bu omil ham vaziyatni yanada yomonlashtiradi. Singapur, Fransiya, AQSH kabi ko'plab davlatlar xalqaro arbitraj sudlarini tashkil etish



bo'yicha tegishli qoidalarni belgilab qo'ygan. Ehtimol, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ushbu masala bo'yicha tegishli qoidalarni belgilashga mas'ul bo'lishi kerak, chunki bu masala qonun darajasida belgilanishi zarur bo'lgan munosabat emas.

Avvalo, moliyaviy munosabatlarning tubdan rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Chunki O'zbekistonda qonun ustuvorligi (ayniqsa, fuqarolik huquqi xususiy mulk huquqi sifatida) yetarli darajada ta'minlanmagani bois, xorijiy investorlar mamlakatga beparvolarcha sarmoya kiritmasligi tabiiy. Bu, o'z navbatida, xalqaro savdo yoki tijorat nizolari kelib chiqadigan xalqaro tijorat munosabatlarning sezilarli darajada qisqarishining asosiy sababidir. Shuning uchun ham qonun ustuvorligi va qat'iylikni ta'minlamay turib, ICA bo'yicha aniq va keng qamrovli qoidalarni belgilash va qarorlarning ijro etilishini soddalashtirish O'zbekiston uchun yuksalishdan ko'ra orqaga ketishga olib kelishi mumkin. Demak, hukumat qonun bo'yicha tenglik va shaxsiy daxlsizlikni nazorat qilish uchun zarur choralarni ko'rishi kerak, shundan so'ng ular to'siq bo'ladigan va noaniq me'yorlardan voz kechish kabi ikkilamchi muammolar haqida tashvishlanishlari mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro tijorat arbitrajini jalb qilish bo'yicha ko'plab muammolardan qat'i nazar, asosiy masalalar allaqachon milliy darajada hal qilinmoqda. O'zbekistonda ICAning keyingi rivojlanishi bir tomondan ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi, boshqa tomondan davlatning qonun ustuvorligini qanday ta'minlay olishiga chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xorijiy arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish to'g'risidagi Nyu-York Konvensiyasi (1958).
2. UNCITRAL Namunaviy Qonuni (1985).
3. O'zbekiston Respublikasi "Hamkamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonuni.
5. www.data.egov.uz



ILMIY TERMINLARNI TARJIMA QILISH SOHASI, USULLARI VA MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853139>

Tursunova Saodatxon Baxtiyor qizi

JDPU. Ingliz tili va adabiyoti fakulteti

2-kurs magistranti

Saitqulova Iroda Baxtiyor qizi

JDPU. Rus tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ilmiy terminlarning o'rganilganlik darajasi va ahamiyati to'g'risida bo'lib, ingliz ilmiy terminlarining o'zbek tiliga tarjima qilish masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Annotation. This article discusses the importance and the significance of scientific terms, provides information on the problem of translating English scientific terms into Uzbek.

Kalit so'zlar: ilmiy terminlar, transkripsiya, transliteratsiya, kalka, generalizatsiya, eksplikatsiya, kompensatsiya

Key words: Scientific terms, transcription, transliteration, word for word translation, generalization, explication, compensation

Insoniyat ilmiy tafakkurining hosilasi bo'lib, xususan, asosan soha mutaxassislariga ayon bo'lgan ilmiy terminlar faqat tarjima orqali o'zga xalqlar tiliga, ongiga, shuuriga yetib borishi mumkin. Bunday jarayonda asliyat terminlari bilan tarjima qilingan til sohibini bog'laydigan yagona vosita bu tarjimondir. Xuddi ma'lum bir matn kabi termin ham tarjimasi uning qanday izohlanganligi bilan asoslanadi. Bir tarafdin, termin intralingvistik tizimning bir obykti sifatida o'sha tilning leksik, grammatik, fonetik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Boshqa tarafdin esa, ilmiy-ma'naviy madaniyat obykti sifatida ekstralingvistik voqelikni ham o'zida aks ettirishi mumkin, chunki termin semiotik tizimning muhim tarkibiy qismidir.

Tarjima, aslida, asliyatni tarjima tili vositalari bilan ifodalab berish hisoblanadi. Oddiy matnning ham, ilmiy asarning ham ma'nosi nafaqat so'zlarning lug'aviy va ma'naviy ma'nosiga, balki ularning sitilistik va sintaktik xususiyatlariga ya'ni ularning birikishiga ham bog'liq. Asliyat ma'no mundarijasini muqobil ravishda tarjima qilish uchun, dastavval, uning tarkibiy qismi bo'lgan so'z, so'z birikmasi, gap va boshqalar haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lish lozim. Ilmiy asarni tarjima qilish uchun uning tarkibiy qismlarini tarjima tili qonun-qoidalariga mutlaq rioya qilgan holda to'g'ri tarjima qilish kerak.

Bugungi globallashgan zamonda, madaniyatlar va davlatlararo kasbiy muloqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro munosabatlarning tez suratda rivojlanayotganligini siyosat, iqtisod, fan, texnika va chet elliklar bilan hamkorlik olib



borishda yaqqol sezishimiz mumkin. Ilm-fanga doir aloqalar ham shular jumlasidan. Dunyo ilm-fan bilan shug'ullanadigan olimlarning orasida ilmiy hamkorliklarning ko'payib borayotgani ilmiy terminlarni mukammal tushunadigan, bir tildan ikkinchi tilga hech qanday qiyinchiliksiz tarjima qiladigan yetuk mutaxassislarini talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy terminlarning leksik, kognitiv va tarjimaviy xususiyatlarini o'rganish alohida o'rin tutadi. Chet tilidagi ilmiy adabiyotni o'qish jarayonida biz, eng avval, leksik-semantik jihatlarini chuqur o'zlashtirishga harakat qilamiz, sababi, ilmiy matnlarda terminlar notermin so'zlarga qaraganda ko'p uchraydi. Ammo ilmiy terminlarni oddiy so'zlardan farqlashda ba'zi chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin.

Terminga berilgan quyidagicha ta'rif ham shuning isboti: "Ma'lum bir fan yoki kasb-hunar doirasidagi muayyan bir ma'noni ifodalash uchun foydalaniladigan so'zlar terminlar deb yuritiladi. Terminlar qo'llanilish sohasiga ko'ra ilmiy hamda kasbiy terminlarga bo'linadi. Masalan, landshaft, gidrosfera, azimut – geografiya faniga oid terminlar; yelim, charm, mum – etikdo'zlik kasbiga doir terminlar." Yana bir ta'rifda ilmiy va kasbiy terminlarga berilgan misollar ham o'zini to'liq oqlay olmaydi. Sababi, terminlarga ham muayyan kasb-hunar ham ma'lum bir soha vakillari nutqida qo'llaniladigan maxsus so'zlardir. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, terminlar va kasbiy leksika orasida quyidagi farqlar bor:

- Termin ham kasb-hunarga oid leksika ham nominativ vazifa bajaradi, ya'ni inson faoliyatining biror bir sohasiga oid voqelikni nomlaydi;

- Terminga ekspressivlik xos emas, biroq kasb-hunar leksikasi o'ziga xos ekspressiv bo'yoqqa ega:

- Termin mutlaqo rasmiy harakterga ega, kasbiy leksika esa aksincha norasmiy tarzda bo'ladi.

Umuman, so'z, termin, nomenklatura, kasb-hunar leksikasi hamda ularning munosabati shu darajada chalkashki, ularga aniqlik kiritish uchun ko'plap ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish lozim. V.G. Gakning "Lingvistik belgilarning assimetriyasi va terminologiyani ayrim umumiy muammolari" nomli maqolasida termin lug'aviy til birligi sifatida o'rganilishi lozimligi hamda uning til leksik birligidagi utgan o'rni haqida asosli mulohazalar berilgan. Olim ba'zi ilmiy manbalarda terminlarni lug'aviy til birligi sifatida qaralmayotganligiga e'tiroz bildirib, "termin bu funktsiya, leksik birlik nutqda qo'llanilishining bir ko'rinishidir" degan fikrni ilgari suradi. V. G. Gakning fikriga ko'ra, quyidagi ikkita xususiyatni o'zida mujassam etgan har qanday so'z lug'aviy birlik bo'la oladi: bular, nimanidir ifodalab kelishi va tushunchalar qatorida ma'lum bir o'rinni egallashi mumkinligidir.

Maqolada, shuningdek, termin va notermin so'zlar ifoda xususiyatiga ko'ra tahlil qilinadi va aniqlanadi: bir planli lug'aviy birliklar, ular termin funksiyasida qo'llanilmaydi; termin sifatida qo'llaniladigan bir planli lug'aviy birliklar; ham termin ham notermin funksiyasini bajaruvchi ikki planli lug'aviy birliklar. Olimning yozishicha, biror bir terminologik soha taraqqiyot jarayonini boshdan kechirar ekan,



unda terminologiyadagi assimetriya(nomutanosiblik)ni chegaralash yoki to'xtatish judayam qiyin masala.

Boshqacha qilib aytganda, muayyan tushunchani ifodalaydigan har qanday mustaqil yoki yordamchi so'z turkumiga oid so'z termin bo'la olishi mumkin. Matnda qo'llanilgan so'z biror narsa yoki hodisani termin esa muayyan tushunchani ifodalab keladi. So'z va termin orasidagi chegaralar aniq emasligi, terminologiyadagi ba'zi "o'zboshimchalik"lar mazkur fan taraqqiyoti yo'llarining ziddiyatli xarakteri bilan belgilanadi. Chunki XIX asrning ikkinchi yarmidan buyon, terminologiya fani quyidagi besh yo'nalish bo'yicha rivojlanib kelmoqda:

1. Ba'zi tadqiqotchilarning spontan(qo'qqisdan, birdan) termi ijodkorligi.
2. Eskirgan terminlarni tartibga solish.
3. Yangi terminlarning paydo bo'lishi.
4. Abbreviatur terminlardan foydalanish.
5. O'zlashmalar.

Ma'lum til doirasidagi bir tushunchaning turlicha nomlanishi (avtomobil - avtomashina) terminologiyada sinonimlikning paydo bo'lishiga va uning tartibsiz ravishda qo'llanilishiga olib keldi. Ilmiy terminlarning tarjimalarini kuzatish ularning, asosan, tarjima tilidagi muqobil variantlari bilan qilinayotganligini ko'rsatadi. Buning uchun o'girilayotgan tilda shunday muqobillar bo'lishi kerak, agar aslyat tilida shunday ekvivalentlar mavjud bo'lmasa, bunday holatda tarjima qilishning boshqa usullariga murojaat qilinadi.

Sohaga oid terminologik lug'atlar yaratish va terminlarni bir tildan boshqasiga tarjima qilish masalasi hozirgi tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki, hozirgi globallashtgan zamonda ilmiy-texnik rivojlanishni turli mamlakatlarda turlicha tillarda muloqot qiluvchi mutaxassislar orasida amalga oshadigan axborotlar almashuviz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yuzaga kelgan bunday holat dunyo olimlaridan sayyoramizda paydo bo'layotgan ilmiy-texnik yangilik va jarayonlarni har kuni kuzatib borishni talab qiladi. Bu jarayonda esa ilmiy-texnikaviy tarjima muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, termin kasbiy muloqotning eng muhim vositasi ekanligini ham unutmasligimiz lozim. Zero, termini ishlatish va tarjima qilishdagi har qanday shoshma-shosharlik, noaniqlik va noizchilik olimlarning bir-birini tushunishga bo'lgan harakatlarini qiyinlashtiradi. Shuningdek, terminlarni noto'g'ri tarjima qilish jiddiy oqibatlariga, ilmiy va texnologik jarayonlarning buzilishiga, muhim ahamiyatga ega bo'lgan ichki hamda tashqi loyihalarning amalga oshmay qolishiga olib kelishi mumkin.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hech bir tildagi terminologik leksikaning ulushi 15-20% dan oshmas ekan. Qolgan ulushini esa umummilliy, umumtexnik, umumsohaviy va ko'p qo'llaniladigan terminlar tashkil qiladi. Bu holat terminlarni tarjima qilish jarayonini birmuncha osonlashtiradi, ya'ni aslyat tilidagi terminning tarjima qilinayotgan til muqobilaari bo'ladi. Masalan, poem - she'r, rhyme - qofiya, meter - vazn.



Asosiy sintaktik tuzilmani til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish transformatsiya orqali amalga oshiriladi. Tillararo transformatsiyalar uch turdan iborat: Grammatik transformatsiyalar, leksik transformatsiyalar hamda leksigrammatik (sintaktik) transformatsiyalar.

Leksik transformatsiyalar quyidagi tarjimaviy usullarni o'z ichiga oladi: transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash va leksik-semantik o'zgartirishlar (generalizatsiyalash, konkretlashtirish).

Transkripsiya (lotincha transcriptio - ko'chirib yozish) - bu boshqa til so'zi tarkibidagi tovushni ona tili alifbosida yozish

Transliteratsiya (lotincha trans - orqali, litera - harf) - bu ma'lum bir til alifbosiga oid matnni boshqa bir til alifbosidan foydalangan holda, yozuvda aniq aks ettirish. Bu holatda o'z tilida talaffuz qilinmaydigan yoki o'zicha talaffuz qilinadigan tovushning harfi asil holicha saqlanib qoladi

Kalkalash bu boshqa tilning leksik, frazeologik birliklarining modellari asosida o'z til imkoniyatlaridan foydalanib, yangi so'z yoki frazeologik birliklar hosil qilish.

Kalka (fransuzcha calque - kopyiya, taqlid) - o'zga til materialidan qismma-qism nusxa olish yo'li bilan hosil qilingan so'z yoki boshqa til birligi. Kalkalar semantik, leksik, frazeologik bo'lishi mumkin.

Leksik kalka deb boshqa til lug'aviy birligidan qismma-qism nusxa olish orqali so'z hosil qilishga aytiladi.

Frazeologik kalka - boshqa til frazeologik birligidan qismma-qism nusxa ko'chirish orqali hosil qilingan frazeologik birlik.

Semantik kalka - bu boshqa tilga doir so'z bildiradigan ma'noni o'zlashtirish natijasida o'z tildagi so'zga shu ma'noning berilishi.

Generalizatsiya - tarjima qilinayotgan birlikning ma'nosi tarjima jarayonida kengroq berilishi. Tarjimada ma'lum bir ma'noga mos keladigan ma'noni topish.

Grammatik transformatsiyalar - bu tarjimada tarjima qilinayotgan tilning normalariga mos tushgan holda gapning tuzilishini o'zgartirish. Grammatik transformatsiyalarga so'zma-so'z tarjima, gaplarning bo'linishi, gaplarning qo'shilishi, grammatik o'zgartirishlar kabi tarjima usullari kiradi.

Additsiya - sodda gap tarkibini uyushiq bo'laklari orqali kengaytirib berilishi.

Adyunksiya - sintaktik birlik tarkibiga shu tarkib mazmuniga muvofiq keladigan yangi so'zning kiritilishi.

Permutatsiya - gap bo'laklarining bir xil sintaktik tuzilishda o'rin almashtirishi.

Substitutsiya - sintaktik tuzilma tarkibidagi bir yoki bir nechta so'zni boshqasi bilan almashtirish.

Eksplikatsiya (izohli tarjima) - bu ma'noni tasvirlash va izohlash yo'li bilan ochib berish.

Kompensatsiya - bu asliyatdan tarjima qilib bo'lmaydigan birlikni asliyatdagi g'oyaviy xarakterga mos ravishda boshqasi bilan almashtirishdir.



Xalqaro xarakterdagi terminlar ilmiy-texnik matnlar tarjimasida qo'llanadigan usullar yordamida o'giriladi. Manbalarda berilishicha bu usullar quyidagilardir: transkripsiya, transliteratsiya, so'zma-so'z tarjima qilish, izohlab bayon qilish. Terminlarning qiyosiy tipologik tahliliga bag'ishlangan izlanishlar doirasini kengaytirish, ya'ni, bunda faqat ikki yoki uch til emas, balki turli tizimlarga mansub bo'lgan tillar terminlarini ham atroflicha o'rganish eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy terminlar va terminologik tizimlar tarjimasini bilan shug'ullanish esa bugungi globallashtirish davrida intellektual ko'priklar vazifasini bajarishi mumkinligini yodda tutishimiz lozim. Bu jarayonda terminologik lug'atlarga va shu soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Gak.V.G, Lvin.Y.I. Kurs perevoda. Fransuzskiy yazik. M., «Mejdunarodnaya otnosheniya», 1970, 103s.
2. Maxmudov N.M. va boshqalar. Zamonaviy o'zbek tili. T., 2020, 89.
3. Fedorov. A. V. Vvedeniye v teoriyu perevoda. M., Literaturniy na inostrannix yazikax, 1958. 67-70.
4. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии / Вопросы теории и методики. – М.:1961. – стр. 29.
5. Мукаррамов М. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг илмий стили. –Тошкент: Фан, 1984. –Б.55 – 56.
6. [Www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
7. [Www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
8. [Www.google.uz](http://www.google.uz)



XALQARO ARBITRAJLARDA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNING DAXLSIZLIGI MASALALARINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853418>

Ismoilov Mavludbek Muqimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Email ID: ismoilovmavludbek@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro tijorat arbitrajida shaxsga doir bo'lgan ma'lumotlarning daxlsizligi, ushbu huquq buzilishi oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar izchil tahlil qilingan. Ushbu maqolaning dolzarbligi butun dunyoda axborot texnologiyasi rivojlanishi va globallasuvi bilan vujudga kelgan axborot xavfsizligi kuchayishi hamda turli xil yuqumli kasalliklar natijasida xalqaro arbitrajlarda onlayn sudlar tashkil etilishi bilan bog'liqdir. Ushbu ma'lumotlarni aniqligini oshirish maqsadida turli xil statistikalar va qonun hujjatlaridan keng foydalanildi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, qilgan tadqiqot natijalaridan, gazeta va jurnallardan, xorij mamlakatlari qonun hujjatlaridan maqsadli havolalar berildi. Shuningdek jadvallar bilan kreativ yondashish maqola mazmun mohiyatini yanada teranroq ochib berishga yordam bergan.

Kalit so'zlar: shaxsga doir ma'lumot, shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi, arbitraj, maxfiylik, xalqaro tijorat arbitraj sudi, reglament

KIRISH

XXI asrda milliy sudlarga qaraganda taraflar arbitrajlar sudlarida muammolarini hal qilishni tanlashmoqda. Buni asosiy sabablaridan biri sifatida arbitraj sudlari milliy sudlariga qaraganda maxfiylik siyosati borligi nazarda tutiladi. Lekin, mazkur norma borligiga qaramasdan arbitraj sudlarida maxfiylik siyosatini to'liq emasligi hamda uni ishlashida muammolar borligi kabi bir qancha kamchiliklarga ega. Bundan tashqari shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi masalasi ham muammo bo'lib qolmoqda. Bu Xalqaro tijorat arbitrajlarida maxfiylik siyosatini dolzarbligini oshiradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi xalqaro arbitrajlarda shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda vujudga kelayotgan ba'zi muammolarni aniqlash va ularni oldini olish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarni ishlab chiqish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun muallif ilmiy tadqiqotning statistik tahlil, sotsiologik tahlil, sintez, qiyosiy kabi bir qancha usullarini qo'llagan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA



Garchi maxfiylik arbitrajning afzalliklaridan biri sifatida baholansa-da, ba'zi arbitraj qoidalari maxfiylikka oid majburiyatlarni faqatgina boshqaruvchilar va arbitrlarga yuklaydi ammo taraflarga emas. Bundan tashqari, agarda guvohlar hamda ekspertlar maxfiylik haqidagi alohida bitimni imzolamasalar, ular ham maxfiylik borasida hech qanday majburiyatga ega emas. Taraflar maxfiylik qoidalari to'g'risida kelishib olishgan taqdirda ham, sud muhokamasi bo'lsa, ushbu qoidalar bekor qilinishi mumkin.

Taraflar uchun arbitraj qarorini maxfiy saqlash qanchalik muhim degan savol tug'iladi, Qaror e'lon qilinganidan keyin bir necha soat ichida Internetda paydo bo'lgan holatlar ham kuzatilgan. Agar so'z katta miqdordagi pullar haqida borsa, bunday oshkor qilish, natijaga qarab, taraflar aksiyalari narxlari ko'tarilishi yoki pasayib ketishiga olib kelishi mumkin. Agar maxfiylik manfaatdor taraflar uchun muhim bo'lsa, buni ta'minlashga yordam beradigan turli usullar mavjud [1]. Biroq, 2017-yil holatiga ko'ra, HKIAC hech qanday arbitraj qarorini e'lon qilmagan [2].

O'zbek olimlarini ushbu mavzu yuzasidan qilgan tadqiqot va fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, **S. Gulyamov** hamda **I. Rustambekov**larning yozishicha, Kiber-huquqning huquqiy tartibga solish predmetiga kibermakonda yuzaga keladigan va turli huquq sohalarining normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar majmui yoki yigindisi kirishini hamda buning natijasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kerakligini [3], **M. Bahromova** Elektron arbitrajni huquqiy tartibga solish tartibi va uning qarorlarini tan olish va ijro etilishi bo'yicha muammolarni [4], **A. Akramov** hamda **A. Nurmaammatov**lar xalqaro arbitrajda maxfiylik va oshkoralik o'rtasidagi qarama qarshiliklarni o'zaro o'rganib chiqqan [5].

Ushbu olimlar asosan xalqaro arbitrajlarda maxfiylik siyosatiga to'xtalgan bo'lib, arbitrajlarda shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligiga to'xtalib o'tilmagan. Maxfiylik masalasi keng yoritilgan bo'lishiga qaramay, ushbu masalalar keng qamrovda bo'lib, aynan shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari himoyasi yoritilmagan.

Xorij olimlarining ushbu masaladagi fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, **Gari Born** "xalqaro arbitrajda maxfiy ma'lumotlarni himoya qilish tomonlarni arbitrajni tanlashga undash uchun muhim ahamiyatga ega" va maxfiylik majburiyati muvaffaqiyatli arbitraj jarayonining muhim jihati ekanligini [6], **K. Ajibo** maxfiylikni saqlash tomonlarning milliy sudlarda da'vo ko'rishdan ko'ra arbitrajni tanlashining asosiy sabablaridan biri ekanligini [7], **Y.N. Mixaylovna** xalqaro tijorat arbitrajining eng muhim afzalliklaridan biri - jarayonning maxfiyligi va maxfiyligini tartibga solishdagi bunday bo'shliq arbitrajning davlat odil sudloviga muqobil maqomini sezilarli darajada buzishini [8], **V.V. Bakumenko** xalqaro arbitraj sudlarida dalillarni to'plash hamda unda maxfiylik siyosatini tekshirish kerakligini [9] ta'kidlab o'tishgan.

Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar orqali himoya qilinadi. Shu jumladan, "Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi"ning 3-moddasida shaxsiy daxlsizlik huquqi, 12-moddasida belgilangan shaxs nomusi va



sha'ni daxlsizligi [10], shuningdek, **“Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi xalqaro Pakt** (1966 yil 19 dekabr) ning 17-moddasi 1-qismida [11 nazarda tutilgan.

Yuqoridagi normalar har qanday holatda shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsiz ekanligini ta'kidlab o'tadi. Xalqaro tijorat arbitrajlarida esa boshqacha bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun biz quyidagi dunyoga mashhur bo'lgan xalqaro arbitrajlarda maxfiylik siyosati qanday ekanligiga to'xtalib o'tsak,

| Xalqaro Arbitraj sudi nomi | Maxfiylik siyosati haqidagi reglament |
|---|---|
| Xalqaro tijorat arbitraj to'g'risidagi YUNSITRAL namunaviy qonunining tuzatish kiritilgan moddalari (2006) | Arbitraj kelishuvi yozma shaklda bo'lishi talabi, agar unda mavjud ma'lumotlar kelgusida foydalanish uchun ochiq bo'lsa, elektron aloqa orqali amalga oshiriladi; "Elektron aloqa" - taraflar ma'lumot- xabarlar almashinadigan har qanday aloqani anglatadi; "Ma'lumot- xabarlar" elektron, magnitli, optik yoki shunga o'xshash vositalar tomonidan yaratilgan, yuborilgan, olingan yoki saqlanadigan, shu jumladan, elektron ma'lumot almashish (EDI-electronic data interchange),elektron pochta, telegramma, teleks yoki teleskopik ma'lumotlar bilan cheklanmagan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi [12] |
| Bitimga asoslangan investor-davlat arbitrajida shaffoflik to'g'risidagi YUNSITRAL qoidalari (2014). | Ushbu qoidalar ko'ra, agar arbitraj ma'lumotlarni maxfiy yoki himoyalangan deb hisoblamasa, arbitraj barcha hujjatlar, ko'rsatmalar va arbitraj jarayonlarining shaffofligi olib borish bo'yicha muhim vakolatlarga ega sanaladi [13] |
| “Xalqaro tijorat arbitraj to'g'risida”gi UNCITRAL namunaviy qoidalari | Mazkur qonunda “hakamlik muhokamasi yakka tartibda olib borilishi” belgilangan. Demak, hakamlik muhokamasida ishtirok etuvchi tomonlar sud jarayonini maxfiy saqlash majburiyatiga ega. Hakamlar va hakamlik sudyasining kotiblari ham maxfiylikni saqlash majburiyatiga ega[14] |
| Gongkong Xalqaro tijorat arbitraj sudi HKIAC | 45-moddasi Agar tomonlar boshqacha kelishuvga erishmagan bo'lsa, hech bir partiya yoki partiya vakili quyidagilarga taalluqli har qanday ma'lumotni nashr etishi, oshkor qilishi yoki etkazishi mumkin emas: a) hakamlik kelishuvi bo'yicha hakamlik muhokamasi; (b) arbitrajda qabul qilingan qaror yoki Favqulodda qaror. 45.4 Arbitraj sudining muhokamasi maxfiy hisoblanadi[15] |
| Singapur Xalqaro tijorat arbitraj sudi SIAC | 39. Agar tomonlar boshqacha kelishuvga erishmagan bo'lsa, tomonlar va har qanday arbitr, shu jumladan har qanday Favqulodda arbitr va Tribunal tomonidan tayinlangan har qanday shaxs, shu jumladan har qanday ma'muriy kotib va har qanday ekspert, sud jarayoni va qaror bilan bog'liq barcha masalalarni har doim maxfiy deb hisoblaydi. . Tribunal muhokamalari va munozaralari maxfiy hisoblanadi [17] |
| London Xalqaro tijorat arbitraj sudi SIAC | 30-modda Tomonlar umumiy printsip sifatida hakamlik muhokamasi uchun yaratilgan barcha qarorlar va hakamlik sudining boshqa barcha materiallari, shuningdek hakamlik muhokamasi davomida boshqa |



| | |
|--|---|
| | <p>tomon tomonidan taqdim etilgan boshqa hujjatlarning maxfiylikni saqlash majburiyatini oladilar.</p> <p>LCIA barcha tomonlar va Arbitraj sudining oldindan yozma roziligisiz qarorlarni yoki ularning qismlarini nashr etmaydi.</p> <p>30.4 LCIA tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash amaldagi ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligiga bo'ysunadi va LCIA ma'lumotlarini himoya qilish bo'yicha xabarnomani LCIA veb-saytida topish mumkin [17].</p> |
| Toshkent Xalqaro tijorat arbitraj sudi TIAC | <p>29.2 Tribunalidagi muhokamalar mahfiy xarakterga ega bo'ladi.</p> <p>29.3 Agar Taraf ushbu moddada bayon etilgan majburiyatlarni buzsa, Tribunal tegishli choralarni ko'rish va Tarafga buyruq yoki qaror vositasida jarima solish vakolatiga ega [18].</p> |

UNCITRAL Model qonuni ushbu qoidaga bir nechta istisnolarni taqdim etadi. 27-moddada sud hakamlik muhokamasi bilan bog'liq ma'lumotlarning oshkor etilishini talab qilishi mumkin, agar ma'lumotlar sudning qonun hujjatlariga muvofiq o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'lsa. Bundan tashqari, arbitrajda ishtirok etuvchi tomonlar yozma ravishda maxfiylikdan voz kechishga rozi bo'lishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, UNCITRAL Model qonunida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilmagan bo'lsa-da, ko'plab yurisdiksiyalar o'z chegaralarida o'tkaziladigan xalqaro arbitrajlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha qonunlarni qabul qilgan.

Yuqoridagi normalarni o'rganib chiqqan holda, institutsional arbitrajlarining reglamentida ma'lumotlarning maxfiylik hamda shaxsga doir ma'lumotlarning sir saqlanishi holatlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu normalar faqat institutsional arbitrajlar uchun ad hoc arbitrajlar esa muammoligicha qolmoqda.

Arbitrajlarda huquqni tanlash masalasi ham mavjud bo'lib unga ko'ra, tomonlar nafaqat arbitrlarni balki o'zaro shartnomaga ko'ra huquqni tanlash huquqiga ham ega hisoblanadi.


Xalqaro arbitrajda ushbu qonunlar ishtirok etuvchi tomonlarning yurisdiksiyasiga qarab qo'llanilishi mumkin. Huquqiy oqibatlariga yo'l qo'ymaslik va shaxsiy ma'lumotlarning maxfiylikni himoya qilish uchun ushbu qonunlarga rioya qilish juda muhimdir.

Shuning uchun ham tomonlar huquq tanlashda davlatlarning ichki qonunchiligiga ham to'xtalib o'tishi mumkin. Qiyosiy yuridik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarning huquq tizimida axborot xavfsizligini himoya qilishga doir tizimli yondashuvning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Biroq, ba'zi mamlakatlarda ma'lumotlar qonun bilan himoyalangan. Qolganlarida esa hali mavjud emasligiga ham guvoh bo'lishimiz mumkin. Buni quyidagi ro'yhatda ham ko'rishimiz mumkin:

(Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha komissiyasining 2021-yil 14-dekabrda ma'lumotlari asosida [19])

Mazkur statistikani ko'radigan bo'lsak, dunyo davlatlarining 71%i shaxsga doir ma'lumotlarni daxlsizligi bo'yicha qonuni mavjud bo'lsa, 9 % i qonun imzolayotgan bo'lsa qolgan 15% ida mazkur huquq qonun bilan himoya qilinmagan.

Xalqaro arbitraj sudlarida ish olib borilishida maxfiylik qoidasi amal qiladi, lekin xalqaro arbitrajda maxfiylik tushunchasiga aniq chegaralar belgilanmaganligi, ayrim holatlarda ishlarni ko'rilishida taraflar tomonidan aniq qoidalar o'rnatilmaganligi sababli sud muhokamalari ochiq tartibda olib borilishiga yo'l qo'yilishi, sud hal qiluv



qarorlarini ochiq tarzda e'lon qilinishi holatlari, uchinchi shaxslarning manfaatlari vujudga kelgan holatda sud ochiqlikka yo'l qo'yishi holatlari yuzaga keladi, bu esa taraflar obro'siga putur yetkazishi yoki tijorat siri bilan bog'liq ma'lumotlar oshkor bo'lib qolishi natijasida taraflarga zarar yetkazilishi holatlari vujudga kelmoqda.

Maxfiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat ruxsat etilgan dalil sifatida taqdim etilishi mumkinmi degan savol tug'iladi. Arbitraj muhokamasida dalillarning qabul qilinishini tartibga soluvchi qoidalar mavjud bo'lmagan taqdirda, taniqli olim **Cheri Bler** tomonidan ishlab chiqilgan noqonuniy olingan dalillarni qabul qilish testiga tayanish oqilona hisoblanadi. Ushbu testning birinchi mezonlari dalillarni taqdim qilmoqchi bo'lgan tomonning "qo'llari toza" bo'lishini talab qiladi. *Caratube International Oil Company LLP va Devinci Salah Hourani Qozog'iston Respublikasiga*



qarshi arbitraj sudida [20] Qozog'iston hukumatining kompyuter tarmog'iga xakerlik hujumi natijasida noqonuniy ravishda qo'lga kiritilgan hujjatlarni dalil sifatida tan oldi, chunki da'vogarlar WikiLeaks tomonidan e'lon qilingan hujjatlarga tayangan va o'zlari dalillarni noqonuniy olishda ishtirok etmagan. Bundan farqli o'laroq, bugungi kunda fuqarolik ishlarida qo'llaniladigan "zaharli daraxtning mevalari" ta'limotini eslatib o'tish kerak. Xalqaro arbitrajda noqonuniy olingan dalillarning maqbulligi ushbu yondashuv asosida baholanadi. Dalil (meva) noqonuniy qidiruv (daraxt) natijasida olingan bo'lsa, qabul qilinishi mumkin emas.

XULOSA

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, shaxsga doir ma'lumotlar tushunchasini keng qamrovda o'rgangan holda, Xalqaro tijorat arbitraj sudlarida shaxsga doir ma'lumotlarni daxlsizligini ta'minlash maqsadida institutsional arbitrajlar tomonidan arbitrajlar maxfiy tarzda bo'lishi hamda har bir reglamentda maxfiylik bo'yicha alohida norma mavjud. Shaxs daxlsizligi insonning asosiy huquqlaridan biri bo'lib, shaxsning ruxsatisiz huquqlarini poymol qilish holatlari hozirgi kunda ko'p uchramoqdaligi aniqlandi. Ushbu masalalar maqola davomida keng qamrovda o'rganib chiqilib, shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi nafaqat shaxslarga balki tijoriy kompaniyalarga ham qo'llash mumkinligi ta'kidlab o'tildi.

Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash uchun milliy va xorij mamlakatlari qonunchiligi hamda dunyoning bir qator taniqli arbitrajlarini reglamentlari o'rganib chiqildi. Ushbu izlanishlar davomida barcha davlatlarda ham shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi buzilishini oldini oluvchi normalar ichki qonunlarida berilmaganligi aniqlandi.

Yuqoridagi izlanishlarni olib borgan holda Xalqaro tijorat arbitrajlarida shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari daxlsizligini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Maxfiylik qoidalarini buzish bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish uchun shartnoma taraflari bo'lgan sotuvchi hamda xaridor o'rtasida tuziladigan shartnomaga maxfiylik to'g'risidagi bandni kiritish kerak.

Xalqaro arbitraj sudlarida qatnashayotgan taraflar haqidagi ma'lumotlarni sir saqlanishi kerak. Bu taraflarni obro'siga ta'sir qiladi. Buning natijasida yirik kompaniyalarning aksiyalari tushi ketishi yoki hamkorlari bilan tuzilgan shartnomalarga ta'sir qilishi mumkin.

REFERENCE:

1. Margaret L. Mozes, Xalqaro tijorat arbitraj tamoyillari va amaliyoti, – Toshkent. 2020 B. – 250.
2. Moser M.J. va Ch. Bao, A Guide to the HKIAC Arbitration Rules, Oxford University press, 2022



3. Gulyamov S. "Kiber-huquq"-yangi kompleks huquq sohasi sifatida – 2020. – №.1
4. Bakhramovna M. Legal Regulation of Electronic Arbitration: Recognition and Execution of its Decisions, May 2022 // Available at: https://www.researchgate.net/publication/360356710_Legal_Regulation_of_Electronic_Arbitration_Recognition_and_Execution_of_its_Decisions [Accessed on: 18.04.2023]
5. Akramov A, Nurmaxammatov A. Xalqaro arbitrajda maxfiylik vaoshkoralik o'rtasidagi qarama qarshiliklar // SAI. 2022. №Special Issue 2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/xalqaro-arbitrajda-maxfiylik-vaoshkoralik-o-rtasidagi-qarama-qarshiliklar> [Accessed on: 18.04.2023]
6. Born, G. (2014). International commercial arbitration. Wolters Kluwer Law & Business. P. 204
7. Ajibo I.K. Confidentiality in international commercial arbitration: assumptions of implied duty and a proposed solution. 2015 // Available at: https://www.researchgate.net/publication/286779462_CONFIDENTIALITY_IN_INTERNATIONAL_COMMERCIAL_ARBITRATION_ASSUMPTIONS_OF IMPLIED_DUTY_AND_A_PROPOSED_SOLUTION [Accessed on: 18.04.2023]
8. Михайловна Е. Подходы к обеспечению конфиденциальности в международном коммерческом арбитраже // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2015. №11-1. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/podhody-k-obespecheniyu-konfidentsialnosti-v-mezhdunarodnom-kommercheskom-arbitrazhe> [Accessed on: 18.04.2023]
9. Bakumenko V.V. Discovery of evidence in international commercial arbitration // МНИЖ. 2016. №7-1 (49). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/discovery-of-evidence-in-international-commercial-arbitration> [Accessed on: 18.04.2023]
10. The official website: United Nations Organization, Universal Declaration of Human Rights (Birlashgan millatlar tashkiloti, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi) 24.10.1948. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>
11. The official website: United Nations Human Rights office of the high Commissioner, International Covenant on Civil and Political Rights // Available at: <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/international-covenant-civil-and-political-rights> [Accessed on: 18.04.2023]
12. The official website: United Nations Commission On International Trade Law, UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006 // Available at: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/modellaw/commercial_arbitration [Accessed on: 18.04.2023]



13. Bitimga asoslangan investor-davlat arbitrajida shaffoflik to'g'risidagi YUNSTRAL qoidalari (2014) Available at www.uncitral.org/uncitral/en/uncitral_texts.html. [Accessed on: 18.04.2023]

14. The official website: United Nations Commission On International Trade Law, UNCITRAL Model Law on International Commercial Arbitration (1985), with amendments as adopted in 2006 // Available at: https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/mediadocuments/uncitral/en/19-09955_e_ebook.pdf [Accessed on: 18.04.2023]

15. The official website: The Hong Kong International arbitration centre, 2018 HKIAC Administered Arbitration Rules // Available at: <http://hkiac.org/arbitration/rules-practice-notes/administered-arbitration-rules/hkiac-administered-2018-2#45> [Accessed on: 18.04.2023]

16. The official website: The Singapore International arbitration centre, SIAC Rules 2016 // Available at: <https://siac.org.sg/siac-rules-2016> [Accessed on: 18.04.2023]

17. The official website: LCIA (London International arbitration centre and ADR worldwide) LCIA Arbitration Rules // Available at: <https://www.lcia.org/Dispute Resolution Services/lcia-arbitration-rules-2020.aspx#Article%2030A> [Accessed on: 18.04.2023]

18. The official website: TIAC (Tashkent International Arbitration Centre at the chamber of commerce and industry of Uzbekistan), TIAC RULES 2021// Available at: <https://static1.squarespace.com/static/5c02f6d2977-2ae05d0a897a8/t/6352b96baa109a5a2a49bd9d/1666365808793/TIAC+RULES++0F+ARBITRATION+2021+.pdf> [Accessed on: 18.04.2023]

19. The official website: UNCTAD, Data Protection and Privacy Legislation Worldwide // Available at: <https://unctad.org/page/data-protection-and-privacy-legislation-worldwide> [Accessed on: 18.04.2023]

20. Caratube International Oil Company LLP and Devincci Salah Hourani v. Republic of Kazakhstan, ICSID Case No. ARB/13/13 // Available at: <https://www.italaw.com/cases/2131> [Accessed on: 18.04.2023]



INGLIZ DIPLOMATIK YOZISHMALARIDA QISQARTMALARDAN FOYDALANISHNING TUTGAN O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853420>

Nosirova Shoiraxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Pakirdinova Sharofat Abdulmutallibjonovna

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada diplomatik yozishmalarda qisqartmalardan foydalanishning tutgan o'rni hamda keng ko'lamda ishlatiladigan qisqartmalar va ularning ma'nolari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: diplomatik yozishmalar, so'z boyligi, qisqartmalar, lotin prototiplari.

THE IMPORTANCE OF USING ABBREVIATIONS IN ENGLISH DIPLOMATIC WRITINGS

Abstract: in this article, some information about the importance of using abbreviations in diplomatic relations and also frequently used abbreviations with their meanings is provided.

Keywords: diplomatic writings, vocabulary, abbreviations, Latin prototypes.

Nominativ belgilarning maxsus turi sifatida qisqartmalarning xususiyatlarini o'rganish va aniqlash bilan bog'liq bo'lgan ko'plab masalalarning sust rivojlanishi tufayli, nominatsiya muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar doirasida qisqartmalar (abbreviation) natijalarini o'rganishga katta o'rin ajratilgan. Xususan, qisqartirilgan nomlarning "so'z boyligi" holatini aniqlash shubhasiz qiziqish uyg'otadi. Bu leksik birliklarning ushbu toifasini ularning og'zaki belgilar sifatida foydaliligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, qisqartma-bu harflar bilan yozilgan qisqartmalardir. Misol uchun: UNCTAD - U.N. Conference on Trade and Development.

Nutq va yozma matnni tejash qisqartmaning asosiy vazifasidir. Ovoz vaqtiga ko'ra, qisqartma unga mos keladigan tushunchadan taxminan besh baravar qisqa va yozishda tejash yanada ta'sirli bo'ladi. Biroq, faqat qisqartmalar suhbatdoshlar va ularning tarjimonlari uchun tushunarli bo'lgan o'rinlardagina bu tejash o'zini oqlaydi.

Bugungi kunda qisqartmalar (abbreviation) turli xil bilim sohalariga xizmat qiladigan lug'atlarni to'ldirish uchun juda ko'p ishlatiladi. Bu ko'plab tillarda ommaviy hodisaga aylandi, shuningdek, "so'z boyligini to'ldirishning samarali usuli" deb



hisoblanadi. Hayotning tez sur'ati tildagi qisqartmalarning ko'payishining asosiy sababidir.

Lotin tilidagi qisqartmalar tarjimon uchun alohida qiyinchilik tug'diradi. Bu, ayniqsa, Yevropa tillari uchun, xususan, ingliz tili uchun to'g'ri keladi, uning alifbosi, masalan, rus tilidan farqli o'laroq, lotin tiliga to'g'ri keladi, bu esa "qisqartirilgan tildagi terminning yetarli darajada dekodlanishiga olib keladi".¹⁴⁴

Lotin tilidan kelib chiqqan qisqartmalar norasmiy og'zaki nutqda ham, yozma rasmiy nutqda ham keng tarqalgan. Ular, shuningdek, transkriptlar, ya'ni ko'pgina qisqartmalarning lotin prototiplari butunlay unutilganligi sababli ajralib turadi. Ular haqli ravishda ba'zi inglizcha atamalarining "ramzi" deb hisoblanishi mumkin.

Qisqartmalar turli xil xarakterdagi matnlarda uchraydi va turli xil nutq uslublari va nutq faoliyatida qo'llaniladi: gazeta maqolalari, reklama, xatlar, badiiy asarlar, jurnalistik va ilmiy ishlarda. Yangi axborot texnologiyalarining faol joriy etilishi tufayli zamonaviy biznes dunyosi ingliz tilidagi qisqartmalardan eng faol foydalanishi bilan ajralib turadi.

Inson huquqlari borasidagi seminar materiallarida ma'lumotlarning qisqartmalariga misollar keltiramiz:

1. FAO – Food and Agriculture Organization of the United Nations (Birlashgan Millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti)
2. WHO – World Health Organization (Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti)

Biznes hujjatlaridagi so'zlarning predmet-mantiqiy ma'nolari ustunlik qiladi. Shu bilan birga, ushbu aloqa sohasida predmet-mantiqiy qiymatlarning hosilalari terminologik bo'lgan holatlar bundan mustasno. Shu munosabat bilan diplomatik nutqda bir qator xususiyatlar shakllanadi. Ulardan biri ayniqsa diplomatik nutq uslubining o'ziga xos xususiyati aniq namoyon bo'ladi. Bu diplomatik nutqda nutq obrazini yaratish uchun oz sonli texnikalar mavjudligidan iborat. Xususan, metonimiya, metafora, shuningdek matn yoki nutq obrazini yaratishning boshqa muhim va keng tarqalgan usullarining kam yoki umuman yo'qligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Misol tariqasida, qisqartmalardan foydalanilgan xatni ko'rib chiqaylik:

"Dear Sirs,

We attach a copy of the Carter- Party for the S.S. "Clyde" chartered by us for the transportation of 5000 tons of Manganese Ore sold to you c. i. f. Manchester under

Contract № 25.acknowledge receipt.

Faithfully..."

¹⁴⁴ Галкина, Е. Н. Перевод аббревиатур и акронимов на русский язык. Россия и Запад: диалог культур Россия и Запад: диалог культур [Текст] / Е. Н. Галкина. – М, 2005. – 250 с.



“Hurmatli janoblar,
biz 25-sonli shartnoma bo'yicha sif shartlariga binoan yuborilgan 5000 tonna marganetsni tashish uchun charter nusxasini joylashtiramiz. Iltimos, qabul qilishni tasdiqlang.

Hurmat bilan...”

Shuni ta'kidlash kerakki, biznes hujjatlarida qisqartmalarning tez-tez va ko'p ishlatilishiga qaramay, foydalanilayotgan qisqartmalar ham kerakli o'rinlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Faqat barcha mamlakatlarda umumiy qabul qilingan va tushunarli qisqartmalardan foydalanish kerak. Masalan, xalqaro savdo bilan shug'ullanadigan har bir kishi f.o.b. (free on board) va c. i. f. (cost, insurance and freight) kabilarning ma'nolarini juda yaxshi biladi. Ular hatto bitta so'z bilan emas, balki harflar bilan talaffuz qilinadi: FOB va CIF ko'rinishida.

Qisqartmalar va qisqartmalarga e'tibor har bir professional jamoa o'z qisqartmalar tizimini ishlab chiqishi bilan bog'liq. Bunday qisqartmalar lug'atlarda aks etmaydi, lekin professional aloqadan tashqariga chiqib, har doim o'z ta'riflariga ega bo'ladi. Ta'rif va izohlarning mavjudligi bunday qisqartmalarni yodlash va faollashtirish zauriyatining yo'qligiga ishora qiladi. Ushbu qisqartmalarning barchasi, kelib chiqishidan qat'i nazar ,professional cheklangan aloqa signallari sifatida qaralishi kerak.

Umuman olganda, ingliz tilidagi aloqa registrilarida qisqartmalardan foydalanish rus tili va o'zbek tiliga qaraganda ancha keng tarqalgan. Nafaqat firmalar, korxonalar nomlari, muassasalar va tashkilotlarning nomlari qisqartiriladi, shuningdek taniqli odamlarning ismlari (JFK-John Fitzgerald Kennedy), tez -tez ishlatiladigan tushunchalar (VIP- very important person (juda muhim shaxs), Rip-rest in peace (joyi jannatda bo'lsin); madaniy shtamplar (WASP-Western Anglo-saxon Protestant), Yuppy-(young urban professional); kasallik nomlari (SARS –severe acute respiratory syndrome) ham qisqartirilishi mumkin. Shuni yodda tutish kerakki, ayni bir qisqartma bir nechta ma'nolarni ifoda eta olishi mumkin: ((MP – Member of Parliament, Military police, Metropolitan police, Mounted police), ulardan qaysi biri matnda foydalanilayotganligini kontekstdan bilib olishimiz mumkin bo'ladi.

Shuning uchun yaqinda qisqartmalar (abbreviation) ko'plab tillarning so'z boyligini to'ldirishning eng samarali usullaridan biriga aylandi. Lingvistik nuqtai nazardan, abbreviatsiyalar tobora alohida e'tibor tortmoqda, chunki ularning soni tobora o'sib bormoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda qisqartirilgan leksik birliklar soni o'n minglabga yetdi. Turli xil qisqartmalar turli xil sohalarda keng qo'llaniladi. Ushbu tendensiya tabiiy holatdir va dunyoda ro'y berayotgan ilmiy-texnik inqilobga va xalqaro aloqalarni rivojlantirishga bo'lgan tilning o'ziga xos javobidir. Va ajablanarli emaski, qisqartmalar fan va texnikaning yangi, jadal rivojlanayotgan tarmoqlari: dasturlash, raketa ishi, kosmonavtika, atom energetikasi, radioelektronika, moliyaviy masalalar va diplomatik yozishmalarning so'z boyligini to'ldirish uchun keng ko'lamda ishlatilib kelinmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Богданова, В.А. Письменная и устная формы научного стиля (на материале лексики) [Текст] / В.А. Богданова. – Саратов, 1999.
2. Большаков, И. А. О некоторых лингвистических особенностях деловой прозы. Семиотика и информатика [Текст] / И. А. Большаков. – М., 1995. – 24- 33 с.
3. Галкина, Е. Н. Перевод аббревиатур и акронимов на русский язык. Россия и Запад: диалог культур Россия и Запад: диалог культур [Текст] / Е. Н. Галкина. – М, 2005. –250 с.
4. Яшнов, П.А. Особенности перевода аббревиатур [Текст] / П.А. Яшнов. – М., 2005. – с. 289.



ТАЪЛИМНИНГ ДИДАКТИК ФАОЛИЯТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ҲАҚИДА УМУМИЙ ТУШУНЧА БЕРИШ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853424>

Кучқорова Махсуда Махкамовна

Фарғона давлат университети география кафедраси ўқитувчиси.

Аннотация: Ушбу мақолада таълимнинг дидактик фаолият технологияларининг тутган ўрни ҳамда унинг шакилланиш босқичлари таҳлил қилинган ва умумий таклифлар берилган.

Калит сўзлар: дидактика, психология, дарс, билим, кўникма, малака, таълим жараёни, педагогик парадигма.

КИРИШ. Дидактика таълимнинг назарий жихатларни (таълим жараёнини мохияти, тамойиллари қонуниятлари ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти мазмуни, таълим мақсади шакли, метод воситалари натижаси, таълим жараёнини такомиллаштириш йўллари ва ҳақозо муаммолар) ни ўрганувчи фан. Бу тушунчани буюк Чех педагог Ян Амос Коменский (1592-1670 йиллар) “Буюк дидактика (1657 йил) номли машхур асарида тилга олади. Лекин Коменский дидактика фақат таълимгина эмас балки тарбиялаш ҳам” деб такидлайди. Мазкур асарда олим таълим назариясининг муъум масалалари, таълим мазмуни, таълимнинг кўргазмаллиги кетма-кетлиги каби тамойиллари синф даражаси тизими борасида сўз юритади. Дидактиканинг предмети таълим тарбия муассаси шароитда муаллимнинг раҳбарлиги остида амалга ошадиган ўқув жараёнидир.

Кўпчилик олимлар таълим объекти деб ўқитиш жараёнининг мақсади, мазмуни, қонуниятлари, методлари ва тамойилларини кўрсатадилар. Дидактика таълимни ижтимоий тажриба бериш воситаси сифатида эътироф этади. Таълим ёрдамида ёшларни ҳаётга тайёлаш амалга оширилади. Таълимий фаолиятни ташкил этувчи ўқитувчи – ўқувчи - ўқув материали, ўқувчи - бошқа ўқувчилар ўртасидаги муносабатлар юзага келади.

Таълимга психология нуқтаи назаридан ёндашилса ушбу муносабатнинг устуворлигига шубҳа қолмайди. Бироқ таълимга педагогик яъни ижтимоий тажрибани бериш, ўргатиш нуқтаи назаридан қаралса фаолият учун асосий саналувчи муносабат - икки шахс (ўқитувчи ва ўқувчи) ўртасидаги муносабатлар етакчи ўрин эгаллаши лозим эканлиги англанади.

Дидактиканинг вазифалари қуйдагилардан иборат .

-таълим жараёнлари ва уларни амалга ошириш шартларини тарифлаш ва тушинтириш



-таълим жараёнини янада мукаммал ташкил этиш яъни таълим тизимлари ва технологияларини ишлаб чиқиш.

-таълим жараёни учун хос бўлган умумий қонунятларини аниқлаш, омилларини таҳлил қилиш ва тарифлаш.

Дидактика назарий ва бир вақтнинг ўзида меёрий-амалий фан. Дидактиканинг илмий- назарий вазифаси таълимнинг мавжуд жараёнларининг ўрганиш унинг турли жихатлари ўртасидаги боғлиқликлар унинг моҳиятини очиб бериш, ривожланиш тенденциялари ва келажагини аниқлашдан иборатдир. Ўзлаштирилган назарий билимлар таълим амалиётини йўналтириш, таълимни жамият тамонидан қўйилаётган ижтимоий талабларга мувофиқ такомиллаштиришга имкон беради. Таълим мазмунини англаб олиш, таълим тамойиллари, таълим метод ва воситаларини қўллаш меёрларини аниқлаш асосида дидактика амалий – меёрий ҳамда ташкилий технологик вазифани бажаради. Муайян фанга хос бўлган тушунчаларда инсоният тамонидан ижтимоий тараққиёт жараёнида тўпланган билимлар акс этади. Мавжуд илмий тушунчалар икки асосий гуруҳга ажратилади.

1. Фалсафий тушунчалар
2. Хусусий илмий, яъни муайян фангагина хос бўлган тушунчалар

Дидактика учун умумий ва алоҳида моҳияти ва ҳодиса, қарама- қаршилик, боғлиқлик каби фалсафий тушунчалар муҳим аҳамиятга эга. Дидактикада қўлланиладиган умумий – илмий тушунчалар орасида « тизим », « тузилма», «вазифа», «элемент» кабилар алоҳида ўрин тутади. Педагогикага ҳос дидактик тушунчалар сирасига қўйидагилар киради.

1. Таълим – ўқувчиларга назарий билимларни бериш асосида уларда амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш, уларнинг билиш қобилиятларини ўстириш ва дунёқарашларини тарбиялашга йўналтирилган жараён.

2. Дарс – бевосита ўқитувчи раҳбарлигида муайян ўқувчилар гуруҳи билан олиб бориладиган таълим жараёнининг асосий шакли.

3. Билим олиш – идрок этиш, ўрганиш, машқ қилиш ва муайян тажриба асосида хулқ атвор ҳамда фаолият кўникма, малакаларнинг мустахкамланиб, мавжуд билимларнинг такомиллашиб бойиб бориш жараёни.

4. Таълим жараёни – ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ташкил этувчи ҳамда илмий билимларини ўзлаштиришга йўналтирилган педагогик жараён.

5. Ўқув фани – таълим муассасаларида ўқитилиши йўлга қўйилган ҳамда ўзида муайян фан соҳаси бўйича умумий ёки мутахассислик билим асосларини жамлаган манба.

6. Таълим мазмуни – давлат таълим стандартлари асосида белгилаб берилган ҳамда маълум шароитда муайян фанлар бўйича ўзлаштириши назарда тутилган илмий билимлар моҳияти.



Дидактикада «идрок этиш», «ўзлаштириш», «махорат» «ривожланиш» ва бошқалар психология ҳамда «бошқариш», «қайта алоқа» кибернетика каби турдош фанларга хос бўлган тушунчалар ҳам қўлланилади. Дидактиканинг асосий категориялари қуйидагилардан иборат: дарс, билим олиш, таълим, билим, кўникма, малака, таълим мақсади, таълим мазмуни, таълим жараёни, таълим жараёнини ташкил этиш, таълим турлари, шакллари, методлари, воситалари ва таълим натижаси.

Сўнги пайтларда асосий дидактик категориялар сирасига таълимнинг дидактик тизими ва таълим технологияси каби тушунчаларни ҳам киритиш таклифи илгари сурилмоқда.

1. Билим – шахснинг онгида тушунчалар, схемалар, маълум образлар кўринишида акс этувчи борлиқ ҳақидаги тизимлаштирилган илмий маълумотлар мажмуи.

2. Билим олиш – идрок этиш ўрганиш, машқ қилиш ва муайян тажриба асосида хулқ-атвор ҳамда фаолият, кўникма, малакаларнинг мустаъкамланиб мавжуд билимларнинг такомиллашиб бойиб бориш жараёни.

3. Кўникма – олинган билимларга асосланиб қўйилган вазифалар ва шартларга биноан бажариладиган ҳаракатлар йиғиндиси.

4. Малака – онгли хатти- ҳаракатнинг автоматлаштирилган таркибий қисми.

5. Таълим – ўқувчиларга назарий билимларни бериш асосида уларда амалий кўникма ва малакаларни шакллантириш уларнинг билиш қобилитини ўстириш, дунёқарашини тарбиялашга йўналтирилган жараён.

6. Таълим методлар – таълим жараёнида қўлланилиб унинг самарасини тaminловчи усуллар мажмуи.

7. Таълим мазмуни – шахснинг ақлий ва жисмоний қобилитини ҳар тамонлама ривожлантириш, дунё қараши, одоби, хулқи, ижтимоий ҳаёт ва меҳнатга тайёрлик даражасини шакллантириш жараёнининг моҳияти.

8. Таълим воситалари – таълим самарадорлигини таъминловчи объектив дарслик, ўқув қўлланмалари, ўқув қуроли, харита, диаграмма, плакат, расм, чизма, видеопроектор, магнитофон, видеомагнитофон, ускуна, телевизор, радио, компьютер ва бошқалар ва субъектив ўқувчининг нутқи, намунаси, муайян шахс ҳаёти ва фаолиятига оид мисоллар ва хоказолар омиллар.

9. Таълим жараёни – ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ташкил этувчи ҳамда илмий билимларни ўзлаштиришга йўналтирилган педагогик жараён.

10. Таълим мазмуни – Давлат таълим стандартлари асосида белгилаб берилган ҳамда маълум шароитда муайян фанлар бўйича ўзлаштирилиши назарда тутилган илмий билимлар моҳияти.

11. Таълим мақсади – ўқиш, билим олиш мақсади таълимнинг аниқ йўналишини белгилаб берувчи етакчи ғоя.



12. Талим натижаси – таълим маъсули таълим якунининг моҳиятини қайт этувчи тушунча ўқув жараёнининг оқибати белгиланган мақсадни амалга ошириш даражаси.

13. Таълимни бошқариш – таълим муассасаларининг фаолиятини йўлга қўйиш, бошқариш, назорат қилиш ҳамда истиқболини белгилаш.

14. Таълим тизими – ёш авлодга таълим тарбия бериш йўлида давлат тамойиллари асосида фаолият юритаётган барча турдаги ўқув тарбия муассасалари мажмуи.

Таълим жараёни психологик – педагогик концепсиялар улар аксарият ҳолларда дидактик тизимлар деб ҳам аталади асосида ташкил этилади. Дидактик тизим – юнонча «система» яхлит қисмлардан ташкил топган бирлаштириш маълум мезонлари асосида таълим жараёнининг яхлит ҳолатини белгилаш ажратиб кўрсатиш демақдир. У таълимнинг мақсади, тамойиллари, мазмуни, шакли, метод ва воситаларининг бирлиги асосида ташкил этилган тузилмаларининг ички яхлитлигини ифодалайди .

Тадқиқотчилар мавжуд дидактик концепсия, тизимларни умумлаштириб қуйидаги гуруҳларга ажратдилар.

1. Анъанавий
2. Прогрессив.
3. Замоनावий.

Таълим назариясида Я. А. Коменский , И. Песталлоци ва И. Гербатларнинг дидактик концепсиялари муҳим аҳамиятга эга.

Психолог Л. С. Вигоцки (1896-1934 йиллар) томонидан 30 йилларда илгари сурилган “Яқин ривожланиш зонаси” ғояси ҳам муҳим аҳамиятга эга. Унга кўра бола катталар ёрдамида билим олиб ўзи мустақил бажара олмаган ишларни бажара олмайди. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонунида таълим-тарбияни инсонпарварлик демократик ғояларга мувофиқ ташкил этиши эътироф этилган. Таълимни инсонпарварлаштириш таълим жараёнида ўқувчи шахсини ҳурмат қилиш, унинг шани обрўси, қадр - қимматини паймол этмаслик, мавжуд истедодини ривожлантиришни назарда тутати. Республика узлуксиз таълим тизими, ижтимоий буюртмани бажаришга хизмат қилади, баркамол шахс ва етук мутахассисни тарбиялаш вазифасини бажаради.

Педагогик парадигма- (юнунча “парадеигма”- мисол, намуна) Педагогика фани ривожининг маълум босқичида таълимий ва тарбиявий муаммоларни ҳал этиш намунаси модели, стандарти сифатида илмий педагогик ҳамжамият томонидан эътироф этилган назарий ҳамда методологик кўрсатмалар тоўплами бўлиб у таълимнинг концептуал модели сифатида қўлланилади. Бугунги кунда таълимнинг қуйидаги парадигмалари кенг тарқалган.

- 1) Анъанавий- консерватив парадигма (билим парадигмаси)
- 2) Рационалистик (бихевиористик) парадигма
- 3) Феноменологик (гуманистик) парадигма



4) Технократик парадигма

Айни вақтда таълим парадигмаларини белгилашга нисбатан уч хил ёндашув мавжуд.

1) Қадриятли (социологик) ёндашув- маданият инсон хаётининг мазмуни сифатида тушунилади.

2) Фаолиятли ёндашув- асосан маданият моддий ва маънавий бойликларни яратишга йўналтирилган фаолиятнинг синалган усуллари сифатида талқин этилади.

3) Шахсий ёндашув- маданият муайян шахс тимсолида намоён бўлади.

4) Маданиятга нисбатан турли ёндашувларнинг мавжудлиги бир қатор парадигмаларнинг яратилишига замин яратади. Ҳар бир парадигма муайян таълимий муаммоларни хал этишга йўналтирилди. Хусусан:

- ижтимоий институт сифатида ўқув муассаларининг вазифалари;
- таълимнинг самарали тизими;
- ўқув юртлари олдида турган энг мухим устувор масала;
- таълимнинг ижтимоий аҳамиятли мақсадлари;
- муайян билим, кўникма ва малакаларнинг қимматли хисобланиши;

Айни вақтда қуйидаги парадигмалар мавжуд:

Билим олишнинг анъанавий парадигмаси (моделли) (Ж. Мажо, Л. Кро, Ж. Капел ва бошқалар) унга кўра таълимнинг асосий мақсади - “ Билим, қанчалик қийин бўлмасин билим олиш” Анъанавий парадигма мактабнинг мақсади ёш авлодга индивидуал ривожланиши ҳамда ижтимоий тартибни сақлаб қолишга ёрдам берувчи маданий меросларнинг мухим элементлари – билим, кўникма ва малакалар, илғор ғоялар ва қадриятларни сақлаб қолиш ҳамда уларни ёшларга етказиш мухим эканлигини ёритади. Билим олиш парадигмасининг асосий мақсади : таълим олиш тараққиёти ва маданиятининг энг мухим элементлари – билим, кўникма ва малакалар, илғор ғоялар ва қадриятларни сақлаб қолиш ҳамда уларни ёшларга етказиш мухим эканлигини ёритади. Билим олиш парадигмасининг асосий мақсади: таълим олиш, тараққиёт ва маданиятнинг энг мухим элементларининг авлоддан – авлодга ўтказиш.Рационалистик бихевиористик парадигма (П. Блум, Р.Гане, Б. Скиннер ва бошқалар) Рационалистик парадигма диққат марказида таълим мазмуни эмас балки ўқувчилар томонидан турли билимларни ўзлаштиришларини таъминловчи самарали усуллари ётади. Таълимнинг рационалистик модели асосини Б.Скиннернинг ижтимоий инженерия бихевиористик (инглизча бехавиор–хулқи) концепсияси ташкил қилади. Мактабнинг мақсади – ўқувчиларда Гарб маданияти ижтимоий қоидалари, талаблари ва кўзлаган мақсадларига мос келадиган мослаштирувчи “ хулқий репертуар”ни шакллантиришдир. Шу билан бир вақтда “хулқи атамаси билан” инсонга хос ҳамма тасирланишлар – унинг фикрлари, сезги ва харакатлари ифодаланади (Р. Тайлер) Таълим жараёнида дидактик ўйинли технологиялар дидактик ўйинли



дарс шаклида қўлланилади. Ушбу дарсларда талабанинг билим олиш жараёни ўйин фаолияти орқали уйғунлаштирилади. Шу сабабли талабаларнинг таълим олиш фаолияти ўйин фаолияти билан уйғунлашган дарслар, дидактик ўйинли дарслар деб аталади.

ХУЛОСА. Инсон ҳаётида ўйин фаолияти орқали қуйидаги вазифалар амалга оширилади.

- ўйин фаолияти орқали шахснинг ўқишга ва меҳнатга бўлган қизиқиши ортади.

- ўйин давомида шахснинг мулоқатга киришиши яъни коммуникатив – мулоқат маданиятини эгаллаш учун ёрдам берилади.

- шахснинг ўз иқтидори, қизиқиши, билими ва ўзлигини намоён этишига имкон яратилади.

- ҳаётда ва ўйин жараёнида юз берадиган турли қийинчиликларни енгиш ва мўлжални тўғри олиш кўникмаларни таркиб топишига ёрдам беради.

- ўйин жараёнида ижтимоий нормаларга мос хулқ-атвори эгаллаш, камчиликларга барҳам бериш имконияти яратилади.

- шахснинг ижобий фазилатларини шакллантиришга замин тайёрлайди.

- инсоният учун ахамиятли бўлган қадриятлар тизими айниқса ижтимоий, манавий-маданий, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўрганишга эътибор қаратилади.

- ўйин иштирокчиларида жамоавий мулоқат маданиятини ривожлантириш кўзда тутилади.

Дидактик ўйинлардан амалда фойдаланиш орқали бошқа усуллар ёрдамида эришиш қийин бўлган таълим – тарбиявий мақсадларини амалга ошириш кўзда тутилади. Турли ўқув фанларига оид дидактик ўйинлар мавжуд бўлиб, улар шу фанларни сифатли ўргатиш мақсадларига хизмат қилади. Бундан ташқари ўқувчиларни содда илмий изланиш услублари билан таништириш, илмий фаразлар тузилишини ўргатиш; ўқув материалларни ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва билим даражасига мос келиши; материалларни бошқа фанлардан олган билимларга мослиги; ҳар бир гуруҳда ўрганиладиган ва ўзлаштирилган билимлар олдингилари билан узвий боғланганлигини таъминлаш; зарурий табиий, ижтимоий-иқтисодий билимлар мазмунини ҳар бир гуруҳлар учун бўлимлар бўйича аниқлаш; социал назарий ғояларни баён этишда унинг экспериментал фан сифатида ўқитишга имкон яратиш керак.

Фойдаланган адабиётлар руйхати:

1. Голиш Л.В.Замонавий таълим технологиялари: мазмуни, лойihalаштириш ва амалга ошириш. Методик қўлланма Тошкент ЎМКҲТРИ, 2001 й. 84 б.



2. Голиш Л.В.Файзуллаева Д.М.Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш Тош: иқт: -2012 й
3. Зиёмуҳаммедов Б.Илғор педагогик технологиялар: назария ва амалиёт “маънавият асослари” дарси асосида ишланган услубий қўлланма. Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2001-78 бет.
4. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. Экономика и социум, (10), 477-480.
5. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. Экономика и социум, (10), 477-480.
6. Mahsuda, Q. C. (2022). The Importance of Protected Natural Areas in Preserving Rare Landscapes. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH, 3(1), 330-333.
7. Qo'chqorova, M. M. (2022). THE ESSENCE, STRUCTURE AND IMPORTANCE OF TOURISM INFRASTRUCTURE. Scientific progress, 3(1), 1040- 1043.
8. Abduganiev, O. I., & Makhkamov, E. G. (2022). ECOLOGICAL TOURISM IN PROTECTED NATURAL AREAS. Journal of Geography and Natural Resources, 2(02), 25-32.
9. Makhkamov, E. G., Umurzakova, G. A., & Gopporova, F. B. (2022). PROSPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN FERGANA PROVINCE. Journal of Geography and Natural Resources, 2(02), 33-39.
10. Topvoldievich, Pirnazarov Ravshan, and Muhitdinov Ilhomjon Ikhtiyorjon Ugli. "Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley." JournalNX 6.12: 264-267.
11. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." Scientific progress 2.8 (2021): 823-825.
12. Xolikov, Raximjon, and Otabek Qo'chqarov. "BASIC PRINCIPLES OF URBANEKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT." Конференции. 2021.
13. Хамидов, А. А., and М. Н. Дехканбаева. "ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 881-886. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR www.bestpublication.org 447
14. Абдурахмонов, Дилмуроджон. "ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ." IJODKOR O'QITUVCHI 2.21 (2022): 58-63.



14. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li, and Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov. "FARG 'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI." Scientific progress 2.3 (2021): 975-980.

15. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, and Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION." Scientific progress 2.3 (2021): 986-989.

16. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." Scientific progress 2.8 (2021): 823-825.

17. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li. "SO 'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI." Academic research in educational sciences 2.7 (2021): 286-290.

18. Muhitdinov, I. I. "Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omlarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida)." magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona 87 (2021).

19. Абдурахмонов Д. ФАРФОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ-ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ //О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 314-317.



ШАХАРСОЗЛИҚДА РЕЛЬЕФ, СУВ ОБЪЕКТЛАРИ ВА ЛАНДШАФТ ҚУРИЛМАЛАРИ.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853432>

Кучқорова Махсуда Махкамовна

Фарғона давлат университети география кафедраси ўқитувчиси.

Аннотация: Ушбу мақолада шаҳарсозлик ишларида рельеф, сув объектлари ва ландшафт қурилмаларининг ўрни уларнинг аҳамияти ҳақида маълумотлар берилган ва таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: тиргак деворлар, зинапоялар ва пандуслар, боғ-парк йўллари, алпенарий ва рокарийлар.

Асосий қисм. Тиргак деворлар. Ўтмишда қияликлар, тоғ этаклари ва қирлик жойларда барпо этилган боғ-парклар худудлари бир неча текис поғоналарга бўлиб чиқилиб, бу сахинлар бир-биридан тиргак деворлар ёрдамида ажратилган. Бундай тиргак деворлар, одатда тупроқ босим кучи ва нурашига йўл қўймаслиги учун мустаҳкам ишланиши зарур бўлган. Шу боисдан улар табиий тошлардан ишланган. Тиргак деворларни ҳозирги пайтда тарихий боғлар ва замонавий паркларда ҳам кўп учратиш мумкин.

Тиргак деворлар боғ-парклардаги нотекис худудларни чиройли ва манзарали ташкил этишда жуда қўл келади. Улар жой ландшафти ёки рельефининг гўзал манзаравий элементи ёки таркибий қисми бўлиб ҳам хизмат қилиш мумкин. Айниқса уларнинг ёнига “миксбордер” гулзор, “осма боғлар” ёки шаршаралар ишланса, тиргак деворлар янада гўзаллашиб кетиши мумкин.

Агар тиргак деворлар боғ-парк худудида ёки ер рельефида жуда чўзилиб кетса, уларни бошқа декоратив элементлар билан, масалан скамейка, зинапоя, пандус, равоқ, шаршара, тоқчалар ёрдамида бўлиб, уларнинг бир хиллигига барҳам бериш мумкин.

Тиргак деворлар учун материал тарзида табиий тошлар, бетон, антисептикаларга тўйинтирилган ёғочлар хай-тек стилидаги боғлар учун эса ялтироқ юзали метал листлар қўлланилади.

Тиргак деворлар баландлиги турлича бўлиши мумкин. Баландлиги 25-30 см бўлган тиргак деворлар, одатда, пойдеворсиз ишланиб, уларнинг материалерга 15-25 см чуқурликдан териб чиқилади. Баланд тиргак деворлар учун эса пойдевор бўлиш шарт ва у, одатда, девор баландлигининг 13 қисмини ташкил қилади.

Тиргак деворларни қурганда дренаж қатламини унитмаслик керак ва бунинг учун девор ичига диаметри 5-10 см бўлган қувур қўйилиб кетилади. Тиргак деворлар юзаси турлича: синган, бурчакли, тўғри бурчакли, чиққан-



кирган ромб кўринишда ёки қовирғали бўлиши мумкин. Тиргак днворлар девор асосидан юқорига қараб 10-15 градус қияликка эга бўлиши керак.

Тиргак деворлар уч усулда кўкаламзорлаштирилиши мумкин: пасдан юқорига қараб тирмашувчи ўсимликлар билан юқоридан пастга қараб осилиб ўсувчи ўсимликлар билан ва девор ичида ишланадиган махсус токчалар ёки “киста”ларга экиладиган ўсимликлар билан.

Учинчи услуб учун қўлланадиган ўсимликлар қаторига бурчак скалний, вероника седая, девясил мечелистний, овсянитса красная, гваздика перистая, живучка ползучая, карлина бесстебелная ва бошқаларни киритиш мумкин.

Зинапоялар ва пандуслар. Зинапоялар қиялик жойларда маскан ёки ландшафт мухитда баландликка ёки пастга поғонадан поғонага (сахндан сахинга) қараб ҳаракатланишга мўжжалланган қурилмалардир. Зинапоялар вертикал ва горизонтал юзалардан иборат бўлиб, тик юза уларнинг баландлигини, одатда 15-18 см горизонтал юза эса уларнинг энини (60-65см атрофида) ҳосил қилади. Парклар ва боғларда зиналар баландлиги одатдагидан пастроқ 10-12 см эни 40-45 см бўлади. Мураккаб рельефли жойларда (қиялиги 10 градусдан катта) яни 1 метрли қияликда, паст ва баланднинг фарқи 10см ва ундан ортса зинапоялар ўрнатилиши шарт. Агар қиялик бундан паст бўлса бундай рельефда ҳаракатланиши учун зинапоялар эмас, балки “пандуслар” ишланади. Пандусларда тик юзалар бўлмайди. Уларнинг юзи қия бўлади. Пандуслар эни зинапоялар каби боғ ва паркларда 1,2 м дан бошлаб 2,4-3,6 м ва ундан ҳам кенгроқ бўлиши мумкин. Бу ердаги 1,2 м икки кишининг ёнма-ён эркин ҳаракатланиши учун талаб этиладиган энг қисқа масофадир.

Зинапоялар турли хил материаллардан: тошлар, ғиштлар, бетонлар ёки ёғочлардан ишланиши мумкин. Энг мухими уларнинг юзаси силлиқ, яни сирпанчиқ бўлмаслиги керак. Зинапоялар бир ёки кўп маршли бўлиши мумкин. Кўп маршли зинапояларда маршлар орасига майдончалар (гаризонтал сахинлар) ишланади.

Зинапоялар амалий вазифадан ташқари декоратив аҳамиятга ҳам эга. Декоратив зинапоялар, айниқса, Европа Уйғониш даврининг итолянча боғларига хосдир. Зинапояларнинг декоратив хусусиятини ошириш мақсадида уларнинг четлари бўйлаб перила ёки балясиналар ўрнатилиб, уларнинг ёнига лианалар экиладики, улар ушбу балястналарга чирмашиб гўзал манзараларни ҳосил қилади. Кўпмаршли зинапояларнинг горизонтал майдончаларига ўсимликлар ўрнатилган кантенерлар жойлаштирилса зинапоялар кўриниши янада самарали бўлади.

Боғ-парк йўллари ва уларнинг тўшамалари. Хиёбон ва йўллар бир неча турларга: асосий, иккинчи даражали, қўшимча пиёдалар йўллари, пиёдалар хиёбонлари ва йўлларига бўлинади.

Асосий йўлларнинг эни 6-9 м бўлиб, уларнинг ўртасига кенглиги 2 м атрофидаги ажратувчи яшил тасмалар ётқизилади, яшил тасмаларнинг хар 25-



30 м атрофида ўтиш жойлари бўлади. Улар ўзининг асосий кириш жойларига эга бўлган функционал зона ва майдонларни бир-бирига боғлайди. Бу майдонларда паркиннг ички транспорти ўтиладиган йўллари ўтказилади. Агар хиёбон сув хавзаси ёки қирғоқ ёнидан ўтадиган бўлса, унинг кўндаланг кесими турли поғоналарда, қиялик, деворча ва зинапоялар билан боғланган холатда ечилиши зарур.

Иккинчи даражали йўлаклар (3-4,5 м) манзарали жойларда ўтиши трассалаштирилиши ва эгри тизикли қирраларга эга бўлиши мумкин. Иккинчи даражали йўлакларнинг кириш жойлари ва парк объектлари ўзаро боғланади. Бундай йўлакларда эксплуатацион транспорт воситаларининг ҳаракатига рухсат берилади.

Қўшимча пиёда йўлаклари (эни 1,5-2,5 м) дам олувчиларни паркиннг алоҳида жойлашган иншоотларига олиб боради. Бу ерда кичик тез-тез пиёда ҳаракатлари амалга оширилади ва транспорт воситаларининг ҳаракатларини йўл қўйилмайди. Кичик пиёда йўлаклари эркин трассировкага эга бўлиши мумкин бўлган ҳар бир қурилишобъекти билан, парк иншоотлари, ўсимликларнинг ягона ва гурухли массивлари билан туташтирилиб боғланади. Сўқмоқлар (эни 0,75-1,0 м) табиий характерга эга бўлган ландшафтда қўшимча сайр қилиш йўлакларини акс эттиради. Сўқмоқлар кескин қияликлар, чангалзорлар жарликлар, жилға бўйларидан трассировка қилиниши мумкин. Замонавий пиёда йўлаклар ва уларнинг қопламалари боғ ва парк ландшафти билан боғланиши кўрсатилган.

Хиёбон, парк майдончалари ва йўлларнинг қопламалари. Майдончалар ва йўлакларнинг қопламаларини юмшоқ ва тошли қопламалардан ёки уларнинг қўшилмасидан қуриш мақсадга мувофиқдир. Клинкер, парферит, ғадир-будир гранит ва мрамарли қопламалар узоқ муддатли, тежамкор ва энг қулай табиий материаллардир. Уларнинг қиммат бўлишига қарамай узоқ фойдаланишга ва юқори юкланишга мўжжалланган майдонларда ҳамда пиёдалар йўлакларида кўпроқ қўлланиши лозим, уларниқисқа муддатли ва экологик бўлмаган битон плиталарга, брусчатка ва айниқса асфалт қопламаларга алмаштирмаслик керак.

Боғ ва паркларнинг энг муҳим таркибий элементларидан бири-бу асосий йўлаклар ва уларнинг тўшамаларидир. Улар боғ ва паркларнинг турли қисимлари ва зиналарини бир-бири билан боғлайди ҳамда инсонларни эркин юриши учун хизмат қилади.

Йўлаклар бир-биридан эни ёпмаси ва тўшамасининг тури қўлланилган материали ва тўшамасидаги технолошиясига қараб фарқланади. Иморотларга элтувчи асосий йўлакларнинг эни 1,2-1,5 м, 2-даражали йўлакларники эса 1м қилиб олинади. Тўшамалар турига қараб плитали, тошли, блокли, битон, майсали бўлиши мумкин.

Алпинария ва рокариялар. Аждодларимиз ўз тарихий ҳаёти фаолияти давомида боғларни безаш учун сув ва тошларни ишлатган кейин чалик



тошларни- йўлаклар, тўшамалар ва бардиюрлар учун қўллаганлар. Алишнаррия тарихи британияда бошланиб 18-аср бошида табиий тошларни декоратив элемент сифатида боғларга ишлатишган. Бу даврда боғларда тошлардан тепаликлар, гротлар ва катта-катта табиий тошлар грухлари яратилиб, улар орасида ўсимликлардан папаротниклар экилган.

Тошлар ва сув жозибасини ҳисобга олган ҳолда, дала ховлилари ва уларнинг атрофлари улар ёрдамида безатилиб шу тариқа ҳудуднинг табиийлиги тaminланган. Яқин вақтларгача ҳудудларни сунний равишда тош ва сув билан безаш фақат таъминланган бой кишиларнинг қўлидан келар эди. 19-асирда англия боғларида табиий тошлардан равоқлар ва деворлар қуриш урфга айланди. 20-асирга келиб боғларда сув хавзалари ва фаввораларни қуриш оддий боғбоғларнинг ҳам қўлидан келарди. 19-асир охирида улкан табиий тошдан ясалган иншоотлар урфдан чиқади.

1772 йили физик Гарден ўзининг ўсимликлар коллесиясига Швецариянинг Алп тоғларидан ўсимликлар келтиради. Уларни экиш жойи исланд грависи ва базалт лаваси тошларини киритиб, улардан алп тоғ тошларига ўхшаў “Алпинария” ёки “тошли боғ” атамаси шу қурилмалардан келиб чиқади. Тошлар орасида ўсимликларни ўстириш ғояси Британияда аста секин ривожлана бошлайди. 1860 йилларда алпинариялар Британия боғларида етакчи ўринни эгаллайди. 1867 йили Лондон яқинидаги Кю боғларида алпенариялар қурилади. 1870 йили У.Робинсоннинг “Британия боғлари учун алп ўсимликлари” деган китоби чоп этилади. Британия боғларида алпенариялар қурилиши учун 20-асирнинг бошларигача Боксборн (Хартфордш) шахридан тошлар олинарди.

Алпинарияларнинг ривожланиш даври ва одамларнинг уларга бўлган қизиқиши 20-асирнинг учинчи ўн йиллигига тўғри келади. Бу даврга келиб Режиналд Фирернинг “Менинг тошли боғим” деган китоби чоп этилади.

20-асирнинг 20-30 йиллари алпенарияларнинг ҳамма боғларида қўлланиш йўлга қўйилади. Бу алпенарияларнинг оммалашиш даври деб ҳисобланади бу даврга келиб алпенария ўсимликлариу алпенарияларнинг оммалашиш даври деб ҳисобланади бу даврга келиб алпенария ўсимликларини оддий ўсимликлар қаторига йетиштириш ва кўпайтириш ғояси олдинга сурилади. Ўсимликлар асартименти, ошиб ҳеч қандай қийинчиликларсиз алп ўсимликларини йетиштириш йўлга қўйилади. Алпенариялар ва уларнинг ўсимликларини боғ-парк ҳудудларида қўлланилиши ҳозирги кунгача давом этмоқа.

Алпинарияларнинг ҳудудда жойлашишига қараб, 6 хил тури мавжуд: зинали тоғ қиялиги, столлар ва тумбалар кўринишидаги тоғ тошлари, ясси тоғли тош, терассали тоғ, қоятош ва тошлоқ водий кўринишидаги алпенариялар.

Ҳозирги кунда алпинария ёки раокарияларнинг 10 хил ўстириш усуллари мавжуд.

-осиб (сочилган деган маънони беради) – бундай тошлар, асосан, майда тошлардан ташкил топади. Ичида базан катта тошлар ҳам учрабтуради.



-кўтарилган клумба (гулдон)- деворлари тошлардан терилган бўлиб, экиш ери тнпа гулдонга жойлашган;

-раковина ёки карито (чиғанок ёки тоғора) – бу услуб 1930 йилдан бошлаб қўлланилмоқда, контейнерларга экилган ўсимликни хохлаган жойга қўйиш мумкин.

-қуриқ тошли девор- бу тошли тиргак деворлардан фойдаланиш имконини беради.

-торфли клумба.

-тош йўлакчалар

-сунний қоялар.

-алп кичик майсазори.

-Алп ўсимликлари учун (теплиса) иссиқхона.

Алп ўсимликлари деб тоғли худудларда (Алп химолай тоғлари, қоятошли тоғлар, тоғ чўққилари ва ўрмонлар тизимидан анча юқорида) ўсадиган кўп йиллик ўтлар, буталарга айтилади.

Алп ўсимликлари грухнинг биринчиларидан бўлиб, Идел Вайс ўсимлиги қўлланилган. Уни Шветсария Алп тоғлардан келтириб, алпенарияга эккан. Бу ўсимлик бўйи паст бўлиб, хаддан хзиёд яшовчан, қуёш нурларини юққтириувчи, совуққа чидамлилиги билан ҳам ажиралиб туради.

Алпинарияда фақат алп ўсимликлари ўстирилмай денгиз қирғоқларида ўсадиган фронкения ва ўрмонларда ўсадиган ўсимликлар(гаултерия, ваксиннум) ҳам қўлланилиб келинмоқда сотувда учрайдиган “алпинариялар учун ўсимликлар” деб номланган ўсимликларни табиятда учратмайсиз шу сунний йўл билан етиштирилган гибридлардир.

Алпенарияларни ташкиллаштиришдан олдин, тоғ тошларини кераклича текшириб танлаб, ғамлаш зарур (гранит охактош.) Устки қисми мохлар билан қопланган тошлар тавсия этилади. Худудга тошларни ўрнатишдан олдин, шебен қатлами ёрдамида(қалинлиги 15 дан20 см гача) дренаж қатлами яратилади. Дренаж устидан хосилдор ер қатлами (қалинлиги 30 дан 40 см гача) тўкиладики, у гумус билан (10% гача) бойитилган бўлиши керак.

Тошларни хосилдор ерга жойлаштиришда хар бир тошнинг табиийлиги кўрсатилган холда учдан икки қисми чўктирилади. Тошлар орасига экилган ўсимликлар паст бўйли ва кўп йиллик бўлиши лозим. Тошлардан очиқ қолган жойларга ўзига хос “гилам” кўринишли ўсимликлар (тимян, очиток, флокус) экилади. Алпенарияларда минерал ўғитларни қўллаш қаттиян ман этилади. Йил давомида алпенариялар ерларини бир мартта юмшатиш ва бегона ўтлардан тозалаб туришга рухсат берилади. Бази холатларда алпенария ўсимликларини тамир жихатларидан алмаштирилишига рухсат берилади.

Алпенарий ва рокарийлар- тошлик боғ хисобланиб ландшафли, тоғли ва бошқа табиий шакилланиш кўринишда бўлади, бадий, шйлаб топилган ёки тоғ худудининг идеяллаштирилган образини яратувчи коллекцион ўсимликларни



етиштирувчи турлари мавжуд. Рокарийлар худуд манзарасининг ўлчамлари ва тупроқ шарт шароитлардан қаттиқ назар ихтиёрий майдончаларда вужудга келтирилади улар парклар боғлар скверлар майдончалар, дала ховлилар ва бошқа нотекис релйефли жойларда шакиллантирили мумкин.

Рокарий тепаликлар релйефини ажратиб туриши ёки терассаларда ва зинапоялар жойлашиб, тошлар хамда ўсимликлар билан бирга қўшиб барпо қилиниши мумкин. Тошлар паст бўйли дарахтлар ва буталар, гуллаб турувчи майсали хамда декоратив баргли ўсимликлар учун кўриниш- фан вазифасини ўтайди. Рокарийлар худудини кўкламзорлаштириш учун кўпинча седум, юкка, тўшама флокус, попоротниклар, пиёзли ўсимликлар экилади. Рокария худудининг ёритилишига қараб ўсимликларни – офтобгўй, яни қуёшни ёқтирадиган (семизак, флокус бигизсимон, артерия ва бошқалар) ёки сояга чидамли (купена, сув жамлагич, винка ва х.к.) каби турларга бўлиш мумкин.

Тошдан ишланган композитсиялар. Тошлар ва тоғ жинслари бундай холатдаги жинслар табиий тарзда учрамайдиган жойларда қўлланилади. Бундай холатларда керакли тошларнинг танланиши лойихаланаётган жойнинг рельефи билан мутаносиб бўлиши хамда ушбу худуддаги шамол харакати жараёнларининг хусусиятларини хисобга олиш керак.

Тошлардан ишланган композитсияларнинг аъмалий ва эстетик қадир қиммати шунда билинадикки, агар улар лойхаланишнинг умумий қонун қойидаларига ва табиатда учрайдиган шакиллардек тўғри ишлатилса, мақсадга мувофиқ бўлади. Агар тошлардан ишланаётган композитсия лойихаланаётган худудда яратилаётган бўлса ва худудда асл холатдаги тоғ жинслари мавжуд бўлса, у холда бу қояларнинг холати лойиха олдидан яхшилаб ўрганиб чиқилиши ва уларни яратилишда қўлланилиши керак. Тошдан ишланадиган композитсиянинг асосий мезони, атрофидаги табиий ландшафт билан ҳамоханг бўлишлигидадир.

Янада аниқлик кириш учун, бир эмас бир неча ўзаро муносабатдаги тошлиқ композитсияларни аниқ бир “мавзули чизиқни” барпо этишда қўллаш мумкин. Мисол учун: тошларни бир жойга монолит дўнглик кўринишда, бошқа вариантда ихчам грух шаклида учинчида эса хар тарафга сочиб ташланган тасвирий гурух шаклида жойлаштириш мумкин. Агар лойхаланаётган майдон ўзига хос табиатга эга бўлиб унинг манзараси атроф мухитдаги ландшафт табиятига қарама қарши бўлса, у холда уни(меморий иншоатлар таянтилган девор дарахтзорлар ва х.к.) била чегаралаш керак. Тошли материалларнинг қўлланилишига қўйиладиган асосий талаблардан бири унинг мустахамлиги узок муддатга чидамлилиги, кимёвий тажаввузкорлигидир. Шаҳарсозликда табиий шароитни баҳолаш ва оптималлаштириш бўйича ўрганилган манбалар, маълумотлар ва хулосаси сифатида қуйдагиларни этироф этамиз:

1.Шаҳарлар қурилишида табиий шароит энг асосий омил ҳисобланиб, унинг қулайлиги шаҳарлар ландшафт дизайнини яратишга хизмат қилади;



2. Шаҳарлар қурилишида ва уларнинг ҳудудий жойланиши, шаҳар архитектурасида рельеф, иқлим, сувлар ва сув хавзалари муҳим ўрин эгаллайди.

3. Ўрта Осиё ва хусусан Фарғона водийси шаҳарларининг қурилишида дарё ва сойликлар асосий манба ҳисобланган.

4. Табиий шароитга мутаносиб бўлган шаҳарсозлик объектлари, табиий ландшафт кўринишини сақлаб қолишга хизмат қилади.

5. Шаҳарлар қурилишида ва уларнинг кейинги ўсишида, аҳолининг яшаш шароитларини яратишимизда биоиклимий кўрсаткичлар муҳим ўрин эгаллайди.

Фойдаланган адабиётлар руйхати:

1. Уралов С.А., Садикова С.Н. Ўрта осие анъанавий “Чорбоғ” услуги ва замонавий боғ-парк санъати. Т:2012

2. ШНҚ 2.07.04-06. “Қишлоқ хўжалик корхоналари ҳудудларини режалаштириш ва ташкил қилиш ” шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари. Т:2006.

3. ШНҚ 2.07.01-03. “Шаҳар ва қишлоқ аҳоли пунктлари ва ҳудудларини ривожлантириш ва қурилишни режалаштириш” шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари. Т: 2009.

4. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. Экономика и социум, (10), 477-480.

5. Кучкорова, М. М. (2019). ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ УРБОЭКОЛОГИЧЕСКО ТЕРРИТОРИАЛЬНОЕ ОРГАНИЗАЦИИ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА. Экономика и социум, (10), 477-480.

6. Mahsuda, Q. C. (2022). The Importance of Protected Natural Areas in Preserving Rare Landscapes. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH, 3(1), 330-333.

7. Qo'chqorova, M. M. (2022). THE ESSENCE, STRUCTURE AND IMPORTANCE OF TOURISM INFRASTRUCTURE. Scientific progress, 3(1), 1040- 1043.

8. Abduganiev, O. I., & Makhkamov, E. G. (2022). ECOLOGICAL TOURISM IN PROTECTED NATURAL AREAS. Journal of Geography and Natural Resources, 2(02), 25-32.

9. Makhkamov, E. G., Umurzakova, G. A., & Gopporova, F. B. (2022). PROSPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN FERGANA PROVINCE. Journal of Geography and Natural Resources, 2(02), 33-39.

10. Topvoldievich, Pirnazarov Ravshan, and Muhitdinov Ilhomjon Ikhtiyorjon Ugli. "Hydrological Description of Some Small Mountain Rivers in the Fergana Valley." JournalNX 6.12: 264-267.



11. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." Scientific progress 2.8 (2021): 823-825.

12. Xolikov, Raximjon, and Otabek Qo'chqarov. "BASIC PRINCIPLES OF URBANEKOLOGICAL TERRITORIAL ORGANIZATION OF URBAN DEVELOPMENT." Конференции. 2021.

13. Хамидов, А. А., and М. Н. Дехканбаева. "ИССЛЕДОВАНИЕ БИОГЕОГРАФИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 881-886. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 2 – SON / 2022 - YIL / 15 - OKTYABR www.bestpublication.org 447

14. Абдурахмонов, Дилмуроджон. "ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ГЕОЭКОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ." IJODKOR O'QITUVCHI 2.21 (2022): 58-63.

15. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li, and Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li Mamatisakov. "FARG'ONA VODIYSINING JANUBIY QISMI GIDROGRAFIYASI." Scientific progress 2.3 (2021): 975-980.

16. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, and Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ECOTOURISM IN THE PROTECTED NATURAL AREAS OF FERGANA REGION." Scientific progress 2.3 (2021): 986-989.

17. Mamatisakov, Jahongirmirzo Jamoliddin O'G'Li, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li Muhitdinov, and Ablazbek Erkinjon Ogli Madraximov. "PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL TOURISM IN FERGANA REGION." Scientific progress 2.8 (2021): 823-825.

18. Muhitdinov, Ilhomjon Ihtiyorjon O'G'Li. "SO 'X DARYOSI OQIMINING SHAKLLANISHIDA GIDROMETEOROLOGIK OMILLARNING ROLI." Academic research in educational sciences 2.7 (2021): 286-290.

19. Muhitdinov, I. I. "Kichik tog'daryolari oqiminig shakllanishida meteorologik omllarning roli (Farg'ona vodiysining janubiy qismi misolida)." magistrlik dissertatsiyasi.-Farg'ona 87 (2021).

20. Абдурахмонов Д. ФАРФОНА ВОДИЙСИНИ РЕГИОНАЛ-ЛАНДШАФТ ТАДҚИҚОТЛАРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 314-317.



ТЕРМОКОНЦЕНТРАТНИ КИСЛОТАЛИ ҚАЙТА ИШЛАШ ЧИҚИНДИСИДАН СУЮҚ КАЛЬЦИЙ ХЛОРАТ ОЛИШ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7853437>

Собиров Мухторжон Махаммаджанович

*Наманган муҳандислик-қурилиш институти,
техника фанлари бўйича фалсафа доктори*

Тохиржонова Нозима Тохиржон қизи

Наманган муҳандислик-қурилиш институти, талаба

Фосфат хом ашёларини хлорид кислота билан қайта ишлаб, турли хил таркибга эга бўлган самарали ўғитлар олинган. МҚ ювиб куйдирилган фосфорит концентратини (ЮКФК) хлорид кислотанинг тўлиқсиз меъёрларида қайта ишлаб юқори самарадорликка эга бўлган азот, фосфор, калийли мураккаб ўғитлар ҳамда жараёнда ҳосил бўлган кальций хлориднинг чиқинди эритмаларидан дефолиантлар олиш технологиясини ишлаб чиқиш бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб бориш долзарб масалалардан биридир.


Юқоридагилардан келиб чиқиб, фосфорли ўғит олиш жараёнида фосфритларни хлорид кислотасида парчалаш натижасида ҳосил бўлган 20-25%ли кальций хлоридли техноген (чиқинди) эритма ва кристалл ҳолдаги натрий хлоратини қўллаш орқали суюқ кальций хлоратли дефолиант олинди ва тавсия этилди [1-20]. Техноложик жараён асосан қуйидаги босқичларни ўз ичига олади:

- фосфатли бўтқадан кальций хлорид эритмасини ажратиб олиш;
- кальций хлорид эритмаси ва натрий хлорати иштирокида конверсия жараёнини олиб бориш, конверсия жараёнида ҳосил бўлган бўтқадан натрий хлорид чўкмасини ажратиш;
- ҳосил бўлган эритмани совитиш ва натрий хлорати тутган бўтқани филтрлаш;
- тайёр маҳсулотни таралаш.

Фосфат хом ашёсини парчалаш натижасида ҳосил бўлган хлоридли эритма 20-25% концентрацияда $pH=2,7-2,8$ га тенг бўлган эритма нейтрализатор қурилмасида $pH=5,5-6,0$ гача нейтралланади ва у ердан йиғичга берилади. Эритма йиғичдан сарф ўлчагич орқали асосий қурилма – реакторга берилади. Реактор махсус аралаштиргич ва буғ қобиғидан иборат. Реакторга берилган кальций хлорид миқдорига мос равишда кристалл ҳолдаги натрий хлорат сарф ўлчагич орқали берилади ва конверсия жараёни олиб борилади, унинг давомийлиги 90 дақиқа, ҳарорат $100^{\circ}C$, жараён интенсив аралаштириш ва буғлатиш билан олиб борилади (1-расм).



Реакция натижасида ҳосил бўлган бўтқа марказдан қочма насос ёрдамида вакуум филтрга берилади ва у ерда бўтқа таркибидан иссиқ филтрлаш орқали натрий хлориди ажратиб олинади. Филтрлашдан кейин иссиқ эритма ўз оқими билан махсус кристаллизатор-совитгичга берилади. Бу қурилма айланма сув ёрдамида мунтазам совитиб борилади. Натижада бу қурилмада реакция натижасида таъсирлашмаган натрий хлорати чўкмага тушади ва иккиламчи бўтқа ҳосил бўлади. Бу чўкма вакуум-филтр орқали филтрланади ва ажратиб олинган натрий хлорати қайтадан жараёнга киритилади.



1-расм. Суюқ кальций хлорат-хлоридли дефолиант олишнинг технологик схемаси. 1-сарф ўлчагич, 2-дозатор, 3-дефолиант синтези учун реактор, 4-вакуум филтр, 5-кристаллизатор, 6-қадоқлаш қурилмаси, 7-насос

Ҳосил бўлган эритма эса, тайёр маҳсулот ҳисобланиб, маҳсус 50 ёки 100 дм³ ўлчамли полимер сиғимларга қуйилади ва омборга ёки истеъмолчига юборилади. Олинган кальций хлорат-хлоридли дефолиант шунингдек истеъмолчи талаблари асосида турли қўшимча компонентлар билан бойитилиши ҳам мумкин, яъни унинг таркибига турли синергетик қўшимчалар киритиш ҳам мумкин [21-53].

Олинган маҳсулотнинг физик-кимёвий кўрсаткичлари жадвалдаги меъёрларга мос келиши лозим (1-жадвал).

1-жадвал

Суюқ кальций хлоратнинг физик-кимёвий кўрсаткичлари

| Кўрсаткич номлари | Меъёри |
|-------------------|--------|
|-------------------|--------|



| | |
|---|-------------------------------|
| - Ташқи кўриниши | Сариқ тусли гомоген эритма |
| - кальций хлорат масса улуши, %дан кам эмас | 30,0 |
| - кальций хлорид масса улуши, %дан кўп эмас | 10,0 |
| - натрий хлорат масса улуши, %дан кўп эмас | 1,0 |
| - сув миқдори, %дан кўп эмас | 53,0 |
| - Солиштирама оғирлиги, кг/м ³ | 1,49-1,50 |

Таклиф этилган технологик тасвир Фарғона политехника институти ва Наманган муҳандислик-технология институти катталаштирилган синов тажриба қурилмаларида, шунингдек, "ELEKTROKIMYOZAVOD" ҚК АЖда синовдан ўтказилган. Жараён аввалида дастлабки эритмалар ва хом ашёларнинг таркиби таҳлил қилиниб, зарурий компонентлар миқдори эквимоляр нисбатлар бўйича келтириб чиқарилган. Технологик тажрибалар давомида таркибида 30,0%дан кам бўлмаган кальций хлорати тутган суяқ дефолиант олиш имкони мавжудлиги исботланди. Тадқиқотлар асосида дефолиант олиш учун қуйидаги технологик параметрлар аниқланди:

Конверсия давомийлиги 80-90 дақиқа;

кальций хлориди : натрий хлорати = 1:2;

20,0-25,0% кальций хлориди: натрий хлорати = 1:0,536;

Конверсия ҳарорати 100°C;

Натрий хлоридини филтрлаш ҳарорати 100°C,

Натрий хлоратини филтрлаш ҳарорати 20°C.

Натрий хлоратини кристаллизация давомийлиги 4-5 соат.

Қуйидаги жадвалларда технологик режим меъёрлари, нисбий калькуляция ва 1 т маҳсулот ишлаб чиқариш учун моддий баланс келтирилган (2-, 3- ва 4-жадвал).

Конверсия жараёнида 20,0% дан кам бўлмаган асосий компонент тутган кальций хлорид эритмаси ва ГОСТ 12267-77 бўйича кристалл ҳолдаги натрий хлоратини қўллаш тавсия этилади.

2-жадвал

Суяқ кальций хлорат-хлоридли дефолиант олишнинг технологик меъёрлари

| Жараён ва реагент номи | Давомийлиги, дақиқа | Ҳарорат, °C | 1 т маҳсулот учун сарф миқдори, кг |
|-------------------------------------|------------------------|----------------|---------------------------------------|
| - кальций хлорид эритмасини юклаш; | 10-15 | 25-30 | 2144,92 |
| - натрий хлоратини юклаш | 10-15 | 20-25 | 1029,0 |
| - конверсия; | 60-65 | 100 | 3173,92 |
| - натрий хлоридини филтрлаш | 15-20 | 100 | 564,64 |
| - филтрланган эритмани совитиш; | 200-250 | 20 | 1308,68 |
| - натрий хлоратли бўтқани филтрлаш; | 15-20 | 20 | 308,7 |
| - маҳсулотни қадоқлаш. | 15-20 | 20-25 | 1000 |



3-жадвал

1 тонна суюқ дефолиант олишнинг моддий баланси

| Номланиши | Миқдори, кг | | | | | Жами, кг |
|--------------------------------------|-------------|-------------------|--------------------|------------------------------------|------------------|----------|
| | NaCl | CaCl ₂ | NaClO ₃ | Ca(ClO ₃) ₂ | H ₂ O | |
| Келиши | | | | | | |
| 1. 25%-ли CaCl ₂ эритмаси | - | 536,23 | - | - | 1608,69 | 2144,92 |
| 2. Натрий хлорати | - | - | 1029 | - | - | 1029,0 |
| Жами келиши | - | 536,23 | 1029 | - | 1608,69 | 3173,92 |
| Сарфи | | | | | | |
| 1. Натрий хлориди | 564,64 | - | - | - | - | 564,64 |
| 2. Натрий хлорати | - | - | 308,7 | - | - | 308,7 |
| 3. Буғланган сув миқдори | - | - | - | - | 1300,6 | 1300,6 |
| 4. Суюқ кальций хлоратли дефолиант | 40 | 100,0 | - | 340,0 | 500,0 | 1000,0 |
| Жами сарф | 604,64 | 100 | 308,7 | 360 | 1800,6 | 3173,9 |

Тавсия этилган технология "ELEKTROKIMYOZAVOD" ҚК АЖДа муваффақиятли синалган бўлиб, 2019-2020 йилларда 380 кг миқдордаги суюқ кальций хлорат-хлоридли дефолиант ишлаб чиқарилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Turgunovna, A. S., Sadriddinovich, B. N., & Mahammadjanovich, S. M. (2021, April). Kinetics of Decomposition of Washed Roasted Phosphoconcentrate in Hydrochloric Acid. In *E-Conference Globe* (pp. 194-197).

2. Собиров, М., Назирова, Р., Хамдамова, Ш., & Таджиев, С. (2022). Интенсификация процесса получения комплексных суспендированных удобрений с инсектицидной активностью. *Publishing house «European Scientific Platform»*, 136-136.

3. Roziqova, D. A., Sobirov, M. M., & Nazirova, R. M. (2020). Hamdamova Sh. *Production of nitrogen-phosphorus-potassium fertilizers based on washed hot concentrate, ammonium nitrate and potassium chloride//Academicia an international multidisciplinary research journal*, 10(9), 215-220.

4. Roziqova, D. A., Sobirov, M. M., Nazirova, R. M., & Hamdamova Sh, S. H. (2020). Obtaining Nitrogen-Phosphoric-Potassium Fertilizers Based on Waste Thermal Concentrate, Ammonium Nitrate and Potassium Chloride. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(7), 14501-14504.

5. Розикова, Д. А., Собиров, М. М., Хамдамова, Ш. Ш., & Рахимов, Х. (2020). Разложение и промывки мытого обожжённого фосфоконцентрата центрального кызылкума. *Universum: химия и биология*, (2 (68)), 72-75.

6. Собиров, М. М., Таджиев, С. М., & Султонов, Б. Э. (2016). Получение суспендированных NPK-удобрений с инсектицидной активностью. *Химическая промышленность*, 93(3), 119-125.



7. Собиров, М. М., Таджиев, С. М., & Султонов, Б. Э. (2017). Получение суспендированных серосодержащих NPK-удобрений на основе необогащенной фосфоритовой муки. *Химическая промышленность*, 94(3), 129-135.

8. Sobirov, M. M., Tadjiev, S. M., & Sultonov, B. E. (2015). Preparation of phosphorus-potassium-nitrogen containing liquid suspension fertilizers with insecticidal activity. *Journal of Chemical Technology and Metallurgy*, 50(5), 631-637.

9. Джураева, Д. У., & Собиров, М. М. (2022, December). ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ СУСПЕНДИРОВАННЫХ СЛОЖНЫХ УДОБРЕНИЙ С ИНСЕКТИЦИДНОЙ АКТИВНОСТЬЮ. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 3, pp. 175-190).

10. Собиров, М. М., Таджиев, С. М., & Султонов, Б. Э. (2017). Изучение процесса пенообразования при разложении серосодержащих высококарбонатных фосфоритов азотной кислотой. *Химия и химическая технология*, (2), 21-27

11. Собиров, М. М., Махсудова, З. И., Урозов, Т. С., & Таджиев, С. М. (2016). Жидкие и суспендированные серосодержащие сложные удобрения/«Илмий ахборотнома» Самарқанд,(5-С), 68-72.

12. Розикова, Д. А., Собиров, М. М., Хамдамова, Ш. Ш., & Арипов, Х. Ш. (2020). Получение NPK-удобрений на основе термоконцентрата месторождения кызылкум, карбамид-аммиачной селитры и хлорида калия. *Universum: химия и биология*, (8-2 (74)), 25-28.

13. Mahammadjanovich, S. M., Muhitdinovich, T. S., & Elbekovich, S. B. (2016). Obtainment of suspended phosphorus-potassium containing nitrate. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (9-10), 95-100

14. Mahammadjanovich, S. M., Elbekovich, S. B., & Muhitdinovich, T. S. (2016). Suspended sulfur containing fertilizers based on low-grade Kyzyl-kum phosphorites. *Austrian Journal of Technical and Natural Sciences*, (7-8), 70-75.

15. Rakhmanov, S. V., Sobirov, M. M., Nazirova, R. M., & Hoshimov, A. A. (2020). Study of the kinetics of decomposition of sulfur-containing phosphoric nitric acid. *Scientific-technical journal*, 24(4), 65-68.

16. Sobirov, M. M., Raxmonov, S. V., Urozov, T. S., & Aslanov, A. (2020). Studying the kinetics of the decomposition of sulfur-containing phosphorites by nitric acid. *Scientific Journal of Samarkand University*, 2020(1), 77-80.

17. Икрамов, М. Х., Собиров, М. М., & Таджиев, С. М. (2019). Суспендированное сложное NPK-удобрение на основе кальцийсодержащего шлама. *Universum: химия и биология*, (1 (55)), 29-33.

18. Собиров, М. М., Таджиев, С. М., Тухтаев, С., & Закиров, Б. С. (2016). Суспендированное сложное удобрение из фосфоритов Центральных Кызылкумов. *Ikramov, MH, Sobirov, MM, & Tajiev, SM Liquid NPK Fertilizer International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*.



19. Собиров, М. М., & Таджиев, С. М. (2015). Суспендированные азот-фосфор-калийсодержащие удобрения, обладающие инсектицидной активностью. *Узбекский химический журнал*, (2-С), 27-31.

20. Собиров, М. М., Бахриддинов, Н. С., & Розикова, Д. А. (2020). Термоконцентратни хлорид кислотали парчалаш махсулоти ва аммоний нитрат асосида NP-ўғитлар олиш жараёнини тадқиқ қилиш. ФарПИ илмий-техник журнали. *Фарғона.-2020, 2*, 222-228.

21. Собиров, М. М., & Таваккалова, Д. (2022). Изучение Процесса Пенообразования При Переработке Фоссырья Неполной Нормой Азотной Кислоты. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 3(10), 129

22. Собиров, М. М., Махсудова, З. И., Ахмедова, Д. Х., & Таджиев, С. М. (2018). Получение удобрения для засоленных почв из кальцийсодержащего шлама.

23. Sobirov, M. M., & Tadjiev, S. M. (2015). Sultonov BE Rheological Properties of Liquid Suspended Phosphorus Containing Ammonium Nitrate. *J. Chem. Eng. Chem. Res*, 2(12), 945-952.

24. Собиров, М. М., Махсудова, З. И., & Ахмедова, Д. Х. СМ Таджиев Получение сложных суспендированных удобрений/“Кимё саноатида инновацион технологиялар ва уларни ривожлантириш истиқболлари” Республика илмий-амалий анжуманининг мақолалар тўплами 1-жилд. 2017 йил. *Урганч-2017.-135-137 б.*

25. Икрамов, М. Х. (2019). Собиров Мухторжон Махаммаджанович Таджиев Сайфиддин Мухиддинович Сложное суспендированное NPK-удобрение из местного сырья “Қорақалпоғистон Республикасида кимё, кимёвий технология, нефт-газ ва энгил саноат соҳалари ривожининг долзарб муаммолари» Республика илмий-амалий конференцияси. *Нукус*, 24, 96-98.

26. Собиров, М. М., & Таджиев, С. М. (2015, November). Получение суспендированного сложного удобрения, обладающего инсектицидной активностью/сборник материалов XXV Международный научно-практической конференции «Научные исследование современных ученых» 30 октября 2017 г. РФ. In *Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы отраслей химической технологии»* (pp. 10-12).

27. Собиров, М. М., Ахмедова, Д. Х., & Махсудова, З. И. СМ Таджиев Суспензияли комплекс ўғитлар олиш/“Академик АФ Ғаниевнинг 85 йиллигига бағишланган аналитик кимё фанининг долзарб муаммолари” V республика илмий амалий анжумани материаллари тўплами 2017 йил 26-28 апрель. *Термиз-2017.-106-107 б.*

28. Розикова, Д. А., Собиров, М. М., Назирова, Р. М., & Хамдамова, Ш. Ш. (2020). Production of nitrogen-phosphorus-potassium fertilizers based on washed hot concentrate, ammonium nitrate and potassium chloride. *Academicia an international multidisciplinary research journal*, 10(9).



Абстрактный: При строительстве, эксплуатации и ремонте зданий и сооружений строительные изделия и сооружения, из которых они построены, подвергаются различным физическим, механическим, физическим и технологическим воздействиям. От инженера-гидротехника требуется грамотно подобрать нужный материал, изделие или конструкцию с достаточной стойкостью, надежностью и долговечностью для заданных условий.

Ключевые слова: энергосбережение, теплоизоляция, легкий бетон, пористая структура.

Строительные материалы и изделия, применяемые при строительстве, реконструкции и ремонте различных зданий и сооружений, бывают естественными и искусственными и делятся на две основные категории: к первой категории относятся: кирпич, бетон, цемент, дерево и другие. Применяются в процессе возведения различных элементов зданий (стен, перекрытий, полов). Вторая категория – специального назначения: гидроизоляционные, теплоизоляционные, акустические и т.д. Основные виды строительных материалов и изделий: среди них строительные материалы из природного камня; неорганические и органические соединения; лесоматериалы и изделия из них; аппаратное обеспечение. В зависимости от назначения, конструкции и условий эксплуатации зданий и сооружений выбирают соответствующие строительные материалы с определенными качествами и защитными свойствами от воздействия различных внешних сред. Учитывая эти характеристики, любой строительный материал должен иметь определенные строительные-технические характеристики. Например, материал для наружных стен зданий должен иметь наименьшую теплопроводность, достаточно прочную, чтобы защитить помещение от внешнего холода; строительный материал для орошения и дренажа – гидроизоляционные и устойчивые к попеременному намоканию и высыханию; Дорогостоящий материал мощения (асфальт, бетон) должен обладать достаточной прочностью и низким износом, чтобы выдерживать транспортные нагрузки. При классификации материалов и изделий следует помнить, что они должны быть качественными. свойства и качества Свойство - характеристика материала, проявляющаяся при его



обработке, применении или эксплуатации. Качество - это совокупность свойств материала, определяющих способность удовлетворять определенным требованиям в соответствии с его назначением. Свойства строительных материалов и изделий подразделяются на три основные группы: физические, механические, химические, технологические и др. К кому относят способность химических материалов сопротивляться воздействию химически агрессивной среды, что вызывает в них обменные реакции, приводящие к разрушению материалов, изменению их первоначальных свойств: растворимости, коррозионной стойкости, стойкости к разложению, твердению. Физические свойства: средняя, насыпная, реальная и относительная плотность; пористость, влажность, влагоотдача, теплопроводность. Механические свойства: предел прочности при сжатии, растяжении, изгибе, сдвиге, упругость, пластичность, твердость, твердость. Технологические свойства: удобоукладываемость, термостойкость, скорость плавления, твердения и высыхания.

Физические и химические свойства материалов.

Средняя плотность ρ масса m единица объема V 1 полностью сухой материал в естественном состоянии; Выражается в г/см^3 , кг/л , кг/м^3 . Массовая плотность сыпучих материалов ρ_n масса m единицы объема V_n высушенного пустого материала; Выражается в г/см^3 , кг/л , кг/м^3 . Реальная плотность массы m единицы объема V материал абсолютно плотный; Выражается в г/см^3 , кг/л , кг/м^3 . Относительная плотность (%) – степень заполнения объема материала твердым веществом; характеризуется отношением общего объема твердого тела V в материале ко всему объему материала V_1 или отношением средней плотности материала ρ_0 к его фактической плотности ρ ; , или

. Пористость P - степень заполнения объема материала отверстиями, пустотами, газовоздушными включениями: для твердых материалов:

, для пубрики:

Гигроскопичность – это способность материала поглощать влагу из окружающей среды и уплотнять ее в массе материала. Влажность V (%) - отношение массы воды в материале в $m = m_1 - m_0$ к его массе в полностью сухом состоянии m_0 :

Водопоглощение – характеризует способность материала при контакте с водой поглощать и удерживать ее в своей массе. Дифференциация массового DA_m и объемного DA_V водопоглощения. Массовое водопоглощение (%) – это отношение массы поглощенной материалом воды в m к массе материала в полностью сухом состоянии m_0 :

Объемное водопоглощение (%) - отношение объема поглощенной материалом воды в m/p к его объему V_2 при насыщении водой:

Влагоотталкивание – способность материала выделять влагу.

Механические свойства материалов.



Прочность на сжатие R представляет собой отношение разрушающей нагрузки $P(N)$ к площади поперечного сечения образца F (см. раздел 2). Это зависит от размера образца, скорости приложения нагрузки, формы образца и содержания влаги. Предел прочности R R - отношение разрушающей нагрузки R к исходной площади поперечного сечения образца F . Прочность на изгиб R и - определяют в специально подготовленных балках. Твердость – это способность материала давать небольшие упругие деформации. Твердость – это способность материала (металла, бетона, дерева) сопротивляться проникновению стального шарика при постоянной нагрузке.

РЕКОМЕНДАЦИИ:

1. Самыгов Н.А. «Строительные материалы и изделия» учебник. Ташкент Чолпон 2013.
2. Адильходжаев А.И., Каримова Ф.Ф., Тургунбаев У.Ж. «Строительные материалы» учебник, Ташкент: - 2017 год.
3. Кандидатская диссертация Бекчанова Х.М. «Исследование состава и свойств стеновых кирпичей на основе местного сырья». ДО 2020 ГОДА.



CHAQIRILUVCHILARNI JISMONAN CHIDAMLILIK RUHIDA TARBIYALASH USLUBIYOTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854362>

Toshpo'latov Abrorjon Mirhokimovich

Farg'ona Davlat Universiteti harbiy ta'lim fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimiz mudofaasini mustahkamlashda aslida har birimizning yelkamizda ulkan mas'uliyat bor. Yoshlar tarbiyasi, siyosiy ongi, mehnat faoliyati va ilmiy-texnika rivojlanishi orqali davlat mudofaa tizimini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalash bu insonlarni jamiyat uchun jismoniy - aqliy mehnatga yoki boshqa foydali faoliyatga yo'naltirish, shu bilan birga ko'p qirrali ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashning obyektiv asoslangan jarayonlardan iborat. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi uning ajralmas qismi bo'lib, bu uchun avvalo yoshlarni aqlan yetuk va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining metodologiyasi va ilmiy asoslari insoniyat omiliga nisbatan qo'llaniladi. Bu tushunchaga insonning g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy jismoniy va boshqa fazilatlari yig'indisi kiradi. Ushbu maqolada, harbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: Harbiy xizmat, jismonan salomatlik, chidamlilik, ruhiy tarbiya, tarbiyalash, metodologiyasi, mudofaa tizimi, yoshlar kamoloti, vatanparvarlik.

Abstract: The obligation to improve our nation's defense falls squarely on each of us. The state's defense system depends on youth education, political awareness, employment, and scientific and technological advancement. The goal of education is to prepare people to undertake a variety of social roles by orienting them toward mental and physical work as well as other beneficial activities for society. An essential component of it is military patriotic education, and for this reason it's crucial to help young people reach adulthood by developing their mental maturity and physical health. The human aspect is addressed using the technique and scientific underpinnings of military patriotism education. This idea encompasses a person's overall ideological-political, spiritual, physical, and other characteristics. In this article, ideas and opinions are expressed regarding the training regimen used to develop physical stamina for military service.

Key words: military service, physical health, endurance, spiritual education, training, methodology, defense system, youth development, patriotism.

Аннотация: На каждом из нас лежит огромная ответственность за укрепление обороны нашей страны. Воспитание молодежи, политическая сознательность, трудовая активность и научно-техническое развитие имеют важное значение в поддержании системы обороны государства. Воспитание состоит из объективно обусловленных процессов направления людей на



физический и умственный труд или иную полезную для общества деятельность, а также подготовки их к выполнению многогранных социальных задач. Неотъемлемой его частью является воспитание воинского патриотизма, для этого важно довести молодежь до зрелого возраста, сделав ее психически зрелой и физически здоровой. Методология и научные основы воспитания воинского патриотизма применяются к человеческому фактору. В это понятие входит сумма идейно-политических, духовных, физических и других качеств человека. В данной статье высказываются мысли и комментарии по поводу методики подготовки в духе физической выносливости к военной службе.

Ключевые слова: военная служба, физическое здоровье, выносливость, духовное воспитание, подготовка, методика, система защиты, воспитание молодежи, патриотизм.

Kirish. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jangovar, faol, hujum qila oladigan xususiyatga ega bo'lishi, Vatan himoyasiga mamlakat yoshlarni tayyorlashdagi kamchiliklarni ocha olishi va ularni bartaraf etishga choralar qabul qilishi kerak. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasida barcha haqiqiy hollarini vaqt davomida rivojlanishi va o'zgarishi sifatida ko'rib chiqishni ko'zda tutadigan aniq – tarixiy yondashish printsipti juda katta ahamiyatga ega. Bu printsipt avvalom bor aniq–tarixiy vaziyatdagi harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi mazmuni, shakl va uslublarining muvofiqligini nazarda tutadi.

Aniq tarixiy yondashish printsipti shuningdek halq, Qurolli Kuchlarning qahramonona tarixi asosida inson tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan harbiy-vatanparvarlik ishida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra haqiqatni o'zgartirmagan holda tarixiy voqealarni obyektiv yoritish katta ahamiyatga ega. Harbiy vatanparvarlik ishlarining muhim printsiplridan biri – vatanparvarlik va baynalminal tarbiya birligidir. Barcha tarbiyachilar faoliyatida vatanparvarlik va baynalminal vazifalar organik o'zaro bog'langanligi va o'zaro shartlanganligi jangchi shaxsini shakllantiradigan, doimiy ravishda nima uchun u qo'liga qurol olgani va himoya qilayotganini eslatib turadigan qudratli omil bo'lib xizmat qiladi. Harbiy vatanparvarlik tarbiya printsiptlaridan biri yoshlarning turli guruhiga farqli yondashishida mujassamlashgan. Bu printsipt harbiy vatanparvalik tarbiyasining manfaatlari va o'ziga xos xususiyatlari, ko'p millatli davlatimiz turli millat va xalqlari urf – odatlari va milliy an'analarini hisobga olgan holda qurish kerakligini talab etadi.

Vatanni himoya qilish hozirgi vaqtda yosh avlodni chaqiruvdan oldin tayyorlash orqali amalga oshiriladigan eng dolzarb o'quv vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiya orqali harbiy xizmatga psixofizik jihatdan tayyorlangan uyg'un va har tomonlama rivojlangan, ijtimoiylashgan shaxsni rivojlantirish sharti sifatida taqdim etilgan jismoniy tarbiya turli xil ta'lim muassasalari, jamoat, harbiy-vatanparvarlik, bolalar va o'smirlar va yoshlar, sport tashkilotlari va birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiyaning uzluksizligi va samarali tashkil etilishini ta'minlash uning XX



asrning 20-yillaridagi tarixiy va pedagogik tajribasiga milliy chaqiruvdan oldingi ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida hissa qo'shishi kerak. Bu tajribalar asosida esa biz yoshlarni har tomonlama harbiy salohiyatli qilib tarbiyalashimiz va ularning jismoniy salomatlik darajasini yaxshilashimiz va aqlan yetuk kadrlar bo'lishini taminlash uchun qo'llab boramiz.

Adabiyotlarni va arxiv manbalarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ushbu davrda chaqiruvdan oldingi tayyorgarlik mamlakat aholisini harbiy ishlarga o'rgatish orqali mamlakatning mudofaa qobiliyatini oshirish vositasi bo'lgan. Shu bilan birga, u ijtimoiy ta'lim nuqtai nazaridan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning maqsadi sotsialistik jamiyat himoyachisi bo'lgan fuqaroni tarbiyalashni o'z ichiga olgan. Muayyan tarixiy bosqichda ijtimoiy va davlat rivojlanishi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy qurilish vazifalari bilan shartlangan jismoniy tarbiya bolalar, yoshlar va mehnatkash aholini chaqiruvdan oldin tayyorlash jarayonida tarbiyaviy faoliyatning asosiy turlaridan biri bo'lib, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishga, ijtimoiy faol fuqaroning shakllanishiga hissa qo'shdi.

Shu jumladan, qo'shimcha ma'lumot sifatida keltirib o'tadigan bo'lsak, jismonan barkamollik va vatan himoyasiga tayyorlik tuyg'usi jamiyati hayoti va faoliyatini yaxshilash, tinchlikni saqlashda xizmat qiladi, shuningdek, o'zini namoyon qila oladi. Chaqiruvdan oldingi tayyorgarlik tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida u bir-biri bilan bog'liq bo'lgan maktab, tayyorgarlik va harbiy bosqichlar davomida tashkil etilgan va o'tkazilgan bo'lib, ular boshqaruv organlarining uzluksizligi, chaqiriluvchilarning asosan yoshiga qarab ta'limning mazmuni, shakllari va usullarini tanlash bilan tavsiflanadi. Jismoniy salomatlik darajasi ham harbiy chaqiruvda eng muhim omillardan biri sifatida qaraladi, ya'nikim jismoniy holat va salomatlik darajasi har bir harbiyda yuqori darajada bo'lishi lozim.

Ma'lumki, uning maqsadi psixofizik rivojlanish "insonning hayotiy kurashga moslashishi" sharti sifatida, chunki harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlari jismoniy chidamlilik va epchillikni rivojlantirishni o'z ichiga olgan bo'lib, bu yaxshi sog'liq va to'g'ri jismoniy rivojlanish bilan o'zaro chambarchas bog'liq jarayondir. Shu bilan birgalikda, tananing barcha tizimlarining rivojlanishi (asab tizimi, yurak, qon tomirlari, o'pka, ovqat hazm qilish apparati armiya safida xizmat qiluvchilarda jismoniy tayyorgarlik orqali erishilgan zaruriy shartdir. Jismoniy tarbiyaning dasturiy mazmuni yoshlar tanasining barcha tizimlarini mustahkamlashga, harbiy xizmatda ham, hayotda ham zarur bo'lgan ixtiyoriy fazilatlarni, mehnat, jamoaviy va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgandir. Jismoniy tarbiyani amalga oshirish bo'yicha tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga olgan[1,2]:

- harbiy mavzudagi ekskursiyalarni tashkil etish;
- jismoniy tarbiya va harbiy burchaklarni jihozlash va maktab o'quvchilari (o'quvchilar) ning sport yutuqlarini namoyish etish;
- o'qituvchilar, sport o'qituvchilari va ota-onalarning jismoniy tayyorgarlikni amalga oshirishda maktab rahbariyati va aktivlari bilan aloqasi;



- maktab va maktabdan tashqari ommaviy harbiy-sport musobaqalari va bayramlarni o'tkazish;

- barcha bolalar va o'smirlar uchun ta'lim va tarbiya uchun maktab hayotini yaxshilash (jismoniy tarbiya, sanitariya-gigiyena tadbirlari, maktab nonushtalari va boshqalar);

- Vitamin va nutrientlarga boy bo'lgan sog'lom ovqatlanish tartib-qoidalariga amal qilish;

- Jismoniy mashqlar bilan muntazam ravish shug'ullanib turish orqali umumiy salomatlik darajasini yaxshilash va tanani chiqintirish mumkin.

Ommaviy va jamoaviy tarzda qilinadigan jismoniy mashqlar bir – biridan farq qiladi, shu bilan birga bunda ajralib turadigan jismoniy tarbiya shakllari quyidagilar edi: maktablarda va maktablardan tashqarida harbiy-amaliy mashqlar bilan to'yingan jismoniy tarbiya, ochiq o'yinlar, mashg'ulotlar va mavsum va ob-havoga muvofiq bino ichida ham, havoda ham o'tkaziladigan sport tadbirlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Armiya uchun jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom bo'lgan yoshlarni jalb etish va armiya safini to'ldirish uchun yosh kadrlarni tayyorlashga imkon beradigan samarali usullar quyidagilar edi [1,3]:

1. o'quvchilar tomonidan jismoniy tarbiya va sport haqida xabarlar va ma'ruzalar tayyorlash;
2. mitinglar va paradlarda, sport musobaqalarida va maktab, tuman va shahar bayramlarida qatnashish;
3. bolalarning jismoniy tarbiya va sport mahorati va yutuqlarini namoyish etish.

Maktab bilan bir qatorda, bir necha o'n yilliklar avval chaqiruvdan oldingi ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaning uzluksizligi tayyorgarlik bosqichini saqlab qoldi. Uning davomida harbiy sport klublari va boshqa jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari kuchlari va vositalari tomonidan barcha turdagi ta'lim muassasalarida, shu maqsadda tayyorlangan o'qituvchilar, shu jumladan sobiq harbiy xizmatchilar va o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiyaning maqsadi psixofizik rivojlanishni, yoshlarda harbiy xizmat, davlat qurolli kuchlari va harbiy bo'linmalarida xizmat qilish uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlar va harbiy-amaliy ko'nikmalarni (vatanparvarlik, fuqarolik, ong, jamoaviy intizom, sheriklik va o'zaro yordam) shakllantirishni o'z ichiga olgan. Harbiy xizmatning samaradorligi jismoniy chidamlilikka bog'liq bo'lganligi sababli, chaqiruvdan oldingi tayyorgarlikning tayyorgarlik bosqichi 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar va yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb qilishning faollashishi bilan ajralib turardi.

Jismoniy tarbiyaning mazmuni atrof-muhit sharoitlari, o'smirlar davrining yosh xususiyatlari va o'ziga va boshqalarga nisbatan, xatti-harakatlar va faoliyatda namoyon bo'ladigan chaqirilishgacha bo'lgan rivojlanish darajasi bilan bog'liq edi. II bosqich va o'quvchilar hali maktabning yuqori sinflarida ta'lim olayotgan vaqtda, yoki kasb- hunar



maktablarida jismoniy tayyorgarlik maktab davriga o'xshash shakl va usullar bilan amalga oshiriladi. Bular asosan jismoniy mashqlar bilan to'ldirilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bo'lib, ular kelajakdagi harbiy xizmat uchun zarur bo'lgan ko'plab jismoniy ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Jismoniy tayyorgarlik dasturlarining mazmuni yengil atletika mashqlari, gimnastika, suzish, qilichbozlik va boshqalarni o'z ichiga olgan.

Ushbu davrning o'ziga xos xususiyati harbiy bo'lim dasturlari bo'yicha harbiy yig'imler o'rtasida chaqiriluvchilarga jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish va o'tkazish edi. Jismoniy tarbiyani ommalashtirish va jismoniy tayyorgarlik sifatini oshirish uchun ma'ruzalar va intervyular, sport va ko'rgazmali chiqishlar bilan tadbirlar tashkil etildi, kulbalar, kitobxonlar va klublarda sport burchaklari jismoniy tarbiya va sport mavzularida ko'rgazmali hujjatlarni rasmiylashtirib, sport yutuqlarini namoyish qilgan.

Jismoniy tarbiya, chaqiruvdan oldingi tayyorgarlikning bir qismi bo'lib, ommaviy ravishda harakterlanadi, shahar va qishloq joylarida tashkil etiladi va o'tkaziladi. Qishloq va shahar yoshlarini turli xildagi sport (harbiy-sport) yo'nalishidagi sport mashg'ulotlari va to'garaklariga qatnashish imkoniyatlari taqdim etilgan bo'lib, ular o'quv yurtlari va ishlab chiqarishlarda harbiy qismlar va hududiy tuzilmalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Jismoniy tarbiyaning muvaffaqiyatli usuli tashviqot ishlari hisoblanadi. U ta'lim muassasalari va sport jamiyatlari tomonidan hududning o'ziga xos xususiyatlarini, mashg'ulotlar turini, tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda olib boriladi va jismoniy tarbiya va harbiy xizmat masalalariga qiziqishni shakllantirishni, yoshlar va yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Harbiy xizmatchilarni jismoniy takomillashtirish, ularning jismoniy chidamliligini rivojlantirishga samarali o'quv vositalari va tanani chiniqtirish vositalarini muntazam ravishda bir vaqtning o'zida qo'llash orqali erishish mumkin. Trening vositalari tananing moslashish qobiliyatini, qo'llarning, shu jumladan asosiy mushak guruhlarining kuchini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi kerak. Ushbu maqsadlar uchun umumiy va yuqori tezlikda chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar eng samarali yo'l hisoblanadi. Chidamlilik deganda insonning jismoniy va ruhiy jihatdan qanchalik kuchli ekani va uning jismoniy faoliyatining uzluksizligini ta'minlaydigan asosiy jismoniy fazilatlar (kuch, tezlik, epchillik, chidamlilik) tushuniladi. Chidamlilik deganda vosita faoliyati jarayonida charchoqqa qarshi turish qobiliyati tushuniladi.

Chidamlilikning boshqa ta'riflari mavjud [2-4]:

- jismoniy ishlarni samaradorligini pasaytirmasdan uzoq vaqt davomida bajarish qobiliyati;
- atrof-muhitning salbiy ta'siriga (issiqlik) qarshi turish qobiliyati, kislorod yetishmasligi, ish joylarining cheklangan hajmi va boshqalar).

Jismoniy tarbiya amaliyotida va sportda umumiy va maxsus chidamlilik ajralib turadi. Umumiy chidamlilik bu odamning samaradorligini pasaytirmasdan uzoq vaqt



davomida dinamik ishlarni bajarish qobiliyatidir. Maxsus chidamlilik tezlik, kuch, statik harakatlarga bo'linadi.

Tezlikka chidamlilik bu ishni uzoq vaqt davomida eng tez sur'atda bajarish qobiliyati.

Kuchga chidamlilik-bu uzoq vaqt davomida katta jismoniy kuch bilan bog'liq ishlarni bajarish qobiliyati.

Statik harakatlarga chidamlilik-bu mushaklarning o'rtacha kuchlanishini uzoq vaqt ushlab turish qobiliyati. Bunday keskinlik yuklarni tashishda, tananing harakatsiz holatini uzoq vaqt saqlab turganda — asboblar va qurilmalarda navbatchilikda, tanklar va boshqa turli vazifalarni bajarishda, uzoq parvozlarda va boshqalarda kuzatiladi.

Chidamlilikni tasniflashda boshqa yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, jismoniy chidamlilik bo'yicha bir necha yillik tadqiqotlar o'tkazgan professor F. Kuramshin (2010) ishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, u umumiy va maxsus chidamlilikni ta'kidlaydi;

- boshqa qobiliyatlarning ustun namoyon bo'lishiga qarab — kuch, muvofiqlashtirish va tezlik;
- ishning kuchiga (intensivligiga) qarab — maksimal, submaksimal, katta va o'rtacha quvvat.

Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarda jismoniy chidamlilikni rivojlantirishning dolzarbligi bir qator omillarga bog'liq [3-5]:

- harbiy mutaxassislarning jismoniy tayyorgarligiga zamonaviy jangovar faoliyatning ortib borayotgan talablari va deyarli barcha toifadagi harbiy xizmatchilarda jismoniy chidamlilik darajasi juda past;

- har qanday harbiy mutaxassislarning kasbiy harakatlari samaradorligini ta'minlashga jismoniy chidamlilikning muhim hissasi;

- ekstremal sharoitlarda jangovar harakatlarda harbiy xizmatchilarning jismoniy chidamliligi rolini kuchaytirish;

- yosh to'ldirishning jismoniy chidamliligining past darajasi va ularni o'qitish jarayonidagi keskinlikning oshishi;

- tananing, uning asosiy tizimlarining va birinchi navbatda yurak-qon tomir tizimining to'satdan paydo bo'ladigan kuchlanishlarida jismoniy chidamlilikning isbotlangan himoya ta'siri;

- salomatlikni mustahkamlash, harbiy mutaxassislarning kasbiy uzoq umr ko'rishini ta'minlashda jismoniy chidamlilikning yetakchi roli.

Shuni doimo yodda tutish kerakki, kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati ma'lum bir jismoniy sifatning rivojlanish darajasi va ushbu darajaga erishishga qaratilgan jismoniy mashqlar natijasida hosil bo'lgan tananing funktsional imkoniyatlari bilan belgilanadi. Tananing eng samarali funktsional imkoniyatlari jismoniy chidamlilik rivojlanishi bilan shakllanadi. Funktsionallik va jismoniy chidamlilik bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Jismoniy chidamlilik ko'rsatkichlari bo'yicha inson tanasining funktsional imkoniyatlarini baholash mumkin.



Ko'p yillik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ekstremal sharoitlarda ko'p kunlik mashqlarda turli xil harbiy xizmatchilar, masalan jangovar vazifalarni qanchalik samarali bajarish bilan belgilanadi. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi tarkibi deyarli har qanday harbiy mutaxassislarining kasbiy faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tana funksiyalarining barqarorligini, yurak-qon tomir tizimining funksional imkoniyatlarini oshirishga ustuvor yo'nalishni hisobga olgan holda shakllantirilishi kerakligi aniqlandi. Qiruvchi aviatsiyaning parvoz tarkibini, suv osti kemalarining shaxsiy tarkibini muddatidan oldin hisobdan chiqarish asosan yurak-qon tomir tizimidagi og'ishlar bilan bog'liq. Ko'pgina harbiy mutaxassislar orasida yuzaga keladigan haddan tashqari asab-emotsional stresslar yurak-qon tomir tizimining funksiyalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Charchoq va natijada raketa kuchlari, havo mudofaasi va boshqalar operatorlari mutaxassislarining kasbiy faoliyatidagi xatolar ko'pincha yurak faoliyatini tartibga solishdagi salbiy o'zgarishlarning natijasidir. Ushbu qisqa tahlil harbiy mutaxassislarining kasbiy faoliyatini ta'minlashda yurak-qon tomir tizimining hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Harbiy xizmatchilarning jismoniy chidamliligi ekstremal sharoitlarga, shu jumladan haqiqiy jangovar harakatlar sharoitlariga moslashishga imkon beradi. Bunday xulosa Afg'onistondagi jangovar harakatlar davrida va keyingi harbiy mojaralarda olib borilgan tadqiqotlar natijalariga imkon beradi, bu yerda harbiy xizmatchilarning tayyorgarligidagi eng muhim jismoniy sifat jismoniy chidamlilikni belgilaydi. Barcha toifadagi harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyat talablariga muvofiq etarli darajada jismoniy chidamlilikka ega bo'lishlari kerak.

Ma'lumki, chidamlilikni rivojlantirish ikkita mexanizmga asoslangan [5-8]:

1. fiziologik;
2. psixologik.

Fiziologik mexanizm organizmning funksional imkoniyatlarini va shuning uchun kompensatsion va moslashish qobiliyatlarini oshirishdan iborat.

Psixologik bu tanadagi salbiy o'zgarishlar bilan faoliyat samaradorligini saqlab qolish, ichki muhitda aniq siljishlarga "toqat qilish" qobiliyatidir.

Chidamlilikni rivojlantirishda shakllangan ushbu mexanizmlar yuqori chidamlilikni aniqlaydi. Zarar etkazuvchi omillar ta'sirida harbiy xizmatchilar, ekstremal atrof-muhit sharoitida yoki kasbiy faoliyatda ishlaydi.

Qurolli kuchlarini faol ravishda isloh qilish bir vaqtning o'zida harbiy mutaxassislarining yuqori professionalligini, bo'linmalar va bo'linmalarining jangovar vazifalarni bajarishga doimiy tayyorligini ta'minlash bilan birga xodimlar sonini kamaytirish yoki oshirish bu vaziyatga qarab belgilanadi. Bo'linmalar va bo'linmalarining jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga doimiy tayyorligini ta'minlash uchun xodimlarning jismoniy tayyorgarligi muhim va ko'pincha hal qiluvchi hissa qo'shishi mumkin. Shuningdek, turli hududlarga jangovar xizmat uchun yuborilgan harbiy xizmatchilarda umumiy va tezkor chidamlilikni rivojlantirish orqali



moslashish imkoniyatlarini shakllantirish ularning harakatlarining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Shunga yaxshilab e'tibor berish keraki, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini ta'minlashga jismoniy chidamlilikni yetarli darajada rivojlantirmasdan erishish mumkin emas. Aynan shu yondashuv maqsadga erishish uchun tanlangan. Ushbu muammoni hal qilishda jismoniy tayyorgarlikning past darajasi, yangi to'ldirishning funktsional imkoniyatlari salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarni tayyorlashning qisqa muddatlari, bir tomondan, ularni jismoniy takomillashtirish uchun intensiv vositalar va usullardan foydalanishni talab qiladi, boshqa tomondan, tananing past funktsionalligi xodimlarning haddan tashqari kuchlanishi va kasalliklarini oldini olish uchun bunday yondashuvlarni istisno qiladi.

Ushbu xususiyatlarni — umumiy moslashuv tizimlarining funktsional imkoniyatlarini samarali ravishda oshiradigan tegishli jismoniy mashqlarni tanlash muhimdir. Bular jismoniy chidamlilikni rivojlantiradigan va organizmning kislorodga bo'lgan yuqori ehtiyojlari bilan birga keladigan mashqlardir. Adabiy ma'lumotlarga ko'ra, maksimal kislorod iste'molining eng yuqori ko'rsatkichlari chang'ichilar, uzoq va o'rta masofaga yuguruvchilar, suzuvchilar, velosiped poygachilari va kamida 5-6 daqiqa davom etadigan mushak ishlarida bo'lgan boshqa sportchilarda kuzatiladi.

Harbiy xizmatchilarni o'qitish uchun eng qulaylari yurish va yugurish, chang'i, sport o'yinlari (futbol, mini-futbol) va boshqalar hisoblanadi. Bunda ishtirokchilarda qiziqish uyg'otadigan turli mashqlardan foydalanish va ijobiy hissiy fonni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy chidamlilikni rivojlantirish bilan bir vaqtda asosiy mushak guruhlarining kuchini (qo'llarning fleksorlari va ekstansorlari, magistral mushaklari), bo'g'imlarda harakatchanlikni (birinchi navbatda kestirib), hissiy barqarorlikni, tananing salbiy omillar ta'siriga chidamliligini rivojlantirish uchun mashqlardan foydalanish kerak. Va bu yerda tananing so'nggi ikkita xususiyatini shakllantirishning eng samarali yo'nalishi jismoniy chidamlilikni rivojlantirishdir.

Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini majburiy hisobga olishni talab qiladigan boshqa muhim qoidalar bu turli xil kuchli stimullar (shu jumladan jismoniy mashqlar) ta'sirida tananing reaksiyalarining qonuniyatlari hisoblanadi. Kichik kuch va energiya talab etadigan mashg'ulotning o'sishi sekin va ko'p vaqt talab etadi. Katta, stressli mashqlar bilan funktsionallik tez o'sadi. Biroq, bu holda, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi sust bo'lsa, mashg'ulot yuki ularning moslashuvi bilan birga mos kelmaydi, balki kasallikka olib keladi. Jismoniy mashqlar ta'sirining salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun ularning jalb qilinganlarning imkoniyatlariga muvofiqligi zarur va dastlabki to'rt hafta ichida asosiy usulni tanlashning yagona usuli tanlanishi kerak. Birinchi bosqichda mashg'ulotlar soni uchtdan, keyin esa haftasiga to'rttdan iborat bo'lishi kerak. Bu qaysidir ma'noda muvaffaqiyatga eltuvchi strategiya ham deb atalishi mumkin.



Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini takomillashishi va rivojlanishi, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad vavazifasiborasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi, davlat chegaralarining o'z qo'shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo'riqlanayotganligi ilmiy ishlarimiz natijasi desak adashmaymiz. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida biz nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Qanday ilmiy izlanishlar olib borishimiz kerak? Bu borada birinchi masala yoshlarimizga ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'llarini to'g'ri tushuntirish (ishontirish usuli)dir.

Xulosa. Biz qanchalik yoshlarimizni to'g'ri o'rgatsak, o'qitsak ularda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yana bir bor uyg'otgan bo'lamiz. Yoshlarimizni harbiy vatanparvar qilib tarbiyalashda avvalambor biz ularga miliy qadriyatlarimizni o'rgatamiz va o'qitamiz. Bu yoshlarimizni harbiy vatanparvar bo'lib tarbiyalanishiga katta samara beradi. Har bir o'smirni tarbiya qilishda uning faqat ma'naviy, madaniy va ilmiy jihatdan barkamolligini oshirishgina emas, uni har tomonlama kuchli va jismonan sog'lom bo'lishi ham muhim. Bu uchun esa, ota-onalar, mas'ul shaxslar, o'qituvchi va murabbiylar bu jarayonni birgalikda o'z nazoratlariga olishlari kerak. Hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonning o'zgarishiga katta tasir ko'rsatayotgan fan, texnikalar borasidagi o'zgarishlar, ularni boshqarish masalalarini to'g'ri tushuntirish orqali biz ularda harbiy texnikalarni boshqarishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib boramiz. Bu borada bizga chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlikka yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. E.O. Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
2. Erkaboyev.O.M. Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati. Ta'lim fidoyilari-2022. № 3. 138-141-p
3. O'zbekiston Respublikasining«Harbiy xizmati utash to'g'risida»gi qonuni. 2019 y.
4. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash» o'quv dasturi 2017 y. 89-92-b
5. «O'smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to'g'risidagi Nizomi» 2014 y
6. A.YU. Sotvoldiev. "Chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil etish va uning metodikasi" O'quv qo'llanma, I, II - qismlar, 2007 yil, o'quv qo'llanma. 151-163-b
7. B.B. Gafurov "Boshlang'ich umumqo'shin harbiy tayyorgarlik bo'yicha" II qism, 2005 yil, o'quv qo'llanma. 37-b
8. O'zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi Qonuni, 1992 y.



IQTISODIYOT RIVOJLANISHI JARAYONIDA BANK-MOLIYA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH VA ULARNING AVZALLIKLARI HAMDA HAVFSIZLIK JARAYONI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854368>

Matchanov Toxirjon Matchanovich

Allamuratov Timur Komekbaevich

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi Iqtisodiyotni Monetar Tartibga Solish Yo'nalishi Magistratura Bosqichi Tinglovchisi, Toshkent Shahridagi Inha Universiteti Monitoring Va Ijro Nazorati Bo'Limi Boshlig'i Va Toshkent Shahridagi Inha Universiteti Ilmiy-Tadqiqotlarni Rivojlantirish Bo'Limi Boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur maqolada dunyoda va mamlakatimizda bank-moliya xizmatlarini raqamlashtirish, iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida mamlakatimiz bank-moliya tizimi, shu jumladan, bank-moliya xizmatlari doirasida ularni rivojlantirish va havfsizlik bilan bog'liq bir qator muammolar shu bilan birga ushbu muammolarga yechim sifatida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, raqamli banking, internet-banking, SMS-banking, pul, bank xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, masofaviy xizmat, raqamlashtirish.

KIRISH.

Dunyo bo'ylab har kuni ko'plab axborotlar aylanadi. Buning sababi internet va mobil telefonlarni doimiy ravishda o'sib borayotgan texnik imkoniyatlari, insonlarning ijtimoiy tarmoqlarga jalb qilinishi va internet tezligining yildan-yilga o'sishi katta yordam beradi.

Bugungi kunda raqamlashtirish sohasi sezilarli darajada o'zgarishi natijasida iqtisodiyot, moliya va bank sohasidagi o'zgarishlarni ham kuzatishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz aholisi raqamli banklarining mobil ilova dasturlari orqali haqiqiy vaqt rejimida xohlagan kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini, byudjet, soliq, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, kreditlarni so'ndirish, mikroqarz olish va onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda hisobvaraqlarini masofadan ochish, onlayn valyuta konversiya operatsiyalarini amalga oshirish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.

Buning uchun mijoz bank binosiga kelib o'tirmasdan, birgina bank ilovasi orqali onlayn masofadan turib, bank xizmatlaridan foydalanish imkoni mavjud.

Mazkur maqola orqali raqamli bank (banking) o'zi nima, tijorat banklari bilan yangi tashkil etilgan raqamli banklar o'rtasida qanday afzalliklar mavjudligi, ularni insoniyat uchun qulayliklari, O'zbekistonda birinchi raqamli banklar, dunyoda va



mamlakatimizda bank-moliya jarayonlarini takomillashtirilgan tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi, shuningdek ularning havfsizligi haqida ma'lumot berib o'tiladi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda bank-moliya tizimini barqarorligi yo'lida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarga to'xtalib o'tamiz.

"Biz bank-moliya sohasida islohotlarni yanada chuqurlashtirish niyatidamiz. Gap mazkur sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish, xorijiy banklarni O'zbekistonga faol jalb etish, samarali fond bozorini shakllantirish haqida bormoqda. Bu zalda bank sohasiga investitsiya kiritgan xorijiy hamkorlarimizni ko'rish bizga katta mamnuniyat bag'ishlaydi. Biz xorijiy sarmoyadorlarning bank-moliya sohasini yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tashabbuslari uchun ochiqmiz" (Shavkat Mirziyoyev 2022-yil) [1].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Raqamli bank - tushunchasi, bu bank mijozlari uchun bir tizimdan foydalangan holda foydalaniladigan, mamlakat bo'ylab boshqa tarmoqlari mavjud bo'lmagan, mijoz uchun bank xizmatlari va mahsulotlarini onlayn rejimida foydalaniladigan bank. Raqamli banklar asosi bo'lib, mobil ilova va call-markazlar tashkil etadi. Raqamli bank tushunchasi va ishga tushish ish jarayoni XX asrning oqtabridan boshlangan. XX asrda ish boshlagan "First Direct" banki (Buyuk Britaniya) filialsiz bank yaratgan birinchi bank bo'ldi. Ya'ni shu davrda birinchi mijozlarga xizmat ko'rsatish telefon orqali bank tomonidan amalga oshirilgan edi. Bank birinchi ish kuni davomida o'z mijozlaridan 1000 ga yaqin qo'ng'iroqlarni qabul qildi. Oradan 6 yil o'tib "First Direct" banki ro'yxatida 500 000 dan ortiq mijozga xizmat ko'rsatishni boshlagan. Amerika Qo'shma Shtatida 2014-yilda Kris Skinnerning nashr etilgan "Digital bank" kitobida birinchi marta raqamli bank iborasi batafsil tavsif berildi [2]. Hozirgi XXI asrga kelib Raqamli bank tushunchasi Yevropa davlatlarida 2015-2020 yillar davomida jadallik bilan rivojlangan [3].


Raqamli banklar o'z mijozlariga yanada qulaylik va foydali bo'lgan xizmatlarni taqdim etish maqsadida zamonaviy raqamli innovatsiyalardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi tashkil etilgan raqamli banklarning tijorat banklaridan asosiy afzalliklari [4]

- raqamli banklarning mamlakatimiz bo'ylab bank filiallari kengaymasligi;
- raqamli banklar ortiqcha bino-inshoot va boshqa resurslarni talab qilmasligi;
- raqamli banklar mijoz va bank o'rtasida doimiy ravishda onlayn aloqa tizimining o'rnatilganligi;
- raqamlashtirilgan banklarning mijoz uchun sifatli va qulay bo'lgan mobil ilovasi;
- raqamli banklarda mijozlar talabidan kelib chiquvchi, shuningdek bozor talablariga javob bera oladigan kreditlar va omonatlar uchun eng qulay sharoitlari;
- raqamli banklar mijozlar uchun sifatli, tezkor, qulay, havfsiz va kechayu kunduz ish rejimida javob beruvchi aloqa markazlarining mavjudligi;
- raqamli banklarda byurokratik to'siqlarni mavjud emasligi;



4 mijozning kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari to'g'risida kunlik va operativ mot olish.



Shuni aytishimiz joizki, mustaqillik yillariga nisbatan qisqa davrda jahonning eng ilg'or andozalariga mos keladigan, har qanday tashqi va ichki ta'sirlarga bardosh bera oladigan, mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi uchun metindek asos vazifasini o'taydigan zamonaviy bank va moliya tizimi yaratildi [9].

Davlatimiz rahbari tomonidan 2018-yil O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tizimiga chakana bank xizmatlariga ixtisoslashgan raqamlashtirilgan banklar va bank bo'linmalarini tashkil, etish shuningdek innovatsion bank texnologiyalaridan foydalangan holda bank mijozlariga xizmat ko'rsatish sifatini oldingidan kengaytirish vazifasi qo'yilgan.



Shu sababli, mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida mamlakatimizda 2020-yilda sentyabr oyida "Anorbank" va keyinchalik "TBC bank" raqamlashtirilgan banklar sifatida mijozlarga onlayn xizmatlarni ko'rsatishni boshlashgan.

Hozirgi kunda raqamli banklar safiga kiritilgan "Anorbank" va "TBC bank"lar o'z mijozlariga statsionar kompyuterlar yoki mobil ilovalar orqali to'liq raqamli xizmatlarni ko'rsatib kelmoqdalar. Bundan shuni anglashimiz kerakki, raqamli bank tizimida mijozga bank mobil dasturi, mobil dasturiga asosan esa yuqori texnologiyaga ega axborot texnologiya infratuzilma bilan ta'minlangan sifatli bank operatsiyalari taqdim etiladi. Bu esa raqamli bank mijozni bank xizmatlaridan kechayu-kunduz ish rejimida to'liq foydalanish imkonini beradi.

Dunyoda va mamlakatimizda bank-moliya jarayonlari takomillashtirilgan tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi shuningdek ularning havfsizligi [10]

Dunyoda raqamli xizmatlar kundan-kunga inson hayotining deyarli barcha sohalarda rivojlanib, o'sib kelmoqda. Bunday sohalarga misol qilib, bank-moliya sohasini aytsak bo'ladi, mazkur sohaning raqamli xizmatlariga mobil ilovalar, mobil qurilmalarni, ijtimoiy saytlarni, elektron to'lovlarni va pul o'tkazmalarini, masofaviy pul omonatlarini va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Hozirgi davrga kelib, bank va mijoz o'rtasidagi jarayon butkul yangi - raqamlashtirish tili bilan aytganda "interaktiv" tusga kirib, insonlarda raqamli fikrlash tushunchasi ya'ni mazkur soha bo'yicha yildan-yilga ularning savodxonligi oshib bormoqda.

Dunyoning yetakchi manbalari o'tkazgan tahlil natijalari ham bu holatni tasdiqlaydi. O'tkazilgan so'rovlar natijasiga ko'ra:

besh yildan keyin 68% odamlar pullar bilan ishlash butunlay boshqacha bo'lishiga ishonadilar;

besh yildan keyin 33% odamlar mijozlar deyarli bankka borish kerak bo'lamaydi ya'ni raqamli banklar barcha mamlakatlarda rivojlanadi deb hisoblaydilar;

besh yildan so'ng 70% odamlar mahsulot va xizmatlarga bo'lgan to'lov usuli to'liq o'zgaradi deb ishonadilar;

besh yildan so'ng salkam 50% odamlar, banklarning ishlash printsipti tubdan o'zgaradi deb hisoblaydilar.

Raqamli banklar mijoz va bank o'rtasidagi muloqotning yangi rivojlanish bosqichi bo'lib, u moliyaviy xizmatlar sektoridagi innovatsiyalarni hamda bu sohadagi raqamli, IT strategiyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Dastlab bu haqda birinchi marotaba "Microsoft Money" internet banking deb nomlangan texnologiyasi yaratilgan vaqtlarda aytib o'tilgan edi. "Digital Bank Report" manbasida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar doirasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, dunyo darajasidagi 70% moliyaviy muassasalar raqamli bankingni o'zlarining strategik mavqelaridan biri deb hisoblaganlar. Shuni aytib o'tishimiz joizki, raqamli banklar bo'yicha zamonaviy ishlanmalarni tahlil qilgan holda bu sohadagi eng asosiy va muhim bo'lgan yo'nalishlarni ko'rsatib o'tishimiz lozim:



- Bank mijozning ishonchliligi reytingini avtomatik ravishda aniqlash texnologiyasini amaliyotga tadbiq etish;
- Banklarda virtual xodimlar tomonidan olib boriladigan amallarning havfsizlik qoidalariga rioya qilinishini nazoratga olish;
- Banklarda pul mablag'larini noqonuniy tarzda o'zlashtirib olinishini oldini olishga qaratilgan jarayonlarni avtomatlashtirish;
- Bank bankomatlarga o'rnatilgan ko'rish tizimlaridan doimiy foydalanib borish.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlantirish doimo yangi IT-texnologiyalari asosida amalga oshadi. Shu sababli ham zamonaviy ilmiy-texnik inqilob sharoitlarida bank sohasi bu borada yetakchilardan biri sanaladi. Shu sababli ham bu yo'nalishdagi katta moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish maqsadida raqamli bank sohasida kredit tashkilotlarining samarali va sifatli havfsizlik tizimini yaratish talab etiladi.

Masalaning boshqa tarafiga nazar solsak, mamlakatimizda bank sohasini raqamlashtirish uchun mazkur sohani rivojlantira oladigan, raqamli texnologiyalarni qo'llay oladigan professional va malakali kadrlar va yangi lavozimlar yaratish talab etiladi. Masalan, bu lavozimlar qatoriga raqamli texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha direktor va innovatsion rivojlanish bo'yicha direktor lavozimlarini kiritish mumkin.

Xozirda raqamli modernizatsiya dunyo iqtisodiyotining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarining rivojlanishi sharoitida alohida davlatlar iqtisodiyotining integratsiyasi va to'lov tizimlarining rivojlanishi, xususan, naqdsiz to'lov shakllari, banklarning raqamli xizmatlari turlarini rivojlantirish yo'nalishi kuzatilmoqda. Bank-moliya tizimiga elektron ITning kirib kelishi, mazkur yo'nalishdagi ortiqcha katta mablag'lar talab etadigan ishlarni yangicha tashkil etish va mukammallashtirishga zamin yaratdi. Bank-moliya yo'nalishida ro'y berayotgan har-xil muammolar va ular keltirib chiqaradigan salbiy oqibatlarini yengib o'tish uchun milliy iqtisodiyotda raqamli iqtisodiyotni keng ko'lamda qo'llashga erishish asosiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Raqamli banklar uchun raqamli bankingni qo'llash, iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash va mobil tizimlar rivojlanishiga alohida ahamiyat qaratish moliyaviy bozorlar va banklar rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada asosiy muhim masalalar iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida kredit tashkilotining havfsizligini ta'minlash hamda raqamli banklarning rivojlanish muammolari hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit tashkilotining iqtisodiy xavfsizligi bankning ichki va tashqi salbiy havflaridan bartaraf qilish uchun qo'llaniladigan huquqiy, tashkiliy, dasturiy-texnik vositalar va usullar yig'indisi hisoblanadi. Biroq zamonaviy kredit tashkilotining iqtisodiy havfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan asosiy faktorlar majmuiga axborot texnologiyalari infratuzilmasining himoyasini ta'minlash, ma'lumotlarning to'liqligi va firibgarliklarga qarshi kurashishni kiritishimiz mumkin.



Umumiy bank sektoridagi bunday yangiliklar kredit tashkilotlarining faoliyatida, banklarning iqtisodiy havfsizligini ta'minlashda bir nechta katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Iqtisodiy havfsizlikni raqamli banking sharoitlarida ta'minlash uchun, quyidagi fikrlarni amalga oshirish talab etiladi:

Doimiy ravishda dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularni yangilab borish talab etiladi;

Barcha sohaga tegishli bo'lgan ma'lumotlar bazasini markazlashtirish;

Mazkur sohaning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash uchun qonuniy asoslarni mukammallashtirishni tashkil etadi.

Mamlakatimizda bank-moliya tizimi barqarorligi yo'lida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoniga to'xtaladigan bo'lsak, mazkur Farmonning 1-ilovasida 2020 - 2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasining III bob 3.3-bandiga asosan Zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish asnosida quyidagi ishlar belgilab berilgan:

masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan kontaktsiz to'lovlar soni va qamrovini kengaytirish;

avtomatlashtirilgan skoring tizimi, raqamli identifikatsiyalash va kredit konveyeridan keng foydalanish;

bank ma'lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;

bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni joriy qilish (fintex, marketpleys, raqamli bank) [11].

Shuningdek mamlakatimiz iqtisodiyoti globallashtirish sharoitida bank-moliya tizimini isloh qilish va barqarorligini oshirish, bank tizimiga mamlakatimiz insonlarini va xorijlik hamkorlarimizni ishonchini yanada oshirish, bank mijozlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda, banklar tomonidan taklif etilayotgan bank xizmatlarining turini kengaytirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidentining 2018-yil 23-martda qabul qilingan "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-son qaroriga asosan "Bank xizmatlari ommabopligining oshirilishini va bank xizmatlari iste'molchilari huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muhim va asosiy vazifalaridan biri ekanligi belgilab qo'yildi [12].

XULOSA VA TAKLIFLAR.

O'zingizga ma'lumki dunyoning ba'zi rivojlangan banklari o'z mijozlariga to'xtovsiz xizmat ko'rsatishga harakat qiladilar, bunday xizmat ko'rsatishni Germaniyaning "Doyche bank", Gollandiyaning "ABN AMRO Bank", Fransiyaning "Sosete Jeneral", Amerika Qo'shma Shtatlarining "Sitibank" banklarida ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi banklarda bank xizmatlari strategiyasi asosan past tariflarda yangi mijozlar, korrespondent-banklarni o'ziga jalb etish, zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalana olish imkoniyatlariga asoslanadi va mijozlarga xizmat



ko'rsatish kechayu-kunduz ya'ni kuniga 24 soat davomida haftasiga 7 kun olib boriladi. Xizmatlar mijozlarning ko'proq o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tamoyiliga asoslanadi, xizmatlarning doimiy ravishda mobilligini ta'minlaydi va mijozlarni jalb etish usuli hisoblanadi. Hozirgi kunda moliyaviy masalalar bo'yicha ko'pgina texnologiyalar naqd pul olish bankomatlari dasturidan ancha murakkabdir, shu sababli banklar oddiy interfeyslarni va tushunarli ko'rsatmalarni yaratish haqida o'ylashlari lozim va bank mijozlarining yangi raqamli bank xizmatlariga ko'nikma hosil qilishlari uchun har xildagi qo'llanmalarni ishlab chiqish bank uchun maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur tadqiqot natijasida tijorat banklarining xizmat bozori va banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat turlari, samaradorligi va sifatini chuqur tahlil qilgan, shuningdek rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida bank havfsiz va to'xtovsiz ishlashini ta'minlash bo'yicha quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi va takliflar ishlab chiqildi:

1. Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitlarida kredit tashkilotlarining iqtisodiy havfsizlik darajasini oshirish eng birinchi navbatdagi ishlardan biridir;
2. Mamlakatimiz banklararo bozori bank kapitali, bank depoziti va kreditlar bo'yicha bozor konsentratsiyasi koeffitsientining haqiqatdagi darajasidan yuqori ekanligi, sog'lom banklararo raqobatning to'liq shakllanmaganligidan dalolat beradi;
3. Mamlakatimizda banklararo raqobatni shakllantirish, yirik banklarning moliya bozoridagi monopol mavqeiga barham berish imkonini beradigan alohida qonunning mavjud emasligi, sog'lom raqobat muhitni shakllantirishga to'sqinlik qilmoqda;
4. Raqamli banking bank iqtisodiy havfsizligi tizimida zaruriy elementlardan biri bo'lib qoladi;
5. Mamlakatimizning ba'zi yirik tijorat banklarida kreditlarning aktivlar hajmidagi salmog'ining beqaror bo'lganligi, ba'zi davriy oraliqlarda pasayish sur'atiga ega bo'lganligi, bank aktivlari va kreditlarining daromadlilik darajasiga nisbatan salbiy ta'sirni yuzaga keltirdi;
6. Moliyaviy sektorning rivojlanishi nuqtai-nazaridan raqamli transformatsiya yangi raqamlashtirilgan ish muhitini yaratish natijasida moliyaviy faoliyat yuritishni mukammallashtirishdir.

Mazkur maqolamdagi so'zinning oxirida shuni xulosa sifatida aytishim lozimki, har qanday raqamlashtirish jarayoni olib borilayotgan sohada rivojlantirish masalalari xavfsizlik masalasi bilan birga olib borilishi kerak deb o'ylayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA HAVOLALAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisidagi nutqi (16.11.2022 yil) <https://president.uz/uz/lists/view/5702>. [1]
2. Крис Скиннер Digital Bank. - Манн, Иванов и Фербер, 2015. [2]
3. „USA digital banks“. topmobilebanks.com (дата обращения: 13.04.2021). [3]



4. Maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilgan.[4]

- ҳокимият бошлиғи ёки маҳаллий маъмурият бошлиғи томонидан тасдиқланган вазифа белгилари, ваколатли шахслар томонидан ЭРИдан фойдаланиши мумкин (ЭРИни иш тавсифларида фойдаланиш имконияти индикатори ЭХК (электр ҳаракати кучи)ни қўллашнинг қонунийлиги ҳисобланади).

- ихтисослаштирилган дастурий таъминот (бу ЭХК ишламасдан, шифрлаш воситаси). Масалан, Крипто ХФУ (хизматда фойдаланиш учун), крипто АИЖ (автоматлаштирилган иш жойи).

- ЭРИни олиш учун молиявий воситалар (ҳар йили) ва белгиланган махсус дастурий таъминотни сотиб олиш учун (бир марта).

4. Хизматларни электрон шаклда тақдим этиш “Электрон ҳукумат” ни яратишда устувор йўналиш сифатида кўплаб шаҳар ҳокимияти маъмурий жараёнларни оптималлаштириш ва электрон ахборот-коммунал ва давлат хизматларини ривожлантиришнинг асосий шарти бўлган ахборот тизимларини интеграциялашувини қайд этади.

Электрон ҳукуматнинг ҳақиқий муваффақияти кенг жамоат қатламларини қўллаб-қувватлаш даражасига боғлиқлигини таъкидлаймиз. Шунинг учун яқин келажакда (8-10 йиллик истиқбол) ташкилотнинг ваколоти ва барча манфаатдор томонлардан (ҳукумат, бизнес, нодавлат ташкилот ва албатта, фуқаролар) шерикчиликда иштирок этиш талаб этилади.

Хулоса

Электрон ҳукуматни жорий қилиш давлат бошқаруви самарадорлигини оширишга қаратилган маъмурий ислохотларнинг муҳим қисмидир. Бу коррупция даражасини пасайтиришга, давлат аппаратини таъмирлашга бўладиган сарф харажатларни камайтиради ва шу билан бирга давлат хизматчиларининг ижтимоий даражасини оширади ва солиқлар тўлаш, қайта



ишлаш ва турли хил хужжатларни олиш каби кўп вақт сарфламасликка имкон беради. Яратилган портал давлат органларининг мингдан зиёд ахборот хизматларини таклиф этади. Ушбу хизматлар ҳар йили ўсиб бормоқда. Электрон ҳукумат дастурининг етарли даражадаги ижтимоий, аҳамиятга эга бўлишини таъминлаш учун қуйидагилар зарур:

- 1) Ҳукумат ахборот инфратузилмасини ривожлантириш даражасини ошириш учун янада кўпроқ ҳаракатларни амалга ошириши керак;
- 2) Ташаббуслар реал асосда қурилиши учун ҳукумат зарур шароитларни, хусусан, ахборот инфратузилмасини ривожлантириш даражасини ҳисобга олиш керак.

АДАБИЁТ:

1. Якубов М.С. Электрон ҳукумат бошқарув тизимини шакллантиришда ахборот коммуникация технологиялари. Республиканская научно-практическая конференция «Перспективные направления применения инновационных технологий в национальной экономике». Сборник научных статей. Часть I. 25 декабрь. Ташкент. 2014. 95-102 с.
2. Якубов М.С. Электрон ҳукумат – мамлакат иқтисодиётини модернизациялашнинг асосий фактори. “Электрон ҳукуматни ташкил этишнинг илмий-амалий асослари. (таклифлар, ечимлар, истиқболлар)”. Республика илмий-амалий семинари ТАТУ Қарши филиали. 2013. 20 август.
3. Жамалова Г.Б. “Методы Моделирование Процессов Налогаобложения” Central Asian journal of mathematical theory and computer sciences. <http://cajmtcs.centralasianstudies.org/index.php/CAJMTCS> Volume: 03 Issue: 04 | Apr 2022 ISSN: 2660-5309 SJIF:5.512 (133-139 стр.)
4. Жамалова Г.Б. “Солиқ тизимида ахборот тизимларидан фойдаланишнинг ҳуқуқий асослари” SCIENCE AND INNOVATION International scientific journal. Volume 1, Issue 7. UIF-2022: 8.2 /ISSN: 2181-3337 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7314035>
5. Zhamalova G.B “METHODS FOR SIMULATION OF TAXATION PROCESSES” Web of scientist: international scientific research journal. ISSN: 2776-0979 (Volume 2, Issue 12, Dec., 2021 <https://wos.academiascience.org> Impact Factor: 7.565
6. Jamalova G.B. “Analysis and development of methods for supporting management decisions of the tax inspectorate based on processing fuzzy information” Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. november, 2021 -11/2. issn 2181-9750.
7. G.B.Jamalova “Soliqlarni turli byudjetlar o ‘rtasida taqsimlashning texnik va iqtisodiy samaradorligi” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 1, Issue 3/ ISSN 2181-1784, SJIF 2021:5.423.



DIFFUZ TOKSIK BUQOQ KLINIK-LABORATOR DIAGNOSTIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854388>

Babadjanova Sh.A

Qurbanova G.Ch

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada diffuz toksik buqoqning inson hayoti va organizmiga ta'sirlari, ularni bir necha turli xil usullar bilan davolash, laborator diognostikasi hamda gormonal o'zgarishlarni baholash haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: diffuz toksik buqoq, anemiya, qalqonsimon bez, autoimmun, tireotoksikoz, notireoid kasallik, ekzoftalm.

Diffuz toksik (zaharli) buqoq (DTB) – qalqonsimon bezning diffuz shikastlanishi, tireotoksikoz rivojlanishi bilan TTG retseptorlariga antitanachalar ta'sirida QB tireoid gormonlarining turg'un oshishi bilan xarakterlanuvchi, autoimmun kasallikdir. DTB va tireotoksikoz MKB -10 bo'yicha quyidagicha tashxislanadi:

- E 05 –tireotoksikoz.
- E05.0 - tireotoksikoz bilan kechuvchi diffuz buqoq.
- E05.1 – tireotoksikoz bilan kechuvchi bir tugunli toksik buqoq.
- E05.2 – tireotoksikoz bilan kechuvchi ko'p tugunli toksik buqoq [16].

DTB bilan kasallanish turli mualliflar ma'lumotlariga ko'ra yiliga 1000 aholiga 15-50 kishini tashkil qiladi. Ko'p holatlarda DTB 20-40 yoshdagi kishilarda uchraydi. Erkak va ayollarda DTBning uchrashi 7-10% ni tashkil qilsa, bolalarda esa 3% uchraydi. Qizlar va o'g'il bolalarda uchrash chastotasi bir xil. DTB nasliy moyillik va salbiy omillar ta'sirida rivojlanadi. Moyillik omillarga T-supressorlar tanqisligiga olib keluvchi immun tizimidagi irsiy buzilishlar kiradi. DTB rivojlanishi STL44 tashuvchi geni (sitotoksik T-limfotsitar 4 antigeni), shuningdek, HLA B8, HLA DR3, HLA –DR W3 singari gaplotiplar bilan bog'lanadi [24].

DTB rivojlanishiga sabab bo'luvchi salbiy ta'sir omillari ichki (stress) va tashqi ta'sirlarga (yodni qabul qilish darajasi, virusli va bakterial infeksiya, chekish) bo'linadi. Diffuz toksik buqoq tasnifi asosida QB hajmi va tireotoksikoz og'irligi singari belgilar yotadi.

Hozirgi vaqtda amaliy endokrinologiyada hamma tireoidologik holat uchun umumiy bo'lgan DTB tasnifidan foydalaniladi (1-jadval).

1-jadval.

DTB tasnifi (Butun dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti 2001 yili)

| Buqoq darajasi | Belgilari |
|----------------|--|
| 0 darajasi | Buqoq yo'q |
| I darajasi | Qo'lning katta barmog'i distal falanga kattaligida hajmi |



| | |
|-------------|--|
| | kattalashadi yoki QBda kattalashmagan tugunlari kuzatiladi |
| II darajasi | Buqoq paypaslab ko'riladi va vizual aniqlanadi |

Tireotoksikozning og'irlik darajasi bo'yicha engil, o'rta va og'ir turi ajratiladi (2-jadval).

2-jadval. Tireotoksikozning og'irlik darajasi bo'yicha tasnifi

| Og'irlik darajasi | Asosiy mezonlari |
|------------------------------|--|
| Subklinik (engilkechishi) | Klinik ko'rinishi kuzatilmaydi yoki sust; TTG biroz kamayadi; erkin T4 va T3 biroz oshadi |
| Manifest (o'rtacha og'irlik) | Tireotoksikozning kengaytirilgan klinik ko'rinishi; TTG kamayadi; erkin T4 va T3 oshadi |
| Asoratlangan (og'irkechishi) | Asoratlar bilan tireotoksikoz ko'rinishlarining ifodalanishi: titrok, aritmiya, yurak yetishmovchiligi, nisbiy buyrak usti bezi yetishmovchiligi, parenximatoz organlarning distrofik o'zgarishlari, psixoz, tana vaznining tanqisligi; TTG keskin kamayadi; erkin T4 va T3 keskin oshadi |

Undan tashqari, gipertireozni davolash fonida dekompensatsiya, kompensatsiya va retsdiv holatlari ajratiladi, ular olib borilgan davolashning samaradorligini ko'rsatadi [17].

“Tireotoksikoz” va “gipertireoz” atamaları to'liq sinonim bo'la olmasligini ta'kidlash joiz. Tireotoksikoz - bu klinik laborator sindrom bo'lib, organ va to'qimalardagi tireoid gormonlar miqdorining ortishi oqibatida organizmning patologik javob reaksiyasi yuzaga keladi. Gipertireoz (gipertireoidizm) qisman tireotoksikoz holati bo'lishi mumkin, QB sekretsiyasining oshishi tireoid gormonlar miqdorining fiziologik hamda patologik oshishi bilan namoyon bo'ladi. Masalan, tireoid gormon dori vositalarining ortiqcha qabul qilishidan gipertireozsiz tireotoksikoz, homiladorlikda esa tireotoksikozsiz gipertireoz ma'lum ahamiyat kasb etadi [22].

Homiladorlikning ikkinchi yarmida puls 160 /min va tireotoksikoz bilan tug'ilgan bolalar ko'pincha tug'ma nogiron bo'ladi, sog'lom tug'ilgan bolalar esa kichik vaznda 2—2,5 kg tug'iladi. Shu bilan birga, mikrotsefaliya va miya qorinchalarining kengayishi, ekzoftalm kuzatiladi.

Tug'ma tireotoksikoz bilan tug'ilgan bolalarning yarmida buqoq paypaslanadi va yuqori nafas yo'llarining ezilishi kuzatiladi. Ularda qo'zg'aluvchanlik, harakatlarida faollikning ortishi, terlash va ishtahaning ortishi kuzatiladi. Ko'pgina chaqaloqlarda qayt qilishi va ichi ketishi hisobiga tana vazni kamayishi kuzatiladi, emish refleksi rivojlanishi qiyin bo'ladi. Shu bilan birga gepatosplenomegaliya va sariqlik kuzatiladi. Kattalarda Karl Bazedov tomonidan o'rganilgan klassik Nikolaev triadasi (buqoq, taxikardiya, ekzoftalm) 50% bemorda uchraydi. DTBda ko'pincha ishtahaning oshishi, ozish, terlash, taxikardiya va yurak urishini his qilish, asabiylashish, qo'llarning



qaltirashi, umumiy va muskul kuchsizligi, tez charchash va qator boshqa belgilar xos bo'ladi (3-jadval) [16].

3-jadval. Diffuz toksik buqoq klinik ko'rinishi

| Organ va tizim | Belgilari |
|--|--|
| Moddalar almashinuvi | Katabolik sindrom rivojlanishi bilan asosiy almashinuvning tezlashishi: tana vaznining yo'qotilishi, issiqni yomon o'tkazish, juda ko'p terlash va boshqalar |
| Ko'z | Ko'z yorig'ining kengayishi, yuqori qovoq retraksiyasi, ekzoftalm, konyuktiv shishi, oftalmoplegiya |
| Yurak qon-tomir tizimi | Sinusli turg'un taxikardiya, ekstrasistoliya, miltillovchi aritmiya, sistolik va diastolik AQB oshishi, yurak tonining kuchayishi, yurakdan tashqari va yurak shovqini, miokardiodistrofiya, yurak yetishmovchiligi |
| Nerv tizimi | Emotsional labillik, bezovtalanish, uyquning buzilishi, tez ozish sindromi, mayda tremor, giperrefleksiya |
| Teri va quyruq | Gipergidroz, soch va tirnoqlarning yupqalashishi va tushib ketishi, pretibial miksedema, onixolizis (tirnoq plastinkalarining ko'chishi), chandiq dog'lari, vitiligo dog'i, kaft qatlamlarining giperpigmentatsiyasi |
| Oshqozon ichak trakti | Ishtahaning oshishi, ich ketishi, jigarning toksik shikastlanishi (hajmning qaytalanuvchi kattalashishi, og'riq, sariqlik) |
| Reproduktiv tizim | Menstrual siklning buzilishi (amenoreyagacha), erkaklarda – ginekomastiya (majburiy emas), impotensiya, fertillikning pasayishi |
| Endokrin tizim | Uglevodga tolerantlikning buzilishi, buyrakusti yetishmovchiligi (nisbiy) |
| Tayanch-harakat apparati | Miopatiya, mushaklar atrofiyasi, osteopeniya/ osteoporoz, qonda ishqoriy fosfataza va kalsiy darajasining oshishi |
| Nafas olish tizimi | Nafas tezligining oshishi |
| Termoregulyasiya | Subfebrilitet |
| Pretibial miksedema-DTB bilan birikkan immunopatiya | Boldirning medial oldi yuzasiga bir yoki ikki tomonlama aniq to'q qizil-ko'k chiziqlar, gipoksiya. Odatda oftalmopatiyaga ega bemorlar ro'yxatdan o'tadilar. |
| Tireoid akropatiya – DTB bilan birlashgan immunopatiya | Erkaklarda zich to'qimalar falangi shishishi va suyak to'qimalarning periostal yangi hosil bo'lishiga sabab bo'luvchi qo'l barmoqlari farangining qalinlashishi kuzatiladi |

DTB bemorlariga iliq va nam kaft, teri yumshoq va mayin, oldinga cho'zilgan qo'l barmoqlari uchi (Mari simptomi) mayda tremori, to'liq berkitilmagan qovoqlar qaltirashi (Rozenbax sindromi) xosdir. Bemorlar asosan ayollar bo'lib, o'z yoshiga nisbatan yosh ko'rinadi.

DTB bemorlarining ko'pida qalqonsimon bez paypaslanganda uning kattalashgani aniqlanadi. Bunda nafaqat QB hajmi aniqlanadi, balki uning yuzasi, konsistensiyasi, bir xilligi, harakatchanligi va og'riqliligi ham aniqlanadi. QB paypaslanganda semizlik, "kalta" bo'yin, erkaklarda ifodalangan bo'yin muskulaturasi kabi omillar qiyinchilik tug'diradi. Paypaslash bemor boshi engil oldiga egilib amalga oshiriladi [23].



Qalqonsimon bezning tekshirish usullaridan eng ishonchli skrininglaridan biri UTT hisoblanadi. QBni UTT bilan tekshirish bemorning orqa tomonidan elka ostiga uncha katta bo'lmagan valik qo'ygan holatida olib boriladi. UTT bayonnomasida QBning joylashishi, chiziqli hajmi, tuzilishi, o'choqli o'zgarishi va hajmli o'zgarishlar bo'lishi (ularning joylashishi, hajmi va exotuzilishi haqida), shuningdek, regionar limfa tugunlarining exotuzilishi hamda hajmi haqida ma'lumot beradi.

Laborator tekshirishda DTBda qonda TTG darajasi kamayganganligi aniqlangan. Shu bilan birga T3 va T4 ortadi, tireotoksikozning "destruktiv" shaklida sog'lom kishilarga xos T4 ning T3 ustidan sezilarli ustunligi saqlanadi [17].

DTB bilan kasallangan bemorlarda anemiya uchrash darajasi yuqori [3-5]. Anemiya DTBda modda almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadi [20, 21]. DTB og'irlik darajasi oshishi bilan anemiya og'irlik darajasi ham oshib boradi [1]. Ayrim bemorlarda temir almashinuvi buzilmagan va anemiya normoxrom xarakterga ega [7, 10, 12, 18, 19]. Tireotoksikoz darajasi oshishi bilan eritrositlar osmotik rezistentligi kamayib boradi, natijada anemiya kuchayadi [6-9,13].

DTBda tireotoksikoz rivojlanishi endotelial disfunktsiya va trombotik asoratlarning oshishiga olib keladi [2]. DTBda oqsil almashinuvining buzilishi katabolizm jarayonining kuchayishi bilan bog'liq [11, 14, 15].

DTB bemorlarini davolashni ikkita asosiy bosqichga bo'lish mumkin.

- I bosqich – tireotoksikoz va uning ko'rinishlarini bartaraf qilish. Buning uchun odatda β -blokatorlar va tionamid guruhidan dori vositalaridan tireostatik terapiya tavsiya qilinadi.

- II bosqich –kasallikni bartaraf qilish. DTB davomli remissiyasiga erishish usullaridan biri aniqlanadi: qo'llab quvvatlovchi dozada tireostatiklar bilan konservativ terapiyani davom ettirish yoki QB radikal davolash (jarrohlik yo'li bilan davolash yoki radiaktiv yodni qo'llash). Ko'plab bemorlarda birinchi bosqich 3-4 hafta, ikkinchi bosqich esa dori vositalarini qabul qilishni to'xtagandan keyin 12-18 oyni tashkil qiladi [16].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1) Бабаджанова ША, Курбанова ГЧ, Курбонова ЗЧ. [Изучение гематологических показателей при диффузно-токсическом зобе](#) // Проблемы биофизики и биохимии. – 2021. – С. 43.

2) Бабаджанова Ш.А., Курбанова Г.Ч. Диффуз токсик буқоқда гиперкоагуляциянинг патогенетик аспекти // Замоновий клиник лаборатор ташхиси долзарб муаммолари, 2022, №1. Б. 100-101.

3) Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. Қалқонсимон без гормонларининг анемия ривожланишидаги патогенетик аспекти // Гематология ва қон хизматининг долзарб муаммолари. – 2005. - С. 96.



4) Бабаджанова Ш.А. Курбонова З.Ч. Распространенность и течение анемии у больных с гиперфункцией щитовидной железы // Қон тизими касалликларининг замонавий ташхиси, даволаниши ва трансфузиология муаммолари. – 2007. – С. 68.

5) Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. Диффуз-токсик буқоқда тиреоид гормонларнинг анемия оғирлик даражаси билан боғлиқлиги //«Ўзбекистонда она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш соҳасидаги ютуқлари, муаммолари ва истиқболлари» тезислар тўплами. – 2018. – Б. 20-21.

6) Бабаджанова Ш.А., Курбанова Г.Ч. Осмотическая стойкость эритроцитов при диффузно-токсическом зобе // Замонавий клиник лаборатор ташхиси долзарб муаммолари, 2022, №1. Б. 98-99.

7) Бабаджанова Ш.А., Курбанова Г.Ч. Феррокинетика при диффузно-токсическом зобе // Замонавий клиник лаборатор ташхиси долзарб муаммолари, 2022, №1. Б. 101-103.

8) Каримов З.Б., Хожиев Ш.Т., Курбонова З.Ч. Change of osmotic resistance in patients with diffuse toxic goiter // Young scients days. – 2014. – P. 262.

9) Курбанова Г.Ч., Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. [Изучение осмотической резистентности эритроцитов при диффузно-токсическом зобе](#) // Биофизика ва биокимё муаммолари. – 2021. - Б. 77

10) Курбанова Г.Ч., Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. Анализ феррокинетики при диффузно-токсическом зобе // Биофизика ва биокимё муаммолари. – 2021. - Б. 132

11) Курбанова Г.Ч., Бабаджанова Ш.А., Курбонова З.Ч. [Обмен белка при диффузно-токсическом зобе](#) // Биофизика ва биокимё муаммолари. – 2021. - Б. 76

12) Курбанова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Тиреотоксикоз ҳар хил оғирлик даражаларида темир алмашинувини баҳолаш // «Ўзбекистонда она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш соҳасидаги ютуқлари, муаммолари ва истиқболлари» тезислар тўплами. – 2017. Б. 20.

13) Курбонова З.Ч. Эритроцитлар осмотик резистентлигининг диффуз-токсик буқоқда ўзгариши // Қон тизими касалликларининг замонавий диагностикаси, давоси ва трансфузиологиянинг муаммолари. – 2010. - №1. – С. 51-52.

14) Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Анемия ва диффуз токсик буқоқ билан касалланган беморларда оқсил алмашинувининг бузилиши // Қон тизими касалликларининг замонавий диагностикаси, давоси ва трансфузиологиянинг муаммолари. – 2010. - №1. – Б. 50.

15) Саламов Ф.Т., Ялгашев И.И., Шарипов Ш.Б., Курбонова З.Ч. Protein exchange at the Diffuze toxic goiter // ТТА, Ёш олимлар кунлари. – 2013.

16) Dedov I.I., Peterkova V.A.. Endokrin kasalliklarga chalingan bolalarni davolash bo'yicha federal klinik ko'rsatmalar (protokollar). Ed. - M: Praktika, 2014 yil.



- 17) Dedov I., Peterkova V.A., Malievskiy O.A., Shiryaeva T.Yu. *Pediatrik endokrinologiya*. 2016.
- 18) Kurbonova Z.Ch., Salamov F.T., Fayzulina L.I. Exchange of iron in patients with diffuse toxic goiter accompanied by iron deficiency anemia // *ТТА, Ёш олимлар кунлари*, Toshkent, 2014. № 265-266.
- 19) Kurbonova Z.Ch., Madrahimov A.L., Tashboev A.S. Exchange of iron in group sick with iron deficiency anemia and diffuse toxic goiter // *Young scients days*. – 2015. – P. 257-258.
- 20) Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. *Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma*. Toshkent, 2022. 140 b.
- 21) Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. *Laboratoriya ishi: elektron o'quv qo'llanma*. Toshkent, 2022. 176 b.
- 22) Peterkova V.A., Vasyukova O.V. Bolalar va o'smirlardagi semizlikning yangi tasnifi masalasi. *Endokrinologik muammolar*, №2, 2015.
- 23) Ismailov S.I. *Endokrin bezlari, limfoid tugunlari, taloq shikastlanishi va ularning xirurgik kasalliklaridagi eponim simptom va sindromlarining izohli ma'lumotnoma-lug'ati*. 2002.
- 24) Shlomo Melmed, Kenneth S. Polonsky, Reed P.Larsen, Henry M. Williams *textbook of endocrinology*. Kronenberg, 2015



MOLIYA SOXASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854394>

Asrayev Umar Mo'minovich
*Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot
kafedrasi katta o'qituvchisi
Toshkent moliya instituti
E-mail: umaras1963@jmail.com*

Annotatsiya: Maqolada moliya soxasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari, axborot kommunikatsion texnologiyalarini jadal joriy etish, sanoatni innovatsion rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liqligi tahlil etiladi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi biznes modellariga o'tish tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: moliya, raqamli iqtisodiyot, transformatsiya, raqamli texnologiyalar, strategiya, biznes-model.

ПРОЦЕСС ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В ФИНАНСАХ

Асраев Умар Муминович
*Старший преподаватель кафедры электронной торговли и цифровой
экономики
Ташкентский финансовый институт
E-mail: umaras1963@jmail.com*

Аннотация: В статье исследуются проблемы цифровой трансформации в финансовой сфере, стремительного внедрения информационно-коммуникационных технологий, инновационного развития промышленности при переходе к цифровой экономике. Анализируется переход к новым бизнес-моделям в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: финансы, цифровая экономика, цифровая трансформация, цифровые технологии, стратегия, бизнес-модель.

THE PROCESS OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE FINANCIAL SPHERE

Asraev Umar Muminovich
Senior Lecturer, Department of Electronic Commerce and Digital Economy
Tashkent Financial Institute
E-mail: umaras1963@jmail.com



Abstract: The article examines the problems of digital transformation in the financial sector, the rapid introduction of information and communication technologies, innovative development of industry in the transition to a digital economy. The transition to new business models in the digital economy is analyzed.

Keywords: Finance, digital economy, digital transformation, digital technologies, strategy, business models.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni transformatsiya qilishning dolzarbligi iqtisodiyotda sdir bo'layotgan o'sish va transformatsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Hududlarda kuzatilayotgan iqtisodiy o'sishga baho berish uchun amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish, jahon iqtisodiyotining rivojlanish bosqichlarini va sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasini batafsil o'rganish talab etiladi.

Bugungi kunda biznesni raqamlashtirish faqatgina hujjatlarning elektronlashuviga o'tish bilan cheklanib qolmaydi. Raqamli transformatsiya haqida so'z borganda, biz ishlab chiqarish madaniyati va korxonalarini boshqarish uslubini o'zgartirishga imkon beruvchi zamonaviy texnologiyalarning majmuini nazarda tutamiz. Raqamli yechimlar tufayli dunyodagi ko'pgina kompaniyalar o'z xodimlari va texnika-texnologiyalarining samaradorligini oshirmoqdalar. Shu bilan birga, mijozlarga yaxshiroq xizmat ko'rsatish va biznes olamidagi raqiblariga nisbatan muvaffaqiyatga tezroq erishadilar. Bugungi kunda raqamli transformatsiya deyarli har qanday faoliyat sohasiga ta'alluqlidir.

Raqamli transformatsiya haqida gapirilganda, yangi texnologiyalarga investitsiya kiritishni o'z ichiga olgan muayyan korxonaning barcha mavjud modelini, rivojlanish strategiyasini, mijozlar bilan ishlashni, mahsulotlarni ilgari surish va xizmat ko'rsatish usullarini va, hatto, korporativ madaniyat kabilarni tushinish kerak. Raqamli transformatsiya jarayonini korxonalar, tashkilot va turli biznes-tuzilmalarda axborot texnologiyalarni oddiy joriy etish deb hisoblamaslik kerak. Shuningdek, korporativ veb-saytni, telegram botni, mobil ilovani ishlab chiqish va ishga tushurish, ijtimoiy tarmoqlarga kirish bilan raqamlashtirish cheklanmaydi. Raqamli transformatsiya davlat boshqaruvida, qurilishda, mashinasozlikda, fermer xo'jaliklarida va boshqa sohalarda keng qo'llanib, o'z samarasini bermoqda. So'nggi o'n yil raqamli texnologiyalarga bo'lgan talabni ko'rsatib, keyingi o'n yil ularni rivojlanishi uchun yangi talablarni qo'ydi. Bugungi kunda aynan zamonaviy texnologiyalardan foydalanadigan kompaniyalar, korxonalar, tashkilotlarning kelajagi bor. Chunki ular iste'molchilarga eng ilg'or xizmatlarni taqdim etadi, bozordagi eng yuqori sifatli va haridorbob mahsulotni taklif qila oladi.

Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2020 yil 12 may kuni tasdiqlangan «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston



Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi»da zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini kompyuterlashtirish va masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilandi¹⁶⁷.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformatsiya qilishni jadallashtirish kerakligini ta'kidlab o'tgan edi¹⁶⁸

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining jadal raqamli rivojlanishini ta'minlash, shu jumladan elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi tasdiqlangan¹⁶⁹. Strategiya BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va elektron hukumatni rivojlantirish reytingida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va unda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari hamda o'rta va uzoq muddatli istiqbolli vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2020 yilga ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb nom berishni taklif qildi va bajarilishi zarur bo'lgan bir qator vazifalarni inobatga olib, Raqamli O'zbekiston 2030 yilgi dasturning ikki oy ichida ishlab chiqish to'grisida hukumtga topshiriq berdi¹⁷⁰.

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'grisida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079 sonli farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, mamlakat iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyotga o'tkazish belgilangan. Raqamli iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar, yani sanoat korxonalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish dasturlarini ushbu korxonalarini texnologik qayta jihozlash dasturlari bilan uyg'unlashtirish; korxonalar ta'minotining barcha

¹⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni

¹⁶⁸ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M. MIRZIYOYEVNING 2020-YIL 29-DEKABRDAGI OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASIDA BAYON ETILGAN TAKLIFLAR VA XULOSALARDAN KELIB CHIQUADIGAN VAZIFALAR TO'G'RISIDA Toshkent sh., 2021-yil 7-yanvar, 681-IV-son

¹⁶⁹ "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son

¹⁷⁰ RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASINI TASDIQLASH VA UNI SAMARALI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA Toshkent sh., 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son



bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish; innovatsion avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va boshqa chora-tadbirlar belgilangan [2]

TADQIQOT NATIJALARI


Shuningdek, ta'kidlash joizki, banklarning raqamli xizmatlarga o'tishi uzoq muddatli va serharajat bo'lib, aksiyadorlar tomonidan faol qo'llab-quvvatlashni, katta miqdorda mablag'lar ajratishni talab qiladigan jarayon hisoblanadi.

Hozirgi kunda banklar o'z mijozlariga bir qator onlayn-xizmatlar va masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi TIF Milliy banki o'z mijozlariga quyidagi onlayn-hizmatlar taklif qilmoqda:

- bank operatsiyalari haqida SMS orqali xabardor qilish;
- amalga oshirilgan amallar to'g'risida elektron pochta (e-mail) orqali xabardor qilish;
- mijozlar uchun personal IVR-kabinet tashkil qilish. Mijozlarga masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish va onlayn-hizmatlar taklif qilish amaliyotining ko'rsatishicha, mahalliy banklar cheklangan turdagi onlayn-xizmatlar taklif qilmoqda, shuningdek bank faoliyatini iste'molchilar talablariga nisbatan ommalashtirish jarayoni juda sekinlik bilan ro'y bermoqda.

Agar mahalliy banklar raqamli kanallar bo'yicha xilma-xil moliyaviy xizmatlar taqdim etadigan bo'lsa, iste'molchilar bank servislaridan istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish imkoniga ega bo'lgan bo'lar edilar [3].





Strategiya doirasida 2020–2022- yillarga mo'ljallangan “Yo'l xaritasi”da to'rtta asosiy sohani, ya'ni elektron hukumatni, raqamli industriyani, raqamli ta'limni va raqamli infratuzilmani rivojlantirish nazarda tutilgan va unda, hudud va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish doirasida:

– aholi punktlarini Internet tarmog'iga ulash darajasi, shu jumladan keng polosali ulanish portlarini 2,5 mlngacha ko'paytirish.

– tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmoqlarini rivojlantirish orqali 78 %dan 95 %ga yetkazilishi;

– hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilishi;

– 587 ming nafar kishini, shu jumladan «Bir million dasturchi» loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtirilishi;

– iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi belgilangan.

Hozirgi kunda jahon moliya-bank tizimida birinchi navbatda, raqamli iqtisodiyotning elektron to'lov tizimlari, kriptovalyutalar va vositachilarsiz kreditlash kabi elementlarning bozordagi ulushi shiddatli o'sishi bilan bog'liq bo'lgan inqilobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Hozirgi kunda o'zining ofislari va bankomatlariga ega bo'lmagan raqamli banklar va moliyaviy muassasalar sonining jadal sur'atlar bilan o'sishi kuzatilmoqda. Raqamli banklarning (digitalbanking) asosiy konsepsiyalari qatoriga mijozlarga yo'naltirilganlik, konsortsium konsepsidan raqamli banking kontsepsiyasiga o'tish, CRM (Customer Relationship Management) ning rivojlanishi, mijozlarga bo'lgan ishonchning o'sishi, takliflarni shaxsiylashtirish va harakatchanlik hususiyati kiradi.[4]

Raqamli banklar hizmatlari zamonaviy insonlar hayot faoliyatining barcha sohalariga, birinchi navbatda, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot servislari, elektron tijorat, internet-savdo va boshqalarga kirib borishda kuzatiladi. Raqamli bank o'z mijozlariga raqamli kanallardan foydalangan holda turli xildagi raqamli ko'rinishdagi mahsulot va hizmatlarni taklif qiladi.[5]

Bank infratuzilmasi raqamli kommunikatsiyalar uchun optimallashtirilgan bo'lib, hozircha raqamli texnologiyalarning tez almashinuviga unchalik tayyor emas. Bunday banklarning asosiy vazifalari qatoriga mijozning hisob raqamlar holati va amalga oshirgan operatsiyalar haqida uni tezkorlik bilan habardor qilish, uning uchun eng yaqin bo'lgan bank bo'linmasi, bankomat, almashinuv punkti yoki avtokioskalar izlab topish kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada statistik-iqtisodiy, guruhlash, solishtirish, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya metodlaridan foydalanildi.



Tahlil va natijalar

Raqamli texnologiyalarni amalda tatbiq etilishi jamiyat va iqtisodiyotni rivojlanishining muhim yo'nalishlarini aniqlab beradi va odamlar hayotini tubdan o'zgarishiga olib keladi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ko'plab mamlakatlar, jumladan iqtisodiy lider – AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiya uchun ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Sun'iy intellekt, robotlashtirish, "Internet buyumlar" kabi texnologiyalarning yangi avlodini paydo bo'lishi ijtimoiy soha va biznes faoliyatida transformatsiya qilishni yangi to'lqinini boshlashni taqozga etmoqda. Mutaxassislarining fikricha hududlarda, kompaniyalarda bunday texnologiyalarni joriy etilishi mehnat unumdorligini 40 foizga oshiradi.[5]

Microsoft kompaniyasi tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra raqamli transformatsiyaning asosiy maqsadi raqobatbardoshlikni oshirish, doimo o'zgarib turuvchi iqtisodiy sharoitda kompaniyaga o'zini rivojlantirish uchun imkon berishdir. Raqamli transformatsiyaning an'anaviy avtomatlashtirilgan tizimdan farqi samaradorlikning keskin oshishida hisoblanadi.[6] Shuning uchun transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, odatda yangi biznes modellarni yaratilishiga olib keladi. Shuningdek, korxonalarda korporativ axborot tizimlarini joriy etilishi yoki modernizatsiya qilinishi bo'yicha amalga oshirilgan har qanday loyihani ham raqamli transformatsiya deb bo'lmaydi. Microsoft kompaniyasi raqamli transformatsiya loyihlarida quyidagi funksiyalarni ajratib ko'rsatadi:

1. Samaradorlikni keskin o'sishi: korxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ikki barobarga yaxshilanishi mumkin.

2. Tejamkor, keng o'lchamli va moslashuvchan zamonaviy texnologiyalardan foydalanish (Bulutli xizmatlar, Sun'iy intellekt, "Internet buyumlar", katta hajmdagi ma'lumotlar, robototexnika va boshqalar).

3. O'zaro bog'liq bo'lgan o'zgarishlarning mavjudligi, ya'ni loyiha biznesning bir necha sohalariga ta'sir ko'rsatishi zarur. Mijozlar nafaqat iste'molchi bo'lishi balki biznesning bir qismiga aylanishi, tovar va xizmatlarning sifatiga ta'sir ko'rsatishi kerak.

Raqamli iqtisodiyot an'anaviy iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilishni, yangi bozorlarga chiqish yo'nalishlarini belgilab beradi. Yangi biznes modellari mijozlarga yo'naltirilgan (customer centric) bo'lib, ularning strukturasi to'liq belgilab beradi, ya'ni mijoz talabini oldindan belgilangan muhim taklifini hisobga olib, xaridor tomonidan mahsulotdan foydalanish davrida, o'z vaqtida yetkazib berishdan boshlab daromad kelishgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi.[7]

Raqamli bank o'z mijozlariga shunday onlayn-servis taqdim etishi lozimki, ubarcha platformalarda ishlay olsin va o'z faoliyatini asosan mobil qurilmalarga yo'naltirilsin. Banking raqamli modelini takomillashtirishning yettita asosiy yo'nalishini ko'rsatishimiz mumkin:



- omnikanallik va foydalanuvchilar servislarini soddalashtirish;
- axborotni boshqarishning yangi usullari va vositalarini ishlab chiqish;
- ochiq API tizimidan foydalanish;
- moliyaviy-texnik kompaniyalari bilan hamkorlik va raqobat;
- mobil to'lovlarning rivojlanishi; ∞ banking sohasidagi innovatsiyalarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- faoliyatni innovatsion tartibga solishni amalga oshirish.[8]

Raqamli xizmat ko'rsatishga to'la-to'kis o'tish nafaqat banklarga, balki xilma-xil bank xizmatlaridan tezkor va qulay tarzda foydalana oladigan iste'molchilarga ham foyda keltiradi (masalan, harajatlarning pasayishi, muloqot doirasini qamrab olish imkoniyati, moslashuvchanlik, mijozni yaxshiroq bilish).[10]

Respublika bank tizimida zamonaviy AKT dasturiy-texnik vositalariga asoslangan innovatsion texnologiyalar faol joriy qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markabiy bank Boshqarmasining bank tizimi faoliyati yakunlari bo'yicha kengaytirilgan majlisida qayd etilishicha, moliya xizmatlari strukturasi bank xizmatlarining ulushi 88%ni tashkil qilgan va oldingi yillar bilan taqqoslaganda 1,2 baravarga o'sgan. Bundan tashqari, 2019 yil uchun bank tizimi xizmatlari sonini kengaytirish va sifatini yaxshilash, bu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy qilish bo'yicha muayyan vazifalar belgilab berilgan. Respublikada masofadan turib ko'rsatiladigan bank xizmatlaridan muntazam foydalanadigan mijozlar ulushi ko'plab qulay omillar tufayli og'ishmay o'smoqda. [9]


Aholining moliyaviy savodxonlik darajasi pastligi va naqdsiz hisob-kitoblarga ishonmaslik bank xizmatlari ko'rsatishning raqamli kanallari tez tarqalishiga to'sqinlik qilaypati.

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan ishlab chiqilgan tarmoq tayyorligi indeksi (Networked Readiness Index) mamlakatlarning raqamli iqtisodiyotga tayyorligining asosiy ko'rsatgichlaridan biri hisoblanadi. Buko'rsatgichraqobatbardoshlikvahayot sifatini ta'minlashda iqtisodiyot information-kommunikatsion texnologiyalarni qanchalik yaxshi ishlatayotganligini ko'rsatadi. Jahondagi mamlakatlardan 139 nafari ishtirok etgan reytingda birinchi o'rinda Singapur davlati turadi. Boshqa davlatlarning o'rni esa quyida keltirilgan: (1-diagramma)



RAQAMLI IQTISODIYOTGA TAYYORLIK INDEKSI

- Singapur
- Finlandiya
- Shvetsiya
- Norvegiya
- AQSH
- Niderlandiya
- Shvetsariya
- Britaniya
- Yaponiya
- Daniya
- Gonkong
- J.Koreya
- Kanada
- Germaniya
- Eslandiya
- AVSTRALIYA
- Tayvand
- Xitoy
- Avstriya



Raqamli strategiyaning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi uchun yuqorida sanab o'tilgan rivojlanish yo'nalishlarini koordinatsiya qilish talab etiladi. Bu esa ko'p jihatdan bankning operatsion modeli qandayligiga bog'liq bo'ladi. Ammo barcha banklar uchun yagona operatsion model mavjud emas, shuning uchun bankning qandayligiga bog'liq ravishda quyidagi raqamli strategyalardan foydalanish mumkin: (1-jadval)

(1-jadval)

| | | |
|----------|----------------------------|---|
| 1 | Federativ model | Bunday operatsion modelni raqamli transformatsiyani asta-sekin amalga oshiradigan yirik banklarda qo'llash mumkin bo'lib, unda raqamlashtirish faoliyat bo'limlari bo'yicha amalga oshiriladi. Bunda ba'zi bir tashkiliy bo'limlar raqamli transformatsiyalarga bo'lgan harajatlar oqimini mustaqil ravishda nazorat qilib turib bo'limlarga yangi ko'nikmalarni singdirigan holda raqamli strategiyani amalga oshirishda ishtirok etadilar. Lekin boshqa bo'limlar raqamli transformatsiyada ishtirok etmasliklari ham mumkin. Bunda vaqt o'tishi bilan barcha hodimlr raqamli transformatsiyadagi o'zgarishlarning afzalliklarni ijobiy baholagan holda bu jarayonda ishtirok etishga qatnash qila boshlaydilar. Bunday operatsion modelga misol bo'lib, elektron hujjat o'tirishiga o'tishni ko'rsatish mumkin. Ya'ni bu modelda yangiliklar bir bo'limdan boshlab qasiga o'tib boradi va vaqt o'tishi bilan bank faoliyatiga doimiy asosda tadbiriq qilinadi. |
| 2 | | Ajratigan servislar modeli. Firma raqamli transformatsiyaning muhimligini |



| | | |
|---|---|---|
| | Ajratigan slar modeli | ganidan so'ng va raqamli strategiyani amalga oshirish bo'yicha birinchi mlarni qo'yganidan keyin, kattaroq bo'lgan banklarda ajratilgan servislardan foydalanish mumkin bo'ladi. Bunda bir qanha o'xshash funktsiyalar markazlashgan bo'limga beriladi. U yoki bu operatsiyalarni bajarishga mas'ul an bo'lim bo'linadigan servislar Markazi bo'lib qoladi. Bunday model bir na funktsiyalar tashqi kontragentlar tomonidan ta'minlab beriladigan orsingning analogi bo'lib qoladi. Bunday operatsion model yaratishning y maqsadi - bank ichidagi amallar moslashuv darajasiining oshirilishi (ionalizatsiyalash) hamda mavjud biznes-jarayonlarning standart qaytarilib ychi operatsiyalar yo'qligi tufayli optimallashtirilishi hamda ba'zi bir bank atsiyalariga bo'lgan harajatlarning kamayishidir. |
| 3 | Kompetents r strategik kazlarini tish modeli | Raqamli transformatsiya sharoitlarida bank operatsion modeli anishining keyingi bosqichi tashkiliy birlik sifatidagi kompetentsiya kazlarini tashkil qilishdir. Bunday markazlar ma'lumot yig'ish va tahlil qilish da information tizimlarni hamda biznes jarayonlarni nazorat qiladilar va i maksimal samarador ishlatish usullarini topadilar. Tashkiliy tuzilmaning ay elementi raqamli strategiya yaratish bo'yicha harakatlarni koordinatsiya i, bozordagi tendentsiyalarni bashorat qiladi va raqobatbardoshlikni ish maqsadida bankka takliflar tayyorlaydilar. |
| 4 | Raqamli atsion model | Bu model raqamli transformatsiyani tugallash arafasida bo'lgan banklarda sh uchun mo'ljallangan. Modelni bir tarmoqli tashkilotlar uchungina ishlatish kin. Bankning faoliyatida raqamli platformaning mavjudligi raqamli atsion modelni ishlatish uchun asos bo'la oladi. Hozirgi davrda bunday model l to'lov tizimlari xizmatlari taqdim etadigan kompaniyalarda yoki zamonaviy yn bankingdan foydalanadigan banklarda qo'llaniladi. Bank sektori atsion modellarning hozirgi rivojlanish bosqichida ular huddi shu bosqichga yaptilar. Ko'pchilik mijozlar esa turli hildagi bank xizmatlaridan foydalanish n bank filialiga borib o'tirmasdan, raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan alanish ma'qulligini bilab bormoqdalar. |

XULOSA

Davlatimiz iqtisodiyotini raqamli transformatsiya qilinishi muqarrar. Bu jarayonni samarali tashkil etish va rivojlantirish uchun: axborot kommunkatsiya tizimlarini rivojlantirishda katta kadrlar salohiyati ega bo'lgan davlatning ta'sirini oshirish va butun jamiyat a'zolarini faol ishtirok etishini ta'minlash;

-keng miqyosda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni va texnologik transformatsiyalarni keng miqyosda joriy etilishini, ayniqsa zamonaviy texnologiyalarga asoslangan sanoat va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasi qonunchiligi yangi/raqamli_uzbekiston. <https://www.norma.uz/uz/>



3. Gulyamov S.S., Ayupov R.H, Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. – T.: TMI, “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2019.

4. Tursunov F.U. Raqamli iqtisodiyot va globallashuv: Raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishning muhimligi. – T. Iqtisodiyotda innovatsiyalar, 6-son, 3 jild, DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2020>

5.Efraim Turban, David King, Jae Kyu Lee, Ting-Peng Liang, Deborrah C. Turban. Electronic Commerce: A Managerial and Social Networks Perspective. Eighth Edition. Springer Texts in Business and Economics. Library of Congress Control Number: 2014950448. Springer International Publishing Switzerland, 2015. - 821 pages.

6.Paul Vigna, Michael Casey. The Age of Cryptocurrency: How Bitcoin and the Blockchain Are Challenging the Global Economic Order. 2015, 384 p.

7.Melanie Swan. Blockchain: Blueprint for a New Economy, 2015, 152 pages.

8.Roger Wattenhofer. The Science of the Blockchain. 2016, 124 pages.

9. Phil Champagne. The Book of Satoshi: “The Collected Writings of Bitcoin Creator Satoshi Nakamoto”; 396 p. 2014.

10.Jeremy Clark. Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, cryptology (A detailed and technical study of Bitcoin, blockchain, cryptocurrency, and cryptology); 499 ctp. 2016 .



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM SIFATIGA SALBIY VA IJOBIY TA'SIR TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI O'RGANISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854398>

Etmatova Navbahor Baxtiyorovna

*Jizzax Davlat Pedagogika Unversteti Ta'lim
va tarbiya nazaryasi va uslubiyati
(Boshlang'ich ta'lim) magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar, boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy faoliyatni shakllantirishning shakllari, metodlari, vositalarini belgilash va pedagogik shartsharoitlarni aniqlash yuzasidan fikr yuritish. An'anaviy metodlardan noan'anaviy metodlarning farqi va ijobiy hislatlari to'g'risida misollar keltirildi

Kalit so'zlar: Maqsad, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, zamonaviy vositalar, an'anaviy va noan'anaviy metodlar, pedagogik texnologiya

Mahalliy adabiyotlarda "ta'lim sifati" tushunchasini ko'rib chiqishning bir nechta asosiy yondashuvlari mavjud. Shunday qilib, M.M. Potashnik buni ta'lim standartlari talablariga muvofiqligi deb hisoblaydi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim sifati "maqsadlar va natijalarning nisbati, o'quvchilarning potentsial rivojlanishi sohasida tezkor va bashorat qilingan maqsadlarga erishish uchun chora-tadbirlar" sifatida ishlaydi. Ta'lim sifatini V.A. Kachalov va V.D. Shadrikov. Ta'lim xizmatlarining jamiyat kutganlariga muvofiqligi ta'lim sifati bilan qanday aniqlanadi M.V. Rijakov. Bu iste'molchilar nuqtai nazaridan bo'lajak mutaxassislarining kompetentsiya va malakalarini shakllantirish kontseptsiyasida ijtimoiy jihat tobora ko'proq ta'kidlanayotganini aks ettiradi. So'nggi paytlarda olingan ta'lim sifati va taqdim etilayotgan ta'lim sifati tushunchalarini ajratish, shuningdek, ta'lim sifatining barcha xilma-xilligi bo'yicha yaxlit nuqtai nazarni asoslash muhim ahamiyatga ega.

Yana bir yondashuv bizga ta'lim sifatini nafaqat natija sifatida, balki ta'lim muassasalari faoliyatidagi va shaxsning o'zidagi o'zgarishlar, shuningdek, jamiyatdagi o'zgarishlar tufayli murakkab rivojlanish dinamikasiga ega bo'lgan jarayon sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. , ularni o'rab turgan iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhit. Shunda ta'lim sifati ta'lim muassasalarining o'z maqsadlari va qadriyatlarini bilan chegaralanib qolmasdan, u jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ehtiyojlarini to'liq qondirishi, ularning jamiyat taraqqiyotiga, uning insoniy salohiyatiga qo'shgan hissasini oshirishi kerak. Doimiy va har safar jamiyatning yangi ijtimoiy-iqtisodiy darajasida butun ta'lim tizimini rivojlantirish muammosi dolzarb bo'lib, uning asosiy tendentsiyalari shaxsga e'tibor va uni tarbiyalash, rivojlantirish va rivojlantirish uchun



maqbul sharoitlarni yaratishdir. ta'lim, ta'lim mazmunini standartlashtirish, ta'lim tizimini loyihalash, ularni boshqarish va ularning sifat darajasini baholash.

Ko'rib turganingizdek, ta'lim sifati murakkab ko'rsatkichdir:

- -ta'lim maqsadi va natijasining o'zaro bog'liqligi;
- - ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlaridan umidlarini qondirish darajasini ta'minlash;

- -shaxsning bilim, malaka, malaka va malakalarning muayyan darajasi, aqliy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi;

Shu bilan birga, bu o'quvchilarning zarur ijtimoiy rivojlanishini kafolatlaydigan tizim, model, tashkilot va tartiblardir. Zamonaviy didaktika nuqtai nazaridan zamonaviy sifatli ta'limning quyidagi xususiyatlari ajralib turadi:

- -ilmiy-texnika taraqqiyoti darajasiga muvofiq mazmunning konseptual darajasi;
- - uning fanlararo, kompetentsiya va faoliyat xarakteri;
- -yo'nalish, manfaatlar, istaklar, imkoniyatlar va individual xususiyatlar talabalar;
- -axborot texnologiyalaridan keng foydalanish bilan ta'limning o'zgaruvchan, muqobil va muammoliligi;

- -ma'naviy boyitish va ko'p millatli muhitda yashashga tayyorlikni shakllantirish maqsadida ko'p madaniyatli ta'lim uchun turli madaniy muhitlarni yaratish;

- - natijalarni baholashning mustaqil xususiyati tarbiyaviy ish va shaxsning rivojlanish darajasi;

- - o'qitish va rivojlantirishda o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi boshqarish uchun sharoitlarni ta'minlash.

Sifatli ta'lim natijasi shaxsning bunday qobiliyatlari (xususiyatlari) hisoblanadi: o'zini o'zi tashkil etish, shu jumladan axloqiy; o'z-o'zini o'zgartirish faoliyati; o'zini identifikatsiya qilish. Oxir oqibat, bilimli inson mehnat bozorida raqobatbardosh, muvaffaqiyatli va talabga ega bo'lishi kerak. Olingan ta'limdan unumli foydalanib, tez o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga oson va erkin moslasha olishi kerak. J.Delorning fikricha, inson "ta'limning uch ustuni"ni o'zlashtirishi kerak: bilim olishni o'rganish, ishlashni o'rganish, qanday yashashni o'rganish.

"Sifat" tushunchasi ta'limga ishlab chiqarish sektoridan kirib keldi, bu erda sifat deganda mahsulotning maqsadli foydalanishga yaroqlilik darajasini belgilovchi xususiyatlar to'plami tushuniladi. Shuning uchun ishlab chiqarishda ma'lum xususiyatlar mahsulotdan ajralib turadi va ularning qiymati iste'molchi pozitsiyasidan ko'rib chiqiladi. Sifatlar ro'yxati standartlar, standartlar asosida qo'yiladi. Sifat yakuniy natija emas, u faqat mahsulotning standartga muvofiqligini aniqlash vositasidir.

Ta'limda "sifat" atamasi birinchi marta 1975 yilda ishlatilgan normativ hujjatlar ta'lim bo'yicha talabalarning bilim sifatining xususiyatlariga bog'liq bo'lib, keyin 1977 yilda bilim sifatini baholash laboratoriyasi yaratildi. Ammo hozirgacha ta'lim sifatining aniq ta'rifi yaratilmagan.

Sifatni ishlab chiqarish tushunchasini ta'lim sohasiga o'tkazish mumkin emas, chunki ta'lim xizmatlarining iste'molchilari aholining turli toifalari bo'lib, sifatlarini



tanlash va ularning qiymati ular tomonidan turli yo'llar bilan belgilanadi. Shunday qilib, ota-onalarning tushunishida sifat - bu bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash va ularni keyingi ta'lim bosqichiga tayyorlash, o'quvchilar tushunishida - qulay o'quv sharoitlarini yaratish, o'qituvchilar tushunishida - ta'limning ta'minlanishi. dasturlar, darsliklar, tegishli jihozlar bilan jarayon, ish beruvchilar uchun - mavjudligi zarur fazilatlar va ko'nikmalar, umuman jamiyat uchun - talabalar o'rtasida, masalan, fuqarolik pozitsiyasida ifodalangan qiymat yo'nalishlarini yaratish.

• ta'lim sifati – ta'lim sifati; ushbu talqin ta'lim muassasalarida qabul qilinadi, bu erda natijalar talabalarni guruhlariga bo'lish bilan raqamli formatda umumlashtiriladi va o'quv natijalarining foizi sifatida hisoblanadi, ya'ni hisobot davrida "2"siz ta'limni tugatgan talabalar ulushi. ", va sifat - o'qishning hisobot davrini "3", ya'ni "4" va "5" ga tugatgan talabalar foizi;

• -ta'lim sifati - ta'lim va tarbiya sifatining uyg'unligi;

• - ta'lim sifati - shaxsning rivojlanish darajasi;

• - ta'lim sifati - oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirgan maktab bitiruvchilari foizi va turli darajadagi olimpiadalar g'oliblari soni;

• - ta'lim sifati - bitiruvchining 6 ta pozitsiyada hayotga tayyorligi: mehnatga, Vatan himoyasiga, oilaviy hayotga, bo'sh vaqtini oqilona o'tkazishga, uzluksiz o'qishga, o'z sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishga tayyorligi.

S. Shishov va V. Kalneyning "Maktabda ta'lim sifati monitoringi" kitoblari, "Maktab ichidagi boshqaruv" lug'at-ma'lumotnomasi (A. Moiseev tahriri) va "Ta'lim sifati" qo'llanmasi kabi eng nufuzli nashrlarda. menejment" (M. Potashnik tahriri) sifati deganda "jamiyatdagi ta'lim jarayonining holati va samaradorligini, uning jamiyat (turli ijtimoiy guruhlar) rivojlanishi va shakllanishidagi ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini belgilovchi ijtimoiy kategoriya tushuniladi. shaxsning fuqarolik, kundalik va kasbiy vakolatlari. Ta'lim sifati turli jihatlarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plami bilan belgilanadi o'quv faoliyati ta'lim muassasasi: ta'lim mazmuni, ta'lim shakllari va usullari, moddiy-texnik bazasi, kadrlar bilan ta'minlash va boshqalar, ular o'qiyotgan yoshlarning kompetensiyalarini rivojlantirishni ta'minlaydi "(Shishov S.E., Kalney VA Maktabda ta'lim sifati monitoringi. - M.,

1998. - S. 78.); "Maktab muvaffaqiyati ko'rsatkichi, maktab ichidagi boshqaruv tizimining tizimni shakllantirishning eng muhim vazifasi va yo'nalishi"; "maktab o'quvchilarining o'zlari, jamiyat, mijozlarning ta'limga bo'lgan ehtiyojlarini qondira oladigan ta'lim natijalarining muhim xususiyatlari va xususiyatlari to'plami" (Maktab ichidagi boshqaruv: Lug'at-ma'lumotnoma / tahririyati A. Moiseev. - M., 1998.); "maqsad va natijaning nisbati, maqsadlar (natijalar) talabaning potentsial rivojlanishi zonasida faqat operativ va bashorat qilinganligiga qaramay, maqsadlarga erishish o'lchovi" (Ta'lim sifati boshqarish / M.M.Potashnik tahriri ostida.- M., 2000. - B. 33.).

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, biz ta'lim sifati - bu maktabning ta'lim faoliyatining turli tomonlari va jihatlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan yaxlit ko'rsatkichdir, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Sifatni ta'minlash, V.Bolotovning



fikricha, sifat maqsadlariga erishishga imkon beruvchi omillar, shart-sharoitlar va resurslar: o'quv-uslubiy muhit, moddiy-texnik baza, xodimlarning qobiliyatlari, talabalarning tayyorgarligi va motivatsiyasi, moliyaviy yordam, axborot xizmatlari. Shunday qilib, sifat tuzilmasi ta'lim tizimlarining sifati, ta'lim jarayoni, talabalarning tayyorgarligi, ilmiy va innovatsion faoliyat tayyorlashda, sifat nazorati.

Rus tili bo'yicha talabalarning ta'lim yutuqlari sifati ko'rsatkichlari rus tilidan individual va o'rtacha ball, ularning o'rtacha ko'rsatkichdan chetga chiqishi, talabalar reytingini o'z ichiga oladi.

Sifatni baholashning kompleks tizimini yaratish uchun, birinchi navbatda, davlat ta'lim standartlarini, xalqaro qiyosiy tadqiqotlar amaliyotini va hokazolarni hisobga olgan holda ta'lim sifati standartini shakllantirish, ta'lim sifati baholash vositalarini yaratish, keng qamrovli so'rov o'tkazish va natijalarni standart bilan solishtirish. Sifat standartini shakllantirishda ekspert baholariga, barcha manfaatdor tomonlarning fikriga tayanish mumkin (keng qamrovli marketing tadqiqotini o'tkazish).

Ta'lim sifati baholash tashqi va ichki darajada amalga oshirilishi mumkin. Sifatni baholash vositalari bir nechta nazorat va baholash tartib-qoidalaridan iborat bo'lishi mumkin: ta'lim faoliyatini litsenziyalash, ta'lim muassasasini davlat akkreditatsiyasi, davlat yakuniy attestatsiyasi (9-sinf va 11-sinf o'quvchilari), pedagogik xodimlarni attestatsiyadan o'tkazish - tashqi baholash; innovatsion faoliyatni ekspertizadan o'tkazish, ta'lim muassasasi doirasida o'tkazilgan so'rovlar (maktab o'quvchilari tomonidan materialni o'zlashtirish darajalarining ta'lim standarti ko'rsatkichlariga muvofiqligi), sifat monitoringi - ichki baholash.

Ta'lim sifatining asosiy xarakteristikalarini sifatning ko'p qirraliligi yoki ko'p qirraliligi (ta'limning yakuniy natijasi sifati va ushbu sifatga erishishni ta'minlaydigan ta'lim tizimining potentsial sifati; ta'lim va ta'lim natijalarining sifati). ijodiy va reproduktiv, bilim va faoliyat komponentlari); sifatning ko'p darajali yakuniy natijalari (boshlang'ich, o'rta va o'rta maktab bitiruvchilari sifati); ta'lim sifatining ko'p sub'ektivligi (ta'lim sifati baholash ko'plab sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladi; asosiy sub'ektlar talabalarning o'zlari, ularning ota-onalari, ish beruvchilar, butun jamiyat va davlat organlari, ta'lim tizimining o'zi); ko'p mezonli (ta'lim sifati bir qator mezonlar bo'yicha baholanadi); polixronizm (turli vaqtlarda bir xil sub'ektlar tomonidan turlicha qabul qilinadigan ta'lim sifatining joriy, taktik va strategik jihatlari yig'indisi: bitiruvchilar vaqt o'tishi bilan vaqt o'tishi bilan o'zlarining ta'lim sifati, alohida fanlar va o'qituvchilarning qiymatini oshirib yuborishadi. jamiyat va davlat o'z sharoitiga qarab ta'lim sifati va mazmuni bo'yicha o'z ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqadi va hokazo); ko'proq tufayli ta'lim va ta'lim tizimlari sifatini baholashda noaniqlik yuqori daraja turli fanlar bo'yicha ta'lim sifatini baholashning subyektivligi; o'zgarimlilik va o'zgaruvchanlik (ta'lim tizimlarining, ta'lim muassasalarining, ularning bitiruvchilarining ko'plab fazilatlarini orasida har bir ta'lim darajasining barcha bitiruvchilari, har bir mutaxassislik yoki universitet bitiruvchilarini tayyorlash



yo'nalishi va aniq bo'lganlar uchun o'zgaras, umumiy fazilatlar mavjud. bitiruvchilar to'plami yoki ta'lim tizimlari)).

Yana bir tushuncha – ta'lim sifatini boshqarish – ta'lim xizmatlarining kafolatlangan sifatini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimidir. Sifat menejmenti quyidagi tamoyillarga asoslanadi: boshqaruv yetakchiligi, jarayonga yondashuv, faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, mijozlarga yo'naltirilganlik, natija va maqsadga yo'naltirilganlik, xodimlarni jalb qilish, ishtirok etish va motivatsiya, boshqaruvga tizimli yondashish, doimiy takomillashtirish. Ushbu tamoyillarga asoslanib, ta'lim sifatini boshqarishni qurishning asosiy bosqichlari ajratiladi: ta'lim xizmatlari bozori, ishchi kuchi va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini tahlil qilish, ta'lim muassasasining missiyasi, qarashlari, strategiyasi, siyosati va maqsadlarini shakllantirish. sifat sohasi; sifat tizimini ishlab chiqish jarayonida ishtirok etuvchi rahbariyat va xodimlarni tayyorlash; hukumatning barcha darajalari uchun siyosat va strategiyalarni loyihalash va tuzilmaviy birliklar ta'lim muassasasi; sifat tizimining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish; ta'lim muassasasining o'zini o'zi baholash; ish jarayonlarini aniqlash va tavsiflash, mavjud hujjatlarni tartibga solish; ta'lim muassasasining sifat tizimi uchun hujjatlarni ishlab chiqish (hujjatlashtirilgan protseduralar, Sifat qo'llanmasi); asosiy parametrlarni o'lchash tizimini ishlab chiqish; tuzatuvchi va profilaktik harakatlar tizimini ishlab chiqish; ta'lim muassasasining ichki auditini va o'zini o'zi baholashini o'tkazish; barcha ish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish.

Xalqaro standartlar tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ISO 9000 standartlarini hisobga olgan holda zamonaviy sifat menejmenti tizimini yaratish kerak. ISO standartlari, agar tashkilot mijozlar talablariga javob beradigan mahsulotlarni taqdim etish qobiliyatini namoyish etishi kerak bo'lsa, sifat menejmenti tizimlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi, ular sifat menejmenti tizimining samaradorligi va samaradorligini hisobga oladigan tavsiyalarni o'z ichiga oladi, ushbu standartlarning maqsadi sifat menejmenti tizimini yaxshilashdir. tashkilot faoliyati va mijozlarni qondirish va boshqa manfaatdor tomonlar; ular, shuningdek, milliy va xalqaro hamkorlikda o'zaro tushunishga yordam beruvchi sifat menejmenti tizimlarini tekshirish (tekshirish) bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev. E Jabborova. A "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" T. 2003y
2. Bo'tayeva. H "Boshlangich sinf o'quvchilarida aqliy taraqqiyot shakllanishining psixologik xususiyatlari" References1. Goziyev. E Jabborova. A "Motivation for activity and behavior" T.y
3. Botayeva. H "Psychological features of the formation of mental development in primary school students"



TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854404>

Dilnoza Babaraximova

toshkent moliya institute katta o'qituvchi
dbabarahimova82@gmail.com

Annotatsiya: *Bizning bu maqolada respublikamiz oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish asosida o'quv jarayonini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlangan. Shuningdek, oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy qilishga ilmiy asoslangan xulosalar tuzishda mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirish orqali ta'lim sohasida nafaqat muhim o'rin egallashi va qanday shaklda joriy qilinishi bo'yicha takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim jarayoni, raqamli texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oliy ta'lim tizimi, zamonaviy ta'lim, raqamli bilimlar, Internet tizimi, masofaviy o'qitish. pedagogik texnologiyalar, ta'limning ishonchliligi, multimedia vositalar.*

FROM DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM PROSPECTS FOR USE

Dilnoza Babarakhimova

TASHKENT FINANCIAL INSTITUTE
, Senior teacher
dbabarahimova82@gmail.com

Abstract: *in this article, the priority areas of development of the educational process are identified based on the application of digital technologies in the higher education system of our republic, the analysis of their capabilities. Also in the field of education through the study, systematization and generalization of the existing practice in drawing scientifically based conclusions on the introduction of digital technologies in higher education not only in terms of its important place and in what form it is introduced suggestions are given.*

Keywords: *Educational process, digital technology, information and communication technologies, higher education system, modern education, digital knowledge, Internet system, distance learning. pedagogical technologies, reliability of Education, multimedia tools.*

Kirish



O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, yosh avlodga jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, yetuk inson bo'lib shakllanishi, qobiliyat va iqtidorini yuzaga chiqarish asosiy maqsad qilib belgilab olindi.

Mamlakatda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib nafaqaxo'rlarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikrni shakllantirmoqda. Bundan tashqari, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, masalan bank sektorida, robotlar va ishchilar o'rtasidagi raqobat masalasi ham ko'tarilmoqda.

Raqamlardan foydalanishga asoslangan hamda joriy etilgan texnologiyalarning so'zsiz foydasi bilan axloqiy, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, robotlar va tashkilotlar xodimlari o'rtasidagi raqobatning huquqiy jihatlari bilan bog'liq masalalar tobora ko'proq e'tiborga olinmoqda.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat

resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi" [1].

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin. Raqamli iqtisodiyot bu birgina faoliyat turi emas, balki, ishbilarmonlik, sanoat ob'ektlari, sifatli ta'lim va xizmatlar deganidir. "Raqamli" atamasi barcha sohalarda

axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA NATIJALAR

Ta'limning turli sohalarida kompyuter telekommunikatsiyalarining qo'llanilish tajribalaridan shuni ko'rish mumkinki, axborot texnologiyalari bizga bir qator ijobiy imkoniyatlarni yaratib berayapti, quyidagilar shular jumlasidandir:

1) professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va talabalarning har xil turdagi hamkorlik ilmiy tadqiqotlarini (har xil ilmiy-amaliy loyihalar yordamida chinakam ijodiy tadqiqot, mustaqil amaliy faoliyat, mustaqil bilim orttirish, amaliy ijodiy faoliyat va boshqa turdagi hamkorliklarni) tashkil etish;

2) ilmiy-uslubiy markazda ta'lim olayotgan keng ommaga tezkor mutaxassis maslahatlarini tashkil etish va yetkazish;



3)masofaviy ta'lim va pedagogik kadrlar malakasini oshirish tarmog'initashkil etish;

4)tezkor axborot almashinuvi;

5)ta'limdagi sheriklarning, bu talaba, o'quvchi, o'qituvchi, ilmiy xodim bo'lishidan qat'iy nazar, ularga o'zaro fikr almashinish ko'nikmalarini hosil qilishni, muomala madaniyatini va o'z fikr-mulohazalarini tez, lo'nda va aniq ifoda etishni o'rgatish;

6)madaniy, etnik, insonparvarlikning keng qamrovli ijobiy axborotlari bilan fikr almashinish natijasida yoshlarning madaniy va ijtimoiy qobiliyati va layoqatini o'stirish[3].

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarni ko'rishiga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Ta'limning didaktik xossalari bilan bog'langan yashirin imkoniyatlar olamini bevosita kompyuter telekommu -nikatsiyalari bilan bog'lash bu ta'lim sohasida zamonaviy va istiqbolli maqsadlarga ega.

Didaktik funktsiya sifatida biz o'quv-tarbiyaviy jarayonda ma'lum bir maqsadlarda qo'llanilayotgan ta'lim vositalarining tashqi xossalari namoyonini tushunamiz.

.Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "COVID-2019" pandemiyasi barcha sohalar singari ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi, jumladan bog'cha,maktab va oliy ta'lim muassasalarining barchasi ommaviy ravishda muddatidan oldin ta'tilga chiqishdi. UNESCO ning ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha 1,7 milliard o'quvchilar darslar to'xtatilgani sabab an'anaviy o'qishdan mahrum bo'lishdi. Yuzdan ortiq mamlakatlarda universitetlarning yopilishi dunyo talabalarining 90 foizini uyda o'tirishga majbur qildi.

2020-yil 3 martga kelib UNESCO 13 ta mamlakatda ta'lim muassasalarining vaqtincha

yopilishi oqibatida 290,5 million o'quvchi va talaba o'qishdan uzilib qolganini ma'lum qildi va ularni masofaviy ta'limga o'tishga chaqirdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'tkan davrdagi pandemiya sabab ta'lim muassasalarini yopgan mamlakatlarning 60 foizigina to'liq raqamli ta'limga o'tgan.

Ba'zi xalqaro ekspertlar onlayn ta'limga to'liq o'tib bo'lmasligi, bu jarayonga muammoli vaziyatdan chiqish yo'li sifatida qarash lozimligini, aks holda ta'lim sifati tushib ketishini ta'kidlasa, ba'zilar zamonaviy ta'lim uchun yangi davr boshlanganini takidlamogda. Ayrim davlatlar ziyolilari esa masofaviy ta'limga qamrab olishda ta'minot masalasini ilgari surmogda.

Internet manbalarida xabar berilishicha, bugungi kunda atigi o'nga yaqin davlatdagi talabalarining 95 foizida kompyuter bor. Indoneziyada esa 34 foiz yoshning



internetdan foydalanishga sharoiti yetarli. Qolgan davlatlarda bu ko'rsatkich ancha past. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasida ham bu ko'rsatkich yuqori darajada emas. Bunga sabab esa chekka hududlarda Internet infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligidir. Bu esa ayrim

mutaxassislar taxmin qilayotganidek, ta'lim sifati tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin [2].

Xo'sh, shu o'rinda savol tug'iladi. Biz raqamlashtirishga tayyormizmi?

Xavf-xatarni oldindan ko'ra bilish, uning natija hamda oqibatlarini to'g'ri baholay olish vaziyatdan talafotsiz chiqib ketishni ta'minlaydi. Dunyoda pandemiya tarqalishi ortidan mamlakatimizda iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, xizmat ko'rsatish sohalari singari ta'lim jarayoni uzluksizligini ta'minlash uchun ham kerakli choralar ko'rildi. Xususan, shu yilning

2020- yil 17 martida Prezidentimizning "Toshkent shahrida raqamli texnologiyalarni

keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, mazkur qarorda ta'limning barcha sohalarini raqamlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Shu yil 23 martdan talabalar uchun televizion darslar efirga uzatila boshladi. Bundan tashqari, bir nechta oliy ta'lim muassasalari talabalar va o'quvchilar uchun virtual ta'lim tizimlarini ishga tushirdi. Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida "O'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish" axborot tizimi hamda MOODLE masofaviy ta'lim platformasi ishga tushirildi. Boshqa oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida ham MOODLE, Platonus, Moodle LMS, SRS (Student Records System), MOOC kabi masofaviy ta'lim platformalari hamda mobil telefon va planshetlar uchun Google Classroom, Ereader ilovalari ishga tushirilib onlayn darslar tashkil qilinishi boshlandi. Shular qatori, Toshkent moliya institutida ham qisqa muddat ichida "remote-education" masofaviy ta'lim platformasining dasturiy ta'minoti ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi.

Yurtimizdagi nufuzli xususiy o'quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta'limni yo'lga qo'ydi. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqich boshlanganini anglatadi. Sababi, shu kungacha hali hech bir o'quv markazi bunday tartibga o'ta olmayotgan edi.

Ta'lim tizimi bugungi kunda raqamli texnologiyalarga singib ketayotgani shunchaki hayratlanarli emas, chunki, bugungi kunda axborot makonida taklif etilayotgan ko'plab narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ta'limni «raqamlashtirish» muammolari, uning shakllanishiga ta'siri bo'yicha biror-bir davlat loyihasi yoki so'rovnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilmaganligi

ham muhimdir [3]. Shu bilan birga, Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati hukumatning, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va



tadqiqotchilarning, shuningdek deputatlarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, oldin raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda, ya'ni, sanoat, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarda joriy etish bilan cheklanib qolgan edik. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotganini e'tiborga olib, raqamli rivojlanish bo'yicha barcha soha rahbarlarining o'rinbosarlari lavozim

tarkibiga kiritilmoqda. Raqamlashtirish yo'nalishi bo'yicha faollashtirish barcha biznes tuzilmalarida amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar barcha sohalarda "tajovuzkor", ayniqsa iqtisodiy samarasi topilgan joylarda, barcha darajalarda qo'llab-quvvatlanmoqda[4].

Iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlar dinamikasi iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida oliy ta'limini rivojlantirish bo'yicha takliflarni tahlil qilish va ishlab chiqishda ta'lim hamjamiyatining faol pozitsiyasini talab qilmoqda.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun nimalar qilish kerak? Birinchidan, albatta mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shartsharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berishimiz lozim.

Ikkinchidan, o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish va axborot resurslari, o'qitish vositalari va masofaviy o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish, ijodkor talabalarni universitetni raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish bilan oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha vakolatli organlarga takliflar berish, yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o'quv xonalari, laboratoriyalar, mediastudiyalar va boshqalarni o'z ichiga olgan markazlarni tashkil etish

hamda unda orttirilgan tajribani O'zbekistonning barcha oliy ta'lim muassasalarida qo'llash.

Uchinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish.

To'rtinchidan, interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma'ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog'liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo'yicha o'qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o'tkazish.

Beshinchidan, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video-konferensaloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish.



Oltinchidan, bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo'llash, raqamli didaktika va raqamli ta'lim modellarini qo'llash, o'qituvchilar va talabalar uchun

loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish lozim. Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz. Biz ta'lim sifatini oshirish va rivojlantirish uchun texnologiyalardan manfaatli foydalanish imkoniyatini yaratishni istadik[5]. Q achonki, planshet ta'lim olishning bir elementiga aylansa, bolalar o'qish jarayoniga katta qiziqish bilan kirishadi.

Bu o'yin bilan klassik ta'limni birlashtirishga tengdir. Natijada o'qish jarayoni yaxshilanadi, o'zlashtirish, ta'lim darajasi va kadrlarni tayyorlash samaradorligi oshadi. Bilimli avlod, professional kadrlar — bu jamiyatning keng miqyosda rivojlanishining garovidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashni umumlashtirib shuni takidlab o'tish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi - televizor, kompyuter, planshet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo'lish va u bilan doimiy o'zaro munosabat natijasida

bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda. Raqamli avlod ota-onalarimiz o'rgangan uslubda o'qitilishi mumkin emas va bo'lmasligi ham kerak.

Bu avlodni o'qitishda qora doska va oq bo'rdan foydalanish ham mumkin emas.

Qora doskani oqiga va bo'rni markerga o'zgartirish hech narsani o'zgartirmaydi, ya'ni zamonaviy talabalarni bilim olishga va mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish ko'nikmalarini rivojlantirishga undash usuli bo'la olmaydi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchilar talabalarining ehtiyojlariga yo'naltirilgan interfaol o'quv jarayonida asosiy rolni saqlab qoladi. O'qituvchining obro'si va uning faoliyatining samaradorligi faqatgina kurs mazmunidagi bilimlar darajasi va uning pedagogik qobiliyatiga emas, balki muayyan o'quv materialini to'plash, qayta ishlash va o'qitishda o'qituvchining qanchalik zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash darajasiga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli asrda ta'lim qayta ko'rib chiqilishi va ta'lim paradigmasi o'zgartirilishi shart, sababi talabalar ortiq an'anaviy uslubda o'qishni xohlamaydilar va o'qituvchilar ham bu kabi odatiy usulda o'qitishni davom ettirishlari kerak emas, balki yangi innovatsiyalarni darsda qo'llay bilishi kerak.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
3. D. Babaraximova, Ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini qo'llashning ilmiy pedagogik masalalari; 6 – tom 3 – son / 2022 - yil / 15 – mart
<https://bestpublication.org/index.php/pedg/issue/view/81>
4. D. Babaraximova, O'qituvchilarning akt sohasida vakolatlarini takomillashtirishda uzluksiz ta'lim : muammolari va ba'zi yechimlari. 2023-yil.
<https://unionedu.ru/index.php/use/issue/view/1>
5. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevningoliy-25-01-2020>.



**"CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI" FANIDAN
TALABALARINING MUSTAQIL ISHLARNI TASHKIL ETISH TO'G'RISIDA
(KONCHILIK SOHASIDA).**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854407>

Shodiyev Furkat Davranovich

texnika fanlari nomzodi, dotsent,

Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy (O'zbekiston).

Annotatsiya: Maqolada ortogonal va sonli proyeksiyalarda (aylantirish usuli yordamida) metrik va pozitsion masalalar yechiladi. Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usuli qurilish amaliyotida, geologiya, topografiya, konchilik va harbiy ishlar sohalarida keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: proyeksiya, to'g'ri chiziq, tekislik, chizmani qayta tuzish usullari, sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar, ortogonal proyeksiya.

**ОБ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ ПО
«НАЧЕРТАТЕЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ И ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКЕ»
(в области горного дела).**

Аннотация: В статье рассматриваются метрические и позиционные задачи в ортогональных и числовых проекциях (с использованием метода вращения). Проекция с числовыми отметками широко используется в ряде областей, в том числе в инженерно-строительной практике, геологии, топографии, в горном и военном деле.

Ключевые слова: проекция, прямая линия, плоскость, способы преобразования чертежа, проекции с числовыми отметками, ортогональное проецирование.

**ON THE ORGANIZATION OF STUDENTS' INDEPENDENT WORK IN
"DESIGNATIVE GEOMETRY AND ENGINEERING GRAPHICS"
(in the field of mining).**

Abstract::The article deals with metric and positional problems in orthogonal and numerical projections (using the rotation method). The numerical projection method is widely used in a number of fields, including engineering, geology, geodesy, mining, and the military - to describe the topography (horizontal planes).

Keywords: projection, straight line, plane, methods of reconstruction of the epyur, numerical projection, orthogonal projection.



Hozirgi zamon fan - texnikasining rivojlanishi va O'zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishi natijasida Respublikada ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulotlarning, jumladan texnikaga oid raqobatbardosh mahsulotlar jahon standart talablariga javob beradigan bo'lishi lozim.

«Ishlab chiqarish texnik bilim sohasi»da ta'lim olayotgan barcha 1- bosqich talabalari uchun «Chizma geometriya va muhandislik grafikasi» fani o'qitiladi, bu fan umumkasbiy fanlar qatoriga kirib, bo'lajak mutaxassislarining grafik tayyorgarligini ta'minlaydi.

Ammo, Konchilik ishi bakalavriat ta'lim yo'nalishining "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanida foydalanib kelingan o'quv dasturida ushbu yo'nalishlar uchun zaruriy bo'lgan "Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar" mavzusi kiritilmaganligi sababli ushbu mavzu qisqacha tushuntirish bilan cheklanib kelinmoqda. Vaholanki, ushbu mavzu konchilik sohasida ta'lim olayotgan talabalarning kasbiy tayyorgarliklari uchun muhim boblardan sanaladi. Chunki, sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usuli qator sohalarda, jumladan tog' ishlarida - tog' qatlamlarining shakllarini o'rganishda, geodeziya sohasida - yer yuzining relyefi (planda gorizontallar)ni tasvirlashda, geologiya sohasida turli metrik va pozitsion masalalarni hal qilishda, muhandislik qurilish ishlarida turli muhandislik qurilish inshootlari (kotlovanlar, to'g'onlar, suv havzalari, gidrotexnika inshootlari, kanallar, avtomobil va temir yo'llar, ko'priklar va hokazolar) ni loyihalashda keng qo'llaniladi.

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usuli ortogonal proyeksiyalash usulining xususiy turi hisoblanadi. Bu usulning asosiy xususiyati - ob'ektlarni faqat bitta, ko'pincha, gorizontal proyeksiya tekisligiga proyeksiyalash hamda ularning frontal proyeksiyalarini sonlar - belgilar bilan almashtirishdan iborat.

Yer usti va yer ostida bajariladigan muhandislik ishlarini bajarishdagi loyihalarda yer sirtini tasvirlashga to'g'ri keladi. Yer sirtidagi va ostidagi inshootlarning shakllari murakkab, balandliklari (frontal proyeksiyalari) boshqa o'lchamlari (gorizontal proyeksiyalari) ga nisbatan nihoyatda kichikdir. Shuning uchun, yer sirti yoki ostida bajariladigan muhandislik ishlarni loyihalashda bizga tanish bo'lgan to'g'ri burchakli (ortogonal) yoki aksonometrik va boshqa usullar bilan tasvirlash juda qiyin.

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usulida nuqtalarning gorizontal proyeksiyalar tekisligidan uzoqliklarini ko'rsatuvchi frontal proyeksiyalari sonlar (raqamlar) bilan almashtiriladi.

Bu usulni mohiyati shundan iboratki, ob'ekt (nuqta, to'g'ri chiziq, tekislik va sirtlar) faqat bitta gorizontal tekislikda tasvirlanadi. Bu tekislik **nol darajali tekislik** deb ataladi va H_0 bilan belgilanadi. Obyektning gorizontal tekislikdan olisligi (balandligi) sonlar bilan almashtiriladi. Bunday almashtirish balandligi gorizontal o'lchamiga (eni va uzunligiga) nisbatan nihoyatda kichik bo'lgan obyektlar (kanallar, maydonchalar, karyerlar va boshqalar) ni tasvirlashda maqsadga muvofiq bo'lib, chizmalar aniq va ravshan bajariladi.



Shunday qilib, nuqtalarning proyeksiyalar tekisligi sifatida qabul qilingan birorta gorizontaal tekislikdan olisliklarini ko'rsatuvchi sonlar bilan ta'minlangan to'g'ri burchakli proyeksiyalar **sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar** deyiladi.

Asosiy gorizontaal proyeksiyalar tekisligi (nol darajadagi tekislik) sifatida-Kranshtad yaqinidagi Boltiq dengizi suvining sathi qabul qilingan va H_0 deb yoziladi.

Sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usuli yordamida gorizontaal chiziqlari orqali tasvirlangan yer sirtining relyefi va unda bajariladigan muhandislik ishlari tasvirlanadi.

Talabalarda grafik bilimlarni shakllantirish murakkab jarayon hisoblanib, o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'langan. O'quv jarayonida hamma talabalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, dars o'tish imkoniyati o'quv grafik ishlarni bajarishda yakka tartibda yondashishdek yuqori bo'lmaydi.

Shuning uchun o'qituvchi talabalar bilan dars jarayonida foydalana olmagan imkoniyatlarni mustaqil grafik ishlarni chizayotganida amalga oshirishi mumkin. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, talabalar asosan bilim va ko'nikmalarini yakka tartibdagi o'quv grafik ishlarni bajarish orqali olmoqdalar. Chunki dars jarayonida beriladigan nazariy bilimlar asosan grafik ishlar orqali amalga mustahkamlanadi.

Hozirgi zamon metodikasi oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri - talabalarning mustaqil ish bajarish yo'li bilan qo'shimcha bilimlar olishlarini tashkil qilishdan iborat.

Nuqtaning biron bir ixtiyoriy tekislikka nisbatan olingan proyeksiyalari - nisbiy yoki shartli belgilash hisoblanadi.

Quyida «Chizma geometriya» fanida talabalar tomonidan bajariladigan metrik masalalardan biri «Koordinatalari bilan berilgan umumiy vaziyatdagi ABC uchburchak tekisligining haqiqiy kattaligi tekislikning bosh chiziqlari atrofida aylantirish usulidan foydalanib topish» talab qilinadi.


Ushbu masalaning to'g'ri burchakli (ortogonal) proyeksiyada yechilishi 1-rasmda keltirilgan.

ABC uchburchak tekisligining berilgan koordinatalari bo'yicha uning proyeksiyalari ($A'B'C'$, $A''B''C''$) qurib olingandan so'ng, ABC uchburchak tekisligining B uchi orqali tekislik gorizontali ($B'1'$ -ggp-gorizontalning gorizontaal proyeksiyasi, $B''1''$ -gfp-gorizontalning frontal proyeksiyasi) o'kaziladi (1-rasm, a).

Ushbu masala aylantirish usuli yordamida yechilishini inobatga olib dastlab A nuqtaning $B'1'$ gorizontaal atrofida aylantirish markazi $O(O',O'')$ va aylantirish radiusining haqiqiy kattaligi $O'A_0$ aniqlanadi (1-rasm,b).

a)

b)



1-rasm. Masalaning ortogonal proyeksiyada yechilish bosqichlari

ABC uchburchak tekisligining berilgan koordinatalari bo'yicha uning proyeksiyalari ($A'B'C'$, $A''B''C''$) qurib olingandan so'ng, ABC uchburchak tekisligining B uchi orqali tekislik gorizontali ($B'1'$ -ggp-gorizontalinig gorizontaal proyeksiyasi, $B''1''$ -gfp-gorizontalinig frontal proyeksiyasi) o'tkaziladi (1-rasm, a).

Ushbu masala aylantirish usuli yordamida yechilishini inobatga olib dastlab A nuqtaning $B'1'$ gorizontaal atrofida aylantirish markazi $O(O',O'')$ va aylantirish radiusining haqiqiy kattaligi $O'A_0$ aniqlanadi (1-rasm,b). A_0 nuqtani O' markaz atrofida aylantirib A_1 nuqta aniqlanadi (1-rasm,c). So'ngra C' nuqtadan $B'1'$ (gorizontalinig gorizontaal proyeksiyasi)ga nisbatan o'tkazilgan perpendikulyar bilan A_1 va 1 nuqtalardan o'tuvchi to'g'ri chiziqning kesishishidan C nuqtaning yangi vaziyati C_1 hosil qilinadi (1-rasm,d). B nuqtaning B_1 vaziyati B' nuqta bilan ustma-ust tushadi, chunki B' orqali gorizontaal o'tkazilgan edi. Aniqlangan A_1 , B_1 va C_1 nuqtalar o'zaro tutashtirilib ABC uchburchak tekisligining haqiqiy kattaligi hosil qilinadi.


Ushbu masalani **sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usulida** yechilishini ko'rib chiqamiz.

Masala: Koordinatalar bilan berilgan $A_2B_4C_0$ umumiy vaziyatdagi ABC uchburchak tekisligining haqiqiy kattaligi topilsin (2-rasm,a).



1. Ushbu masala aylantirish usuli yordamida yechilishini inobatga olib ABC tekislikda gorizontaal o'tkazamiz. Buning uchun BC tomonni darajalaymiz va 2 nuqtani A_2 nuqta bilan tutashtiramiz va h_2 -gorizontalni hosil qilamiz (2-rasm,b).

a)


b)



c)



d)



2-rasm. Masalaning sonlar bilan belgilangan proyeksiyalar usulida yechilish bosqichlari.

2. Aylantirish markazi O ni topish uchun $A_2B_2C_2$ uchburchakning B_2 uchidan h_2 -gorizontalga perpendikulyar o'tkazamiz. B_2O aylantirish radiusining haqiqiy kattaligini to'g'ri burchakli uchburchak usulidan foydalanib topamiz va $B^{//}$ nuqtani O markazi atrofida aylantirib \bar{B}_2 ni aniqlaymiz (2-rasm, b).

3. \bar{C}_2 nuqtani, ya'ni C_2 nuqtani aylantirilgandan keyingi vaziyatini qo'yidagicha topamiz - C_2 nuqta orqali h_2 - gorizontalga perpendikulyar o'tkazamiz va \bar{B}_2 nuqtadan 2 nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkazib gorizontal chiziqqa o'tkazilgan perpendikulyar bilan kesishguncha davom ettiramiz. Hosil qilingan kesishish nuqtasi C_2 nuqtaning yangi vaziyati \bar{C}_2 ni hosil qiladi. A_2 nuqtaning vaziyati o'zgarmaydi, sababi A_2 nuqta orqali gorizontal o'tkazilganligi sababli \bar{A}_2 nuqta A_2 nuqta bilan ustma-ust tushadi (2-rasm, d). Natijada hosil qilingan $\bar{A}_2\bar{B}_2\bar{C}_2$ nuqtalardan o'tuvchi uchburchak masalaning yechimi bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tamizki, har bir yo'nalish bo'yicha mustaqil ishlarning mazmunini aniqlash va turlarini shakllantirish davr talabi bo'lib, bular sifatli ta'limda o'zining muhim o'rniga ega. Jumladan, yuqorida keltirilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun "Chizma geometriya va muhandislik grafikasi" fanida sonlar bilan belgilangan proyeksiyalarning keng yoritilishi ushbu yo'nalishlarda o'tiladigan "Geodeziya va marksheydriya", "Geologiya va gidrogeologiya", "Ochiq konchilik ishlari jarayonlari va texnologiyasi", "Kon ishi asoslari", "Yer osti konchilik jarayonlari va texnologiyasi" va boshqa bir qator mutaxassislik fanlari uchun zaruriy manba hisoblanadi.



ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Murodov Sh. va boshqalar, Topografik chizmachilik, T., Cho'lpon, 2009
- 2.Murodov Sh. va boshqalar "Chizma geometriya" Toshkent "Iqtisod-Moliya"
2006.



ҲАРБИЙ ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ ПАЙДО БЎЛИШИ ВА ҲОЗИРГИ КУНДАГИ МАВҚЕИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854415>

Хамракулов Ўткиржон Махмудович

Фарғона давлат университети

ҳарбий таълим факультети

катта ўқитувчиси

Ҳарбий таълим психологиясининг пайдо бўлиши ва тараққиёти ҳарбий фан ва ҳарбий санъат тараққиёти билан узвий боғлиқ. Мустақил таълим сифатида Европа мамлакатларида 17-аср охири — 18-аср бошида вужудга келган; бир қатор мамла-катларда махсус ҳарбий ўқув юртлари тузилган, уларни ўқитиш ва тарбиялашда, миллий ватанпарварлик, ватанга муҳаббат ва садоқат туйғуларини ривожлантиришда ҳарбий таълим психологиясини қўллашган. Сўнги йилларда бу соҳага кўп эътибор қаратилмоқда.

Президентимизни «Мамлакатимизда ўрта мактабдан бошлаб олий ўқув юртларигача қамраб оладиган узлуксиз ҳарбий таълим ва ватанпарварлик тарбияси бўйича ўзига хос ноёб ва яхлит тизим яратилмоқда.

Возникновение и развитие военно-педагогической психологии неразрывно связано с развитием военной науки и военного искусства. Оно было создано как самостоятельное образование в странах Европы в конце 17 — начале 18 вв.; В ряде стран были созданы специальные военно-учебные заведения, в их воспитании и обучении, в воспитании чувств национального патриотизма, любви и верности Родине использовалась военно-педагогическая психология. В последние годы этому направлению уделяется большое внимание.

Президент, «В нашей стране создается уникальная комплексная система непрерывного военного образования и патриотического воспитания, охватывающая от общеобразовательной школы до высших учебных заведений.

The emergence and development of military educational psychology is inextricably linked with the development of military science and military art. It was created as an independent education in European countries at the end of the 17th and the beginning of the 18th century; In a number of countries, special military educational institutions were established, and military educational psychology was used in their education and training, in the development of feelings of national patriotism, love and loyalty to the motherland. In recent years, a lot of attention has been paid to this area.



President, "In our country, a unique and integrated system of continuous military education and patriotic education is being created, which covers from secondary school to higher educational institutions.

Ушбу тизим мутлақо янги Қуролли Кучлар академиясини шакллантиришни, ҳарбий билим юртлири, лицей ва коллежлар фаолиятини такомиллаштиришни, «Темурбеклар мактаби» ҳарбий академик лицейлари ташкил этишни кўзда тутди. Билим ва тафаккур ҳеч бир инсонда ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Бу жонкуяр, фидойи ўқитувчи ва мураббийларнинг кўп йиллик меҳнати, изланишлари самарасидир. Таълим беришнинг асоси бўлган билимнинг даражаси ҳақида Юсуф Хос Ҳожиб «Қутадғу билик» асариди шундай ёзади: «Одамзот насли аслида ер юзидаги барча жонлилар орасида энг улуғдир. Аммо бу улуғлик билим билангина тўлиқлик, мукамаллик касб этади». Миллий армиямиз сафларида уларнинг ўрни алоҳида эътироф этилади. Меҳнати ҳамиша ҳам кўзга ташланавермайдиган бу инсонларнинг фидойи хизмати туфайли мамлакатимизда Ватанни ҳимоя қилишдек улуғ вазифани зиммасига ишонч билан ола биладиган, ҳарбий-сиёсий вазиятни чуқур таҳлил қилиб, жанг шароитида ўзини йўқотмай, мураккаб вазиятларда тўғри қарор қабул қиладиган ҳарбий кадрларни тайёрлашнинг ўзига хос тизими яратилди. Қуролли Кучларимизнинг муҳофаа кудрати йилдан-йилга ортиб бормоқда.

Мамлакатимизда ҳарбий таълимнинг илк кўникмалари Темурбеклар мактабларида берилади. Мазкур мактаблар ёш авлодни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, буюк давлат арбоби ва саркарда, соҳибқирон Амир Темурнинг Ватанга садоқат, эл-юртни ардоқлаш, мардлик, фидойилик ва адолатпарварлик каби юксак фазилатларини ёш авлод ўртасида тарғиб қилиш, олий ҳарбий таълим муассасаларига ўқишга кириш учун энг муносиб номзодларни тайёрлаш вазифаларини бажармоқда. Тошкент, Самарқанд, Фарғона ва Урганч шаҳарларида жойлашган Темурбеклар мактабларида камида ўн йиллик педагогик фаолиятга эга, изланувчан, тарих ва Қуролли Кучлар фаолияти ҳақида етарли билим ва кўникмага эга устозлар таълим бермоқда. Уларнинг бир нечаси давлат мукофотлари билан тақдирланган.

«Амр қилдимки, баҳодирлардан кимки қилич чопишда ўзини кўрсатса, биринчи марта бўлса ўнбоши, иккинчи марта ботирлик қилса юзбоши, учинчи мартасида мингбоши қилиб тайинласинлар», дейди соҳибқирон Амир Темур. Замонлар эврилиши натижасида буюк бобомизнинг аскарни қуйи мартабадан юқорига кўтариш тутуми Ўзбекистон ҳарбий таълим тизимида ўз аксини топди. Сўнгги йилларда фаолияти такомиллаштирилган Қуролли Кучлар Кичик мутахассисларни тайёрлаш марказига номзодлар икки босқичда – касбий ва жисмоний тайёргарлиги, маънавияти ва ташкилотчилиги даражалари асосида танлаб олинади. Ўқишга қабул қилинган шартнома бўйича ҳарбий хизматчилар ахборот-коммуникация технологиялари билан жиҳозланган ўқув хоналари, ўқув



лабораторияси, компьютерлаштирилган тренажёрлар ҳамда дала-ўқув майдонларида ўз касбларининг сир-саноатларини эгалламоқдалар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. В.В.Рамонов Ҳарбий психология М.1998Й..
2. М.И.Эникеев умумий ҳарбий психология ўқув қўлланма
3. Й.Абдуллаев Ҳуқуқшунослик психологияси.
4. Дейл Карнеги. Муомала сирлари. Т.«Наврўз» нашриёти. 1999.
5. www.Expert.psychology.ru



GERMANIYA VA O'ZBEKISTON O'RTASIDA ELCHILIK HAMDA SAVDO-SOTIQ ALOQALARI(1991-2021)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854419>

Ziyodullayev Doston Tojiddin o'g'li

Buxoro Davlat Universiteti

Jahon tarixi kafedrası 2-bosqich magistranti

email: doston.ziyodullayev@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqola Germaniya va O'zbekiston o'rtasida elchilik hamda savdo-sotiq aloqalarini ko'rib chiqqan holda tahlil qilingan. Bundan tashqari, ushbu maqolada 1991-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston va Germaniya o'rtasida qanday elchilik aloqalari o'rnatilganligi va ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq munosabatlari haqida so'z yuritimiz. [1]

Kalit so'zlar: germaniya, o'zbekiston, elchilik aloqalari, 1991, 2021, savdo-sotiq aloqalari

EMBASSY AND TRADE RELATIONS BETWEEN GERMANY AND UZBEKISTAN (1991-2021)

Abstract: This article is analyzed considering the embassy and trade relations between Germany and Uzbekistan. In addition, in this article we will talk about the diplomatic relations established between Uzbekistan and Germany in the period from 1991 to 2021 and the trade relations between the two countries. [1]

Keywords: germany, uzbekistan, embassy relations, 1991, 2021, trade relations

KIRISH

Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar 1991-yilda O'zbekiston Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishganidan so'ng ijobiy rivojlandi. Germaniya O'zbekistonni mustaqil davlat sifatida birinchilardan bo'lib tan olgan va 1992-yilda Toshkentda elchixonaga tashkil etgan. O'tgan yillar davomida ikki davlat o'rtasida ko'plab iqtisodiy va siyosiy sheriklik, jumladan, savdo, sarmoya, ta'lim va madaniyat sohalarida hamkorlik o'rnatilgan. 2019-yilda Germaniya O'zbekistonning Yevropa Ittifoqidagi eng yirik savdo sherigiga aylandi, ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1,4 milliard yevrodan oshdi. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlanib bormoqda. O'zbekistonda muhim siyosiy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, xorijiy sarmoya va sheriklik munosabatlarining ko'payishiga zamin hozirlandi. Germaniya bu islohotlarni qo'llab-quvvatladi va O'zbekiston bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va kengaytirishga tayyorligini bildirdi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat va hamkorlik bilan ajralib turadi, har ikki



davlat ham iqtisodiy o'sish, barqarorlik va mintaqaviy xavfsizlik kabi umumiy maqsadlarga intilmoqda. 1991-yildan 2021- yilgacha Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'zaro hurmat va hamkorlik bilan ajralib turadi. Germaniya 1991-yil 25-dekabrda O'zbekiston mustaqilligini rasman tan oldi va 1992-yil fevralda diplomatik munosabatlar o'rnatildi. O'shandan beri Germaniya O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ta'lim almashinuvi, sog'liqni saqlash, energetika, va atrof-muhit muhofazasi. So'nggi yillarda Germaniya va O'zbekiston savdo va sarmoyaviy hamkorlikni kuchaytirdi, nemis kompaniyalari O'zbekistondagi eng yirik investorlar qatorida. Qolaversa, madaniy almashinuv ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirishda muhim rol o'ynadi, nemis madaniyat muassasalari O'zbekistonda va aksincha tadbirlarni tez-tez o'tkazib turadi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'zaro hamkorlik va hurmatga asoslangan bo'lib, kelajakda bu munosabatlar yanada rivojlanishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI

Germaniya va O'zbekiston o'rtasida diplomatik aloqalar 1992-yilda O'zbekiston Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgandan so'ng o'rnatilgan. O'shandan beri ikki davlat o'rtasida ijobiy va konstruktiv munosabatlar saqlanib kelmoqda, Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi. Germaniya hukumati O'zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, jumladan, mamlakat demokratik institutlarini mustahkamlash uchun texnik yordam ko'rsatish va Germaniya sarmoyasini mamlakatga jalb etishda faol ishtirok etmoqda. So'nggi yillarda ikki davlat qayta tiklanadigan energiya manbalari, ta'lim va madaniyat kabi sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. Umuman olganda, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar o'zaro hurmat, hamkorlik va do'stlik bilan ajralib turadi.

SAVDO-SOTIQ ALOQALARI

Germaniya va O'zbekiston 1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishganidan beri mustahkam iqtisodiy munosabatlarni saqlab kelmoqda. Germaniya O'zbekistonning Yevropadagi eng muhim savdo hamkorlaridan biri bo'lib, 2019 yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 900 million yevrodan oshdi. O'zbekistonning Germaniyaga eksportining asosiy qismi to'qimachilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mineral resurslar, Germaniya esa O'zbekistonga birinchi navbatda mashinalar, transport vositalari va kimyoviy mahsulotlar eksport qiladi. So'nggi yillarda ikki davlat o'zaro iqtisodiy hamkorlikni, xususan, qayta tiklanadigan energiya, ta'lim va madaniyat sohaslarida hamkorlikni kengaytirishga e'tibor qaratmoqda. Nemis kompaniyalari O'zbekiston energetika sohasiga katta sarmoya kiritib, mamlakatning qayta tiklanadigan energiya manbalariga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan bir qancha loyihalarni amalga oshirdi. Bundan tashqari, Germaniya hukumati O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish va ikki davlat o'rtasidagi madaniy almashinuvni rivojlantirish



uchun texnik yordam ko'rsatdi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aloqalari o'zaro manfaatli va iqtisodiy hamkorlikni oshirishga intilishi bilan ajralib turadi.

MUHOKAMA

Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi 1991-yildan 2021-yilgacha bo'lgan savdo munosabatlariga oid qo'shimcha ma'lumotlar:

* O'zbekiston 1991-yilda Sovet Ittifoqidan mustaqillikka erishgach, Germaniya yangi davlat bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalarni o'rnatgan birinchi davlatlardan biri bo'ldi. Keyingi yillarda ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik barqaror rivojlandi, nemis kompaniyalari O'zbekistonning energetika, to'qimachilik va tog'-kon sanoatiga sarmoya kiritdi.

* Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi eng yirik savdo bitimlaridan biri Muborak gazni qayta ishlash zavodining qurilishi bo'lib, u 1997-yilda qurib bitkazildi. Loyiha Germaniya konsorsiumi tomonidan amalga oshirildi va O'zbekistonda gaz qazib olish va eksportini oshirishga yordam berdi.

* 2006-yildan 2016-yilgacha O'zbekiston Germaniyaning rivojlanayotgan mamlakatlarga ma'lum tovarlar uchun Yevropa Ittifoqi bozoriga bojsiz kirish imkonini beruvchi Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP) dasturining benefitsiari bo'lgan. Bu dastur O'zbekistonning Germaniyaga eksportini, xususan, to'qimachilik va tikuvchilik sohaslarida o'sishiga yordam berdi.

* 2019-yilda O'zbekiston Germaniyaning Frankfurt shahrida ikki davlat o'rtasidagi savdo va sarmoyani rivojlantirish maqsadida savdo va sarmoyaviy ofisini ochdi. Ofis o'zbekistonlik tadbirkorlarga Germaniyaga eksport qilish va nemis hamkorlari bilan ishlash uchun ma'lumot va ko'mak beradi.

* COVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan qiyinchiliklarga qaramay, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishda davom etmoqda. 2020-yilda Germaniyaning O'zbekistonga eksporti 4,4 foizga oshdi va O'zbekiston Germaniyaning Markaziy Osiyodagi oltinchi yirik savdo hamkori bo'lib qoldi.

XULOSA

Umuman olganda, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aloqalari 1991-yildan buyon iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sirida tebranishlar bilan barqaror rivojlanib bormoqda. Germaniya O'zbekistonning paxta, gaz va oltin kabi tabiiy boyliklarini import qilishga hamda O'zbekistonga mashinasozlik, avtomobil ehtiyot qismlari va kimyo mahsulotlarini eksport qilishga asosiy e'tibor qaratgan O'zbekistonning Yevropadagi asosiy savdo hamkorlaridan biridir. So'nggi yillarda ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari, logistika va infratuzilmani rivojlantirish sohaslarida yanada mustahkamlash va diversifikatsiya qilish bo'yicha sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Byurokratik to'siqlar va COVID-19 pandemiyasining ta'siri kabi ba'zi qiyinchiliklarga qaramay, Germaniya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aloqalari kelgusi yillarda ham kengayishi kutilmoqda.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-va-evropa-ittifoqi-aloqalarining-yangi-bosqichi-ishonchli-qadamlar-bilan-yuksak-marralar-sari>
2. <https://grantlar.uz/blog/germaniya-elchixonasidan-germaniya-va-uzbekiston-1992-2022-2052-nomli-ijodiy-tanlov/>
3. <https://www.amerikaovozi.com/a/germany-uzbekistan-factory-base-127930538/835388.html>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/uzbekiston-diplomatiyasining-tarixi-va-istiqbollari>
5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/uzbekiston-va-evropa-ittifoqi-aloqalarining-yangi-bosqichi-ishonchli-qadamlar-bilan-yuksak-marralar-sari>



OLIV O'QUV YURTLARIDA MUAMMOLI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK JIHLTLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854445>

Suyunov Ochil Jumaboevich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
psixologiya kafedراسi dotsenti, p.f.n.
tel:+998 93 999 92 52*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muammoli ta'lim darajalari, xususiyatlari va muammoli vaziyatlarning turlari tahlil etilgan bo'lib, muammoli ta'lim asosida darslarni tashkil etishning psixologik jihatlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *bilim, vaziyat, vaziyatli tahlil, kasb, muammoli vaziyat, ta'lim olish, ta'lim berish, o'qitish, evristik o'qitish, modulli o'qitish, intellekt, o'qitish turlari.*

Аннотация: *В статье рассматриваются педагогические и психологические вопросы, уровни проблемного обучения и создания проблемных ситуаций, а также необходимости проблемного обучения в настоящее время.*

Ключевое слово: *образование, ситуация, ситуационный анализ, профессия, проблемная ситуация, обучение, эвристическое обучение, модульное обучение, интеллект.*

Annotation: *In article under the name "The specification of organization problemthe practical lessons" are considering questions, levels of problem education creating problem situations, also necessity of the problem education in present tim*

Key words: *know ledge, situation, situational analysis, profession, problematic situation, education, training, hecristic teaching, modular training, learning education*

Kirish. Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasida "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz. Bu bejizga emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak,



uni aynan innovatsion g'oyalari, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak"¹⁷¹ deb ta'limga innovatsion yondashuv to'g'risida aniq yo'l -yo'riqlar ko'rsatib berilgan.

Oliy o'quv yurtlarida o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishning muhim sharti mazkur jarayonga rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan innovatsiyalarni mamlakatimiz ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga tadbiq etish ya'ni professor-o'qituvchilarimizga quyidagi dars turlarini tavsiya etishdan iborat:

-ma'ruza (kirish ma'ruzasi, mavzuli ma'ruza, umumlashtiruvchi ma'ruza) mashg'ulotlari.

-seminar (bilimlarni mustahkamlovchi, yangi bilimlarni mustaqil egallashga mo'ljallangan) darslari.

-modulli dars.

-muammoli (aqliy hujum) darslar.

-munozarali (ilmiy munozara va erkin fikrlash) darslar.

-didaktik-o'yinli (syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlar, konferensiyalar, o'yin mashqlar) darslar.

-sinov (didaktik kartochkalar, test topshiriqlari, o'zaro nazorat varag'i yordamida AKT nazorat dasturlari vositasida o'tkaziladigan) darslari.

Mazkur darslarning o'ziga xos jihati dars davomida vujudga keltiriladigan muammoli vaziyatlarga asoslanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Professor N.Azizxo'jaeva muammoli vaziyatning ma'nosini quyidagicha ta'riflagan: muammoli vaziyat o'quvchi-talabalarga ma'lumotlar, bilimlar bilan yangi dalillar, hodisalar, vaziyatlar orasidagi dialektik qarshiliklar bo'lib, ularni tushunib olish uchun ilgari olgan bilimlarining yetishmasligidir. Bu qarama-qarshiliklar tushunmovchiliklar ijodiy bilimlarni o'zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.¹⁷²

Shuningdek N.Azizxo'jaeva ta'lim jarayonida muammoli masalalarni yechimini topishda quyidagi fikrlarni ham ko'rsatib o'tgan:

O'quvchi-talabalar o'z oldilarida turgan masalaning yechimini topa olmaydi, muammoli savol yuzaga kelganda unga o'z vaqtida javob bera olmaydi, yangi mavzuni tushunishda ancha qiyinchiliklarga duch keladi.

➤ O'quvchi-talabalar oldin egallagan bilimlarini yangi sharoit va vaziyat yuzaga kelganda qo'llay olmaydi.

➤ Ularning muammoni nazariy yo'l bilan hal etish va bu tanlangan usulni amalga oshirishi o'rtasida qarama-qarshiliklar vujudga keladi.

O'quvchi-talabalar amalda bajargan topshiriq natijalari bilan o'zlarining nazariy jihatdan tushunib yetishlari o'rtasida bilimlarining yetishmasligi ham muammoli vaziyatlar yuzaga kelishiga olib keladi.¹⁷³

¹⁷¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. // www.uza.uz

¹⁷² J.Yo'ldoshev, S.Xasanov "Pedagogik texnologiya" – T.: TMI, 2014 yil.

¹⁷³ Azizxodjayeva N.N. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" – Toshkent.: 2012 yil, 233-bet.



Pedagogik muloqot deganda, odatda, o'qituvchining o'quvchi bilan dars mobaynida va darsdan tashqari bo'ladigan aniq pedagogik funksiyalarga ega va qulay psixologik muhitni yaratish, shuning bilan birga, boshqa xildagi psixologik optimal ilmiy faoliyat va pedagog bilan o'quvchilar uchun o'rtadagi munosabatlar uchun yonaltirilgan professional muloqot shakli tushuniladi (A.A.Leontev).

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tanlash va bo'lg'usi ma'ruza yoki axborotni tayyorlashda ularga nisbatan shunchaki o'qituvchi, talaba deb qaramaslik kerak, balki ularni seminarda muhokama qilinadigan mavzuning ahamiyatini, dolzarbligini fikrlashga, o'quv fanini keyinchalik muvaffaqiyatli egallash uchun uni chuqur o'rganishi lozimligini anglashga, bo'lg'usi kasbiy faoliyatining hozirgi ijtimoiy, ilmiy muammolarini rejalashtira olish darajasiga olib kelish zarur. Bunda vaqtni tejash, tashkiliy ishlarni jadallashtirish uchun talabalarga mavzu bo'yicha adabiyotlarni, imkoni boricha, mavzulari, paragraflari va sahifalarini ko'rsatgan holda tavsiya etish lozim.

Zaruriyat tug'ilganda, unga savollar qo'yish, talaba esa bu suhbatdan so'ng tegishli tuzatishlar qilish lozim bo'ladi. Shuningdek, shunday savollarni ham berish kerakki, talaba bu savollarga o'z chiqishida javob bersin. Ayni o'rinda talabaning seminarda ma'ruza qilish uslubi ham muhokama qilingani ma'qul.

Bilimlar yuzaga chiqarilgan va ayrim tuzatishlar qilingandan so'ng talabalarining ma'ruza va axborotlar bilan chiqishlari tashkil etiladi. O'qituvchi talabaning materialni mantiqiy bayon qila olishini, uni bayon qilish usulini, talabalarining unga bo'lgan e'tiborini kuzatib boradi. Ma'ruzaning mazmunini bayon qilish yoki muhokamaning borish jarayoni talabalarni zeriktirib qo'yganda yoki aksincha, undagi ayrim masalalarga qiziqish kuchli bo'lganda hamda uni muhokama qilish zaruriyati tug'ilganda, hurmatini saqlagan holda ma'ruzachini biroz to'xtatib, seminarni jamoa muxokamasiga aylantirish maqsadga muvofiqdir.

Ma'ruza mazmuni bo'yicha beriladigan savollarni ikki guruhga ajratish mumkin: mazmunni oydinlashtiradigan savollar va mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar. Mazmunni oydinlashtiradigan savollarga javoblar ma'ruza bayonidagi ayrim o'rinlarni takrorlashni talab qiladi, mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollar esa ma'ruzani yanada to'ldirishni talab qiladi. O'qituvchi avvalo birinchi guruh savollarni tashkil etadi, undan so'ng ikkinchi guruh savollarga jamoa bo'lib javob qidiradi. Mazmunni rivojlantirishga qaratilgan savollarni muhokama qilish ko'pincha talabalarda turli, muqobil javoblarni ham yuzaga keltiradi. Bunday javoblarning bo'lishi xilma-xil nuqtai nazarlarning to'qnashuviga sabab bo'ladi va u seminarining munozaraga aylanishiga olib keladi. Seminarining munozara shaklida tashkil etish o'qituvchining muhim vazifasi hisoblanadi. Munozara shaklida seminar o'tkazish talabaning fikrlash va muloqot qobiliyatlarining shakllanishi uchun tezkor omil sifatida katta ahamiyatga molikdir.



Har bir ma'ruza muhokamasi uning asosiy qoidalari va muhokama (munozara) natijalarini qayd qilgan holda qisqacha umumlashtirish bilan yakunlanishi lozim. Seminar mavzusining mazmunini xulosalash, ma'ruzachilar va seminar qatnashchilarining tayyorgarlik darajasini, ularning seminar davomidagi faolligini baholash, seminar samaradorligining umumiy bahosi va keyingi seminar mashg'ulotiga maqsad qo'yish bilan tugallanadi.

Tahlil va natijalar. Biz tomonimizdan ko'rib chiqilgan seminar tiplari talabalarni muammoli o'qitishga tayyorlash uchun zarur bo'lgan va bir qancha pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimidan iborat bo'ldi.

Muammoli savolga javob topishni qidirishni tashkil etish o'zida muntazam qo'yilgan qadamlar modulini birlashtirdi. Ular quyidagilar:

- *muammoli savolni qo'yish;*
- *qo'yilgan savollarga javob topish va asoslash bo'yicha talabalarning fikrlashga urinishlarini tashkil etish;*
- *javoblarning tanqidiy tahlilini tashkil etish, ularning kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash;*
- *kelishilgan mavqe (pozitsiya)ni ishlab chiqish – eng to'g'ri javobni konstruksiyalash maqsadida javoblarni o'zaro qiyos qilishni tashkil etish;*
- *keyingi muammoli savolni qo'yishga o'tish.*

Muammoli ta'lim jarayonida pedagog boshchiligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchi-talabalarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

- O'quv materialini muammolashtirish;
- O'quvchi-talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish;
- Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
- O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- Muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchi-talabalarga bayon etish.

Chizma muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, muammoli o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonini amalga oshirishda universal vosita xisoblanadi. Bu texnologiya talabalar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo'ladi. O'qituvchi biror o'qitish texnologiyasini yoki ularning birikmasini tanlar ekan, darsning maqsadi, o'quv materialining mazmuni, auditoriya xarakteri, uning tayyorlik darajasiga asoslanishi lozim. Demak, muammoli o'qitish bu o'qitishning pedagogik texnologiyasi bo'lib, o'zining mazmuni va tuzilmasi bo'yicha o'qituvchi va talabaning ijodiy jarayonlarini sintezlaydi. Muammoli o'qitishda pedagogik faoliyatning xususiyatlari o'quv axborotlari mazmunini muammoli vazifalar va muammoli vaziyatlarga ko'chirish orqali maqsadlarni oydinlashtirish jarayonidan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, muammoli ta'lim o'quvchi-talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi. Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina va pedagogik faoliyat jarayonlari metodologik hamda psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilinganida ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi, ya'ni:

-bolaning talabi, moyilligi, istak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

-o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;

-bilimlarni mustaqil egallash malakalari shakllanadi;

-unda umr bo'yi o'z bilimini uning o'zigina boyitishiga ishonch paydo bo'ladi;

-erkin fikrlash malakasi shakllanadi;

-shaxsda jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishiga muhit yaratiladi.

Buning uchun biz o'quvchiga «Sen buni bilishing kerak» degan majburllovchi da'vatdan «Menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotda qo'llashga qodirman» degan ichki ishonch va intilishni uyg'otishga o'tishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. // www.uza.uz

2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T., 2005.

3. Ziyomuxamedov B. Pedagogik mahorat asoslari. – T., 2009.

4. Suyunov O.J. Using the basis of pedagogical skills in organizing the educational process. научный журнал «Архивариус» Том 7, № 4 (58)/2022 ISSN 2524-0935, Kiev-2022.



5. Suyunov O.J. Инновации-залог успешности деятельности организации
Jurnal Science and innovation. 11.12.2022DOI:[https:// doi.org/10.5281/
zenodo.74241491](https://doi.org/10.5281/zenodo.74241491).

6. Suyunov O.J. Взаимосвязь между уверенностью в себе и личностными
особенностями у студентов. Jurnal Science and innovation
11.12.2022DOI:<https://doi.org/10.5281/zenodo.74241491>.



YOSH DZYU-DOCHILARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854453>

Sharipov Allabergan Komilovich

UrDU Jismoniy madaniyat fakulteti

Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi dotsenti

Qosimova Zohida Davron qizi

UrDU Magistratura bo'limi talabasi.

Annototsiya. An'anaviy jismoniy tarbiya tizimida joriy etilgan dars jarayoni etarlicha mukammal emas, ya'ni o'quvchi organizmning harakat talablarini to'laligicha qoplamaydi. Ushbu bo'shliqning o'rnini to'ldirish uchun esa sensitiv (qulay) bosqichlardan samarali tarzda foydalanish organizmning ko'p sonli imkoniyatlarini to'lig'icha amalga oshirish va aniq bir jismoniy sifatlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli kichik maktab yoshidagi bolalarning sensitiv davrida jismoniy tarbiya darslarida jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish asosida o'quv jarayonini takomillashtirish muammosining hal etilishi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Kalit so'lar. Jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifatlar, koordinatsion qobilyatlar, texnika, taktika.

Аннотация. Учебный процесс, внедренный в традиционную систему физического воспитания, недостаточно совершенен, то есть студент не в полной мере покрывает двигательные потребности организма. Чтобы компенсировать этот пробел, эффективное использование сенситивных (комфортных) площадок создает возможность в полной мере реализовать многочисленные возможности организма и развить определенные физические качества. Поэтому решение проблемы совершенствования учебного процесса на основе развития физической подготовленности на занятиях по физической культуре в сензитивном периоде детей младшего школьного возраста считается актуальным на сегодняшний день.

Ключевые слова. Физическая подготовка, физическое развитие, физические качества, координационные способности, техника, тактика.

Annotation. The teaching process introduced in the traditional system of physical education is not perfect enough, that is, the student does not fully cover the movement requirements of the organism. To compensate for this gap, effective use of sensitive (comfortable) stages creates an opportunity to fully realize the many possibilities of the organism and develop specific physical qualities. Therefore, solving the problem of improving the educational process based on the development of physical fitness in physical education classes during the sensitive period of children of junior school age is considered urgent today.



Key words. Physical training, physical development, physical qualities, coordination skills, technique, tactics.

KIRISH. Dzyudo - bu harakatlarning katta o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadigan murakkab koordinatsion, asiklik, tezlik-kuchli jang san'ati turlariga kiradi. Shu munosabat bilan, mashg'ulot jarayonining dastlabki bosqichlarida, ishtirokchilarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak, buning natijasida sportchi keyinchalik turli harakatlarni muvofiqlashtirish va tartibga solish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu unga musobaqa faoliyatida qo'yilgan vosita vazifasiga muvofiq yuqori ko'rsatkichlarni egallashni ta'minlaydi. Sport sohasidagi ko'plab mashhur olimlar (L.S. Dvorkina, L.P. Matveeva, A.A. Gujalovskiy, L.D. Nazarenko, V.N. Platonova va boshqalar) mashg'ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarlikning turli jismoniy sifatlarni, jumladan, koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari, usullari va vositalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Shu bilan birga, asarlarini nazariy tahlil qilish jarayonida S.D. Boychenko, R.M. Gorodnicheva, A.V. Eganova, V.M. Igumenova, I.D. Svishcheva, J. Rachek va boshqalar jang san'ati nazariyasi va amaliyotida yuqori malakali sportchilar va o'smirlarning jismoniy sifatlari va muvofiqlashtirish qobiliyatini oshirishning ilmiy asoslangan usullari ishlab chiqilganligi, jismoniy tayyorgarlik va muvofiqlashtirish muammosi aniqlangan. Bolalar va o'smirlar sportida ko'pincha raqobat faolligining hozirgi tendentsiyalari, xususan, dzyudodagi tendentsiyalari to'liq hisobga olinmaydi. Bu muammo yosh dzyudochilarni tayyorlash jarayonini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan 7-9 yosh davri insonning jismoniy faoliyatida amalga oshiriladigan muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng sezgir hisoblanadi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda batafsilroq o'rganish va ilmiy asoslashni talab qiladigan eng muhim masalalardan biri dzyudo bilan shug'ullanadigan bolalarning sport-sog'lomlashtirish bosqichida koordinatsiya qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar bo'lib, u yosh sportchilarning psixologik xususiyatlari, shuningdek, jismoniy sifatlari rivojlanishining sezgir davrlari va yoshini hisobga olishi kerak.

RIVOJLANISH JARAYONINI MODELLASH BOLALARDA MUVOFIQ QO'LLANILISHI, SPORT VA DZYUDO BO'YICHA ISHLASH.

Hozirgi bosqichda "pedagogik texnologiya" atamasi tadqiqotchilar va olimlar orasida bir nechta pozitsiyalarda ko'rib chiqiladi:

- olimlarning fikricha B.T. Lixacheva, S.A. Smirnova, pedagogik texnologiyalar;
- ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ishlanmalar, asboblari, vositalari, o'quv jihozlari.

"Pedagogik texnologiya" olimlar orasida V.P. Bepalko, V.M. Monaxova, M.A. Choshanova, kommunikativ jarayon va vosita sifatida qaraladi:

o'quv jarayonidagi qo'yilgan vazifalarni bajarish, o'rganishni yaxshilash uchun tahlil, komplekslilikni o'z ichiga oladi.



Mualliflarning taqdim etilgan pozitsiyasida V.M. Klarina, G.L. Selevko bir vaqtning o'zida pedagogik texnologiyaning bir nechta qadriyatlarini ko'rib chiqishga keng yondashuvni ochib berdilar. Pedagogik texnologiya - yaratish, qo'llash va tizimli usul ta'lim shakllarini optimallashtirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan texnik va kadrlar resurslarini va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda bilimlarni o'qitish va o'zlashtirishning butun jarayonini aniqlash. Pedagogik texnologiya uyushgan harakatlar tizimidir. U pedagogik faoliyatning ketma-ketligi va mantiqiylikini, amalga oshirilishini aks ettiradi. Bu rejalashtirilgan natijalarni kafolatlaydi va shuning uchun har doim harakat bosqichlari bilan ifodalanadi, ularning har biri o'z maqsadiga ega. Birinchi bosqich har doim diagnostik bo'lishi muhim, bu an'anaviy o'qitish usullaridan o'ziga xos xususiyatga ega. Pedagogik texnologiya mazmuni uchta asosiy qismdan iborat: kontseptual asos; protsessual xarakteristikalar (ishlab chiqilgan texnologiyaning o'ziga xos xususiyatlari); texnologiyani amalga oshirishni ta'minlash vositalari. G.K. Selevkoning ta'kidlashicha, "pedagogik texnologiyalar" tushunchasi o'quv amaliyotida uch darajada qo'llaniladi:

1. Umumpedagogik (umumiy didaktik) daraja ta'limning ma'lum darajasidagi ta'lim jarayonini tavsiflaydi.

2. Xususi metodologik (predmetli) daraja - bu usullar majmui va ta'lim va tarbiya mazmunini bir doirada amalga oshirish vositalari

3. Lokal (modulli) daraja - ta'lim jarayonining alohida qismlari, alohida didaktik va tarbiyaviy vazifalar texnologiyasi.

Ta'lim nazariyasida modul deganda bo'lajak mutaxassisning ma'lum kasbiy bilimlari yoki ko'nikmalarini shakllantirish uchun yetarli bo'lgan ma'lumot yoki harakatning ma'lum "dozasi" tushuniladi. P.A. Jucevicene, zamonaviy tadqiqotchi, o'quv-uslubiy qo'llanmada ko'rsatilgan, qo'yilgan didaktik maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan o'quv materialining mantiqiy to'ldirilgan birliklari bo'lgan ma'lumotlar blokini modul sifatida tavsiflaydi. Pedagogik texnologiyani qurish va rivojlantirishda V.I.Zagvyazinskiy, I.V. Manzhely, tadqiqotchining panoramaga mos kelishi muhim yondashuv tadqiqotning kutilgan natijalarini va maqsad sari harakatning umumiy yo'nalishini taqdim etdi.

Protseduralar - ilg'or va innovatsion tajribani prognozlash, modellashtirish, loyihalash, tajriba o'tkazish, tahlil qilish va umumlashtirish, foydali yangiliklarni mavjud o'quv jarayonlari va sport mashg'ulotlari tizimlariga integratsiya qilish.

Zamonaviy pedagogikadagi "modulli texnologiya" (modulli ta'lim) tushunchasi o'quv modullarini uyushgan o'quv jarayoni sifatida amalga oshirishni ochib beradi, unda ma'lumotlar qismlarga (modullarga), nisbatan to'liq mustaqil bo'linmalarga bo'linadi, bu erda bir nechta modullar yig'indisida; berilgan mavzu yoki barcha ilmiy fanlarning mazmuni. Har qanday texnologiya ilmiy kontseptsiyaga asoslangan bo'lishi, yaxlitligi, samarali va bir xil turdagi boshqa ta'lim muassasalarida takrorlanishi kerak. Biz tomonidan ishlab chiqilgan muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyasi o'quv jarayonining alohida qismlari (modullari) texnologiyasi bo'lib,



uchinchi (mahalliy) darajaga tegishli. Sport va dam olish bosqichida dzyudo bilan shug'ullanadigan 7-9 yoshli bolalarda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish modulli texnologiyasini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi:

- 7-9 yoshli bolalarni muvofiqlashtirishni rivojlantirish jarayonini o'rgatishga qaratilgan o'quv va uslubiy adabiyotlarni, ilmiy tadqiqotlar natijalarini o'rganish;
- tadqiqotimizning dastlabki natijalarini tahlil qilish;
- jalb qilinganlar kontingenti - 7-9 yoshli o'g'il bolalar;
- dzyudo mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida sifat jihatidan yaxshilash, ilgari foydalanilmagan yangi usullarni joriy etish zarurati. Modulli texnologiyani ishlab chiqishda insonning jismoniy yuklarga moslashish nazariyasi jismoniy tarbiya uchun muhim nazariy shart sifatida qabul qilinadi, ya'ni adaptiv o'zgarishlar muntazam takrorlanadigan tashqi ta'sirlar ta'sirida sodir bo'ladigan kumūlatif moslashuv xususiyatlari.

Ma'lumki, bir xil mashqlarning tonna takrorlanishi, ma'lumki, mashg'ulot effektini beradigan mashg'ulot effekti faqat ma'lum vaqt davom etadi, shundan so'ng osilgan effektlar faol stimulyator bo'lishni to'xtatadi, mashg'ulot qiymati yo'qoladi va organizmning yanada jadal rivojlanishiga olib keladi. Kumūlatif moslashish jarayonida tananing moslashtirilgan tizimlari sifat jihatidan yangi holatga o'tadi, ya'ni tana progressiv o'sadi, va rivojlanadi. Shuning uchun, insonning jismoniy yuklarga moslashish jarayonining xususiyatlaridan kelib chiqib, ma'lum effektlarni aniq tanlash mumkin: ketma-ket yuklar, yaxlit harakatning maxsus muvofiqlashtirilgan takrorlanuvchi elementlari, takrorlanish chastotasi, davomiyligi va sonini aniqlaydi, ongli ravishda yangi belgilarni shakllantiradi. Yuqorida aytilganlar yosh dzyudochilarning muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun modulli texnologiyani yaratish uchun asosdir. Muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun modulli texnologiyaning tuzilishi maqsad, kontseptual asos, mazmun, protsessual va baholash-ishlab chiqarish komponentlarini o'z ichiga oladi. Maqsad usullarni, harakatlarni tanlashni belgilaydi, nazorat qilish, harakatlar natijalarini tekshirish va ularni bashorat qilingan natija bilan taqqoslash vositasidir. Maqsad motivatsiya bilan chambarchas bog'liqdir, chunki uni qabul qilish, uning ahamiyatini anglash tinglovchining o'quv faoliyati uchun motivatsiyani shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Kontseptual asos bolalarning motor funktsiyasini shakllantirishning bir xil emasligi tamoyillarini ilmiy asoslashda, yosh dzyudochilarning muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish ketma-ketligida, shuningdek, mashg'ulot jarayonini tashkil etishning uslubiy shartlarida yotadi. Sportning, xususan, dzyudoning orientatsiya talablarini qondirishga qaratilgan. Tarkib komponenti muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun modullarni o'z ichiga oladi: javob (eshitish va vizual reaksiyalar), muvozanat, kosmosda orientatsiya, harakat parametrlarini farqlash, ritmik qobiliyat, harakatni muvofiqlashtirish. Maxsus tashkil etilgan pedagogik ta'sirning murakkab dinamik jarayoni sifatida, o'quv dasturiga va yosh dzyudochilar o'rtasida muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish maqsadiga muvofiq, mashg'ulot



har bir individual rivojlanish modulini amalga oshirishning kirish, ishlab chiqish va yakuniy bosqichlari bilan to'ldiriladi. CS ning maxsus qismida isinish, shuningdek, muvofiqlashtirish murakkabligi va yukning intensivligini oshirish, bir-birini to'ldirish va rivojlanayotgan ta'sirlarning uzluksizligini ta'minlash orqali.

Protsessual komponent - bu o'quv faoliyatining maxsus tashkil etilgan jarayoni bo'lib, u o'qitishning guruh shakllariga, birgalikdagi faoliyatga yo'naltirishni talab qiladi, rejalashtirish, loyihalash, tashkil etishni belgilaydi.

Rejalashtirish - modulli texnologiyadan foydalanish yosh dzyudochilarni tayyorlash jarayonining suv qismida amalga oshiriladi va 78 ta darsga mo'ljallangan.

Qurilish - darsning suv qismida maxsus isinish joriy etildi, unda muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish 13 dars davomida uch bosqichda amalga oshiriladi. Moslashuvchan o'zgarishlar bilan bog'liq holda, o'qitish jarayonida tinglovchilar ikki davrni - o'tish va statsionar davrni boshdan kechiradilar. Birinchisida jismoniy yuklamalarga, intensivlik va hajmga moslashish, organizm tomonidan yangi sharoitlarni ishlab chiqish jarayoni amalga oshiriladi. Ikkinchi davrda barcha tizimlarning barqaror holati boshlanadi, bu erda yukning intensivligini, bajariladigan mashqlarning xarakterini va ketma-ketligini bosqichma-bosqich o'zgartirish kerak bo'ladi, shu asosda biz kirish va rivojlanish bosqichlarini aniqladik.

Ajratilgan sinflar soni moslashish davrlarining kombinatsiyasi bilan bog'liq. Mashg'ulot jarayonining siklligini tashkil etuvchi ta'sirlar (o'tish va statsionar) tsikldan tsiklga jismoniy faoliyat parametrlarining zaruriy o'zgarishi uchun biologik asosdir. Shunga ko'ra, har bir modulda muvofiqlashtirishning rivojlanishi mikrotsikllarda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi: kirish bosqichida - har biri 15-20 daqiqadan iborat 3 seansdan iborat orqaga tortuvchi mikrotsikl, rivojlanish bosqichida - 20-dan iborat 9 seansdan iborat asosiy mikrotsikl. Har biri 25 daqiqa, yakuniy bosqichda - olingan natijalarni baholash 1 dars 90 daqiqa. Modulli texnologiya bosqichlarini amalga oshirish uchun ajratilgan vaqt tomonidan belgilanadi. Darsning davomiyligi 90 minut bo'lsa, tinglovchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va modulli texnologiyani joriy etish jarayonida qo'yilgan vazifalarni hisobga olgan holda 20-25 daqiqa umumiy isinish beriladi. isitish uchun berilgan vaqtga rioya qilish: min - 15 daqiqa, maksimal - 25 daqiqa. Tashkilotda o'quv jarayonini qurish uchun tashkiliy-uslubiy shart-sharoitlar, shu jumladan mashg'ulot vaqtidan oqilona foydalanish mavjud. Biz uzluksiz oqim ishining sxema bo'yicha mashq qilish usulidan foydalandik, mashqlar birgalikda, birin-ketin, kichik dam olish oralig'i bilan bajariladi va aylananing bir necha takrorlanishidan iborat:

Kirish bosqichida har bir stantsiyadagi mashqlar va ular orasidagi o'tish vaqtdan qat'iy nazar, erkin sur'atda amalga oshiriladi, ular kompleksda va davralar o'rtasida (2-3 aylana) bajarilish vaqtida tanaffuslarsiz amalga oshiriladi. - 3 seriya), Rivojlanish bosqichida (3-4 doira -3 seriya), printsip bo'yicha har bir seriyadan keyin dam oling: doiralarni o'tkazish vaqti = dam olish vaqti.

Tashkiliy shartlar quyidagilar edi:



- mashg'ulotlar o'tkaziladigan joyni tayyorlash va muvofiqligini tekshirish (dzyudo zali, tatami);

- CS ishlab chiqish modulini isitishning maxsus qismiga kiritish hisobiga dars vaqtidan foydalanishni ratsionalizatsiya qilish;

- muvofiqlashtirishning rivojlanish darajasini aniqlash uchun test topshiriqlari.

Modulli texnologiyani amalga oshirishning muhim sharti - bu ishtirokchilarning motor faolligini rag'batlantiradigan turli xil texnikalar majmuasi. Ular bir qator shartlar va omillar bilan belgilanadi: yoshi va jismoniy va maxsus tayyorgarlik darajasi; psixo-emotsional holat; o'qituvchining kasbiy malakasi darajasi. Xuddi shu omillar muvofiqlashtirish mashg'ulotlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun mashqlardan foydalanishni aniqlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; sharoitlarni tashkil etish, pedagogik ta'sirning o'ziga xos usullari va usullarini qo'llash (3-rasm).

Maqsad: dumaloq mashq qilish usuli yordamida yosh dzyudochilarning muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

3-rasm - Sport va dam olish bosqichida dzyudo bilan shug'ullanadigan 7-9 yoshli bolalarning muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun modulli texnologiya

O'quv jarayonini boshqarish murabbiy va stajyor o'rtasidagi maqsadga muvofiq munosabatlarni o'z ichiga oladi, bu esa adekvat muhitni yaratadi.

O'rganish, muloqot qilish, hissiy va rivojlanish uchun muhit psixologik va ishbilarmonlik munosabatlari, qadriyat yo'nalishlari shakllanadi, dzyudo mashg'ulotlariga qiziqish va motivatsiya ortadi.

Baholash-natija komponenti taklif etilayotgan texnologiyaning samaradorligini belgilaydi, o'rganilayotgan qobiliyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan tegishli mezonlar va ko'rsatkichlarni tanlash bilan bog'liq bo'lib, o'zaro ta'sirda muvofiqlashtirishning rivojlanish darajasini aniqlashning yaxlit tizimidir. sport-sog'lomlashtirish bosqichida dzyudo bilan shug'ullanadigan bolalarning qobiliyatlari, shuningdek, jismoniy tayyorgarligi, salomatligi, dzyudoga bo'lgan motivatsiyasi va qiziqishi, yosh sportchilarning qadriyat yo'nalishidagi turli tendentsiyalarning namoyon bo'lishi. Muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi barcha taqdim etilgan komponentlarni ta'lim, ta'lim jarayonining yaxlit ko'rinishi, uning alohida elementlarining oqilona korrelyatsiyasi, muvofiqlashtirish qobiliyatlari mazmunini, ularning turlarini o'rganishga tizimli yondashuv asosida birlashtiradi. namoyon bo'lishi; usullarini ishlab chiqish va ularni ishlab chiqish. O'quv jarayonining amaliy faoliyatida undan foydalanishning maqsadga muvofiqligi pedagogik tajriba jarayonida tekshirildi. Modulli texnologiya asosida o'quv jarayoni mazmunini ishlab chiqish texnologiyaning har bir tarkibiy qismining o'zni va rolini ularning yaxlit o'zaro ta'sirida yaxlit tasavvur yaratish imkonini beradi; sinf tarkibidagi vaqt sozlamalarini yanada samarali boshqarish. Muvofiqlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi yosh dzyudochilarni tayyorlash tizimidagi mavjud g'oyalar doirasini kengaytirishga imkon beradi, darsni noan'anaviy mashqlar shakllari bilan to'ldiradi, bundan tashqari, u dzyudo bo'yicha mavjud bilimlarni



ko'paytirishga yordam beradi. shug'ullanuvchilar o'rtasida jismoniy madaniyatning inson hayotidagi ahamiyati, mashg'ulotlar samaradorligini oshirish uchun sportchi va murabbiy o'rtasidagi ijodiy hamkorlik zarurligini ko'rsatish.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan modulli texnologiya pedagogik hisoblanadi.

Uning muvaffaqiyatini belgilovchi turli omillar ta'sirini hisobga olgan holda faoliyatni samarali boshqarish va o'quvchilarga ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi murabbiy-o'qituvchining asboblari to'plami. Mashg'ulot jarayonida o'zaro ta'sirga motivatsion e'tibor, tinglovchilarning faolligi va o'zini o'zi boshqarishini ta'minlaydi, murabbiy va tinglovchilar birgalikda ishlaydigan mashg'ulot maydonining yaxlit ko'rinishini beradi, tinglovchilar o'rtasidagi hissiy va psixologik munosabatlar, qadriyat yo'nalishlari shakllanadi, ularning potentsial imkoniyatlari. Biz tomonidan ishlab chiqilgan modulli texnologiya 6 (olti) moduldan iborat bo'lib, ularning har biri ma'lum bir muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan: javob (eshitish va vizual reaksiyalar), muvozanat, kosmosda orientatsiya, harakat parametrlarini farqlash, ritmik qobiliyat, harakatlarni muvofiqlashtirish. Har bir modul bitta modulli blokni o'z ichiga oladi, bu isitishning maxsus qismida aylanma mashg'ulot paytida bajariladigan maxsus tanlangan mashqlar to'plamiga mos keladi. Bitta modulni amalga oshirish 13 ta darsdan iborat bo'lib, ulardan biri yakuniy bosqichda diagnostika va erishilgan natijalarni baholashga bag'ishlangan (4-rasm).

Kirish bosqichida bolalar 3 ta dars davomida vazifalarni to'g'ri bajarish va stansiyalar bo'ylab harakatlanishni o'rgandilar. Yukning intensivligi ma'lum bir yurak urish tezligiga (min.115 - maks. 135 zarba / min) 15-20 daqiqa davomida 2-3 daqiqali dam olish bilan belgilanadi.

Rivojlanish bosqichi bir xil mashqlardan iborat edi, lekin yukning tarkibiy qismlari, tabiati, vazifalar ketma-ketligi o'zgarishi bilan 9 ta dars uchun. Yukning intensivligi yurak tezligini oshirdi (min. 140 -maks. 170 zarba / min) o'zgaruvchan dam olish bilan 2-3 daqiqa. Sinov orqali birinchi darsda va yakuniy bosqichda CS ning rivojlanishi nazorat qilindi.

Muvofiqlashtirish qobiliyatlarining rivojlanishi g'ayrioddiy sharoitlarda sodir bo'ldi, doimiy ravishda murakkablashib, vosita harakatlarini avtomatizm darajasiga olib keldi. 4 ta stantsiyadan iborat har bir modul yurish, yugurish va umumiy rivojlanish mashqlari to'plamini o'z ichiga olgan isinishning umumiy qismidan so'ng amalga oshirildi. Stansiyalardagi mashqlar bajarilgandan so'ng, darsning asosiy qismi davom etdi, uning mazmuni ikkala guruh uchun (EG va CG) bir xil bo'lib, sport maktabi o'quv dasturi talablariga javob berdi. Darsning asosiy qismiga ajratilgan vaqtning kamayishi, isitishning maxsus qismida modulli texnologiyadan foydalanish tufayli, ahamiyatsiz. Keyinchalik amalga oshirish tufayli intensivlik oshadi. Rivojlanish bosqichidagi mashqlar to'plami, bu umumiy samaradorlikni pasaytirmaydi. Chunki modul bo'limining diqqat markazida nafaqat yangi motor harakatlarini tayyorlash va rivojlantirish, balki ishtirokchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishga ham ta'sir qiladi. Ishning intensivligi ko'p jihatdan mashg'ulot mashqlarining sportchining



tanasi ta'sirining kattaligi va yo'nalishini belgilaydi. Ishning intensivligini o'zgartirish orqali ma'lum energiya yetkazib beruvchilarni imtiyozli safarbar etishga hissa qo'shish, funktsional tizimlar faoliyatini boshqa darajada faollashtirish va sport anjomlarining asosiy parametrlarini shakllantirishga faol ta'sir ko'rsatish mumkin.

Dozalash. Sport mashg'ulotlari jarayonida turli xil davomiylidagi mashqlar qo'llaniladi - 3-5 soniyadan 2-3 yoki undan ko'p soatgacha. Ular har bir alohida holatda sportning o'ziga xos xususiyatlari, alohida mashq yoki ularning kompleksi hal qiladigan vazifalar bilan belgilanadi.

Sport mashg'ulotlarining asosiy masalasi - amaliyotchiga tavsiya etilgan hajm, tabiat, ketma-ketlik, ritm va uning dam olish va mehnat qobiliyatini tiklash bilan kombinatsiyasidan olingan jismoniy faoliyat samaradorligi.

V.V. Petrovskiy, so'ngra D. Xare bu muammoni tashqi yuk va ichki harakatlar o'rtasidagi qonuniyatlar va munosabatlarni tushunishga qaratilgan sport fanining asosiy vazifasi sifatida ifodaladilar. Sport mashg'ulotlarini boshqarish jarayoni inson tanasining jismoniy faoliyat bilan bog'liqligi va reaksiyasining muntazamligiga, shu jumladan undan keyin tiklanish parametrlariga va natijada mashg'ulot effektiga asoslanishi kerak.

XULOSA.

Dzyudo bo'yicha sportchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarning nazariy tahlili shuni ko'rsatdiki, dzyudochilarning raqobatbardosh faoliyati samaradorligining eng muhim omillaridan biri mushaklararo va mushak ichiga muvofiqlashtirishni rivojlantirish, ya'ni "vosita xotirasi" (yodlash va dam olish harakatlari). Dzyudochilar uchun qarama-qarshilikning o'zgaruvchan sharoitlariga qarab o'z faoliyatini tezda qayta tashkil etish, murakkab harakatlarni qo'llash va ilgari o'rganilgan dzyudo usullarini kombinatsiyasini amalga oshirish muhimdir. Biroq, dzyudochilarning mashg'ulot jarayonini tashkil etish bo'yicha mavjud tadqiqotlarda yosh sportchilarning muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish mavzusi, shu jumladan yosh sportchilarning sport mashg'ulotlarini samarali rivojlantirish uchun sezgir ko'rib chiqish muammosi etarli darajada ochib berilmagan. bu qobiliyatlar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akopyan, A. O. Raqobat faoliyatining xususiyatlarini tahlil qilish kabi jang san'atida o'quv jarayonini qurish omili / A. O. Akopyan, A.

A. Novikov, A. Sh. Ramazonov // Raqobat faoliyatini modellashtirish muammolari: ilmiy ishlar to'plami. - M.: VNIIFK, 1985. - S. 33-36.

2. Alyabyshev, A. P. Murakkab texnik sport turlariga yo'naltirish bilan bog'liq holda muvofiqlashtirish qobiliyatlarini aniqlashning standart dasturi / A. P. Alyabyshev, A. G. Karpeev // Sport zaxiralarini tayyorlashning dastur va uslubiy asoslari: X Butunittifoq ilmiy-amaliy anjumani materiallari. konferensiya. - M., 1985. - S. 156-157.



3. Ananiev, B. G. Tanlangan psixologik asarlar: 2 jildda 1-jild / B. G. Anan-ev. - M.: Pedagogika, 1980. - 230 b.

4. Apanasenko, G. L. Tibbiy valeologiya / G. N. Apanasenko, L. A. Popova. - Rostov n / D .: Feniks, 2000. - 248 p.



O'ZBEK ADABIY TILINING NAQADAR BOYLIGINI O'Z ASARLARIDA YAQQOL TASVIRLAY OLGAN BUYUK ADIB — ABDULLA QODIRIY!

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854457>

Mexribonova Sitora Azamat qizi

I. Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik maktabi siymosi – Abdulla Qodiriyning ijodi, uning Vatani, millati uchun qilgan fidoiyligi, “O'tkan kunlar” romanining o'ziga xosligi va o'zbek tilining so'z boyligi kabi masalalar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: Istiqlol, roman, adabiyot, millat, ma'naviyat, lahja, jaholat, tarix, jadidchilik, jumhuriyat, “durri bebaho”.

KIRISH

Abdulla Qodiriy o'z davrining buyuk ilm mutaffakirlaridan biri sifatida Vatan va millat taqdiri uning istiqrolli haqida qayg'urdi. Zamon taloto'plari adib qalbini iztirobga soldi. “O'tkan kunlar” romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, “tariximizning eng kir, qora kunlari”- yurtni mustamlaka balosiga yo'liqtirgan keyingi noahil “xon zamonlari”dan so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi¹⁷⁴.

Romanning ma'no-mazmun doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo'lga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar sanaladi.

“O'tkan kunlar” romani bamisoli ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy- ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Romandagi uchlik - oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan ko'rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” - ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiaiy sahnalar kishini chuqur o'yga toldiradi. Muallif oshiqning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni - Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Ayni damda o'lkaning

¹⁷⁴ I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Avtor nutqi va personaj nutqi. Toshkent:O'qituvchi,2010.199 bet.



tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir, degan fikrni g'oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi.

Qodiriy asarlaridagi sehrli jozibaning omillaridan biri uning milliy tilidir Adib asar yozish uchun poydevor bo'ladigan manba qidirgan paytda o'zbek xalqiga tegishli bo'lgan jozibador, madaniy va go'zal til shaklini ham izladi. Manbani xalq og'zaki ijodidan topgan bo'lsa, bunday til shaklini adabiy tilimizga asos bo'lgan lahjalarimiz va ularning zahirasi hisoblangan shevalarimizdan izladi va topishga muyassar bo'ldi. Shu asnoda barcha shevalarimiz adabiy til uchun bitmas-tuganmas xazina ekanligiga amin bo'lgan holda buni amalda isbotladi. Aslida sheva mulki hisoblangan leksik birliklarimizni adabiy tilimizga olib kirdi. Holbuki adabiy tilda ularning o'rni bo'sh edi, ana shu bo'shlikni to'ldirishda ham Abdulla Qodiriyning xizmati beqiyosdir. Undagi so'z tanlash jarayoni xuddi rassom surat uchun rang tanlash misoli yorqin aks etgan. Buni adibning asarlarini o'qiyotgan paytda his qilasiz. Yozuvchi o'zbekona sodda so'zlashuv tarzini romanlariga olib kirib, asarlari tilining jonli va hayotiyiligini ta'minladi. Bu o'z-o'zidan bo'lgani yo'q, chunki adibning o'zi xalq orasida yurib ustachilik, ya'ni uylarning tomini yopish bilan shug'ullandi. Keyin mahallasidagi tashlandiq yerni tozalab, unga jon bag'ishlab bog' yaratdi. Oddiy insonlar bilan yaqin munosabat, jismoniy mehnatdan rohatlanish hissida tiniqlashgan aql ana shunday badiiy jihatdan mukammal, kitobxonni o'ziga rom etadigan asarlarning yaratilishiga zamin bo'ldi.

Biz badiiy asarlarda muallif nutqining ahamiyatini o'rganar ekanmiz, o'zbek milliy romanchiligi asoschisi A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" hamda "Mehrobdan chayon" romanlarida muallif nutqining juda ajoyib shakliga duch kelamiz.

- "Kumushbibi uyqudan turib favqulodda bir holga uchraydi: bir kechada hammaning tushiga "to'y" kirib chiqqan¹⁷⁵.

- To'y uchun yangi ko'rpalar qoplamoqchi bo'ladilar, par to'shaklar olmoqchi bo'ladilar, kuyov uchun qanday kiyim yarashmog'i ham bahs qilinar, Oftob oyim eriga oltin kamar olmoqqa buyuradir... Tavba, demay chora yo'q: Oftob oyimning kuyovlari kim, qaysi qizlarini erga beradilar, ularning Kumushbibidan ham boshqa qizlari bormi? Ularning qizlari yolg'iz, demak, Kumush erga beriladir...

- Tushunarli gap emas:

- Erga kim tegadir?

- Kumush!

- Kumushbibi kuyovni yoqtiradimi, yo'qmi? Bu to'g'rida uning fikrini bilish kerakmi, emasmi?

- So'zlashish ham kerak emas, bildirish ham.

- Nega?

- Chunki odat shul? Kumush ota -ona yoqtirgan kishiga rozi bo'lish uchun majbur"

¹⁷⁵ A.Qodiriy. "O'tkan kunlar" Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti,1974.47bet.



Mazkur badiiy nutq bayonini o'qigan kitobxon, albatta, ikki qahramon so'zlashayotgan dialog bo'lsa kerak, deyishi mumkin. Sinchiklab e'tibor bersangiz, bu nutqda hech qanday qahramonlar ishtirok etmayapti. Qizig'i shundaki, yuqoridagi ko'chirmani yozuvchi qahramonlar nutqiga ham yuklashi mumkin edi. Ammo Kumushbibining uyqudan uyg'onishi, bir kechada hammaning tushiga tuy kirib chiqishi, tuy uchun yangi ko'rpalaru par to'shaklarni tayyorlash kabi badiiy tasvirlarni faqatgina hokim nutq izohlab berishi mumkin. Izohdan anglashiladiki, muallif nutqining milliyliigi har bir so'z va iboralarda yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Aytish mumkinki, yangi o'zbek adabiyotida epik obraz va epik rivoyat (bayon), avvalo, Abdulla Qodiriydan boshlangan bo'lib, bunda uning xalq og'zaki ijodi va yozma mumtoz adabiyotdagi poetik tasvir shaklini, romantik ifoda usulini realistik nasrga nihoyatda tabiiy ko'chirgani ulkan kashfiyot bo'ldi.

Abdulla Qodiriy asarlarida milliy ruh va folklor an'analari uyg'unlashib, ijodkorning o'ziga xos, betakror uslubini namoyon qiladi. Shu boisdan ham kitobxonlar tomonidan Abdulla Qodiriy asarlari qayta- qayta o'qib mutolaa qilinadi va har gal o'qiganingizda o'zgacha taasurotga ega bo'lasiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Qahhor. Asarlar. T VI. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. 411 – bet.
2. O'.Nosirov. Ijodkor shaxs badiiy uslub, avtor obrazi. Toshkent:Fan,1981.109 -110 betlar
3. A.Qodiriy. "O'tkan kunlar" Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti,1974.47 bet.
4. I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Avtor nutqi va personaj nutqi. Toshkent: O'qituvchi,2010.199 bet.
5. Botirova Sh.I. (2018). The Role of Artistic LiteratureIn The Spiritual Development of Youth. *Mirovaya nauka*, 5(14), 26-28.
6. Botirova Sh.I. (2019). Poetics of artistic psychologism. *Teoriya i praktika sovremennoy nauki*, 2(44), 31-34.
7. Botirova Sh.I. (2018). Symbolic-figurative talk and psychological relations. «*Ekonomika i sotsium*». 12(55), 114-118.

**МУАЛЛИМ КОНЦЕПТИНИНГ АХАМИЯТИ ВА
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИКЖИХАТЛАРИ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7854459>

Мамасолиев Рустамжон Адхамжонович

Фаргона давлат университети

Немис тили уқитувчиси

Аннотация: Ушбу маколада лингвокультурология тилшунослик ва маданиятшунослик билан чамбарчас боғланганлиги, муаллимлик концепти, Шунингдек, муаллимнинг сўз бойлиги бўлиши лозимлиги хақида сўз боради.

Калит сўзлар: тилшунослик, ҳалқларб маданият, урф-одат, тил, ўрганиш, йўналиш.

Ҳозирги кунда тилшунослик бўйича қилинаётган ҳамма тадқиқот ишларида лингвокультурология атамасини ишлатилаётганини кўришимиз мумкин. Бизнингча, ҳам бў тўғри, чунки бир-бирига қардош бўлмаган ҳалқлар маданияти, урф-одати, тилини ўрганиш, халқлар орасида яна ҳам кучли муносабатлар ўрнатишга ёрдам беради, сўзлар, матнлар, маданиятлар ўзлашиб, янги мулоқот тили ҳосил бўлади. Шу жумладан, биз ҳам ишимизда миллатлар лингвокультурологиясида “муаллим” концептини тутган ўрни ва маданияти хақида озроқ тўхталиб ўтмоқчимиз. XXI аснинг бошларига келиб, лингвокультурология жаҳон тилшунослигидаги етакчи йўналишлардан бирига айланди. Лингвокультурология тилда ва дискурда ўз аксини топган ва мустаҳкамланган халқ маданиятини ўрганади. У биринчи навбатда, муайян маданиятнинг миф, афсона, урф-одат, аънана, удум, таомил, рамзларни ва ҳақозони тадқиқ этади. Мазкур концептлар маданиятга тааллуқли бўлиб, улар тилда маиший ва таомил муоммаласи шаклида мустаҳкамланади.

Г.Г.Слышкинга кўра¹⁷⁶ “Линвокультурология инсон омилига, аниқроғи, инсондаги маданият феноменидан иборат бўлиши инсон хақидаги фаннинг антропологик парадигмага тегишли ходиса эканлигидан далолат беради.

Рус тилшуноси Н.Алиференко¹⁷⁷ лингвокультурологияни қуйидагича тавсифлайди: лингвокультурология тилшунослик ва маданиятшунослик билан чамбарчас боғланган бўлиб, у синтезловчи хусусиятга эга; - лингвокультурологиянинг асосий эътибори тилда изоҳланадиган маданий далилларга қаратилади; лингвокультурология тилшунослик фанларга киради, шунинг учун унинг тадқиқот натижаларидан она тили ва чет тиллари ўқитиш

¹⁷⁶ Слышкин Г. Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса.-М.А. Academia, 200.-128 с

¹⁷⁷ Алеференко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка. Учебное пособие,- М, Флинта, Наука, 2010.-С. 21.



жараёнларида амалий фойдаланиш мумкин; лингвокультурология тадқиқотларининг асосий йўналишлари: а) лисоний шахс; б) тил маданий фадриятларнинг семиотик гавдалантириш тизими ҳисобланади¹⁷⁸. Яна Н.Алефиренко¹⁷⁹ шундай изоҳ бериб ўтади, “лингвокультурология объектининг тадқиқи қатъий илмийлик билан бирга, эркин фантазия эҳтиёжига эга: бунда нарративлик, бадиий фикрлаш ҳамда чуқур методологик таҳлил узвийлигини назарда тутувчи комбинациялашган ёндашув зарур”-деб эътироф этади тилшунос олим.

Ўзбек тилшуноси З.И.Солиеванинг номзодлик ишида ўзбек ва инглиз тилларидаги сентенция, яъни ахлоқий-таълимий характердаги матнларнинг миллий –маданий хусусиятлари ёритилган¹⁸⁰. Бундай қарашлар ўзбек тили лингвокультурологиясини яна ҳам бойитишга ёрдам беради, деб ўйлаймиз.

Яна бир ўзбек тилшуноси Д. Худайберганованинг “Матнинг антропоцентриқ тадқиқи” номли монографиясининг алоҳида боби ўзбек тилидаги матнларнинг лингвокультурологик хусусиятларини ўрганишга бағишланган¹⁸¹, бўлиб, тилшунос бу бобда ўзбек тилининг лингвокультурологик хусусиятларини матнларда ифодалаб бера олган.

Агар лингвомаданий концепт семантик жиҳатдан, унинг бир қатор лингвистик амалга оширилишининг маъноларини умумлаштирувчи мавҳумлик тури эканлигидан келиб чиқадиган бўлсак, у ҳолда, бу тушунчанинг ўзига хос шакли мавҳумлик оралиғи билан белгиланади, бунда у сифат жиҳатидан аниқланади, яъни, бу тушунчани тилда ёки тилларда кузатувчи лексик-семантик парадигма ҳажми билан бирликлар ҳосил қилган. Шу муносабат билан тушунчаларга ажратилади, уларнинг ўзига хос лингвистик амалга оширилиши маъноларидан мавҳумлаштирилади, уларнинг семантикасида ҳам “субъектив”, ҳам этник-маданий семалар ва протоконцептлар – “универсал концептлар”: “ноемлар” мавжуд номаълум миқдордаги лингвистик иловалардан мавҳумлаш ва тиллараро таққослаш ва таржима қилиш учун зарур бўлган мос ёзувлар стандартини тақдим этади. Кўпроқ ёки камроқ соф шаклда “универсал концептлар” шакл тақдим этилади: илмий онг, ахлоқий атамалар ва мантиқий операторлар: яхшилик-ёмонлик, яхши-ёмон-бефарқ ва бошқалар. Ўз навбатида, автохтон тушунчалар нафақат тил ичидаги, моногloss бўлиши мумкин, улар икки ёки ундан ортиқ тилларнинг лексик бирликларидан мавҳум бўлиши мумкин. Маданий суперэтносни шакллантириш, - масалан, Ғарб ва Шарқ тил маданиятининг “чекловчи тушунчалари” каби полигloss бўлиш мумкин.

¹⁷⁸ Алефиренко Н.Ф.Лингвокультуология.Ценностно-смксловое пространство языка.Учебное пособие,- М,Флинта,Наука, 2010.-С. 21.

¹⁷⁹ Алефиренко Н.Ф.Лингвокультуология.Ценностно-смысловое пространство языка.Учебное пособие,- М,Флинта,Наука, 2010.-С. 21.

¹⁸⁰ Салиева З.И.Концептуальная значимость и национально-культурная специфика сентенции и английском и узбекском языках.автореф.дисс..канд.филол.наук.-Ташкент.2010.-С.25.

¹⁸¹ Худайберганова Д.Матнинг антропоцентриқ тадқиқи.-Тошкент.Фан.2013.



7. Avtomatik tarzda yaratilgan so'zlar va gapning mantiqiy-lingvistik modellari asosida kengayuvchi kirish tilidan foydalangan holatda avtomatik tarzda gapning matematik modeli yaratiladi va chop etiladi (faylda saqlanadi).

8. 2 – 7 qadamlar, kiritilgan matn to'liq tahlil bo'lguncha takrorlanadi.

Gaplarning tarjimasini funksional diogramasi(1-rasm).



1-rasm Ushbu rasmda: EVX – tahlil jarayoni uchun kirish matni (turk tilidagi gap); E1 – darak gaplar; E2 – so'roq gaplar; E3 – undov gaplar; E4 – inkor gaplar; T2 – tarjima qilinishi kerak bo'lgan turk tilidagi so'zlar to'plami; T3 – tarjima qilinishi kerak bo'lgan so'zlar to'plami (o'zbek tilidagi); EVIX – tarjima qilingan gaplar konstruktsiyalari (o'zbek tilidagi matn).²

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlik asosida T2 – tarjima qilingan so'zning qiymatiga ko'ra so'zlar so'zlar to'plami (turk tilidagi) va T3 – tarjima qilinishi kerak bo'lgan so'zlar to'plami (o'zbek tilidagi) o'rtasida bog'liqlik to'g'ri bo'lishi aks holda tanlanishda muammo yuzaga kelishi mumkin. Bu muammoni xal qilish uchun T2 va T3da to'plangan gap turlari (E1, E2, E3, E4), ya'ni darak, so'roq, undov, inkor gaplarning o'z vaznlarini aniqlash kerak bo'ladi.³

²M.X. Hakimov "Технология многоязыкового моделируемого компьютерного переводчика" Toshkent – 2019.156 bet

³A.A. OMONOV "Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro an'anaviy onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 16-may, 2022-y. 101-105 bet

Bunda xar bir gap turida ishtirok etgan so'zlar so'z turkumlari bo'yicha quyidagicha raqamlanadi (ikki til turkey tillar oilasiga kirgani uchun turk tilida so'zlarning so'z turkumlariga bo'linishi o'zbek tilidagi so'zlarning so'z turkumlariga ko'p farq qilmasligi mumkin, lekin boshqa tillarnikidan farq qilishi exitmoli katta, shu



sababli, so'zlarning so'z turkumlarga bo'linishi boshqa tillardagi so'z turkumlariga mos kelishi uchun so'z turlari ishlatilishi yoki miqdorini hisobga olgan xolda tartiblandi):

Mustaqil so'z turkumlarining no'merlanishi quyidagicha:

- ❖ ot so'z turkumiga tegishli so'zlar(C) – 0,1;
- ❖ sifat so'z turkumiga tegishli so'zlar(P) – 0,2;
- ❖ fe'l so'z turkumiga tegishli so'zlar(G) – 0,3;
- ❖ ravish so'z turkumiga tegishli so'zlar(N) – 0,4;
- ❖ olmosh so'z turkumiga tegishli so'zlar(M) – 0,5;
- ❖ son so'z turkumiga tegishli so'zlar(F) – 0,6;
- ❖ mustaqil bo'lmagan so'z turkumlariga (ya'ni, yordamchi so'z turkumlari)

boshqa so'z turkumlari(U, D, Y, L) – 0,07.

Shu asosida so'z turlarining raqamlanishi ikki tilning vaznini hisoblashga ko'maklashadi. Masalan:

1-jadval

| | | | | | | | |
|-----|-------|------|-----|-------|----------|----|-------|
| Ben | şimdi | Evde | Iyi | kitap | okuyorum | . | jami: |
| M | N | C | P | C | G | E1 | |
| 0,5 | 0,4 | 0,1 | 0,2 | 0,1 | 0,3 | | 1,6 |

Yuqoridagi 1-jadvalda turk tilidagi darak gap bo'lib, uning gapdagi raqamlar yig'indisi 1,6 ni tashkil etdi va shu gapning turk tilidagi vazni hisoblanadi.

Anashu T2 chiqish tilidagi gap vazni T3–chiqish tilida mavjudligini, o'zbek tilidagi gaplarning matematik modellari orasidan ushbu vaznga mos keladigan vazn tanlanib shu asosida tarjima qilinadi. 2-jadval

2-jadval

| | | | | | | | |
|-----|-------|------|--------|-------|------------|----|-------|
| Men | hozir | Uyda | Yaxshi | kitob | O'qiyapman | . | jami: |
| M | N | C | P | C | G | E1 | |
| 0,5 | 0,4 | 0,1 | 0,2 | 0,1 | 0,3 | | 1,6 |

Tatqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilayotganda gapning matematik modeli va vazni unchalik farq qilmaydi ekan. Ayrim hollarda yani turk tilidagi so'zlarning boshqa bog'lovchi so'zlarga bog'lanib kelganda ozgina farq qildi. Masalan:

3-jadval

| | | | |
|-----------|--------|--|------|
| Turk tili | | | jami |
| Kitapla | Defter | | |
| C | C | | |
| 0.1 | 0.1 | | |

4-jadval

| | | | |
|-------------|-------|--------|------|
| O'zbek tili | | | |
| kitob | Bilan | Daftar | jami |
| C | Y | C | |



| | | | |
|-----|------|-----|------|
| 0.1 | 0.07 | 0.1 | 0.27 |
|-----|------|-----|------|

Ushbu jadvallarda vazn natijalar 0.07 farq qilmoqda, ya'ni turk tilidagi "kitapla" so'zi o'zbek tilida "kitob bilan" deb tarjima qilinadi bu esa gapning vazniga tasir qiladi. Bunday so'zlar ko'p emas.

Ikki tilning matematik modeli ham uncha katta farq qilmaydi. Shu asosida turk tilidan kelgan gap modeli o'zbek tilidagi topilgan matematik modellar orasidan topilmasa, u holda o'sha turk tilidan kelgan modelni o'zbek tiliga yangi model deb taniydi va shu asosida vazn hisoblanadi. Masalan:

5-jadvaldagi turk tilidagi gapning matematik modeli quyidagicha tuziladi.

5-jadval

| Ben | Şimdi | Evde | Iyi | kitap | Okuyor um |
|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| $\frac{1}{h27}M[h38]$ | $\frac{1}{h28}N[h39]$ | $\frac{1}{h41}C[h40]$ | $\frac{1}{h45}P[h44]$ | $\frac{1}{h41}C[h40]$ | $\frac{1}{h43}G[h42]$ |
| 0,5 | 0,4 | 0,1 | 0,2 | 0,1 | 0,3 |

Endi 6-jadvalda yuqoridagi jadvaldagi darak gapning turk tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingandagi so'zma so'z matematik modeli quyidagicha tuziladi.

6-jadval

| Men | Hozir | Uyda | yaxshi | kitob | O'qiyap man |
|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|-----------------------|
| $\frac{1}{h27}M[h38]$ | $\frac{1}{h28}N[h39]$ | $\frac{1}{h41}C[h40]$ | $\frac{1}{h45}P[h44]$ | $\frac{1}{h41}C[h40]$ | $\frac{1}{h43}G[h42]$ |
| 0,5 | 0,4 | 0,1 | 0,2 | 0,1 | 0,3 |

Ko'rib turganizdek modellar farq qilmadi. Lekin yuqorida aytib o'tganimdek hardoimo emas.

Tarjima jarayonida eng muxim jihatlardan biri ikki tilning qo'shimchalarini topish va qaysi tildan tarjima qilinadigan bo'lsa o'sha tilning (turk tili) qo'shimchalarini boshqa tilga tarjima qilinadigan qo'shimcha o'zaro mos bo'lishi kerak. Sababi turk tilida kelgan qo'shimcha o'zbek tilidagi qo'shimchalar bazasida bo'lmasa tarjima xato chiqadi. Bu narsa so'zlarga ham bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хакимов М.Х. Технология многоязыкового моделируемого компьютерного переводчика (Технология ММКП) // LAMBERT Academic Publishing, Монография, г. Рига, 2019. - С. 156.

2. Khakimov M. Kh., Sirojiddinov Z. Sh. Computer algorithmization in multi-language modelled translator technology // Modern problems of applied mathematics and information technologies al-Khwarizmi, 2021. – P. 23



3. Khakimov M. Kh., Omonov A. A. Computer algorithmization of models of english sentences in translator system // Modern problems of applied mathematics and information technologies al-Khwarizmi, 2021. – P. 22

4. A.A. OMONOV “Kompyuter lingvistikasi: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro an’anaviy onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 16-may, 2022-y. 101-105 bet



HARBIY OILALARDA NIZOLARNI NOMOYON BO'LISHINING IJTIMOYIY - PSIXOLOGIK OMILLARI

Mirzasoliyev Jaxongir Mirzasoipovich

Harbiy qism xizmatchisi

Annotatsiya: *Oilaviy muammolar - bu ikki yoki undan ortiq tomonlar bir-biriga mos kelmaydigan deb qabul qilingan yoki ifodalangan holatlar. Ular muntazam ravishda kundalik hayotimizning turli sohalarida paydo bo'lishi mumkin va agar ular to'g'ri muomala qilinsa, o'zgarishlarga va yangi munosabatlarga erishish uchun ijobiy bo'lishlari mumkin.*

Kalit so'zlar: *jamiyat, er-xotin, janjal, oiladagi nizolar, erkinlik, kechirimlilik.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФИЛАКТИКИ КОНФЛИКТОВ В СЕМЬЯХ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Мирзасолиев Джахангир Мирзасоипович

военнослужащий воинской части

Аннотация: *Семейные проблемы — это ситуации, в которых две или более сторон воспринимаются или выражаются как несовместимые. Они могут регулярно появляться в различных сферах нашей повседневной жизни, и если с ними правильно обращаться, они могут быть положительными для достижения изменений и новых отношений.*

Ключевые слова: *общество, пара, ссора, семейный конфликт, свобода, прощение.*

SOCIAL - PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE PREVENTION OF CONFLICTS IN MILITARY FAMILIES

Mirzasoliev Jakhongir Mirzasoipovich

military unit attendant

Abstract: *Family problems are situations in which two or more parties are perceived or expressed as incompatible. They can regularly appear in different areas of our daily lives and if they are treated properly, they can be positive for change and new relationships.*

Keywords: *society, couple, quarrels, family conflicts, freedom, forgiveness.*



KIRISH

Harbiy psixologiya harbiy xizmatchi va harbiy jamoalar ichki olami, ruhiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, ofitser faoliyati bilan bevosita bog'liq. Shuni aytib o'tish kerakki, harbiy psixologiya nazariyadan ko'ra amaliyotga yaqinroq, ya'ni harbiy xizmatchi o'z faoliyatida to'qnash keladigan muammolarni tahlil qilishga va hal etishga yo'naltirilgan. Ofitserlik faoliyatini psixologik jihatdan samarali tashkil qilish uchun bir qator talablarga javob berish kerak. Bu talablar harbiy jamoalarning ichki qonuni bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlarda o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra har bir komandir (ofitser) o'z qo'lostidagi harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlarini, Shuningdek, harbiy jamoada kechadigan ijtimoiy-psixologik hodisalarni bilishi va ularni boshqara olishi lozim.

Harbiy xizmatchining qanday oilada voyaga yetganligi ham muhim ahamiyatga ega: - to'la qonli oila yoki muammoli oila. - ushbu oilada yoki qarindoshlar orasida suitsid sodir etilganmi yoki yo'qmi? Bu ham katta ahamiyatga ega. Xizmat jarayonida harbiy xizmatchilarga qo'yiladigan jismoniy va ruhiy yuklamani asta-sekin oshirib borish lozim.

Shaxs ijtimoiy hayotning mahsuli ekan, u albatta bolani urab olgan muhit ta'sirida rivojlanadi. Shaxsning hayoti faoliyati davomida muhit unga yo'ijobiy, yo'salbiy ta'sir ko'rsatadi, rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Muhit bu shaxsga ta'sir etuvchi tashqi voqea va hodisalar kompleksidir. Bular: tabiiy muhit (gegrafik, ekologik), ijtimoiy muhit (shaxs yashayotgan jamiyat), oila muhiti va boshqalar kiradi. Bular orasida ijtimoiy muhitning, ya'ni shaxs yashayotgan jamiyatning inson kamoloti uchun yaratilgan imkoniyatlari muhim rol o'ynaydi. Barkamol avlod birdangina paydo bo'lmaydi. U oiladan boshlanadi. Oiladagi iqlim farzandlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Oila bilan birga xalq ta'limi tizimida ham tarbiya mazmunini yangilash, ya'ni ijtimoiy muhit sharoitida rivojlantirish zarur.

ASOSIY QISM

Oilaviy nizolar turlari

1. Er-xotin o'rtasidagi.
2. Qynona-kelin o'rtasidagi.
3. Qaynona-kuyov o'rtasidagi.
4. Ovsinlar o'rtasidagi.
5. Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Oilaviy nizolarda kimlar ishtirok etayotganiga ko'ra ularni quyidagicha asosiy turlarga ajratish mumkin:

- er-xotin o'rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar;



- qaynona-kuyov o'rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o'rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi nizolar.

Albatta, bu ro'yxatni yanada davom ettiraverish mumkin, lekin biz hozircha shu yuqorida keltirilganlar bilangina kifoyalaniib, oilaviy hayotda ro'y berish ehtimoli nisbatan yuqori bo'lgan nizolarning eng asosiysi bo'lmish er-xotin o'rtasidagi nizolarning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Umuman oilada er-xotin o'rtasidagi nizolarning yuzaga kelishi va rivojlanishi taxminan quyida keltirilgan sxemadagidek bo'lishi mumkin. Afsuski, barcha oila ham ota-ona va ular dunyoga keltirgan farzandlar bilan to'liq bo'lavermaydi. Taqdir taqozosi bilan ayrim oilalarda nizolar kelib chiqadi va uning oqibati sifatida nikoh barbod bo'ladi. Olimlar nikohning barbod bo'lishini o'rganib, uning sabablari turlicha bo'lishi mumkinligi to'g'risida o'z nazariy qarashlarini bayon etganlar. Masalan, ayrim psixologlar ajrimlarni "turtki" kontseptsiyasi orqali tushuntirishga urinadilar. Ya'ni, yaxshi tinch-totuv yashayotgan oilada birdan shunday holat yuz beradiki, masalan, xiyonat, o'lim, xastalik, rashk va shunga o'xshash voqealar turki bo'ldiyu, oila ustuni qulaydi. Aslida hayotda qo'qqisdan shunday bir silkinish yoki turtki bilan oila birdan buzilib ketishi kam uchraydi.

Psixologlar oilaviy janjallarni normal holat deb bilishadi. Qarama-qarshiliklar tufayli er-xotinlar bir-birlarini yomon ko'rishni boshlaydilar, hatto undan ham ko'proq ajralishadi. Shuning uchun har doim paydo bo'ladigan oiladagi nizolarni qanday hal qilish masalasi juda muhim bo'lib qoladi. Odamlar janjallashishi tabiiy, ayniqsa bu odamlar turmush o'rtog'i va mehribon sherik bo'lsa. Sizning munosabatlaringizda hech qachon janjal bo'lmaydi deb umid qilish ahmoqlikdir, chunki dunyoda bir xil ikkita odam yo'q. Siz qanchalik yaqin va sevikli bo'lishingizdan qat'iy nazar, har doim sizning fikringiz sherikingiz bilan mos kelmaydigan savollar mavjud. Odamlar odatda bahsli masalalarni qanday hal qilishadi? Ular qichqiradi, tanqid qiladi, qoralaydi, janjal qiladi, hatto idishlarni sindirib, yugurib keladi. Hech kimga sir emaski, muammolarni hal qilishning bunday usullari nafaqat sevuvchilarning munosabatlarida iz qoldiradi. Biroq, odamlar ba'zi bir tushunchalar bo'yicha kelisha olmasalar, hamma qichqiradi va qichqiradi. Ammo bitta haqiqatni yodda tutish kerak: qichqirganni eshitish mumkin emas! Shuning uchun janjal va qichqiriqdan so'ng, sheriklar bir-birlari bilan tinch ohangda muloqot qilishni boshlamaguncha, muammo hal qilinmaydi. Oiladagi nizolarning turlari. Nizolarning eng keng tarqalgan tasnifi:

1. Konstruktiv to'qnashuvlar. Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala uzumchiga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo'ladimi, natijasi doimo gullab yashnaydi.

2. Yomon nizolar. Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan



qoniqish hisini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi.

Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin. Oilaviy mojaro yuzaga kelishining sabablari bor ko'p miqdorda, chunki nikoh nafaqat qo'shma uyni saqlash va farzand ko'rish, balki ularning istaklarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish va baxtli yashash istagini ham o'z ichiga oladi. Erkak va ayol turmush qurishni davom ettirish orqali hayotlarini yaxshilashni xohlaydigan odamlar bo'lib qolmoqdalar. Oila nizolarini hal qilish usullari. Oiladagi nizolarni hal etishning ko'pgina samarasiz usullari mavjud, ulardan foydalanish nafaqat sizning qimmatbaho vaqtni olib tashlashi mumkin, balki oiladagi mojaroni yanada kuchaytirishi mumkin. Oilangizdagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun oilaviy psixologlardan yordam so'rang va oilangizga qo'shnilar, tanishlar yoki ota-onalarning maslahatini tekshirmang. Oilada hech qanday qarama-qarshiliklar mavjud emas, chunki oila munosabatlarining o'ziga xos jihati shundaki, qarama-qarshi jinsdagi odamlar butunlay boshqacha hayotiy hikoyalar va turli xil tarbiya bilan uylanadi va ayni paytda ular bir-birlari bilan bir-birining tagida bo'lishlari kerak. Bu holatda bajarilishi mumkin bo'lgan barcha narsalar oiladagi nizolarning oldini olishdir. Oiladagi nizolarni hal qilish uchun siz tushunishga intilishingiz kerak. Agar ikkala turmush o'rtog'i bir-birlarini eshitishga harakat qilsalar, unda murosaga kelish mumkin. Bu yerda g'alaba qozonishning hojati yo'q, chunki g'alaba yutqazishni taxmin qiladi. Ittifoq - bu qul va xo'jayin emas, ikki teng sherikning birlashmasi. Ikki turmush o'rtoq o'zaro munosabatlarda qulay bo'lishi kerak, natijada kimdirning xohish-istaklari amalga oshmagani sababli nikoh ittifoqi buzilmaydi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo'lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o'z-o'zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo'rqinchli bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. Muammoni hal qilish, g'alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni yechimi bo'lib qolmasligi kerak.

Inson dunyoga kelgach, oila-uning birinchi tarbiya o'chog'i, ota-ona esa-eng birinchi tarbiyachilari bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun har bir ota-ona tarbiya jarayonidan o'zi xabardor bo'lishi kerak. Oilalar bilan yaqindan muloqotda bo'lishi, ularning ma'naviyati darajasini bilishi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan, ayollarni sog'lig'idan doimo boxabar bo'lish bu eng avvalo xotin-qizlar qo'mitalari, mahalla fuqarolar yig'inlari, yoshlar tashkilotlarining asosiy vazifalaridir. 202 Oila bolani axloqiy tarbiyalash, uning ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini shakllantirishning muhim



omilidir. Oila bola tarbiya oladigan eng birinchi jamoa bo'lib, bola unda axloqiy qoidalar, urf-odatlarini bilib oladi, dastlabki axloqiy-hayotiy tajriba ortiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T, 2002
2. Guruhda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy yo'nalishlari.
3. Metodicheskie rekomendatsii po organizatsii pravovoy raboti VS RU. T., 1997.
4. Povishat effektivnost vospitatelnoy raboti (uchebno-metodicheskoe posobie). T., 2000 .
5. Nasriddinov Ch.R. Harbiy psixologiya.T., 2004.
6. Sotiboldiev. A, Karimjonov A. Harbiy pedagogika. T., 2005
7. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Umumharbiy Nizomlari. T., 1996.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004 yilgi, 170-sonli qarori. T, 2004



OILA LEKSEMASI ASSOTSIATIV MAYDONINING YADRO VA CHEGARA QISM BIRLIKLARI NISBATI.

Hayotxon Mansurbek qizi Sotimova

Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila leksemasi assotsiativ maydonining yadro va chegara qismlari, yadro qismining yuqori chastotali birliklari va ularning tahlili, chegara qism birliklari, uzoq hamda yaqin chegara leksemalar va ularning nisbati xususida fikr yuritimiz.*

Kalit so'zlar: *assotsiativ maydon, yadro, yuqori chastota, semantik-mantiqiy bog'lanish, chegara.*

Abstract: *In this article, we will think about the core and border parts of the family lexeme associative field, high frequency units of the core part and their analysis, border part units, far and near border lexemes and their ratio.*

Key words: *associative field, core, high frequency, semantic-logical connection, border.*

KIRISH. Assotsiativ maydon tildagi boshqa maydon ko'rinishlari kabi yadro va chegara qismlaridan tashkil topadi. Oila leksemasining assotsiativ maydonida yadro va chegara qismlarda joylashgan birliklar farqlanadi. Assotsiativ maydonning yadro qismida yuqori chastotali, ya'ni til egalari tomonidan 2 martadan ortiq takrorlangan javob reaksiyalari joylashadi. Qayd etilishicha, bunday birliklar "assotsiativ-verbal tarmoqda eng ko'p assotsiativ bog'lanishlarni xosil qiladi. Shu bois ularning bir vaqtda boshqa assotsiativ maydonlardan ham o'rin olishi kuzatiladi. Maydon yadro'sidan o'rin oluvchi birliklar til egalarining voqelik haqida universal bilimlarga egaligidan dalolat beradi".¹⁹³

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Shuningdek, yadro birliklarining inson tomonidan yoshlik davridayoq o'zlashtirilishi, yuqori darajadagi aniqligi, emotsionalligi, obrazliligi, bazaviy darajadagi muloqotning qandaydir kategoriyalarga mansubligi kabi xarakterli jihatlari ham ulardan o'ta mavhum, ko'p ma'noli, shu bilan birga, noma'lum so'zlarni bir xillashtirish jarayonida asosiy element sifatida foydalanishda qulayligini ko'rsatadi.¹⁹⁴ Anglashiladiki, oila leksemasining assotsiativ maydon yadro'sini belgilashda assotsiativlikning qo'llanish chastotasi eng muhim omil hisoblanadi.

Quyida biz assotsiativ tajriba materiallaridan foydalanib oila leksemasining assotsiativ maydoni yadro va chegara qismlari birliklariga tavsif beramiz, ularning

¹⁹³ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 60.

¹⁹⁴ Золотова Н.О. Ядро лексикона человека как феномен языкового сознания // Языковое сознание: содержание и функционирование. XIII Международный симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. – М., 2000. – С. 94.



statistik tahlili orqali assotsiativ maydonda yadro va chegara qismlar nisbatini aniqlaymiz.

NATIJALAR. *Oila* leksemasi assotsiativ maydoni yadro qismida quyidagi birliklar o'rin olgan.

OILA-ota 21; ona 21; baxt 15; farzand 10; uy 9; sevgi-muhabbat 9; mehr 8; sog'lik 8; turmush o'rtoq-er 7; opa 7; tinchlik 7; singil 6; aka 6; uka 6; quvonch-shodlik 6; hotirjamlik 6; qarindoshlar 5; aka-uka 4; ishonch4; g'amxo'rlik 4; kulgu 4; qaynona-qaynota 3; hurmat 3; tashvish 3; bobo-buvi 3; maktab 3; omad 2; kelinoyi 2; do'st 2; jiyanlar2; ahillik2; velosiped2; mushuk2; ro'zg'or2; farzand tarbiyasi2; sadoqat2; pul-boylik2; e'tibor2; tarbiya2; to'y2; halovat 2;

Assotsiativ maydon yadro'sidan o'rin olgan ushbu birliklar umumiy birliklarning 57,8 foizini tashkil qiladi. Ular yuqori chastotali bo'lganligi sababli assotsiativ me'yorni shakllantiruvchi birliklar safidan o'rin oladi. Ushbu birliklar qo'llanish chastotasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. *Oila* leksemasining assotsiativ maydon yadro'sining markazida *ota* va *ona* leksemasi joylashgan bo'lib, ular sinaluvchilarning 21 tasida teng nisbatta takror kelgan. Bu holatdan ko'rinadiki o'zbek tili egalarining *oila* haqidagi bilimlari, har bir insonning dunyoga kelishiga sababchi bo'lgan muqaddas shaxslar ko'rinishida tasavvur qilishlari bilan bog'liq.

Oila deb ataluvchi mustahkam qo'rg'onning ustuni *ota* bo'lsa, unga fayz kirituvchi onadir. *Oila* farovonligida *ota* va onaning moddiy va ma'naviy hissasi teng. Ona bolalarga g'amxo'rlik va insoniylikni o'rgatsa, *ota* iroda va o'z nuqtayi nazarini himoya qilish, kurashish va g'alaba qozonish qobiliyatlarini o'rgatadi. Assotsiativ

maydon yadro'sining yuqori chastotali yana bir birligi *baxt* leksemasi bo'lib, 15 ta sinaluvchi tomonidan takror qayd etilgan. Til egalarining xotirasida *oila* turtki so'ziga nisbatan *baxt* leksemasining tiklanishi bejiz emas. Chunki, *oila* haqidagi assosiy tushunchalar *baxt* leksemasi bilan bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Inson faqat o'z oilasidagina baxtli bo'la oladi. Baxtning Vatani qayer degan savolga biz hech ikkilanmasdan *oila* deya javob bera olamiz. Oiladagi baxt-bu hissiy faravonlik. Faqat oilamizda bizga baxtni *ota-onamiz* yoki *buvi-bobomiz* kabi yaqinlarimiz, evaziga hech narsa so'ramasdan berishlari mumkin. Shu bois *oila* so'ziga nisbatan o'zbek tili egalarining lisoniy xotirasida *baxt* leksemasining tiklanishi kuzatiladi.

Umuman assotsiativ maydon yadrosidan o'rin olgan birliklar *oila* turki so'zi bilan bevosita aloqador bo'lib, u bilan assotsiativ bog'lanishni hosil qilganligi kuzatiladi.

MUHOKAMA. *Oila* leksemasi assotsiativ maydoni chegara qismidan yakka tarzdagi javob reaksiyalari o'rin oladi. Yakka tarzdagi assotsiativ birliklarni *oila* turtki so'zi bilan semantik-mantiqiy jihatdan qay darajada bog'lanishiga ko'ra quyidagi turlarga ajratamiz:

- 1) assotsiativ maydon yadrosiga yaqin chegara qism birliklari;
- 2) assotsiativ maydon yadrosiga uzoq chegara qism birliklari.

Rus tilshunos olimi B. Abramov assotsiativ tajriba natijalariga asoslanib, qoida tariqasida yaqin chegaradagi assotsiativ birliklarda semantik aloqa, uzoq chegaradagi



assotsiativ birliklarda esa paradigmatic aloqa yuzaga chiqishini qayd etadi.¹⁹⁵ Bizningcha esa, stimul so'z bilan semantik-mantiqiy bog'lanish kuchi javob reaksiyalarining yaqin yoki uzoq chegarada o'rin olishini belgilaydi. Chunki, yaqin chegarada joylashgan javob reaksiyasi ham stimul so'z bilan paradigmatic munosabatga kirisha oladi. Masalan, *oila* turtki so'zi bilan assotsiativ maydonning yaqin chegarasidan o'rin olgan *amaki, pochcha, amma, xola, doyi* singari birliklar qarindoshlikni bildirishiga ko'ra *oila* so'zi bilan umumiy paradigmada birlashadi. Shunday qilib, yaqin va uzoq chegaradagi birliklarni belgilashda ularning turtki so'z bilan semantik-mantiqiy bog'lanish kuchi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Assatsiatlarning stimul so'zga ma'noviy jihatdan kuchliroq bog'langanligi uning yaqin chegaradan o'rin olishini belgilaydi. Ularning semantik-mantiqiy bog'lanishi qanchalik kuchsiz bo'lsa uzoq chegarada joylashadi.


Oila leksemasining assotsiativ maydoni yaqin chegarasidagi birliklar umumiy assotsiativ maydonning 23 foizini tashkil qiladi. Ularga quyidagi javob reaksiyalarini kiritishimiz mumkin. *vafo, ko'cha, ayvonimiz, sarf-harajatlar, mojarolar, inoqlikda, ahil yashash, oila davrasi, oilang hamma narsang, ayolim, buyuk bir imperiya, oilang tinch-sen tinch, turmush qurish, farzand ko'rish, ota-ona bo'lish, juftini tushunish, apkalarim, hamjihatlik, qadr, oqibat, tug'ilgan kunlar, xursandchilik, baxt maskani, amaki, pochcha, amma, xola, doyi, oilaviy tadbirlar, ikki bir-biriga mos juftlik, mustahkamlik, rashk, yorug' kelajak, hayot, tarbiya, to'kinlik, olam-olam quvonch, jamiyatning bir bo'lagi, nasl qoldirish, quvonch ulashuvchi dargoh, kichik Vatan, o'zingni erkin his qila oladigan maskan, buyuk dargoh, inoqlik, mehribonlik, bir butunlik, birdamlik, bir-birini qo'llab quvvatlash, bir-birini tushunish, suyukli yorim borligi, hotirjam choy ichadigan dargoh, issiq chehrali yaqinlarim, hamisha birga bo'lish, oila davrasi, sevimli insonim, qayn uka, samimiylilik, baxtli va quvonchli onlar, ukam va opam bilan bo'lgan janjallar, sirdoshim, oila-baxt, yaqinlaim, ikki farzand, o'g'il, qiz, sudralib yuruvchilar oilasi, qishlog'im, jamiyat, nikoh, turmush, bolalik, nikoh to'yi, irsiyat, ota-onam mehri, oila boshlig'i, ta'minot, oila budjeti, oilaparvar, qarindoshlar jamoasi, bolam-chaqam, uyim-joyim deyish, er-xotin. onamning uylari, farzandimning tili chiqishi, uyimning oldi, birdamlik, til oilasi.*

Chekka chegara: *mehnat, mashinamiz, dasturxon, tashkil, yangi yil bayrami, gullarimiz, mojarolar, o'z gappini o'tkaza bilish, ishbilarmonlik, yordam, sir, muruvvat, sabr, sabrlilik, janjal, ovqat, qozon-tovoq, yaxshi narsalar, mas'ulyatlilik, kursdoshlarim, litseydagi sinfdoshlarim, ishdagi hamkasblarim, bog'cha bollarim, lagerdagi o'quvchilarim, ba'zi yoqimli muammolar, bog'cha, bog', ekin, kartoshka, pomidor, bug'doy, un, non, g'ilmindi, jurnallar, gilos, qiyinchilik, tushunmovchilik, og'riqlar, bepisandlik, hovlidagi arg'imchoq, kuchugim, o'rik daraxtimiz, eski oyoq kiyimim, opam va mening jingalak sochli qo'g'irchog'imiz, ro'molim, qo'ng'izchalarim tilla rangdagi, kopto'gim, onamning ko'ylaklari, oyoq kiyimlari, o'qituvchi, sayohat, xorij, kitob, niyat, ish, palov, manti, qatig, issiq non, bulochka, saranjom-sarishta, tuzlama bankalarim,*

¹⁹⁵ Абрамов В. Теория ассоциативного поля // <https://studfile.net/preview/4513363>



oshxona, beshik, yig'i, qonun-qoida, yoz fasli, supacha, teraklar, vannaxonam, yolg'izlik, sichqon, tartib-intizom.



Qayd etilgan ushbu birliklar assotsiativ maydonning uzoq chegara qismidan o'rin olsa-da, *oila* leksemasi bilan mantiqiy-semantik jihatdan aloqasi butunlay uzilgan emas. Yuqoridagi birliklarning ayrimlariga izoh berib o'tamiz.

Oila leksemasi berilgan *dasturxon, tashkil, yangi yil bayrami* javob reaksiyasining turtki so'z bilan mantiqiy-semantik aloqasini quyidagicha izohlash mumkin: Bayram, ziyofat kunlari butun oila bir joyga jamlanadi, dasturxon yozilib birga xursandchilik qilishadi. Bu holat til egalari xotirasida *oila* turtki so'ziga nisbatan *dasturxon, tashkil, yangi yil bayrami* javob reaksiyalarining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Ushbu omil *dasturxon, tashkil, yangi yil bayrami* javob reaksiyalarining *oila* turtki so'zi bilan mantiqiy-semantik jihatdan aloqasini ta'minlaydi.

Oila leksemasiga nisbatan *palov, manti, qatiq, issiq non* singari oziq-ovqat mahsulotlarining qayd etilishini bularning bari oilaviy taomligi bilan bog'lash mumkin. Ma'lumki, o'zbek oilalarining milliy taomi bu-palov. Dono xalqimiz tomonidan "mehmon kelsa, pastga tush, palov bermoq ahdga tush" maqoli ham bejizga yaratilmagan. U o'zbeklarning oilaviy an'analariga borib taqaladi.

XULOSA. Umuman, chekka chegaradan o'rin olgan boshqa javob reaksiyalarining ham *oila* so'zi bilan mantiqiy-semantik aloqasi sezilib turadi. Bu sinaluvchilarning har birining oila haqidagi individual qarashlari va tasavvurlari bilan bog'liq.

Xulosa shuki, oila leksemasi avvallambor til egalari onggida o'zbek oilasiga hos milliy-madaniy tushunchalarni ifodalab kelgan. Buni o'zbek tilidagi oila leksemasi assotsiativ maydonining yaqin va uzoq chegarasidan o'rin olgan *vafu, hotirjam choy ichadigan dargoh, nikoh, bolam-chaqam, uyim-joyim deyish, tandir non, ro'molim, palov, beshik* singari birliklarda kuzatishimiz mumkin.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абрамов В. Теория ассоциативного поля // <https://studfile.net/preview/4513363>
2. Золотова Н.О. Ядро лексикона человека как феномен языкового сознания // Языковое сознание: содержание и функционирование. XIII Международный симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. – М., 2000. - С. 94.
3. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 140.



AVTOMOBILLAR VA ULARDAN CHIQUADIGAN CHIQUINDILARNING ATROF- MUHITGA VA INSONLARGA SALBIY OQIBATLARI.

Bahodirov G'iyosbek Murodjon o'g'li

AndMI magistrant

E-mail: giyosbekbahodirov1998@mail.ru tel: +998916930598

Maxmudov Xayrullo Xasanjon o'g'li

*AndMI "Avtomobilsozlik" kafedrasi assistenti E-mail: hayrullo303@mail.ru tel:
+998903030038*

Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shahri, O'zbekiston.

N.Karimxodjayev

*t.f.n., AndMI "Avtomobilsozlik" kafedrasi dotsenti E-mail: knazirjon@mail.ru tel:
+998996445012 Andijon mashinasozlik instituti, Andijon shahri, O'zbekiston*

Annotatsiya: *Maqolada avtomobil transportining tabiatga va insonlarga salbiy ta'sirlari va ularning oqibatlari tahlil qilingan. Zararli ta'sirlarini kamaytirish bo'yicha takliflar va xulosalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Avtomobil transporti, atrof-muhit, chiqindi gazlar, azot oksidi, uglevodorodlar, uglerod oksidi, qurum, avtomobil dvigateli, benzin, shovqin.*

Kirish

Bugungi kundan kunga rivojlanayotgan davrimizning eng katta muammolaridan biri – tabiatning ifloslanishidir. Insonlar o'zlari bilib, bilmagan holda tabiatga katta zarar keltirmoqdalar. Har yili ko'plab insonlar avtomobillardan chiqadigan chiqindi va gazlar bilan bog'liq kasalliklar, shuningdek ularning shovqinlardan aziyat chekmoqdalar. Bugungi kunda bu jarayon har bir mamlakatga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Achinarlisi, bunday o'zgarishlar O'zbekistonda ham mavjud.

Asosiy qism

Transport majmuasi atrof-muhitning eng katta ifloslantiruvchi vositasidir. Mamlakat miqyosida barcha manbalardan atmosferaga ifloslantiruvchi moddalarning umumiy chiqindilarida transportning ulushi 45% ga (shaharlarda - 85-95%), "iqlim" gazlarining emissiyasida-10% ga etadi. Shahar aholisining shovqin ta'sirida transportning ulushi 85-95%[1].Har qanday yonilg'ini yoqqanda, har xil yonish chiqindilari ajralib chiqadi. Bu chiqindilar kishi salomatligiga va atrof muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Shahardagi zavodlar, fabrikalar va avtotransport korxonalarini atrof muhitni ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Agarda zavod va fabrikalar bir aniq joyda joylashib, shu yerni ifloslantirsa, avtomobillar esa qayerda ishlasa o'sha yerda ta'sir ko'rsatadi. Avtomobil transporti, hozirgi vaqtda zavod va fabrikalarga qaraganda, atrof muhitni ko'proq ifloslantiruvchi hisoblanmoqda. Keyingi 50 yil mobaynida dunyo bo'yicha avtoparklar soni 12 martagacha oshdi, avtomobillar soni 1 milyarddan oshib ketdi. Hozirgi kunda dunyo miqyosida avtomobildan foydalanayotgan aholi sonining



avtomobilga bo'lgan nisbati 1:7 ni tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda Kanada, Germaniya, Italiya, Fransiya, Buyuk Britaniyada 1000 ta aholiga 500-700 dona avtomobil, AQShda 800 ta, Rossiyada 400 ta to'g'ri keladi[2].

Hozirgi davrdagi eng katta muammo avtomobilni ishlatishdan chiqadigan zaxarli chiqindilarning miqdorini kamaytirishdan iboratdir. Avtomobil chiqaradigan asosiy zaxarli chiqindilar, yonilg'i yonishidan hosil bo'ladigan gazlarda 200 dan ortiq zaxarli chiqindilar borligi aniqlandi. Eng zaxarlilariga: uglerod oksidi-SO, yonmay qolgan uglevodorodlar - SN, azot oksidi - NO lar kiradi. Bu chiqindilarga, ko'pgina mamlakatlar tomonidan ruxsat etish me'yorlari joriy qilingan. Mamlakatimizda yonilg'ini yonishidan chiqadigan chiqindilarni me'yorlash BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi tomonidan chiqarilgan ko'rsatmasiga asosan 1970-yili joriy qilindi. (YEEKOON).

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki 1 ta avtomobil 1 soatlik ish jarayonida 50-70 m³ chiqindi gazlarni hosil qiladi va ularning tarkibida 200 dan ortiq zaxarli kimyoviy birikmalar mavjud (uglerod oksidi, azot oksidi, uglevodorodlar, aldegidlar, ikki oksidli uglerod, oltingugurt gazi, qurum, qo'rg'oshin birikmalari, benzopirin va hokazo). Jahonda avtomobillar yiliga 2,1 milliard tonna yonilg'i ishlatadi va atmosferaga 700 mln tonna atrofida zaxarli moddalar chiqarishi, shu jumladan 420 mln tonna CO, 170 mln tonna C_xH_y, 60 mln tonna NO_x, 17 mln tonna qurum va 0,6 mln tonna qo'rg'oshin (bir dona o'rtastatistik avtomobil uchun yiliga o'rtacha 1,3 tonna chiqindi to'g'ri kelidi)[3-4].

Chiqindi gazlar ichida zararsiz mahsulotlar ham bor: kislorod, karbonat angidrid, azot, oltingugurt. Ammo azot yuqori haroratda va bosim ostida oksid hosil qiladi, bu oksid juda katta zaxarli kuchga egadir. Chiqindi gazlarning tarkibidagi zaxarli mahsulotlar ko'pgina sablarga ko'ra hamma vaqt ham bir xil hajmda bo'lmaydi. Bu dvigatellar turiga, ishlash rejimi, qanday sozlanganligi, dvigatelni texnik qarovi va yonilg'ining sifatiga bog'liq bo'ladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, inson bir sutkada o'rtacha 1,5 kilogramm oziq-ovqat, 2,5 litr suv iste'mol qiladi. Odam o'pkasi esa bir sutkada 13 kubmetr havo yutib chiqaradi. Bu butun bir boshli temir yo'l sisternasi hajmiga teng. Odam ovqat yetmasdan bir oy, suvsiz uch kun yashashi mumkin. Biroq havosiz ikki-uch daqiqadan ortiq yashay olmaydi. Qolaversa, transport vositalaridan chiqadigan is gazi o'simlik va hayvonot dunyosi, suv va tuproqni ham baravar zararlaydi. Ifloslangan havo ta'sirida o'simliklarda modda va energiya almashinuvi buziladi, ekinlar va mevali daraxtlar kam hosil bo'lib qoladi. Bugina emas, is gazi tabiatdagi fotosintez jarayoniga ham salbiy ta'sir o'tkazishi aniqlangan[2].

Avtomobilda atrof muhitni zararlantiruvchi 3 xil manbani ko'rish mumkin: chiqindi gazlar, karter gazlari va yonilg'i parlanishi natijasida hosil bo'ladigan zaxarli moddalar (yonilg'i bakidan, karburatordan va hokazo). Butun dunyo sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga asosan, avtomobil transportini ishlashi natijasida atrof muhitni zararlantirishi quyidagi ko'rsatgichlarga asosan harakterlanadi: masalan



AQSH da har yili 142 mln.t. zararli moddalar atmosferaga chiqsa, buning 86 mln.t si avtomobillarni ishlashi natijasida hosil bo'ladi. Aksariyat zamonaviy avtobillar benzindan foydalaniladi. Tasavvur qiling: bir tonna yoqilg'i yonish jarayonida 800 kg gacha zararli moddalar chiqaradi! Ammo eng achinarlisi, agar avtomobil etilgan benzinda ishlasa. Bunday holda, qo'rg'oshin havoga tushadi, u osongina joylashadi va tuproqni ifloslantiradi. O'zaro bog 'liqlik quyidagicha: xavfli metall erga tushadi, keyin o'simliklarda to'planadi, keyin hayvon yoki odamning tanasiga kiradi. Hujayralarda asta-sekin to'planib, jiddiy kasalliklarga, shu jumladan onkologiyaga olib kelishi mumkin.

Avtomobillarni shovqini natijasida asosan, haydovchining ish qobiliyati susayadi, reaksiya vaqti ko'payadi va hu sababli yo'l transport hodisalari vujudga kelishi mumkin. Qattiq shovqinlar inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ko'z qorachig'i kengayadi, boshi og'riydi, nerv sistemasi ishdan chiqadi, yurak urishi tezlashadi va hokazo. Avtomobillarning asosiy shovqin chiqarish manbalari dvigatel, glushitel, shinalarning ishlashi hisoblanadi. Shinaga tushadigan yuk ko'paygan sari shovqin ham balandlashib boradi. Avtomobildan chiqadigan shovqinlarni kamaytirish uchun dvigatelni avtomobilda joylashgan o'rnini ratsional hal qilish, shovqin yutqich materiallaridan foydalanish avtomobil tizimlari va agregatlarini takomillashtirish orqali shovqinni kamaytirish mumkin.

Avtomobil transportining chiqindi gazlarning zaxarliligini kamaytirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilmoqda: Dvigatel ish rejimini takomillashtirish, har xil yordamchi jihozlardan va yuqori sifatli yonilg'idan foydalanish, sozlash ishlarini bajarish. Kam zararli dvigatellar ishlab chiqarish: gazotrübinali, tashqi yonuvchi-Stirling dvigateli, eletromobillar va hokazo.

Xulosa. Insonlarning ekologik madaniyatini oshirish va avtomobillarning tabiatga zararli ta'sirini kamaytirish bo'yicha maksimal darajada chora tadbirlar ko'rish kerak. Avtomobillarning ekologik sinfini ishlab chiqish va bu sinfni muntazam kengaytirish bo'yicha ishlar olib borish. Avtomobillarning chiqadigan chiqindilarning standart texnik va kimyoviy tarkibini domiy ravishda nazorat qilish. Yo'l harakatini tashkil etish, ko'cha-yo'l tarmog'ini rekonstruksiya qilish, atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan maksimal kontsentratsiyasi normalari va avtotransport harakati natijasida yuzaga keladigan maksimal ruxsat etilgan shovqin darajalari turar-joy binolari hududida ortiqcha bo'lgan taqdirda avtotransport vositalaridan cheklangan miqdorda foydalanish hududlarini joriy etish..

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov,S.R., Qudbiyeva, GA. Q.,Abduraimov, I.A.O.G.L.,& Ibrohimova, O.J.Q.(2022). O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TEMIR YO'L TRANSPORTINI AHAMIYATI. Scientific progress, 3(1), 1121-1131.



2. Behruz Shavkat o'g'li, Ergashev A'zam Anvarovich Alimov, Lochin Ismatilloevich Tilloyev, "Avtomobillardan chiqadigan tutun gazlarning ekologiyaga ta'siri" 2020-yil.

3. Professor Q.M. Sidiqnazarov. "Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi" oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent "Voris nashriyot", 2006-yil.

4. E. Fayzullayev "Transport vositalari tuzilishi va nazariyasi". "Yangi asr avlodi", 2006-yil.

**«BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTEGRATSIYANING O'RNI»****Kobilova Surayyoxon A'zamjonovna***Andijon viloyati Andijon shahar.**5-umumiy o'rta ta'lim maktabi**Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich ta'limda fanlararo aloqadorlik, kichik yoshli o'quvchilar buning natijasida erishadigan natijalar haqida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *fanlararo aloqadorlik, integratsiya, integrativ, boshlang'ich ta'lim.*

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik ta'minlangan sharoitda o'quvchilarning egallagan bilimlari samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. Fanlararo aloqadorlik tushunchasi o'quvchi shaxsida mustaqil ishlash, ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish, darslarda faol ishtirokning yuzaga kelishi orqali bilim, ko'nikma va malakalarni egallayolishda asosiy vosita bo'ladi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida fanlararaloqadorlik asosida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'limda fanlararo aloqadorlikning asosiy maqsadi boshlang'ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo'yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdir. Dars jarayonida o'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv fanlarini qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi.

Fanlararo aloqadorlik o'rnatish uchun o'quv materiali mazmuni mantiqan, psixologik, didaktik, metodik va boshqa jihatlardan tahlil etadi. Pedagogik amaliyotda o'quv materialini mavzular bo'yicha va tarkibiy tahlil etish usullaridan keng foydalaniladi. Aniqlangan fanlararo aloqadorliklar sxematik, jadval, verbal shakllarda qayd etiladi. Biroq, fanlararo aloqadorlikning qanday shaklda qayd etilishi undan foydalanuvchining imkoniyatlariga bog'liq holda shakllantirish lozim. Hozirda maktab ta'limini integratsiyalash, o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dastur tuzish ahamiyati har doimgidanda ahamiyatli hisoblanadi. Bu masalada bizga fanlararo aloqadorlik muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Integratsiyalashgan asosda har bir o'quv fanni o'rganish bolalar uchun kuchliroq bo'lgan psixologik jarayonni faollashtirishga, uning mahkamlanishi, hissiy qabul qilinishi, xotirani mukammallashiga, fikrlash, nutq va tasavvur qilishni rivojlantirishga sharoit yaratadi. Integrativ o'qitishning maqsadi boshlang'ich ta'limda tarbiyalashning rivojlantirish asosi bo'lgan



tabiat va jamiyat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish, ularni rivojlanish qonunlariga o'z munosabatini shakllantirishdan iborat.

Dastlabki boshlang'ich integratsiyalashgan darslar bu ona tili-o'qish, tabiatshunoslik-o'qish, o'qish- musiqa, tabiatshunoslik-matematika, tabiatshunoslik- texnologiya, matematika- texnologiya, matematika-jismoniy tarbiya va hakozi kabi fanlarni qo'shib olib o'tkazishdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga integratsiyalangan darslar o'tish mumkin, chunki bir o'zi hamma fanlarni o'qitadi. O'quvchi qanchalar yosh bo'lsa, u shuncha kam biladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'limda integratsiya imkonlari chegaralangan. Bolalar boshlang'ich ta'limda juda ko'p hodisa, tushuncha, fanlar bilan tanishishadi, lekin ular to'g'risida elementartushuncha olishadi. Keyingi yillarda mavjud bilimlarini to'ldirib va kengaytirib borishadi. Shuning uchun o'qituvchi bir xillikdan qochishi va rang - barang shakl va usullarda dars o'tishi talab etiladi.

Integratsiyalangan darslar charchoqni va taranglikni o'quvchilardan oladi faoliyatning bir turidan ikkinchisiga o'tishi hisobidan ziyraklik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Integratsiyalashgan dars o'qituvchidan qo'shimcha tayyorgarlik, katta bilimdonlik, yuqori kasb mahoratini talab qiladi.

O'qituvchi integratsiyalashgan darsda quyidagilarni e'tiborga olishi kerak:darsning maqsadini, yangi ma'lumot manbalarini, har xil fanlarning ma'lumotlarini birlashtirish, bilimlarning funksional yo'nalishini, fan mazmunini qayta ishlash, eski shakllarni buzish, tizimda alohida bo'lgan elementlar orasida aloqalar yaratish.

Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim maqsadidan biri, o'zi ishlayotgan olam haqida narsa va hodisalar orasidagi bog'liqlik ta'minlashdan iborat. Misol sifatida matematika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini ko'rib o'tamiz.

Bu jarayonda bolalar misollarni ishlab chiqishadi, ishlab bo'lgandan so'ng ular javoblariga qarab, rasm tagidagi ko'rsatmaga binoan bo'yashadi bo'yalgan rasmda tabiat manzarasi hosil bo'ladi. Misol yechish bilan bir qatorda tabiatni asrab-avaylash, uning g'aroyibotlaridan boxabar bo'lish imkoni tug'iladi, ona tabiat go'zalligiga muhabbat uyg'onadi.

Boshlang'ich maktabda fanlararo aloqadorlikni amalga oshiruvchi bo'g'in vazifasini o'qituvchining o'zi bajaradi. U bolalarni arifmetikaga, o'qishga, yozishga, tabiatga, mehnat qilishga va yana ko'pgina narsalarga o'rgatadi, o'z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi.

Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning usullari yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin. Muammoning mohiyati shundaki, usullarning biridan yuz o'girib , ikkinchisida o'qituvchilar pedagogik mahoratini qo'llay olishi natijasida oladigan integratsion usullar kiritishdir. Masalaning bunday qo'yilishi fanlararaloqadorlikning turli ta'lim pog'onalarida turli xususiyatlarga egaligidir.

Boshlang'ich ta'limda integratsiya bir-biriga nisbatan yaqin fanlarning birlashtirilishini ko'zda tutadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumayev E.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi
2. Abduqodirov R, Tolipov R, Xudoyberganov N, Tolipov M.Samarali dars. Ko'p yillik mehnat faoliyatim natijasidan